O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

GEOGRAFIYA KAFEDRASI

«IQTISODIYOT VA MOLIYA» FAKULTETI
Moliya bo'limi 1-kurs talabalari uchun

“IQTISODIY GEOGRAFIYA”

FANIDAN

MA'RUZA MATNLARI.

TERMIZ

Sattorov A. U. Iqtisodiy geografiya (ma'ruzalar matnlari). TDU

Ushbu ma'ruzalar matnlarida «Iqtisodiy geografiya» fanining predmeti, nazariy va amaliy yo'nalishlari, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishni takomillashtirish muammolari ustida to'xtab o'tilgan.

Unda dunyo siyosiy kartasi rivojlanishining asosiy bosqichlari, yirik o'zgarishlar jumladan sosialistik tuzimning parchalanishi natijasida yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi ta'riflangan.

Ma'ruzalar matnlarida dunyo xo'jaligi, xalqaro mehnat taqsimoti va integrasiya masalalari, ITTining dunyo xo'jaligi rivojlanishiga, tarmoq va hududiy tizilmalarining ta'siri ko'rsatilgan.

Dunyo sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti ularning turli mamlakat guruhlarida joylashishi va rivojlanishi bayon etilgan. AQSH, Germaniya, Yaponiya va Rossiyaning iqtisodiy-geografik tavsifi berilgan.

Ma'ruzalar matnlari O'zbekistonning jahon xo'jaligida tutgan o'rni, mehnat resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish muammolari, bozor sharoitida iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanshi va joylashish xususiyatlari, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi atroflicha tahlil etilgan. Har bir mavzuga tegishli tayanch iboralar hamda adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Ma'ruzalar matnlari iqtisodiy yo'nalish mutaxassiligida o'qiyotgan talabalarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: g.f.n. dos. Safarov O’.

Taqrizchilar: k.o'q. Toshpo’latova. G.
k.o'q. Umarova M.

Tuzuvchilar: Q. Allanov
X. Abdunazarov
A. Sattorov
A. Choriyev
Z. Xolmatov

KIRISH

Kelajagi buyuk davlat O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti har tomonlama yetuk, jahon talablariga javob beradigan iqtisodchilarni ta'minlash, ularni tayyorlashda iqtisodiy ta'lim yo'nalishidagi boshqa fanlar qatorii «Iqtisodiy geografiya» fani ham katta o'rin tutadi. U bo'lajak iqtisodchilarga tabiiy resurslar, ularning jahon va O'zbekiston bo'yicha tarqalishi, jahon va O'zbekiston aholisi, jahon sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti va xalqaro iqtisodiy aloqalar to'g'risida bilim beradi.

«Iqtisodiy geografiya» fani bo'yicha tayyorlangan mazkur darslik ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi jahon iqtisodiy geografiyasi, ikkinchi qismi esa, O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi masalalariga bag'ishlangan.

Birinchi qismning asosiy vazifasi talabalarga «Iqtisodiy geografiya» fani, uning maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqasi, ishlab chiqarish kuchlari, siyosiy xarita, jahon aholisi, jahon xo'jaligi va uning tarmoqlari rivojlangan davlatlarning xo'jaligi haqida bilimlar berish, ularda tegishli ko'nikmalarni shakllantirish hamda malaka hosil qilishdir.

Ikkinchi qism, ya'ni «O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi»ning asosiy maqsadi talabalarni Vatanimiz tabiati va tabiiy resurslari, ularning ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishga ta'siri, mamlakatimiz aholisi, mehnat resurslari, fani, madaniyati rivoji, sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti, xizmat ko'rsatish sohalari, tashqi iqtisodiy va madaniy aloqalari bilan tanishtirishdan iborat.

Ma'ruzalar matnlarining ushbu qismini yozishda A.Ro'ziyev va Q.Abirqulovlarning 2002 yilda «Sharq»

nashriyotida chop etilgan «O'zbekiston iqttisodiy geografiyasi» o'quv qo'llanmasidan foydalanildi.

Ma'ruzalar matnlari iqtisodiy ta'lim yo'nalishidagi mutaxassislar uchchun birinchi marotaba tayyorlanayotganligi bois unda muayyan kamchiliklar uchrashi tabiiy. Bu haqdagi samimiy fikr va mulohazalaringiz uchun oldindan minnatdorchilik bildirgan holda ularniquyidagi manzilga jo'natishingizni iltimos qilamiz:

Termiz, Termiz Davlat Universiteti, «Geografiya» kafedrasi.

I bo'lim. «IQTISODIY GEOGRAFIYA»NING NAZARIY ASOSLARI

I mavzu. «IQTISODIY GEOGRAFIYA» KURSINING PREDMETI, USULLARI VA VAZIFALARI

1.1. «Iqtisodiy geografiya»ning predmeti, uning boshqa fanlar orasida tutgan o'rni

«Iqtisodiy geografiya» fanining predmeti. «Iqtisodiy geografiya» - ishlab chiqarish kuchlarining butun dunyo, mamlakatlar, mintaqalar bo'yicha hududiy joylashishi va rivojlanishi muammolarini o'rganuvchi fandir.

«Iqtisodiy geografiya» fani ishlab chiqarishning hududiy muammolarini tabiiy va iqtisodiy sharoitga bog'liq holda o'rganadi; dunyo hamda turli mamlakatlar va mintaqalarda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va hududiy tashkil etish xususiyatlarining ob'yektiv qonuniyatlarini asoslab beradi; ishlab chiqarishning joylashishi va rivojlanishi xususiyatlarini o'rganish jarayonida mamlakatlar hududida iqtisodiy rayonlarning vujudga kelishi, ular o'rtasida iqtisodiy aloqalarning shakllanishi va rivojlanishini izohlaydi; shuningdek ayrim mamlakatlar va hududlar xo'jaligining tasnifini aniq iqtisodiy-statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida o'rganib, qisqacha ilmiy xulosalar chiaradi va tavsiyalar beradi.

Ishlab chiqarishning geografik muamolarini hal qilish borasida «Iqtisodiy geografiya» xalq xo'jaligi, uning tarmoqlarini strategik rejalashtirish uchun xo'jalik ob'yektlarini maqsadga muvofiq joylashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarini

rivojlantirishning istiqbollarini bashorat qilish bilan bog'liq bo'lgan qator muommalarni o'rganadi.

Ishlab chiqarishni joylashtirish qonuniyatlari ijtimoiy formasiyalarning rivojlanish qonuniyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy ishlab chiqarishning geografik muamolarini tadqiqot qilish ijtimoiy mehnat taqsimotini keng ko'lamda, ya'ni hududiy mehnat taqsimotini tahlil qilish bilan aniqlanadi.

«Iqtisodiy geografiya» mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish sharoiti va xususiyatlari, ularda iqtisodiy rayonlarning, mamlakatlar va yirik iqtisodiy rayonlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarning shakllanishi haqida tushuncha beradi; aniq ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish yo'li bilan mamlakatlar va mintaqalarda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va hududiy tashkil qilish xususiyatlarining ob'yektiv qonuniyatlarini izohlaydi.

Iqtisodiy-geografik tadqiqotlarda mahalliy, tabiiy va iqtisodiy sharoitlarni o'rganishga katta ahamiyat beriladi. Bunday izlanishlar mamlakatimizni, qo'shni mamlakatlarni va butun dunyoni bilishda muhimdir. Ular bo'lajak iqtisodchi mutaxasislar dunyoqarashining shakllanishida, umumiy bilimini, ayniqsa iqtisodiy bilim saviyasini oshirishda katta rol o'ynaydi.

«Iqtisodiy geografiya»ning boshqa fanlar orasida tutgan o'rni. «Iqtisodiy geografiya» geografiya fanlari tizimiga kiradi. U «Tabiiy geografiya», «Tarix», «Iqtisod va statistika» fanlari bilan uzviy ravishda bog'langan.

«Iqtisodiy geografiya» ijtimoiy, geografik, tabiiy geografiya esa tabiiy fan hisoblanadi. «Iqtisodiy georgrafiya» va «Tabiiy geografiya» o'rtasida uzviy hamkorlik mavjud «Iqtisodiy geografiya» tabiiy sharoit va resurslarga iqtisodiy baho berishning ilmiy asoslarini ishlab chiqadi.

Geografiya fanlari bo'yicha tadqiqot va o'quv ishlari olib borish uchun «Iqtisodiy geografiya»ning «Tabiiy geografiya» bilan uzviy hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ayrim mamlakat va mintaqalarga ta'rif beruvchi mamlakatshunoslik ishlarini tashkil qilishda ham bu hamkorlikning roli katta.

Ijtimoiy fanlar turkumiga kiruvchi «Iqtisodiy geografiya» uchun nazariy ahamiyatga ega bo'lgan umumiqtisodiy fanlarning qisqacha xulosalari muhimdir. Tarmoqlar iqtisodiyoti bilan shug'ullanuvchi fanlar, ya'ni ishlab chiqarish sharoiti, xalq xo'jalik tarmoqlarida ishlab chiqarishni tashkil qilish va rivojlantirish, texnik-iqtisodiy asoslari, ishlab chiqarishni joylashtirishning xususiyatlari va omillari, ishlab chiqarishda tannarx va boshqalar bilan shug'ullanuvchi aniq iqtisodiyot fanlari ko'p masalalarda «Iqtisodiy geografiya» bilan aloqada bo'ladi.

«Iqtisodiy geografiya» fani ijtimoiy-iqtisodiy formasiyalar bo'yicha ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishini tahlil qilish davomida tarixiy usullardan foydalanadi. «Tarix» fani esa jamiyatning rivojlanishi va tarixiy jarayonlarni tadqiq etayotganda tabiiy va atrof-muhit haqidagi ma'lumotlarni «Iqtisodiy geografiya» fanidan oladi.

1.2. «Iqtisodiy geografiya»ning nazariy asoslari, ilmiy konsepsiyalari va uslublari

«Iqtisodiy geografiya» geografik tadqiqotlarini tarixiy-ijtimoiy tahlillar asosida olib boradi. Bu borada, u albatta, hozirgi davrda ishlab chiqarishni joylashtirish masalalarida tarixiy ma'lumotlarga (ayniqsa, sanoat va qishloq xo'jaligi mintaqalari, transport yo'llari, aholini joylashtirish, shaharlar, mehnatga layoqatli aholi va boshqalarga nisbatan) tayanadi,

rivojlanish darajasini, dinamikasini aniqlash maqsadida ishlab chiqarishni solishtiradi, baholaydi va insonning tabiiy muhitga ta'sirini tahlil qiladi.

Ayrim jihatlarni o'rganish uchun «Iqtisodiy geografiya» ikki qismga – «Umumiy iqtisodiy geografiya» va «Rayonlar iqtisodiy geografiyasi»ga bo'linadi. «Umumiy iqtisodiy geografiya» qismida tizimning umumiy masalalari, mamlakatlarning xo'jalik geografiyasi va asosiy tarmoqlar geografiyasi o'rganiladi. «Rayonlar iqtisodiy geografiyasi» qismida esa tegishli mamlakatning ayrim hududlari xo'jaligi va iqtisodiy rayonlari o'rganiladi. Mamlakatlarni majmuali o'rganishda ikkala qism ham bir-birini to'ldiradi. Ayni vaqtda mamlakatlar xo'jaligi va bu xo'jalik tarmoqlarini tadqiqot qilishdagi umumiy masalalarni o'rganish tegishli mamlakatning ayrim hududlari va iqtisodiy tumanlari xo'jaligini o'rganish uchun juda zarur hisoblanadi.

«Iqtisodiy geografiya» ishlab chiqarishni joylashtirishni o'rgana borib, hududiy ishlab chiqarish majmualarining shakllanishi va rivojlanishini keng ko'lamda tadqiq qiladi. **Hududiy ishlab chiqarish majmualar – bu tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, tarixiy xususiyat va iqtisodiy-geografik o'ringa ega bo'lgan aniq hududda ishlab chiqarish tarmoqlarining uyg'unlashganligidir.**

«Iqtisodiy geografiya»ning quyidagi ilmiy konsepsiyalari mavjud:

- iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi – muayyan mamlakat, iqtisodiy rayonlarning murakkab tizimi bo'lib, shakllanishi qonuniy tarzda shakllanadi;
- hududiy ishlab chiqarish majmualari konsepsiyasi – ishlab chiqarish korxonalari aholi yashash joylarini

chegaralangan hudud yoxud iqtisodiy rayon yoki kichik rayon hududida o'zaro uygunlashuvi;

- energiya ishlab chiqarish sikllari konsepsiyasi – rayon barpo etuvchi qonuniyatlar sikli.

Ushbu konsepsiyalar iqtisodqiy-geografik izlanishlarda o'z aksini topadi.

«Iqtisodiy geografiya» ijtimoiy-iqtisodiy, hududiy tizimlarni o'rganishda dasturli-maqsadli, tizimning tahlili, balans (muvozanat), kartografik, iqtisodiy-matematik modellashtirish, qiyosiy-geografik, iqtisodiy-geografik bashoratlash usullaridan foydalaniladi.

1) *Dasturiy-maqsadli usul* bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida juda muhim bo'lib, majmuaning kechiktirib bo'lmaydigan va umummanfaatlarni ko'zlagan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish dasturi va maqsadi bilan uzviy bog'liq; 2) *Tizimning tahlil usuli* bosqichma-bosqich tamoyiliga asoslangan bo'lib, har bir hududiy tizim, ayniqsa, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, joylashish hususiyatlarini o'rganish bo'yicha ma'lum maqsad va vazifalarni qamrab olgan; 3) *Balans usuli* «Iqtisodiy geografiya»ning asosiy usullaridan biri. Ushbu usul yordamida regionlarning resurs va mahsulotga, ishchi kuchiga bo'lgan talabini aniqlash xususan, ayrim hududlar o'zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan o'z ehtiyojini qondiralayotganligi yoki qondira olmayotganligi, zarur mahsulotlarni keltirish yoki olib ketish qo'lami darajasini baholash, shuningdek, region ho'jalik majmui rivojlanishidagi nomutanosiblikni va uni bartaraf etish yo'llari aniqlanadi; 4) *Kartografik usul* «Iqtisodiy geografiya»ning maxsus usullaridan hisoblanadi. Xarita – bilim manbai va o'rganish ob'yektidir. Hududiy, iqtisodiy geografik jarayonlar va ayrim mamlakatlar miqyosida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish

hususiyatlarini eng ko'rgazmali tarzda faqat geografik xarita namoyon etishi mumkin; 5)*Iqtisodiy-matematik modellashtirish usuli* ho'jalik tarmoqlarining rivojlanishi va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish muammolari bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlar jarayonida keng ko'llaniladi; 6)Qiyosiy *geografik usul* qator hududiy birliklarni turli ko'rsatkichlar asosda bir-biri bilan taqqoslashdir; 7)*Iqtisodiy - geografik bashoratlash usuli* mamlakatlar, ularning hududlari kelajakda majmuali rivojlanishini turli ko'rsatgichlar tahlili orqali belgilashga yordam beradi.

«Iqtisodiy geografiya» ijtimoiy –iqtisodiy, hududiy tizimlarni o'rganishda bulardan tashqari o'zi uzviy aloqada bo'lgan boshqa fanlarning usullari va hulosalaridan ham keng foydalanadi.

«Iqtisodiy geografiya»ning asosiy vazifalari. Ma'lumki, tabiatning jamiyat rivojlanishiga, moddiy ishlab chiqarishning o'sishiga, ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashishiga ta'siri hal qiluvchi holat emas. U jamiyatning rivojlanishiga turli ishlab chiqarish usullari va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylashishiga qarab turlicha ta'sir qiladi. Shuning uchun ijtimoiy ishlab chiqarish joylashtirilishini o'rganishda geografik muhit va bu muhit elementlarining hududlardagi o'zaro ta'sirini hisobga olish kerak.

«Iqtisodiy geografiya» uchun tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liq umumiy masalalar bilan bir qatorda turli tabiiy muhitning ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta'sirini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

«Tabiiy geografiya» bilan uzviy hamkorlikda va aniq tarmoqlar iqtisodiyoti ma'lumotlariga tayangan holda hududlar tabiiy sharoitiga iqtisodiy baho berish va undan samarali

foydalanish yo'llarini aniqlash «Iqtisodiy geografiya»ning asosiy vazifalaridan biridir.

Iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishining umumiy rejasidan kelib chiqqan holda ma'lum bir hududda ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirish hamda hududiy ishlab chiqarish majmualarini tashkil qilish ko'zda tutiladi. Shuning uchun geografik muhitni xo'jalik yuritishda foydalanish imkoniyati nuqtai nazaridan baholash va uni oqilona o'zlashtirish muammolari «Iqtisodiy geografiya»da muhim o'rin egallaydi.

1.3. «Iqtisodiy geografiya»ning rivojlanish tarixi

«Iqtisodiy geografiya» fan sifatida nisbatan yaqinda – 1200-250 yil avval shakllangan. Lekin uning manbalari va kurtaklarining paydo bo'lishi uzoq davolarga borib taqaladi. Chunki iqtisodiy-geografik ma'lumotlar qadimgi manbalarda (sayohatnomalar, zafarnomalar, yilnomalar, ilmiy asarlar va h.k.larda) juda ko'p uchraydi. Erotafonning (miloddan avvalgi III asr) «Geografika» nomli asarining uchinchi qismi ham ayrim mamlakatlar ta'rifiga bag'ishlangan. Qadimgi davlarda «Geografiya» fani ayrim mamlakatlarning, joylarning tabiati, aholisi va xo'jaligi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bilimlar to'plamidan iborat bo'lgan.

O'rta asrlarda iqtisodiy-geografik bilimlar Al Xorazmiy («Kitob Sur'at al-Az»), Beruniy («Hindiston»), Bobur («Boburnoma») va boshqa olimlarning asarlarida chuqurlashtirilgan.

Yevropada «Iqtisodiy geografiya» fan sifatida XVI asrdan shakllana boshlagan. Uning rivojlanishiga fransuz olimi J.Boden, italiyan olimi L.Tviggerdi, golland olimi B.Varens muhim hissa qo'shishdi. Fransuz olimi J.Boden 1564 yilda

yozgan yirik geografik asarida sharq geografiyasidagi geografik muhitning jamiyat rivojlanishiga ta'siri muammosi qaytadan ko'rib chiqildi, Italiya olimi L. Tvichchardining «Niderlandiya tavsifi»(1567 yil), Golland olimi B. Varenusning «Bosh geografiya» (1650 yil) nomli asarida ham iqtisodiy geografiyaga oid qator muammolar ilmiy yechimini topdi.

«Iqtisodiy geografiya» ilmiy atamasini fanga birinchi bo'lib rus olimi M.V.Lomonosov XVIII asrda olib kirdi. U iqtisodiy xaritashunoslikning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Fransuz olimi Lui Monteskye tabiiy sharoitning jamiyat rivojlanishiga ta'sirini o'rganish bo'yicha juda muhim ilmiy ishlar olib bordi. Mazkur muammo bilan nemis olimlari I.Kant, G.F.Gegel ham shug'ullangan.

XIX asrning ikkinchi yarmida ayrim davlatlarda sanoat tez sur'atlar bilan rivojlanish natijasida yirik geografik asarlar vujudga keldi. Bu davrda olimlardan A.Gumbold sanoatning tabiatga ta'siri masalalariga, K.Ritter esa tabiat va inson aloqalari muammolariga katta e'tibor berishgan.

XX asrda «Iqtisodiy geografiya»ning rivojlanishi N.N.Komosovskiy, N.N.Baranskiy, N.P.Nikitin, V.V.Pokshishevskiy, YU.G.Saushkin, E.B.Alayev, B.S.Xorev va boshqalarning,O'zbekistonda o'tgan asr boshlarida yashagan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidov, Abdulla Avloniy va boshqalarning nomlari bilan bog'liq.

Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan XX asr boshlarida «Geografiya»dan qator darsliklar va asarlar yozilgan. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistonda «Aholi geografiyasi»ning asoschisi hisoblanadi. U «Madxali jug'rofiyai imroniy» («Aholi geografiyasiga kirish»), «Muntaxabi jug'rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy

geografiyasi»), «Muxtasarii jug'rofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha jug'rofiyasi») nomli darsliklar muallifidir.

O'zbekistonda 1920-30 yillarda «Iqtisodiy geografiya» va umuman, «Geografiya» fanining rivojlanishida quyidagi olimlarning ishlari muhim o'rin tutadi: N.Balashov («O'zbekiston va unga qo'shni jumhuriyatlar hamda viloyatlar», 1925 y.), N.P.Arxangelskiy («Jug'rofiya – o'lkani o'rganish darsligi», 1933 y.), A.Obizov («O'zbekiston sho'rolar jumhuriyati jug'rofiyasi», 1933 y.).

XX asrning ikkinchi yarmida va hozirgi paytda O'zbekistonda «Iqtisodiy geografiya» fanining rivojlanishi Z.M.Akromov, O.B.Otamirzayev, A.S.Soliyev, Q.Abirqulov, X.S.Salimov, A.R.Ro'ziyev, A.Qayumov, SH.Inomov, H.Abdullayev va boshqalarning nomlari bilan bog'liq.

Qisqacha xulosalar

«Iqtisodiy geografiya» fani geografiya fanlari tizimiga kiruvchi ijtimoiy fandir. U:

- «Tabiiy geografiya» bilan hamkorlikda ishlab chiqarish rivojlanadigan geografik muhitni, ya'ni tabiat bilan jamiyatni o'zaro ta'sirini;
- aholining joylashishini, mehnat resurslarini, shahar va qishloqlarni, aholi tarkibini, ko'payishini va harakatini;
- jahon, shu jumladan, davlatlarning iqtisodiy-geografik sharoitini;
- iqtisodiy rivojlantirish nazariyasini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- mehnatning hududiy taqsimotini o'rganadi, davlatlarni guruhlashtiradi va h.k.lar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. «Iqtisodiy geografiya»ning predmetini izohlab bering.
2. «Iqtisodiy geografiya»ning nazariy asoslarini ta'riflang.
3. «Iqtisodiy geografiya»ning asosiy ilmiy uslublarini sanang.
4. «Iqtisodiy geografiya» boshqa fanlar o'rtasida qanday o'rin tutadi?
5. «Iqtisodiy geografiya»ning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
6. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylashishida tabiiy sharoitlar ahamiyatga ega?

II mavzu. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA ISHLAB CHIQARISHNI JOYLASHTIRISHNING QONUNIYATLARI, SHAKLLARI VA OMILLARI

2.1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va hududiy rivojlanish qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:

1. Ishlab chiqarishni hududiy oqilona tashkil etish qonuniyati. Unga muvofiq:

- ishlab chiqarish korxonalarini ITTning yutulari asosida, iloji boricha manbalarga yaqin joylashtirish kerak. Masalan, suvni ko'p talab qiladigan tarmoqlarni imkon qadar yirik va samarali suv manbalariga yaqin joylashtirish maqsadga muvofiq;
- -mehnatni ko'p talab qiluvchi (sermehnat) tarmoqlarni esa mehnat resurslari shakllangan markazlarga yaqinroq;
- -kundalik istemol qilinuvchi mahsulot ishlab chiqarish korxonalarini istemolchilarga yaqinroq joylashtirish kerak va h.k.lar.

2. Ishlab chiqarishning hududiy ixtisoslashuvi va kooperasiyalashuvi qonuniyati. Bunda biron bir hudud ichida ixtisoslashuv va korxonalar o'rtasida eng takomillashgan ishlab chiqarish aloqalarini o'rnatish hamda ularni tashqi iqtisodiy aloqalarda keng ishtiroki ko'zda tutilgan.

3. Hududlarning majmuali rivojlanish qonuniyati. Hududning (respublika, viloyat, iqtisodiy tuman) kompleks rivojlanishi deganda, xo'jalikdagi mutanosiblik, ishlab chiqarish korxonalarining mahalliy tabiiy va iqtisodiy sharoitga mosligi,

ixtisoslashgan tarmoqlar, infratuzilmasini, turli ko'lamdagi shaharlarning rivojlanishi, tabiiy muhitni muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va hokazolar nazarda tutiladi.

4. Ishlab chiqarishni hududlarda iloji boricha bir me'yorda joylashtirish yoki hududlarning ixtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tenglashtirish qonuniyati. Unga ko'ra respublikamiz hududlarining iqtisodiy rivojlanishini bir-biriga tenglishtirish, ya'ni mamlakatimizda ishlab chiqarish kuchlarini bir me'yorda joylashtirib, kelajakda aholi turmush darajasini oshirish asosiy maqsad qilib olinadi.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda yuqoridagi qonuniyatlar asosida yondashilsa xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida mehnat unumdorligi oshadi, iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

2.2. Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakllari

Ishlab chiqarishni tashkil etishning barcha shakllari – mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kooperasiya va kombinasiya ayni paytda ijtimoiy va hududiy jihatlarga ega. Bunda ishlab chiqarishning hududiy tomoni yetakchi rol o'ynaydi. Shunga qaramasdan bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bu jarayonlarni uyushtirgan holda o'rganish, tahlil qilish, biridan ikkinchisiga o'ta bilish geografik fikrlashning muhim hususiyatidir.

Mujassamlashuv yoki ishlab chiqarishning to'planishi geografik jihatdan eng avvalo, moddiy sohalar – sanoat, qishloq xo'jalik, transportda yaqqol nomoyon bo'ladi. Fan ob'yektini aynan shu tarmoqlarning hududiy tashkil etilishi, joylashish xususiyatlari belgilab beradi. Ijtimoiy ob'yektlarning hududiy tashkil etilishi esa xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida turlicha bo'ladi.

Mujassamlashuv darajasining yuqori yokia pastligi ayni paytda ma'lum bir sohaning rivojlanganlik darajasini belgilaydi.

Ixtisoslashuv mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlarning tarkib topishi bilan chambarchas boliqdir.Uning **uch bosqichi - *korxona, shahar va tuman*** miqyosidagi ixtisoslashuvi, shuningdek, **uch turi – qism (detal); texnologik yoki yarim mahsulot** va **predmet** (tovar mahsulot ishlab chiqarish) ixtisoslashuvi mavjud. Ixtisoslashuv bosqichlari korxona, shahar va tumanlarning mehnat taqsimotidagi o'rnini belgilab beradi, turlari esa, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, turli hududiy bosqichda o'zgacha xususiyatga ega bo'ladi. Ixtisoslashuv natijada xalq xo'jaligi tarmoqlari vujudga keladi, iqtisodiy rayonlar, shaharlarning funksional turlari shakllanadi.

Kooperasiya – bir mahsulot yaratish uchun turli korxonalarning hamkorligi bo'lib, bunda ularning tarmoq holda joylashuvi kuzatiladi.Bunda qatnashuvchi korxonalar soni vujudga kelayotgan mahsulotning murakkabligiga boliq bo'ladi.

Kombinasiya **-** kooperasiyaga o'xshab korxonalar birlashmasidan iborat. Bunda tarqoq holda joylashgan birlik emas, balki ularning hududiy umumiyligi tushuniladi. Kooperasiyada mahsulot bir bo'lsa, kombinasiyada aksincha, xom ashyo bir bo'lib, undan olingan mahsulot turlicha bo'ladi. Kombinatlashuv ma'lum turdagi xom ashyoni chuqur texnologik qayta ishlagan holda mahsulotlar ishlab chiqarishni anglatadi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish sharoitida ishlab chiqarishni tashkil etishning barcha shakllaridan to'g'ri va oqilona foydalanish zarur.

2.3. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning asosiy omillari

Iqtisodiyot tarmoqlari ma'lum shart-sharoitlar va omillarni hisobga olgan holda joylashtiriladi va hududiy tashkil etiladi. Bu omillarni yaxshi bilish ishlab chiqarishning hududiy tarkibi va tizimining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishga asos bo'ladi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda xom ashyo, Yoqilg'i, elektr energiya, suv, iqlim, mehnat resurslari, iste'mol va transport, iqtisodiy-geografik o'rin kabi omillar e'tiborga olinadi. Shuningdek, ekologiya, ITT va bozor iqtisodiyoti omillarining bu boradagi ahamiyati ham oshib bormoqda.

Ushbu omillarni tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik guruhlarga birlashtirish mumkin. Ularning mohiyati va ta'sirchanligi jamiyat rivojlanishi bilan o'zgarib turadi. Ayni paytda ijtimoiy va ekologik omillar ishlab chiqarishni bozor iqtisodiyoti munosabatlari asosida tashkil etishda ustuvor o'ringa ega bo'lmoqda.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda barcha shart-sharoitlar hisobga olinishi zarur,lekin ma'lum tarmoqni hududiy tashkil etishda barcha omillar emas, balki ulardan ayrimlarigina yetakchi rol o'ynaydi.

Xom ashyo omili. Ayrim mahsulotlarni olish uchun xomashyo ko'proq sarflanadi. Shuning uchun bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar mumkin qadar xomashyo rayonlariga yaqin joylashtiriladi. Xom ashyoga asoslangan sanoat tarmoqlarining geografiyasini o'rganish eng avvalo, mamlakat tabiiy sharoiti va boyliklarini bilishni talab etadi.

Yoqilg'i-omili. Issiqlik elektr stansiyalari qora metallurgiya sanoatining dastlabki bosqichini joylashtirishda

asosiy rol o'ynaydi. Ammo uning ta'siri har doim yetakchi kuchga ega emas. Bunday hol neft va uning mahsuloti mazut, tabiiy gaz asosida ishlovchi issiqlik elektr stansiyalarini qurishga taalluqli bo'ladi.

Elektroenergiya omili. Bu sohaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u yaratgan mahsulot - elektr quvvatini jamg'arib, omborxonalarda yig'ib bo'lmaydi, undan ayni paytning o'zida foydalanish kerak. Bundan tashqari elektr quvvati yuqori kuchlanishli bo'lib, tarmoqlar orqali uzoq masofalarga berilishi mumkin. Xuddu shu maqsadda yirik ko'mir havzalarida yirik Yoqilg'i energetika majmualari barpo etilgan. Odatda, elektr quvvati omilini ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishida eng avvalo, uning arzon turiga ustunlik beriladi. Arzon elektr quvvati gidroelektro-stansiyalaridan olinadi, chunki bunda suv keyin ham suvligicha qolaveradi, Yoqilg'i elektr stansiyalarida esa ko'mir, mazut yoki tabiiy gaz sarflanadi. Elektr quvvati omiliga quyidagi misollarni keltirish kifoya: 1tonna titan ishlab chiqarish uchun 40-50 ming kvt-s, shuncha alyuminiy ishlab chiqarish uchun 17-19 ming kvt-s, misni tozalash, temir qotishmalarini ishlab chiqarish, elektr pechlarida po'lat eritish uchun ularning har bir tonnasiga 8-10 min kvt-s atrofida elektr quvvati sarflanadi. Tabiiyki, bunday korxonalarning arzon elektr quvvati manbalariga yaqin joyda qurilishi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'ladi.Demak, elektr quvvati bir qator sanoat korxonalarini o'z atrofiga omil sifatida "yig'ar" ekan. Shu sababli u yirik rayon va majmua hosil qilish qudratiga ega.

Suv va iqlim sharoiti ham ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda katta ahamiyatga ega. Suv manbalari ayniqsa kimyo, Yog'och-selyulyuza, metallurgiya zavodlarining faoliyatiga sezilarli ta'sir qiladi.

Suv va iqlim sharoitlari boshqa sanoat korxonalarini qurishda ham e'tiborga olinadi. Bu omilning ahamiyati qishloq xo'jaligi uchun muhim hisoblanadi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasida an'anaviy dehqonchilik issiq va quruq iqlimiy sharoitida faqat sun'iy sug'orish asosida olib boriladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar orasida eng **muhimi, aholi va mehnat resurslaridir.** Bu o'rinda ikki holni qayd qilish lozim: birinchidan, shunday korxonalar borki, ularga son jihatidan ko'p ishchi kerak. Masalan, tikuv fabrikasi, konserva ishlab chiqarish, paxta yetishtirish va uni qayta ishlash va h.k. Boshqa korxonalarga esa, mehnat resurslarining miqdori ko'p bo'lishi shart emas, ularda "oz" va "soz" malakali ishchi kuchi talab qilinadi. Masalan, radio va asbobsozlik, aniq mashinasozlik va h.k.lar. malakali ishchi kuchi mavjud bo'lgan shaharlarda, ilmiy texnik markazlarda joylashtiriladi.

O'zbekistonda mahalliy aholining tabiiy ko'payishi darajasi yuqoriligi, migrasion harakati faolsizligi mehnat zahiralari ko'plab shakllanishiga olib keladi. Shu sababli ularning miqdori ko'p bo'lgan qishloq joylarda, shaharlarda yangi sanoat korxona va boshqa korxonalarni, madaniy-maishiy muassasalarni tashkil etish zarur.

Aholi faqat ishchi kuchi emas, balki u eng avvalo, "iste'molchi" hamdir. Bu omilning roli esa hozirgi kunda keskin oshib bormoqda. Shu sababli iste'mol omili korxonalarni o'ziga "tortadi". Iste'mol omili faqat xalq ehtiyoji bilan belgilanmaydi. Ishlab chiqarishning o'z talabi, boshqa hil mahsulotlarning keng miqdorda sarflanishi, ularni transportda keltirishning noqulayligi ham bunday korxonalarni iste'mol rayonlarida barpo etishni nazarda tutadi.

Transport ham juda muhim, chunki u ishlab chiqarishning bevosita davom ettiruvchi tarmog'i hisoblanadi. Shuning uchun

transportning ahamiyati barcha boshqa omillar bilan qo'shilib, uyg'unlashib ketadi va uni "sof" holda ajratib olish qiyin. Shu bilan birga transport masalasi iqtisodiy-geografik omil bilan ham chambarchas bog'liq. Bu ob'yektning eng avvalo, tashqi (hududiy) iqtisodiy munosabatlarini anglatadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot omilining ta'siri bir qator tarmoqlarni hududiy tashkil etishda aniq namoyon bo'ladi. Masalan,mashinasozlik, elektrotexnika va kimyo sanoat tarmoqlariga tegishli ko'pgina korxonalar yuksak darajada ilmiy texnika qudratiga ega bo'lgan shaharlarda joylashtiriladi.

Yuqorida ko'rilgan omillarning ahamiyati katta. Ammo ularning barchasi provard natijada **ekologik omil** bilan "hisoblashishlari" kerak. Hozirgi kunda ayrim sanoat korxonalarining ishlashi shu nuqtai nazardan to'xtatilganligi bejiz emas. Ekologik jihatdan kimyo, Yog'och-sellyuloza, go'sht, konserva, charm zavodlari, issiqlik elektrostansiyalari aholi joylashgan markazlardan uzoqroqda bo'lgani yaxshi. Bu omil bilan hozirgi kunda hisoblashmasdan iloji yo'q.

Bozor iqtisodiyoti omilini ishlab chiqarish tarmoqlarining hududiy tashkil etishga nisbatan tahlil etar ekanmiz, unda bu borada an'anaviy fikr yuritish tarzimiz tamomila o'zgarib ketadi. Chunki bu sharoitda nimaga ixtisoslashuvni va qayerda joylashtirishni provard natijada bozor, raqobat, talab va taklif belgilaydi, davlat esa regional (hududiy) va soliq siyosati orqali bu jarayonni boshqarib yoki tartibga solib turadi.

Qisqacha xulosalar

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari o'zarishi ko'rsatilgan.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari quyidagilardan iborat: hududiy tashkil etish; hududiy ixtisoslashuv; hududlarning majmuali (kompleks) rivojlanish qonunlari. Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakllariga mujassamlashuv, ixtisoslashuv va kooperasiya kiradi. Ishlab chiqarish quyidagi omillarni hisobga olgan holda tashkil etiladi: xom ashyo, Yoqilg'i, elektroenergiya, suv va iqlim, ijtimoiy-iqtisodiy, transport, ilmiy-texnik taraqqiyot va ekologik, bozor iqtisodiyoti omillari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tgach ishlab chiqarishni joylashtirishda qaysi omillar muhim rol o'ynaydi?
2. Ishlab chiqarishning hududiy ixtisoslashuvi deganda nimani tushunasiz?
3. Qaysi sanoat tarmoqlari xom ashyo manbalariga yaqin quriladi?
4. Qanday omil priborsozlik va elektronika sanoatini joylashtirishga kuchli ta'sir etadi?
5. O'zbekistonda avtomobil zavodini qurishda qanday omil hisobga olingan?
6. Ekologik omil Markaziy Osiyo sharoitida qanday ahhamiyatga ega?

II bo'lim. JAHON IQTISODIY GEOGRAFIYASI

III mavzu. HOZIRGI ZAMON DUNYO SIYOSIY XARITASI

3.1. Dunyo siyosiy xaritasining ahamiyati va o'ziga xosligi

Siyosiy xaritaning ahamiyati g'oyat katta bo'lib, u mamlakatlarning xalqaro o'rnini, dunyoda egallagan mavqeini, ichki siyosiy-mamuriy strukturasi xususiyatlarini o'zida yaqqol aks ettiradi.

Mamlakatlar va xalqlarning butun hayoti ularning davlat (siyosiy) chegaralari belgilangan o'z hududlarida o'tadi. Ularni aynan shu yo'nalishda o'rganish iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy geografiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bir tomondan, dunyo va regional muammolar ayrim mamlakatlarning muammolaridan o'sib chiqadi va shakllanadi, boshqa tomondan esa, ularning rivojlanishi boshqa ko'plab mamlakatlarga bevosita katta tasir ko'rsatadi. Shu munosibat bilan O'zbekiston Respullikasi prezidenti I.A.Karimovning quyidagi fikrini eslash o'rinlidir: «SSSR parchalanib ketgandan keyin bizning irodamiz va intilishimizga bog'liq bo'lmagan holda O'zbyokiston amalda front yaqinidagi davlatga aylanib qoldi. Uning tashqi chegaralaridagi Afg'aniston va Tojikistonda so'nggi yillarda yuz minglab insonlar hayotiga zomin bo'lgan tanglik o'chag'i alanga olib turibdi (1).

Afg'onistondagi harbiy-siyosiy tanglik, Tojikistondagi beqarorlik bugun Markaziy Osiyodagi mintaqaviy barqororlikning holatiga ham, jumladan, O'zbekistoning milliy xavfsizligiga ham salbiy tasir ko'rsatmay qolmaydi.

Shu bilan bir qatorda halqaro hayotda siyosiy, iqtisodiy (shu jumladan, sanoat, transport va boshqa sohalardagi xo'jalik qurilishlari), egalik mumolarini bir nechta davlatlarning birgalikdagi sa'yi-harakatlari, umumiy mablag'lar hisobiga hal etish yo'llari tabora ko'payib barmoqda. Bunday muammolar yechimi davlat chegaralaridan tashqariga chiqmoqda, chegaralar esa davlatlarni ajratib turadigan to'siqlardan o'zaro aloqa, hamkorlik chiziqlariga aylonmoqda. Lekin chegaralar

ochiqligi davlat hududlari suverenitetining tugaganligini aslo ko'rsatmaydi.

Mustaqil davlatlarning tashkil topishi, shakllanishi, rivojlanishi, shuningdek, ularning barbod bo'lishi yoki suverinetining tugatilishi, o'zgarishi yoki tubdan o'zgartilishi va boshqalar g'oyat murakkab tarixiy jarayonlar bo'lib, ko'plab ichki va tashqi amallar – siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, etnik, diniy va boshqalar bilan belgilanadi. Bunda ko'pincha mamlakatlar va xalqlar hayotining murakkab mummolari ko'p yillar, bazan asrlar davomida yechilmoy qoladi.

Xalqaro muammolar bo'yicha mutaxasislar Yer sharida 300 ga yaqin joy (punkt) bo'yicha hududiy, chegara va boshqa masalalar yuzasidan munozaralar borligini, shu jumladan, 100dan ortiq shunday joy bo'yicha kuchli nizoli vaziyat mavjudligini ko'rsatadilar.

Dunyoning aholi yashaydigan qismi (o'zlashtirilgan quruqlik) odamlarning tez ko'payishiga bog'liq holda tabora tor bo'lib qolmoqda. Ko'pchilik davlatlarda, birinchi navbatda, Osiyo va Afrikaning ayrim mamlakatlarida mavjud chegaralar doirasida yer tanqisligi haddan tashqari murakkab muammoga aylandi. Ularda yerning oziq-ovqat ishlab chiqarish manbai, aholi yashash manzillari joylashadigan va xo'jalik rivojlanishi uchun g'oyat zarur hudud sifatidagi qiymati oshib barmoqda. Bu holat mamlakatlar iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi xusiyatlari hamda ekologik vaziyatning keskin yomonlashuvi, katta yer maydonlarining ishdan chiqishi(qisman abadiy qaytmaydigan bo'lib), aholi tabiiy o'sishining yuqoriligi bilan uzviy bog'liqdir.

Bunday ahvolga misol tariqasida Xitoy, Hindiston, ko'pchilik arab davlatlari, Tropik Afrika mamlakatlari. Misol taroqasida Bangladesh Respublikasida yuzaga kelgan fojiali vaziyatni ko'rsatish mumkin. Uning maydoni atiga 144ming kv.

km bo'lib, bu yerda 120 milliondan ko'proq aholi yashaydi. Hududning 90% Gang, Braxmapurtra, Mechxna daryolari va ularning ko'plab irmoqlari yaratgan yotqiziqlaridan tashkil topgan deltadan iborat. Issiq va g'oyat nam iqlimda «sholi tuproqlari» deb ataladigan bu yerlar ushbu mamlakatning eng qimmatli va deyarli yagona tabiiy boyligidir. Ayni paytda, dunyoning biron mamlakati daryo to'rlari zichligi, har yili ko'p marta sodir bo'ladigan, katta moddiy zarar yetkazadigan, hududining katta qismini suv ostida qoldiradigan toshqinlarning katta miqyosi bo'yicha Bangladeshga tenglasha olmaydi, Masalan, 1988 yil avgust-sentabrdagi suv toshqinlari mamlakatning 80% hududiga yoyilgan va 30mln aholining boshpanasiz qolishiga sabab bo'lgan. Dunyoda Sunani to'lqinlari kabi dengiz sixiyasining dahshatli zarbalariga uchraydigan Banglabesh kabi davlat topilmaydi. Bu tabiiy ofat o'n minglab odamlarning o'limiga sabab bo'lmoqda. Masalan, 1990 yil ko'zida sodir bo'lgan toshqin oqibatida, hisoblarga ko'ra. 150 mingdan 300 mingtagacha odam halak bo'lgan.

Bangladesh agrar mamlakat bo'lib, deyarli barcha iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha dunyoning eng kambag'al va qoloq mamlakatlaridan biridir. Aholisining tabiiy o'sishi har yili 3 mln kishidan (2,2%) ko'proqni tashkil etadi, umumiy soni esa 120 mlndan ko'proqdir (1996). Aholisining o'rtacha zichligi 1kv.km ga 833 kishiga teng. Bu ko'rsaltkich hududi jihatidan uncha katta bo'lmagan Bangladeshdek mamlakat uchun g'oyat katta. Bular qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning chuqurlashuviga sabab bo'lmoqda. Chunki birorta davlat Bangladeshga bir qarich ham yer bermasligi aniq-ku, axir. Afsuski, dunyoning ko'p rayonlarida chegara, hududiy masalalar doimo murakkab muammo bo'lib kelgan,

ular ayniqsa so'nggi yillarda davlatlararo, millatlararo nizolar oqibatida g'oyat keskinlashdi.

Dunyo siyosiy xaritasi g'oyat o'zgaruvchan xususiyatga ega. U quyidagi asosiy siyosiy-geografik o'zgarishlarni aks ettiradi: muayyan davlatning boshqa davlat bilan qo'shilishi (birlashishi, bir davlatning boshqa davlat tarkibiga kirishi v.b); davlatchilikning (siyosiy suverenitetining) yo'qotilishi; davlatlar (mamlakatlar) maydonining-hududlar va akvatoriyalar, ular chegaralarning o'zgarishi; poytaxtning almashishi (o'zgarishi); davlat, mamlakat va poytaxt nomlarining o'zgarishi; davlat boshqaruvi shaklining o'zgarishi va boshqalar Bu elementlarnnning barchasi siyosiy geografik xaritaning asosiy mazmunini belgilab beradi.

3.2. Dunyo siyosiy xaritasi shakllanishining xususiyatlari va asosiy bosqichlari

Shakllanish bosqichlari. Hozirgi zamon dunyo siyosiy xaritasi kishilik jamiyatining uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari o'zgarishi, almashinuvi qonuniyatlarini to'la aks ettiradi. Dunyo siyosiy xaritasi (DS) – tarixiy davrlarning ko'zgusi, materiklar, qit'alar, dunyo siyosiy-iqtisodiy bo'linishining o'ziga xos tasvirdir.

DSning shakllanishi quyidagi davrlarga bo'linadi: qadimgi, o'rta asrlar, yangi davr va eng yangi davr.

Qadimgi davr (davlatlarning dastlab paydo bo'lishidan milodning V asrigacha) quldorlik tuzumi davrini o'z ichiga oladi; Yer sharida birinchi davlatlarning paydo bo'lishi va halokatini aks ettiradi. Qadimgi Misr, Karfagen, qadimgi Gresiya, qadimgi Rim, O'rta Osiyoda shakllangan qadimgi Xorazim, Baktriya, Sugda va boshqa davlatlar, Turk hoqonliklari

(milloddan avvalgi 207 yildan millodning 216 yiligacha Ulug' Xun imperiyasi, Ikkinchi Xun imperiyasi millodning II-IV asri) kabi qadimgi davlatlar dunyo sivilizasiyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Turkiy xalqlarning qadimgi avlodlari bo'lgan xunlar (skif) Markaziy Osiyo, Kaspiy bo'ylari, Shimoliy Kavkazgacha cho'zilgan o'z davlatlarini barpo etganlar. Ular o'z yozuviga ega bo'lishgan, harbiy maqsadlarda xaritalardan foydalanishgan. Xun avlodlari Sharqiy va G'arbiy Yevropaga borib, milodning 347 yilidan 469 yiligacha Xunlar imperiyasini tuzganlar. Shu bilan bir qatorda bu davrda harbiy yurishlar, urushlar davlat chegaralari va hududlari o'zgarishining asosiy sababi bo'lgan.

O'rta asrlar davri (V-XV asrlar). Bu davrda DS feodalizm davri bilan bog'liq holda shakllangan. Quldorlik imperiyalari parchalanib, ularning o'rnida ko'p sonli katta va kichik feodal davlatlar paydo bo'ldi. Feodal davlatlarning siyosiy funksiyalari quldorlik davridagi davlatlardagiga nisbatan ancha murakkab va xilma-xil edi. Bu davrda ichki bozor shakllandi, regionlarning boshqalardan ajralgan holda biqiq yashashiga chek qo'yildi. Davlatlarning o'zlaridan uzoqda joylashgan hududlarni bosib olishga harakat qilish ishtiyoqi kuchayadi. Dunyo materiklari va qit'alari turli davlatlar o'rtasida taqsimlab olindi.

Bu davrda muqaddas Rim imperiyasi, Angliya, Ispaniya, Fransiya, Portugaliya, Kiyev Rusi, Hindiston, Xitoy, Eron va Turon- Turkiston o'lkasidagi feodal davlatlar va boshqalar mavjud bo'lgan. Shu jumladan, O'rta asrlar dunyo siyosiy xaritasida Movarounnaxrning ilk feodal davlatlari (Sug'd, Toxariston, Farg'ona, Choch, Xorazm va boshqalar), IX-XIII asrdagi feodal davlatlar (Karluklar, Toxiriylar, Samoniylar Kora'oniylar, Xorzm davlatlari va boshqalar), Chig'atoy usuli (XIII-XIV asr), Amir Temur va Temuriylar davlatlari (XIV asrning

oxiri XV asr boshi) katta salmoqqa ega bo'lganlar. Bu davlatlar joylashgan o'rni Buyuk ipak yo'li bilan bog'liq bo'lgan qulayligidan feodalanib, G'arb va Sharq o'rtasidagi aloqalarda o'ziga xos Karvon yo'li "Ko'prigi" (aloqachisi) rolini o'ynaganlar. Shu bilan bir qatorda O'rta Osiyo sahrolari ularni ajratuvchi, karvon savdosi uchun to'siq funksiyani ham bajarganligini ta'kidlash lozim. Dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasi shakllanishining yangi davri (XV-XVI asr orlig'idan birinchi jahon urushi tugaganiga qadar) kapitalizm paydo bo'lgan, rivojlangan va qaror topgan butun bir tarixiy davrga to'g'ri keladi.

Feodalizmning yemirilishi va kapitalistik munosabatlarning paydo bo'lishi ijtimoiy hayotning barcha sohalarida va dunyo siyosiy xaritasida muhim o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Kapitalistik iqtisodiyotning rivojlanishida Buyuk geografik kashfiyotlar alohida o'rin egallaydi. U feodal ishlab chiqarish munosabatlaridan kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlariga o'tishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Buyuk geografik kashfiyotlar qator iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar va voqealarning yakuniy natijasi sifatida tayyorlangan edi. O'rta yer dengizi bo'yi savdosining inqirozi va muomala vositasi hisoblangan oltin va kumishning yetishmasiligi, Turkiya O'rta yer dengizi qirg'oqlarini zabt etishi yevropaliklarni Sharqqa, ayniqsa, Hindistonga boradigan yangi yo'llarni izlab topishga majbur etdi. "Oltinga tashnalik" esa yangi yerlarni qidirishga undadi. Portugallar Afrika qirg'oqlari, Hindiston, Uzoq Sharqda, ispanlar esa Atlantika okeanidan kesib o'tib, Amerikada "oltin" qidirdilar. Buyuk geografik kashfiyotlarning tayyorlanishi Yevropa qit'asining kapitalizm vataniga aylanishi uchun yaratilgan quyidagi shart-sharoitlar bilan uzviy bog'liqlar.

- tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi;
- markazlashgan yirik davlatlarning tashkil topishi;
- yangi yerlarni kashf etish va o'zlashtirish uchun tayyor kadrlarning mavjudligi;
- texnik imkoniyatlar, birinchi navbatda Karavella (uch yoki to'rt mechtali yelkanli kema), ixtirosli va kompasli xaritalardan foydalanish;
- o'smonli turklar tomonidan Sharqiy O'rta yer dengizining zabt qilinishi va yevropaliklarning sharqqa yangi yo'llar topishga majbur bo'lganligi;

fan rivoj, ayniqsa, «Astranomiya» va «Geografiya» fanlarining yutuqlariga tayanib, ispanlar va portugallar buyuk geografik kashfiyotning kashshoflari (pionerlari) bo'ldilar. Portugallar Afrikani aylanib, Hindistonga, ispanlar esa Yangi dunyo (Amerika)ga dengiz yo'llarini ochishga erishdilar. Bular olamshumul ahamiyatiga ega kashfiyatlar edi.

Buyuk geografik kashfiyotlar qatoriga kiradigan quyidagi sayohatlarni ko'rsatib o'tish mumkin:

1. 1492-1502 yillari-Amerikaning yevropaliklar uchun kashf etilishi (X Kolumbning Markaziy Amerika va Janubiy Amerikaning shimoliga sayohati). Ispaniya tomonidan Amerikaning kolonizasiyasining boshlanishi;
2. 1498 – Veska da Gomlaning Afrikani aylanib o'tgan dengiz sayohati;
3. 1499-1504 yillar Amerikcho vespuchchining Janubiy Amerikaga sayohati;
4. 1519-1522 yillar – Magellan va sheriklarining dunyo aylanasi bo'ylab sayohati;
5. 1648 yil Semen Dejuyevning sayohati (Rossiya - Sibir);
6. 1740 yil V.Bering va P. Chirikov sayohatlari (Sibir);
7. 1771-1773 yillar - Dj. Kuk sayohati (Avstraliya, Okeaniya).

Buyuk geografik kashfiyotlar davri dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasida kuchli o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. U Yevropa mustamlakachilar bosqichining boshlanishi, dunyo xo'jalik aloqalarining keng tarqalishi, aholi ko'chish harakatlarining kuchayishiga sabab bo'ldi. Buyuk geografik kashfiyotlar, birinchidan, dunyoning birinchi uchta yirik mustamlakachi davlatlari – Ispaniya (Amerikada), Portugaliya (asosan Osiyoda) imperiyalarining paydo bo'lishiga, ikkinchidan, dunyo savdosining vujudga kelishi va dunyo bozorining shakllanishiga olib keldi. Shu munosabat bilan asosiy savdo yo'llari, dunyo savdosining asosiy hajmi va yo'nalishi quruqlik (karvon) yo'llari (shu jumladan, Buyuk Ipak yo'li ham), ichki dengiz yo'llari va ularga tutash mamlakatlardan Atlantika va Hind okeaniga ko'chdi. Ispaniya, Portugaliya, Angliya, Gollandiya, Fransiyaning iqtisodiy geografik o'rni yaxshilandi. Lissabon va Sevilya, so'ngra Antverpen va Amsterdom Yevropaning yirik dengiz portlariga aylandi. Ayni paytda qit'a ichkarisida joylashgan shaharlar, masalan, shimoliy Italiya shaharlari og'ir ahvolga tushdi, quruqlik karvon yo'llarining ahamiyati ancha pasaydi. Temuriylar davlatining inqirozi va parchalanib ketishi ham ayni shu davrga to'g'ri keldi. Yevropaning arzon oltin va kumush oqimlari kirib kelishi XVI asrda tovarlar narxi bir necha marotaba ko'tarilishiga, oqibatda, savdo sanoati burjuaziyasining tez boyishiga olib keldi. Sanoat mollarini chetga chiqaruvchi mamlakatlar (Nederlandiya, Anglya, Fransiya) tez fursatda o'z mavqelarini mustahkamlab oldilar. Aksincha Ispaniya va Portugaliyada osonlik bilan olib kelinayotgan mustamlaka o'ljalari feodal munosabatlar, cherkovning saqlanishiga, o'z hunarmandchiligi va manfakturasiga putur yetkazishga, oqibatida o'zlarining avvalgi

ahamiyatini yo'qotishi va raqobatchilaridan harbiy mag'lubiyatga uchrashiga sabab bo'ldi. XIV asrning oxiri va XV asrning boshida tashkil topgan Amir Temur va Temuriylar davlati Hindiston va Xitoydan qora dengizga qadar va Orol dengizdan fors qo'ltig'iga qadar g'oyat katta hududni egallagan davlat edi. Uning dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasi shakllanishiga ta'siri bu ulkan hudud bilangina chegaralanmagan. Bu davlat yana Janubiy - Sharqiy va kichik Osiyo, Suriya, Misr, Quyi Volga, Don bo'ylari, Shimoliy Kavkaz, Balxosh ko'li va Ili daryosi bo'ylari, Shimoliy Hindistongacha bo'lgan ko'plab mamlakatlarni o'ziga bo'ysindirgan qudratli davlatga aylangan edi. Amir Temur Xitoy va Hindistondan O'rta Osiyo orqali yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga yo'nalgan asosiy savdo yo'li - "Buyuk ipak yo'li"ni nazorat qilib, Sharq bilan G'arb o'rtasidagi savdo-sotiq va elchilik aloqlarini har tomonlama rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Temurning To'xtamish ustidan g'alaba qozonib, Oltin O'rtaga bergan qAQSHatkich zarbasi (1395 y.) Rossiya davlatining mustaqilligini saqlab qolish va uning markazlashuvida buyuk ahamiyati kasb etganligi tan olingan haqiqatdir. Sohibqironning Boyazid ustidan g'alabasi esa (1402 y.) Yevropani Usmonli turk imperiyasi asoratidan saqlab qoldi.

Lekin Temur vofotidan keyin vorislari toju taxt talashuvi, shuningdek, Buyuk ipak yo'lining xalqaro savdo (karvon) yo'li sifatidagi ahamiyati keskin pasayishi (buyuk geografik kashfiyotlar, ayniqsa, yangi dengiz yo'llarining ochilishi va dengiz transportidagi taraqqiyot bilan bog'liq holda) ushbu ulkan davlatning parchalanishiga olib keldi. Uning o'rnida ko'plab katta-kichik davlatlar paydo bo'ldi. Xususan, Movaronnaxr va Xurosonda Shayboniyxon davlati (XVI asr boshlarida) tashkil topdi. Uning parchalangan hududlarida esa

XVI asrda Buxoro xonligi (amirligi), Xiva xonligi, XVIII asr boshida Qo'qon xonligi vujudga keldi. XIX asrning o'rtalaridan boshlab Rossiya imperiyasi o'zbek xonliklarini bosib olish uchun keng harbiy-siyosiy tayyorgarlik ko'rishga kirishdi. XIX asrning 40-yillari oxiri, 50-yillari boshidan Rossiya imperiyasi Turkiston yerlariga shiddat bilan bostirib kela boshladi. Rus istilochi qo'shinlari keng ko'lamdagi harbiy harakatlar bilan 60-yillardan Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi, 70-yillarning boshida esa Xiva xonligi hududlarini bosib oldi va ularni Rossiya imperiyasiga to'la bo'ysindirdi. Turkiston ulkan viloyat, volost, uchastka va oqsoqolliklarga bo'linib boshqarildi. Rossiyadan ko'plab rus dexqonlari va yersiz mujiklar ko'chirilib keltirilib, ularga kamida 10 desyatinadan yer ajratib berildi. Mustamlakachilar rus imperiyalari, xutor va selolar, shaharlar yonida esa ruslar uchun "yangi shaharlar" barpo etishga alohida e'tibor berdi. Tub joy aholisining turmushi esa tobora og'irlashib boraverdi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo uchun bir asrdan ko'proq davom etgan og'ir mustamlakachilik davri boshlandi XVII asrning birinchi yarmida Angliya va Fransiya mustamlakachilik harakatini boshladilar. Ular Vest-Indiyadagi qator orollarni o'zlariga bo'ysindirdi, Shimoliy Amerikada o'zlarining ko'chma koloniyalarini tashkil qildilar. XVII asirning o'rtasida Niderlandiya, Gollandiya, Osiyodagi Portugaliya mustamlakalarini (Sellon, Hindiston dengizi qirg'oqlaridagi tayanch punktlar, qator Zond orollari), Afrika janubi, So'rinom, Vesti-Indiyadagi orollarni bosib olib, dunyoning birinchi mustamlakachi va savdo mamlakatiga aylandi. Lekin XVII asrning ikkinchi yarimidagi Angliya, Gallandiya urushlari Gollandiyani sezilarli kuchsizlantirdi. Mustamlakalar uchun Angliya bilan Fransiya o'rtasidagi kurash XVII asr oxiridan XIX

asrning boshlarigacha davom etdi. Angliya o'z mustamlakalarini fransuzlar hisobidan Shimoliy Amerikada va Hindistonda kengaytirdi. Fransiya qaramog'ida faqat kichik mustamlakalargina saqlanib qoldi. Angliya shiddatli kurash orqali Ispaniya, Niderlandiya, Fransiyadan ko'plab mustamlakalarni tortib oldi. Ularning umumiy maydoni 22 mln kv. km.dan ortiqroq bo'lib, Hindiston, Kanada, Avstraliya, Janubiy Afrikani o'z ichiga olgan edi. Butun "yetuk" kapitalizm davri mobaynida Angliya dunyoda o'zining sanoat, savdo, moliya va harbiy xukumronligini saqlab qoldi. London dunyoning eng yirik shahari, porti, bank markaziga aylandi. 1870 yilda Angliya hissasiga dunyo sanoat ishlab chiqarishining 1,3 qismi to'g'ri kelgan va Britaniya mustamlaka imperiyasi dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasining shakllanishiga eng katta ta'sir ko'rsatgan. XIX asrning o'rtalarida Hindiston to'liq Angliya mustamlakasiga aylandi. Hindistonga boradigan dengiz yo'lidagi barcha tayanch punktlar (Mavrikiy oroli, Afrikaning janubiy qirg'og'i), mamlakatning janubiy qirg'og'i, Singapur bosib olindi, Avstraliya va Yangi Zelandiya ustidan to'liq hukumronlik o'rnatildi.

XVIII asrning oxiriga kelib Lotin Amerikasida Ispaniya va Portugaliyaning talonchilik siyosati salbiy oqibatlari yaqqol ko'rina boshladi. Ozodlik urushlari bilan bog'liq holda XIX asrning birinchi choragida Ispaniya mustamlakalarida (Yangi Ispaniya, Yangi Grenada, Peru, La-Plata) yigirmaga yaqin davlatlar tizimi paydo bo'ldi. Bu mamlakatlar iqtisodiyotiga chet el kapitali keng miqyosda kirib kela boshladi.

Angliyaning mustamlakalar iqtisodiy rivojlanishini metropoliya manfatlariga to'la bo'ysundirishga harakati Shimoliy Amerika mustamlakalarida kuchli norozilik uyg'otdi. Masalan, 1775-1783 yillarda ozodlik uchun olib borilgan urush

Angliyaning AQSH mustaqilligini tan olishga majbur etdi. 1776 yilda AQSH mustaqilligi e'lon qilindi. Uning tarkibiga 13 ingliz mustamlakalari kirdi. Mustaqillikga erishgach, AQSH da boshqa davlatlarga nisbatan kapitalizmning kengayishi va chuqurlashuvi uchun nihoyatda qulay vaziyat yuzaga keldi. XVIII asrning oxiridan boshlab AQSH Appalachi tog'laridan g'arbda joylashgan indeyes qabilalari yashaydigan hududlar kolonizasiyasini kuchaytirdi, XIX asrning birinchi yarimida AQSH yerlarni sotib olish va zabt etish hisobiga o'z hududlarini ancha kengaytirdi. 1803 yilda Fransiyadan G'arbiy luizianani (maydoni 2,5 mln. kv. km.), 1819 yilda Ispaniyadan Floridani sotib oldi. Meksikadan Texas (1845y), Kaliforniya va g'oyali tog'larning janubini (1848y) o'z ichiga olgan katta hududlar tortib olindi, 1846 yilda keng Organ viloyati mamlakatining shimoli-g'arbi qo'shib olindi, 1867 yilda Rossiyadan Alyaska sotib olindi. Shunday qilib, AQSHning tez rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga keldi. Uning dunyo sanoati ishlab chiqarishidagi salmog'i 1870 yilga kelib 14% ga yetdi.

XIX asrning o'rtalarida Germaniya va Italiyada siyosiy birlashish asosida yagona markazlashgan davlatlar tashkil topdi. Bolqon yarim orolida milliy ozodlik harakati asosida Turkiya imperiyasi tarkibiga kirgan Gresiya (1829y.), Ruminiya (1861y.), Bolgariya, Serbiya, Chernogoriya (1878y.) davlatlari paydo bo'ldi.

XIX asrning oxirgi choragiga kelib Rossiya dunyoning yirik mustamlakachi davlatlari qatorida turar edi. U yangi asrda Rus davlatidan ko'plab tutash mamlakatlarni istilo qilish asosida yirik Rossiya imperiyasiga aylandi. 1876 yilda uning mustamlakalari maydoni 17 mln kv. km. bo'lib ularda yashaydigan aholi 15,9 mln nafarga yetgan edi. O'sha davrda

Rossiya dunyoning Buyuk Britaniyadan keyingi ikkinchi mustamlakachi imperiyasi hisoblanardi.

Ayniqsa, XIX-XX asr tutashgan davrda bo'lingan dunyoni qayta bo'lib olish uchun kurash g'oyat keskinlashib, dunyo siyosiy xaritasi bekor bo'lib qoldi. Masalan, 1876 yilda Afrikaning atigi 10% hududi g'arbiy Yevropa mamlakatlariga qarashli bo'lsa, 1900 yilga kelib bu ko'rsatgich 905 ga yetdi. Afrikani bo'lib olishda birinchi o'rinni Angliya egalladi. U Shimoliy Sharqiy va Janubiy, qisman G'arbiy Afrikada xukumron mavqega ega bo'ldi va o'ziga Misr, Sudan, Keniya, Uganda, Somolining bir qismi, Beiuanalend, Shimoliy va Janubiy Rodeziya, Transval va Tuksarik (Oranjevaya), Bur Respublikalari, Nigeriya, Oltin qirg'oq (Gana), Syerra - Leone, Gambiya mamlakatlarini bo'ysindirdi.

Fransiya 70-yillargacha Jazoir, Senegal, Gvineya qo'ltig'i qirg'oqlarining bir qismini bosib olgan bo'lsa, ,Afrikani bo'lib olish davrida yana Tunis, Marakkon, Gvineya qo'ltig'i qirog'lari, Niger, Kongo xavzasi, Chad ko'li rayoni, Madakaskar, Somolining bir qismini zabt etdi va Shimoliy va G'arbiy Afrikada yirik mustamlaka massivini barpo qildi.

Bu davrda Germaniya, Italiya ham Afrikada mustamlakalar bosib olishni boshladi. 1884 yilda Germaniya Janubiy-G'arbiy va Sharqiy Afrika (Tanganika), Kamerun, Togoni istilo etdi. Italiya Eritereyani, Somolining bir qismini bosib oldi. 1911-1912 yillardagi Turkiya, Liviya urushi oqibatida Kichik Osiyo qirg'oqlaridagi orollar guruhiga ega bo'ldi. Bepoyon va xilma-xil resurslarga boy Kongo hududlari Belgiya egaligiga o'tdi. Afrikani bo'lib olish davrida Portugaliya, Angola va Mozambik hududlarini kengaytirdi, Ispaniya G'arbiy Saxroi Kabir, Ispaniya Gvineyasi (Rio Muni), Shimoliy Marakkaning bir qismini zabt etdi.

Shunday qilib, butun Afrika qit'asida nomigagina ikkita mustaqil davlat saqlanib qoldi. Bularning biri Abissiniya (Efiopiya) bo'lib, u Italiyaga qarshi zarba berishga muvaffaq bo'lgan edi. Ikkinchisi – Liberiya esa 1847 yilda Amerika mustamlaka jamiyati tomonidan asoslangan bo'lib AQSH ning norasmiy protektorati hisoblanardi.

XIX asrning oxirida AQSH ham mustamlakalar bosib olishga kirishdi. 1898 yildagi Ispan – Amerika urushi natijasida u Ispaniyadan Filippin, Guam orollari va Puerto-Rikoni tortib oldi.

Kuba rasman mustaqil deb tan olinishiga qaramay, amalda u AQSH ning yarim mustamlakasiga aylangan edi. AQSH o'ziga Gavayi orollarini qo'shib oldi, Samoa orollarini Germaniya bilan bo'lib olishdi, Panama kanali zonasini istehkomlar va harbiy-dengiz bazasini qurish xuquqi bilan ijaraga oldi. Okeniyani bo'lib olish ham tugallandi: Angliya Fidji orollarini, Salmon orollarining bir qismini, Fransiya, Taiti, Yangi Kaledaniya orollarini, Germaniya Yangi Gvinyan orollarining Shimoliy-Sharqiy qismini, Bismark orollarini, Salomon orollarining bir qismini, Marshal orollarini bosib oldilar. Germaniya Ispaniyadan Marin va Korollin orollarini sotib oldi.

Yaponiya uzoq Sharqda mustamlakalar istilo qilishni boshladi. 1895 yilda Xitoydan Tayvon orolini tortib oldi, Koreyani bosib oldi va 1910 yilda uni o'zining mustamlakasi deb e'lon qildi. Rus-Yapon urushidan keyin Yaponiya Saxalin orolining Janubiy qismida, Kuril orollarida mustahkam o'rnashdi. Mustamlakali davlatlar Xitoyni yarim mustamlakaga aylantirdilar, unga teng bo'lmagan shartnomalarni majburan qabo'l qildirdilar va shu asosda uning hududlarida "ta'sir sohalari", konsepsiyalar tuzildi. XIX asrning ikkinchi yarmida Fransiya Vyetnom, Laos, Kambodjani o'z ichiga olgan Fransuz

Xindi Xitoyi mustamlaka koloniyasini barpo etdi. Angliya Yuqori Birma, Barneo orolining Shimolini zabt etdi, Malayxdagi mustamlakalarini kengaytirdi. XX asrning boshida Turkiya hukmronligiga qarshi milliy ozodlik harakatlari Blokli yarim oroli siyosiy xaritasida o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Albaniya mustaqillikka erishdi, Bolgariya Egey dengiziga chiqishga, Gresiya va Serbiya esa o'z hududlarini kengaytirishga muvaffaq bo'ldi.

Shunday qilib, dunyo siyosiy xaritasi shakllanishining yangi asr davridagi asosiy mazmunini mustamlakalar bosib olish, metropoliya (mustamlakachi) davlatlari o'rtasidagi o'zaro munosabat va nisbatlar belgilab berdi. XX asr boshida dunyo to'liq bo'lib olindi. 1914 yilda mustamlakachi imperiyalar mustamlakalarining umumiy maydoni 74,9 mln. kv. km. (jami yer yuzasi quruqlik hududlarining 56%i), ulardagi aholi 530 mln. kishiga (dunyo aholisining 35%i) yetdi. Angliya mustamlakalari maydoni 33,5 mln kv. km. (dunyo mustamlakalarining 44,7%i), ularning aholisi 393,5 mln. kishi (mustamlaka aholisining 74,2%i), Rossiya shunga mos holda - 17,4 mln (23,3%) va 33,2 mln (6,3%); Fransiya-10,6 mln (14,1%) va 55,5 mln (10,5%); Germaniya-2,9 mln (3,9) va 12,3 mln (2,3%); AQSH-0,3 mln (0,4%) va 9,7 mln (1,8%); Yaponiya-0,3 mln (0,4%) va 19,2 mln (3,6%) bo'lgan. Metropoliya va mustamlakalar maydoni va aholisi o'rtasidagi nisbat tegishlicha quyidagi miqdorda ortiq bo'lgan: Buyuk Britanida 100 va 8,8 marta va 0,2%, Niderlandiya-67 va 7,4, Portugaliya -21 va 1,5, Fransiya-21 va 1,3, Belgiya -80 va 2,8 marta, Daniya - 5 marta va 4,2%, Germaniya 5 marta va 21%, Ispaniya-40% va 3,8%, Italiya -1,7 marta va 2,2%, AQSH-24,4% va 11,6%. Shu davrdan boshlab dunyoni qayta bo'lib olish faqat urush va zo'ravonlik vositasida amalga oshishi mumkin edi. Shu sababdan

dunyoning yetakchi mamlakatlari o'rtasida bo'lingan dunyoni qayta bo'lib olish uchun kurash tobora keskinlashdi.

Eng yangi davr birinchi jahon urushining tugashi va 1917 yil Rossiyada Oktabr to'ntarishidan boshlab to hozirgi kunlargacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davr quyidagi uch bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqich (117-1939 yillar) dunyo xaritasida SSSR (sosialistik imperiya)ning paydo bo'lishi, Yevropada va dunyoning boshqa qismlarida muhim hududiy o'zgarishlarning sodir bo'lishi bilan xarakterlanadi. Avstriya-Vengriya imperiyasi parchalandi, ko'p davlatlarning chegaralari o'zgardi. Yangi mustaqil mamlakatlar - Polsha, Finlyandiya, Chexoslovakiya, Yugoslaviya (Serbiya, Xorvatiya, Slovoniya qirolliklari) va boshqalar paydo bo'ldi. Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Yaponiya mustamlakalari ko'paydi va kengaydi. Germaniya mustamlakalari (3 mln. kv. km.) g'olib davlatlarga vasiylikka (amalda mustamlakaga) bo'lib berildi. Masalan, Tanganika Angliyaga "mandat" ga berildi. Togo va Kamerun esa Angliya va Fransiya o'rtasida bo'lib olindi. Janubi-G'arbiy Afrika-JARga, Shimoliy Sharqiy Yangi Gvineya-Avstraliya Ittifoqiga, Karolin, Marian, Marshall orollari-Yaponiyaga, g'arbiy Samoa orollari-Yangi Zelandiyaga, Nauru orollari - Angliya, Avstraliya, Yangi Zelandiyaga berildi.

Rossiyada bolsheviklar yakkaboshchiligi ostida sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyin Turkistonda ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Tarixan tarkib topgan xalqlarning yagona iqtisodiy, madaniy makoni, mavjud suv resurslari, suv, mavjud suv resurslari, sug'orish tizimlari va boshqalarning umumiyligi hisobga olinmay, Markaziy Osiyoni bo'lib tashlash, Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi , Xiva xonligi o'rnida yangi tuzilmalarni vujudga keltirish asosida mustamlakachilikni

yanada mustahkamlash Sho'rolar imperiyasi siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi. Dastlab Turkiston muxtoriyati (1917 y. noyabr-1918y. fevral), Turkiston ASSRning tuzilishi (1918y. aprel), Buxoro amirligining tugatilishi (1920 y. avgust) va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (1920y. oktabr) tuzilishi (1920 yil boshlari) va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (1920 yil aprel) tuzilishi, so'ngra milliy-davlat chegaralanishining amalga oshirilishi ushbu siyosatning natijalaridir. V.I. Lenin Turkistonni, "Uzbekiya, Kirgiziya, Turkmaniyaga bo'lingan xaritasini tuzish to'g'risida ko'rsatma berdi. 1924 yilda Turkiston, Buxoro va Xorazm Sovet Respublikalari o'rnida O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR, (O'zbekiston SSR tarkibida), Qorakirgiz (Kirgiz- viloyati (RSFSR tarkibida) va Qoraqalpoq avtonom viloyati (Qozog'iston ASSR tarkibida) tashkil etildi. Til va milliy tafovutlarni ataylab bo'rttirib ko'rsatib, ayni holda tarixiy, iqtisodiy, madaniy, diniy birlikni hisobga olmasdan tuzilgan yangi respublikalar "bo'lib tashla, xukumronlik qil"degan mustamlakachilik prinsipiga asoslangan edi. Ular Rossiya imperiyasi davridagidek metropoliyaga arzon xom ashyo yetkazib beriladigan mustamlakalar bo'lib qolaverdi. Bulardan tashqari 1918 yilda Latviya, Litviya, Estoniya (Rossiya imperiyasi), Yaman (Turkiya imperyasi muxtor hududi), 1919 yilda Avg'oniston (Britaniya imperiyasining eksponiyasi ob'yekti) mustaqilligi e'lon qilindi.

1920 yilda Antanta (g'oliblari) mamlakatlari tomonidan San-Remo konferensiyasida Turkiya imperiyasining arab mamlakatlaridagi mustamlakalari mandatlari bo'lib olindi. Angliyaga Falastin, Transiordaniya, Mesopatomiya (Iroq), Fransiyaga Suriya va Livan berildi. Xidjaz mustaqil arab davlati sifatida tan olindi. (u 1925 yilda Nedjz davlati tomonidan bosib olingan edi). 1926 yilda "qo'shilgan viloyatlar bilan Xidjaz va

Nedjz" qirolligi tashkil topdi va uning nomi 1932 yilda Saudiya Arabiston deb o'zgartiridi.

1923 yilda Nepal mustaqilligi e'lon qilindi, lekin u mustaqil taraqqiyot yo'liga ikkinchi jahon urushidan keyingina o'tdi.

30-yillarda dunyoning qayta bo'lib olish bilan bog'liq bo'lgan harbiy nizolar muttasil davom etdi. 1931-1932 yillarda Yaponiya Xitoydan Manvchjuriya va Ichki Mongoliyaning bir qismi tortib oldi, 1937 yilda Xitoyni bosib olish uchun urush boshladi. Italiya 1935-1936 yillarda Abissiniyani (Efiopiya), 1939 yilda Albaniyani istilo qildi. Gitler Germaniyasi 1938-1939 yilda Avstraliyani bosib oldi, Chexoslovakiyani bo'lib tashladi. 1939 yil sentabrda Germaniya Polshaga hujum boshladi. Polsha esa shartnomalar orqali Fransiya va Angliya bilan bog'langanligi sababli, bu urush ikkinchi jahon urushining boshlanishiga olib keldi. Urush davomida Germaniya qator Yevropa mamlakatlarini bosib oldi. 1941 yilda Yaponiya Janubiy-Sharqiy Osiyo va Tinch okeaniga boshqa imperiyalarning mustamlakalarini bosib olish uchun harbiy harakatlarni boshladi, 4mln kv. km. hududni unda yashaydigan 150 mln kishi bilan ishg'ol qildi. Ikkinchi jahon urushida Germaniya va Yaponiyaning mag'lubiyatiga bog'liq holda dunyo siyosiy xaritasida muhim o'zgarishlar yuz berdi.

Ikkinchi bosqich (1939-1990y.) Yevropa siyosiy xaritasida yuz bergan o'zgarishlardan tashqari, sosialistik eksperimentning kengayishi (Yevropa va Osiyodagi ayrim davlatlarning sosialistik yo'lga o'tishi), imperyalizm mustamlakachilik tizimining yemirilishi oqibatida Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi (Karib regioni) okeaniyada 100dan ortiq mustaqil davlatning barpo etilishi bilan xarakterlanadi. Mustamlakachilik tizimining barbod bo'lishi, milliy ozodlik

harakatlarining kuchayishi, xalqlarning mustaqillik uchun kurashlari dunyo siyosiy xaritasini tubdan o'zgartirib yubordi.

1943 yilda Livon va Suriya;

1944 yilda Ispaniya;

1945 yilda Indoneziya (Nedirlandi Ost-indiyasi hududida);

1946 yilda Filippin va Nerdaniya mustaqillikka erishdilar;

1947 yilda Hindiston diniy prinsipga asosan ikkita dominion-Hindiston va Pokistonga bo'lindi;

1950 yilda Hindiston;

1956 yilda Pokiston Respublikalari e'lon qilindi;

1947 yilda BMT bosh Assambleyasi Falastin hududida ikkita mustaqil Arab va yaxudiy davlatlarini tuzish to'g'risida qaror qabo'l qildi.

1948 yilda Isroil davlati tashkil etildi, lekin ko'p sabablarga ko'ra, hozirgacha Falastin arab davlati tuzilmadi. 1949 yilda sobiq Germaniya hududida dastlab GFR (AQSH, Angliya, Fransiya ishg'ol zonasida), so'ngra GDR (SSSR zonasida) tuzildi. G'arbiy Berlin esa mustaqil siyosiy maqomga ega shaharga aylantirildi. SSSR chegaralarida ba'zi o'zgarishlar yuz berdi: Zakarpat Ukrainasi, sobiq Sharqiy Prussiyaning bir qismi (1946 yildan Kaliningrad viloyati), Pechenga viloyati, Janubiy Saholin, Kuril orollari SSSR tarkibiga kirdi. Polshaga uning yerlari-Seleziya, Pomorye, Gdansk viloyatlari qayta qo'shildi.

Ikkinchi Jahon urushidan keyingi yillarda dunyo siyosiy xaritasida Vetnam (1945y) KXDR (1948), Xitoy Xalq Respublikasi (1949y), 1948 yilda Birma va Seylon (1972 yildan Shiri Lanka), 1953 yilda Laos va Kambodja paydo bo'ldi. 1997 yilda Maloya Federasiyasi tuzildi. 1963 yilda Singapur, Sabox, Saravak bilan birgalikda Malayziya Federasiyasi tarkibiga kirdi. 1965 yilda Singapur mustaqil respublika deb e'lon qilindi. 60-yillarning birinchi yarmida ingliz mustamlakalari Kipr, Quvayt, Maldov

orollari, 1967 yilda Janubiy Yamon, 1971 yilda Baxreyn, Katar, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), shuningdek, Bangladesh (Sharqiy Pokiston) mustaqil bo'ldi. BAA tarkibiga Angliya protektrotligidagi 7 amirlik kirdi. 1976 yilda Shimoliy va Janubiy Vstnam yagona davlatga birlashdi. 1975 yilda Laosda Monarxiya ag'darilib Leovs Xalq Demokratik Respublikasi e'lon qilindi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Afrikaning 90% ga yaqin hududi va 75% aholisi mustamlaka asoratida edi. Bu yerda faqat uchta mustaqil davlat (Janubiy Afrika Ittifoqini hisoblamaganda) – Efiopiya, Misr, Liberiya mavjud bo'lgan. Hozir ularning soni 50 dan ko'proqdir. Birinchi bo'lib shimoliy Arab mamlakatlari mustaqil bo'ldilar: Liviya (1951), Marokka va Tunis, Sudan (1956), undan so'ng Tropik Afrikada birinchi bo'lib Gana (1957), so'ngra Gvineya (1958). 1960 – "Afrika yili" dan boshlab (shu yili 17 Afrika mamlakati mustaqil bo'ldi) mustamlakachilikning parchalanishi jarayonlari boshqa materiklarda ham nihoyat darajada tezlashdi (hatto, Yevropada ham: 1964 yilda Malta mustaqil bo'ldi).

Lotin Amerikasi siyosiy xaritasida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. 1959 yilda Kuba rivojlanishning sosialistik yo'liga kirdi. 1962 yilda ingliz mustamlakalari o'rnida mustaqil davlatlar – Trinidad va Tabago, Yamayka, 1966 yilda-Gayana (Sobiq Britaniya Gvianasi) va Barbados, 1973 yilda- Bagam orollari, 1974 yilda-Grenada, 1978 yilda Dominika, 1979 yilda - Sent-Visent va Grenadina, Sent-Lyusiya paydo bo'ldi. 1975 yilda Nederlandiya mustamlakasi So'rinam mustaqillika erishdi.

Okeaniya siyosiy xaritasida ham chuqur o'zgarishlar sodir bo'ldi. 60-yillarda G'arbiy Samoa va Nauru (BMT ning sobiq vosiy hududlari), 70-yillarda-Tonga, Fidji, Salomon orollari, Tuval, Kiribati, Popua-Yangi Gvineya, 1980 yillarda- Vanautu

(ingliz-fransuz kondominiumi-Yangi Gibrid orollari o'rnida va boshqalar mustaqil davlat bo'ldilar).

Uchinchi bosqich 1990 yillardan to hozirga qadar davom etayotir. Bunda quydagilar dunyo hamjamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy siyosiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi va dunyo xaritasida muhim yangi sifat o'zgarishlari sodir bo'lishiga olib keldi:

- 1991 yilda SSSR ning parchalanishi, uning tarkibidagi barcha ittifoqdosh respublikalar davlat mustaqilligining e'lon qilinishi;

Mustaqil davlatlar hamdo'stligining (MDH) tashkil topishi;

Sharqiy Yevropa mamlakatlarida tinch yo'l bilan xalq - demokratik inqilobining g'alaba qilishi (1989-1990 yillar);

- 1991 yilda Varshava shartnomasi tashkiloti (harbiy) va o'zaro yordam iqtisodiy kengayishi faoliyatining to'xtatilishi. Ular Yevropa va dunyodagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatga doimo jiddiy ta'sir ko'rsatib turgan edi;

1990 yil 3 oktabr - ikki nemis davlatining (GFR va GDR) yagona davlatga birlashuvi;

- Yugoslaviya Sosialistik Federativ Respublikasining parchalanishi, Sloveniya, Bosniya va Gersogovina, Xarvatiya Yugosloviya Ittifoqi Respublikasi (tarkibida Serbiya va Chernogoriya) mustaqilligining e'lon qilinishi. Hozirgi davom etayotgan fuqarolar urushi va millatlararo nizolar bilan bog'liq bo'lgan sobiq federasiyaning jiddiy inqirozi;

- 1990 yil may oyida ikki arab davlati – Yaman Arab Respublikasi (YAAR) va Yaman Xalq Demokratik Respublikasi (YAXDR) milliy-etnik asoslarda birlashdi (Yaman Respublikasi, poytaxti - Sana shahri);

- 1990-91 yillarda mustamlakachilikning barbod bo'lish jarayoni davom etib, quyidagilar mustaqillikga erishdilar:

Namibiya (Afrikadagi eng so'nggi mustamlaka); Okeaniyada yangi davlatlar – Mikroneziya Federativ Shtatlari (Karolin orollari), Marshal orollari Respublikasi paydo bo'ldi;

- 1993 yil 1 yanvarda sobiq Chexoslovakiya parchalanib, ikkita mustaqil davlat – Chexiya va Slovakiya vujudga keldi;

- 1993 yil - Eriteriya davlatining (Efiopiyaning qizil dengiz qirg'og'idagi sobiq provinsiyasi) mustaqilligi e'lon qilindi.

Dunyo siyosiy xaritasining kelajakda o'zgarish miqyoslari ko'p millatli mamlakatlarda etnik-milliy jarayonlarning rivoji yo'nalishiga, mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarning xarakteriga bog'liq.

3.3. Davlat tuzimi va davlat tuzilishi

Mustaqil mamlakatlar davlatni tashkil etishning turli shakllariga ega. Ulardan eng muhimi davlat tuzimidir. U monarxiya va respublika bo'lishi mumkin.

Hokimlikning respublika shaklida davlat hokimiyatining oliy organlari saylanadi yoki umummilliy vakillar muassasi-parlament tomonidan tuziladi. Respublika tuzimida qonun chiqaruvchi hokimyat –parlamentga, ijoriya hokimiyat hukumatga tegishlidir. Bunda Prezident juda katta vakolatga ega bo'lgan va hukumatni boshqaradigan Prezident respublikasi (AQSH, Lotin Amerikasi mamlakatlarining ayrimlari) va Prezidentning roli kamroq, hukumatni esa bosh vazir boshqaradigan parlament respublikalari bir-birlaridan farq qiladi. Dunyoda bunday respublikala soni 140 dan ko'proq. Hokimlikning monarxiya shaklida oliy davlat

hokimiyati monarxlarga - qirol, knyaz, sulton, shoh, amirga qarashli bo'lib, hokimiyat meros orqali avloddan-avlodga o'tadi. Dunyo siyosiy xaritasida 30 monarxiya bor, shu jumladan, Osiyoda-14, Yevropada 12 Afrikada 3, Okeaniyada-1.

Monarxiyalar konstitusion va mutlaq tiplarga bo'linadi. Ularning ko'pchiligi konstitusion monarxiya bo'lib, unda monarx ramziy "podsholik" qiladi, lekin davlatni boshqarmaydi (Buyuk Britaniya, Norvegiya, Shvesiya), real qonun chiqaruvchi hokimiyat parlamentga, ijroiya hokimiyat hukumatga qarashlidir. Mutlaq monarxiyada monarx hokimiyati deyarli cheklanmagan, hukumat va boshqa hokimiyat organlari faqat monarx oldida ma'sul va javobgardir (Saudiya Arabiston, Birlashgan Arab Amirliklari, Omon, Bruney, Quvayt va boshqalar).

Hokimlikning yana bir keng tarqalgan shakli Buyuk Britaniya boshchilik qiladigan Britaniya hamdo'stligidir. U xuquqiy jihatdan 1931 yildayoq rasmiylashtirilgan bo'lib, tarkibiga Buyuk Britaniya dominionlari - Kanada, Avstraliya, Janubiy Afrika Ittifoqi, Nyufaundlend va Irlandiya kirgan edi. Ikkinchi jahon urushidan keyin va Britaniya Imperiyasi barbod bo'lgach, hamdo'stlik tarkibiga Britaniya sobiq mustamlakalarining ko'pchiligi kirdi. Uning tarkibida dunyoning barcha qit'alarida joylashgan 50 davlat bo'lib, ularning umumiy hududi 30 mln kv. km, aholisi 1,2 mlrd nafardan ko'proq. Ular siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishii, iqtisodiy rivojlanish darajasi, etnik, til, diniy va boshqa xususiyatlari bo'yicha g'oyat xilma-xil va bir-birlaridan tubdan farq qiladi. Rasman hamkorlikning barcha a'zolari teng, unda Buyuk Britaniyaning yetakchiligi tushunchasi rasman ko'rsatilmagan. Ular o'zlarining umumiy muammolarini har ikki yilda bir marta bo'ladigan konferensiyada bosh vazirlar va

moliya vazirlari ishtirokida muhokama qiladilar, hamdo'stlik yagona konstitusiya, na ittifoq-shartnoma kelishimlari, na rasmiy atributlarga ega emas, u xalqaro maydonda ham ishtirok etmaydi (masalan, BMTda, xalqaro tadbirlarda va boshqalar), hamdo'stlik a'zolari undan istagan paytda so'zsiz chiqib ketish xuquqiga ega. Shunday xuquqdan Birma, Irlandiya, Pokiston foydalangan.

Hamkorlikka kirgan barcha davlatlar o'zlarining ichki va tashqi ishlarida to'la suverenitetga ega. Hamkorlik Konferensiyasi qarorlari unga ovoz bermagan mamlakatlar uchun qonuniy kuchga ega emas. Hamdo'stlikning ko'pchilik a'zolari an'anaviy davlat boshqaruvi shakllariga ega: ular yoki respublikalar (Hindiston, Bangladesh, Nigeriya, Gana, Zambil, Zimbab va boshqalar) yoki monarxiyalar (Buyuk Britaniya, Malayziya, Brunet, Svazilend va boshqalar) hisoblanadi. Uning ba'zi a'zolari - Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Tuvalu, Antigua va Barbuda, Mavrikiy, Bagam orollari hamkorligi, Barbados, Beliz, Grenada, Sent-Vinsent va Grenadina, Sent-Kristofer va Nevis, Sent-Lyusiya, Yamayka o'zlarini respublika, monarxiya hisoblamaydi. Ularning aholisi amaliyotda o'zlarini Buyuk Britaniya qirolichasining fuqarosi ham sanashmaydi, faqat o'z mamlakatining fuqarosi deb hisoblaydilar.

Bu davlatlarning (rasman "Hamkorlik tarkibidagi davlat") parlamenti va hukumati mamlakat hayotining har qanday masalalarini va tashqi (xalqaro) aloqalarini amaliy jihatdan rasman Buyuk Britaniyaga bog'liq bo'lmay mustaqil hal etishi mumkin. Shu bilan bir qatorda ular ixtiyoriy ravishda o'zlari uchun davlat boshlig'i, oliy hokimiyat ramzi sifatida Buyuk Britaniya qirolichasini tanlaganlar va buni o'z konstitusiyalarida belgilab qo'yganlar. Ularning ba'zilari Buyuk Britaniya atributlaridan foydalanadilar (masalan, Yangi Zelandiya - ingliz

gimni, ingliz ordenlari bilan Yangi Zelandiya hukumati tavsiyasiga asoslanib, Buyuk Britaniya qirolichasi yangi zelandiyaliklarni mukofotlaydi va boshqalar). Ularning hammasi amaliyotda, lekin har xil darajada, Buyuk Britaniya siyosati, qonunlari, an'analarini (shu jumladan, til, madaniy turmush, marosim-namoyish va boshqalarni ko'zda tutib ish ko'radi. Bunday davlat boshqaruvining o'ziga xos shakli hozirgi zamon xalqaro siyosiy hayotining paradokslaridan (ya'ni, umum tomonidan qabo'l qilingan fikrlarga mos kelmaydigan, sog'lom aqlga zid fikr, vaziyat) biri, lekin u e'tirof etilgandir. Shu sababdan va ko'pchilik talabalar va o'quvchilar ushbu Hamdo'stlik to'g'risida yetarli ma'lumot va tushunchaga ega emasligini hisobga olib, muallif turli manbalarning ma'lumotlarini jamlab, tahlil qilib, umumlashtirib yuqoridagi qisqa ta'rifni berish zarur deb hisoblaydi.

Dunyodagi faqat bitta mamlakat – Liviya Arab Sosialistik Xalq Monarxiyasi deb rasman ataladigan davlatda hokimlikning o'ziga xos shakli mavjud. Bu shakl dunyoda mavjud bo'lgan birorta davlat hokimiyatiga o'xshamaydi. Shu sababdan Liviya raxbarlari barcha vaziyatda o'z mamlaktini aynan jamaxariya deb tan olinishini qattiq talab qiladilar. (Bu so'z arabcha bo'lab, "omma davlati", "xalq hokimiyati" ma'nosini anglatadi). 1977 yilda mamlakatda o'tkazilgan islohotlar asosida barcha an'anaviy respublika hokimiyati va boshqaruv organlari ko'pgina yuqorigacha saylanadigan doimiy xalq majlislari va xalq qo'mitalariga almashtirildi, yiliga ikki martadan kam bo'lmagan muddatlarda chiqariladigan Umumiy xalq kongeressi davlat hokimiyatining oliy organi ekanligi tantanali sur'tda e'lon qilindi. Bundan maqsad:

- markazning joylar (hududlar) ustidan nazoratini o'rnatish;

- sharoitga moslashgan iqtisodiy, ijtimoiy, regional siyosatni amalga oshirish;
- saylov kompaniyalarini o'tkazib va boshqalardir.

Rivojlangan G'arb mamlakatlaridan ko'pchiligining ma'muriy-hududiy bo'linishi (MXB) murakkabligi va ko'p bosqichligi bilan ajralib turadi. Odatda, MXB uch pog'onaga (bosqichga) bo'linadi, ba'zan esa ular g'oyat maydalangan ko'rinishga ega. Masalan, Fransiyada 26 rayon, 100 departament va 36,5 ming kommuna bor. AQSHda quyi birlik okrug yoki "graflik" bo'lib (30 mingdan ko'proq), ular 50 shtatga birlashtirilgan. Shu bilan bir qatorda ba'zi grafiklar yana tuanishiplarga va munisipalitetlarga bo'linadi. Bulardan tashqari ko'p minglab uy-joy va yo'l qurilishi, suv ta'minoti, sog'liqni saqlash, maktab talimi va boshqa ishlar bilan shug'ullanadigan maxsus okruglar faoliyat ko'rsatadi.

G'arb mamlakatlarida XX asrning 60-80-yillarida MHBlar islohoti amalga oshirilgan bo'lib ular eng avvalo, yiriklashtirish va tartibga solish maqsadlarini ko'zlagan edi. Bu tadbirlar, qoida tariqasida, konkret sharoitni hisobga oladigan kelishtiruvchi xarakterda amalga oshirildi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham 50-yillardan MHBni islohotlashtirish tadbirlari amalga oshirildi. Bunda MHBni qayta tashkil etish G'arb mamlakatlaridan farq qilib, asosan bo'linishni yiriklashtirishga yo'naltirilgan edi. Sobiq SSSR yoki MDH mamlakatlarining tarixan shakllangan MHB ko'pchilik olimlar va mutaxassislarning fikricha, bozor iqtisodiyoti talablariga javob bermaydi. Uning asosiy kamchiligi MHB bilan iqtisodiy rayonlashtirish o'rtasidagi mutanosiblik va o'zaro bog'liqning yo'qligi hisoblanadi. Bu kamchiliklarni tuzatish yaqin kelajakdagi muhim vazifalardan biridir. Davlatning MHBlari ikki asosiy shaklga – unitar va federativga bo'linadi.

Unitar davlatda, odatda, yagona qonun chiqaruvchi va ijroya hokimiyat yagona davlat organlari tizimi, yagona konstitusiya mavjud bo'ladi. Bunday davlatlar dunyoda ko'p.

Federativ davlatda yagona qonunlar va hokimiyat organlari bilan bir qatorda boshqa davlat tuzilmalari – respublikalar, shtatlar, provinsiyalar, yerlar, qantonlar, hududlar bo'lib, ular «ikkinchi» darajali bo'lsada, o'zlarining qonunlari va hokimiyat organlariga egadirlar. Ko'pchilik federativ davlatlarda parlament ikki palatadan iborat. Ularning bittasi respublikalar, shtatlar va boshqalar vakolatini taminlaydi.

Konfederasiya davlatlar birlashishining kam uchraydigan shakllaridan biri bo'lib, juda cheklangan maqsadlarni (harbiy, tashqi siyosiy va boshqalar) amalga oshirish uchun tashkil etiladi.

Shunday qilib, dunyo siyosiy xaritasi o'tgan tarixiy davrlar ichida g'oyat o'zgarib bordi va ular dunyoning g'oyat murakkab va turli-tuman jarayonlarini va umuman, tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Dunyoning to Buyuk geografik kashfiyotlar davrigacha siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy xususiyatlarining hozirgi davrdan asosiy farqi dunyo turli qismlarining bir-biridan ajralib qolganligi, bir-birlari bilan bog'lanmaganligi, doimiy aloqalarning shakllanmaganligi, aholisining soni va o'zlashtirilishi darajasi, madaniyatining boyligi va xilma-xilligi farqlari, iqtisodiy aloqalarining taraqqiyot darajasi bo'yicha bir-biridan tubdan farq qiladigan va teng bo'lmagan hududlarga bo'linganligi va boshqa xususiyatlarning mavjudligi hisoblanadi. Ko'rsatilgan barcha belgilar bo'yicha dunyoning bir-birlariga tutashib ketgan Yevropa, Osiyo va Afrika qitalarining keng materik qismlarida, mamlakatlar va regionlari, markazlari guruhlari keskin ajralib turadigan sivilizasiya

qochoqlari mavjud bo'lgan. Bundan tashqari Amerika, Avstraliya va Okeaniyada ham kishilik jamiyatining o'z madaniyatiga ega bo'lgan sivilizasiya o'choqlari bo'lgan. Ularning bazi joylarida hayot madaniyati nisbatan rivojlangan (Amerikadagi O'rta And va Meksika yassitog'ligi), bazi joylarda esa juda ibtidoiy ko'rinishda bo'lgan. Masalan, Avstraliya aholisi hatto ibtidoiy dehqonchilikni ham bilmaganlar, ovchilik va yovvoyi o'simliklarning mevalarini terib yeb bilan yashaganlar. Amerika, Avstraliya, Okeaniyaning bu madaniyatlari bir-biridan va eski dunyo madaniyatlaridan ajralgan holda mavjud bo'lgan.

Shu bilan bir qatorda dunyoning turli regionlarida va ularning ichida qator madaniy o'choqlar shakllangan. Ular o'rtasida aloqalar mutlaqo bo'lmagan yoki bunday aloqalar zaif bo'lgan.

Uzoq o'tmishda dunyo hududlariaro xo'jalik va madaniy aloqalar rivojlanishiga to'siq bo'lgan geografik omillardan biri – okeanlar va ularning o'tib bo'lmas sahrolari, kengliklari hisoblangan. Xristofor Kolumb, Vaska da Gama Magallen kema safarigacha ochiq okean kengliklari faqat «ajratuvchi makon» bo'lgan. Endilikda fan-texnika taraqqiyoti tufayli okeanlar va dengizlapr o'zaro uzoq joylashgan, bir-birlaridan «ajralgan» mamlakatlarni «birlashtiradigan», yaqinlashtiradigan omilga aylandi Dunyo okeani insoniyat hayotida toboro muhim ahamiyatga ega bo'layotir va u keng halqaro hamkorlikni rivojlantirish makoniga aylandi.

Dunyoning bir-biriga qo'shilib ketgan qit'alari – Yevropa, Osiyo va Afrikada insoniyatning ko'pchilik qismi to'plangan, bu yerda dastlabki sivilizasiya shakllangan va rivojlangan. Ularda yashagan xalqlar o'rtasida qadimdan boshlab munosabat va aloqalar mavjud bo'lgan. Lekin Yevropa bilan Sharqiy Osiyo mamlakatlari o'rtasida bevosita aloqalar doimiy emas, tasodifiy

bo'lgan va ayrim shaxslarning kamdan-kam sayohatlari bilan cheklangan. Yevropaliklar Shimoliy-Sharqiy Osiyo, Afrikaning ichki qismlari, janubi to'g'risida ishonchli ma'lumotlarni bilganlar.

Dunyo madaniyati va sivilizasiyasi shakllanishida Sharq muhim rol o'ynagan, Xitoyliklarning yevropaliklarga kam ma'qul bo'lgan Sharqiy, Janubiy, Markaziy Osiyo va Sharqiy Afrika bilan aloqalar yo'lga qo'yilgan. Qadimda Turon, so'ngra Turkiston va Movarounnahr nomlari bilan mashhur bo'lgan hozirgi O'zbekiston hududlarida yashagan xalqlar Eski dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan aloqada bo'lganlar va ularning geografiya tasavvurlari keng va dunyoni bilish darajasi ancha yuqori bo'lgan. Qadim zamonlarda Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan «Buyuk Ipak Yo'li» O'zbekiston hududi orqali o'tganligi va bu yo'l dunyo aloqalarida okeanlar to'siq bo'lgan davrda (XV asrgacha). Eski dunyoning ko'p davlatlari savdo va madaniy aloqalarida muhim rol o'ynagan.

Buyuk geografiya kashfiyotlari arafasida Yevropa, Osiyo, Afrika birgalikda dunyoning boshqa qismlariga nisbatan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi darajasi va xalqaro aloqalarining rivojlanishi bo'yicha ancha ustunlikka ega bo'lgan.

Dunyoning yuqorida qisqacha ta'riflangan tarixiy-geografik hususiyatlari dunyo siyosiy xaritasining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Qisqacha xulosalar

Siyosiy xaritaning ahamiyati g'oyat katta bo'lib, u mamlakatlarning xalqaro o'rnini, egallagan mavqeini, ichki

siyosiy-mamuriy tuzilishii xususiyatlarini o'zida yaqqol aks ettiradi.

Hozirgi zamon dunyo siyosiy xaritasi kishilik jamiyatining uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari o'zgarishi, almashinuvi qonuniyatlarini to'la aks ettiradi. Buyuk geografik kashfiyotlar davri dunyo siyosiy va iqtisodiy xaritasida kuchli o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi.

U Yevropa mustamlakachilar bosqichining boshlanishi, dunyo xo'jalik aloqalarining keng tarqalishi, aholi ko'chish harakatlarining kuchayishiga sabab bo'ldi. SSSRning parchalanishi, yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi dunyo siyosiy xaritasida ulkan o'zgarishlarga olib keldi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

Dunyo siyosiy xaritasi tushunchasiga izoh bering; uning ahamiyati va o'ziga xosligi nimada?

Dunyo siyosiy xaritasi qanday shakllangan?

Dunyo siyosiy xaritasining asosiy bosqichlari tarifi.

Mamlakatlar tipologiyasi (guruhlari) qanday belgilarga qarab aniqlanadi.

Turli guruh mamlakatlar tasnifi.

Yangi mustaqil davlatlar tasnifi.

IV mavzu. DUNYO AHOLISI GEOGRAFIYASI

4.1. Dunyo aholisining o'sishi

Aholi tabiat va jamiyat o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni ta'minlab turuvchi asosiy bo'g'indir. XX1 asr boshiga kelib bu muammo jahonshumul ahamiyatga molik bo'lib turibdi.

Aholining tabiiy o'sishi yillar o'tgan sari ortib borayotganligi to'g'risida turli ma'lumotlar bor. Yer sharida bundan 1000 yil muqaddam 300 mln. kishi yashagan bo'lsa, 1900 yilga kelib 1mlrd. 600 mln. 1987 yili 5 mlrd, hozir esa 6 mlrd. dan oshib ketgan. “Buyuk Britaniya – 1995” yilnomasi, BMT va bashqa xalqaro tashkilotlarning hisob-kitob va taxminlariga ko'ra, 2010 yilda aholi soni 7 mlrd. 176,6 mln.ga, 2025 yilda esa 8 mlrd. 504,2 mln.ga yetadi. Hisob-kitoblardan ma'lum bo'ldiki, dunyoda har 230 kunda 1 ta turkiya aholisiga barobar nufuz ortdi. Har soniyada 3, daqiqada 155, har soatda 10609, har kunda esa 245-620 chaqaloq ro'yxatga olinadi.

Jahonda aholi sonining ozayib ketishi bo'yicha Yevropa malakatlari (Germaniya, Daniya, Finlandiya) oldinda turadi.

4.2. Dunyo aholisining zichligi va joylashuvi

Aholi Yer kurrasida nihoyatda notekis joylashgan. Aholi ko'p to'plangan uchta asosiy arealni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi areal Janubiy, Janubiy-Sharqiy va Sharqiy Osiyoni o'z ichiga oladi. Bu arealdagi mamlakatlarda o'rtacha zichlik 1 km.kv. 100 kishidan ortadi, ba'zi joylarda esa, 1000-1500 kishiga yetadi va undan ham oshadi. Aholining bunday zichligiga bu yerda kishilarning qadimdan yashashi, ko'p mehnat talab qiluvchi intensiv obikor dehqonchilik tipining

tarixiy tarkib topganligi, shuningdek, aholining tabiiy ko'payishi xususiyatlari sabab bo'lgan.

Yer shari aholisining 70%i quruqlikning 7 foizida mujassamlashgan bo'lsa, 15%da aholi umuman yashamaydi. Aholining asosiy qismi mo''tadil, subtropik va subekvator iqlim mintaqalarida joylashgan, 50% aholi dengiz satkidan 200 m.gacha bo'lgan hududlarda; 30%i dengiz sohillaridan 50 km.gacha uzoq hududlarda yashaydi.

Yer shari bo'yicha har km2 ga o'rtacha 40 kishi tugri kelsada, ayrim mamlakatlarda aholi zigligi juda yuqori(Bangladeshda har km2 ga 800 kishi, Manakoda 15,5 ming,Singapurda 4,5ming kishi tugri keladi) Yer sharida aholi eng zich yashaydigan hududlar quyidagilardir:

1. Janubiy Osiyo - Hindiston, Bangladesh, Shri-Lanka, Pokiston(aholi soni 1,5mlrdga yaqinlashmokda, zichligi 300-500 kishiG'km2);

2. Sharqiy Osiyo – Xitoy, Yaponiya, Koreya Respublikasi, KXDR(Bu hududda 1,5mlrd dan ortik aholi yashaydi, zichligi har km2 ga 200-ZOOkishi);

3. Janubi-Sharqiy Osiyo – Indoneziya, Fillippin, Tayland, Malayziya va boshqalar(aholi soni 0,5mlrd, zichlik ZOOkishi km2);

4. Yevropa (aholi soni 0,7mlrdga yaqin , zichlik 200 kishi);

5. Shimoliy Amerikaning Atlantika okeani sohillari, AQSHning shimoli-sharqi. Umuman, dunyo aholisining 60%i Osiyoda ,12%i Afrikada, 9,5%i Yevropada, 8,5%i Lotin Amerikasida, 5,5%dan Shimoliy Amerika va sobiq Ittifoq hududida, 0,5% Avstraliya va Okeaniyada istiqomat qiladi.

Zichligi katta bo'lgan ikkinchi areal Yevropada tarkib topgan. Bu arealda aholining o'rtacha zichligi 200 kishidan 400 kishigacha bo'lgan bir qancha mamlakatlar bor. Asosiy sanoat

rayonlarida aholi zichligi har km.kv.da 500-1500 kishiga yetadi va undan ham ortadi. Uchinchi areal AQSHning Shimoliy–Sharqiy qismidir. Quriqlik maydonining atigi 7%ini eg'allagan aholi eng zich rayonlarda yer sharidagi aholining 70%ga yaqini to'plangan. Shu bilan birga quruqlik maydonining yarmiga yaqinida aholi zichligi 1km2ga bir kishi ham to'g'ri kelmaydi. O'zlashtirish ayniqsa qiyin bo'lgan doimiy sovuq qutbda baland tog'li o'lkalar, cho'llar, issiq va sernam ekvatorial o'rmonlar aholi nihoyatda kam va odam butunlay yashamaydigan hududlardir. Shunday qilib, tabiiy sharoit aholining joylashishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Aholining joylashishiga tabiiy sharoit xususiyatlari emas, balki iqtisodiy va tarixiy sharoitlar: aholini kelib o'rnashgan vaqt, xo'jalik tipi, tashqi va ichki migrasiyaning intensivligi va boshqalar hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi,

Har bir mamlakatning rivojlanishi uchun aholi soni va zichligi muayyan miqdorda bo'lishi zarur. Aholining joylashishi ko'p jihatdan shaharlar geografiyasiga bog'liq. Shaharlar juda qadim zamonlarda bunyodga kelgan. Biroq ular XIX asrda ishlab chiqarishni mashinalashtirish rivojlanishi bilan ayniqsa tez o'sdi. K.Marks “shaharlarni kapitalizm bunyod etdi”,-deydi. Yer kurrasi aholisining XIX asr boshida 3%i, XX asr boshida 13%i va 1985 yilda esa 41%i shaharlarda yashagan. Hozirgi vaqtda shahar aholisi yer sharidagi butun aholiga qaraganda ikki baravar tez ko'paymoqda. 2000 yilga borib butun dunyo aholisining yarmidan ortig'i shaharlarda yashaydi.

4.3. Urbanizasiya jarayonining rivojlanishi

Mamlakat yoki rayon aholisi sonida shaharliklar salmog'ining o'sishi urbanizasiya deb ataladi. Dunyo bo'yicha

urbanizasiya darajasi XX asr boshidagi 4%dan hozirgi davrda 41% ga ortdi. Hozir dunyo mamlakatlarining 120 tasida urbanizasiya darajasi o'rtacha dunyo ko'rsatkichlaridan yuqori. Urbanizasiya darajasi ham dunyoning turli qismlarida turlicha. Masalan, xorijiy Osiyoda 27%, Afrikada 30%, Yevropada 73%. Shimoliy Amerikada 75%. Umuman, rivojlangan mamlakatlarda urbanizasiya darajasi (72%) rivojlanayotgan mamlakatlardagidan (30%) ancha yuqori.

Shahar aglomerasiyalari ham tez rivojlanmoqda. AQSHdagi Bosvash, Chiplits, Sansan megopolislarida yaqin kelajakda AQSH aholisini qariyib 50%i yashashi kutilmoqda. Yer yuzasida soni 10 mln.dan ko'p bo'lgan «bahaybat shaharlar» ancha ko'paydi Yangi asr boshlaridayoq Mexikoda-31 mln, San-Pauluda-26 mln., Tokioda-24, Nyu-Yorkda-23, Kalkuttada-20 mln aholi yashashi bashorat qilinmoqda. Aholisining soni 5 mln. dan ziyod shaharlar soni 30 taga yetadigan bo'lsa, “millioner shaharlar” soni 250 taga yetdi. Lekin bu salmog' urbanizasiya jarayonida erishilgan haqiqiy darajaning tashqi belgisidir, holos. Aslida urbanizasiya shaharlar rolining ortishi va shaharliklar turmush tarzining o'zgarishi jarayonidan iborat.

Odatda, shahar aholisi qancha ko'p bo'lsa, shaharning o'sish sur'ati shuncha yuqori bo'ladi: kichik va o'rta shaharlarda sekin, katta shaharlarda esa ancha tez o'sadi. XX asr boshida bunday shaharlar butun yer yuzida 360ta bo'lgan, hozir ular 2000 dan ortiq. Katta shaharlar sanoat konsentrasiyasining hozirgi zamon shakllariga juda mos keldi. Katta shaharlar fan bilan ishlab chiqarish aloqalarining kuchayishiga yordam beradi, kishilarning ma'naviy ehtiyojlarini yaxshiroq qondiradi, ularning tez o'sayotganligi bir qancha murakkab muammolarni keltirib chiqarishga qaramay, kichik va o'rta shaharlarni rivojlantirish zaruratini sira ham mustasno qilmaydi.

Lekin shaharlarning o'zgarishi faqat aholisi sonining o'sishi bilangina cheklanmaydi. Urbanizasiyaning hozirgi bosqichi uchun shaharlar joylashishining oddiy shakllardan murakkabroq shakllariga o'tishi, ya'ni aholining odatdagi bir katta shaharda to'planishidan shaharlar guruhida joylashishi ayniqsa harakterlidir. Shahar guruhi sistemasining oliy shakli shaharlar aglomerasiyasidir. Binobarin, shahar aholisining ko'payishi jarayoni katta shaharlarda va shahar aglomerasiyalari aholining ko'plab to'plana borishidan ham iboratdir.

Mamlakatlar urbanizasiya darajasi va sur'atlari jihatidan bir-biridan katta farq qiladi. Amerika, Avstraliya va Yevropada urbanizasiya eng yuqori darajaga yetgan, bu jihatlardagi ko'p mamlakatlarda shahar aholisining o'sishi amalda nihoyasiga yetayapdi, boshqalarda esa shahar aholsining ko'payish sur'atlari katta emas. Osiyo va Afrikaning ko'pchilik mamlakatlarida, aksincha, urbanizasiya darajasi hali juda past, lekin uning o'sish sur'atlari juda yuqori.

Urbanizasiya darajasini taqqoslaganda, hamma mamlakatlar uchun yagona bo'lgan “shahar” tushunchasi yo'qligini e'tiborga olmoq kerak. Masalan, Daniyada aholisi 200dan ortiq bo'lgan aholi punktlari, Niderlandiya esa aholisi 20 mingdan ortiq bo'lgan aholi punktlari shahar deyladi. Afrika va Lotin Amerikasining ko'p mamlakatlarida aholisi sonidan qat'i nazar barcha ma'muriy markazlar shahar deyilaveradi.

Shaharlar juda tez o'sayotganligiga qaramay, hozircha dunyo aholining ko'pchilik qismi qishloq joylarda yashaydi. Yevropa bilan Shimoliy Amerikada barcha qishloq aholisi qishloq xo'jaligi bilan band bo'lmagan holda Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarida qishloq aholisi bilan qishloq xo'jalik aholisi o'rtasida farq deyarli yo'q.

Qishloq aholi punktlarining joylashishi shakllari har-xil bo'ladi. Qishloq aholi punktlarining to'p-to'p bo'lib joylashish shakli ustun turadi. Ba'zi mamlakatlar va rayonlar qishloq aholi punktlarining alohida qo'rg'on shaklida tarqoq joylashishi tarqalgan.

4.4. Aholining jinsiy, diniy va irqiy tarkibi

Aholining jinsi va yoshi bo'yicha tarkibi. Dunyo bo'yicha o'g'il bolalar qiz bolalarga qaraganda bir oz ko'proq tug'iladi va umuman olganda, dunyo aholisining jinsiy tarkibida erkaklar bir oz ko'proq.

Aholining yoshi bo'yicha tarkibi uning tabiiy ko'payishi ta'sirida tarkib topadi. Unga migrasiya va urushlar ham ancha ta'sir ko'rsatadi. Aholi ko'payishining birinchi tipiga aholi yoshi strukturasining o'ziga xos tarkibi to'g'ri keladi, bunda kichik yoshdagilar salmog'i katta bo'ladi. Aholi ko'payishining ikkinchi tipi ustun bo'lgan mamlakatlarda kichik yoshdagilar salmog'i juda yuqori (40-45%) va katta yoshdagilar salmog'i nihoyatda kichik (odatda 306%) bo'ladi.

Yer shari aholisining turli dinlarga mansubligini bilish ham muhimdir. Eng ko'p tarqalgan dinlarga uch masxabga ega bo'lgan xristian dini, islom dini, hind dini va buddizm kiradi. Din davlatdan ajratilgan sosialistik mamlakatlarda diniy sarqitlar hozircha saqlanib kelayotgan bo'lsada, lekin dinning roli katta emas.

4.5. Mehnat resurslari va bandlik muammolari

Aholining jismonan rivojlangan va sog'lom, mehnatga yaroqli qismi mehnat resurslarini tashkil etadi. Mehnatga

yaroqli aholiga, odatda, 15 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan kishilar kiradi. Mehnatga yaroqli aholining asosiy qismini ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashuvchi iqtisodiy faol aholi tashkil etadi.Aholining mehnat faoliyatiga munosobatiga karab : mehnatga layoqatligacha bo'lgan, mehnatga layoqatli va mehnatga layoqatlidan keyingi guruhlar ajratiladi.

Asosiy mehnat resurslari mehnatga layoqatli va mehnat yoshidagi, xususan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiydigan va harbiy xizmatdagilarni o'zida birlashtirsa, qo'shimcha mehnat resurslariga 14-16 yoshdagi ishluvchi o'spirin-yoshlar va xizmatini davom etdirayotgan nafaqaxo'rlar kiradi.

Ishga layoqatli yosh turli mamlakatlarda turlicha belgilangan. Masalan, Rossiyada 16-59 yoshdagi erkaklar , 16-54 yoshdagi ayollar mehnat resurslari hisoblanadi. AQSH da erkak va ayollar bir xil – 16-65, Finlyandiya, Yaponiya, Kanada, Germaniyada 15 yoshdan mehnatga layoqatli hisoblanadi. Uning yuqori chegarasi aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi, mamlakatning iqtisodiy salohiyati asosida belgilanishi mumkin.

Aholi bandligi ham turli mamlakatlarda turlicha .Masalan, moddiy boyliklar ishlab chiqarish sohasida Rossiya aholisining (mehnatda band aholining) 70%i, AQSH aholisining 54%i, noishlab chiqarish sohasida esa Rossiyaning 30%, AQSHning 46% mehnat resurslari band. Bu ko'rsatkichlar qishloq xo'jaligi bo'yicha Rossiyada 15%ni, AQSHda 3%ni, sanoatda Rossiyada 37%ni, AQSHda 24%ni, xizmat ko'rsatish sohasida Rossiyada 48%ni, AQSHda 70% ni tashkil etadi.

Iqtisodiy faol aholi salmog'i G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika mamlakatlarida, Avstraliyada 40-45%ni, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida 30-40%ni tashkil etadi. Ishsizlikka barham berish ko'plab mamlakatlarda eng asosiy

muammolardan birga aylangan. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida esa, ishsizlarning mavjudligiga, iqtisodning umuman, sust rivojlanganligi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishga kam tortilganligi, kichik yoshdagilar ko'pchilikni tashkil etishi sababdir.

Mehnatda band aholini tarkibida qishloq xo'jaligi va unga yaqin bo'lgan sohalarda band aholi ko'pchilikni tashkil etadi. Bu sohalarda yer shari iqtisodiy faol aholisining yarmidan ortig'i band.

Qishloq xo'jaligida band aholi salmog'ining kamayishi sanoatda va moddiy boylik ishlab chiqaruvchi boshqa tarmoqlarda band aholi salmog'ining oshishi bilan qoplanib bormoqda. Biroq fan-texnika taraqqiyoti tezlashib borayotgan davrda moddiy boylik ishlab chiqarmaydigan tarmoqlarda band aholi salmog'i yanada tezroq o'sib boradi. Umuman, bu progressiv tendensiyadir. Buning sababi shuki, birinchida, moddiy boylik ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi tez o'sadi, ikkinchidan, aqliy mehnatning roli ortadi, ilmiy va texnik xodimlar soni ko'paya boradi, shuningdek, boshqarish va xizmat ko'rsatishning turli shakllari kengayadi.

Aholining etnik tarkibi. Yer shari aholisi juda ko'p etnik birliklardan iborat.Ana shunda birliklarning eng kichigi - qabila, o'rtasi elat va kattasi millatdir. Bu tushunchalar bilan birga yana umumlashtiruvchi “xalq” degan atama ham bor. Sovet etnografiyasida xalq atamasi orqali etnik birliklarning hammasini ifodalash qabul etilgan.

Yer yuzida 2000dan ortiq milliy guruhlar bor, lekin ularning ko'pchiligi juda kam sonlidir. Aholisi soni 50 mln. kishidan ortiq bo'lgan eng yirik xalqlardan 18tasi butun insoniyatning yarmiga yaqinini tashkil etadi. Eng yirik til oilalari

(hind, yevropa, xitoy,tibet, malayziy, polineziya, dravid, semit-hamit, buntu, oltoy tili oilalaridir).

Milliy va siyosiy chegaralari bir-birlariga to'g'ri kelib qolganda bir millatli davlatlar hosil bo'ladi. Polsha yoki Yaponiya bir millatli davlatlarga misol bo'lishi mumkin. Ba'zi mamlakatlar bir millatli davlatlar tipiga yaqin bo'lib, ularda aholining juda oz qismini kichik millatlar tashkil etadi. Masalan, Finlyandiya. Ikki va undan ko'p millatli davlatlarga Rossiya, Hindiston va boshqalar kiradi.

Qisqacha xulosalar

Mavzuda dunyo aholisining hududiy joylashuvidagi qonuniyatlar ochib berilgan. Muayyan tarixiy davrlar mobaynida aholi sonining o'sish dinamikasi ko'rsatilgan. Jahon aholisining diniy va irqiy tarkibiga keng o'rin ajratilgan. Unda asosiy irkiy guruhlar, dunyo dinlari va ularning hududiy tarkalishi bo'yicha ma'lumot berilgan.

Iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha bo'lgan mamlakatlarda mehnat resurslarining tarkibi, ular orasidagi tavofutlar haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

Aholining tabiiy o'sishiga va zichligiga qanday omillar ta'sir etadi? Ularga tarif bering.

«Demografik portlash» nima?

Yer yuzida aholi irkiy tarkibi bo'yicha kanday tarkalgan?

Aholi migrasiyasining asosiy oqimlari nimalardan iborat?

Urbanizasiya jarayoni yuqori bo'lgan hududlarni bilasizmi?

Mehnat resurslaridan foydalanish muammollari haqida nima deya lasiz?

V mavzu. JAHON XO'JALIGI GEOGRAFIYASI

5.1. Dunyo xo'jaligining umumiy ta'rifi

Dunyo xo'jaligining shakllanishi juda uzoq davom etgan tarixiy jarayon bo'lib, unda insoniyat ayrim yashagan ibtidoiy odam to'dalaridan butun dunyoni qamrab olgan iqtisodiy munosabatlargacha, tosh qurollaridan eng murakkab elektron-hisoblash mashinalaridan foydalanishgacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tdi. Dunyo xo'jaligi (DX) shakllanishi eng avvalo jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, tabiat bilan jamiyat o'rtasida modda almashinuvining to'xtovsiz oshib borishi, turli mamlakatlar, regionlar o'rtasida savdo-moliya va ishlab chiqarish munosabatlarining muntazam o'rnatilishi va shu asosda dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga to'siq bo'lib kelgan milliy xo'jaliklarning asrlar davomida bir-birlaridan ajralgan holda va alohida hayot kechirishiga chek qo'yilishi davrigacha bo'lgan tarixni to'la aks ettiradi.

Jahon xo'jaligi dunyodagi barcha mamlakatlar milliy xo'jaliklarining jahon iqtisodiy aloqalari orqali o'zaro uzviy bog'langan va tarixan shakllangan majmuasidir. U dunyo ishlab chiqarish kuchlarining ming yillik evolyusiyasi natijasidir. Jahon xo'jaligining shakllanishi bir nechta bosqichga bo'linadi: 1) dunyo xo'jaligi shakllanishining XVI-asrgacha bo'lgan bosqichi; 2) jahon xo'jaligining paydo bo'lish davri (XVI-XVII asrlar)

asosan Buyuk geografik kashfiyotlarga bog'liq bo'lib, xalqaro savdo dunyoning barcha mamlakat va regionlarini qamrab olgan paytga to'g'ri keladi; 3) jahon xo'jaligining shakllanish va kengayish davri (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshi) transport, kit'alarora aloqalar, dunyo bozorining tez rivojlanishi bilan bog'liqdir; 4) jahon xo'jaligining chuqurlashuv davri (XX asrning ikkinchi yarmidan hozirgacha) yirik mashina industriyasi, transport va dunyo bozorining birgalikda rivojlanishi natijasidir. So'nggi bosqichda ko'plab sobiq mamlakatlar mustaqillikka erishdilar va o'z iqtisodiyotini rivojlantirib, dunyo xo'jaligiga qo'shildilar.

Hozirgi paytda dunyo xo'jaligida itegrasiyaning yanada kuchayishi bilan bog'liq bo'lgan yangi bosqich boshlanayotgani kuzatilmokda. Uning asosiy xususiyati dunyo xo'jaligi tizimiga kiradigan mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqalar yuqori darajaga ko'tarilishi jarayonining tabora kuchayishi bilan bog'liqdir. Integrasiya jarayonida transmilliy korporasiyalar katta ahamiyatga ega bo'lmoqda, bir nechta mamlakatlar hududlarini birlashtiruvchi yirik bozor zonalarini barpo etishga katta e'tibor berilmokda (masalan, Yevropa Ittifoqi, erkin savdo to'g'risida Shimoliy Amerika Shartnomasi va boshqalar).

«Dunyo xo'jaligi» tushunchasi «ijtimoiy mehnat taqsimoti», «xo'jalik xalqaro iqtisodiy integrasiya» tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir. Bundan tashqari bu tushuncha geografik kategoriya bo'lib, uni o'rganish qo'yidagi uch bosqichni o'z ichiga oladi:

1. dunyo xo'jaligining umumiy geografiyasi;
2. dunyo xo'jaligi tarmoqlari geografiyasi;
3. dunyoning yirik regionlari va subregionlari geografiyasi.

Navbatdagi bosqich – ayrim mamlakatlar – «Iqtisodiy geografiya»ning mamlakatshunoslik yo'nalishiga taalluqlidir.

Dunyo xo'jaligi tuzilishi o'zgarib bormoqda. Shu bilan bir qatorda unga xilma – xillik va ichki ziddiyatlar xosdir. Chunki dunyo xo'jaligi ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi va tuzilishi har xil bo'lgan mamlakatlar xo'jaligini o'z ichiga oladi.

Jahon bozori dunyo mamlakatlari iqtisodiy aloqalarining asosini tashkil etadi. Transportning (temir yo'l, havo, dengiz, quvur) va kontinentlararo aloqalarning juda tez rivojlanishi uning kengayishiga imkon berdi. Hozirgi dunyoda har bir mamlakatning taraqqiyoti uning jahon moddiy va nomoddiy ayirboshlashida qatnashuvi bilan uzviy bog'liqdir.

Transport har qanday mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biridir. Ilmiy-texnika inqilobi (ITI) davrida barcha transport turlarining tezligi o'sdi, yuk tashish hajmi oshdi, shunga bog'liq holda dunyoning turli burchaklariga borib-kelish ancha osonlashdi. Dengizlar tubidan ko'plab neft va gaz quvurlari, okeanlar tubidan esa kabel liniyalari (axborot uzatish vositasi) o'tkazilgan. Xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan foydalanishda dengiz transporti yetakchi o'rinni egallaydi, uning hissasiga mamlakatlar o'rtasidagi barcha yuk tashishning 80% ga yaqini to'g'ri keladi. Dunyo flotining peshqadamlari qatoriga Yaponiya, AQSH, Liberiya, Panama, Gresiya, Xitoy, Kipr kiradi. Savdo floti tonnaji bo'yicha Rotterdam (Niderlandiya), Yangi Orlean, Nyu-York (AQSH), Tiba, Kobe, Nagoya, Iokogama (Yaponiya),Marsel, Gavr (Fransiya), Mina-El-Axmadi (Kuvayt), Antverpen (Belgiya), Gonkong, Singapur portlari yirik hisoblanadi.

Okean trassalarinng eng ‘quyuqlashgan’ tugunlari bo'g'ozlar va dengiz kanallari hisoblanadi. La-Mansh (Angliya) bo'g'ozi orqali sutkasiga 500, Gibraltar orqali – 140 dengiz

kemasi o'tadi. Dunyoning eng yirik dengiz kanallari Suvaysh (Misr, 1869 yildan boshlab) va Panama (Panama, 1920) hisoblanadi. Yiliga Suvaysh kanalidan 20 ming kema o'tadi, uning yuk hajmi 350 ming t. (dunyo dengiz transporti yuklarining 14%i). Panama kanalida bu ko'rsatgichlar 14,6 ming kema va 170 ming t.ga teng. Kil kanali ularga nisbatan kichik bo'lib, u Sharqiy Yevropadan G'arbiy Yevropaga o'tadigan yo'lda joylashgan muhim kanaldir.

Hozirgi dunyo xo'jaligining asosini xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) tashkil etadi. Mehnat taqsimotining eng oddiy shakli dastlab jamiyat taraqqiyotining boshlanishi davrida paydo bo'lgan bo'lib, u bolalar, qariyalar o'rtasidagi tabiiy bo'linishga asoslangan mehnat taqsimoti bo'lgan. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi jarayonida oddiy tabiiy mehnat taqsimoti asta-sekin ijtimoiy mehnat taqsimotiga aylanadi. U jamiyat ichidagi, mamlakatlar va regionlar, iqtisodiyot tarmoqlari, ayrim korxonalar va hatto ayrim ishlovchilar o'rtasida mehnat taqsimotini ham kamrab oladi.

Geografik mehnat taqsimoti ijtimoiy mehnat taqsimotining ajralmas tarkibiy qismi, u hududlarning ixtisoslashishi jarayonini va hududlarning ixtisoslashgan, mahsulotlar va xizmatlarni ayirboshlashini ifodalaydi. Geografik mehnat taqsimotining oliy shakli xalqaro mehnat taqsimotidir(XMT). XMT ayrim mamlakatlar xo'jaligining ma'lum mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishini va bu mahsulotlarni boshqa mamlakatlar bilan ayirboshlashini bildiradi. U mamlakatlar o'rtasida ko'p tomonlama aloqalarni amalga oshirishga olib keladigan va ayrim mamlakatlar xo'jaligining o'zaro bog'liq holda jahon bozorida sotish uchun ma'lum mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi jarayoni natijasi hisoblanadi.

Xalqaro geografik mehnat taqsimotini N.N.Baranskiy ««Iqtisodiy geografiya»»ning asosiy tushunchasi, deb atagan. U geografik mehnat taqsimoti shakllanishining dastlabki shart-sharoitlarini asoslab berdi. Geografik mehnat taqsimoti faqat tovarning ishlab chiqarilgan joydagi bahosi transport xarajatlarini qo'shib hisoblaganda ham sotiladigan joydagi bahosidan ortiq bo'lgan holdagina amalga oshiriladi. Shu sababdan transport xarajatlarini pasaytirish xalqaro geografik mehnat taqsimotini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Dunyo mamlakatlari xalqaro mehnat taqsimotining shakllanishida va rivojlanishida ishtiroq etishi uchun quyidagi asosiy shart-sharoitlar bo'lishi lozim:

1) XMTda ishtirok etuvchi mamlakatlar ma'lum mahsulotlarni ishlab chiqarishda boshqa mamlakatlarga nisbatan qandaydir ustunlik va afzallikka ega bo'lishi(masalan, tabiiy resurslarga boyligi, tabiiy sharoitning qulayligi);

2) Ushbu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi mamlakat tashqarisida bu mahsulotga ehtiyoji borligi va uni yuqoriroq bahoda sotib oluvchi xaridor mamlakatlarning mavjudligi;

3) Mahsulotni sotish joyiga tashib borish xarajatlari mahsulot ishlab chiqaruvchi mamlakat uchun zararli bo'lmasligi va foyda berishi.

Xalqaro mehnat taqsimoti eng avvalo moddiy ishlab chiqarish tavarlarining xalqaro savdosi bilan ifodalanadi, lekin u shuningdek, xizmatlar ayriboshlashini ham o'z ichiga oladi (xalqaro turizm, moliyaviy vositachilik faoliyati, transport xizmati, kadrlarni o'qitish va boshqalar).

Dunyo mamlakatlarining o'zaro iqtisodiy aloqalari faqat tavar savdosi va xizmat ayirboshlashi bilan cheklanmaydi. Hozirgi dunyo xo'jaligi kapital oqimlari va odamlarning migrasiya oqimlari mavjudligi, ularning aralashib ketganligi

bilan xarakterlanadi. Bularning hammasi birgalikda «xalqaro mehnat taqsimoti» tushunchasini tashkil etadi.

Dunyoning ko'pchilik mamlakatlari xo'jalik qiyofasini ularning xalqaro ixtisoslashuvi belgilab beradi. Masalan, Yaponiya radioelektronika va robototexnika, avtomobil, dengiz kemalarining yirik eksportyori hisoblanadi. Bolgariya agrosanoat mahsulotlari, ko'tarma transport jihozlari ishlab chiqarishga, Saudiya Arabistoni, Quvayt va Fors ko'ltig'ining boshqa mamlakatlari neft eksportiga ixtisoslashgan. Zambiya dunyoda mis rudasi va tozalangan misning eng yirik eksportyoridir. Burundi va Ugandaning 80% dan ko'proq eksportini kofe tashkil etadi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Har qanday mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotiga jalb etilishi birinchi navbatda ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi darajasi bilan belgilandi. Shu sababdan industrial rivojlangan mamlakatlar qimmatbaho mahsulotlar – mashina va jihozlar, kimyo sanoati mahsulotlari va boshqalarni ishlab chiqarishga ixtisoslashib, hozirgi XMT da yetakchi o'rinni egallaydilar. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar esa mineral xom ashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan savdo qilishga ixtisoslashishga majbur bo'lmoqdalar.

XMTga ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasidan tashqari yana qo'yidagi geografik omillar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi: iqtisodiy-geografik o'rnining qulayligi yoki noqulayligi (masalan, mamlakatning asosiy dengiz savdo yo'llarida yoki kontinent ichkarisida joylashishi); turli-tuman tabiiy resurslarning mavjudligi (qulay iqlim sharoiti, rudali va rudasiz foydali qazilmalar). Shu bilan bir qatorda so'nggi yillarda XMTda ijtimoiy-iqtisodiy sharoit yetakchi rol o'ynamoqda. Masalan, qo'pchilik tropik malakatlarning kofe,

shakar-qand, kakao sotishga ixtisoslashuvi birinchi o'rinda Jahon bozorida ushbu tavarlarga talabning mavjudligi bilan belgilanadi.

Dunyo mamlakatlarining XMTda qanday tarmoqlarga ixtisoslanishi katta ahamiyatga ega. Mamlakatlarning kam sonli mahsulotlar yetkazib berishga haddan tashqari ixtisoslashishi ularning xo'jaligini jahon bozoridagi baholar tebranishiga kuchli darajada bog'lab quyadi, bu esa mamlakatlar iqtisodiyoti tarmoqlari tarkibini qashshoqlashtiradi «Monokultura ixtisoslashishi», xo'jalikning eksportga yo'naltirilishi. tabiiy resurslarni qazib olishga asoslangan tarmoqlar katta daromad berishi mumkin, lekin ular og'ir jismoniy mehnatni ko'p talab qiladi va ularning rivojlanishi alohida yo'nalishda bo'lib, mahaliy xo'jalikning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishni rag'batlantirmaydi. Bu muammolar dunyoning ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlari uchun xosdir.

Shu bilan bir qatorda «uchinchi dunyo» mamlakatlari orasida XMTda yangi industrial mamlakatlar (YAIM) alohida o'rinni egallaydi. Ular qatoriga Braziliya, Meksika, Misr, Turkiya, «Osiyo yo'lbarslari» - Gonkong, Singapur, Tayvan, Janubiy Koreya kiradi (ko'p hollarda Turkiya va Janubiy Koreyani iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shadilar). So'nggi yillarda ularga ko'pchilik iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha Malayziya, Tailand, Indoneziya yaqinlashmoqda.

Dunyo xo'jaligining ishlab beruvchi tarmoqlari, ayniqsa, murakkab mashinasozlik, elektronika, elektrotexnika yuqori malakali mehnat bilan bog'liq bo'lib, faqat har tomonlama rivojlangan xo'jalikka asoslanib rivojlanadi va bunda ular butun jamiyatning kelajakdagi rivojlanishi omili bo'lib xizmat qiladi.

Keyingi yillarda dunyo xo'jaligida jiddiy o'zgarish sodir bo'ldi. Bu o'zgarishlarga sabab bo'lgan omillar katoriga ilmiy-

texnika inqilobi (ITI), integrasiya jarayonlari, shuningdek, xom ashyo, energetika va umumiqtisodiy krizislar (buhronlar), umuminsoniy global muammolarning keskinlashuvi (demografik, ekologik va boshqalar) kiradi.

Xozirgi dunyo, xususan, dunyo xo'jaligi rivojlanishining g'oyat muhim bo'g'ini-mamlakatlar, mamlakatlar guruhi, kontinentlar o'rtasida iqtisodiy va noiqtisodiy aloqalarning g'oyat ko'chayishi hisoblanadi. Hozir birorta, hatto, eng rivojlangan mamlakatlar ham zamonaviy mahsulotlarning barcha turlarini bir xil darajada samarali ishlab chiqara olmaydi, bunga xojat ham yo'q.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning ko'p shakllari mavjud bo'lib, ular qatoriga tashqi savdo, kapital chiqarish, ilmiy-texnika hamkorligi, kompensasiya kelishuvlari, kredit-moliya munosabatlari, turli xizmat ko'rsatish yo'nalishlari, xalqaro turizm , ob'yektlarni birgalikda qurish va boshqalar kiradi.

Har bir mamlakat uchun halqaro iqtisodiy aloqalar turli shakllarining roli ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasi, XMTdagi xo'jalik ixtisoslashishi va boshqalar bilan belgilanadi. Dunyoning ko'pchilik mamlakatlari uchun tashqi savdo tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shaklidir. XMTda qatnashish darajasini tovar va xizmatlar eksporti va importi tuzilishi belgilab beradi.

Dunyo xo'jaligi doirasida xalqaro savdoning bir necha asosiy geografik yo'nalishlari shakllangan. Masalan, dunyoning eng katta hajmli savdosi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar (G'arbiy Yevropa, AQSH, Yaponiya) o'rtasida olib boriladi va ularning dunyo tovar oborotidagi salmog'i 70%ga teng. Bu asosan tayyor sanoat mahsulotlari savdosidan iboratdir.

Xalqaro savdoda rivojlanayotgan mamlakatlarning salmog'i oshib bormoqda. Bu bir tomondan, ulardan hom

ashyo eksporti (yangi industrial mamlakatlardan tayyor buyumlar ham), boshqa tomondan, mashina va oziq-ovqatlar importiga bog'liqdir. Bu mamlakatlar uchun mashina va jihozlar bohosi hom ashyoga nisbatan tez oshib borayotganligi sababli noqulay savdo shikoyatlari yuzaga kelmoqda. Ularning ko'pchiligi rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti bo'lib qolmoqda.

Rivojdanayotgan mamlakatlar o'zlarining tashqi savdosini qayta qurishga, rivojlangan mamlakatlar bilan shaklangan munosabatlarni o'zgartirishga harakat qilmoqda. Ular yangi dunyoviy iqtisodiy tartib o'rnatilishi zarurligi to'g'risidagi talablarni tez-tez ko'ymoqdalar. Bu talablarga rivojlanayotgan mamlakatlar hududlarida joylashgan transmilliy korporasiyalar faoliyatini nazorat kilish, hom ashyo va tayyor buyumlarga haqqoniy baholar belgilash, har qanday yordamni siyosiy shartlarsiz berish va boshqalar kiradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida savdo-sotiq kam rivojlangan, uni rivojlantirish esa rivojlangan davlatlar bozorlariga bormasdan, ko'plab tavarlar ayirboshlashini amalga oshirishga imkon bergan bo'lar edi.

DX va XMT dunyo mamlakatlarining barchasini qamrab olib, keyingi yillarda kengayish yo'nalishida emas, balki chukurlashish yo'nalishida jadal rivojlanmoqda. Iqtisodiy munosabatlar murakkablashib, yangi shakllarga o'tmoqda. Xalqaro ixtisoslashish va ayirboshlashning chuqurlashishi, ayniqsa, qator mamlakatlar milliy xo'jaliklarining bir-birlariga chambarchas qo'shilib ketishiga olib keldi. Oqibatda XMT ning yangi, oliy bosqichi – xalqaro iqtisodiy integrasiya (XII) paydo bo'ldi. U mamlakatlar guruhining iqtisodiyot va siyosat sohasida davlatlarora kelishuviga asoslangan chuqur va

muntazam o'zaro aloqalari jarayonining rivojlanishini ifodalaydi.

Dunyoning eng muhim regional va tarmoq iqtisodiy guruhlaridan qo'yidagilarni ko'rsatish lozim: Yevropa Itifoqi (YEI), Janubiy – Sharqiy Osiyo mamlakatlari assosiasiyasi (ASEAN), Lotin Amerikasi integrasiyasi assosiasiyasi (ALADI), Shimoliy Amerika erkin savdo shartnomasi to'g'risida (NAFTA), neft eksportri mamlakatlari Tashkiloti (OPEK) va boshqalar. Uchinchi dunyo mamlakatlari o'rtasida uzoq muddatli savdo, valyuta, ishlab chiqarish aloqalarini rivojlantirish iqtisodiy rivojlangan davlatlarning rivojlanayotgan mamlakatlar regionidagi ta'siriga qarshi ma'lum shart-sharoitlar yaratishi, teng huquqli xalqaro iqtisodiy munosabatlarni o'rnatish asosida ularning iqtisodiy rivojlanishiga ko'shimcha impuls berishi mumkin.

Quyidagi jadvalda dunyoning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari berilgan:

1-jadval

Hozirgi dunyoning asosiy iqtisodiy ko`rsatkichlari (%)

Mamlakat tiplari, mamlakatlar guruhi	Hududi	Aholisi	Sanoat ishlab chiqarishi-dagi hissasi	Qishloq xo`jaligi hissasi	Tashqi savdo oboroti	Yalpi milliy daromad
Dunyo	100	100	100	100	100	100
Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar	23,8	15,2	66	40	70,4	59
shu jumladan: G`arbiy Evropa	2,7	7,0	23	19	45,8	25
Rivojlanayot-gan mamlakat-lar	76,2	53,5	17	30	22,3	14

Jadval ma'lumotlarini tahlil etishda quyidagi holatni hisobga olish lozim: eng yirik halqaro tashkilotlar (Jahon Valyuta Fondi (JVD) va boshqalar) jadvalda berilgan dunyo iqtisodiyoti to'g'risidagi ma'lumotlarni uncha to'g'ri emas, deb hisoblaydilar. Bir guruh iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda dunyo aholisining 20%ga yaqini yashagani holda, ular dunyo boyliklarining $\frac{2}{3}$ qismini ishlab chiqarishi to'g'risidagi tezis o'tmishga xos tushunchalar bo'lib qolayotir. Gap asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni statistik hisoblash usullarining tubdan o'zgartirilganligi to'g'risida bormoqda. Yangi qabul qilingan usul bo'yicha dunyo mamlakatlari yangi mahsulot miqdori dollarni ayirboshlash kursi (qiymati) bo'yicha emas, balki milliy valyutalarning xarid quvvati kursiga asoslanib hisoblanadi.

Shu munosabat bilan Jahon Valyuta Fondi (JVF) hisoblariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarning dunyo iqtisodiyotidagi salmog'i 30%dan ko'proq (ilgarigi hisoblardagidek 18 yoki 14% emas), industrial mamlakatlar esa jahon boyliklarining yarmidan sal ko'prog'ini ishlab chiqaradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari yuqoriligi sababli(ayniqsa, «yangi industrial mamlakatlarda») XX asarning oxirida rivojlangan mamlakatlarga dunyo ishlab chiqarishining yarmidan kamrog'i to'g'ri kelib qoldi.

Yangi hisoblash tizimiga ko'ra valyutalarning xarid quvvati tengligi (pariteti) bo'yicha har bir rivojlangan mamlakatning valyuta «statusi» pasayadi, Bunda Xitoy, Turkiya, Meksika, Hindiston, Braziliya, Tayland kabi mamlakatlarning «salmog'i» oshadi. Xitoy, hatto, dunyoning uchinchi yoki to'rtinchi iqtisodiy davlati darajasiga ko'tariladi (Xitoyda ilgarigi hisob tizimi bo'yicha aholi jon boshiga ichki yalpi mahsulot (IYAM)

1992 yilda hammasi bo'lib 370 dollarlikni tashkil etgan, yangi hisob bo'yicha esa-2460 dollarlik). Bular, so'zsiz, katta farqlardir. Hozirgi paytda Jahon rekonstruksiya va rivojlanish banki (yoki Jahon banki) ham hisoblarni milliy valyutalarning xarid quvvatiga asoslanib olib borilmoqda va kreditlarni juda qattiq talablarga asoslanib bermoqda. Eng imtiyozli kreditlar eng kam rivojlangan mamlakatlarga berilayotir (yiliga aholi jon boshiga 765 dollar), yillik daromad aholi jon boshiga 4300 dollardan yuqori bo'lgan mamlakatlarga esa, hech qanday kredit berilmayotir. Shunday qilib, JVF hisoblari uzoqqa boradigan oqibatlarga olib kelishi va dunyo iqtisodiy geosiyosatini o'zgartirishi mumkin. Kishilik jamiyati esa o'zining yashashi va faoliyati uchun zarur bo'lgan eng yaxshi, ideal iqtisodiy tizimni yaratishga doimo harakat qilaveradi.

5.2. Fan-texnika inqilobi va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish

XX asrning o'rtalarida boshlangan hozirgi zamon fan-texnika inqilobi (FTI) butun dunyo hayotini, shu jumladan, dunyo xo'jaligining rivojlanishida yuz bergan keskin sifat o'zgarishi ishlab chiqarish kuchlarini tubdan qayta o'zgartirib yubordi. FTI fan, texnika, texnologiya, ishlab chiqarish, boshqarishni, hamma tarmoqlar va sohalarni, mehnat jarayonini, turmush sharoitini, madaniyatini, kishilar ruhiyatini o'zgartirdi, jamiyatning moddiy va ma'naviy imkoniyatlarning tez o'sishiga sabab bo'ldi. Bularning hammasi fanning gurkirab rivojlanishi va jamiyatning bevosita ishlab chiqaruvchi kuchiga aylanishi bilan uzviy bog'liqdir Birinchidan, zamonaviy fan kashfiyotlar industriyasiga, texnika rivojlanishining qudratli tezlashtiruvchisiga aylandi. Shunga bog'liq holda yangi «fan –

ishlab chiqarish» va «ta'lim – fan – ishlab chiqarish» paydo bo'ldi. Ikkinchidan, FTI ishlab chiqarishning texnika bazasini tubdan o'zgartirdi. Elektron-hisoblash texnikasi va robotlardan keng miqyosda foydalanish texnologiyaning o'zgarishi, mutlaq yangi kimyoviy materiallarning paydo bo'lishi, energiya turlarining kashf etilishi va ulardan foydalanish (atom, termoyadro), «mikroelektron inqilob» yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish(tez o'zgara oladigan ishlab chiqarish tizimlari, robot-zavodlar(«odamsiz» zavodlar) va boshqalar tarixan shakllangan dunyo xo'jaligining strukturasida tub siljishlar yuz berishiga, uni rivojlantirish va joylashtirish omillari, prinsiplarining o'zgarishiga olib keldi. Shu munosabat bilan asrlar davomida dunyoning yetakchi mamlakatlari qudrati asosini tashkil etgan tarmoqlarning roli pasaymoqda, ayni paytda fantalab mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi yuqori texnologiyali tarmoqlarning etadigan ahamiyati ortib, ular g'oyat jadal sur'atlarda rivojlanmoqda.

FTIga bog'liq holda dunyo xo'jaligida yuz berayotgan o'zgarishlar va siljishlar bir tomondan, zamonaviy ta'lim tizimi muvaffaqiyatlari, boshqa tomondan esa, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (ITTKI) va fan taraqqiyoti uchun qilinayotgan xarajatlarning mutassil oshib borayotgani bilan uzviy bog'liqdir. Masalan, sanoatga FTI yutuqlarini joriy qilish bo'yicha erishgan yutuqlari dunyoda tan olingan Yaponiyaning muvaffaqiyatlari mamlakatda g'oyat namunali yo'lga qo'yilgan ta'lim tizimi va unga sarflanayotgan katta sarf-xarajatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Bu mamlakatda ilmiy-tadqiqot va ITTKI olib boradigan 450 universitet bor. Rivojlangan mamlakatlardan AQSH, Yaponiya, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniyada g'oyat katta ilmiy potensial bo'lib, ular hissasiga dunyo olimlarining 85%i to'g'ri keladi. AQSHda 2,6 mln kishi

fan bilan band yoki mamlakatda har 10ming kishiga 107 ilmiy hodim to'g'ri keladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa mutlaqo boshqa axvol mavjud: har 10 ming aholiga 1 ilmiy xodim to'g'ri keladi, holos. Barcha rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga 10% olim va muxandislar to'g'ri keladi. Ularning yarmi 4ta mamlakat – Hindiston, Braziliya, Argentina, Meksikada .

FTI davrida ITTKI larga sarflanadigan xarajatlar g'oyat muhim iqtisodiy ko'rsatkichga aylanmoqda. Dunyo miqiyosidagi shunday xarajatlarning 85%i sanoati rivojlangan asosiy mamlakatlar - AQSH, Yaponiya, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya hissasiga to'g'ri keladi. Bunda AQSH ning xarajatlari (140 mlrd dollar) taxminan G'arbiy Yevropa va Yaponiya mamlakatlarining birgalikdagi yalpi xarajatlariga baravar. AQSH va boshqa G'arb mamlakatlarida o'rtacha bunday xarajatlar ichki yalpi mahsulotning 1,5 dan 3% gachasini tashkil etadi. Ayrim fantalab tarmoqlarda bu hissa 10-15% va undan ko'proqqa ham yetadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ITTKI xarajatlari YAIM ning 0,4%iga teng. Rivojlanayotgan mamlakatlarning G'arb mamlakatlaridan ancha orqada qolayotganligini aholi jon boshiga sarflanayotgan xarajatlar yaqqol ko'rsatadi: 1 dollar va 110 dollar. Bu ko'rsatkichlar Osiyoning yangi industrial mamlakatlariga taalluqli emas. Ularda ITTKI xarajatlari 1,5-2%ga yetadi.

Barcha sust rivojlanayotgan mamlakatlarda ITTKI xarajatlarining kamligi ishlab chiqarish-texnik darajasi pastligining asosiy sababidir. Shuning uchun mamlakatlar iqtisodiyotini FTI talablari darajasiga ko'tarishda fan va texnikani ustun darajada rivojlantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

FTI sharoitida ishlab chiqarishning texnika bazasini tubdan qayta qurish ilmiy kashfiyot bilan uni ishlab chiqarishga tatbiq qilish o'rtasidagi vaqtning keskin qisqarishi, mahsulotlarning juda tez ma'naviy eskirib qolishi va muntazam yangilanib turishi, resurslarni tejab-tergab sarflash, tabiatni muhofaza qilish texnikasi va texnologiyasini keng joriy etish, va nihoyat, mehnatning murakkabligi va samaradorligi keskin ko'tarilishi bilan bog'liq holda yuqori malakali mehnat resurslariga talabning oshishi, mehnatni aqliylashtirish jarayoni ifodasini topdi. Shu munosabat bilan dunyo xo'jaligining fantalab tarmoqlari tez rivojlanmoqda, ularning iqtisodiyotdagi salmog'i tez oshmoqda. Shunday tarmoqlarga priborsozlik, elektrotexnika mashinasozligi, aviakosmik sanoat va boshqalar kiradi. Fantalab mahsulotlarning 90%dan ko'prog'i AQSH, Yaponiya, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya hissasiga to'g'ri keladi. Mustaqil O'zbekistonning eng muhim vazifalaridan biri o'z eksportida aynan shunday fantalab qimmatbaho mahsulotlari salmog'ini oshirishdan iborat.

Yangi texnika va texnologiyadan keng miqyoslarda foydalanish dunyo xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini, mehnat unumdorligini oshirish, resurslarni iqtisod qilish va tabiatni muhafaza qilish vazifalarini hal etishda muhim o'rinni egallamoqda. Masalan, Buyuk Britaniya va Italiyada po'latning $\frac{2}{3}$, AQSH, GFR, Yaponiyada $\frac{1}{2}$ qismi temir-tersakdan olinadi. Xalqaro savdoda temir-tersak sotish hajmi 25 mln. tonnaga yetdi. Boshqa misol: Daniyada qog'ozning 80%i, Janubiy Koreyada 67%i, Niderlandiyada 65%i, Ispaniyada 64%i, Vengriyada 61%i, Buyuk Britaniyada 60%i, Yaponiyada 52%i, Misrda 50%i, GFR 50%i, Fransiyada 47%i, Polshada 33%i, AQSH da 28%i makulaturadan olinadi. AQSH va Yaponiyada alyuminiyning katta qismi ikkilamchi alyuminiydan olinadi.

Ishlab chiqarishni elektronlashtirish va kompleks avtomatlashtirish FTI mikroelektron inqilobining eng muhim natijasi bo'lib, G'arb mamlakatlarida zamonaviy asoslarda qayta industrlashtirishni amalga oshirishga olib keldi. Elektron sanoati g'oyat tez sur'atlarda rivojlandi. Hozirgi paytda bu sanoat mahsulotining 33%i AQSH, 26,4%i Yaponiya, 25%i G'arbiy Yevropa mamlakatlari, 2,7%i boshqa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, 7,9%i Osiyoning yangi sanoatlashgan mamlakatlari, 1,8%i Lotin Amerikasi, 3%i boshqa mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi (1990 yillarning boshi). Uning tarkibida asbob-uskunalar (hisoblash texnikasi, aloqa jihozlari, radio va elektron o'lchagich priborlar), uy-ro'zg'or jihozlari, harbiy va kosmik asbob-uskunalar, integral sxemalar va elektron qismlar (tranzistor, diodlar) ishlab chiqarish tarmoqlari mavjud. Professional va harbiy-kosmik asbob-uskunalar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda AQSH birinchi o'rinni, uy-ro'zg'or buyumlari bo'yicha Yaponiya va AQSH yetakchi o'rinni egallaydi.

Mikroelektronika bilan kompleks avtomatlashtirishning rivojlanishi uzviy bog'langan bo'lib, uning yangi sifat bosqichi 1971 yilda mikroprosessor (mikroelektron mantiqiy qurilmasi, u turli mexanizmlarning ishini boshqarish uchun o'rnatiladi) ixtirosidan keyin boshlandi. Mikroprosessorlar robot texnikani ko'plab ishlab chiqarishni tezlashtirdi. Robot texnikani ishlab chiqarishda Yaponiya dunyoda birinchi o'rinni (yiliga 300 ming dona), AQSH ikkinchi (80 ming dona), GFR uchinchi o'rinni (40 ming dona) egallaydi. 90-yillarining boshida dunyoda 460 ming donagacha robot bo'lgan, hozir esa ularning soni 1 mln donadan oshadi.

Hozirgi zamon robotlarining ko'pi birinchi avlodga mansubdir. Ulardan foydalanishning asosiy sohalari – payvand, kesish, presslash, qoplamalar surtish, tozalash, sayqallashdir.

Ularning o'rniga kelayotgan ikkinchi avlod robotlar atrof-muhitni farqlaydigan qurilmalar bilan jixozlangan. Uning avlodiga mansub robot intellektuallar esa ko'rishi, sezishi va eshitishi mumkin. Yapon olimlari va muhandislari robotlardan foydalanishning ustuvor sohalari atom energetikasi, kosmosni o'zlashtirish, transport, savdo, omborxonalar, tibbiy xizmati, sanoat va uy-ro'zgori chiqitlarini qayta ishlash, ko'cha va binolarni tozalash, okean tubi boyliklarini o'zlashtirish, yo'l ishlari, tog'-kon sanoati, baliqchilik, o'rmon xo'jaligi bo'lishini ta'kidlamoqdalar. Mikroprosessor va robotlardan foydalanishning yana bir sohasi tez o'zgara oladigan ishlab chiqarish tizimlari bo'lib, ular ishlab chiqarishni kompleks avtomatlashtirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Dunyoda 1200 shunday tizim harakatda bo'lgan. Ularning 20%i Yaponiyaga, 17%i AQSH, 12%i Buyuk Britaniya, 9%i GFR, 9%i Fransiyaga, 4,5%i Italiya va 4,5%i Shvesiyaga qarashli bo'lgan.

FTIning hozirgi bosqichida ishlab chiqarishni boshqarish g'oyat murakkablashdi va u maxsus tayyorgarlikni talab qilmoqda. Boshqarish bo'yicha mutaxassislar AQSH, Yaponiya va boshqa mamlakatlardagi eng yaxshi universitetlar qoshidagi o'qish qimmat turadigan biznes maktablarida tayyorlanmoqda. Ularni bitiruvchilar zamonaviy ishlab chiqarishning rahbarlari-menejerlaridir.

FTI sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishi omillari. FTI davrida ishlab chiqarishning joylashishi va hududiy tarkibiga ta'sir ko'rsatadigan tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy omillar yangi texnika va texnologiya ta'sirida ilgarigi davrdagiga nisbatan yangi mazmunga ega bo'ldi. Shu bilan bir qatorda FTI bilan bevosita bog'lik holda yangi omillar ham paydo bo'ldi (ekologik, fantalablari, infratuzilma va boshqalar). Lekin dunyo xo'jaligining XX asr oxirida shakllangan geografik tasviri tabiiy,

iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa omillarning uzoq davom etgan o'zaro ta'sirining tarixiy natijasi bo'lganligi sababli hatto ITI davrida ham ularning umumiy xususiyatlari asta-sekin o'zgarmoqda.

ITI davrida birinchi qarashda g'ayritabiiy ko'rinadigan shunday holat yuzaga keldiki, bunda aynan o'zlarining xom ashyo bazalari bo'lmagan ko'plab mamlakatlar va rayonlar tez rivojlanmoqda. Buning yorqin misoli Yaponiya bo'lib, u 90% xom ashyo va yoqilg'ini import qiladi, bu holat uning yuqori darajada rivojlangan industrial mamlakatga aylanishiga halaqit bera olmadi. Boshqa davlatlarda asosiy sanoat markazlari ilgarigi yoqilg'i va xom ashyo bazalarida zamonaviy industrial sanoat shakllangan yangi rayonlarga ko'chdi. Masalan, AQSH da shunday siljish Shimoliy-Sharqdan Kaliforniyaga, Germaniyada Rur havzasidan mamlakat janubiga toman yuz berdi. Lekin rivojlangan mamlakatlarda unduruvchi sanoat (tog'-kon) faqat yangi resurs rayonlaridagina ishlab chiqarishning asosiy tarmog'i bo'lib qolmoqda. Shunday holat, masalan, Kanadaning shimoliy va g'arbiy hududlari, Dunyo okeanining shelf zonalariga xosdir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ahvol boshqacha bo'lib, ularda mineral-xom ashyo resurslari industrlashtirishning eng muhim omili bo'libgina qolmay, balki ho'jalikni joylashtirishga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Faqat Yaqin Sharqning neft qazib oluvchi mamlakatlarigina o'zlarining boy resurs imkoniyatlaridan iqtisodiy mustaqillikka erishish maqsadlarida oqilona foydalanishga muvaffaq bo'ldilar.

Tog'-kon sanoati uchun tabiiy resurslar omili hali ham asosiy omil bo'lib qolmoqda. Foydali qazilma konlari ular joylashishining tabiiy manbai va asosi bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi. Boshqacha aytganda, undiruvchi sanoat

tarmoqlarida u yoki bu resurs havzalari yoki konlari ularning rivojlanishi miqyoslarini belgilab beradigan asosiy omil bo'lib qolaveradi. Yangi resurs rayonlarini o'zlashtirish dunyo xo'jaligining resurs chegaralarini kengaytirishga imkon beradigan omil vazifasi FTI davrida ham muvaffaqiyatli bajarilmoqda. Borish va o'zlashtirish qiyin bo'lgan rayonlardagi va Dunyo okeani ekvatoriyalaridagi yangi foydali qazilma manbalarini o'zlashtirish katta transport qurilishi, yangi yirik oqimlarining shakllanishi bilan birgalikda sodir bo'lmoqda. Buning yorqin misoli sifatida Rossiya va Kanada shimoli, Alyaska, shimoliy va shimoliy-g'arbiy Avstraliya, O'zbekistonda Qizilqumning o'zlashtirilishi, shuningdek Dunyo okeani shelfi, nefti va tabiiy gazining o'zlashtirilishini ko'rsatish mumkin.

Dunyoda ishlab chiqarishini joylashtirishning eng muhim omillaridan biri ularning fan va ta'lim (ilm) olish markazlariga intilishi hisoblanadi. Birinchi navbatda bu omil fantalab tarmoqlar geografiyasini belgilab beradi va yangi ilmiy ishlanmalarni (kashfiyotlarni) bajaruvchi ilmiy markazlar, kadrlar tayyorlaydigan va chuqur ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradigan yetakchi universitetlar joylashgan shaharlarga qarab intiladi. Ta'lim – fan – ishlab chtqarish zanjiri rivojlangan mamlakatlarning ko'pchilik yetakchi markazlari va rayonlari uchun odatdagi holatga aylangan. FTI davrida fanning ilgari asosan mamlakatlar poytaxtlarida va universitet shaharlarida to'planishi o'zgarib, fanni hududiy tashkil etishning yangi shakllari paydo bo'ldi. Yirik shahar aglomerasiyalari chekkalarida ixtisoslashgan fan shaharlari (akadem shaharchalar) tashkil topdi. Bundan ham xarakterli bo'lgan holat – ilmiy (ilmiy-tadqiqot,texnologik) markazlarning paydo bo'lishidir. Bunday markazlar oldindan maxsus ajratilgan va jihozlangan hududlarda tashkil etilgan bo'lib, qoida tariqasida,

fantalab sanoat tarmoqlarining laboratoriyalari, ekspremental, tajriba va ishlab chiqarish korxonalarini qo'shib oladigan ilmiy sanoat kompleksi hisoblanadi. U eng yangi texnologiyani yaratishga va uni ishlab chiqarishga joriy etishga yo'naltirilgan va odatda, universitet yoki boshqa ilmiy-tadqiqot markazi yaqinida joylashadi.

Ilmiy markazlar (parklar) AQSHda o'tgan asrning 50-yillarda paydo bo'lgan va hozir mamlakatda ularning soni 150 dan ko'proqdir. Ularning eng mashhurlari: Stenford universiteti asosida San-Fransisko atrofida tashkil etilgan Silikon-Velli Kremniy vodiysi. Massachuset texnologiya institutiga asoslanib, Boston atrofida tashkil etilgan 128-yo'l. So'ngra shunday parklar G'arbiy Yevropada ham paydo bo'la boshladi. Ularning eng yiriklari: GFRda Myunxen universiteti bazasida yaratilgan Izor Valli, Buyuk Britaniyada Kembridj universiteti bazasida tashkil etilgan Kembridj parki, Fransiyada Lazur qirg'oqlarida va Grenoblda joylashgan parklar. Ilmiy parklar Belgiya va Niderlandiyada va G'arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham tashkil etilgan. Ilmiy parkning yana bir varianti texnologiya nomini olgan bo'lib, ular aviakosmik texnika, EHM ishlanmalari va ularni ishlab chiqarish, robot qurilmalarini ishlab chiqish va boshqa eng fantalab yo'nalishlarni qamrab oladi. So'ngi yillarda shunday parklar Janubiy-Sharqiy Osiyoning yangi industirial mamlakatlarida ham barpo etilmoqda: Koreya Respublikasi (Seul yaqinida), Tayland (Taybey yaqinida).

Yuqori malakali ishchi kuchi omili FTI sharoitida qoyat muhim omillardan biriga aylandi. Hozir har qanday mamlakatga oddiy mehnat resurslari emas, zamonaviy murakkab texnikani boshqarishni uddalay oladigan ma'lumotli, yuqori malakali, sifatli ishchi kuchi kerak. Shu munosabat bilan rivojlangan mamlakatlarda yuqori malakali ishchi kadrlarga

suyanish katta ahamiyatga ega bo'lib, ishchi kuchlarining malakasi va qiymati o'rtasidagi farq ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga sezilarli ta'sir ko'rsatayotir. Shu sababdan Monopoliyalar ishlab beruvchi sanoatning birinchi qavatini (ko'p mehnat talab qiladigan tarmoqlar) arzon ishchidan foydalanish maqsadlarida ko'proq rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirayaptilar. Masalan, Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyoning juda ko'p arzon ishchi kuchiga ega bo'lgan hududlariga G'arbiy Yevropa, Yaponiya, AQSH dan sanoatning ko'p mehnat talab qiladigan tarmoqlari kirib kelmoqda. Shu sababdan FTI sharoitida arzon ishchi kuchiga, shu jumladan, ayollar ish kuchidan foydalanishga intilish ham sezilarli darajada kuchaymoqda. Bular iqtisodiy omillar va hisoblar bilan uzviy bog'liqdir. Misol uchun, Osiyo, Afrikaning ba'zi mamlakatlarida 8 soatlik ish kuni uchun malakasiz ishchiga 1 dollarga yaqin haq to'lanadi, aynan shu ishchi AQSH da shunday ish kuchi uchun 56 dollar, ya'ni 56 marta qimmatroq haq beriladi.

FTI inqilobi sharoitida «Iqtisodiy geografiya»da ilgaridan hisobga olinib kelinayotgan qo'yidagi omillarning ham ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishdagi ahamiyati oshib, ular yangi mazmunga ega bo'lmoqda: iste'mol omili (ayniqsa keng istemol tavarlarni ishlab chiqarishda); energetika omili (rangli metalurgiya, kimyo va energiyani ko'p talab qiladigan boshqa tarmoqlar); iqtisodiy geografik o'rin omili (markaziy va dengiz bo'yida joylashganlikning qulayligi, chekkada (materik ichkarisida) joylashishning rivojlanishga salbiy ta'siri); ekologik omil (uni hisobga olishning zarurligi, ekologik qonuniyat, qoidalar, qonunchilik talablariga rioya qilish).

Dunyo ho'jaligi rivojlanishining hozirgi bosqichi aholi va ishlab chiqarishning yuqori darajada hududiy to'planishiga olib

keldi (yirik sanoat markazlari, tugunlari, hududlari, transport liniyalari va tugunlari, shahar aglomerasiyalarida ishlab chiqarishning to'planishi va boshqalar). Bu omil bir tomondan, hamisha ma'lum manfaat va foyda bergan bo'lsa (hududlarni tejash, umumiy infratuzilmadan foydalanish va korxonalarni kooperasiyalash imkoniyatlari, yirik shaharlardagi fan bilan bog'lik samarada foydalanish va boshqalar), boshqa tomondan, ishlab chiqarish va aholi to'planishining oqilona chegaralardan tashqariga chiqishi ekologik vaziyatning yomonlashuviga, transport liniyalari qurilishining oshishiga, suv ta'minotining qiyinlashishiga va boshqa salbiy oqibatlarga olib keladi. Dunyoning yirik shaharlari (Mexiko, San-Paulu, Nyu-York va boshqalar) va sanoat rayonlari o'sishning, aholi va ishlab chiqarishning yuqori darajada to'planishining kam nazorat qilinayotganligi muammosi xavotirli tus olmoqda. Shu sababdan ko'pchilik mamlakatlarda yirik shaharlar va sanoat zonalarida ishlab chiqarishni to'planishdan bo'shatish (dekonsentrasiya), ularni shahar atrofida, kichik va o'rta shaharlarda joylashtirish, kichik, o'rta korxonalar va zavodlar qurish ijobiy natijalar bermoqda. MDH mamlakatlarida ham dekonsentrasiya jarayonining boshlanishi ishlab chiqarishni davlat tassarufidan chiqarish bilan ko'shib olib borilmoqda.

5.3. Moddiy ishlab chiqarishning tarmoq tizimida yuz berayotgan siljishlar va dunyo iqtisodiyotining uch turi - bosqichi

Moddiy ishlab chiqarishning tarmoq tizimida ham sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Tarmoq tizimini tahlil qilish va o'rganishda uning uchta bo'gini (qavat) ajratiladi: 1)makrotizim; 2)mezotizim; 3)mikrotizim;

Makrotizim eng yirik iqtisodiy nisbatlarni aks ettiradi va bunda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, sanoat, qurilish, qishloq ho'jaligi, transport va aloqa, xalqaro savdo o'rtasidagi nisbatlar aniqlanadi. Ular u yoki bu mamlakatni iqtisodiyotning agrar, industrial yoki postindustrial turlarga ajratishga asos bo'ladi. 1950-1990 yillarda dunyoning moddiy ishlab chiqarish tizimida quyidagi o'zgarishlar va siljishlar yuz berdi. Agar 1950 yilda sanoat 42%, qishloq xo'jaligi 21%, xalqaro savdo 19%, transport va aloqa 10%, qurilish 8% ni tashkil etgan bo'lsa, 1990 yilda moddiy ishlab chiqarish tizimida sanoat 59%, xalqaro savdo 19%, qishloq xo'jaligi 8%, transport va aloqa 7%, qurilish 7% salmoqqa ega bo'ldi. Boshqacha aytganda, o'tgan davrda sanoatning yetakchilik roli kuchaydi, qishloq xo'jaligining salmog'i sezilarli darajada pasaydi, boshqa tarmoqlar esa o'z o'rinlarini deyarli bir xil darajada saqlab qoldilar.

Mezotizim (tarmoqlararo tizim) sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va boshqalarning ichida shakllanadigan nisbatlarni ko'rsatadi. Masalan, dunyo sanoat tizimida FTI ta'sirida tog'-kon sanoatining solmog'i pasayib, ishlab beruchi sanoatning salmog'i oshib bormoqda. Agar ikkinchi jahon urishidan oldin ularning nisbati 15:8,5 bo'lgan bo'lsa, 1970 yillarda 13:87, 90-yillarning boshida esa 8:92 ga yetdi. Bu o'zgarishlar bir tomondan, ishlab chiqarishning material sarflash hajmi kamayishi, boshqa tomondan esa, mineral xom ashyoni sun'iy xomoshyo bilan almashtirishning o'sishi bilan bog'liq bo'ldi. Tog'-kon sanoati tizimida esa hozirgi paytda 2:3 yoqilg'i, ayniqsa neft qazib olishga, 1:3 ruda, kurilish materiallari va boshqalarni qazib olishga to'g'ri keladi. Lekin bu o'rtacha umumjahon ko'rsatkichlari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida katta farq borligini ham bekituvchi vosita

bo'lmasligi kerak. Gap shundaki G'arbning rivojlangan mamlakatlarining ko'pchiligida tog'-kon sanoati salmog'ini pasaytirishi ularning faqat rivojlanayotgan mamlakatlar yoqilg'i-xom ashyo resurslariga suyanishi asosida yuz berdi. Shu sababdan tog'-kon sanoati rivojlanayotgan mamlakatlar sanoat ishlab chiqarishida o'rtacha 2%, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 14% ni tashkil etadi (Yaqin va O'rta Sharqdagi neft qazib oluvchi mamlakatlarda 40-50%). Shu bilan bir qatorda, ayrim rivojlangan mamlakatlar, masalan, Kanada, Avstraliya, tog'-kon sanoati hissasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bu holat uzoq vaqt mobaynida barcha sosialistik tizim mamlakatlari ehtiyojlarini keng miqyosda ta'minlab kelgan sobiq SSSR uchun ham xarakterli bo'lgan.

Mikrotizim (mikrotarmoq strukturasi) moddiy ishlab chiqarishning ayrim turlarida, birinchi navbatda, sanoat ishlab chiqarishida yuz berayotgan o'zgarish va siljishlarni aks ettiradi. Bunda fantalab tarmoqlari elektron hisoblash texnikasi, atom energetikasi jixozlari, mikrobiologik preparatlar ishlab chiqarish birinchi o'ringa chiqmoqda. Bularning hammasi ilmiy-texnika taraqqiyotining katalizatori rolini bajarayotgan AQSH da ana shunday fantalab yuqori texnologik ishlab chiqarishning butun ishlab beruvchi sanoat mahsulotidagi hissasi 40% dan ko'proq, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiyada esa 30-35% ga teng.

Dunyo moddiy ishlab chiqarishi tizimida FTI ta'sirida umumiy bir biriga qarama-qarshi harakatlarga ega bo'lgan yana ikkiga siljish yaqqol namoyon bo'layotir. Ulardan birinchisi, mikrotizim darajasida sodir bo'lib, xo'jalikning tarmoq strukturasidagi diversifikasiyada (bo'linish, sochilish) o'z aksini topayotir. Ikkinchisi, tarmoqlararo komplekslar - yoqilg'i – energetika. mashinasozlik, agrosanoat, harbiy sanoat,

aerokosmik, avtomobil komplekslarining tashkil topishida namayon bo'layotir.

Fanda so'nggi yillarda dunyo iqtisodiyotining uch xili – agrar, industrial, postindustrial tiplari to'g'risida tasavvur paydo bo'ldi.

XVII-XIX asrlardagi sanoat to'ntarishlarigacha dunyo iqtisodiyotining agrar xili hukmron bo'lgan. So'ngra u sanoatning rivojlanishi bilan bog'liq holda o'z o'rnini industrial turiga bo'shatib berdi. Lekin bunda shuni hisobga olish kerakki, hozir ham dunyoning 47% iqtisodiy faol aholisi (2,3 mlrd kishi) qishloq ho'jaligida band. Ayniqsa, bu ko'rsatqich rivojlangan mamlakatlarga taalluqli bo'lib, ularda aholining deyarli 60% qishloq xo'jaligida ishlaydi. Masalan bu ko'rsatqich Mongoliyada 30, Paragvayda 48, Nigeriyada 50, Indoneziyada 55, Hindiston va Xitoyda 60, Vyetnamda 73, Efiopiyada 75, Malida 85, Ruandada 88, Nepalda 92% teng.

G'arbning rivojlangan mamlakatlarida qishloq xo'jaligida band aholi salmog'i o'rtacha 7,8%, Buyuk Britaniyada 2%, AQSH, Belgiya GFRda 3%, Shvesiyada 4%, Avstriyada 5%, Fransiyada 7%, Yaponiyada 7%, Italiyada 8%, Finlyandiyada 10%, Rossiyada13%.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi yarmida eng avvalo Yevropa, Shimoliy Amerika, Yaponiya va sobiq SSSR da ishlab chiqarishning industrial tipi shakllandi. Uning uchun IYAM va bandlik strukturasida sanoat va qurilishlarning ustivorligi xarakterli bo'lgan. Bu ikki tarmoq hissasiga G'arb mamlakatlarida band aholinning o'rtacha 32%i (shu jumladan, G'arbiy Yevropada 38%, Shimoliy Amerikada 31%iga) to'g'ri keladi. Ayniqsa, bu ko'rsatgich quyidagi mamlakatlarda juda yuqori: Italiya- 32, Yaponiya- 34, GFR- 40, Shvesariya- 43 promil. Shu bilan bir qatorda bu mamlakatlarda avvaldan

sanoat va qurilishning salmog'i mutassil pasayib kelmoqda va ularning birortasida ular birinchi o'rinni egallamaydi. Iqtisodiyotning industrial turi eng to'liq namoyon bo'lgan Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlarida bunday holat kuzatilmaydi. Albatta, bu tasodifiy hol emas, balki ma'lum iqtisodiy siyosat, industrlashtirish yo'nalishining natijasidir.

5.4. Dunyo iqtisodiyotida fan-texnika taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan yangi xo'jalik turlari

FTIning kengayishi va chuqurlashuvi, dunyo xo'jligiga ta'sirining kuchayishi ko'pchilik mamlakatlarda industrial turdan keyin shakllangan va postindustrial deb nom olgan (post – lotincha, «keyin» ma'nosini bildiradi) iqtisodiyotning mutlaqo yangi turi paydo bo'lishiga olib keldi. U o'z navbatida, industrialorti jamiyati, deb atalayotgan va xizmat ko'rsatish sohasi, fan va ta'lim yetakchi o'rinni egallaydigan, korporasiyalar va professional mutaxasislarni bo'shatib berayotgan FTI sharoitida rivojlanayotgan yangi jamiyatning tarkibiy qismidir.

Industrialorti turining asosiy xususiyatlarini amaliyotda fantalab ishlab chiqarishning yuqori darajasi, qudratli ilmiy-texnika potensiali belgilab beradi. Bular esa, o'z navbatida, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishlar o'rtasidagi nisbatining nomoddiy ishlab chiqarish foydasiga o'zgarishiga, ayniqsa, ishbilarmonlik va xizmat ko'rsatish sohasining (texnik xizmat ko'rsatish korxonalari, ishga tushirish-sozlash komissiyalari, injinering, marketing, maslahat firmalar va boshqalar) tez rivojlanishiga, moddiy ishlab chiqarish solmog'ining qisqarishiga, fan, ta'lim, madaniyat, sayohatchilik xizmati,

sug'urta sohalarining o'sishiga va aqliy mehnat sohasida band bo'lgan xodimlarning ko'payishiga olib keladi.

Industrialorti turiga asosan G'arb mamlakatlari kiradi. Noishlab chiqarish sohasida band aholining o'rtacha ko'rsatqichi 50% bo'lgan holda ko'pchilik mamlakatlarda u ancha yuqori. Bunda birinchi o'rinni AQSH egallaydi; mamlakatda so'nggi 15 yilda ishlab chiqarish sohasida ishlaydiganlar soni yarim million kishiga kamaygani holda, xizmat ko'rsatish sohasida esa ular 25 mln kishiga ko'paydi. AQSH da noishlab chiqarish sohasiga mamlakatdagi band aholining 64%i, YAMD ning 70%i to'g'ri keladi. Aynan shunday ko'rsatkichlar, shuningdek, Buyuk Britaniya, Shvesiya, Kanada, Avstriya va boshqa mamlakatlarga ham taalluqlidir. Noishlab chiqarish sohasida Yaponiyada 52%, GFRda 53%, Fransiyada 56%, Shvesiya va Avtraliyada 60%, Kanadada 62%, Buyuk Britaniyada 63% kishi band.

Rivojlangan mamlakatlar noishlab chiqarish sohasida o'rtacha 22,3% kishi mashg'ul. Bu ko'rsatkich Nepalda atigi 8%, Bangladeshda 10%, Nigerda 10%ga teng. Shu bilan bir qatorda ayrim rivojlangan mamlakatlarda noishlab chiqarishda band kishilarning salmog'i yuqori. Bular yo ijtimoiy-iqitisodiy rivojlanishda ancha ilgarilab ketgan mamlakatlar (Argentina 59%, Meksika, Braziliya, Koreya Respublikasi), yo moliyaviy faoliyat va ishbilarmonlik servisining yirik markazlariga aylangan neft eksportyori mamlakatlari (Liviya 55%, Jazoir, Saudiya Arabistoni), yo vositachilik faoliyati va turizmga ixtisoslashgan mamlakatlar (masalan, Bagam orollarida aholining 80%i xizmat ko'rsatish sohasida band) hisoblanadi.

5.5. Dunyo xo'jaligining geografik modeli

Dunyo xo'jaligining rivojlanishi va murakkablashib borishiga muvofiq uning geografik modeli ham o'zgarib bordi. Dunyoda hukimdor mavqeni turli davrda turli mamlakatlar egallagan. O'z vaqtida Amir Temur davlati, so'ngra Ispaniya, Gollandiya, Daniya shunday vazifani bajargan. XX asrda AQSH dunyoda hukmdor kuchga aylandi.

Shu bilan bir qatorda bu model tobora murakkablashib bormoqda va u bir markazlikdan ko'p markazlik (polisentristik) xususiyatga ega bo'lmoqda. XU111 asr oxirigacha dunyoda bitta markaz – Yevropa ustun turgan bo'lsa, keyinchalik ikkinchi markaz - AQSH paydo bo'ldi va u tez fursatda asosiy markazga aylandi. So'ngra boshqa yangi markazlar paydo bo'la boshladi. V.P. Maksakovskiy hozirgi dunyo xo'jaligida 10 ta asosiy markazni ajratib ko'rsatgan. Bular AQSH, Yevropa, Yaponiya, MDH, Xitoy, Janubiy Sharqiy Osiyo, Hindiston, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Avstraliya, Braziliya.

Ulardan eng iqtisodiy qudratlisi ikkita eski markazlar – Yevropa (dunyo YAIMning 28%) va Amerika (26%) hisoblandi. Undan keyin ikkita o'rta avlod markazi - Yaponiya (10%) va MDH turadi. Oxirgi markazning hissasi so'nggi yillarda kamayib borish tendensiyasiga ega bo'ldi. Ikkinchi jahon urishidan keyin paydo bo'lgan boshqa markazlar nisbatan uncha katta emas, lekin ular tez rivojlanmoqda. Umuman olganda, bu markazlar birgalikda Dunyo xo'jaligi geografik modelining assoslarini tashkil egadi. Ushbu markazlar bilan birgalikda, dunyo xo'jaligining hududiy (tuzilishida) yangi boshqa bloklarini ham ajratish mumkin. Boshqa blok – Osiyo – Tinch okeani regioni mamlakatlariga (OTOR) AQSH, Kanada, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari , Lotin Amerikasi, Avstraliya kiradi. Regionning ushbu tarkibida uning hissasiga dunyo sanoat mahsulotining yarmiga yaqini, shu jumladan,

avtomobillar, kemalar, televizorlar, sintetik tolaning 70, plastmasaning 60, alyuminiy va po'latning 50%i to'g'ri keladi. Bundan ushbu region hududidagi mamlakatlar va hududlarning dunyo iqtisodiyotidagi ahamiyati oshib bormoqda. Bu birinchi o'rinda Xitoyga tegishli bo'lib , u dunyo miqyosida ishlab chiqarish o'sishining eng yuqori sur'atlari bilan ajralib turadi. O'tgan asrning 80-yillarda Xitoyda yillik o'sish 9, 1992-1993 yillarda 11-13% ga teng bo'lgan. Bular Xitoy umumiy ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyoda uchinchi-to'rtinchi o'ringa chiqib olishiga olib keldi.

Shunisi xarakterliki, dunyo xo'jaligi asosiy markazlarining yarmi rivojlanayotgan mamlakatlardadir. Bu 50-90-yillarda Osiyo, Afrika , Lotin Amerikasi mamlakatlarida rivojlanish strategiyasining ikki bozori tipini-import o'rnini bostirish va eksportni ko'paytirishni amalga oshirish natijasidir. Bu strategiyalarni amalga oshirish rivojlanayotgan mamlakatlar sanoat potensialining sezilarli darajada o'sishiga olib keldi. Shunga mos holda ularning dunyo sanoat ishlab chiqarishidagi salmog'i 90-yillar boshida 14%gacha.

5.6. Dunyo xo'jaligi va regional siyosat

Rivojlangan mamlakatlarda shakllangan iqtisodiyotning yetuk hududdiy strukturasi mavjudligiga qaramasdan ulardan ham yuqori darajada rivojlangan iqtisodiy rayonlar, depressiv (turg'unlikdagi) rayonlar, rivojlanishdan orqada qolgan qoloq agrar rayonlar mavjud bo'lib, ular o'rtasida katta tafovutlar saqlanib qolmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar xo'jaliginng hududiy tuzilishida esa o'tmish mustamlaka davrining ta'siri hanuzgacha sezilib turadi. Ular uchun hududiy struktura yutuqlarining nihoyatda past darajasi,transport va

infratuzilmaning kam rivojlangani bilan bog'liq holda rayonlarning bir-biridan ajralib qolganligi, ayni paytda , aholi va ishlab chiqarishning katta qismi poytaxt shaharlarda to'planganligi va keskin hududiy nomuvofiqlikning saqlanib qolayotganligi xarakaterlidir. Rivojlangan va rivaojlanayotgan mamlakatlarga xos bo'lgan xo'jalikning o'ziga xos hududiy xususiyatlari turli yo'nalish va mazmundagi regionlar siyosati amalga oshirilishini taqozo etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda regional siyosat davlat iqtisodiyotni boshqarishinining tarkibiy qismi bo'lib,moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlari, aholi bandligi, xizmat ko'rsatish sohasini joylashtirish, turizmni rag'batlantirish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Regional siyosatning ikki asosiy shakli bor: 1) regional rejalashtirish, dasturlashtirish, asosan regional reja (dastur) tuzish: ular qisqa, o'rta, uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Bunda ba'zi mamlakatlar (Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Niderlandiya, Shvesiya, Yaponiya) o'z hududlarini to'la qamrab oladigan, boshqa ba'zi mamlakatlar (GFR, Belgiya, AQSH) esa o'z hududlarini noto'liq qamrab oladigan rejalashtirishni amalga oshiradilar; 2) regional bashoratlash (prognozlash) **regional** siyosatni amalga oshiradgan organlar milliy (maslan, AQSH) va mamlakatlar (masalan, Yevropa Ittifoqi) darajasida bo'lishi mumkin.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda regional siyosat usullari o'zgarib bordi. Masalan, dastavval, birinchi navbatda, ijtimoiy vazifalarni hal etishga, so'ngra iqtisodiy masalalar yechimiga katta e'tibor berildi. Vaqt o'tishi bilan regional muammolarni yechish uchun faqat davlat kapitaligina emas, balki xususiy kapital ham jalb qilindi. Ko'pincha yirik miqyosdagi dasturlardan lokal (mahalliy) masalalar yechimiga o'tildi. Ayni paytda regional siyosatning asosiy maqsadi

o'zgarmasdan qolaverdi. Regional siyosatning asosiy maqsadi jamiyatda keskinlik kuchayishiga va mehnatkashlarning ommaviy chiqishlariga sabab bo'ladigan mamlakatning ayrim rayonlari o'rtasidagi eng keskin ijtimoiy va iqtisodiy nomuvofikliklarni bartaraf qilishga, odamlar hayotining sifatini belgilab beradgan yashash darajasini tenglashtirishga qaratilgan. Regional siyosatda ham cheklovchi, ham rag'barlantirovchi tadbirlar keng qo'llanilmoqda.

Ta'riflanganlarga asoslanib G'arb mamlakatlarida regional siyosatning quyidagi **to'rt konkret yo'nalishini** ajratish mumkin: **1) qoloq agrar rayonlarni yuksaltirish.** Bu rayonlarda FTI ta'siri kam bo'lib, ularda aholining ko'chib ketishi ishsizlikning yuqoriligi, kapital qo'yilmaganlarning kamligi xarakterlidir. Shunday rayonlarga rivojlanishda sanoatlashgan Shimoldan juda orqada qolgan Janubiy Italiya, Fransiyadagi Markaziy massiv (yassitog'), Akvitaniya, Shimoli-G'arb, Korsika, Ispaniyadagi Galisiya, Janub va Markazning ayrim rayonlari, Buyuk Britaniyada Shimoliy Shotlandiya, AQSHda Ozark Yassitog'i, Arizona, Kolorado, Nyu-Meksika va Yuta shtatlari tutashgan «To'rtburchak» rayoni misol bo'ladi. Bunday rayonlarda nisbatan regional siyosatda soliq imtiyozlari, maxsus fondlar tashkil etish (masalan Italiyadagi «Janubiy kassasi»), davlat mablag'lari asosida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratizimlarni barpo etish ko'zda tutadi va bular ko'pincha rayonning ish iqlimini belgilab beradi. Ularda ko'pincha o'sish qutblari rolini o'ynaydigan yirik sanoat korxonalari barpo etiladi. Italiyada birinchi marta regional siyosat doirasida 1957 yilda «O'sish qutblari» to'g'risida qonun qabul qilindi. Unga binoan Janubda qator yirik korxonalar, masalan, Tarontadagi katta metalurgiya zavodi qurildi. Shuningdek «O'sish qutblari» Ispaniya, Fransiya va boshqa

mamlakatlarda ham barno etila boshladi. So'ngi yillarda kam rivojlangan rayonlarda industrlashtirish bilan bir qatorda qishlok xo'jaligi, turizm va rekreasiyani rivojlantirishga ham katta ahamiyat berilmoqda. **2)depressiv rayonlarni jonlantirish.** Bular XVII-XIX asrlarda sanoat to'ntarishlari davrida paydo bo'lgan asosan ko'mir, temir ruda, to'qimachilik sanoatlari rivojlangan eski sanoat rayonlaridir. FTI davrida energetikaning ko'mirdan, neft va gazdan, qora metallurgiyaning mahalliy xom ashyodan voz kechib, dengiz orti mamlakatlarining boy va arzon temir rudasiga, to'qimachilik sanoatining tabiiy xom ashyodan sun'iy xom ashyoga o'tishi ana shunday rayonlarning iqtsodiy inqirozga, depressiyaga tushishiga olib keldi. «Depressiv rayon» atamasi 1929-1933 yillardagi jahon bo'hroni (krizisi) davrida paydo bo'ldi. Ularning kuchli darajada orqada qolishi FTI davrida yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Aholining ko'chib ketishiga qarshi, struktura bo'hroni, struktura ishsizligi boshlandi.

Depressiv rayonga yaqqol misol AQSH ning Appalachi rayoni bo'lishi mumkin. Uning hududi aholisi 20 milliondan ko'p bo'lgan 13 shtatni to'liq va qisman qamrab oladi. Bu rayonda mamlakatning asosiy toshko'mir havzasi joylashgan bo'lib, u uzoq yillar mobaynida iqtisodiy turg'unlikni boshidan kechirdi. Struktura bo'hroni Yevropaning ko'pchilik toshko'mir va temir-ruda havzalarini, eski to'qimachilik rayonlarini ham shikastlantirdi. Depressiya rayonlarida regional siyosat, qoida tariqasida, ularning iqtisodiyotiga FTI bilan uzviy bog'liq yangi va eng yangi ishlab chiqarishni joriy etish, korxonalar ixtisoslashishini qayta o'zgartirish, ishchi kasblarni qayta o'zgartirish, transmilliy korporasiyalarning (TMK) filiallarini tashkil etishni o'z ichiga oladi. Bu tadbirlar maxsus maqsadli krimileks dastur asosida amalga oshirildi. 3**)Shahar**

agromerasiyalari, ayniqsa poytaxtlarning gipertrofiyaga duchor bo'lishining (haddan tashqari kattalashib va kengayib ketishi, o'sishi) oldini olish, uni to'xtatish. Bunday o'sish o'tgan asrning 60-70-yillarida sodir bo'lib, uning oqibatida shaharlar bo'hroni (krizisi) deb atala boshlagan anga umumiy voqelik ro'y berdi. U shahar muhitining xavfli ifloslanishi va yashashning sanitariya-gigiyena sharoitlari yomonlashishi, transportning ortiqcha bandligi, uy-joy fondlarining yomonlashuvi va boshqa salbiy holatlarda namoyon bo'ldi. Oqibatda aholi badavlat qatlamlarining shaharlar markaziy qisimlaridan shahar atrofiga ommaviy ko'chib o'tishi boshlandi. Shu sababdan regional siyosatning bu sohadagi asosiy vazifasi shunday «o'ta katta shaharlar»ni jilovlash bo'lib qoldi. Bu Fransiya, Niderlandiya, Yaponiya, AQSH, Kanadada rayon planirovkasi yordamida keng miqyosda amalga oshirildi. Buyuk Britaniya, Fransiyada London va Parijning yo'ldosh shaharlarini va umuman, yangi shaharlarni qurish katta miqyoslarda amalga oshirildi. Bu esa shahar aglomerasiyalari yukini yengillashtirdi. Shu bilan bir qatorda ayrim mamlakatlarda deaglomerasiya deb atalgan ham passiv (sust) – yirik shaharlarda yangi kurilishni cheklash, ham faol (aktiv) – shunday shaharlardan korxonalarni tashqariga olib chiqishni amalga oshirishning ayrim misollari bor. **4) Ekstremal tabiiy sharoitda resurs rayonlarini o'zlashtirish.** Ikkinchi jahon urishiga qadar G'arbiy Yevropa mamlakatlari, AQSH, Yaponiya mustamlaka va yarim mustamlakalarining yoqilg'i-xom ashyo resurslariga tayanishi mumkin edi. Shu sababdan ularning Shimol rayonlariga, Avstraliyaga qiziqishlari onda-sonda bir bo'ladigan «oltin talvasi»siga bog'liq bo'lgan va o'zidan keyin ko'pincha faqat odamsiz sharpa-shaharlarni qoldirar edi. Mustamlakachilik tizimi barbod bo'lgach, G'arb

mamlakatlarining yangi o'zlashtiriladigan rayonlarga qiziqishi kuchaydi. Bunda og'ir sanoatni o'z resurslari bilan ta'minlashga, rivojlanayotgan mamlakatlardan xom ashyo va yoqilg'i importiga bog'liqlikni kamaytirishga harakat kuchaydi. Shu munosabat bilan 18 mln kv.km maydonni egallaydigan katta hududlarning Shimoliy Alyaska, Gresiya, Grenlandiya, Skandinaviyaning shimoli, ichki Avstraliyani keng miqyosda o'zlashtirish boshlandi.

Umuman, rivojlangan mamlakatlarda regional siyosatni amalga oshirish sezilarli natijalarga erishishga imkon berdi. Shu blan bir qatorda o'z yechimini kutayotgan muammolar ham mavjuddir. Rayonlarni yuqori darajada rivojlangan, qoloq, depressivga bo'lish va ular o'rtasidagi tafovut saqlanib qolmoqda. Regional dasturlar asosida qoloq regionlarda barpo etilgan og'ir sanoat o'choqlari ko'pchilik mamlakatlarda ko'pincha turg'unlikka uchragan va mahalliy iqtisodiyot bilan ham bog'langan qora metallurgiya, neftni qayta ishlash kabi ba'zi tarmoqlardan tashkil topgan. Yangi resurs rayonlarini o'zlashtirishda harbiy – strategik manfaatlarning ustuvorligi ko'p hollarda asosiy o'rinni egallaydi. Umuman olganda, regional siyosat G'arb mamlakatlarda hududiy nomuvofiqlarni ancha yumshatishga imkon berdi. Uning ibratli tajribalaridan mustaqil O'zbekistonning regional muammolari yechimini topishda, masalan, bepoyon cho'llar va tog' hududlarini o'zlashtirishda foydalanish mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda regional siyosatning yo'nalishi, mazmun va mohiyati G'arb mamlakatlaridagidan farq qiladi. Ularda regional siyosat asosan o'tmish mustamlakachilik davri asoratlarini bartaraf etishga qaratilgan. Bu siyosatning asosiy maqsadi mamlakat ayrim qisimlarining tarqoqligini bartaraf etish va ularning yaxlitligini ta'minlash,

markaz bilan chekka joylar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish, urbanizasiya jarayonlarini tartibga solish, resursli rayonlarni o'zlashtirish va boshqalardan iborat . Ichki va chekka rayonlarning boy tabiiy resurs imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish maqsadida ba'zi mamlakatlar (Braziliya, Argentina, Nigeriya, Tanzaniya, Qozog'iston) o'z poytaxtlarini ichki rayonlarga ko'chirdilar. Lekin amalga oshirilayotgan tadbirlarga qaramasdan ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda ichki hududiy nomuvofiqliklar saqlanib qolmoqda. Shunday qilib, dunyo xo'jaligining FTI sharoitida rivojlanishi va joylashishi xususiyatlari o'zgarib bormokda. Yer sharida o'zlashtirilmagan hududlar tobora kamayib borayotir, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta'sir ko'rsatadigan yangi omillar paydo bo'lmoqda, dunyo xo'jaligi tarkibiga kiradigan milliy xo'jaliklar o'rtasidagi o'zaro bog'liklar tobora kuchaymoqda.

Qisqacha xulosalar

Jahon xo'jaligi dunyodagi barcha mamlakatlar milliy xo'jaliklarining jahon iqtisodiy aloqalari orqali o'zaro uzviy bog'langan va tarixan shakllangan majmuasidir. Geografik mehnat taqsimoti hozirgi dunyo xo'jaligining asosini tashkil qiladi. FTI sanoatning fantalab sohalari tez sur'atlarda rivojlanishiga olib keldi.

Moddiy ishlab chiqarishning tarmoq tizimi uchta bo'g'indan iborat: makrotizim (moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish o'rtsidagi nisbatni aks ettiradi), mezotizim (sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlar ichidagi nisbatlarni ko'rsatadi), mikrotizim (moddiy ishlab chiqarishning ayrim turlarida, birinchi navbatda, sanoat ishlab chiqarishida yuz berayotgan o'zgarishlarni aks ettiradi).

FTI ta'sirida xo'jalikni industrialorti turi vujudga keldi va tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bunda xizmat ko'rsatish sohasida ishlaydiganlar soni ko'pchilikni tashkil qiladi.

Dunyo xo'jaligi hozirgi paytda ko'pmarkazlilik xususiyatga ega. Rivojlanayotgan mamlakatlarda regional siyosat davlat iqtisodiyotni boshqarishining tarkibiy qismiga aylangan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Jahon xo'jaligi nima?
2. Geografik mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv haqida so'zlab bering.
3. Makro-, mezo-, mikrotizimlarning mohiyati nimadan iborat?
4. Regional siyosat deganda nimani tushunasiz?

5.Dunyoning ko'pmarkazlik xususiyatlari nimadan iborat

VI mavzu. DUNYO SANOATI VA UNING TARMOQLARI GEOGRAFIYASI

6.1. Sanoat rivojlanishining umumiy xususiyatlari

Sanoat dunyo moddiy ishlab chiqarishining yetakchi tarmog'i bo'lib, unda 350 mln..dan ko'proq aholi band. Bu ko'rsatkich dunyo qishloq xo'jaligida ishlayotganlarga nisbatan 3 marta kam. Sanoatda band bo'lganlarning umumiy soni Xitoyda 64, AQSH da 23, Rossiyada 16,5 mln.. kishini tashkil etadi. Dunyo sanoat mahsulotining o'rtacha yillik hajmi 7,7 trl. dollarga teng. Yetakchi sanoat mamlakati: AQSHning dunyo ko'rsatgichlaridagihissasi 18,9%. Bu boradagiko'rsatgich yetakchi mamlakatlar sirasiga kiruvchi Yaponiyada 10,7, Xitoyda 8,5, GFRda 5,9, Rossiyada 4, Hindistonda 3,5, Buyuk Britaniyada 3, Fransiyada 2,8, Italiyada 2,8, Braziliya 2,6, Meksikada 2,5, Koreya Respublikasida 2, Kanadada 1,7%.

Sanoat asosan ishlab beruvchi va undiruvchi (tog'-kon) tarmoqlardan iborat. Tarmoqlar paydo bo'lish davriga ko'ra, 3 guruhga bo'linadi: 1) eski tarmoqlar (ko'mir, metallurgiya, to'qimachilik, oziq-ovqat, kemasozlik, kimyo sanoatining ayrim tarmoqlari); 2) yangi tarmoqlar (avtomobil, aviasiya, neft, o'rmon, kimyo, alyuminiy ishlab chiqarish, plastmassa, sintetik kauchuk, so'n'iy talolalar ishlab chiqarish va boshqalar); 3) eng yangi tarmoqlar (robotsozlik, aerokosmika, organik sintez, mikrobiologiya sanoati va boshqalar).

Keyingi o'n yilliklarda rivljlanish sur'atlari FTIning yetakchi tarmoqlari – mashinasozlik va kimyo sanoatlarda rivojlanish sur'atlari boshqa tarmoqlarga nisbatan ancha yuqori, tog'-kon va bazaviy tarmoqlarda esa sekin bo'ldi. To'qimachilik, poyabzal, oziq-ovqat sanoatlari yana ham sekinroq rivojlandi.

Rivojlangan mamlakatlar sanoati strukturasida ishlab beruvchi sanoat 83,4%, undiruvchi sanoat – 8,1%, elektroenergiya va gaz ishlab chiqarishi 8,5% salmoqqa ega. Sanoat strukturasining eng xarakaterli xususiyati unda ilmiy-texnika taraqqiyotini belgilab beruvchi eng yangi fantalab tarmoqlaridan ko'pchiligini qamrab oladigan mashinasozlikning peshqadamligidir. Mashinasozlikning ustivorligi iqtisodiy rivojlangan ko'pchilik mamlakatlarga xos xususiyatdir. Masalan, mashinasozlikning butun sanoat ishlab chiqarishidagi salmog'i GFR va Shvesariyada 38, Vengriyada 33, Buyuk Britaniya va Italiyada 32, Niderlandiyada 28, Norvegiyada 26, Kanadada 25, Avstriya va Daniyada 24, Finlyandiyada 24, Avstraliyada 23, Ispaniyada 22% ga teng. Bularga strukturasida katta o'zgarishlar sodir bo'layotgan mashinasozlikni ham qo'shish kerak. Transport mashinasozligi, ayniqsa, kemasozlik va temir yo'l harakati vasitalari ishlab chiqarish salmog'ining pasayib borishi, umumiy mashinasozlik uchun mo''tadil o'sish, elektrotexnika va elektronika, robot va idora jihozlari ishlab chiqarishning esa tez o'sayotganligi xarakterlidir. Ikkinchi o'rinni kimyo sanoati egallayd. Uning sanoatdagi salmog'i rivojlangan mamlakatlarda 20-25%ga teng. Kimyo sanoati strukturasida polimer materiallar ishlab chiqarishning salmog'i oshib borayotir, tog'-kimyo va asosiy kimyo sanoatining salmog'i esa pasaymoqda.

6.2. Dunyo yoqilg'i-energetika sanoati

Yoqilg'i-energetika sanoati dunyo xo'jaligining asosi bo'lib, u uchta bo'g'indan – yoqilg'i-energetika resurslarini qazib olish, resurslarni energiya ishlab chiqarish joylariga tashish, elektr va issiqliq energiyasini ishlab chiqarishdan

tashkil topgan. XIX asrda va XX asrning boshida energiya resurslarining asosi ko'mir, XX asr o'rtalaridan boshlab ko'mir, neft, gaz, 60-90-yillarda (ko'mir, neft, gazdan tashqari) – yadro va suv resurslari bo'lib qoldi.

Dunyoda birlamchi energiya resurslarini iste'mol qilish muttasil oshib borayotir. XX asrning boshida (1900 yilda) ularning hajmi 1 mlrd.. tonna shartli yoqilg'iga, 2000 yilda (bashorat) 14 mlrd.. tonnaga yetgan. Energiya iste'molining o'rtacha o'sishi XX asrning birinchi yarmida yliga 2-3%, 1950 – 1975 yillarda 5% bo'lgan. Dunyoda birlamchi energiya resurslarini iste'mol qilishning umumiy hajmi turli variantdagi bashoratlarga ko'ra, 2000 yilda 14,5 va 16,8, mlrd.. t.sh.yo. ga, 2020 yilda esa 19,7 va 26,7 mlrd.. t.sh.yo. ga teng bo'ladi.

Ikkinchi jahon urishidan keyin rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining o'sishi ularning arzon neft resurslaridan ommaviy foydalanishi bilan bog'liq bo'ldi. Yaqin Sharqdagi dunyoning eng boy neft konlarini halqaro neft monopoliyalari to'la nazarat qilardi. Bu davrda dunyo bozorida neftning bohosi ko'mirning bahosidan ham past edi.

1960 yillardan boshlab yoqilg'i va energiya ite'moli asosan neft va gaz qazib olish sur'atining jadal oshishi va ularni dunyoning turli qismlariga tashish hisobiga o'sdi. Bu davrni, odatda, arzon neft davri, deb atashadi (1970 yillarda 1t neftning narxi 20 dollar bo'lgan). Lekin 70-yillarning o'rtalaridan boshlab dunyo energetikasida katta o'zgarishlar yuz berdi: 1) yoqilg'i qazib olishning kon-geologik sharoitlari yomonlashuvi va ularning ekstremal rayonlarda (Shimol, Sahroi Kabir), joylashgani, kontental shelfga ko'chishi, tabiat muhofazasiga talabning oshishi; 2) dunyo xo'jaligida ziddiyatlarning kuchayishi, rivojlanayotgan mamlakatlarning o'z neft resurslarini yuqori narxda sotish uchun kurashishi

oqibatida 1 tonna neft bahosining 250-300 dollarga ko'tarilishi (ilgarigi baholarga nisbatan 12-15 marta oshishi). Oqibatda arzon yoqilg'i (neft) davri tugab, energetika bo'hroni boshlandi.

Dastlab AQSH, Yaponiya, G'arbiy Yevropa mamlakatlari favkulodda choralarni ko'rishga majbur bo'ldilar (Kino teatrlarda seanslar, televizion ko'rsatuvlar vaqti kisqartirildi, avtomobil va samalyotlarning tezligi pasaytirildi, ko'plab aviareyslar bekor qilindi, avtobenzin quyish shaxobchalarining soni kamaytirildi, avtopoygalar bekor qilindi, kvartiralarni isitish, issiq suv berish qisqartirildi, reklama yoritkichlari o'chirildi v.h.lar.

Yangi energetika siyosati dunyo energiya iste'moli struktrurasida ham o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Bu strukturada neftning salmog'i pasaydi. Uning bozordagi narxi taxminan 100 dollarga kamaydi.

Dunyo yoqilg'i va energiya ishlab chiqarish va iste'mol qilish bo'yicha o'z geografik xususiyatiga ega. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarilayotgan energetika resurslarining katta qismi AQSH, G'arbiy Yevropa, Yaponiyaga olib ketiladi.

Dunyo energetikasining asosini uchta tarmoq - neft, gaz, ko'mir sanoatlari tashkil etadi.

Dunyo neft sanoati. Neft sanoati dunyo yoqilg'i-energetikasining yetakchi tarmog'i bo'lib u dunyo xo'jaligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Asosiy mahsulotidan energetika maqsadlarida foydalanganligi uchun u energetika tarmoqlari guruhiga kiradi. Neft va neft mahsulotlarining bir qismi neft kimyo sanoatida qayta ishlanadi.

Neft qattiq yoqilg'idan ma'lum tabiiy xususiyatlariga ko'ra ustun turadi: hajm va og'irlik birligi bo'yicha katta samara beradi; suyuqligi, oquvchanligi va tez yonish xossalari qazib olishni mexanizasiyalash va avtomatlashtirish, tashishni, ortib

tushirishni, qayta ishlashni osonlashtiradi; to'liq yonadi; yuk tashuvchi katta kemalarda tashish nisbatan arzon. Ammo bu afzaliklar uni qazib olishning ko'payishiga sabab bo'lmagan. Asosiy sabab – neft mahsulotlariga sanoatning, xo'jalikning ko'plab tarmoqlari va kurolli kuchlar talab va ehtiyoji tez o'sib borishi, ko'mirga nisbatan neft qazib olish va tashish **xarajatlarining** nisbatan kamligi, eng yirik zahiralari eng arzon ishchi kuchlariga ega bo'lgan, iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan mamlakatlarda to'langanligidir. Bularning hammasi neft sanoatini eng serdoramad tarmoqlardan biriga aylantirdi.

Neft sanoati eng yuqori darajada monopoliyalashgan tarmoqdir. Eng yirik neft korporasiyalari qudratli xalqaro monopolistik guruhlarga kiradi. Dunyo neft sanoatining asosiy ko'rsatkichlari 2-jadvalda berilgan.

2-jadval

Dunyoning aniqlangan neft zahiralari va uni qazib olish (2000 boshlarida)

Region (mamlakat- lar)	Neft zahiralari (mln.) t	Dunyo zahirasida -gi hissasi (%)	Neft qazib olish (1994y) (mln.)	Dunyoda qazib olish bo'yicha salmog'i (%)	Dunyoda qazib olish bo'yicha egallagan o'rni
Dunyo	136094	100,0	3000,0	100,0	
Yaqin va O`rta Sharq shu jumladan:	84440	65,7	921,7	30,7	
Saudiya Arabistoni	32255	25,9	388,9	12,9	1

Eron	12110	8,9	176,9	5,9	4
Quvayt	12946	9,5	92,7	3,1	11
Osiyoning qolgan qismi, Avstraliya va Okeaniya	6021	4,4	329,5	11,0	
Shu jumladan:					
Xitoy	3288	2,4	147,5	4,9	5
Indoneziya	786	0,6	66,0	2,2	14
Amerika	22026	16,2	804,0	26,8	
Shu jumladan:					
AQSH	3095	2,3	326,7	10,9	3
Meksika	7151	5,3	137,9	4,6	6
Venesuela	9204	6,8	128,4	4,3	7
Kanada	678	0,5	857	2,9	12
Afrika	8301	6,1	306,1	10,6	
Shu jumladan:					
Nigeriya	2415	1,8	95,0	3,2	10
Liviya	2594	2,2	65,5	2,2	13
G`arbiy Evropa	2254	1,7	277,6	9,2	
Shu jumladan:					
Buyuk Britaniya	621	0,5	125,7	4,2	8
Norvegiya	1265	0,9	122,6	4,1	9
MDH va Sharqiy Evropa	8052	5,9	361,1	12,0	
Shu jumladan: MDH	7755	5,7	347,1	11,6	7

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dunyoda 10 mlrd. tonnadan ortiq neft zahiralariga faqat Fors qo'ltig'ining 5 mamlakati (Saudiya Arabistoni, Eron, BAA, Iroq, Quvayt) ega. MDH mamlakatlaridan Rossiyada sobiq SSSR neft zahiralarining (8-10 mlrd. t) 85, Qozog'istonda 9, Ozarbayjanda 2,3, Turkmanistonda 2 foiz joylashgan.

Dunyoda neft qazib oluvchi mamlakatlar soni 1900 yilda 20, 1940 yilda 40, 1970 yilida 60 ta bo'lgan. Har yili dunyoda 3-3,5 mlrd. t. neft qazib olinadi. Eng yirik neft qazib oluvchi mamlakatlar – Saudiya Arabistoni, AQSH, Rossiya, Eron,

Meksika, Xitoy, Venesuela. Fors qo'ltig'ining 5 mamlakati dunyo neftining 25, OPEK mamlakatlari 40, sanoati rivojlangan mamlakatlar (AQSH ni ham qo'shib) 25%ini qazib oladi. Shuni aytish kerakki, so'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlardan AQSH da (zahiralarning ko'pligiga qaramay AQSH iste'mol qilinadigan neftning 52%ini import qiladi) va Buyuk Britaniyada (neft asosan Shimoliy dengiz akvatoriyasidan qazib olinadi, u 130 mln. tonnadan 90 mln. tonnaga kamaydi) neft importi qazib olish kamayishiga bog'liq holda qisqardi. Neft ekspertlarining fikricha Shimoliy dengizda neft qazib olish maksimum darajaga yetgan (250 mln. tonnaga yaqin) va istiqbolda asta-sekin kamayib boradi. Neftning aniqlangan zahiralaridan 22,5%i dengiz konlariga to'g'ri keladi. Dengizlarda qidiruv ishlari qirg'oqdan 200-500 km uzoqlikdagi 800 metrgacha chuqurlikda olib borilmoqda. Hozir kontinental shelfda 50 mamlakat neft qazib olayotir, dengiz neftining umumiy hajmi 1995 yilda 950 mln. tonga yetgan (dunyo umumiy hajmidagi salmog'i 28%). Yevropa va Avstraliyada neftning 90%, Lotin Amerikasida 50%dan ko'prog'i dengizdan qazib olinadi. Dengiz neftini qazib olishda (1992 y.) quyidagi mamlakatlar alohida ajralib turadi (mln. t.): Buyuk Britaniya (89), Norvegiya (84), Meksika (79), Saudiya Arabistoni (74), Venesuela (46), AQSH (42), BAA (35), Hindiston (33), Braziliya (31), Malayziya (30), Misr (27), Nigeriya (26), Avstraliya (23), Indoneziya (23), Angola (20), Eron (17) va boshqalar. Ayrim mamlakatlarda neftning 95-100 (Buyuk Britaniya, Norvegiya, Daniya, Ispaniya, BAA, Zair, Kongo, Avstraliya) va 80 foizi (Venesuela, Gabon) dengiz konlaridan olinadi. Kontinental shelfdagi asosiy dengiz neft konlari shimoliy dengiz, Fors qo'ltig'i, Meksika qo'ltig'i, Karib dengizida joylashgan. So'nggi

yillarda Berens va Qora dengiz, Saxalin, Kaspiy dengizi shelflarida neftning katta zahiralari borligi aniqlangan.

Dengizda neftni qazib olish chuqurlik oshgan sari va yuqori (shimoliy) geografik kengliklarda tobora qimmatga tushadi. Masalan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi neftni qayta ishlovchi (NKI) 700 zavodning umumiy quvvati 3,6 mlrd. tonnadan ko'proq bo'lib, undan AQSH ga 780, G'arbiy Yevropaga 720, Yaponiyaga 200, Lotin Amerikasiga 300, Yaqin va O'rta Sharqqa 250, Afrikaga 150 mln. tonna to'g'ri keladi. NKI sanoatini joylashtirishda bir-biriga qarama-qarshi ikki tendensiya ta'sir ko'rsatadi: biri – bozor tendensiyasi (NKI ning qazib olinadgan joylardan uzoqdaligi va NKI zavodlarini iste'molchi mamlakatlarda kurish), boshqasi – xom ashyo tendensiyasi – NKI ni neft qazib olinadgan joylarga yaqinlashtirish. So'nggi yillargacha birinchi tendensiya ustun edi va u arzon xom neftni sotib olib, undan olingan mahsulotlarni bir necha baravar qimmat sotish bilan bog'liq edi. Keyingi yillarda NKI zavodlarini ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, transport kommunikasiyalari tugunida, muhim dengiz yo'llarida qurish tendensiyasi kuchaydi. Dunyodagi quvvati 15 mln. tonnadan ortiq bo'lgan qudratli 15ta NKI zavodlarining yarmi Singapur, Saudiya Arabistoni, Venesuela, Bagam orollarida joylashgan. Quvvati 30 mln. tonna bo'lgan eng yirik NKI zavodi AQSH ga qarashli. U Karib dengizidagi Virgin orollarida joylashgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda NKI zavodlarini qurish, shuningdek, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda tabiatni muhofaza qilish talablari kuchaytirilganligi bilan ham bog'liq (ekologik iflos ishlab chiqarishni tashqariga chiqarishi). Neft qazib oluvchi va eksport qiluvchi mamlakatlarning o'z NKI va neft-kimyo sanoatini barpo etishga intilishlari ham

rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu tendensiyaning kuchayishiga olib keldi.

Qazib olinayotgan neftning yarmi eksport qilinadi. Asosiy eksportyorlar: OPEK mamlakatlari, Rossiya, Xitoy, Saudiya Arabistoni, Venesuela, Quvayt va boshqalar. Neftni sotib oluvchi asosiy davlatlar Yaponiya, G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Koreya Respublikasi.

Neftni qazib olish va iste'mol qilish rayonlari o'rtasidagi hududiy uzilish uni tashishning katta miqyosda bo'lishiga sabab bo'lgan. U dengiz transportida (tanker) tashiladigan eng asosiy yukdir. Shuningdek, neft temir yo'lda va neft quvurlari orqali ham ko'p miqdorda tashiladi.

Asosiy neft yuklari oqimi Fors qo'ltig'ining eng yirik neft portlaridan G'arbiy Yevropa va Yaponiyaga jo'natiladi. Eng yirik tankerlar Afrikani aylanib o'tadigan uzoq yo'ldan, uncha katta bo'lmaganlari – Suvaysh kanalidan o'tadi. Kichik yuk oqimlari Lotin Amerikasi mamlakatlaridan (Meksika, Venesuela) AQSH va G'arbiy Yevropaga boradi. AQSH, Kanada orqali o'tadigan Alyaska neft quvuri orqali neft bilan ta'minlanadi. Sharqiy Yevropa mamlakatdarini neft bilan ta'minlashda Rossiya asosiy rol o'ynaydi.

Dunyo gaz sanoati. Gaz sanoati XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshladi. Dunyo yoqilg'i iste'moli strukturasida neft va ko'mirdan keyin uchinchi o'rinni egallaydi (20%). Gaz ekologik eng toza energiya resursidir. Dunyo gaz sanoatining asosiy ma'lumotlari 3-jadvalda berilgan.

3-jadval

Dunyoda tabiiy gazning aniqlangan zahiralari, qazib olinishi va iste'moli

Region (mamlakatlar)	Dunyo zahiralaridagi solmogi (%)	Qazib olish (mlrd. m^3)	Iste'mol (mlrd m^3)
Дунуо	100,0	2215	2215
Шимолий Америка	4,9	658	654
Лотин Америкаси	5,1	97	101
/арбий Европа	3,8	244	335
Шар=ий Европа	40,2	795	720
Шу жумладан: Россия	39,2	606	497
Африка	6,9	87	46
Я=ин ва Ырта Шар=	32,0	136	130
Австралия ва Океания	7,0	198	229

Gazning aniqlangan zahiralari bo'yicha ayniqsa, MDH va Janubiy - G'arbiy Osiyo (trln. m^3), Rossiya (40), Eron (16), Saudiya Arabistoni (6), BAA (5,7), AQSH (5,4), Jazoir (4), Kanada (2,6), Venesuela (3,1), Meksika (2), Indoneziya (2,5), Norvegiya (2,3), Malayziya (2), Xitoy (2), Niderlandiya (1,7), Turkmaniston, O'zbekiston va boshqalar ajralib turadi.

Dunyoda gaz qazib m^3 olishning umumiy hajmi 1990 yilda 2,1 trln. m^3, 1995 yilda 2,2 trln. m^3, 2000 yilda 2,5 – 2,6 trln. m^3 bo'lgan . Gaz 60dan ortiq mamlakatda qazib olinadi.

Gaz qazib oluvchi birinchi o'nlik mamlakatlarga Rossiya, AQSH, Kanada, Niderlandiya, Turkmaniston, O'zbekiston, Buyuk Britaniya, Indoneziya, Jazoir, Saudiya Arabistoni kiradi. Ko'p mamlakatlar dengiz tubidan ko'p miqdorda gaz qazib olmoqdalar. (mlrd. m^3) : AQSH (120), Buyuk Britaniya (48), Norvegiya (31), Malayziya (18), Niderlandiya (17), Avstraliya (12), Bruney (8). Qazib olinayotgan gazning 15 %i eksportga chiqariladi. Asosiy neft eksport qiluvchi davlatlar Rossiya, Turmaniston, O'zbekiston, Kanada, Niderlandiya, Norvegiya, Jazoir, Indoneziya. Asosiy importerlar – GFR, Yaponiya, AQSH, Fransiya, Italiya. Gazning 75%i gaz quvurlari orqali, 25%i suyultirilgan holda metan tashuvchi tankerlarda tashiladi.Gazni kontinentlararo tashishning murakkabligi uning 85%i gaz qazib oluvchi mamlakatlarda to'planishiga sabab bo'lgan.

Gaz quvurlarini qurish jadal rivojlanmoqda. Ularning hozirgi paytdagi uzunligi dunyoda 900 ming km ga yetadi. Eng yirik gaz quvurlari Shimoliy Amerikada. (Kanadaning Alberta provinsiyasi va AQSH o'rtasida), G'arbiy Yevropada (Gollandiyadagi eng yirik Groningen konidan,Germaniya va Shveysariya hududi orqali Italiyaga, Norvegiyaning Shimoliy dengiz sektoridan Germaniya, Belgiya va Fransiyaga) ishlab turibdi. 1982 yildan buyon Jazoirdan Tunisga va undan keyin O'rta yer dengizi tubidan Italiyagacha o'tkazilgan gaz quvurlari ishlamoqda. Rossiyadan Sharqiy Yevropaning deyarli barcha mamlakatlariga (Albaniyadan tashkari), shuningdek, qator G'arbiy Yevropa mamlakatlariga (Germaniya,Avstriya, Italiya, Fransiya, Finlandiya) gaz quvurlari orqali gaz keltiriladi.

Davlatlararo dengizda suyultirilgan gazni gaz tashuvchi maxsus kemalarda tashish rivojlanib bormoqda. U eksport qilinadigan portlarda qimmatga tushadigan gaz suyultiruchi, import portlarida uni yana normal holatga keltiradigan

qurilmalar qurishni taqazo etadi. Shu sababdan gazni shunday usulda dengizda tashishning barqaror zanjirlari Yaqin Sharq – Yaponiya, Avstraliya – Yaponiya o'rtasida shakllangan.

Dunyo ko'mir sanoati. Dunyoda energetik vaziyatning keskinlashishiga bog'liq holda so'nggi yillarda ko'mir sanoati tez rivojlandi. U dunyo energetikasining yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu holat elektroenergetika va qora metallurgiya kabi yirik ko'mir iste'molchi tarmoqlarining mavjudligi hamda neft sanoatiga nisbatan resurslar bilan juda yaxshi ta'minlanganligi bilan izohlanadi.

Dunyoning umumiy ko'mir zahiralari 1,2 trln. t. ga teng (52% toshko'mir, 48% qung'ir ko'mir) Uning 66%i iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Dunyoda ko'mir zahiralari bo'yicha quyidagi mamlakatlar yetakchi o'rin egallaydi (mlrd. t.): AQSH (400), MDH mamlakatlari (280), Xitoy (105), GFR (90), Buyuk Britaniya (90), Kanada (15). Bulardan tashqari Indoneziya, Botstvana, Zimbabve, Mazambik, Kolumbiya, Venesuela va boshqalar ko'mir zahiralari bilan ajralib turadi.

1950-1995 yillarda ko'mir qazib olish muttasil ko'payib bordi: 1950y-1,3, 1960y-2,6, 1970y-2,9, 1980y-3,7, 1985y-4,3, 1990-4,9, 1995y-5,2 mlrd. tonna. Shu bilan bir qatorda so'nggi yillarda rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligida asosiy an'anaviy ko'mir (eski sanoat) rayonlarida (GFRda RUR havzasi, Shimoliy Fransiya, AQSHda Appalachi) ko'mir qazib olish kamaydi. Avstraliya, JAR, Kanadada eksportga asoslanib ko'mir qazib olish ko'paydi. Avstraliya yoki JAR dan G'arbiy Yevropaga olib borilayotgan ko'mir mahalliy ko'mirdan uch marta arzonga tushadi. Bu G'arbiy Yevropa ko'mir havzalari inqirozining sababidir.

Dunyoning 70 dan ko'proq mamlakatida ko'mir sanoati rivojlangan. Qo'ng'ir ko'mir qazib olishda Germaniya dunyoda birinchi o'rinni egalaydi va bu yerda undan elektrostansiyalarda kimyo sanoatida, uy ro'zg'orda (briket) keng foydalaniladi.

Neft va gazdan farq qilib, ko'mirning atigi 8%i eksportga chiqariladi, asosiy qismi esa qazib olingan mamlakatda iste'mol qilinadi. Ko'mir eksport qiluvchi asosiy davlatlar (mln. t): Avstraliya (110), AQSH (95), JAR (50), MDH (40), Polsha (30), Kanada (25), Xitoy (75), Namibiya (15), asosiy ko'mirni import qiluvchi davlatlar –Yaponiya (400), Koreya Respublikasi (30), Italiya (20), Kanada (20), Fransiya (15), Niderlandiya (15) sh.yo. Halqaro savdoda ko'mirning 90% dengiz transportida tashiladi.

6.3. Dunyo elektroenergetika sanoati

Elektroenergetika sanoatining rivojlanishi ishlab chiqarish va turmush – uy-ro'zg'or sohalarini elektrlashtirish bilan uzviy bog'liq. Dunyoda iste'mol kilinadigan energiyaning $\frac{1}{3}$dan ko'prog'i (15 mlrd. tonna sh.yo.) elektr energiyasiga aylantiriladi. 2000 yilda barcha birlamchi energiya resurslarining 40%i elektroenergiya ishlab chiqarishga sarflandi. Shu sababdan elektroenergiya ishlab chiqarish barlamchi energiya resurslari ishlab chiqarilishi va iste'moliga nisbatan tezrok o'sayapti. O'tgan asrning 50-70-yillarda u har o'n yilda ikki marta ko'payib bordi. Masalan, dunyoda 1950 yilda – 950, 1960 yilda – 2300 ,1970 yilda – 5000, 1980 yilda – 8250, 1990 yilda – 11550, 2000 yilda – 13,2 mlrd. kvt:soat elektroenergiyasi ishlab chiqarildi. Dunyodagi barcha elektro-stansiyalarning umumiy quvvati ham tez sur'atlarda o'smoqda: u 1970 yilda 1,1 mlrd. kvt ga teng bo'lsa, 1995 yilda 2,6 mlrd. kvt ga yetdi.

Dunyoda elektr energiya ishlab chiqarishning umumiy hajmi bo'yicha o'rinlar quyidagicha taqsimlangan: 1) Shimoliy Amerika (32,3%), 2) G'arbiy Yevropa (26%), 3)Xorijiy Osiyo (18,2%), 4)MDH (14,4%), 5)Lotin Amerikasi (5,2%) 6)Afrika (2,2%), 7)Avstraliya (1,7%). Dunyo elektr energiyasining 80% dan ko'prog'i rivojlangan mamlakatlar, 20%dan kamrog'i esa rivajlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Dunyoda eng ko'p elektr energiya ishlab chiqaruvchi mamlakatlar qo'yidalar: 1)AQSH – 3,2 trln. kvt:s, (dunyoning 27,8% eletr energiyasi); 2)Rossiya – 1,1 trln. kvt:s (9,5%); 3)Yaponiya – 835 mln. kvt:s (7,2%); 4)Xitoy - 620 mln. kvt:s, (5,4%); 5)GFR - 560 mln. kvt:s (4,8%); 6)Kanada - 520 mln. kvt:s (4,5%); 7)Fransiya - 420 mln. kvt:s (3,6%); 8)Buyuk Britaniya - 320 mln. kvt:s (2,8%); 9)Ukraina -300 mln. kvt:s (2,6%); 10)Hindiston - 280 mln. kvt:s (2,4%). Aholi jon boshiga elektr energiya ishlab chiqarishda (dunyoda o'rtaga 2140 kvt) mamlakatlar bir-birlarilan katta farq qiladilar. Masalan, bu ko'rsatkich bo'yicha birinchi o'rinlarda Norvegiya (28660 kvt), Kanada (19600kvt), Shvesiya (17100kvt), AQSH (12860kvt), Finlyandiya (10950kvt) turadi, eng oxirgi o'rinlarni esa Afrika mamlakatlari (o'rtacha 81 kvt), Hindiston (340kvt), Xitoy (550 kvt), Turkiya (970kvt) egallaydi.

Dunyoda elektr energiya ishlab chiqarish strukturasining ayrim regionlar bo'yicha farqi 4-jadvalda berilgan.

4-jadval.

Dunyoda elektr energiya ishlab chiqarish strukturasi.

Dunyo bo'yicha, regionlar	ISE larda ishlab chiqarish (%)	GES larda ishlab chiqarish (%)	AES larda ishlab chiqarish (%)	Jami
Dunyo	63	20	17	100
MDH	75	13	12	100

Xorijiy Evropa	55	15	27	100
Xorijiy Osiyo	69	18	13	100
Afrika	81	17	2	100
Shimoliy Amerika	66	18	18	-
Lotin Amerikasi	23	75	2	-
Avstraliya va Okeaniya	79	21	-	-

Dunyoda elektr energiya ishlab chiqarish strukturasida asosiy o'rinni issiqlik elektr stansiyalari (IES – 63%), ikkinchi o'rinni gidroelektr stansiyalari (GES – 20%), uchinchi o'rinni esa, atom elektr stansiyalari (AES- 17%) egallaydi. Bunday nisbat ko'p regionlar uchun ham xarakterlidir, lekin ayrim farqlar ham mavjud. Masalan, Lotin Amerikasida elektr energiyaning ko'pi GES larda ishlab chiqariladi.

Bu mazkur regionning gidrastrukturalarga boyligi, ko'mir, ko'pchilik mamlakatlarda esa neft konlarining kamligi bilan izohlanadi. AES salmog'i G'arbiy Yevropada o'rtacha ko'rsatkichdan ancha yuqoridir.

Ko'mirning salmog'i ba'zi mamlakatlar IESda juda katta (masalan, JARda deyarli 100%, Avstraliyada 75%, Germaniya va AQSHda- 50% dan ortiq). Bunda ko'mir yoqilg'i-energetika siklining ekologik xavf-xatarli ekanligini hisobga olish va ularni ekologik toza energiya turlariga almashtirish (quyosh, shamol va boshqalar) zarurati ko'ndalang turadi.

Uchinchi guruhga GES larning elektr energiya ishlab chiqarishdagi salmog'i yuqori bo'lgan mamlakatlar kiradi. Bularga Norvegiya (99,5%), Braziliya (92%), Gonduras, Nepal, Shri Lanka, Paragvay (90% dan ko'proq), Efiopiya, Gabon (80%dan ortiq), Avstraliya, Kolumbiya, Peru, Keniya, Madagaskar, Yangi Zelandiya (70% dan ortiq), Kanada (62%), Shvesiya (50%) hamda Tojikiston, Qirg'iziston misol bo'ladi.

Ularning hammasida mineral yoqilg'i resurslari cheklangan. Ular gidroresurslarga boy tog' va daryolar ko'p mamlakatlaridir. GES larda elektroenergiya ishlab chiqarishning ko'pi AQSH, Kanada, Yevropa mamlakatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Yer sharining gidroenergetika quvvati nazariy jihatdan 33-49 trln. **kvt/soat**, hozirgi texnika rivojlanishi sharoitiga ko'ra esa, 15 trln. **Kvt/soatga** teng. Uni o'zlashtirish darajasi dunyo bo'yicha 14% ga baravar. Ba'zi mamlakatlar Shvesiya, GFRda gidrroenergetika quvvati deyarli to'la o'zlashtirilgan boshqalarida o'zlashtirish endilikda boshlanmoqda. Yaponiyada gidroresurslarning $\frac{2}{3}$, AQSH va Kanada $\frac{3}{2}$, Lotin Amerikasida $\frac{1}{10}$, Afrikada $\frac{1}{20}$ dan foydalanilmoqda.

Dunyoda quvvati 1 mln. kvt.dan ko'p bo'lgan, ishlab turgan 110 ta GES bor. Ularning 50% dan ko'progi rivojlangan mamlakatlarda (Kanadada 17, AQSHda 16tasi) joylashgan. Dunyoning eng yirik GES lari quyidagilar (quvvati mln. **kvt/s**): Italiya (Braziliya – Paragvay, Parana daryosida) –12,6; Grand – Kuli (AQSH) – 10,8; Guri (Venesuela, Karoni daryosi) – 10,3; Tukurim (Braziliya) – 8,0; Sayan – Shushensk (Rossiya) – 6,4; Korpus – Posados (Argentina – Paragvay) – 6,0: Krasnoyarsk (Rossiya) – 6,0; La – Grand – 2 (Kanada) – 5,3; Chergill – Falz (Kanada) – 5,2; Ksindo (Braziliya) – 5,0; hozirgi paytda ko'pchilik mamlakatlarda kichik GESlarni ko'plab qurish tez rivojlanmoqda. Dunyoda hozir 100 mingdan ortiq kichik GESlar ishlab turibti.

GESlarni qurishda ularning afzallik (ekspluatasiya davrining davomiyligi, ekspluatasiya **xarajatlarining** kamligi, energiyani to'plash imkoniyatlari, ekologik tozaligi va sarflangan mablag'larni qoplashning uzoq muddatga

cho'zilishi, ko'p qishloq xo'jalik yerlarini yo'qotish, yer osti suvlarining yer yuzasiga ko'tarilishi, daryo qirg'oqlarining yemirilishi va boshqalarni hisobga olish zarur.

To'rtinchi guruhga atom energiyasining salmog'i yuqori bo'lgan mamlakatlar kiradi. Bular Fransiya (72,9%), Belgiya (59,9%), Koreya Respublikasi (43,2%), Shvesiya (43,2%).

Dunyo atom energiyasi muammolari. Atom energiyasi tizimi rivojlanishining nisbatan qisqa davri uchun ko'tarilish va pasayish bo'yicha hisoblar va bashoratlarni qayta boholash harakatlaridir. Uni jadal rivojlantirishning dastlabki dasturlari o'tgan asrning 50-60-yillarda AQSH, Buyuk Britaniya, sobiq SSSRda, so'ngra GFR va Yaponiyada ishlab chiqilgan edi. Ularning ko'pchiligi o'sha davrda AESlarning IESlar bilan yetarli raqobatbardosh bo'la olmaganligi sababli amalga oshmay qoldi. So'ngra dunyo energetika bo'hroni boshlanishi, neft narxining keskin ko'tarilishi energiya bilan ta'minlashni mustahkamlash masalasini yangicha yo'lga qo'yishga olib keldi va atom energiyasining aksiyalari narxi tez ko'tarildi. Bu birinchi navbatda, GFR, Belgiya, Shvesiya, Finlyandiya, Yaponiya, Koreya Respublikasiga taalluqli edi. Shu bilan bir qatorda mineral yoqilg'iga boy bo'lgan AQSH va sobiq SSSR kabi mamlakatlar ham atom energiyasini rivojlantirishning yirik dasturlarini qabul qilib, amalga oshira boshladilar. Natijada 70-yillarning oxiriga kelib, ko'pchilik G'arb ekspertlari XX asrning oxiridagi AES quvvatlari 1300-1600 mln. kvt.ga yoki barcha tipdagi elektr stansiyalar quvvati yig'indisining taxminan yarmiga teng bo'ladi, AESlar dunyoning 50 mamlakatida paydo bo'ladi, deb hisobladilar. 2020 yilda dunyo yoqilg'i va energiya iste'molida atom energetikasi salmog'i 30%ga yetishi bashorat qilingan edi. Lekin o'tgan asrning 80-yillari o'rtalariga kelib, atom energiyasining o'sishi yana sekinlashdi, ko'pchilik

mamlakatlarda AES qurish rejalari va bashoratlari qayta ko'rib chiqildi. Buga energiyani tejash maqsadidagi yutuqlar, neftning asta-sekin arzonlashib borishi, ayniqsa, AESlar qurishning ekologik oqibatlarini qayta baholash va boshqalar sabab bo'ldi. Bunday qayta baholash AQSH ning Tri Maykl Aylend AESi va ayniqsa, 1986 yilda Ukrainadagi Chernobil AESida sodir bo'lgan dahshatli avariyalardan keyin yanada ko'chaydi. Chernobil halokati Ukraina, Belorussiya, Rossiyaning 17 mln. aholi yashaydigan 11 viloyatini qamrab oldi va Chernobildan 2 ming km. radiusdagi 20 mamlakatda radiasiya darajasining oshishiga sabab bo'ldi. Radiasiya yoginlari shimoliy-g'arbda Norvegiyaning shimoliga, G'arbda Reyn daryosiga, janubda FORS qo'ltig'iga yetib bordi.

Aynan shu davrda ko'p mamlakatlar atom energiyasidan to'liq yoki asta- sekin voz kechish to'g'risida qaror qabul qildilar. Masalan, Avstriyada Vena yaqinida ishlashga tayyor AES to'xtatib qo'yildi. Italiyada 1987 yildagi referendumdan keyin uchta AES yopildi, qurib tugallangan to'rtinchi AES qayta jihozlanib, IESga aylantiriildi. Polsha Jarnoviseda AES ko'rilishini to'xtatdi. Shvesiya, Niderlandiyaning yadro dasturlari amaliy jihatdan to'xtatildi. Shvesiyada referendumdan keyin ishlab turgan 12ta atom reaktorlarining barchasini 2010 yilgacha yopish to'g'risida qaror qabo'l qilindi. Ma'lumki, bu mamlakatda AESlar ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning deyarli yarmini beradi. Mamlakat aholi jon boshiga atom elekrt energiyasi ishlab chiqarishda birinchi o'rinni egallaydi.

Ba'zi mamlakatlar o'z AESlarini demontaj qilmadilar, ularning yangisini ko'rishdan ham voz kechmadilar, lekin atom energetika dasturlarini sezilarli darajada qisqartirdilar. Bu holat AQSHga taalluqli bo'lib, u yerda so'nggi yillarda yangi AES qurishga deyarli ruxsat berilmadi. Shuningdek, sobiq SSSRda

ham Chernobil avariyasidan keyin bu sohadagi katta tadbirlar dasturi amalda deyarli to'xtatildi.

Ammo so'nggi yillarda sodir bo'lgan energetika bo'hroni atom energetikasi imkoniyatlarini yana yangidan qayta boholashni kun tartibiga qo'ydi. 1993 yilda Rossiyada 2010 yilgacha mo'jallangan yangi AESlarni qurish dasturi qabo'l qilindi (8ta yangi qo'shimcha energiya bloklari Uzoq Sharqda, uchta yangi AES qurish). Litvada mamlakatning 80% elektr energiyasini ishlab chiqaradigan Ignalin AESi faoliyatini to'xtatish to'g'risidagi talablarga chek qo'yildi. Armanistonda Yerevan AES qayta ishga tushdi.

Hozirgi paytda dunyoning 33 mamlakatida umumiy quvvati 350 mln. kvt ga teng atom reaktorlari ishlamoqda, yana 70 mln. kvt.ga teng reaktorlari qurilmokda (Yaponiyada 16 mln., AQSH da 9 mln., Fransiyada 9 mln. kvt.). Dunyo mamlakatlaridan ayrimlarining yadro quvvatlari 5-jadvalda berilgan.

5-jadval

Dunyodagi ayrim mamlakatlarning yadro quvvati

Mamlakat lar	Ishlayotgan reaktorlar		Qurilayotgan reaktorlar		Atom energiyasining umumiy elektr energiya ishlab chiqarishdagi salmog'i
	bloklar soni	quvvati (MW)	bloklar soni	quvvati (MW)	
Dunyo bo`yicha	434	330651	72	59720	17
1. AQSH	111	99757	3	3480	21,7
2.Frantsiya	56	57688	5	7125	72,9
3. Yaponiya	44	34238	9	8129	27,7
4.Buyuk Britaniya	37	12066	1	1188	23,2
5. Rossiya	28	18893	18	14175	11,8
6. Kanada	21	14874	1	881	15,2
7.Germaniya	21	22559		-	30,1
8. Ukraina	15	13020	6	5700	25,0
9. Shvetsiya	12	10002		-	43,2
10.Koreya Res.	9	7220	3	2550	43,2

11.Ispaniya	9	7101		-	36,4
12.Belgiya	7	5484		-	59,9

***Izoh**: 1995 yil boshida dunyoning 29 mamlakatida 425 reaktor ishlab turgan va 18 mamlakatda yana 60 reaktor qurilish bosqichida bo`lgan.*

Dunyo atom energiyasining umumiy elekr energiya ishlab chiqarishdagi salmog'i (%), quvvatlarining oshib borishi (mln. kvt.) 1970-2000 yillarda quyidagicha o'zgargan: 1970 yilda 2% (25 mln. kvt.), 1975 yilda 6% (80 mln. kvt.), 1980 yilda 8% (150 mln. kvt.), 1985 yilda 13% (250 mln. kvt.), 1999 yilda 17% (330 mln. kvt.), 1995 yilda 18% (380 mln. kvt.), 2000 yilda 19 % (450 mln. kvt.). AESlarda yiliga 2 trln. **Kvt/s** elektr energiya ishlab chiqarilmoqda. Dunyo AES lari quvvatining uchdan ikki qismi AQSH, Fransiya, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiyada to'plangan. Bunda AQSHning solmog'i 40% ga teng. Eng yirik Fuko'sima atom energetika kompleksi Yaponiyaning Xonsyu orolida joylashgan. Uning quvvati 9 mln. kvt bo'lib, 10 energiya blokidan iborat.

Xorijiy mamlakatlarda uran konsentratlari (V3O8) ishlab chiqarish 1980 yilda 45 ming tonnadan 1990 yilda 39 ming tonnagacha kamaydi. Uning asosiy ishlab chiqaruvchi mamlakatlari: Kanada (10 ming t.), AQSH (4,6 ming t.), Avstraliya (4,1 ming t.), JAR (3,6 ming t.), Namibiya (3,5 ming t.), Fransiya (3,4 ming t.), Nigeriya (3,1 ming t.), Gabon (1 ming t.). Qazib olingan uranning 80 foizi xalqaro savdoga chiqariladi. Asosiy eksportyorlar Kanada (9,5), Avstraliya (4,3), Namibiya (3,5), AQSH (3,2), Nigeriya (3,1), Jar (1,7), Gabon (1,0). Ularning asosiy iste'molchilari faqat AQSH, G'arbiy Yevropa mamlakatlaridir. Uran ochiq va shaxta usulida qazib olinadi. Boyitilgan uranni yirik ishlab chiqaruvchi va eksportyorlari qataroga Rossiya, MDHning ayrim mamlakatlari (O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston), shuningdek, Xitoy ham kiradi.

6.4. Dunyo metallurgiya sanoati

Qora metallurgiya. Qora metallurgiya – sanoatning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, mashinasozlik va qurilishni rivojlantirish asosi, xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarini texnik jihozlashning zaruriy shart-sharoiti hisoblanadi. Uning tarkibiga rudali va rudasiz xom ashyoni qazib olish va boyitish, cho'yan, po'lat, prokat, ferro qotishmalar ishlab chiqarish va ularni qayta ishlashdan olinadigan buyumlar ishlab chiqarish tarmoqlari kiradi. Alyuminiy va plastmassa raqobatchanligiga qaramay po'lat asosiy konstruksion material bo'lib qolmoqda. Qora metallurgiyaning ahamiyati avvalo shu bilan belgilanadi.

Qora metallurgiyaning joylashish xususiyatlari tarmoqning rivojlanishi davomida o'zgarib bordi. Masalan, tarixan metallurgiya geografiyasi ikki xildagi yo'nalish ta'sirida shakllanadi:

- toshko'mir havzalariga (AQSH, Yevropa, Rossiya, Ukraina, Xitoy metallurgiya bazalari ana shunday asosda paydo bo'lgan) intilish;
- temir ruda havzalariga (Rossiya, Ukraina, Xitoy, AQSH, Yevropa) intilish.

Lekii FTI davrida avvalgi yoqilg'i xom ashyoga oriyentasiyaning umumiy susayishi, kokslanadigan toshko'mir va temir po'da yuk oqimlariga intilish (oqibatda Yaponiya, G'arbiy Yevropa mamlakatlari qora metallurgiya sanoatining joylashishida dengiz portlariga tomon intilish boshlandi) hamda iste'molchilarga intilishning kuchayishi yuz bermoqda. Shu sababdan qurilayottan kombinatlarning o'lchami qisqarishi, kichik zavodlar (minizavodlar) paydo bo'lishi va ularning erkinroq joylashishi ko'zatilmoqda. Shunday

iste'molchiga mo'ljallangan mitti zavodlar, ayniqsa, AQSH, Yaponiya, Italiya, Ispaniyada ko'p, shuningdek, Braziliya. Meksika, Koreya Resiublikasi, Tayvanda, ayrim arab mamlakatlarida bor.

Temir rudaning dunyodagi umumiy geologik zahiralari 394 mlrd. t. bo'lib, uning hajmi bo'yicha (mlrd. t.) birinchi o'rinda MDH (Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, 111), ikkinchi o'rinda Xorijiy Osiyo (ayniqsa, Xitoy, Hindiston, 67,5), uchinchi Lotin Amerikasi (Braziliya, 61,7), undan keyin Afrika (JAR, Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Liberiya, 59,4), Shimoliy Amerika (AQSH, Kanada, 50,7), Avstraliya (23,4), Xorijiy Yevropa (Fransiya, Shvesiya, Buyuk Britaniya, GFR, 20,3) turadi.

6-jadval

Dunyoning eng yirik temir ruda havzalari va rayonlari

Havzalar va rayonlar	Mamlakat	Aniqlangan zahiralari, mlrd..t	Rudadagi temir miqdori, %	Ruda qazib olish 1988 y, mln.. t
Xemmersli havzasi	Avstraliya	11,7	62	75
«Temir ruda uchburchagi» rayoni	Braziliya	6,0	62	105
Karajas rayoni	Braziliya	5,0	67	29
Mesabi-Reyndj rayoni	AQSH	5,0	37-62	29
Kerol-Leyk havzasi	Kanada	2,7	38	15
Singbum rayoni	Hindiston	2,0	60	19
Simen havzasi	JAR	1,3	64	15
Lotaringiya havzasi	Frantsiya	2,1	31-32	10
Istern-Dndeyl rayoni	Avstraliya	1,4	57	20
Kirunaveara rayoni	Shvetsiya	1,8	49	13
Urukum rayoni	Braziliya	4,0	55-56	-

Dunyoda temir ruda qazib olishning 1950-1990 yillardagi dnnamikasi quyidagi raqamlar bilan xarakterlanadi (mln. t.): 1950y. - 250, 1960y. - 500, 1970y. - 750. 1980y. - 900, 1985y. - 850, 1990y. - 1000. Ikkinchi jahon urushigacha chet ellarda deyarli barcha temir rudani qazib olish AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlari hissasiga to'g'ri kelgan. Urushdan keyingi yillarda bu mamlakatlarda konlardagi resurslarning kamayishi, ruda sifatining pasayishi, yuqori fosforitli rudalarga talabning kamayishi bilan bog'liq holda temir ruda qazib olish tez qisqara boshladi. Ayni paytda temir ruda qazib olshi sobiq SSSR, Kanada, Avstraliya, JAR, ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'paydi. Hozirgi paytda dunyoda eng ko'p temir ruda qazib oladigan mamlakatlar quyidagilar: MDH (236, shu jumladan, Rossiya 107, Ukraina 104, Qozog'iston 24), Xitoy (170), Braziliya (162), Avstraliya (112), AQSH (58), Hindistoi (50), Kanada (42), JAR (33), Shvesiya (23) va b.

Dunyoda qazib olinayottan temir rudaning $\frac{2}{3}$ qismi faqat MDH, Xitoy, Braziliya, Avstraliya hissasiga to'g'ri keladi. Xalqaro savdoga har yili 430-440 mln. t. temir ruda chiqariladi. Uning 80 % dengiz orqali yuk tashiladi. Temir rudasini eksport qiluvchi davlatlarga Braziliya (125 mln. t.), Avstraliya (100 mln. t.), Kanada (30 mln. t.), Hindiston (33 mln. t) kiradi. Ular hissasiga dunyo eksportining $\frac{2}{3}$ qismi to'g'ri keladi, shu jumladan, Braziliya - 28,4%, Avstraliya - 22.7%, Hindiston - 7,5%. Asosiy imnortyorlar - Yevropa Ittifoqi (34%), Yaponiya (28%), Koreya Respublikasi (5%), AQSH (4%). Yaponiya yiliga 150 mln. t gacha temir ruda sotib oladi.

Temir ruda xalqaro savdosida boyitilgan ruda va temir-tirsak sotish hajmining ko'payib borishi muhim yo'nalishga aylanadi.

Ko'pchilik metallarni ishlab chiqarishda ishlab chiqarish jarayoni quyidagi bosqichlardan tashkil topadi: ruda xom ashyosini qazib olish, rudani boyitish, quyish, prokat va qotishmalarni tayyorlash. Rudaning barcha qimmatli qo'shimchalari va qora metallurgiya chiqitlaridan foydalanish maqsadida korxonalar tarkibiga qora metallar, tayorlaydigan sex va zavodlar ham kiradi. Bunday korxonalar ko'pchilik bo'lib, ular metallurgiya kombinatlari deb ataladi.

Dunyoda o'tgan asrning 90-yillarning boshida yiliga 550 mln. t cho'yan quyilgan, 760 mln. t po'lat eritilgan. Cho'yan qo'yish bo'yicha dunyoda birinchi «o'nlik» o'rinni Yaponiya (80mln. t.), Xitoy (62), Rossiya (59), AQSH rO), Ukraina (40), GFR (30). Braziliya (25), Janubiy Koreya (15), Fransiya (14), Hindiston (13) egallaydi.

Dunyoda po'lat eritish 1950 yildan 70-yillarning oxirlarigacha tez o'sdi, so'nggi o'n yilliklarda sekin rivojlandi. Masalan, 1950 yilda – 200, 1960 yilda – 350, 1970 yilda – 800 mln. t. po'lat ishlab chiqarilgan. Bu ahvol bir tomondan FTI davrida tayyor mahsulot birligiga sarflanadigan metallning kamayishi, metall sifatiga talabning oshishi, boshqa tomondan esa iqtisodiy qiyinchilik sababli qora metallga talabniig kamayishi bilan bog'liqdir.

Po'lat ishlab chiqarish bo'yicha (mln. t) Yaponiya (111), Rossiya (90), AQSH (89), Xitoy (66), Ukraina (53), GFR (43), Italiya (26), Koreya Respublikasi (23), Braziliya (21), Fransiya (19) birinchi «o'nlikka» kiradi va ular birgalikda dunyoning $\frac{2}{3}$ po'latini beradi.

Po'lat ishlab chiqarishda rivojlanayotgan mamlakatlarning salmog'i oshib bormoqda (1950 yilda – 2%, 1995 yilda – 15%). Bu yuqori sifatli ruda qazib oladigan mamlakatlarda tabiat muhofazasiga talab oshishi bilan ekologik «iflos» ishlab

chiqarishdan (metallurgiya) holos bo'lish va uni rivojlanayotgan mamlakatlarda joylashtirish bilan bog'liq.

Shu bilan bir qatorda qora metallarning katta qismi birinchi navbatda yuqori sifatli po'lat ishlab chiqarishning deyarli hammasi ilgarigidek rivojlanayotgan mamlakatlarda to'plangan. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa asosan oddiy metall ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Co'nggi yillarda qora metallurgiya Xitoy, Braziliya, Janubiy Koreyada tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Xitoyda po'lat quyish 1949-1992 yillarda 1,6 mln. t dan 78 mln. t gacha, ya'ni 40 marta ko'paydi. Po'lat quyishning hajmi bo'yicha Braziliya, Buyuk Britaniya va Fransiyadan, Janubiy Koreya esa Italiyadan o'zib ketmokda.

Qora metallurgiya mahsulotlari strukturasiga mamlakatlar xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, AQSHda yupqa listli (qatlamli) prokat ishlab chiqarish salmog'i katta bo'lib, u avtomobil sanoati va uy-po'zg'or apparaturalari ishlab chiqarishining (mo'zlatgich, kondisioner va b.) yuqori darajada rivojlanishi bilan bevosta bog'liq. Yaponiyada ko'p miqdorda kemasozlikda ishlatiladigan o'rta va qalin prokat listlari, GFR va Italiyada esa suv quvurlar va quvur tayyorlanmalari va mahsulotlari katta salmoqqa ega.

Rangli metallurgiya sanoati

Rangli metallurgiya. Rangli metallurgiya ham sanoatning eski tarmoqlaridan biri bo'lib, FTI ta'sirida uning strukturasida katta o'zgarishlar va yangilanishlar sodir bo'ldi. Masalan, ikkinchi jahon urushigacha og'ir metallar – mis, qo'rg'oshin, rux, qalay eritish yctun bo'lgan bo'lsa, 60-70-yillarda birinchi o'ringa alyuminiy chiqdi, shuningdek, «XX asr metallari» -

kobalt, titan beriliy va boshqalarni ishlab chiqarish doirasi kengaydi. Hozir rangli metallurgiya taxminan 70ta turli metalga ehtiyojni ta'minlamokda. Lekin ishlab chiqarishning hajmi bo'yicha(40 mln.t.) u qora metallurgiya ishlab chiqarish hajmidan 30 marta kamroqdir.

Rangli metallurgiya texnologik jarayonining bosqichlari buyicha xom ashyoni qazib olish va boyitish, shuningdek, metall va kotishmalarni eritishni birlashtiradi. Rudada metallning juda kam miqdori uni, albatta, boyitishni taqozo etadi. Rangli metall rudalarida turli qimmatli komponentlar ko'p bo'lib, har biri birin-ketin alohida-alohida ajratib olinadi. Boyitilgan ruda maxsus pechlarda eritiladi va to'la tozalanmagan metallga aylantiriladi, o'z navbatida, u zararli aralashmalardan tozalanadi.

Rangli metallurgiya korxonalarini joylashtirishga ko'plab tabiiy va iqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatadi.

Ilgari rangli metallurgiya korxonalari ishlab chiqarishida og'ir metallar ustun turganligi sababli ular xom ashyo qazib olinadigan rayonlar yaqinida joylashtirilgan. Og'ir metall rudalarida sof metall miqdori juda kam (0,5-3,5%) bo'ladi (1t. mis olish uchun 100t. ga yaqin, qalay uchun - 300t. dan ko'proq ruda sarflanadi). Bundan tashqari, qayta ishlashda tobora ko'proq tarkibi kambag'al rudalar ishlatilmoqda.

XX asr o'rtalarida yengil rangli metallar (ayniqsa, alyuminiy) metallurgiyasi tez rivojlandi. U aviasiya, raketa texnikasi, avtomobilsozlik, yengil konstruktiv materiallar ishlab chiqarish va xo'jalikning boshqa tarmoqlarida keng miqyosda qo'llanila boshladi. Yengil rangli metallar (alyuminiy, titan, magniy) ishlab chiqarishi esa ko'p miqdorda elektr energiya talab qiladi. Shu sababdan tarmoqni joylashtirishda energetika manbalariga intilish kuchaydi va ular arzon energiya manbalari

yaqinida joylashtiriladi. Bundan tashqari yengil rangli metall rudalari (ayniqsa, alyuminiy) og'ir metall rudalaridan farq qilib, foydali komponentlari miqdori bo'yicha temir rudasiga o'xshaydi, ularni bemalol uzoqqa tashish mumkin. Masalan, boksitning · qismi ekcnoptga chiqariladi, ularni dengizda tashshining o'rtacha masofasi 7 ming km.dan oshib ketadi. Buning sababi shuki, dunyodagi boksit zahiralarining 85%ga yaqini o'z kelib chiqishi bo'yicha tropik va subtropiklardagi yer po'sti yemirilishi bilan bog'liq. Shuning uchun G'arbiy Yevropa mamlakatlarining ko'pchiligi, Yaponiya, Kanada, AQSHda boksit zahiralari uncha katta emas yoki umuman yo'q. Ularning hammasi eng avvalo, import xom ashyoga tayanadilar. Boksit qazib olishda Avstraliya, Gvineya, Yamayka, Braziliya, Xitoy, Surinam ajralib turadi.

1970 yillardan boshlab ikkilamchi xom ashyoning ahamiyati oshib bordi (qalayning **1/5**, alyuminiy va ruxning **1/4**, misning **2/5,** qo'rg'oshinning **1/2** kismi lomni qayta eritish hisobiga ishlab chiqariladi), shuningdek, iste'molchiga oriyentasiya kuchaymoqda.

XX asr o'rtalaridan boshlab G'arb mamlakatlari ko'proq rivojlanayotgan mamlakatlar xom ashyosiga asoslanishi kopxonalarning dengiz qirg'oqlariga ko'chishiga olib keldi. 70-yillardagi buhrondan keyin G'arb mamlakatlarida rangli metallarni eritish hajmi qisqarib, ikkilamchi xom ashyo katta rol o'ynay boshladi. Tarmoqning iste'molchiga intilishi kuchaydi. Bu ekologik «iflos ishlab chiqarish» ning yangi ishlab chiqarish quvvatlari asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda paydo bo'lmoqda. Tayyor mahsulot ishlab chiqarish va uning iste'moli o'rtasida hududiy uzilish caqlanib qolmoqda. Chunki Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan

og'ir metallarning katta qismi G'arb mamlakatlarida iste'mol qilinadi.

Ham birlamchi, ham ikqilamchi rangli metallurgiya atrof-muhitni kuchli darajada ifloslantiradi, shu sababdan va G'arbning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarida tabiat muhofazasi siyosati kuchayishiga bog'liq holda so'nggi o'n yilliklarda korxonalarni rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirish tepdensiyasi kuchayib bordi.

Rivojlangan mamlakatlar rangli metallurgiyasining quyidagi xarakterli xususiyatlarini ko'rsatish mumkin: xom ashyo bilan taminlash darajasining pastligi; metall ishlab chiqarishda ikqilamchi xom ashyoning katta ahamiyati va uning tez o'sib borishi; tarmoq strukturasining to'laligi (shu jumladan, nodir va srategik muhim metallar ishlab chiqarish - titan, kobalt, tantal, germaniy), ishlab chiqarish sikli strukturasida o'pta va yuqori bosqichning ustunligi (tozalanmagan mis eritishniig kamligi); korxonalarni joylashtirishda xom ashyo omili ahamiyatining kamligi, transport - energetika va iste'mol omilining yuqoriligi. Bu mamlakatlar o'rtasida resurslar va xom ashyo konsentrasiyasi bo'yicha Kanada, Avstraliya, JAR asosiy o'rinni egallaydi. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar rangli metallurgiyasi import xom ashyoga asoslanib rivojlanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa, aksincha, dunyo rangli metall rudalari zahiralarining katga qismi to'plangan. Lekin ularning rangli metall nshlab chiqarish va iste'moldagi salmog'i juda kam. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda kapitalistik dunyo boksid zahiralarining **3/4** qismi joylashgan, lekin ularning qazib olishdagi salmog'i **1/2**, eritishda - **1/5**, iste'molda **1/10** ga teng. Shunga o'xshash holat boshqa metallarga ham xos. Ular faqat qalay ishlab chiqarishda katta

salmoqqa ega (**4/5** dan ko'prog'i). Qalayiing asosiy zahiralari Malayziya, Braziliya, Indoneziya, Tailand, Boliviyada joylashgan.

Misrning katta zahiralari Chili, Zimbabve, Zambiya, Zair, Peruda (rivojlangan mamlakatlardan AQSH, MDH, Kanada) to'plangan. Tozalanmagan mis ishlab chiqarish bo'yicha AQSH, Chili, Yaponiya, Zambiya, Zair, Kanada dunyoda yetakchi o'rin egallaydi.

Boksit qazib olishda dunyoning yechakchi mamlakatlari Avstraliya, Gvineya, Yamayka, Rossiya, Braziliya, glinozem ishlab chpkarishda AQSH, MDH, Yaponiya, Chili, Kanada, Belgiya hisoblanadi.

Alyuminiy ishlab chiqarish xususiyatlariga ko'ra, dunyo mamlakatlarini quyidagi 4 guruhga ajratish mumkin: 1)alyuminiy ishlab chiqarish to'la o'z xom ashyosiga asoslangan mamlakatlar (Braziliya, Gana, Avstraliya); 2) alyuminiy ishlab chiqarish asosan o'z xom ashyosi, qisman, importga asoslangan mamlakatlar (Rossiya, Fransiya, Italiya, Gresiya, Vengriya, Ruminiya, sobiq Yugoslaviya, Xitoy, Hindiston); 3) alyuminiyni ko'p ishlab chiqaradigan va ko'p iste'mol qiladigan, xom ashyoni to'liq yoki deyarli to'liq import qiladigan mamlakatlar (AQSH, Kanada, Yaponiya, Buyuk Brptaniya, GFR, Ispaniya, Niderlandiya, Norvegiya, Shvesiya, Islandiya, Shvesariya, Avstriya, JAR, Yangi Zellandiya, Turkiya, Misr, Baxrayn, BAA); 4) boksit qazib oladigan, uni eksiort qiladigan, lekin alyuminiy ishlab chiqarmaydigan qoloq mamlakatlar (Gvineya. Syerra - Leone, Yamayka, Gaiti, Dominika Resgublikasi, Gayana, Surinam).

Alyuminiy ishlab chiqarishdagi mavjud hududiy tavofutlarni to'g'ri tushunish uchun uning quyidagi xususiyatlarini ham hisobga olish kerak: Ma'lumki, alyuminiy metallini elektroliz jarayoni yordamida eritish energiyani eng

ko'p talab qiladigai ishlab chiqarish qatoriga kiradi. 1t alyuminiy ishlab chiqarish uchun 17 ming **kvt/soat** elektr energiya sarflanadi. Bu ko'rsatkich hatto eng zamoiaviy mukammal zavodlarda ham 14-15 ming kVt ga teng. Shuning uchun ayrim mamlakatlar miqyosida alyuminiy zavodlari, odatda, eng yirik elektr energiya manbalariga yaqin joylashtiriladi. Lekin bunday intilish turi ayrim korxonalargagina emas, balki ko'plab mamlakatlarga ham xos. Bunga mutlaqo o'z boksitiga ega bo'lmagan, alyuminiyni esa faqat import xom ashyosi asosida ishlab chiqaradigan, so'ngra uni deyarli to'liq eksport qiladigan Kanada, Norvegiya, Islandiya, Avstriya, Shveysariya, Baxreyn, BAA misol bo'ladi. Birlamchi alyuminiy eksport qiluvchi mamlakatlar orasida Kanada birinchi, Norvegiya uchinchi o'rinni egalllaydi. Kanada alyuminiysi dunyoda eng qimmat turadi (1 tonnasi 750 dollar).

O'tgan asrning 70-yillari o'rtalaridagi energetika va xom ashyo buhroni alyuminiy canotiga ham ta'sir ko'rsatdi. Ko'pchilik iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda uning rivojlanish sur'atlari pasaydi. Masalan, Yaponiya alyuminiyni Avstraliya, Braziliya, Baxrayndan olib kelishni afzal ko'rib, so'nggi yillarda uni o'zida ishlab chiqarishni to'xtatdi. Vengriya elektr energiya ishlab chiqarishning keskin tanqisligi sababli alyuminiy eritishni tubdan kamaytirdi. Shu bilan bir qatorda rivojlangan mamlakatlarda bu tarmoq rivojlanishi sekinlashuvi uning rivojlangan mamlakatlarda tez rivojlanishi bilan «qoplanmoqda». Rivojlanayotgan mamlakatlar 1950 yilda jahon alyuminiy ishlab chiqarishida faqat 0.5% salmoqqa ega bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 1970 yilda 7%, 1980 yilda 14% 1990 yilda 30%ga ko'tarildi. Hozirgi paytda ular o'z ehtiyojlarini ta'minlabgina qolmay, balki ko'p miqdorda alyuminiy metalini eksport qilmoqdalar. Bu, birinchi navbatda, Braziliya,

Venessuelaga, ma'lum darajada Hindiston va Xitoyga taalluqlidir. Janubi - G'arbiy Osiyo esa eng yirik alyuminiy eritadigan rayonga aylaimoqda. Bu yerda Turkiya, BAA, Baxreyn, Saudiya Arabistoni, Katarda alyuminiy zavodlari ishlab turibdi. Ular 2 mln. t. ga yaqin birlamchi alyuminiy ishlab chiqarmoqdalar.

6.5. Dunyo mashinasozlik sanoati

Mashinasozlik dunyo ishlab beruvchi sanoatining asosiy tarmog'i bo'lib, ko'p jihatdan uning tarmoq strukturasi va joylashishi xususiyatlarini belgilab boradi. Mashinasozlik kompleksi xo'jalikning barcha tarmoqlar uchun jihozlar, shuningdek, ko'plab iste'mol buyumlari ishlab chiqaradigan canoat tarmoqlari majmuasidnr.U dastlab tarmoq sifatida bundan 200 yil avval Angliyada paydo bo'lgan. Hozir u ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning qiymati (**1/3**) va unda ishlayotganlar soni (80 mln. kishidan ko'proq) bo'yicha dunyo sanoatida birinchi o'rinni egallaydi. Xo'jalikning barcha tarmoqlarida mehnat unumdorligi va ilmiy texnika taraqqiyotini mashinasozlikning rivojlanish darajasi ko'p darajada belgilab beradi. Mashinasozlik sanoat tarmoqlari strukturasinigina emas, balki uning joylashish xususiyatlarini ham belgilaydi.

U mamlakatlarniig ilmiy texnika taraqqiyoti va mudofaa qobnliyati darajasini ifodalaydi hamda xo'jalikning boshqa tarmoqlari rivojlanishini belgilaydi. Zamonaviy mashinasozlik ko'p tarmoq va ishlab chiqarishdan tashkil topgan. Uning korxonalari o'zaro va xo'jalikning boshqa tarmoqlari korxonalari bilan o'zviy bog'langan, mashinasozlik uchun ixtisoslashuvning chuqurlashuvi va uning miqyoslari kengayib

borishi xarakterlidir. FTI davrida dunyo xo'jaligining birorta tarmog'i keng tarqalish jihatdan mashinasozlikka tenglasha olmaydi.

Mashinasozlik sanoatning boshqa tarmoqdaridan o'zining kator xususiyatlari bilan farq qilib, ular o'z navbatida, uning joylashishiga ta'sir ko'rsatadi. Biriichidan, FTI davrida mashinasozlik ilmiy ishlanmalari keng joriy etilmasdan rivojlantirilishini tasavvur etish mumkin emas. Shu sababdan mashinasozlikni fantalab tarmoqlarining mahsulotlarini ishlab chiqarish yuqori darajada rivojlangan ilmiy bazalarga tobora ko'proq yaqinlashtirilmoqda. Ikkinchidan, mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarish boshqa tarmoqlarga nisbatan g'oyat ko'p ish vaqti sarfini taqozo etadi va u mehnatni ko'p sarflaydigan tarmoq hisoblanadi (uskunasozlik, radioelektronika, aniq mashinalar ishlab chiqarish). Uchinchidan, tarmoq yetarli darajada ko'p metall sarflaydi. Shuning uchun mashinasozlik korxonalari qora va rangli metallurgiya markazlariga yaqinroq joylashadi (og'ir mashinasozlik). Lekin FTI davrida mashinasozlikning mehnat va fantalabligi darajasi oshishi hisobiga uning metallga intilishi ancha pasaydi. Mashinasozlik nisbatan erkin va hamma joyda joylashadigan tarmoqqa aylanmoqda. To'rtinchidan, mashinasozlikda ixtisoslashish va kooperasiyaning roli g'oyat katta bo'lib, mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarish ayrim ixtisoslashgan korxonalarda amalga oshiriladi. Shuning uchun transport omili alohida ahamiyatga ega. Beshinchidan, mashinasozlikning ko'pchilik korxonalari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, istemolchilarga yaqin joylashtirishni talab qiladi (masalan, qishloq xo'jalik mashinalari, tog'-kon sanoati uchun jihozlarni tashish qiyin). Uy-ro'zg'or buyumlarini

ishlab chiqarish bunday buyumlar iste'moli va xarid quvvati mavjud joylarda joylashtiriladi.

Mashinasozlikning rivojlanish darajasi bo'yicha davlatlar bir-birlaridan tubdan farq qiladi. Buni quyidagi 7-jadval malumotlari yaqqol ko'rsatadi.

Muvaffaqiyatlarga erishayotgan rivojlanayotgan mamlakatlardan Hindiston, Meksika, Koreya Respublikasi, Sharqiy Yevropa Mamlakatlaridan Polsha, Chexiya kiradi.

Rivojlangan mamlakatlarda mashinasozlikning ishlab boruvchi salmog'i 30-35%, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ko'pincha 20% dan kamroqni tashkil etadi.

7-jadval

Xorijiy mamlakatlarda o'tgan asrning 80-yillarining oxirida mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarish (MDH va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan boshqalari)

Mamlakatlar	Mahsulot qiymati, mlrd.. dollar	Mashinasozlikning ishlab beruvchi sanoat mahsulotari qiymatidagi salmog'i, %	Mashinasozlikning mamlakat eksportidagi salmog'i, %
AQSH	289,1	36	48
Yaponiya	146,2	37	64
GFR	76,6	38	48
Frantsiya	40,9	33	35
Buyuk Britaniya	32,5	32	36
Italiya	30,1	32	34
Xitoy	24,7	26	16
Kanada	14,7	25	42
Braziliya	13,9	24	15
Ispaniya	9,9	22	31
Hindiston	9,3	26	10
Shvetsariya	8,7	38	38
Shvetsiya	7,3	35	44
Avstraliya	7,1	23	6
Niderlandiya	6,5	28	19

Mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha dunyo regionlari orasida Shimoliy Amerika (AQSH, Kanada, Meksika) dunyoda birinchi o'rinda turadi. Uning hissacisiga, dunyo mashinasozlik mahsulotining 30%i to'g'ri keladi. U asosan EHM, samolyotlar, raketa-kosmik texnikasi ishlab chiqarish bilan alohida ajralib turadi. AQSH mashinasozlik mahsulotining yarmiga yaqinini eksport qiladi. Dunyo mashinasozligining ikkinchi markazi G'arbiy Yevropa bo'lib, ishlab chiqarish hajmi bo'yicha u deyarli Shiymoliy Amerikaga tenglashadi. Bu regionning yetakchi mamlakatlari - GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya bo'lib, ular asosan mashinasozlikka ixtisoslashgan (stanoksozlik, avtomobilsozlik va b.). Uchinchi mashinasozlik regioni – Sharqiy va Janubiy Osiyo mamlakatlari bo'lib, uning dunyodagi hissasiga $\frac{1}{5}$ ra teng. Regionning asosiy mamlakati Yaponiya mashinasozlikning rivojlanish sur'atlari bo'yicha AQSH va G'arbiy Yevropadan o'zib ketdi. Yaponiya eksportida mashinasozlikning salmog'i dunyo mamlakatlari o'rtasida eng yuqoridir. Shuningdek, region tarkibiga Koreya Respublikasi, Singapur, Xitoy kiradi. Region asosan eng yuqori texnologiyaga asoslagan ommaviy mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqaradi. To'rtinchi pegion - MDH mamlakatlari mashinasozlik mahsulotining katta hajmi bilan ajralib tursada, lekin ularda fantalab tarmoqlarning rivojlanishi orqada qolgan.

Rivojlangan mamlakatlar mashinasozligi rivojlanayotgan mamlakatlardan ishlab chiqarish strukturasining to'liqligi, elektrotexnika salmog'i va mahsulot sifatining yuqoriligi hamda raqobatbardoshligi, yuqori eksportlik darajasi bilan ajralib turadi.

Mashinasozlik strukturasiga ko'ra, dunyo sanoatining eng murakkab va tarmoqlari ko'p sohasidir. U mashinalar va jihozlar

ishlab chiqarishga mo'ljallangan asboblar va instrumentlardan tashqari turli-tuman uy-ro'zgor va madaniy buyumlarni ham ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga ko'ra, u energetika, transport, qishloq xo'jaligi, stanoksozlik sanoatining ko'p tarmoqlari uchun texnologik jihozlar ishlab chiqarish mashinasozligi va boshqalarga bo'linadi.

«Katta yettilik» mamlakatlari, Rossiya, Xitoy «ignadan samolyotgacha» - amaliy jihatdan barcha turdagi metall buyumlar, mashina va jihozlar ishlab chiqaradi. G'arbiy Yevropa va Sharqiy Yevropa mamlakatlari, ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlar (Braziliya, Hindiston, Singapur va b.) odatda, malum mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda mashinasozlik emas, to'g'rirog'i, transport, tog'-kon sanoati, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatadigan ta'mirlash ustaxonalari va oddiy inventarlarni tayyorlaydigan metallni kayta ishlash korxonalari mavjud.

Transport mashinosozligi dunyo mashinosozligi va sanoatining yetakchi tarmog'idir. Uning strukturasida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Kemasozlik va avtomobilsozlik tez rivojlandi. Bunda kemasozlik va temir yo'l harakat vositalarini ishlab chiqarish sezilarli darajada rivojlanayotgan mamlakatlarga «ko'chdi». Hindiston, Braziliya, Argentina, Turkiya lokomotivlar ishlab chiqariyotir. Vagon ishlab chiqaruvchi mamlakatlar orasida Meksika, Misr, Eron, Tailand, Chili, Kolumbiya ajralib turadi. Dunyo kemasozligining 20 yetakchi mamlakatlaridan deyarli $\frac{1}{3}$ qismi rivojlanyotgan mamlakatlardir. Janubiy Koreya o'tgan asrning 60-yillari oxirigacha dengiz kemalari ishlab chiqarmagan va 80-yillar oxiriga kelib Germaniyadan o'zib ketib, dunyoda ikkinchi o'ringa chiqdi (Yaponiyadan keyin). Undan keyingi o'rinlarni

Braziliya, Tayvan. Hindiston, Argentina, Meksika egallaydi. Mehnatning arzonligi hozirgi paytda kemasozlikning joylashishini belgilamoqda. Ayni paytda «kechagi» yetakchilar (AQSH, Buyuk Britaniya, GFR va b.), mohiyatiga ko'ra, o'z kemasozligini deyarli yopib qo'yib, asosan kema ta'mirlashga o'tdilar. Yaponiya va Koreya dengiz kemalari ishlab chiqaruvchi eng yirik mamlakatlar bo'libgina qolmay, uning yirik eksportyori hamdir: Yaponiya hissasiga dunyo dengiz kemalari eksportining 40% i, Koreyaga esa ZZ%i to'g'ri keladi.

Avtomobilsozlik mashinasozlik kompleksining eng yirik tarmoqlaridan biri. U eng yirik mamlakatlar iqtisodiyotining ahvolini belgilab beradi. Chunki avtomobilsozlik, birinchidan, eng muhim eksport tarmog'i xisoblanadi, ikkinchidan, unga plastmassa, oyna, rezina va boshqa ko'p mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar «bog'langandir». Avtomobillar ishlab chiqarish tez sur'atda ko'paymoqda. Ikkinchi jahon urushidan oldin dunyoning barcha mamlakatlari taxminan 4 mln. avtomobil ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1950 yilda - 10 mln., 70-yillarda - 30 mln., 80-yillarda – 40 mln., 90-yillar boshida 50 mln. avtomobil ishlab chiqarildi (AQSH va Yaponiya har yili 10 mln.dan ko'proq avtomobil ishlab chiqaradi). Bu miqdorning 70%dan ko'prog'i yengil avtomobillar, qolgan qismi - yuk avtomobili va avtobuslardir. Yengil avtomobillar ishlab chiqarishda «birinchi» o'nlik mamlakatlari qatoriga quyidagilar kiradi (1998y.): Yaponiya (90,7 mln.), AQSH (5,7), GFR (4,4), Fransiya (2,6), Ispaniya (1,8), Italiya (1,5), Buyuk Britaniya (1,2), Koreya Respublikasi (1,2), Rossiya (0,9), Kanada (0,9).

Ikkinchi «o'nlik mamlakatlar» quyidagilardir:

Braziliya. Meksika, Belgiya, Avstraliya, Turkiya, Argentina, Polsha, Chexiya, JAR, Ukraina. Hisoblarga ko'ra, 2000 yilda dunyoda yengil avtomobillar ishlab chiqarish 40 mln.taga yetdi.

Xitoyda avtomobil canoati «erkin iqtisodiy zona» siyosati acosida rag'batlantirilib, tez rivojlanmoqda.

Dunyoning eng yirik avtomobil firmalari qatoriga «Ford», «Djeneral Motor », «Kreysler» (AQSH), «Nissan», «Xonda», «Toyota» (Yaponiya), «Folksvagen», «Daytler-Bens» (GFR), «Fiat» (Italiya), «Reno», «Pijo-Setroyon» (Fransiya) kiradn.

Yirik avtomobil zavodlari joylashishi, odatda, «shaxobchali bo'lib, uning markazida bosh zavod, atrofida esa ixtisoslashgan, shu jumladan, rezina, oyna, plastmassa, buyoqlar yetkazib beradigan korxonalar bo'ladi. Shunday «shaxobchali» korxonalar Detroyt (AQSH), Volfsburg (GFR), Nijniy Novgorod (Rossiya) va boshqa shaharlarda bor.

Avtomobil eksportidagi yetakchi mamlakatlar asosan quyidagilar) (mln. dona): Yaponiya (6,3), GFR (2,6), Fransiya (1,9), Kanada (1,3). AQSH (0,9), Ispaniya (0,3), Buyuk Britaniya (0,3), Rossiya (0,3).

Umumiy mashinasozlik rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda har xil xarakterga ega. Birinchi guruh mamlakatlarda stanoksozlik, og'ir mashinasozlik, jihozlar ishlab chiqarish, ikkinchi guruhda esa, qishloq xo'jalik mashinasozligi ustun turadi. Ctanoksozlikning yetakchi mamlakatlari GFR, Yaponiya, AQSH, Italiya, Shveysariya hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning barchasi hnssasiga Janubiy Koreya, Hindiston, Braziliyani qo'shganda ham stanoksozlik mahsulotining atiga 6%i to'g'ri keladi (qiymati bo'yicha). Og'ir mashinasozlik mahsulotlari asosan AQSH, MDH, Yaponiya, Buyuk Britaniyada ishlab chiqariladi.

Elektrotexnika sanoatida elektron industriya yetakchi o'ringa ko'tarildi. Uning tarkibida harbiy sanoat va uy-ro'zg'or elektronikasi ajralib turadi. Birinchisi asosan rivojlangan mamlakatlar, ikkinchisi esa (ko'p, arzon mehnat kuchlarini talab

qiladigan) rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Gonkong, Janubiy Koreya, Tayvan, Mavrikiy uy-ro'zg'or texnikasini hatto rivojlangan mamlakatlarga ham eksport qiladi.

Shunga o'xshash vaziyat dunyo soat ishlab chiqarishida ham sodir bo'ldi. Bu sohada 70-yillariing boshigacha Shvesariya hamma tan olgan lider mamlakat edi. Kvars soatlari ixtiro qilingach, bu mamlakaning soat sanoati inqirozga yuz tutdi, birinchi o'rinni Yaponiya egalladi. So'ngra Gonkong eng sodda va arzon elektron soatlarni ishlab chiqarib, Yaponiyadan o'tib ketdi va hozir «birinchi o'nlikning» beshtasi Osiyo mamlakatlaridir.

Lekii bunda shuni hisobga olish kerakki, bu mamlakatlardagi korxonalarning ko'pchiligi yapon va shveysar firmalari filiali bo'lib, ularning o'zlari esa murakkab va qimmatbaho soatlarni ishlab chiqarishni o'z qo'llarida saqlab qolganlar. Shuningdek, fotoapparat ishlab chiqaruvchi «birinchi o'nlik» mamlakatlarining beshtasi ham Osiyo mamlakatlari.

So'nggi yillarda mashinasozlikning o'zida ishlab chiqarishni baynalminallashtirish jarayoni rivojlanmoqda (transmilliy korporasiyalar doirasida, davlatlararo va firmalar o'rtasidagi shartnomalar asosida). Bu jarayon asosan mashinasozlik quvvatlari va ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarining 90%i ga ega bo'lgan rivojlangan mamlakatlar o'rtasida amalga oshirilayotir. Mashinacozlikka raqamli dastur boshqaruvchi, EHM va maxsus tizimi komponentlariga asoslangan o'zgaruvchan avtomatlashgan ishlab chiqarish va avtomatlashgan loyihalash tizimlari joriy qilinayotir. Bu tizimlarga jihozlar ishlab chiqarishda Yaponiya va AQSH asosiy rol o'ynaydi, yaqin o'tmishda mashinasozlik zavodlari uchun ishlab chiqarish

jihozlari bo'yicha asosiy o'rinni egallab kelgan G'arbiy Yevropa mamlakatlari pozisiyasi ancha pastroqdir. O'tgan asrning 90-yillarning boshida sanoat robotlarining 50-60%i Yaponiyada ishlab chiqarildi. Ayni paytda AQSH avtomatlashtirilgan loyiha va ishlab chiqarishni boshqarish tizimlarining dunyodagi eng yirik ishlab chiqaruvchisi va ta'minotchisiga aylandi. Uning hissasiga bunday tizimlarning 80% to'g'ri keladi. G'arbiy Yevropada mikroelektronika bozori uchun kurashda mashhup «Filips» (Gollandiya) va «Simins» (GFR) firmalari birgalikda harakat qilmoqdalar.

Umuman, dunyo mashinasozligida mahsulotning asosiy qismini ilgarigidek rivojlagan mamlakatlar ishlab chiqarmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning salmog'i esa pastligicha qolayotir va bu sohada dunyo mashinasozligida tub o'zgarishlar yuz berayotir, deb bo'lmaydi. Mashinasozlikning murakkablashish darajasi tobora tez oshib borayotir, va bu mamlakatlar yangi ishlab chiqarishning rivojlanishi orqasidan yetib olishga ulgurmayotirlar. Dunyodagi ikki yetakchi region – Shimoliy Amerika vya G'arbiy Yevropaning jahon mashinasozligidagi roli pasayishi davom etmoqda, Yaponiya va «yangi industrial» mamlakatlarning ahamiyati oshadi. Lekin so'nggi guruh mamlakatlari «o'zlarining bozoriga ega bo'lmagan ishlab chiqaruvchilar bo'lib, ular eksportsiz yashay olmaydilar. Shuning uchun Yaponiya va Janubiy Sharqiy Osiyoda ma'lum siljish bo'lishini, lekin Yaponiyaning dunyodagi birinchi mashinasozlik mamlakatiga aylanish ehtimoli kamligini bashorat qilish mumkii.

6.6. Dunyo kimyo sanoati

Kimyo sanoati mashinasozlik bilan bir qatorda zamonaviy industriyaning yetakchi va eng tez o'zgaruvchan tarmog'idir.

Kimyo sanotiining tarkibida quyidagi tarmoqlar alohida ajralib turadi: 1) tog'-kimyo (mineral xom ashyo qazib olish); 2) asosiy kimyo (tuz, kislota, mineral o'g'itlar tayyorlash); 3) organik sintez kimyosi (uglevodorod xom ashyosi, yarimfabrikatlar ishlab chiqarish); 4) polimerlar ashyosi (plastmassa, kauchuk, turli tolalar olish); 5) polimer materiallarni qayta ishlash.

Bu tarmoq g'oyat katta va xilma-xil xom ashyo bazalariga - tog'-kimyo xom ashyosi, neft va tabiiy gaz, metallurgiya ishlab chiqarishi chiqitlari, yog'och, qishloq xo'jalik xom ashyolari va boshqalarga ega. Kimyo sanoati ishlab chiqaradigan mahsulotlar (kislota, o'g'it, lak, bo'yovchi moddalar, zaharli ximikatlar, tola, kauchuk, plastmassa v.b.) xo'jalikning ko'p tarmoqlari texnologik jarayonlarida ishlatiladi. Macalan, mashinasozlikka plastmassa, rezina, kislota (detallar ishlash uchun), tog'-kon sanoatiga - portlatuvchi moddalar, to'qimachilikka - tola va bo'yoqlar, qishloq xo'jaligiga - o'g'itlar, zaharli ximikatlar yetkazib beradi.

Kimyo sanoatining joylashishi murakkab jarayon bo'lib, u tabiiy, iqtisodiy, tarixiy va boshqa ko'p omillarga bog'liqdir. Uning ayrim tarmoqlari u yoki bu darajada erkin joylashadi (lak, bo'yoq, ximikatlar, dori-darmonlar, o'g'itlarning ayrim turlarini ishlab chiqaradigai kichik korxonalar). Bunday korxonalar qo'shimcha texnologik mustaqil "nuqtalar" bo'lib, rivojlangan mamlakatlarda ularni amaliyotda hamma joyda tashkil etish mumkin. Shu bilan bir qatorda kimyo sanoati tarkibida korxonalarning o'zaro uzviy bog'liqligi orqali birlashgan ishlab chiqarish tarmoqlari keng ichki va tarmoqlararo aloqalarga asoslanadi (masalan, yirik neft-kimyo komplekslari). Ular

asosan xom ashyo va energetika bazalariga yaqin joylashtiriladi. Ishlab chiqarishni joylashtirishning bunday shakllari dunyoning ko'pchilik kimyo rayonlari va markazlariga xosdir. Bunga AQSHda Texas, Pittsrburg, Rossiyada Volgabo'yi, Ukrainada Donbass, Germaniyada Rur va Leypsig-Galle, Ruminiyada Karpat oldi va boshqalar misol bo'ladi.

Kimyo sanoati geografiyasi umumiy xususiyatlari mashinasozlikka geografiyasi umumiy xususiyatlariga o'xshab ketadi: dunyo kimyo sanoatining 4 asosiy regioni shakllangan. Ulardan eng yirigi - G'arbiy Yevropa dunyo kimyo sanoati umumiy mahsulotining - qismini ishlab chiqaradi. Birinchi jahon urushigacha dunyoning asosiy kimyo davlati Germaniya edi. Ikkinchi jahon urushigacha regionning boshqa mamlakatlarida ham kimyo sanoati tez rivojlandi. Ayniqsa, urushdan keyingi davrda chetdan keltiriladigan xom ashyoga asoslanib, neft-kimyo sanoati tez rivojlandi va birinchi o'ringa chiqdi. Oqibatda neft-kimyo va neftni qayta ishlash sanoatlari dengiz portlariga (Rotterdam, Marsel v.b) yoki magistral neft quvurlari trassasi yaqiniga ko'chdi.

Ikkinchi region - AQSH, uning kimyo sanoati hajmi bo'yicha xorijiy Yevropadan kam farq qilib, xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Aynan shu yerda o'tgan asrning 40-yillarida birinchi neft-kimyo korxonalari vujudga keldi va ular dunyo neft-kimyo sanoati rivojlanishining yangi bosqichiga asos bo'ldi. Urushdan keyingi dastlabki yillarda AQSH ushbu sanoat mahsulotining yarmiga yaqinini ishlab chiqarar edi. Korxonalar joylashishining asosiy omili xom ashyo bo'lib, u kimyo sanoatining hududiy to'planishiga olib keldi. Masalan, Meksika qo'ltig'i qirg'oqlaridagi neft-gaz havzasi bazasida dunyoning eng yirik neft-kimyo kompleksi shakllandi.

Uchinchi region - Sharqiy va Jamubi-Sharqiy Osiyo bo'lib, uning asosini Yaponiya tashkil etadi. Yaponiyada chetdan tashib kelinadigan neft asosida dengiz portlarida qudratli iyeft-kimyo sanoati vujudga kelgan. Region tarkibiga asosiy kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish ustun bo'lgan Xitoy hamda sintetik mahsulot va yarimfabrikatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi industrial mamlakatlar ham kiradi. So'nggi mamlakatlarda ushbu tarmoqlar taraqqiyotiga ularning eng muhim okean yo'llaridagi qulay iqtisodiy-geografik o'rni imkoniyat tug'dirgan.

To'rtinchi region - MDH xilma-xil kimyo sanoatiga ega. Bu yerda tarmoqning joylashishiga ham xom ashyo, ham energetika va iste'mol omillari ta'sir ko'rsatgan.

O'tgan asrning 70-yillari o'rtalaridagi xom ashyo va energetika buxroni kimyo sanoatiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. U ishlab chiqarishning to'planish jarayoni yanada kuchayishiga, ko'plab kichik korxonalarning yopilishi va yirik korxonalar quvvatining oshishiga olib keldi. Yangi kimyo komplekslari, eng avvalo, neft va gazga boy bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda shakllandi. Bu, birinchi navbatda, Fors qo'ltig'i mamlakatlariga taalluqli bo'lib, bu yerda so'nggi o'n yillikda dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan yangi neft kimyo rayoni paydo bo'ldi. Saudiya Arabistoni, Katar, Quvaytda organik sintez va azot o'g'itlari, Iroq va Eronda plastmassa ishlab chiqaradigan kombinatlar qurildi. Shu tipdagi komplekslar Liviya, Jazoir, Braziliya, Venesuela, Meksikada ham paydo bo'ldi.

Bu o'zgarishlar 80-yillarda AQSH, xorijiy Yevropa, Yaponiyaning dunyo kimyo sanoatidagi salmog'i asta-sekin pasayishiga, rivojlanayotgan mamlakatlar hissasining oshiishga sabab bo'ldi. Lekin yuksak fantalab kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish (eng yangi farmasevtika preparatlari, elektron va

boshqa eng yangi sanoat tarmoqlari uchun maxsus ximikatlar, yuqori sifatli konstruksion plastmassalar) rivojlangan mamlakatlar ixtiyoridagi imtiyozli soha bo'lib qolmoqda. Shuni ham hisobga olish kerakki, rivojlanayotgan neft qazib oluvchi mamlakaglarda paydo bo'lgan «iflos» neft-kimyo ishlab chiqarishi mahsulotlari (organik sintez, polimer materiallari) asosan G'arb mamlakatlariga eksport qilishga mo'ljallangan.

Ushbu tendensiyalar ayrim kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarishda ham o'z aksini topgan. Buni sulfat kislota va mineral o'g'it ishlab chiqarishda yaqqol kurish mumkin. (8-jadval).

8-jadval

Dunyoda oltingugurt kislotasi va mineral o'g'itlar ishlab chiqarish (2000-yil boshida)

Dunyo va «birinchi o'nlik»mamlakatlari	Sulfat kislotasi, mln.,t	Dunyo va «birinchi o'nlik»mamlakatlari	Mineral o'g'itlar, mln. t (100% oziq modda hisobida)
Dunyo bo`yicha	150	Dunyo bo`yicha	160
AQSH	40	AQSH	23
Xitoy	12	Xitoy	20
Rossiya	8,5	Kanada	11
Yaponiya	7	Rossiya	8,5
Ukraina	5	Hindiston	8,5
Frantsiya	4	Belarus	5
GFR	4	Ukraina	4,3
Kanada	3,5	Frantsiya	3,5
Ispaniya	3,5	GFR	3,2
Braziliya	3	Indoneziya	3,1

Sulfat kislota ishlab chiqaruvchi «birinchi o'nlik» mamlakatlarga 8 rivojlangan mamlakat va Xitoy, Braziliya kiradi. Uni ishlab chiqarishda ishlatiladigan oltingugurt ikki xil yo'l bilan olinadi. Taxminan uning yarmisi tabiiy oltingugurtdan olinadi va bunda ayniqsa, AQSH, Meksika, Polsha, Iroq,

Turkmaniston ajralib turadi. Lekin tabiiy oltingugurtning salmog'i pasayib, neftdan (AQSH, Yaponiya), ayniqsa, tabiiy gazdan (Kanada, Fransiya) olinadigan oltingugurtning ahamiyati oshib bormoqda. Neft va tabiiy gazni qayta ishlash jarayonida oltingugurtni utilizasiya qilish iqtisodiy samarali, texnologik jihtdan oddiy bo'libgina qolmay, u tabiat muhofazasida ham katta ahamiyatga ega.

Mineral o'g'itlar ishlab chiqaruvchi «birinchi o'nlik» mamlakatlar tarkibiga ham asosan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar kiradi, lekin u Xitoy va Hindistonda ham katta miqyoslarga ko'tarilgan. Dunyoda ishlab chiqarilayotgan o'g'itning $\frac{1}{2}$ qismidan ko'prog'ini azot, $\frac{1}{4}$ qismini fosforli, $\frac{1}{5}$ qismini kaliy o'g'itlari tashkil etadi. Azot o'g'iti ishlab chiqarishda dunyoda Xitoy, AQSH, MDH mamlakatlari yetakchi o'rinni egallaydi, lekin keyinchalik, ular qatoriga shuningdek, Hindiston, Meksika, Fors qo'ltig'i mamlakatlari ham qo'shildi. Fosfat xom ashyosi zahiralari va ularni qazib olish 30 dan ko'proq mamlakatda mavjud. Ular o'rtasida Rossiya, AQSH, Marokash, Iordaniya, Isroil, Tunis, Qozog'iston alohida ajralib turadi. Fosfor o'g'itlarini ishlab chiqaruvchi dunyoning asosiy mamlakatlari Rossiya, AQSH, Xitoy hisoblanadi. Kaliy tuzlari dunyoning 14 mamlakatida qazib olinadi. So'nggi yillargacha asosiy kaliy tuzi qazib oluvchilar Rossiya, GFR, Fransiya, AQSH, Belarus bo'lgan. So'ngra ularga Kanada qo'shildi, bu mamlakatda dunyodagi eng yirik Saskechevan kaliy havzasi ochildi. Shuningdek, Kanada kaliy xom ashyosining eng yirik eksportyoriga ham aylandi. O'zbekistonning janubida ham dunyoning eng yirik konlari qatoriga kiradigan kaliy xom ashyosi zahiralarini o'zlashtirish boshlandi.

Dunyoda plastmassa, kimyoviy tola, sintetik kauchuk ishlab chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlar 9-jadvalda berilgan.

9-jadval

Dunyoda platsmassa, kimyoviy tola, sintetik kauchuk ishlab chiqarish (2000-yilning boshida)

Dunyo va «birinchi o'nlik» mamlakatlar	Plastmassa, mln.t.	Dunyo va «birinchi o'nlik» mamlakatlar	Kimyoviy tola, mln.. t	Dunyo va «birinchi o'nlik» mamlakatlar	Sintetik kauchuk, mln..t
Dunyo bo`yicha	100	Dunyo bo`yicha	20	Dunyo bo`yicha	10
AQSH	30	AQSH	3,8	AQSH	2,3
Yaponiya	13	Yaponiya	1,9	Yaponiya	1,3
GFR	9	Tayvan	1,8	Frantsiya	0,6
Frantsiya	4,4	Xitoy	1,8	GFR	0,5
Niderlandiya	3,8	Koreya Resp.	1,4	Buyuk Britaniya	0,3
Italiya	3,4	GFR	1	Braziliya	0,3
Rossiya	3	Italiya	0,7	Italiya	0,3
Belgiya	3	Hindiston	0,6	Xitoy	0,3
Kanada	2,6	Rossiya	0,5	Niderlandiya	0,2
Xitoy	2,6	Buyuk Britaniya	0,4	Kanada	0,2

Dunyoda plastmassa ishlab chiqarish 1950 yildagi 1,5 mln. tonnadan 90-yillar boshida 100 mln. tonnagacha ko'paydi. U regionlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi: Xorijiy Yevropa - 40 mln. t., Shimoliy Amerika - 30, Xorijiy Osiyo -18, MDH - 4,5, Lotin Amerikasi - 4, Afrika va Yaqin Sharq - 2, Avstraliya – 1mln. t. «birinchi o'nlik» mamlakatlar asosan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, Xitoy va Koreya Respublikasi hisoblanadi. Dunyo bo'yicha aholi jon boshiga o'rtacha 19-20kg. plastmassa ishlab chiqariladi. Uning eng yuqori darajasiga Belgiya (300 kg.), Niderlandiya (255 kg.), GFR (135 kg.), AQSH (120 kg.) erishgan. MDH mamlakatlarida u dunyoning o'rtacha ko'rsatkichidan past (16 kg), rivojlaiayotgai mamlakatlarda esa yana ham kamroqdir (2,5 kg).

Dunyoda kimyoviy tola ishlab chiqarish 1950 yildagi 2 mln. tonnadan 90-yillar boshida 20 mln. tonnaga ko'paydi.

«birinchi o'nlik»ka ham iqtisodiy rivojlangan, ham rivojlanayotgan mamlakatlar, birinchi navbatda Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakat kiradi. So'nggi mamlakatlarda kimyoviy tola ishlab chiqarish eng muhim xalqaro ixtisoslashgan tarmoq bo'lib qoldi. Dunyo bo'yicha aholi jon boshiga 4 kg., G'arb mamlakatlarida 10-15 kg, MDH da 4 kg Xitoyda 1,6 kg kimyoviy tola ishlab chiqariladi.

Kimyoviy tola tabiiy polimerlardan olinadigan suniy (sellyulozali) va uglevodorod xom ashyosi asosida ishlab chiqariladigan sintetik tolaga bo'linadi. O'tgan asrning 60-yillargacha tola ishlab chiqarish sintetik toladan ko'p bo'lgan, hozir esa ular o'rtasidagi nisbat 18:82 ga teng. Barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, Xitoy, Xorijiy Osiyoning YAIM da sintetik tolaga barcha ishlab chiqarishning $\frac{4}{5}$ qismi to'g'ri keladi. Lekin MDH mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan sun'iy tolaning salmog'i juda kam.

Sintetik kauchuk ishlab chiqarish dunyoda birinchi marta o'tgan asrning 30-yillarida sobiq SSSR da o'simliklardan olingan spirtni qayta ishlashga asoslanib amalga oshirilgan edi. Hozir u uglevodorod xom ashyosiga asoslanadi. Sintetik kauchuk ishlab chiqarish tabiiy kauchukka nisbatan ikki marta ko'proqdir. «Birinchi o'nlikka» iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, Braziliya, Xitoy kiradi.

6.7. Dunyoning o'rmon va yog'ochni qayta ishlash sanoati

O'rmon sanoati konstruksion materiallar ishlab chiqaradigan tarmoqlar orasida eng eski tarmoqdir. U yog'och tayyorlovchi, yog'ochni qayta ishlaydigan, sellyuloza-qog'oz va o'rmon-kimyo korxonalarini birlashtiradi va yog'och, taxta,

yog'och buyumlari, qog'oz va o'rmon-kimyo mahsulotlarini ishlab chiqaradi.

Dunyoning o'rmon va yog'ochni qayta ishlash sanoati geografiyasi ko'p jihatdan o'rmon resurslarining joylashishi bilan belgilanadi. Yer sharida ikkita o'rmon mintaqasi shakllangan: 1) Shimoliy o'rmon mintaqasi asosan Yevrosiyo va Shimoliy Amerikaning ignabargli o'rmon (tayga) rayonlarini egallaydi. Bu yerda ignabargli daraxtlardan yog'och tayyorlanadi, uni qayta ishlab, yog'och, yog'och plitalar, sellyuloza, qog'oz, karton olinadi. Ayrim mamlakatlar uchun (Rossiya, Kanada, Shvesiya, Finlyandiya) o'rmon va yog'ochni qayta ishlash sanoati xalqaro ixtisoslashuvining muhim tarmog'i hisoblanadi; 2) Janubiy o'rmon mintaqasi, unda keng bargli o'rmon daraxtlaridan yog'och tayyorlanadi. Bu yerda o'rmon sanoatining uchta asosiy rayoni tarkib topgan: Braziliya, Tropik Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyo. YOg'ochning eng xilma-xil va boy zahiralari Janubiy Amerikada joylashgan. Ko'rsatilgan rayonlarda tayyorlanadigan yog'och asosan dengiz yo'llari orqali Yaponiya, G'arbiy Yevropaga jo'natiladi, shuningdek, o'tinga sarflanadi. Bulardan tashqari Janubiy mintaqa mamlakatlari yog'och bo'lmagan xom ashyodan ko'p foydalanadilar, masalan, qog'oz tayyorlashda bambuk (Hindiston), bogassa (Peru), sizel (Braziliya, Tanzaniya), jut (Bangladesh) ishlatiladi.

So'nggi o'n yilliklarda shimoliy va janubiy o'rmon mintaqalari o'rtasidagi nisbatning o'zgarishiga bog'liq holda o'rmon sanoati geografiyasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Dunyoda yog'och tayyorlash hajmi 1965 yilda 2 mlrd. kub m, 90-yillarning boshida 3,5 mlrd., kub m ga yetdi. Lekin XX asrning o'rtalarida birinchi mintaqa mamlakatlari ikkinchi mintaqa mamlakatlaridan ancha oldinda bo'lgan bo'lsa, hozirgi

paytda bu farq sezilarli darajada qisqardi. Tarmoqning asosiy ko'rsatkichlari 10-jadvalda berilgan.

10-jadval

Dunyoda yog'och tayyorlash va o'rmon, yog'ochni qayta ishlash sanoatining ayrim mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2000-yilning boshida)

Dunyo va «birinchi o'nlik» mamlakatlar	Yog'och tayyorlash, mln. m^3	Dunyo va «birinchi o'nlik» mamlakatlar	Taxta materiallari, mln. m^3	Dunyo va «birinchi o'nlik» mamlakatlar	Sellyuloza ishlab chiqarish, mln. m^3	Dunyo va «birinchi o'nlik» mamlakatlar	Qog'oz ishlab chiqarish, mln. t
Dunyo bo`yicha	3350	Dunyo bo`yicha	500	Dunyo bo`yicha	160	Dunyo bo`yicha	180
AQSH	510	AQSH	100	AQSH	57	AQSH	35
Rossiya	300	Rossiya	75	Kanada	23	Yaponiya	17
Hindiston	280	Kanada	60	Yaponiya	11	Kanada	14
Braziliya	260	Yaponiya	30	Shvetsiya	10	Xitoy	13
Kanada	190	Braziliya	18	Finlyandiya	9	GFR	11
Indoneziya	180	Indoneziya	18	Xitoy	9	Finlyandiya	7
Nigeriya	115	GFR	12	Rossiya	8	Frantsiya	7
Ukraina	100	Frantsiya	11	Braziliya	5	Shvetsiya	6
Xitoy	55	Shvetsiya	11	Frantsiya	2	Rossiya	5
Shvetsiya	55	Finlyaniya	7	GFR	2	Italiya	5

Yog'och tayyolashda «birinchi o'nlik»ka kiradigan mamlakatlarning ko'pi shimoliy mintaqada joylashgan. «Ikkinchi o'nlikda» shimoliy mintaqadan Fransiya, Finlyandiya, GFR, Polsha, Ruminiya, Ispaniya, Yaponiya, janubiy mintaqadan Tailand, Fillippin, Koreya bor. Tayyorlanadigan yog'ochdan olinadigan yog'och-taxtaning salmog'i shimoliy mintaqada 80-100% ga (Rossiya va AQSHda 80%, Kanada - 90%, Shvesiya - 90%), janubiy mintaqada esa 10-20% ga (Hindiston - 10%, Braziliya - 25%) ga teng.

Yog'ochni mexanik qayta ishlash, eng avvalo, yog'och-taxta materiallari tayyorlashdan iborat bo'lib, bunda AQSH, Rossiya, Kanada, Yaponiya, Braziliya, Hindiston, GFR, Fransiya, Shvesiya, Finlyandiya dunyoning eng yirik ishlab chiqaruvchilari hisoblanadi.

Yog'ochni kimyoviy qayta ishlashda (asosiy mahsulot sellyuloza) dunyoda AQSH (hissasi $\frac{1}{3}$), Kanada ($\frac{1}{4}$), Yaponiya, Shvesiya, Finlyandiya ($\frac{3}{4}$) yetakchi o'rinni egallaydi.

Janubiy mintaqadan Braziliya dunyo sellyuloza ishlab chiqarishida sezilarli o'ringa ega (4%).

«Madaniyat noni" deb ataladigan qog'oz ishlab chiqarish dunyoda 1970 yildagi 80 mln. t dan 90-yillar boshiga kelib 180 mln. t. ga yetdi. Uni ishlab chiqaruvchi yetakchi mamlakatlar AQSH, Yaponiya, Kanada, so'ngra Xitoy, GFR, Finlyandiya, Rossiyadir. Barcha ishlab chiqarilayotgan qog'oz mahsulotlari gazeta (umumiy ishlab chiqarishning $\frac{1}{4}$), yozuv va bosma, o'rash va o'rab joylanadigan (upakovka) va boshqa turlarga bo'linadi. Gazeta qog'ozi ishlab chiqarishda raqobatsiz birinchi o'rinni Kanada, undan keyingi o'rinlarni AQSH, Yaponiya, Shvesiya, Finlyandiya, Rossiya, GFR, Norvegiya, Buyuk Britaniya, Xitoy egallaydi. Dunyo bo'yicha aholi jon boshiga o'rtacha 45 kg qog'oz ishlab chiqariladi. Lekin mamlakatlar bu borada bir-biridan tubdan farq qiladi. Dunyoda qog'oz ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinni Finlyandiya (1400 kg) egallaydi, undan keyin Shvesiya (670 kg), Kanada (530 kg), Norvegiya (400 kg), AQSH, Yaponiya va ko'pchilik G'arbiy Yevropa mamlakatlari (100-150 kg), Sharqiy Yevropa mamtlakatlari (30-60 kg), Rossiya (35" kg) turadi.

Rivojlanayotgan davlatlarda (Hindistonda 1,7kg) qog'oz miqdori juda kam.

Dunyoda o'rmon va yog'och-kog'oz mahsulotlarining asosiy eksport va import qiladigan davlatlar ilgarigidek hozir ham iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar hisoblanadi. YOg'och mahsulotini eksport qiluvchi davlatlar - Kanada, AQSH, Rossiya, Skandinaviya mamlakatlari, yog'och mahsulotini import qiluvchi davlatlar - Xorijiy Yevropa, Yaponiya, qisman AQSH. So'nggi yillarda jahon baozoriga ko'p miqdorda tropik yog'och (yog'och-taxta, fanera) materiallarini rivojlanayotgan mamlakatlar (Malayziya, Braziliya, Indonenya, Filippin, Papua-Yangi Gvineya, Kot-divuar, Gabon, Kamerun) sotishga chiqarmoqda.

6.8. Dunyo yengil sanoati

Yengil sanoat dunyo sanoatiniig eng qadimgi tarmoqlaridan biri. U 30 ga yaqin yirik tarmoqlarni qamrab oladi. Uni rivojlantirishning geografik muammolari yengil sanoatning quyidagi xususiyatlariga bog'liq. Birinchidan, uning mahsulotlari kishilar yashash darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, u mehnatni ko'p talab qiladigan tarmoq bo'lib, unda asosan ayollar ishlaydi. Uchinchidan, korxonalar ko'pincha kichik o'lchamra ega. Yengil sanoatda boshqa tarmoqlarga nisbatan hududiy ixtisoslashish namoyon bo'ladi.

Yengil sanotining joylashishiga ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularning eng muhimlari quyidagilar: 1) xom ashyo omili, asosan xom ashyoni birlamchi qayta ishlaydigan korxonalarni joylashishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, paxta tozalash zavodlari paxta yetishtiriladigan rayonlarda, zig'irni qayta ishlovchi fabrikalar - zig'ir ishlab chiqaruvchi rayonlarda, jun tozalash korxonalari - qo'ychilik rayonlarida, teriga dastlabki ishlov beruvchi koxonalar - yirik go'sht kombinatlari

yaqinida joylashadi; 2) aholi, ya'ni iste'mol omili; 3) mehnat resurslari omili. Yengil sanoat ko'p miqdorda va malakali mehnat resurslarini talab qiladi, uning barcha tarmoqlari ayollar mehnatidan ko'p foydalanadi.

To'qimachilik sanoati. Yengil sanoatda yuz berayotgan geografik siljishlar uning yetakchi tarmog'i hisoblangan to'qimachilik sanoatida yaqqol o'z aksini topdi. U sanoatning tipik eski tarmog'i bo'lishiga qaramay, FTI davrida to'qimachilik tolalarini ishlab chiqarish doimiy o'sib borish tendendnyasiga ega. Lekin bir vaqtning o'zida tolalar ishlab chiqarish strukturasida tub o'zgarishlar sodir bo'lib, tabiiy (natural) tolaning salmog'i pasayib, kimyoviy tolaning salmog'i oshib bormoqda. O'tgan asrning 90-yillari boshiga kelib, ularni ishlab chiqarish hajmi deyarli tenglashdi. Lekin tabiiy tolalardan tayyorlanadigan gazlama va tayyor buyumlarga «qaytish» tendensiyasi ham yuz bermoqda.

90-yillarning boshida dunyoda tabiiy va kimyoviy tolalardan tayyorlangan 115 mlrd. m2 gazlamalar ishlab chiqarilgan. 1950 yilda «birinchi o'nlik» mamlakatlariga AQSH, Hindiston, Xitoy, SSSR, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR, Italiya, Polsha kirgan. 90-yillarning boshida uning tarkibida quyidagi mamlakatlar bo'lgan: Rossiya (85 mlrd. m2), AQSH (24), Xitoy (21), Hindiston (13), Yaponiya (8), GFR (4), Koreya Respublikasi (3), Italiya (3), Fransiya (2), Braziliya (2). Bundan ko'rinib turibdiki, «birinchi o'nlikdan» 2 ta davlat - Braziliya, Koreya Respublikasi o'rin olgan (Buyuk Britaniya va Polsha undan chiqib ketgan). Bular rivojlanayotgan mamlakatlar salmog'ining oshib borishi tendesiyasini aks ettiradi. Ularda arzon ishchi kuchlarining mavjudligi to'qimachilik sanoati tez rivojlanishida muhim omillaridan biridir. Bu tarmoq Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Suriya,

Turkiya, Eron, Misr, Marokash, Meksika, Kolumbiya, Braziliya, Argentinada ikkinchi Jahon urushidan oldin shakllangan bo'lib, an'anaviy tarmoq hisoblanadi. «Yangi industrial mamlakatlarda» u yaqindagina paydo bo'ldi, lekin yangi zamonaviy texnika asosida rivojlandi.

Hozirgi paytda dunyo to'qimachilik sanoatining beshta asosiy regioni shakllangan: Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo, MDH, Xorijiy Yevropa, AQSH. Ularning har birida ip-gazlama va kimyoviy toladan tayyorlangan gazlama ishlab chiqarish ustun turadi, boshqa tarmoqlar esa (jun, zig'ir tola, shoyi gazlamalar) kamroq ahamiyatga ega. Lekin ular o'rtasidagi nisbat, yuqorida qayd qilinganidek, so'nggi o'n yilliklarda o'zgarmoqda. Masalan, o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab g'arb mamlakatlarining dunyoda gazlama va kiyimlar ishlab chiqarishdagi salmog'i doimiy ravishda pasayib bormoqda. Ularda o'tmishda sanoat inqilobining kashshoflari (pioneri) bo'lgan ko'pchilik eski sanoat rayonlari inqirozga uchradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa, aksincha, arzon ishchi kuchi mavjudligiga bog'liq holda to'qimachilik sanoatining tez rivojlanishi kuzatilayotir.

Gazlamalar ishlab chiqarish strukturasida ip-gazlama ishlab chiqarish birinchi o'rinni egallaydi, ilgari ham shunday bo'lgan va uni ishlab chiqarishning hajmi 1950 yildagi 35 mlrd. m^2 dan 90-yillarning boshida 65 mlrd. m2 ga oshgan. «Birinchi o'nlikda» ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan mamlakatlar o'rin olgan, lekin ishlab chiqarish miqyoslari bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlar ancha oldinda turadi. Ikkinchi o'rinni kimyoviy tola gazlamalari egallaydi va bunda rivojlangan mamlakatlar ustun turadi. Uchinchi o'rinni - shoyi gazlama, to'rtinchi o'rinni - jun gazlama ishlab chiqarish

egallaydi va har ikkala holatda rivojlangan mamlakatlar birinchilikni egallaydi.

Dunyo to'qimachilik mahsuloti (gazlama, kiyim) bozorida rivojlanayotgan mamlakatlarning salmog'i katta (butun eksportning $\frac{2}{3}$, hatto $\frac{3}{4}$ qismi). Shunning uchun ip-gazlama eksportida Gonkong, Pokiston, Hindiston, Xitoy, Misr, Tayvan, Koreya Respublikasi, Braziliya mamlakatlari, hozirgi paytda GFR, Fransiya, Belgiya, Yaponiyani, kimyoviy tola gazlamalari eksportida esa Koreya Respublikasi, Tayvan, Gonkong mamlakatlari Yaponiya, Italiya, GFR, Fransiya, Niderlandiya, AQSHni kuchli darajada siqib chiqardilar.

Dunyo tikuvchilik sanoatida o'z «modalarini rasm qiluvchi» markazlari - Nyu York, Parij, Rim va ayrim boshqa markazlar shakllandi. Bu tarmoqda ham og'ir va yengil sanoatning ko'pchilik tarmoqlaridagi kabi rivojlangan mamlakatlarda eng yirik kompaniyalarning filiallari barpo etilayotir. Bunga sabab – ish kuchlarining ko'pligi va arzonligidir. Tayyor kiyimlarning asosiy qismi rivojlanayotgan mamlakatlardan g'arb mamlakatlariga eksport qilinadi.

Qisqacha xulosalar

Sanoat jahon moddiy ishlab chiqarishining asosiy tarmog'i bo'lib, unda 350 mln..dan ko'proq aholi band. Sanoatga xos bo'lgan xususiyat mashinasozlikning peshqadamligidir. Mashinasozlik, ayniqsa, rivojlangan davlatlarda yuksak darajada rivojlangan.

Jahon yoqilg'i-energiya sanoati yoqilg'ini qazib olish, energiya ishlab chiqarish va uni uzatishdan, yoqilg'i sanoati ko'mir, neft, gaz qazib olishdan, energetika sanoati esa, IES, GES va AESlarda elektroenergiya ishlab chiqarish va uni

uzatishdan iborat. Dunyoda neft qazib olish bo'yicha Saudiya Arabistoni (388 mln.. t.) birinchi o'rinda turadi. Gaz qazib oluvchi «birinchi o'nlik» mamlakatlariga Rossiya, AQSH, Kanada, Niderlandiya, va boshqalar kiradi. Gazni eksport qiluvi davlatlar Rossiya, Turkmaniston, O'zbekiston, Kanada, Niderlandiya, Jazoir va boshqalar. Ko'mirning faqat 8%i sotuvga chiqariladi. Ko'mirni Avstraliya, JAR, Rossiya va boshqa davlatlar sotadi, Yaponiya, Koreya Respublikasi va boshqa davlatlar sotib oladi. Dunyoda elektroenergiya IESlarda (63%), GESlarda (20%) va AESlarda (17%) ishlab chiqariladi.

Metallurgiya sanoati ilgari faqat rivojlangan davlatlarda mavjud edi, hozir esa rivojlanayotgan davlatlarda ham rivojlanmoqda. Po'lat ishlab chiqarish bo'yicha Yaponiya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Rangli metallurgiya ishlab chiqarishi sanoati hozirgi paytda ko'proq rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirilmoqda.

Mashinasozlik asosan rivojlangan mamlakatlarda yuksak darajaga ko'tarilgan. Kimyo sanoati ham asosan rivojlangan mamlakatlarda mavjud. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa uning ayrim tarmoqlarigina rivojlangan. Masalan, neft qazib oluvchi davlatlarda neft-kimyo, o'rmonga boy davlatlarda o'rmon-kimyo sanoati taraqqiy etgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Dunyoda sanoati rivojlanishi bo'yicha qanday guruhlarga bo'lishadi?
2. Dunyo sanoati qanday tarmoqlardan iborat?
3. Avia-raketa va samolyotsozlik qaysi davlatlarda rivojlangan?
4. Qaysi davlatlarda avtomobilsozlik yaxshi rivojlangan?
5. Dunyoda yengil sanoat yaxshi rivojlangan mamlakatlarni ayting.
6. Sanoati eng kam taraqqiy etgan mamlakatlarni sanab bering va uning sabablarini ko'rsating.
7. Qaysi davlatlarda tog'-kon sanoati rivojlangan.
8. YOqilg'i sanoati rivojlangan mamlakatlarni sanang.

VII mavzu. JAHON QISHLOQ XO'JALIK GEOGRAFIYASI

7.1. Jahon qishloq xo'jaligining umumiy ta'rifi

Qishloq xo'jaligi jahon aholisiga asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish bilan birgalikda yengil sanoat uchun ma'lum miqdorda xom ashyo ham yetkazib beradi. Biroq qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi o'sayotgan bo'lsada, aholining ma'lum qismi hatto o'nlab, ayrim hollarda yuz millionlab aholi to'yib ovqat yemaydi.

Bularga rivojlanayotgan mamlakatlar va iqtisodiy jihatdan kam ta'minlangan mamlakatlarning aholisi kiradi. Shunga bog'liq holda oziq-ovqat bilan ta'minlanishning o'sish darajasini aholi o'sish darajasiga nisbatan (2 %) emas, balki 3,5-4 %ga yetkazish zarur.

Yer shari iqtisodiy faol aholisining 60%dan ortig'i qishloq xo'jaligida band, agar qishloq xo'jaligiga yordam beruvchi yosh va keksalarni hisobga olsak, unda jahon aholisining 2/3 qismi qishloq xo'jaligida mashg'ul.

Hozirgi vaqtda ham Afrika va Osiyoning ko'pgina davlatlarida aholining 70%dan ortig'i qishloq xo'jaligida band. Ayrim davlatlarda, masalan, Burkina-Fasoda (G'arbiy Afrika) bu ko'rsatgich 95%ni tashkil etadi.

Sanoatlashgan va iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligida band aholi kamayib bormoqda.

AQSHda hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida 5% aholi band, Buyuk Britaniyada esa 2%dan kamroq aholi qishloq xo'jaligida ishlaydi.

Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, oziq-ovqat, to'qimachilik va boshqa sanoat tarmoqlariga xom ashyo yetkazib beradi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi turli xil

qishloq xo'jalik mashinalarini va mineral o'g'itlarni iste'mol qilish bozori hamdir.

Hozirgi zamon qishloq xo'jalik gegrafiyasi ko'pgina omillar ta'siriga bog'liq: iqtisodiy, tabiiy va siyosiy.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining geografik joylashishiga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi u yoki bu davlatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari hisoblanadi. AQSH, Kanada, Angliya, G'arbiy Yevropa mamlakatlari qishloq xo'jaligi oxirgi o'n yillikda kapitalistik rivojlanish umumiy oqimining va hozirgi zamon sanoat iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib qoldi.

Qishloq xo'jaligining joylashishiga tabiiy sharoit katta ta'sir ko'rsatadi. Uning rivojlanishi uchun yorug'lik, issiqlik, namlik va tuproqda ozuqa moddalari bo'lishi zarur. Qulay agroiqlim, suv, tuproq resurslari quruqlikning hamma joyida ham uchramaydi. Tuproq, masalan, bir turdagi qishloq xo'jalik ekini uchun qulay bo'lsa, boshqasi uchun esa noqulay bo'lishi mumkin.

Qutbiy mintaqalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun unchalik qulay emas. Subtropik va tropiklarda esa issiqlik va yorug'lik ko'p bo'lsada namlik, dengiz iqlimiga xos mamlakatlar, ya'ni mo''tadil mintaqalar joylashgan mamlakatlarda namlik yetarli, ammo issiqlik yetishmaydi.

Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga hali ham iqlim sharoiti yetarli ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Tabiat injiqliklari dehqonchilikka katta zarar yetkazmoqda. Yer sharining ayrim qismlarida noqulay qish, sovuq urishlar, ob-havoning keskin o'zgarishi, qurg'oqchilik, do'l, sel, kuchli shamollar va boshqalar dunyo xalq xo'jaligi ishlab chiqarishi mahsulot hajmiga ta'sir ko'rsatadi.

Mikroiqlim xususiyatlari ham farqlanadi. Hatto rayonlarning ob-havo xususiyatlari farqlanganligi uchun ham,

buni ekinlarni tanlashda inobatga olish va agrotexnika qoidalariga rioya qilish kerak. Qishloq xo'jaligi joylashishiga uning tarmoqlari ixtisoslashishi ham ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, bular o'z navbatida, mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishini ham aniqlab beradi.

Ba'zi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini turli rayonlarda yetishtirish ularning transport-geografik holatiga, iste'molchiga yaqinligiga ham bog'liq.

Jumladan, kofe, kakao plantasiyalari, odatda, dengiz sohillariga, daryo va temir yo'l yaqinlarida joylashtiriladi. Vaholanki bu maxsulotlar eksportga mo'ljallangan. Texnika taraqqiyotiga qaramasdan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish darajasi rivojlangan mamlakatlarda hozir ham bir xilda emas. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa qoniqarsiz holatda. Bu hosilkam bulgan yillarda yomon oqibatlarga olib keladi (narxlarni o'sishi, zahiralarni kamayishi va boshqalar). Bularni bartaraf qilish esa ko'p vaqtni talab qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda mahsulot ishlab chiqarish sur'ati aholining o'sish sur'ati bilan barobar, jumladan, bu mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish o'z ishlab chiqarishlari hisobiga ko'paytirilmayapdi. Shuning uchun ham ularda ochlik va to'yib ovqat yemaslik darajasi pastligicha qolmoqda. Aholi zich joylashgan rayonlarda bo'sh yerlar tanqisligi tufayli kam kapital mablag'lar sarf qilish hisobiga ekstensiv dunyo qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish cheklangan, ayrim hollarda esa yirik yer egalari tomonidan yerlarni o'zlashtirish sun'iy ravishda yer resurslari tanqisligini yuzaga keltirish maqsadida to'xtatiladi, ijara xaqini oshiradi.

Lotin Amerikasi, tropik Afrika mamlakatlarida va boshqa rayonlarda mavjud bo'lgan yirik bo'sh yer resurslaridan oqilona

foydalanish uchun ko'plab mablag'lar talab qilinadi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida va unga yaqin hisoblangan - transport, aholini joylashtirish, suv ta'minoti, meliorasiya va h.k.larni ham inobatga olish zarur. Bunday keng miqiyosdagi ishlarni amalga oshirishga faqat rivojlanayotgan mamlakatlarning birgalikdagi sa'y harakati tufayligina erishish, shuningdek, an'anaviy yo'l-o'zlashtirilgan rayonlarda qishloq xo'jaligini intensivlashtirish hisobiga muvaffaq bo'lish mumkin. Afsusi, ko'pgina davlatlarda, jumladan iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan davlatlarda bu yo'nalishdagi ishlar o'ta sust, agrar munosabatlar eskichasiga davom ettirilmoqda, ishlab chiqarish vositalarini jalb qilish qiyin kechmoqda, haq to'lash og'irligicha qolmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlar xuqumatlari yirik xo'jaliklarga iqtisodiy ko'mak berish (imtiyozli bank kreditlari berish, texnikani takomillashtirish, davlat hisobiga yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va h.k) maqsadida qishloq xo'jalik yerlarini yiriklashtirish va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini markazlashtirish bilan birga mayda xo'jaliklarning huquq va imkoniyatlarini cheklamoqdalar. Bunday xo'jalik yuritish tadbirlari (kichik va o'rta dehqonlarni sindirish). yirik xo'jaliklarni barpo qilish, texnikaviy jihozlangan xo'jaliklar va tovar mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishga yo'naltirilgan.

Yevropa mamlakatlarida agrar sanoat komplekslarining barpo bo'lishi qishloq xo'jaligi sohasida xalqaro milliy siyosat kuchayishiga olib keldi. Masalan, YEIX (“umumiy bozori”) narxlari shakllanishi va boshqa iqtisodiy mexanizmlarga tayangan holda YEIXligi chegarasida g'alla yetishtirish bo'yicha Fransiyaning salmog'ini ko'tardi.

Rivojlanayotgan ko'pgina mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish va mavjud agrar munosabatlarni qayta o'zgartirish bo'yicha turlicha holatlarni, xususan, boshqarish qiyin kechayotgan holatlarni ko'rish mumkin. Bu, shuningdek, agrar munosabatlarning murakkabligi, mablag'larning yetishmasligi,mavjud mablag'larni sohaga kiritmaslik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi rivojlanishini sustlashtirmoqda.

Bu o'rinda shuni eslatib o'tish kerakki, shu guruhga kiruvchi ayrim mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan yuqori bo'lgan (masalan, Argentina) yirik yer egaligi hisobiga (mahalliy mahsulotlar va chet el kapitali hisobiga) tovar mahsuloti ishlab chiqarish shakllandi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligi fan-texnika yutuqlariga tayanmoqda. Shu bois ular qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirishga, importni qisqartirish yoki batamom to'xtatishga erishibgina qolmay, o'zlari eksport qila boshladilar. Masalan, AQSH–soya; Fransiya–bug'doy va sholi; GFR, Fransiya - quruq sut; Yaponiya – sholi va h.k.larni chetga sotmoqda. Natijada oxirgi 15-20 yil ichida rivojlangan mamlakatlarning oziq-ovqat mahsulotlari eksportidagi ulushi o'sdi, rivojlanayotgan malakatlarniki esa, aksincha, qisqardi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatiga xos bo'lgan xususiyatlardan biri bu – to'yib ovqat yemaslik va ocharchilikni keng tarqalganligidir. Bunga sabab faqat tabiiy sharoitning noqulayligi yoki yangi ma'ltuschilik tushunchasi, aholini “yuqori” tabiiy o'sishigina emas, balki ularning umumiy iqtisodi qoloqlik darajasi, mahalliy noqulay tabiiy sharoitlarni yaxshilash imkoniyatlarining chegaralanganligi va h.k.lardir.

Qoloqlikning asosiy ildizi o'tmishda bu mamlakatlarning rivojlangan mamlakatlarga qaram bo'lganligiga taqaladi.

11-jadval

Dunyoning yer fondi tuzilmasi (tarkibi)

Mintaqalar	Umumiy maydon		Qishloq xo'jaligi erlari		Yer fondining tarkibi		% larda
	mln km^2	jon boshi-ga (ga)	ishlov beril-gani	Tabiiy o`tloq va yaylov-lar	o`rmo nli erlar	aholi punktlari sanoati va transport erlari	kam hosildor va hosil bermaydiga n erlar
MDH	22,5	8,1	10	17	36	1	36
Evropa	5,1	1,0	29	18	32	5	16
Xorijiy Osiyo	27,7	1,1	17	20	20	2	39
Afrika	30,3	6,4	11	26	23	1	39
Shim. Amerika	22,5	6,1	12	16	31	3	38
Jan. Amerika	17,8	7,3	7	20	52	1	20
Avstraliya va Okeaniya	8,5	7,0	5	54	18	1	22
Butun dunyo	134	3,0	11	23	30	2	34

Dunyo yer fondining umumiy maydoni-134 mln.km2 (13,4 mlr.ga) bo'lib uning asosiy qismi Afrika, MDH, Xorijiy Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerikada joylashgan. Jon boshiga oladigan bo'lsak, aholisi nisbatan kam bo'lgan Avstraliya birinchi, aholisi eng ko'p bo'lgan Xorijiy Osiyo esa oxirgi o'rinni egallagan.

Ishlov berilgan yerlar maydoni bo'yicha AQSH (190 mln.ga),Hindiston (160 mln.ga), Rossiya (134 mln.ga), Xitoy (95 mln.ga), Kanada (46 mln.ga), Qozog'iston (36 mln.ga), Ukraina (34 mln.ga) ajralib turadi. Yevropadan tashqari jahonning barcha mintaqalarida tabiiy o'tloq va yaylovlar ishlov berilgan yerlarga nisbatan ko'proq. Bu borada Avstraliya o'n marotabadan yuqoriroq. O'z navbatida, MDH, Xorijiy Yevropa, Shimoliy Amerikada o'rmonlar maydonining salmog'i o'tloq va

yaylovlar maydoniga nisbatan ancha salmoqli, Janubiy Amerikada esa ularning umumiy maydonning yarmidan ko'pini eg'allaydi. Dunyo bo'yicha ham va aksariyat mintaqalar bo'yicha aholi punktlari, sanoati va transport tizimlari joylashgan yerlar ulushi 1-2% ni tashkil qiladi, faqat Xorijiy Yevropa va Shimoliy Amerikada bundan biroz yuqoriroq. Kam hosildor yerlar bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich asosan MDH, Xorijiy Osiyo, Afrika, Shimoliy Amerikaga to'g'ri keladi.

Dunyo yer fondining asosiy muammolaridan biri tuproq hosildorligining kamayishi, tuproq eroziyasi, uning ifloslanishi, tabiiy o'tloqlar biologik hosildorligining yo'qolishi, sug'oriladigan maydonlarning sho'rlanishi va botqoqlanishi, yerlarning, turar joy, sanoat korxonalari va transport tizimlari qurishga berilishi va h.k.lar hisoblanadi. Ba'zi hisob-kitoblarga qaraganda insoniyat hozirgacha 2 mlrd. gektar hosildor yerlarni yo'qotib bo'ldi. Birgina eroziya natijasida dunyo bo'yicha har yili qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlardan 6-7 mln. gektari oborotdan chiqib ketadi. Sho'rlanish va botqoqlanish natijasida 1,5 mln gektar yer ishdan chiqadi. Bu noxush ko'rinishlarning yaqqol natijasi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan, ishlov beriladigan yerlar keskin kamayib ketayotganligidir.

12-jadval

Dunyo mintaqalari bo'yicha haydalgan yer bilan ta'minlanganlik darajasi (aholi jon boshiga)

Mintaqalar	Ta'minlanganligi (ga)
MDH	0,81
Evropa	0,28
Xorijiy Osiyo	0,15

Afrika	0,30
Shimoliy Amerika	0,65
Janubiy Amerika	0,49
Avstraliya va Okeaniya	1,87

Ko'pgina mamlakatlarda yer fondini saqlab qolishga va uning tizimini yaxshilashga harakat qilinyapti. Bu masala mintaqaviy va dunyo miqyosida BMTning maxsus tashkilotlari. YUNESKO (BMTning maorif, fan va madaniyat ishlari bo'yicha tashkiloti), FAO (BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha tashkiloti) tomonidan nazoratga olingan. Dunyo tuproq haritasining yaratilishi, ya'ni tuproq agrotabiiy quvvatini aniqlash bu jarayondagi tadbirkorlar natijasidir.

7.2. O'simlikshunoslik

O'simlikshunoslik–qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lib, u o'z ichiga dexqonchilik - don, texnika ekinlari, poliz mahsulotlari yetishtirish va boshqa qator tarmoqlarni oladi.

Donli ekinlar kishilik madaniyati tarixining barcha davrlarida bo'lgan. Arxeologik izlanishlar guvohlik beradiki, bug'doy Old Osiyoda eramizdan 5-6 ming yil, Misrda 4 ming yil, Xitoyda 3 ming yil, Balqonda 2-3 ming yil avval ekilgan. Qadimgi dunyoda Skifiya o'z bug'doyi bilan mashhur bo'lgan. Buyuk geografik kashfiyotlardan so'ng bug'doy yangi ochilgan hududlarda ham ekila boshladi, xususan, Janubiy Amerikaga 1528 yil, AQSHga 1602 yil, Avstraliyaga 1788 yilda kirib bordi.

Sholi-qadimgi ekinlardan biri bo'lib, Xitoyda eramizdan 5 ming yil avval ekilgan. Hindiston va Shimoliy Afrikada eramizdan 2 ming yil avval, Yevropada esa eramizning VIII-asrida ekila boshlagan. Amerikaga geografik kashfiyotlar davrida kirib kelgan. Makkajo'xori esa aksincha bu davrda

Amerikadan Yevropaga olib kelingan. Butun Rossiya o'simlikshunoslik institutida bug'doyning 60 ming navi kolleksiyasi (to'plami) aniqlangan. Fillipindagi xalqaro sholichilik institutida sholining taxminan shuncha to'plangan.

Hozirgi vaqtda donli ekinlar uch ko'rsatgichi bo'yicha tahlil kilishi lozim: 1) ekin maydoni; 2) yalpi hosili; 3) xalqaro savdosi bo'yicha.

Dunyo bo'yicha 720 mln gektar yerga donli ekinlar ekilmoqda. Ular jami ekin maydonining Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiyada 50-60%ini,Rossiya, Polsha, Vengriya, Ruminiya, Yaponiyada 60-65, GFRda - 70, Vyetnam va Mongoliyada - 80 foizini egallagan.

Jahonda jami ekin maydonining asosiy qismini 3 ta ekin-bug'doy (230 mln.ga), sholi (140 mln.ga), makkajo'xori (180 mln.ga) egallaydi (1-rasm).

Dunyoda keng tarqalishi bo'yicha bug'doyga yetadigani yo'q. U Shimoliy Amerika, Xorijiy Yevropa, Rossiya, Ukraina, Janubiy-g'arbiy, Janubiy va Sharqiy Osiyoda eng ko'p ekiladi. Janubiy mintaqa - Argentina, Janubiy Afrika va Avstraliya. Jahondagi bug'doy ekin maydonlaridan yil 12 oy davomida hosil yig'iladi. Dunyo bo'yicha sholining tarqalishini muhim hususiyati shundan iboratki, u asosan musson iqlim sharoiti mavjud mintaqalarga xosdir. Sholichilik Sharqiy, Janubi-sharqiy va Janubiy Osiyoda o'ta keng tarqalgan. Sholizorlar juda ko'p bo'lgan Hindiston, Xitoy, Indoneziyada ikkinchi hosil quruq mavsumda sun'iy sug'orish usuli qo'llanib olinadi.

Makkajo'xori ham deyarli bug'doy eqiladigan hududlarda yetishtiriladi.

Donli ekinlarning yalpi hosili dunyo bo'yicha uzoq vaqt davomida juda sekin sur'atlar bilan o'sdi. Masalan, 1900 yilda 500 mln.t., 1920 yil -600mln.t., 1940 yil-700mln.t. don

yetishtirildi. XX-asrning ikkinchi yarmida FTI ta'sirida donli ekinlar hosil o'sish sur'ati sezilarli darajada oshdi (2-rasmga qarang). Bu turdagi ekinlardan olinayotgan yalpi hosil bo'yicha dunyo mamlakatlarini quyidagi guruhga bo'lish mumkin (13-jadval).

13-jadval

2000 yillar boshida donli ekinlarning yalpi hosili

Mamlakatlar	Mln. Tonna	Aholi jon boshiga don yetishtirish, kg
Jahon bo`yicha	1987	367
Xitoy	361	375
AQSH	323	1283
Rossiya	117	790
Frantsiya	60	1050
Kanada	57	2125
Ukraina	52	980
Indoneziya	54	240
Braziliya	40	320
Turkiya	32	340
Polsha	28	730
Qozog`iston	27	1650
GFR	29	480
Avstraliya	26	1320
Tayland	24	240
Meksika	29	275
Buyuk Britaniya	25	400
Argentina	21	640
Pokiston	23	200
V'etnam	20	330
Ispaniya	20	543
Ruminiya	17	821
Vengriya	17	1557
Yaponiya	19	126

Donli ekinlar tizimida yalpi hosili va ekin maydoni bo'yicha ham bug'doy, sholi, makkajo'xori yetakchilik qiladi. Ularning mahsulotlari aholining oziq-ovqat rasionining 95%ni tashkil etadi (4-rasm). Jumladan, bu rasionning 21% sholi, 20%

bug'doy. Makkajo'xori iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda asosan chorva molariga omixta yem sifatida berish uchun yetishtiriladi.

G'alla yalpi hosili bo'yicha dunyo mamlakatlari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Eng ko'p don yetishtiruvchilar (Xitoy, AQSH, Hindiston va Rossiya);
2. Juda ko'p don yetishtiruvchilar (Fransiya, Kanada, Ukraina, Indoneziya, Braziliya);
3. Qolgan mamlakatlar–ko'p don yetishtiruvchilar.

Birinchi guruh mamlakatlari dunyoda yetishtirilgan donning yarmini beradi.

Aholi jon boshiga don yetishtirish bo'yicha mamlakatlar bir-birlaridan keskin farqlanadilar. Dunyo bo'yicha bu boradagi o'rtacha ko'rsatkich (350 kg) juda past. Bunga asosan Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Braziliya va boshqa rivojlanayetgan mamlakatlar ta'sir qiladi. Nisbatan yuqori bo'lmagan ko'rsatkichlarga ega mamlakatlar qatoriga Italiya, Buyuk Britaniya, GFR va ayniqsa, Yaponiya kiradi. Aholining o'sishi jon boshiga don yetishtirish ko'rsatkichlarining pasayishiga olib keladi. Dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan ancha ko'p don yetishtiruvchi mamlakatlarga Rossiya, Ruminiya, Polsha kiradi. Vengriya, Qozog'iston, Avstraliya, Kanada, AQSH va Fransiyada bu boradagi ko'rsatgich juda yuqori (1000 kg dan ortiq).

Umuman, dunyoda donli ekinlar 55 foizi aholi uchun oziq-ovqat, 45 foizi esa chorva ozuqasi sifatida ishlatiladi. Jahon bozoriga har yili taxminan 200 mln.t. don, jumladan, 90-100 mln.t. bug'doy va 60-70 mln.t. makkajo'xori chiqariladi.

Sholi oxirgi yillarda dunyo bo'yicha 10-15 mln.t. atrofida sotilayapdi. Uni asosiy eksport qiluvchilar Tayland, AQSH hisoblanadi.

Don import qiluvchi mamlakatlarning yarmiga yaqini rivojlanayotgan mamlakatlardir. Ular oziq-ovqat uchun donli mahsulotlarni asosan chetdan oladilar. Misr (10 mln.t.), Braziliya (5 mln.t.) ham shunday mamlakatlar sirasiga kiradi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar orasida Yaponiya (30 mln.t.ga yaqin) yirik importyor hisoblanadi.

Boshqa turdagi oziqa ekinlari. Bu turdagi ekinlarga moyli, ildiz-mevalilar, qandli, xushbo'y sabzovot va bog'dorchilik o'simliklari kiradi.

Dunyo bo'yicha moyli urug'lar ishlab chiqarish 1990 yilda 220mln.t.ga yetdi. Jumladan, soya-100 mln.t., paxta chigiti-35 mln.t., raps-25mln.t., kungaboqar-20 mln.t., yer yong'oq-20 mln.t. yetishtirildi.

Moyli ekinlar dunyo bo'yicha turlariga qarab o'ziga xos tarzda joylashtirilgan. Soyaning vatani Sharqiy Osiyo (Xitoy, Koreya) bo'lsada, hozirgi kunda asosan: AQSH (55mln.t.), Braziliya (20 mln.t.) va Argentinada (10 mln.t.) yetishtiriladi. Xitoyda soya (yiliga 10-15 mln.t.) yetishtiriladi, ham ozuqa, ham oziq-ovqat (soya yog'i) maqsadida ishlatiladi.

Kungaboqarning vatani Shimoliy Amerikaning janubiy qismi bo'lib, u Yevropaga XVI asrda olib kelindi. Kungaboqar asosan - Rossiya, Ukraina, Janubiy Yevropa, AQSH, Argentina, Xitoyda, g'o'za urug'i (chigit), asosan Hindiston, Pokiston, Xitoy, AQSH, O'zbekistonda olinadi. Raps Yevropa, Xitoy, Kanadada ko'p tarqalgan.

Yer yong'oqning vatani Braziliyadir. U yerdan dastlab Hindiston, Xitoy, Fillipinga, keyinroq Yevropaga tarqalib, -Xitoy yong'og'i- nomini olgan. Afrikaga u XV asrda Yevropadan keltirilgan. Hozirgi vaqtda yer yong'oq tropik va subtropik mintaqalarda (Janubiy va Sharqiy Osiyo, G'arbiy Afrika, AQSH, Braziliya, Argentina) katta maydonlarni egallagan.

Zig'ir asosan mo''tadil iqlim mintaqalarida ko'p eqiladi.

Zaytun daraxti O'rta yer dengizi atrofi, palma esa g'arbiy Afrika va Malayziyada ko'p tarqalgan. Korpu (kokos yong'og'ining ko'ritilgani) asosan Janubiy, Janubi-Sharqiy Osiyo va Okeaniyada yetishtiriladi.

Kartoshka–oziq-ovqat, ozuqa va texnik jihatdan qayta ishlanib turli maqsadlarda foydalaniladi. Vatani - Janubiy Amerika-Peru-Ekvador,Boliviya. Yevropaga 1536 yilda dastlab Ispaniya va Portugaliyaga olib kelingan. U yerdan Italiya, Gollandiya, Irlandiya, Angliya va boshqa mamlakatlarga tarqalgan. Italiyada “tartufol” nomini oldi va keyin “kartofel”ga aylandi. XVIII asrda Petr I Rossiyaga 1 qopini Gollandiyadan olib kelib, mamlakatning turli viloyatlariga tarqatgan. Hozirgi vaqtda kartoshka dunyoda 18 mln.ga yerga ekilmoqda. 2000 yilda dunyo bo'yicha kartoshkadan 280 mln.t.dan ortiq hosil olindi.Kartoshka Yevropadan tashqari Xitoy va Shimoliy Amerikada ko'p tarqalgan. Jon boshiga kartoshka yetishtirishda Belorusiya va Polsha oldinda. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda shirin kartoshka (batat) yetishtiriladi.

14-jadval

Dunyoning ayrim mamlakatlarida kartoshka yetishtirish

Dunyo va ayrim mamlakatlar	Yalpi hosil, mln.t.	Aholi jon boshiga, kg	Hosildorlik, s/ga
Dunyoda	280	55	150
Polsha	36	910	200
Rossiya	35	230	100
Xitoy	27	25	100
Ukraina	12	330	120
GFR	17	230	300
AQSH	17	65	320
Hindiston	15	18	160
Belorusiya	9	870	135
Niderlandiya	7	470	435

Buyuk Britaniya	6,5	110	350
Frantsiya	4,7	110	280
Ispaniya	4,5	115	200
Turkiya	4,1	70	220
Yaponiya	3,1	30	300
Ruminiya	3,4	140	120
Kanada	2,8	100	245
Italiya	2,5	40	200

Shakarqamish - qadimiy qandli ekinlardan biri. Vatani - Bengaliya. O'rta dengiz mamlakatlariga uni VIII-IX asrlarda arablar keltirgan. Buyuk geografik kashfiyotlardan so'ng u Yangi dunyoga tarqalib, “ikkinchi vatani”ga ega bo'ldi. Ammo, XVIII asrning oxirlaridagina qand lavlagi qand xom ashyosiga aylandi. Lavlagidan shakar oluvchi dastlabki zavod Germaniyada bunyod etilgan. Shu vaqtdan boshlab bu ikki qandli ekin muayyan ma'noda o'zaro raqobatlasha boshladilar. XX asr boshlarida lavlagi qandi xalqaro talabning **2**/**3** qismini qondirdi, lekin uning salmog'i pasayib bordi. Bugungi kunda ham mazkur ekinlar o'rtasidagi mutanosiblik 40:60 bo'lib, bunda shakarqamish ustuvor ahamiyatga ega.

Shakarqamish–issiqsevar, ko'p yillik ekin bo'lib, 7-8 oy davomida o'rtacha harorat 150S dan pasaymaydigan, vegetasiya davridagi yillik ijobiy harorat yig'indisi 5000-60000Sga teng keluvchi sharoitda o'sadi. Ayni paytda u sezilarli namlikni ham talab etadi. Shu tufayli ham shakarqamish faqatgina tropik, subtropik hamda musson iqlimli mamlakatlarda iqlimlashtiriladi. Uning deyarli barcha hosili (1 mlrd.t. atrofida) rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Qand lavlagi–tipik bir yillik mo''tadil mintaqa o'simligi, shu bilan bir qatorda agroiqlim sharoitlariga yuqori darajada talabchan qo'yuvchi ekindir. U asosan aholi zich joylashgan intensiv qishloq xo'jaligiga ega bo'lgan rayonlarda eqiladi.

Uning yalpi hosili dunyo bo'yicha 300 mln.t.ni tashkil etib, asosan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu ikki ekin turi faqatgina AQSH hamda Xitoyda sezilarli miqdorda yetishtiriladi.

Jahonda qand ishlab chiqarish yiliga o'rtacha 110 mln.t.ga yetdi. Jahon bozoriga har yili taxminan 30 mln.t. qand yetkazib beriladi. Bu asosan shakarqamish qandi bo'lib, Braziliya, Kuba, Avstraliya, Mavrikiya kabi davlatlardan xorijiy Yevropaga, AQSH, MDH davlatlariga, Xitoyga, Yaponiyaga, Osiyoning "yangi industrial" mamlakatlariga, ya'ni uning qadoqlanishini amalga oshiruvchi mamlakatlarga jo'natiladi. Lavlagi qandi xalqaro savdoda juda oz miqdorda ishtirok etadi.

15-jadval

Jahonda va «birinchi o'nlik» mamlakatlarida qand ishlab chiqarish

Shakarqamish qandi		Qand lavlagi	
butun jahon va mamlakatlar	mln. t.	butun jahon va mamlakatlar	mln.t.
butun jahon	70,0	Butun jahon	40,0
Hindiston	9,9	Ukraina	7,0
Kuba	7,6	Frantsiya	4,1
Braziliya	7,3	Rossiya	4,0
Tailand	4,3	AQSH	3,6
Xitoy	3,7	GFR	3,1
Meksika	3,6	Polsha	1,8
Avstraliya	3,5	Turkiya	1,8
Indoneziya	2,3	Italiya	1,7
AQSH	2,2	Buyuk Britaniya	1,3
JAR	2,2	Niderlandiya	1,1

Quvvat beruvchi ekinlarga choy, kofe hamda kakao kiradi. Choyning vatani – Xitoy. Bu mamlakatdachoy VII-X asrlardayoq

keng tarqalgan edi. Taxminan shu davrlarda choy Xitoydan Yaponiyaga o'tdi. Yevropada, avvalo, Angliyada choy asosan Osiyo mamlakatlari, lekin Ost-Hind savdo aloqalari kompaniyasi boshlanganidan so'ng XVII asrdagina ma'lum bo'ldi. Rossiyada ham choy XVII asrda iste'mol qilina boshlandi. Uzoq vaqt uni “mustamlaka mahsuloti” deb ataldi. Yevropaga keliboq mazkur ichimlik ommaviylashib ketdi, bu esa XIX asrda choy plantasiyalarining, avvalo, Hindistonda, so'ngra Seylonda (Shri-Lanka) hamda Keniyada paydo bo'lishiga olib keldi.

Kofening vatani Efiopiya tog'liklari bo'lib, bu yerlarda mazkur ekin turi taxminan ming yillar ilgari yetishtira boshlangan. Uning nomlanishi ham Efiopiya provinsiyasi hisoblangan **Kaffa** nomidan olingan. XI asrda kofe Yamanga keltirilib, undan Moxa porti orqali Yevropaga olib ketilgan. O'rta asr oxirlariga kelib kofeni Italiyada, Fransiyada, Angliya Niderlandiyasida, shuningdek, Yevropaning boshqa mamlakatlarida iste'mol qila boshlaganlar. O'sib borayotgan talabni qondirish maqsadida uni maxsus plantasiyalarda yetishtira boshladilar. Shunday plantasiyalardan dastlabkisiga Yava orolida XVII asrda gollandiyaliklar tomonidan asos solingan. XVIII asr boshlarida bir qancha kofe doni Fransuz Gvianasiga va u yerdan Braziliyaga keltirildi. Bu yerda mazkur ekin turi ikkinchi vatanini topadi.

N. I. Vavilov kakao vatani deb Meksika tog'larini hisoblaydi. XIX asr boshlarida ushbu ekin va undan olinadigan shokolad, avvalo, Ispaniyada, so'ngra esa Yevropaning boshqa mamlakatlarida ma'lum bo'ldi. Kakao plantasiyalari Gvineya bo'g'ozining qirg'oqlarida tashkil etildi.

Jahonda kofe hozirgi davrda yiliga ishlab chiqariladi. Choy hamda kakao ishlab chiqarish hajmi esa 2,5 mln.t.ni tashkil etadi. Shunisi qiziqki, o'nta o'ta «choyli» mamlakatning

sakkiztasi Osiyoda, o'nta o'ta «kofeli» mamlakatning beshtasi Amerikada, uchtasi Afrikada va ikkitasi Osiyoda, o'nta asosiy kakao ishlab chiqaruvchi mamlakatning to'rttasi Afrikada, to'rtasi Amerikada va ikkitasi Osiyoda joylashgan. Xaritada quvvat beruvchi ekinlarning asosiy xalqaro yuk oqimlari ko'rsatilgan. Ayni paytda choyni eng ko'p Hindiston, kofeni Braziliya, kakaoni Kot-d Ivuar eksport qiladi. Lekin ularning asosiy iste'molchilari AQSH, Yevropa mamlakatlari va Yaponiya hisoblanadi. AQSH kofe va kakao importi bo'yicha birinchichi o'rindaturadi, MDH mamlakatlari ham o'zining kofe va kakaoga bo'lgan ehtiyojini rivojlanayotgan mamlakatlar importi hisobiga, choyga bo'lgan ehtiyojining $\frac{2}{3}$ qismini Gruziya va $\frac{1}{3}$ qismini rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga qondiradi.

Texnika ekinlari

Texnika ekinlariga paxta, tabiiy kauchuk hamda tamaki kiradi. Paxta maydonlari 35 mln.ga ni tashkil etadi. Ular asosan shimoliy yarim sharning 20o va 40o shimoliy kengliklari oralig'ida mujassamlashgan. Paxta tolasi ishlab chiqarish jahonda asta-sekin o'sib borib, 18mln. t.ga yetdi. O'z navbatda xalqaro paxtachilikni rayonlashtirish quyidagi o'ta yirik rayonni ajratish imkoniyatini berdi:

Birinchidan, Sharqiy, Janubi-Sharqiy va Janubiy Osiyo bo'lib, bunda Xitoy (4,5mln.t.) Hindiston hamda Pokiston (1,5mln.t.dan), Tailand asosiy ishlab chiqaruvchilar sifatida namoyon bo'ladi. **Ikkinchidan,** MDH doirasida O'rta Osiyo va Kavkaz orti mamlakatlari. Bu yerda yirik ishlab chiqaruvchi-O'zbekiston (1,5mln.t.) hisoblanadi. **Uchinchidan**, Janubi-G'arbiy Osiyo, bunda Turkiya (0,7mln.t.), Eron, Iroq, Suriya, Afg'oniston alohida o'rin tutadi. **To'rtinchidan**, bu Shimoliy va

Sharqiy Afrika, Misr, Suriya, Efiopiya, Uganda, Tanzaniya. **Beshinchidan**, G'arbiy va Markaziy Afrika-Nigeriya, Kamerun, Zair. **Oltinchidan**, Janubiy Afrika, Mazambik, Madagaskar. **Yettinchidan**, Shimoliy va Markaziy Amerika, avvalo AQSH (3,4mln.t.) hamda Meksika. **Sakkizinchidan**, Janubiy Amerika-Braziliya (0,7mln.t.), Argentina, Venesuela, Peru. **To'qqizinchidan**, Avstraliya.

Jahon savdo bozoriga har yili 5-6 mln.t., asosan o'rta tolali paxta tolasi chiqariladi. Asosiy eksportchilar-AQSH (1,7mln.t.), so'ngra O'zbekiston, Xitoy, Pokiston, Hindiston, Afrika mamlakatlari, Paragvay, Avstraliya. Import geografiyasini asosan ikki region belgilab beradi:

1. Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo (Yaponiya, Tayvan, Korea respublikasi, Gongkong, Tailand, Indoneziya).
2. Yevropa (Italiya, FRG, Fransiya, Polsha, Chexiya, Slovakiya va boshqalar).

1991 yilda jahonda tabiiy kauchuk yetishtirish 5,5 mln.t.ga yetgan bo'lsa, uning 90 foizi Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari: Malayziya (1,3mln), Indoneziya va Tailand (1,2 mln.t.dan), shuningdek, Hindiston, Shri-Lanka, Fillipin hissasiga to'g'ri keladi. Geveyaning yirik plantasiyalari, shuningdek, Liberiyada ham mavjud. Mazkur mamlakatlar ayni paytda kauchuk eksport qiluvchi asosiy mamlakatlar ham hisoblanadi.

Tamaki yetishtirish bilan dunyoda 30-35 mln. kishi shug'ullanadi. Uni tarqatishdan keladigan daromaddan esa 100 mln kishi tirikchilik qiladi. Jahonda tamaki yetishtirish yiliga 7 mln.t.ga yetdi. Uni eng ko'p yetishtiruvchi mamlakatlarga Xitoy (2,7mln.t.), AQSH, Hindiston, Braziliya va MDH mamlakatlari kiradi. Italiya, Gresiya, Bolgariya, Turkiya, Indoneziya, Yaponiya va Kubada tamaki oz miqdorda yetishtiriladi. Sigareta ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda AQSH birinchi (700 mlrd.dona),

MDH mamlakatlari ikkinchi o'rinda turadi. AQSH tamaki sanoati asosan o'z xom ashyosi hisobiga, Yevropa tamaki sanoati esa Xitoy, Hindiston, Braziliya, shuningdek, rivojlanayotgan boshqa mamlakatlarda keltiriladigan xom ashyo hisobiga faoliyat ko'rsatadi. Tamaki mahsuloti ishlab chiqarish va iste'mol qilish kabi chekishga qarshi ommaviy harakat kengayib borayotgan Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarga nisbatan rivojlanayotgan davlatlarda tezroq o'smoqda.

Keyingi davrlarda narkotik moddalar ishlab chiqarish sezilarli darajada ortdi. Ularni ishlab chiqaruvchi mamlakatlar tarkibida “oltin yarim oy” (Pokiston, Afg'oniston, Eron) hamda “oltin uchburchak” (Tailand, Laos, Myanma) mamlakatlari, shuningdek, Lotin Amerikasining ayrim davlatlari, asosan Kolumbiya alohida o'rin tutadi.

7.3 Jahon chorvachiligi geografiyasi

Jahondagi sut yo'nalishidagi yirik shoxli qoramolchilik ko'pincha aholi zich joylashgan Yevropa, Shimoliy Amerika rayonlari uchun xosdir. Go'sht-sut yo'nalishidagi qoramolchilik intensiv qishloq xo'jaligiga ega bo'lgan mo''tadil mintaqa rayonlarida, shuningdek, qo'rg'oqchil va mehnat resurslari bilan yomon ta'minlangan rayonlarda tarqalgan. Go'sht chorvachiligi ekstensiv (Argentina, Avstraliyaning katta qismi) va intensiv (AQSH) bo'lishi mumkin. Ammo ayni paytda u holatda ham, bu holatda ham yuqori darajada tovar xususiyatiga ega bo'linadi.

Cho'chqachilik bilan turli tabiiy sharoitlardagi intensiv va ekstensiv qishloq xo'jaligiga ega bo'lgan mamlakatlar shug'ullanadi. Odatda, bu tarmoq aholi zich joylashgan

kartoshka, lavlagi yetishtiriladigan rayonlarda keng rivojlanadi. Qo'ychilik keng yaylov maydonlariga ega bo'lgan mamlakat va rayonlarda ustunlik qiladi. Ayni paytda mayin junli qo'ychilik quruq iqlimli rayonlarda ko'proq tarqalgan bo'lib, dasht hamda dala cho'l yaylovlari sharoitida olib boriladi. Sernam va yumshoq iqlimli hududlarda yarim mayin junli, go'sht-jun yo'nalishidagi qo'ychilik rivojlanadi.

16-jadval

Dunyo va uning alohida mintaqalarida chorva mollari soni (mln. bosh hisobida)

Qoramol turi	Jahondagi soni	Shu jumladan						
		MDH	Evropa	Xorijiy Osiyo	Afrika	Shimoliy Amerika	Lotin Amerikasi	Avstraliya va Okeaniya
Yirik shoxli qoramol	1300	120	150	400	190	115	290	35
Cho`chqalar	850	80	200	400	10	65	90	5
Qo`ylar	1200	140	140	380	240	10	125	105
Yilqilar	65	6	5	17	4	14	18	1

M.B.Volf va YU.D.Dmitriyevskiylar **to'rt turdagi chorvachilik rayonlarini** ajratganlar. Ular intensivlik darajasiga ko'ra, quyidagicha taqsimlanishi mumkin:

Birinchi turga aholisi juda zich joylashgan va qoramol yuqori darajada zich bo'lgan (100 ga qishloq xo'jaligi maydoniga 100-200 bosh va undan ko'p) rayonlar kiradi. Bu turga mansub rayonlarda mazkur tarmoq yuqori mahsudorlikka ega bo'lib, intensiv sut chorvachiligi, cho'chqachilik, parrandachilikka ixtisoslashgandir. Yevropada birinchi turdagi rayon Daniya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Shveysariya kabi mamlakatlarni, Shimoliy Amerikada – AQSHning shimoli-sharqini kamrab oladi. Bu mamlakatlardagi chorvachilik yalpi qishloq xo'jalik tovar mahsulotining 60-80%ini yetkazib beradi.

Ikkinchi turga intensivlik hamda qishloq xo'jalik mahsuldorligi o'rtacha darajada bo'lgan rayonlar mansubdir. Unga chorvaning o'rtacha zichligi ham (30-60 bosh) taalluqli. Bu turga misol tariqasida Janubiy va Sharqiy Yevropa, AQSHning janubiy va markaziy shtatlari, Lotin Amerikasining ayrim rayonlari kiradi.

Uchinchi turga aholi zichligi hamda chorva boshi zichligi (5-10 bosh) past bo'lgan, kam intensivlashgan chorvachilik tarmoqlari va yo'nalishlari, keng tabiiy yaylovlarda qoramollar ekstensiv holatda saqlanuvchi va mahsuldorligi nisbatan past bo'lgan rayonlar kiradi. Bunday rayonlarga misol tariqasida Avstraliyaning katta qismini, Argentinadagi Patagoniyani, Angola, G'arbiy va Shimoliy Afrikaning ayrim mamlakatlarini (Mavritaniya, Chad, Aljir) keltirish mumkin. Odatda, mazkur mamlakatlarda chorvachilik dehqonchilikdan ustun bo'lib, xo'jalikning asosiy tarmog'i hisoblanadi.

To'rtinchi turga aholisi juda zich joylashgan, chorva mollari zich (60-200 bosh), ammo mahsuldorligi past va kam intensiv tarmoqqa ega hamda muayyan yo'nalishlar ustun bo'lgan rayonlar kiradi. Chorvachilik yordamchi ahamiyat kasb etuvchi bunday rayonlar oz miqdorda tovar mahsuloti yetkazib beradi. Bunday rayonlarga misol tariqasida Hindiston, Shri-Lanka, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarini ko'rsatish mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kam mahsuldor chorvachilik markazlari aksariyat hollarda iste'mol va tovar dehqonchiligidan hududiy jihatdan ajralgan holda olib boriladi.
17-jadval

Dunyo mamlakatlarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish
(bir yilda o'rtacha)

Butun jahon, alohida mamlakatlar	Go'sht etishtirish				
	Jami, mln.t.	Aholi jon boshiga, kg	Butun jahon, alohida mamlakatlar	Jami, mln.t.	Aholi jon boshiga, kg
Butun jahon	170	35	Buyuk Britaniya	3,8	65
AQSH	31	125	Yaponiya	3,8	30
Xitoy	28	25	Italiya	3,7	65
Rossiya	10	60	Avstraliya	3,6	180
GFR	8	110	Meksika	3,5	30
Frantsiya	6	110	Ispaniya	3,4	70
Braziliya	6	45	Polsha	3,1	80
Argentina	4	125	Niderlandiya	3,0	200
Ukraina	4	75			

18-jadval

Dunyo mamlakatlarida sut etishtirish (bir yilda o`rtacha)

Butun dunyo, alohida davlatlar	Jami mln.t.	Aholi jon boshiga, kg	Butun dunyo, alohida davlatlar	Jami, mln.t.	Aholi jon boshiga, kg
Butun DUNYo	550	110	Buyuk Britaniya	15	265
AQSH	67	270	Niderlandiya	13	900
Hindiston	55	65	Braziliya	13	90
Rossiya	52	350	Italiya	11	195
GFR	32	450	Kanada	8	315
Frantsiya	28	490	Yangi Zelandiya	8	2400
Ukraina	24	460	Yaponiya	8	65
Polsha	16	430	Belarus	7	700
Argentina	6	200	Meksika		70
Avstraliya	6	370			

Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi davlatlarida chorvachilik mahsuldorligi pastligi tufayli jahonda yetishtirilgan go'shtning 25, sutning 14 foizi tayyorlanadi.

Aholi jon boshiga chorvachilik mahsulotlari iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yuqori. Bu borada ayniqsa, chorvachilik intensiv rivojlangan Yangi Zelandiya, Niderlandiyaga o'xshash mamlakatlar ustunlik qiladi.

Go'sht ishlab chiqarish tizimida mol va buzoq go'shti yetishtirish salmog'i 32%, cho'chqa go'shti yetishtirish-39, parranda go'shti-20%, ot va qo'y go'shti salmog'i 9%ga to'g'ri keladi.

Jahon bo'yicha uning soni 10 mlrddan oshib ketdi. ayniqsa, qiziqarli har bir bosh sigirdan sut sog'ib olish, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda G'arbda 3-5 ming kg, biroq Daniya, Niderlandiya 5,8 ming kg, Shvesiyada 6ming kg, AQSHda 6,5 ming kg.

Oxirgi yillarda broyler xo'jaligining Shimoliy Amerika, Yevropada intensiv rivojlanishi parranda go'shti yetishtirish ko'payishiga olib keldi.

Halqaro chorvachilik mahsulotlari bilan savdo qilishda yetakchi o'rinni iqtisodiy rivojlangan davlatlar egallab turibdi. Bular go'sht mahsulotlari va jun eksport hamda importida yetakchi. Faqatgina tirik mollar savdosida rivojlanayotgan davlatlar yuqori o'rinni egallaydi.

19-jadval

Chorvachilik mahsulotlari va tirik mol eksport qiluvchi asosiy davlatlar

Chorvachilik mahsulotlari va tirik mol	Eksport qiluvchi yetakchi davlatlar
Mol va buzoq	Avstraliya, GFR, Frantsiya, Yangi Zelandiya, Irlandiya, Niderlandiya, AQSH, Vengriya
Cho`chqa, qo`y va qo`zi, parranda go`shti, jun	Niderlandiya, Belgiya, Daniya, Kanada, Vengriya, Yangi Zelandiya, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, AQSH, Braziliya, Avstraliya, Argentina, Urugvay, YuAR
Yirik shoxli qoramol, cho`chqalar, qo`y va echkilar	Braziliya, Argentina, Meksika, Efiopiya, Xitoy, Niderlandiya, Kanada, Avstraliya, Turkiya, Somali, Efiopiya

7.4. Dunyoda baliq ovlash va baliqchilik

Bu tarmoqning ahamiyati shu bilan belgilanadiki, baliq va uning mahsulotlari qimmatli oqsil manbai, to'laqonli

ovqatlanishning eng muhim elementidir. Shu sababdan dunyoda ovlanadigan baliqning 75-80 foizi odamlar ovkatlanishi uchun sarflanadi, qolgan 20-25 foizi esa qayta ishlanib, baliq uni, qo'shimcha ozuqaga, baliq moyiga aylantiriladi va chorva ozuqasi yoki farmasevtika sanoatida ishlatiladi. Hozir yillik ovlanadigan baliq 100 mln t ga yetadi. Dunyoda aholi jon boshiga 17-18 kg baliq to'g'ri keladi. Yaponiyada bu ko'rsatkich 60-70 kg, Rossiya va AQSH da 17-18 kg, Nepalda 0,2 kg.

Dengizdan ovlangan mahsulotning 87-88 foizi baliq; 7-8 foizi mollyuska, 4-5 foizi raksimonlar, 0,5 foizi boshqa turlar. Ovlangan baliq strukturasida so'nggi o'n yilliklarda ilgari ko'p ovlangan seld va treska, angous baliqlari salmog'i pasaydi, kamroq, qimmatga ega bo'lgan moyva, mintay, xek kabilarning salmog'i oshdi. Bunday hol qimmatli baliqlarni ko'p ovlash oqibatida sodir bo'ldi. Ularga bog'liq holda dsngiz baliqlarini ovlash geografiyasida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi.

Chunonchi 1) kontinental shelyef va Dunyo okeani chuqur suvli rayonlarida baliq ovlash nisbatlari o'zgardi. So'nggi rayonlarning salmog'i oshdi, lekin ular unchalik katta salmoqqa ega emas (10%). Kontinental shslfda 90% baliq va dengiz mahsulotlari ovlanadi;

2) doimiy ravishda Dunyo okeanining uchta asosiy zonasi - shimoliy (30° sh.k. dan shimolda), tropik va janubiy mintaqalar (30° j.k. dan janubda) o'rtasidagi nisbat o'zgarib turibdi. 1948 yilda ularning birinchisi 85%, ikkinchisi - 13%, uchinchisi - 2% ovlangan baliqni bergan bo'lsa, hozircha ular o'rtasidagi nisbat 52:30:18 ga teng. Demak, baliq ovlash shimol-janub yo'nalishida o'zgargan;

3) okeanlar o'rtasidagi nisbat ham o'zgarishga uchramoqda. 1950 yilda Atlantika okeani hissasiga 54%, Tinch

okeaniga 40%, Xind okeaniga 6% ovlangan baliq - dengiz mahsulotlari to'g'ri kelgan bo'lsa, 1990 yilda bu ko'rsatkichlar 27:67:6 nisbatda bo'lgan. Atlantika okeani ko'p asrlar mobaynida dunyo dengiz baliqchiligining asosiy akvatoriyasi bo'lgan edi. U hozir ikkinchi o'ringa tushib, Tinch okeani biripchi o'ringa ko'tarildi;

4) okeanlarning asosiy baliq ovlanadigan rayonlari o'rtasidagi nisbat ham o'zgarishga uchramoqda. Atlantika okeanida ikkita ana shunday rayon - Yevropa qirg'oqdaridagi Shimoli-Sharqiy va Amerika qirg'oqdaridagi Shimoli-G'arbiy rayon qadimdan mashxur. Birinchisi o'tgan asrning 50-yillarida ovlanadigan baliqning yarmini berar edi. Lekin keyinchalik ko'p ovlash, neft sanoati «raqobati» tufayli ovlash keskin qisqardi. Masalan, ilgari baliqqa boy shimoliy dengiz endilikda dunyoning atigi 2,5% balig'ini beradi.

Shimoli-G'arbda (Kanada va AQSH) ham baliq ovlash sezilarli kamaydi. Tinch okeanida uchta asosiy ovlash rayoni bor: a) Osiyo qirg'oqdaridagi Shimoli-G'arbiy rayon. Bu yerda Rossiya, Yaponiya, Xitoy, Koreya Respublikasi baliq ovlaydi. U baliq va boshqa dengiz mahsulotlarini ovlash bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda; b) Shimoliy-Amerika qirg'oqlaridagi Shimoli-Sharqiy rayon. U ikkinchi o'rinda; v) Peru va Chili qirg'oqlaridagi Tinch okeanining Janubi-Sharqiy qismi rayoni. Bu yerda asosan Peru anchous balig'i ovlanadi. Bu beshta dunyoning asosiy baliq ovlash rayonlarida ko'p ovlash ta'sirida baliq zahiralari kamayib borayotganligi sababli ularni tiklash bo'yicha katta tadbirlar o'tkazilmoqda (AQSH, Yaponiya, Rossiya, Norvegiya v.b.);

5) So'nggi yillarda ovlashda «birinchi o'nlikka» kiruvchi mamlakatlar tarkibida o'zgarishlar yuz berdi. O'tgan asrning 50-yillarda «o'nlikka» Yaponiya, AQSH, SSSR, Xitoy, Norvegiya,

Buyuk Britaniya., Hindiston, Kanada, GFR kirgan bo'lsa, hozirgi paytda uning tarkibiga «yangi» a'zolar - Chili, Peru, Koreya Respublikasi, Tailand qo'shildi, undan Buyuk Britaniya, Kanada, GFR, Daniya chiqib ketdi. «Birinchi o'nlik»dan keyingi o'rinlarda rivojlanayotgan mamlakatlar - Filippin, Meksika, Braziliya turadi. Xitoyda ham baliq ovlash tez rivojlanmoqda. Shu bilan bir qatorda an'anaviy baliq ovlovchi mamlakatlar - Norvegiya, Daniya, Islandiya hozirga qadar Yevropaning ko'p mamlakatlariga baliq va baliq mahsulotlari yetkazib beruvchi asosiy mamlakat bo'lib qolayotir.

Dunyo va «birinchi o'nlik» mamlakatlar ko'rsatkichlari 20-jadvalda berilgan.

20-jadval

Dunyo va ayrim mamlakatlarda baliq ovlash, va dengiz mahsulotlarini
(90-yillar boshida)

Dunyo va «birinchi o'nlik» mamlakatlari	Ovlash, mln t.	Dunyo va «birinchi o'nlik» mamlakatlari	Ovlash, mln t.
Dunyo bo`yicha	100,0	Rossiya	4,2
Yaponiya	11,9	Hindiston	3,0
Xitoy	11,3	Koreya Respublikasi	2,5
AQSH	6,0	Norvegiya	2,5
Chili	5,5	Tailand	2,5
Peru	5,5		2,0

Keyingi yillarda suv organizmlarini tabiiy qayta tiklash jarayonlarini tartibga solishda ko'zda to'tilgan tadbirlar tizimi - akva ko'ltura (lotincha akva -suv, cultura - yetishtirish) baliq ovlash va baliqchilikda tobora katta rol uynamoqda. U suv havzalarida baliq, mallyuskalar, qisqichbakasimonlar va suv o'tlari yetishtirish, baliqlarni akklimatizasiyalash, suvosti

«fermalarini» tashkil etish va boshqa tadbirlar o'tkazishni o'z ichiga oladi.

Dengiz muhitida tirik organizmlarni ko'paytirish marikultura deb ataladi. O'tgan asrning 90-yillari boshida dunyoda akvakultura mahsuloti 15 mln. t. ga yetdi. Uning 85%ini Osiyo mamlakatlari - Xitoy (5,5 mln t), Yaponiya, Koreya Respublikasi, Hindiston, Filippin, Indoneziya, Vyetnam bergan. Bu yerda chuchuk suvli havzalarda asosan karp balig'i, dengiz «fermalari» va «plantasiyalarida» esa baliq, mollyuska, krevetka, kisqichbaka, midiy, suv o'tlari yetishtiriladi. Akva-kultura Yevropa va Shimoliy-Amerikada kamroq rivojlangan. Dengiz «fermalari» Italiya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Niderlandiya, Daniya, Buyuk Britaniya, AKShda bor. Dunyo marikultura mahsuloti 9 mln. tonnaga yetib qoldi. Bashoratlarga ko'ra, u ancha ko'payadi, akvakulturaning umumiy mahsuloti hajmi 20 mln tonnadan oshib ketdi.

Kit ovlashning rivojlanish tarixi Dunyo okeani biologik resurslariga nisbatan ehtiyotkorlik bilan yondashish zarurligini isbotlaydi.

Kit ovlash Norvegiyada 1868 yilda vujudga keldi, Shimoliy Atlantikada boshlangan. Bu rayon XX asrning boshlarigacha yagona kit ovlash rayoni bo'lgan, so'ngra u Antarktida atrofidagi suvlariga ko'chgan va tez orada Antarktida atrofi ko'p mamlakatlar kit ovlash flotiliyasining asosiy rayoniga aylandi. Keyinchalik Tinch okeanning shimoliy qismida, Janubiy Amerika, Afrika, Avstraliya kirg'og'larida kit ovlana boshlangan. Oqibatda XX asrning 60-yilida dunyo kit ovlash kasb-kori doimiy ravishda rivojlanib, o'sib bordi. Masalan, kit ovlash 1920 yilda 11 ming bosh, 1939 yilda - 46 ming, 1962 yilda rekord daraja - 66 ming boshga yetgan. Lekin keyinchalik kit ovlash sur'atlari tez kamaydi, 1975 yilga kelib 27 ming boshni tashkil

etdi. 1903 yildan 70-yillargacha faqat Dunyo okeanining janubiy qismida 1,5 mln bosh kit ovlangan. Oqibatda ba'zi kit turlarining 90 foizi, eng yirik kitlar esa deyarli butunlay qirib yuborildi. Shy sababdan kit ovlashni tartibga soluvchi xalqaro tashkilot - Xalqaro Kit Ovlash Komissiyasi (XKOK) tuzildi (1946 y). U dastlab Antarktidada kat'iy kit ovlash kvotasini belgiladi, so'ngra bu tadbir Tinch va Atlantika okeanida ham qo'llanildi. 1982 yilda XKOK qaroriga asosan 10 yillik maratoriy e'lon qilindi, kit ovlashga lisenziya berish qat'iy tartibga solindi. 80-yillarda kitlar faqat ilmiy maqsadlar uchun ovlandi (taxminan yiliga 1,5 ming bosh). Hozirgi paytda kitlar soni ko'paymoqda, lekin bu jarayon sekin bormoqda va kitlar soni yiliga bir necha foizgagina o'smoqda. 1993 yilda XKOK maratoriyni davom ettirish to'g'risida qaror qabul qildi. 1994 yilda Dunyo okeanining janubiy qismida uzoq muddatli kitlar qo'riqxonasi (40° j.k. dan janubda) tashkil etildi.

Qisqacha xulosalar

Yer shari iqtisodiy faol aholisining 60%dan ortig'i qishloq xo'jaligida band. Hozirgi paytda Osiyo va Afrikaning ko'pgina davlatlarida aholining 70%dan ortig'i qishloq xo'jaligida mashg'ul. Rivojlangan davlatlarda esa qishloq xo'jaligida band aholining salmog'i kamayib bormoqda. Masalan, AQSHda qishloq xo'jaligida 5% aholi band.

Qishloq xo'jaligini rivojlanish va joylanishi tabiiy omillarga bog'liq. Dunyo yer fondining asosiy qismi Afrika, Osiyo va Janubiy Amerikada joylashgan. Jahon qishloq xo'jaligida don va go'sht yetishtirish asosiy o'rinni egallaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Jahon qishloq xo'jaligining rivojlanishi va joylashishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
2. Jahon yer fondi qanday qismlardan iborat?
3. Jahon qishloq xo'jaligi muhim tarmoqlarining joylashish xususiyatlarini ta'riflang?
4. Donli ekinlar joylashishini tushuntirib bering.
5. Texnika ekinlarining joylashish xususiyatlarini nimalardan aborat?
6. Dunyo chorrvachilik tarmoqlarining joylashishini tushuntirib bering?

VIII mavzu. DUNYO TRANSPORTI GEOGRAFIYASI

8.1. Quruqlik transporti

Jahon transporti quruqlik, suv va havo transportiga bo'linadi.

Quruqlik transportiga temir, avtomobil va ot-ulov, quvur transporti kiradi.

Temir yo'l transporti. Yuk va yo'lovchilarni paravoz, teplovoz va elektravozlar bilan temir yo'lda tashuvchi transport turi.

Birinchi temir yo'l transporti (paravoz) Buyuk Britaniyada 1825 yilda qurilgan. Rossiyada paravozli temir yo'l transporti 1837-38 yillarda (Peterburg-Pavlosk) ishga tushurildi. O'zbekiston temir yo'l qurilishi 1890 yildan boshlandi, 1899 yili Samarqand-Andijon, 1906 yilda Orenburg-Toshkent temir yo'li qurib bitkazildi.

Temir yo'l transportining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: teplovozlar, elektravozlar va vagonlar deposi; vokzallar, temir yo'llar.

Temir yo'l transporti iqlimiy sharoitlar va yil fasllari qanday kelishiga qaramay hamma vaqt faoliyat ko'rsataveradi. Uning tezligi katta, yuk tashish tannarxi past.

Ilmiy texnik taraqqiyot temir yo'l transportiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Masalan, Fransiyada poyezdlar tezligi bo'yicha rekordlar o'rnatilgan. Bu yerda poyezd tezligini 1955 yilda 331 **km/soatga**, 1991 yilda 380 **km/soatga**, 80-yillarning oxirida esa 515 **km/soatga** yetkazilgan. Oddiy tezyurar poyezdlarning tezligi soatiga 200-300 **km/soat**.

Parij-Bardo temir yo'lida qatnaydigan eng tezyurar poyezdning tezligi 350 **km/soat**. Jahonda temir yo'llarning

umumiy uzunligi taxminan 1,2 mln. km, ammo uning 50%i oltita katta davlatga (AQSH, Rossiya, Kanada, Hindiston, Xitoy, Avstraliya) to'g'ri keladi. AQSH temir yo'llarning umumiy uzunligi bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turadi.

Temir yo'llarning zichligi bo'yicha G'arbiy Yevropa davlatlari va AQSH yetakchi. Temir yo'llarni zichligi deganda 100 km2 maydonga to'g'ri keluvchi temir yo'l uzunligi tushuniladi. Bu ko'rsatkich G'arbiy Yevropada 10 km2ga teng. Rivojlangan davlatlar temir yo'llarining deyarli hammasi elektrlashtirilgan va ular ikki yo'lli hisoblanadi.

Avtomobil transporti.

Avtomobil (grekcha autos-o'zi, lotincha mobilis-harakatlanadigan, yuradigan) transporti yuk va yo'lovchi tashishda muhim ahamiyatga ega. Avtomobil transporti quyidagilarni o'z ichiga oladi: harakatdagi avtomobillar, avtomobil yo'llari, yoqilg'i bilan ta'minlash korxonalari, ta'mirlash korxonalari, avtovokzallar va h.k.lar.

Hozirgi paytda avtomobillarning turli xillari moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida va turmushda ishlatiladi. Moddiy ishlab chiqarishda og'ir yuk ko'taradigan avtomobillar, avtopoyezdlar, yo'lovchi tashishda esa avtobuslar, yengil mashinalar ishlatilmoqda. Bundan tashqari maxsus avtomobil transporti ham bor (tibbiyot, oziq-ovqat, harbiy, ilmiy va boshqa maqsadlarda ishlatiladigan). Yo'llar avtomobil transportining asosiy tarkibiy qismidir. Yo'llar qattiq qoplamli va gruntli bo'ladi. Ikki tomonlama avtomobil harakati uchun yaroqli bo'lgan keng yo'lga **avtostrada** deb ataladi. Bu yo'llarning muayyan bir joylarda yon ko'chalardan qo'shiladigan kirish va chiqish joylari bo'ladi. Ko'ndalang o'tish joylari **viaduklarda** yoki tunellarda bo'ladi va avtostrada bilan kesishmaydi. Juda katta masofaga cho'zilgan avtostrada **trakt**

deb ataladi. Masalan, O'zbekiston trakti Toshkentni Termiz bilan bog'laydi. Qattiq qoplamli yo'llarni **shosse** deb ataladi, tor texnik ma'noda **shosse tosh yo'lni anglatadi**. Qattiq qoplamli bo'lmagan, avtomobil va ot-arava yurishi uchun yaroqli bo'lgan yo'llar **grunt yo'llari** deb ataladi. Iqlim sharoitiga qarab ular mavsumiy bo'lishi mumkin. Ular tabiiy (qishloq, o'rmon yo'llari, karvon yo'llari va tog' yo'llari) va yaxshilangan yo'llarga bo'linadi.

Avtomobil transporti yuk oborotining deyarli yarmi sanoat korxonalari va qurilish tashkilotlari hissasiga to'g'ri keladi. Avtomobil transportining yuk oboroti bo'yicha AQSH birinchi, Rossiya ikkinchi o'rinda turadi.

Avtomobil transportining afzalliklari quyidagilardan iborat:

a) sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalarini magistral transport yo'llari va vositalari bilan bog'laydi;

b) shaharlardagi va shahar atrofidagi yuklarning asosiy qismini tashiydi;

v) qisqa (100 km) va uzoq masofalarga yuk tashishda qulay;

g) yuklarni yo'llarda tushirib-ortmay, bevosita iste'molchiga yetkazib bera oladi.

8.2. Suv transporti

Suv transporti dengiz va daryo transportidan iborat.

Dengiz transporti - dunyo transport tizimining juda muhim tarkibiy qismi bo'lib, usiz dunyo xo'jaligi normal rivojlana olmagan bo'lur edi. Uning hissasiga dunyo yuk oborotining 62 foizi to'g'ri keladi va u xalqaro savdoning $\frac{4}{5}$ qismiga xizmat ko'rsatadi. Ayni dengiz transportining

rivojlanishi tufayli okeanlar ilgarigidek kontinentlar va qo'shni mamlakatlarni ajratmaydi, balki birlashtiradi. Dengiz transportining umumiy uzunligi millionlab km ni tashkpl etadi. Dengiz kemalari asosan ommaviy yuklarni - quyib tashiladigan, cyyuq (neft va neft mahsulotlari), uyib (qoplamasdan) va to'kib ortiladigan (ko'mir, ruda, don, fosforit v.b.) yuklarni tashiydi. Odatda, bu yuklar 8-10 ming km mosofaga tashiladi. Dengiz transportida «konteyner inqilobi» asosiy yuklar - tayyor buyumlar, yarimfabrikat, oziq-ovqatlarni tashishning tez ko'payishiga olib keldi.

O'z navbatida dunyo xo'jaligi dengiz transporti rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Buni quyidagi ma'lumotlar tasdiqlaydi: dunyo dengiz kema transportida yuk tashish hajmi 1960 yilda - 1110 mln. t, 1970 yilda - 2600 mi. t, 1980 yilda - 3600 mln. t, 1985 yilda 3330 mln. t, 1990 yilda - 3700 mln. t, 90-yillar boshida esa 3,8 mlrd. t. atrofida edi. Shu bilan bir qatorda yuk tashish strukturasida ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. 1950-1970 yillarda, ya'ni energetika bo'hronidan oldingi davrda quyib tashiladigan (suyuq) yuklar salmog'i 41% dan 55%ga ko'paydi. Bo'hrondan keyin uning salmog'i pasayib, quruq va asosiy yuklar salmog'i oshdi. 90-yillarning boshida dengiz transporti yuk oboroti strukturasi quyidagicha bo'lgan: quyib tashiladigan (suyuq) yuklar - 37%, asosiy yuklar - 25%, quruq yuklar - 24%, boshqa yuklar - 14%. Bu yuk oborotida quruq yuklar salmog'ining oshishidan dalolat beradi. Dengiz transporti yuk oborotida bir necha o'n yil mobaynida Yaponiya dunyoda birinchi o'rinni egallab kelmoqda, undan keyingi o'rinlarni G'arbiy Yevropa, Xitoy, Rossiya egallagan.

Geografik nuqtai nazardan dunyo dengiz trassasi quruqlik transportidan tubdan farq qilib, unda asosiy o'rinni yo'l turi va uzunligi emas, balki dengiz kemalari borib va chiqib keta

oladigan portlar, dengiz kanallari, bo'g'izlar turlari, tarmoqlarining mavjudligi, yirik daryolar quyi oqimlarining (estuariy) qulayligi kabi shart-sharoitlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bular dengiz yo'li trassasi geografiyasining asosiy xususiyatlarini belgilab beradi. Shy sababdan geografik mehnat taqsimoti ta'sirida ko'pchilik yirik dengiz portlari uzoq yillar mobaynida o'z mavqeini saqlab kelmoqdalar.

Hozirgi dengiz kemachiligada yuk tashishni tashkil etishning tramp va muntazam (liniyali) shakllari mavjud. Tramp (inglizcha tramp - daydi) kemachiligida kemalar yuk borligiga qarab turli yunalishlarda ishlaydi va yuk tashish bahosi fraxt stavkasi ko'rinishida bo'ladi. Muntazam (liniyali) kemachilikda esa kemalar ma'lum doimiy liniyalarda jadval bo'yicha portlarga boradi va ketadi, yuklarni ortadi-tushiradi. Bunda yuk tashish bahosi tarif bilan belgilanadi. Tramp kemalarida asosan ommaviy, reysli (muntazam) kemalarda esa asosiy yuklar tashiladi. Shu sababdan tramp kemasozligida yuk tashish hajmi muntazam yuk tashish shaklidagidan ancha ko'pdir.

Dunyoning muntazam tramp kemachiligida besh asr mobaynida (Buyuk geografik kashfiyotlar boshlanishidan buyon) birinchi o'rinni ($\frac{2}{3}$) Atlantika okeani egallab kelmoqda. Buning asosiy sabablari ko'plab tabiiy, tarixiy, iqtisodiy omillarga bog'liqdir. Bular qatoriga quyidagilar kiradi:

1) dengiz qirg'oqlari morfologiyasi, ularning parchalanganligi (egri-bugri, king'ir-qiyshikligi) va kemachilik uchun g'oyat qulayligi;
2) dengiz bo'yi rayonlarining ko'pchiligida yuqori aholi zichligi va urbanizasiya darajasining yuqoriligi va ularning esa bu yerdagi o'nlab mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqoriligi bilan uzviy bog'liqligi;

3) Atlantika okeani suvlaridan eski va yangi dunyoni bog'lab turuvchi eng qisqa yo'lning o'tganligi va buyuk okean qirg'oqlarida dunyoning ko'pchilik portlari paydo bo'lganligi.

Atlantika okeanida dengiz kemachiligining bir nechta yunalishlari shakl-langan:

1) Shimoliy Atlantika asosiy yo'nalish bo'lib, Yevropani Shimoliy Amerika bilan bog'laydi va 40° va 50° sh.k. o'rtasidan o'tadi. Bu yerda muntazam kemachilik ustun turadi. Yaqin o'tmishlargacha u dunyoda eng katta dengiz yo'lovchilari yo'nalishi bo'lgan. Mamlakatlar yuz yil mobaynida kemalar tezligini oshirish va yo'lga sarflanadigan vaqtni qisqartirish uchun tinmay kurashdilar. XIX asrning birinchi yarmida yelkanli kemalar Atlantikani g'arbiy yo'nalishida eng kamida 30 sutkada va sharqiy yo'nalishda esa 20 sutkada kesib o'tganlar. Paraxodlar asta-sekin suzish vaqtini 15, 10, 5 sutkagacha, layner-rekordchilar esa 3,5-4 sutkagacha qisqartirdilar.

Ammo kemalar havo transporti bilan raqobatda yutib chiqolmadilar. 1958 yilda dengiz va havo transporti birinchi marta yo'lovchilar tashishda tenglashdi. Lekin hozirgi paytda Yevropa bilan Shimoliy Amerika o'rtasidagi yo'lovchilar oqimiga havo transporti deyarli to'lik xizmat ko'rsatmoqda;

2) Janubiy Atlantika (Yevropa-Janubiy Amerika) yunalishi;

3) G'arbiy-Atlantika (Afrika-Yevropa) yunalishi. Shular bilan bir qatorda Atlantika orqali Osiyodan Yevropaga va AQSHga neft va boshqa ommaviy yuklar tashiladigan yuk oqimlari o'tadi. Lekin keyingi un yilliklarda dunyo kemachiligida Atlantika okeanining roli pasaydi.

Tinch okeani dengiz yuklarini tashish bo'yicha ikkinchi o'rinni ($\frac{1}{4}$) egallaydi, lekin Atlantika okeanidan ko'p darajada orqada turadi. Ammo bu okeanning potensiali juda katta va

uning qirg'oqlariga 2,5 mlrd.dan ortiq aholi yashaydigan 50 mamlakat chiqadi. Bu yerda dunyoning eng yirik portlari bor va ko'plab ommaviy, so'nggi yillarda esa asosiy yuklar oqimlari shakllanmoqda. Ularning eng muhimlari Osiyo va Amerika qirg'oqlari bo'ylab o'tadi va yangi transokean oqimlari ham bor. Osiyo-Tinch okeani regioni mamlakatlarining, birinchi navbatda, YAIM larning tez rivojlanayotganligi, ularning jahon savdosi bilan integrasiyasi muhim yuk oqimlarining Atlantikadan sekin-asta Tinch okeaniga o'tishiga olib kelmoqda.

Hind okeani dengiz yuklarini tashish hajmi bo'yicha uchinchi o'rinni ($\frac{1}{10}$dan ko'proq) egallaydi. Uning qirg'oqlariga aholisi 1 mlrd. dan ko'p bo'lgan 30 mamlakat chiqadi. Bu okeanda qudratli yuk oqimlari Fors qo'ltig'ida shakllanadi.

Dengiz yuklari **dunyo dengiz floti** orqali tashiladi. Uning tarkibida 80ming kema, shu jumladan, Yaponiyada 10 ming, MDH da - 7,4 ming, AQSH da - 6,4 ming kema bor. Dunyo dengiz flotining umumiy hajmi (tonnaji) 420 mln. t. dan ortiqroqdir. 70-yillarning o'rtalarigacha uning katta qismi tankerga to'g'ri kelgan, hozir esa ularning salmog'i pasaydi. 90-yillarning boshida umumiy tonnaji 30% tankerlarga (neft tashuvchi), 27% balkerga (ixtisoslashgan ruda, ko'mir, yog'och, banan, avtomobil tashuvchi kemalar), 12%i asosiy yuklarni, 7%i konteyner tashuvchi kemalarga to'g'ri keladi. Dunyo dengiz floti tarkibida aralash yuk tashuvchi kombinasiyalashgan kemalar (tanker-ruda tashuvchi, tanker-don tashuvchi, don-avtomobil tashuvchi v.b.), - siqilgan tabiiy gazni - 161° S haroratda tashiydigan tanker-metan tashuvchi kemalar bor.

21-jadval

Asosiy baypoqlap bo'yicha dunyo dengiz floti tonnajinipg taqsimlanishi

(90-yillar boshida)

Mamlakat bayrog'i yoki hududlar	Yalpi sig'imi, mln.br.reg.t.	Dedveyt, mln.t.	Mamlakat bayrog'i yoki	Yalpi sig'imi, mln.br.reg.t.	Dedveyt, mln.t.
Liberiya	54,7	99,2	Ruminiya	4,0	6,1
Panama	39,3	62,2	Frantsiya	3,8	5,6
Yaponiya	27,1	40,8	Yugoslaviya	3,8	6,0
Norvegiya	23,4	41,2	Ispaniya	3,8	6,2
AQSH	21,3	31,2	Niderlandiya	3,8	4,7
Gretsiya	20,5	37,2	Turkiya	3,7	6,3
Kipr	18,3	33,0	Polsha	3,4	4,4
Rossiya	14,9		Shvetsiya	2,8	2,9
Xitoy	13,9	20,8	Kanada	2,7	3,0
Bogam orollari	13,6	22,4	Avstraliya	2,5	3,7
Filippin	8,5	14,2	Indoneziya	2,2	2,9
Italiya	8,0	11,8	Vanautu	2,2	3,3
Singapur	7,9	13,0	Gibraltar	2,0	3,3
Koreya	7,8	12,5	Belgiya	1,9	3,1
Ukraina	6,9		SentVinsent	1,9	3,0
Buyuk Britaniya	6,7	8,6	Argentina	1,9	2,9
Gonkong	6,6	11,2	Quvayt	1,9	2,9
Hindiston	4,3	10,5	Malayziya	1,7	2,5
Tayvan	6,5	8,7	Saudiya	1,7	2,7
Braziliya	5,8	10,0	Bolgariya	1,4	2,0
GFR	6,0	7,0	Meksika	1,3	1,8
Daniya	5,7	7,2	Misr	1,3	1,8
Eron	5,2	8,7	Finlandiya	1,1	1,0
Malta	4,7	7,8	Irog	1,0	1,8
Bermud orollar	4,5	7,0			

E s l a t. m a : I) Yalpi sig'im - kemalarning yuk ko'tarish sig'imi birligi. Yalpi (to'la) sig'imi brutto-registr tonnada o'lchanadi. 1 br. -per. t. q kub fug yoki 2,83 m^3. 2) **Dedveyt -** yuk ko'tarish tonnasi; kema belgilangan kattaliklikda suvga tushirilganda sof yuk va zahiradagi yukni ko'tarish og'irligi. Ular tonna ded-veytda o'lchanadi.

Jadvalda dunyoda dengiz flotiga ega bo'lgan hamma mamlakatlar (ular 49 ta) bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Ularning umumiy dengiz floti sig'imi 1 mln. br. -per. t. dan ortiqroqdir. Bu sohada rivojlanayotgan mamlakatlar dunyo xo'jaligining boshqa tarmoqlariga xos bo'lgan odatdagi «oxirgi» o'rinlarini emas, balki birinchi va ikkinchi o'rinnlarni eslaydi, shuningdek, «birinchi-beshinchi o'nlikda» ham rivojlangan mamlakatlar bilan deyarli bir xil mavqeiga egadir.

Shu bilan bir qatorda rivojlanish jarayoni dinamikasi shundayki, unda rivojlangan mamlakatlarning dengiz flot-tonnaji (ayniqsa, Gresiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, GFR, Fransiya, Daniya, Shvesiya) so'nggi yillarda tez qisqarmoqda, ayni paytda rivojlanayotgan mamlakatlar floti tez rivojlanmoqda. Bunday o'sish Xitoy, Hindiston, Braziliya va boshqa ba'zi Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarida ular iqtisodiyotining rivojlanishini aks ettiradi hamda ularning xalqaro geografik mehnat taqsimoti, dunyo tromp va muntazam kemachiligiga qo'shilib ketayotganligini bildiradi. Lekin ko'p hollarda bu holat rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan «arzon» (yoki «qalbaki») bayroq berish yoki «ochiq ro'yxatga olish (registrasiya)» deb ataladigan jarayon bilan bog'liq.

Dunyoda Liberiya va Panama eng katta flotga ega, ular hissasiga dunyo tonnajining qariyb $\frac{1}{4}$ qismi to'g'ri keladi. Ular birinchi bo'lib «ochiq ro'yxatga olish»ga o'tgan edilar. Liberiyaning hozirgi floti Gresiya, Buyuk Britaniya, Daniya, GFR, Niderlandiya va Shvesiya kabi an'anaviy dengiz davlatlarining birgalikdagi flotiga taxminan tengdir. Keyinchalik Kipr, Bermud, Begam orollari, Malta, eng so'nggi yillarda Vanautu, Sant-Vinsent, Gibraltar ham shu yo'lga o'tdilar. Hozir «arzon bayroq» ostida suzayotgan kemalar soni 10 mingdan oshib ketdi. Lekin amalda ularning ko'pchiligi AQSH, Gresiya, Buyuk Britaniya, GFR, Yaponiya va boshqa Fapb mamlakatlarining kema egalari va kemachilik kompaniyalariga qarashlidir. Masalan, AQSH «arzon bayroq» da suzayotgan dunyo dengiz flotining $\frac{1}{4}$ qismiga egalik qiladi (ayniqsa, Liberiyada). G'arbdan rivojlanayotgan mamlakatlarga dengiz floti tonnajining bunday «qochishi» sabablari «ochiq ro'yxatga olish» mamlakatlarida mehnat qonunchiligi arzon ishchi kuchidan foydalanishga va

dengizchilar ish haqi va kemalar xavfsizligi xarajatlarini ancha tejashga, yuqori soliq to'lashdan qochishga imkon beradi.

Dunyoda 3 mingga yaqin port bor, yillik yuk oboroti 50 mln. t. dan ortiq gigant-portlarning («dunyo portlari») soni esa 30 taga yaqin. Mahalliy va xalqaro kabotajda ishtirok etadigan katta portlar 2,2 mingga, shulardan 900 tasi Yevropada, 500 dan ko'prog'i Amerikada, 400 ga yaqini Osiyoda, qolganlari boshqa qit'alarda tiplarga bo'linadi.

Universal portlar har xil yuklarni qabul qiladi va jo'natadi. Shu sababdan portning ayrim uchastkalari konteyner, neft, ko'mir, ruda, don, yog'och-taxta va boshqalarni yuklash va yukni tushirishga moslashtirilgan. Bunday portlar ko'p tarmoqli iqtisodiyotga ega bo'lgan rivojlangan mamlakatlarda ko'pchilikni tashkil etadi.

Dunyoning eng yirik universal portlari yuk oboroti 22-jadvalda berilgan.

22-jadval

Dunyoning yuk oboroti 50 mln. t. dan ortiq bo'lgan universal portlari

Port	Mamlakat	Yuk Oboroti	Port	Mamlakat	Yuk oboroti
Rotterdam	Niderlandiya	290	Tokio	Yaponiya	80
Singapur	Singapur	190	Kura	Yaponiya	80
Yangi Orlean	AQSH	175	Gonkong	Sengan(Xitoy)	80
Kobe	Yaponiya	170	Baton Ruj	AQSH	80
Nyu-York	AQSH	155	Gamburg	GFR	65
Tiba	Yaponiya	135	London	Buyuk Britaniya	60
Nagoya	Yaponiya	130	Korpus-Kristi	AQSH	60
Xyuston	AQSH	125	Genuya	Italiya	55
Iokagama	Yaponiya	125	Filadelfiya	AQSH	55
Shanxay	Xitoy	115	Vankuver	Kanada	55
Marsel	Frantsiya	95	Gaosyun	Tayvan	55

Osaka	Yaponiya	95	Tampa	AQSH	50
Kavasaki	Yaponiya	90			
Gavr	Frantsiya	85			
Antverpen	Belgiya	85			

«Birinchi o'nlik» portlar hissasiga dunyodagi barcha portlar yuk oborotining $\frac{1}{2}$ qismi to'g'ri keladi. Ularning 6 tasi Osiyoda, 3 tasi Yevropada 1 tasi Amerikada joylashgan. Bu esa Osiyo Tinch okeani regionining ahamiyati oshib borayotganligini ko'rsatadi. Shunday portlarining 8 tasi Yaponiyada, 7 tasi AQSH da, 2 tasi Fransiyada, 1 tadan boshqa mamlakatlarda joylashgan.

Yuk obopoti 20 dan 50 mln. t. gacha bo'lgan portlar 50 taga yaqin bo'lib, ularning eng ko'pi AQSH (6) va Italiyadan (6), so'ngra Buyuk Britaniya (3), Fransiya (3), Yaponiyada (3) joylashgan. Bu toifadagi portlarga, shuningdek, Yevropada Amsterdam, Gdansk - Gdinya, Bremen, Geteborg, Osiyoda - Bombey, Bangkok, Dalyan, Sindao, Afrikada - Aleksandriya, Amerikadagi Monreal, Buenos-Ayres, Rio-de-Janeyro, Avstraliyada - Sidney, Rossiyada - Novorossiysk (45 mln. t.) kiradi.

Ixtisoslashgan portlar ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xarak-terlidir. Ularning eng yiriklari neft eksportiga bog'liq holda paydo bo'ldi va Fors qo'ltig'ida joylashgan. Bular Ros - Tonnura (Saudiya Arabistoni), Min-El-Axmadi (Quvayt), Xark (Eron) bo'lib, eng yirik supertankerlarni qabul qiladi va ularning yuk oboroti neft qazib olish va eksporti maksimal darajaga yetganda Rotterdamdan ko'proq bo'ladi. Eng yirik neft eksporti portlari qatoriga, shuningdek, Nigeriyadagi Bonni, Meksikadagi Tampiko, Liviyadagi Es-Sider, Indoneziyadagi Dumay, Alyaskadagi (AQSH) Valdiz kiradi. So'nggi yillarda ega bo'lgan, ruda tashuvchi kemalarni qabul

qila oladigan Braziliyaning Tubaran porti dunyoning eng yirik portiga aylandi.

Dunyo dengiz transporti geografiyasiga xalqaro **dengiz kanallari va dengiz bo'g'izlari** katta ta'sir ko'rsatadi. Dunyoning eng yirik kemalari qatnaydigan dengiz kanallari Suvaysh, Panama, Kil (GFR), Buyuk (Xitoy), Qirg'oq (AQSH), Okdengiz - Baltiki va Volga Don (Rossiya). Suvaysh kanali (Misr) 1858-1869 yillarda qurilgan. U shimoldan janubga - Port Saiddan Qizil dengizdagi Suvayshgacha davom etadi. Uzunligi 161 km, chuqurligi 12,5-13 m, eni 120-130 m, shlyuzlarsiz ishlaydi. Kemalar shimoldan va janubdan karvon-karvon bo'lib suzadi va bu karvonlarni bir-birlaridan ajratib turish uchun katta Tuzli ko'ldan foydalaniladi. 1896 yilda kanal kemaning botishi (kemaning suvga botib turish darajasi) jami 8 m gacha bo'lgan dengiz kemalarini o'tkazgan, lekin so'ngra bir necha marta chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan. Bular yuk va kema oborotining doimiy o'sib borishiga mos bo'lgan. XX asrning boshida kanaldan har yili 4 ming kema o'tgan va yuk hajmi 20-30 mln. t. bo'lgan bo'lsa, 60-yillarinnig boshiga kelib kema oboroti 20 mingdan oshgan, yuk hajmi esa 250 mln. t. ga yetgan. Osiyoni bog'lab turadigan asosiy dengiz yo'li 23-jadval ma'lumotlarida aks ettirilgan.

23-jadval

Suvaysh kanalidan foydalangaida yo'lniig qisqarishi

Jo'natuvchi va qabul	Uzunligi dengiz milyasida	Yo'lning qisqarishi

qiluvchi portlar	kanal orqali	Afrikadan aylanib o`tganda	Dengiz Milyasi	%
Odessa — Bombey	4198	11878	7980	65
Genuya — Bombey	4478	10576	6098	53
Marsel — Bombey	4573	9824	5251	54
London — Bombey	6260	10721	4461	41
Gamburg — Bombey	6567	11038	4461	40
Pondon — Kalkutta	7945	11597	3652	33
Liverpul — Iokagama	11113	14436	3323	24

Kanaldan asosan fors qo'ltig'idan Yevropaga neft tashiladi. Shu sababdan kanalda janubdan shimolga tashiladigan yuk teskari yo'nalishdagidan to'rt marta ko'p. Lekin 50 - 70-yillarda kanalda yuk tashish ikki marta to'xtab qoldi. Birinchi marta bu 1956 - 1957 yillarda Misr kanalini nasionalizasiya qilganda (kanal Fransiya va Angliyaga qarashli bo'lgan), unga qarshi bu mamlakatlar agressiya (urush) qilganda, kanal vaqtincha ishlamagan. 1967 - 1975 yillarda arab-isroil urush tufayli Suvaysh kanali ikkinchi marta o'zoq vaqt ishlamadi. 1975 yil 5 iyunda kanal ochilgach, unda yuk va kema oboroti yana qaytadan tez rivojlandi. 90-yillarning boshida kanaldan 20 ming kema o'tgan va 350 mln. t. yuk tashilgan. Kanal kengaytirildi va 20 m gacha chuqurlashtirildi. Hozir kanaldan ilgarigiga nisbatan kattaroq kemalar o'tishiga imkoniyat yaratilgan. Shunga qaramasdan yaqin sharqdan Yevropaga neft tashiydigan supertankerlarning ko'pchiligi Suvaysh kanalidan emas, balki Afrikani aylanib o'tmoqdalar. Shuning uchun kanalda neft tashish salmog'i ko'p miqdorda qisqardi, shimoldan va janubdan tashiladigan yuk oqimlari hajmi deyarli tenglashdi. Bunda 1979 yilda qurilgan ikki qatorli Suvaysh-Aleksandriya neft quvurining (115 mln. t. neft haydaydi) ta'siri ham katta bo'lgan. Umuman, hozir ham Suvaysh kanali dunyo dengiz kemachiligining eng asosiy

uchastkasi bo'lib qolmoqda va uning hissasiga dunyo dengiz transportida tashiladigan yuklarning 14 foizi to'g'ri keladi (350 mln. t.).

Panama kanali Panama bo'ynining eng past joyidan Panama mamlakati hududida qurilgan. U Balbao shahri yaqinida Tinch okeanini Atlantika okeani bilan Kristobl shahri yaqinida bog'laydi. XIX asrning o'rtalarida Buyuk Britaniya va AQSH kanal qurish haq-huquqi uchun kurashishdi. Ziddiyatdan Fransiya foydalanib, kanal qurilishini 1879 yilda boshlab yubordi, lekin fransuz kompaniyasi inqirozga uchradi va kanal qurish huquqi 1901 yilda AQSH ga o'tdi (ingliz-amerika shartnomasiga binoan). 1904-1914 yillarda AQSH kanalni qurib bitkazdi. Kanalning uzunligi 82 km, eni 150-305 m, chuqurligi - 12,5 m, shlyuzlar soni - 12, o'tadigan kemalar tonnaji - 65-70 ming t, yillik yuk oboroti - 170 mln. t, kemalar oboroti - 1 so'tkada 40 kema, kemalarning suzib o'tadigan vaqti - 8 soat. Kanal trassasining yarmi Gatun ko'li orqali o'tadi. Asosan kanalda neft, ruda, ko'mir, fosforit va boshqa ommaviy yuklar tashiladi.

1903 yilda AQSH va Panama o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq maydoni 1,4 ming kv. km bo'lgan Panama kanali zonasi to'liq AQSH yurisdiksiyasiga o'tgan. Panamaliklar uzoq vaqt mobaynida kanal zonasini qaytarib olish uchun kurashdilar. 1977 yilda 1903 yildagi shartnomani Panamaga berish to'g'risida yangi shartnoma tuzdilar.

Panama kanali xalqaro ahamiyatga ega, lekin u birinchi navbatda AQSH uchun eng katta transport ahamiyatiga molik.(24-jadval).

24-jadval

Panama kanalidan foydalanganda yo'lning qisqarishi

Jo'natuvchi va qabul kiluvchi portlar	Masofa, milyada		Yo'lning qisqirishi	
	Panama kanali orqali	Boshqa yo`l bilan	Milya	%
Nyu-York - San-Frantsisko	5263	13107 Magsl.	7844	60
Nyu-York – Vankuver	6050	13907 Magsl.	7857	56
Nyu-York - Valparanso	4627	8337 Magsl.	3710	45
Liverpul - San-Frantsisko	7930	13507 Magsl.	5577	41
Liverpul – Vankuver	8717	14317 Magsl.	5600	39
Nyu-York – Iokagama	9700	13042 Magel.	3342	26
Nyu-York – Sidney	9692	13051 Afr.	3359	26
Nyu-York – Shanxay	10584	12324 Suvaysh.	1740	14
Nyu-York – Singapur	8885	10141 Suvaysh.	1256	12

Panama kanali AQSHning sharqiy va g'arbiy qirg'oqlari va AQSH ning sharqiy qirg'oqlari bilan Lotin Amerikasining Tinch okeani qirg'oqdari o'rtasidagi masofani ko'proq, shuningdek, Osiyo va Avstraliya portlariga boradigan yo'lni nisbatan kamroq qisqartiradi. Shu sababdan AQSH Panama kanalining asosiy foydalanuvchisi bo'lib, kanaldan Atlantika va Tinch okeaniga tashiladigan yukning 70 foizi AQSH hissasiga to'g'ri keladi.

Shuni ham qo'shimcha qilish kerakki, Markaziy Amerikada boshqa transokean kanallarini qurish loyihalari ham ishlab chiqilmoqda. Ulardan birining taxmin qilinayotgan trassasi Meksikadagi Teuantepek bo'ynidan, ikkinchisiniki - Kolumbiyadagi Otreto cho'kmasi orqali, uchinchisi - Nikaragua ko'li akvatoriyasidan foydalanib, Nikaragua hududidan o'tadigan kemalar loyihalari tuzilgan.

GFRdagi Kil kanali uchinchi xalqaro kanal bo'lib, Boltiq dengizidagi Kil qo'ltig'ini Elba daryosi quyi oqimi, birinchi navbatda Kil va Gamburg portlari bilan bog'laydi. U XIX asrning oxirida (1895 y.) qurilgan bo'lib, ko'pchilik Yevropa mamlakatlari uchun katta ahamiyatga ega. Asosiy yuk oqimlari

Boltiq dengizidan Shimoliy dengizga va orqaga, shu kanal orqali Gollandiya yarim orolini chetlab o'tadi. Uzunligi 98,7 km, chuqurligi 11,3 m, eni 104 m, ikki juft bosh shlyuzlari bor.

Hozirgi zamon dengiz kemachiligining miqyosi juda katta bo'lib, u ko'p dengizlarni qamrab oladi. Masalan, O'rta yer dengizida bir vaqtning o'zida 2,5 ming savdo kemalari (kobataj kemalari bu hisobga kirmaydi), Boltiq dengizida - 800, Janubiy-Xitoy dengizida - 700 dan ko'proq kemalar yuradi. Ayniqsa, kemalar harakati intensivligi dengiz kanallari, bo'g'izlari, portlari boradigan joylarda g'oyat katta bo'ladi. Bu sharoitda ular kemachilikni cheklovchi omilga aylanadi. Ba'zi bo'g'izlar supertankerlar kirishi uchun yaroqsizdir. Masalan, 100 ming t. dedveytga ega bo'lgan supertanker suvga 14 m, 200 ming tonnaligi - 17,8 m, 300 ming tonnaligi - 22 m, 500 ming tonnaligi - 30 m botib turadi. Buni taqqoslash uchuy quyidagi ma'lumotlarni berish mumkin: Kichik Belt bo'g'ozining kafolatlangan chuqurligi - 70 m, katta Belt bo'g'oziniki -14m, Zund bo'g'oziniki - 8 m, Kattegatniki - 26 m, La-Manshniki - 35 m, Malakkaniki - 25, Zond va makassar bo'g'ozlariniki - 50 m. Shunday qilib, eng katta supertankerlar Yevropa qirg'oqlariga La-Mansh orqali yoki Yaponiyaga eng qisqa yo'l Malakka bo'g'ozi orqali o'ta olmaydilar. Birinchi holatda ular chuqur suvli portlarga (masalan, Buyuk Britaniyaning g'arbiy qirg'oqlari) yoki maxsus avanportlarda (masalan, Gavr) yuk tushirishga majbur bo'ladilar, ikkinchi holatda esa katta aylanma yo'l - Makassar yoki Zond bo'g'ozlari orqali o'tadilar.

Okean trassalarining eng «Quyuq» tugunlari qatoriga kanallardan tashqari yana bo'g'izlar ham kiradi. Masalan, La-Mansh orqali (uni inglizlar Kanal deb atashadi) so'tkasiga 500 kema, Zunddan - 175, Gibraltar bo'g'izlaridan 140 kema o'tadi.

FTI sharoitida dunyo transportiga, yuqorida qayd etilganidek, konteyner-lashtirish va u bilan bog'liq bo'lgan «konteyner inqilobi» katta ta'sir ko'rsatdi. Ulardan foydalanish yuk tashishning eski usullariga nisbatan mehnat unumdorligini bir necha marta oshirishga, yuklarni yaxshi saqlashga imkon beradi.

Dengizda konteynerlardan foydalanish birinchi marta 1956 yilda AQSHda qo'llanilgan. Co'ngpa 60-yillarning o'rtalariga kelib Shimoliy Atlantika liniyasida konteyner tashuvchi kemalar floti yuzaga keldi. 80-yillarning oxirida esa 5—6 mln. konteynerni tashuvchi bir mingdan ko'proq ana shunday kemalar qatnay boshladi. AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, GFRda eng katta konteyner tashuvchi kemalar floti paydo bo'ldi. Dunyoning 200 portida konteyner terminallar qurildi. Bundan bir necha yil avval ular o'rtasida birinchi o'rinni Rotterdam egallagan bo'lsa, so'ngra undan Singapur (yiliga 4 mln. konteyner) va Gonkong o'tib ketdi. Bu «katta uchlikdan» keyin Kobe, Pusan, Gaosan, Los-Anjeles, Nyu-York, Gamburg, Antverpen, Iokagama, Tokio turadi. Bundan ko'rinib turibdiki, dengiz transportini konteynerlashtirish g'oyat katta kapital mablag' talab qilishiga qaramay, u AQSH, G'arbiy Yevropa, Yaponiyadan tashqari Osiyoning ishlab beruvchi sanoati mahsulotini eksport qilishga yo'naltirilgan «yangi industrial mamlakatlarda» ham keng quloch ochgan.

Shunga mos holda dengiz konteynerlar liniyalari tarmog'i ham rivojlanib bordi. 80-yillarning o'rtalariga kelib dengiz konteyner yuk tashishida yangi bosqich boshlandi: «Yunayted Steyts Laynz» (AQSH) va «Evergrin Layn» (Tayvan) kema kompaniyalari G'arbiy Yevropa, AQSH, Sharqiy Osiyo baza portlariga 7-8 kun oralig'ida (intervalida) kiradigan dunyo bo'yicha konteyner liniyalarini ekspluatasiya qilishni

boshladilar. Bu liniyalarda eng yangi katta tonnajli tezyurar konteyner tashuvchi kemalar ishlay boshladi. Ulardan keyin boshqa kema kompaniyalari ham ana shunday dunyo bo'yicha servisni taklif eta boshladilar.

Turli transport turlarini konteynerlashtirish va ulardan yuk tashishda aralash foydalanishni kengaytirish geografik nuqtai nazardan yana bir qiziq hodisa - «trapspor ko'prigi» deb ataladigan jarayonning shakllanishiga olib keldi. Uni ko'pincha yana «quruqlik ko'prigi» («lend bridj») deb ham atashadi. Ularni ekspluatasiya qilishda konteyner tashuvchi kemalar (ba'zan balker-kemalar), marshrutli tezyurar temir yo'l sostavi va avtopoyezdlar bilan birga qo'shib qo'llaniladi. Hozirgi paytda G'arbiy Yevropa va Yaponiya o'rtasidagi hamda Yaponiya va AQSH ning sharqiy qirg'oqlari o'rtasidagi ikkita «ko'prik» dunyoda mashxur hisoblanadi.

Birinchisi - Transsibir «transport ko'prigi» 1970 yildan ishlay boshladi. Uning eng chekka nuqtalari Rotterdam va Iokogama bo'lib, ular o'rtasidagi masofa (Rossiya va Ukraina temir yo'llaridan foydalanganda) 13770 km ga teng. Bu yo'l uch qismdan iborat. Birinchi qismida G'arbiy Yevropa yuklari quruqlik transporti orqali chegara bo'yi tugunlari yoki MDHdagi Qora dengiz va Boltiq dengizlari portlariga olib kelinadi. Ikkinchi qismida ular ekspress poyezdlar yoki oliy sostavda MDH Yevropa qismi temir yo'llari va Transsibir magistrali orqali Tinch okeani qirg'oqlaridagi portlarga (Naxodka, Sharqiy) jo'natiladi. Uchinchi qismida ular yana dengiz orqali Yaponiyaning Iokagama yoki boshqa portlari, shuningdek, Gonkong va Manilaga yetkazib beriladi. Yaponiyadan G'arbiy Evropaga junatiladigan yuklar teskari yo'nalishda shu yo'llar orqali tashiladi. Yuk tashishga taxminan 35 sutka vaqt sarflanadi. Ushbu «Transport ko'prigidan»

foydalanish dengizda shu yo'nalishda yuk tashishga nisbatan taxminan 20% ga arzon tushadi va bunda yuklarni Suvaysh kanali orqali tashish masofani 20,1 ming km ga uzaytiradi. 90-yillaring boshida bu «transport ko'prigi» orqali har yili 100-120 ming konteyner tashilgan.

Ikkinchi ana shunday «ko'prik» Yaponiya va AQSHning sharqiy qirg'oqdari o'rtasida «qurilgan» va u Yaponiyadan dengiz orqali AQSHning Tinch okeani qirg'oqlaridagi portlarga, so'ngra undan quruqlik yo'llari orqali butun AQSH hududini kesib o'tib, Atlantika qirg'oqlariga davom etadi. Bu aralash transport yo'llaridan Panama kanalidan o'tadigan dengiz yo'liga baravar keladigan konteyner tashish mumkin va bunda baho taxminan bir xil bo'ladi. Lekin Sietl orqali Iokagamadan Nyu-Yorkka boradigan yo'l masofani 3,5 ming km ga qisqartiradi.

Dunyoning boshqa qismlarida, masalan, AQSH hududidan tranzit orqali Fapbiy Yevropa va Yaponiya o'rtasida, shuningdek, Osiyo, Lotin Amerikasi mamlakatlari o'rtasida «transport ko'priklari» ning shaklanishi turli bosqichda turibdi.

Daryo transporti. Ichki suv yo'llari transporti kemalar qatnaydigan daryolar, kanallar, va ichki suv havzalaridan foydalanadi va u ushbu ob'yektlarning tabiiy xususiyatlariga ko'p darajada bog'liqdir. Masalan, Amazonka, Panama, Missisipi, Ob', Yenisey, Yanszi, Kongo daryolari dunyoning eng qudratli temir yo'l magistrallariga nisbatan ham ancha katta o'tkazish qobiliyatiga ega. Lekin bu imkoniyatlardan foydalanpsh umumiy iqtosodiy rivojlanish darajasiga bog'liq. Shu sababdan dunyoda suv transporga yuk oboroti bo'yicha AQSH, Rossiya, GFR, Niderlandiya, Belgiya, shuningdek, Xitoy ajralib turadi. Ba'zi mamlakatlarda sun'iy suv yo'llari va ko'l kemachiligi rivojlangan. Umuman, ichki suv transporti ayrim

mamlakatlarning ichki ehtiyojlariga xizmat qiladi, lekin u xalqaro yuk tashishda ham ishtirok etadi. Ayrim mamlakatlarda, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda, masalan, Amazonka, Panama, Kongo kabi buyuk daryolar imkoniyatlaridan foydalanish juda past darajada.

Dunyo suv yo'llarining umumiy uzunligi 550 ming km bo'lib, unda asosiy o'rinni MDH (123 ming km), Xitoy (110), AQSH (41), Braziliya (31), keyingi o'rinlarni Venesuela, Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Zoir, Fransiya, GFR, Nigeriya, Finlyandiya egallaydi. Lekin ichki suv transportining rivojlanish darajasini yuk oboroti hajmi va ushbu transport turining umumiy transport yuk oborotidagi salmog'i belgilab beradi. Yuk oboroti bo'yicha o'rinlar kuyidagi tartibda taqsimlanadi: AQSH, Xitoy, Rossiya, Kanada, Niderlandiya, Fransiya, Belgiya. Ko'rinib turibdiki, bu ro'yxat undan oldin berilgan ro'yxatdan farq qilib, uning tarkibida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar bor, holos. Boshqa ko'rsatkich - ichki suv transportining umumiy transport yuk oborotidagi salmog'i bo'yicha ko'rsatgichlar juda yuqori (52%). Bu ko'rsatgichlar GFRda 25, Belgiyada 17, AQSHda 10, Rossiyada 5,5 foizni tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda bu transport turi amaliy jihatdan rivojlanmagan (Yaponiya, Mongoliya, Kuba, O'rta Osiyo mamlakatlari) yoki kam rivojlangan (Buyuk Britaniya, Italiya).

Ichki suv trinsportining rivojlanishiga ichki suv yo'llarining ahvoli va flotining katta-kichikligi katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, AQSHdagi 41 ming km suv yo'lidan 31 ming km kanallar va shlyuzlangan daryo uchastkalariga to'g'ri keladi. Bu mamlakat 20 mln. t. dan ko'proq tonnajga ega bo'lgan dunyodagi eng katta daryo va ko'l flotiga ega. MDH, Xitoy, GFR, Fransiyada ham katta kanallar va suv yo'llari barpo etilgan. (25-jadval).

25-jadval

Dunyoning kemalar qatnaydigai eng muhim kanallari va suv yo'llari[1]

Nomi	Mamlakatlar	Uzunligi, km	Kengligi	Shlyuzlar soni
1- Qirg`oq kanali	AQSH	5580	40 -60	
shu jumladan, sun'iy uchastkalar		1800		
2. Buyuk kanal	Xitooy	1782	40-350	
3. Volga-Boltik suv yo`li	Rossiya	1100	25-120	
shu jumladan, Volga-Boltiq kanali		372		
4. Reyn-Mayn-Dunay suv yo`li	GFR	677	52	18
shu jumladan, sun'iy uchastkalar		171		
5. Eri-kanal	AQSH	540	50	35
6. Geta-kanal	Shvetsiya	420	24-60	95
shu jumladan, sun'iy uchastkalar		190		
7. O`rta German kanali	GFR	325	30-40	3
8. Rena-reyn suv yo`li	Frantsiya	320	25-100	150
9. Oq dengiz- Boltiq suv yo`li		227		19
shu jumladan, sun'iy uchastkalar	Rossiya	37		
10. Moskva nomidagi kanal	Rossiya	128	86	114
shu jumladan, sun'iy uchastkalar		109		
11. Volga-Don kapali	Rossiya	101	60-80	13
shu jumladan, sun'iy uchastkalar		56		

Dunyoda xalqaro daryolar yoki xalqaro daryo havzalari (XDH) soni 2140 ta bo'lib, ular eng yirik daryolarning yarmini tashkil etadi. Masalan, Reyn, Amazonka, Zambezi havzalarida 7 mamlakat, Nil, Kongo, Niger havzalarida 9 mamlakat, Dunay havzasida esa 12 mamlakat joylashgan. Dunyoning daryo havzalari maydoni 1 mln. kv. km dan ortiq bo'lgan 13 ta eng yirik daryodan faqatgina 4 tasi - Volga, Lena, Yanszi, Makkenzi bir mamlakat hududida joylashgan, holos. Tajribalar shundan dalolat beradiki, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda daryolarning xalqaro xarakteri bo'lish o'rniga, ma'lum darajada

[1] Geograficheskiy entsiklopedicheskiy slovar. Ponyatiya i termino‘. M.: Sov. entsikl., 1988,s.409.

uni rag'batlantirgan. Lekin bular rivojlanagan mamlakatlarga taaluqdi emas.

Yevropada Reyn, Dunay, Oder, Elba eng yirik daryo arteriyalari hisoblanadi. AQSHda asosiy daryo transporti yuklari Missisipi — Buyuk ko'llar tizimida tashiladi. Amerikaning Buyuk ko'llar tizimi va Avliyo Lavrentiy daryosining chuqur suv yo'lidan dengiz kemalari ham foydalanadi.

Ichki suv transportida kemalar quvvati va yuk ko'tarish imkoniyatini ko'paytirish, shatakka olish usullarini takomillashtirish, suvosti qanotli kemalarni keng qo'llashini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridir.

8.3. Havo transporti

Havo transporti - bu, eng tez, lekin yetarli darajada qimmatga tushadigan transport turi bo'lib, xalqaro yo'lovchilar tashishida muhim rol o'ynaydi. Aviasiya - transportning eng yosh va tez rivojlanayotgan turidir. Uning afzalligi tezlikdan tashqari, tashish sifati, trassani oson kengaytirish va o'zgartirishga imkon beradigan geografik xarakatchanligidir. Muntazam avialiniyalar tarmog'i 8 mln. km bo'lib, u yer sharinnig hamma qismini qamrab olgan, yiliga 1,2 mlrd. yo'lovchini tashiydi.

Dunyoning eng yirik havo transporti AQSH bo'lib, uning hissasiga xorijda tashiladigan (MDHdan tashqari) yo'lovchilarning yarmi to'g'ri keladi. «Birinchi o'nlikka» yana Rosciya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya, GFR, Avstraliya, Niderlandiya, Ispaniya kiradi. Aviatashishning taxminan 45%i ichki va 55%i xalqaro liniyaga to'g'ri keladi. Uning tayanch nuqtalari - 5 ming aeroport bo'lib, 1 mingdan

ko'prog'i xalqaro toifaga kiradi. Yiliga 15 mln. yo'lovchi tashish imkoniyatiga ega bo'lgan aeroportlar 26-jadvalda ko'rsatilgan.

26-jadval

Dunyoning eng yirik aeroportlari

Aeroport	**Yillik yo'lovchi, mln. kishi**	**Aeroport**	**Yilik yo'lovchi, mln. Kishi**
Chikago	60	London (Gatvik)	21
Dallas	58	Parij (Sharl de Goll)	21
Los-Apjslss	45	Finiks	21
Antanta	43	Sent-Luis	20
London (Xitro)	40	Singapur	20
Tokio (Xeneda)	37	Toronto	20
Nyu-York (Kensdi	30	Minnsapolis-Sent-Pol	19
Nomidagi)		Tokio (Narito)	17
San-Frantsisko	30	Gonkong	17
Denver	28	Pittsburg	17
Frankfurt-Mayn	26	Orlando	17
Parij (Orli)	24	Las-Vegas	17
Aeroport	Yillik yo`lovchi, mln. kishi	Aeroport	Yilik yo`lovchi, mln. kishi
Mayami	23	Rim (Fyumichini)	16
Nyu-York (La-Gardia)	23	Amsterdam (Shipxol)	16
Gonolulu	23	Xyuston	16
Boston	23	Vashington (Neshnl)	15
Detroyt	22	Stokgolm	15
Osaka	22		

Ko'rinib turibdiki, dunyodagi eng yirik 34 aeroportning yarmiga yaqini AQSHda, 8 tasi Yevropada, qolganlari Yaponiya, Kanada, Singapur, Gonkogda joylashgan. Bunda ba'zi eng yirik shaharlarda, masalan, Moskvada 5, Nyu-Yorkda 3, Parij, London, Tokioda - 2 tadan aeroport bor. Demak, London har yili 60 mln, Parij -45 mln. yo'lovchi qabul qiladi. Dunyo aviatashishlarining asosiy yo'nalishlari Yevropa va Shimoliy Amerika, Yevropa va Janubiy Amerika, Yevropa va Yaqin Sharq,

Yevropa va Janubiy, Janubiy Sharqiy, Sharqiy Osiyo va Avstraliya o'rtasida Yevropa va Afrika, AQSH va Sharqiy, Janubiy-Sharqiy Osiyo, AQSH va Janubiy Amerika, AQSH va Avstarliya o'rtasida amalga oshiriladi. Yevropa va Shimoliy Amerika o'rtasida har yili 30 - 35 mln. yo'lovchi tashiladi.

Havo transportida eski porshenli samolyotlarni turbovintli va reaktiv samolyotlarga almashtirish (o'tgan asrning 50-yillarning oxiri va 60-yillari boshida) fuqarolik aviliniyasida yangi davrni boshlab berdi. Bular «TU-104- (1956 y.), «Boing-707» (1957 y), «Karavella» (1959) y). Shundan buyon fuqarolik aviasiyasining rivojlanishi ikkita asosiy yo'nalish - tezlikni oshirish va yo'lovchi (yuk) joylarini ko'paytirish yo'lidan bormoqda. Zamonaviy fuqaro samolyotlari o'rtacha kreyser tezligi soatiga 800-900 km.ga teng. 70-yillarda tovushdan tez uchadigan samolyotlarning birinchi modellari yaratildi: «TU-144-,(SSSR), «Konkord» (Buyuk Britaniya va Fransiya), «Djumbo-djet» (AQSH). Masalan, «TU-144- samolyotining tezligi 2500 **km/soat**, uchish uzoqligi 6400 km, uchish balandligi 20 km, yo'lovchilar coni 121 kishi. Lekin bu samalyotlarni qisqa muddatlarda ekspluatasiya qilishning o'ziyoq ularning rentabelligi pastligini ko'rsatdi va bu modellar ishlab chiqarishdan olib tashlandi. Keyingi yillarda birinchi keng flyuzelyajli 300-400 yo'lovchi va 15-20 t. yuk tashiydigan samolyotlar - «Boing-177» (AQSH), «Aerobus» (Fransiya-GFR-Buyuk Britaniya), IL-86 (Rossiya) ishlab chiqarildi. Shuningdek, rekord yuk ko'taradigan samolyotlar - AN-124 «Ruslan» (150 t) va An-225 «Mariya» («Orzu» 250 t) Rossiya va Ukraina, 440 yo'lovchini bortga oladigan «Boing-777»» (AQSH) samolyotlari ishlab chiqarilmoqda. 600-800 yo'lovchi tashiydigan yangi aerobuslarni ishlab chiqarishga Yevropada («Eyrbos indastri»

konsorsiumi, Fransiya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya birgalikda) va AQSHda («Boing») tayyorgarlik ko'rilmoqda.

Shunday qilib, transport - iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u hududiy mehnat taqsimoti va moddiy bog'lanishning muhim omili hisoblanadi.

Qisqacha xulosalar

Jahon transport geografiyasi quruqlik, suv va havo transportiga bo'linadi.

Quruqlik transporti avtomobil va temir yo'l transportidan iborat. avtomobil transporti yuk va yo'lovchi tashishda muhim ahamiyatga ega. Avtomobil transporti yuk oborotining deyarli yarmi sanoat korxonalari va qurilish tashkilotlari hissasiga to'g'ri keladi. Avtomobil transportining yuk oboroti bo'yicha AQSH birinchi, Rossiya ikkinchi o'rinda turadi.

Birinchi temir yo'l transporti Buyuk Britaniyada 1825 yilda qurilgan. O'zbekistonda temir yo'l qurilishi 1890 yildan boshlandi. Jahonda temir yo'llarning umumiy uzunligi 1,2 mln. km atrofida, ammo uning 50%i katta davlatlarga to'g'ri keladi (AQSH, Rossiya, Kanada, Hindiston, Xitoy, Avstraliya). Temir yo'llarning uzunligi bo'yicha AQSH dunyoda birinchi o'rinda turadi.

Dengiz transporti hissasiga dunyo yuk oborotining 62%i to'g'ri keladi. Dengiz kemachiligida tramp (vaqtinchalik va muntazam yuk tashish) mavjud. Dengiz transportida portlar, bo'g'izlar va kanallar muhim ahamiyatga ega.

Dunyoning eng yirik havo transporti AQSHda bo'lib, uning hissasiga xorijda tashiladigan yo'lovchilarning yarmi to'g'ri keladi (MDHdan tashqari).

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Transport qanday qismlarga bo'linadi?
2. Qaysi transport turida yuk ko'p tashiladi?
3. Avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha qaysi davlat birinchi o'rinda turadi?

IX mavzu. AMERIKA QO'SHMA SHTATLARINING IQTISODIY-GEOGRAFIK TAVSIFI

9.1. Geografik joylanishi

Amerika Qo'shma Shtatlari Shimoliy Amerika qit'asida joylashgan bo'lib, maydonining kattaligi bo'yicha dunyoda Rossiya, Kanada va Xitoydan keyin to'rtinchi o'rinni egallaydi. Uning maydoni 9,4 mln. km2 ga yaqin bo'lib, hududiy jihatdan 3 qismdan iborat:

1. Asosiy qism. Butun hududning 84%ini egallaydi. Sharqdan G'arbga 4,5 ming, shimoldan janubga salkam 3 ming km. ga cho'zilgan. Shimoldan Kanada, janubdan Meksika, sharqdan Atlantika va G'arbdan Tinch okeani bilan o'ralgan.
2. Alyaska hamda Aleut orollari (1,5 mln. km2). Mamlakat hududining 16%ini tashkil etali. Alyaska Kanadaning shimoli-g'arbiy qismi bilan chegaradosh.
3. Gavayi orollari (16,7 ming km2). U Tinch okeanida, qirg'oqdan 3200 km uzoqlikda joylashgan 24 oroldan iborat arxepelag bo'lib, mamlakat hududining 0,2% ini tashkil etadi.

AQSH hududi besh soat mintaqasida joylashgan bo'lib, ular G'arbdan sharqqa Tinch okeani, Markaziy, Sharqiy va Atlantika nomlari bilan ataluvchi soat mintaqalariga ajratiladi. Samolyotning butun mamlakat hududi bo'ylab G'arb-sharq yo'nalishida Tinch okeanidan Atlantika okeanigacha uchib o'tishi uchun 5-5,5 soat vaqt ketadi.

AQSHning geografik o'rni tarixning barcha bosqichlarida mamlakatning rivojlanishiga qulaylik yaratgan. Bu, avvalo, dengiz chegaralarida (12 ming km) ajoyib tabiiy bandargohlarning mavjudligi, ayniqsa mamlakat hududining Atlantika va Tinch okeanlari orasida joylashganligi bilan bog'liq. Kanada bilan quruqlik chegaralari ham tabiiy chegaralar, ya'ni daryo va ko'llar orqali o'tadi va savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga qulayliklar tug'diradi.

9.2. Davlat tuzumi

Davlat tuzumiga ko'ra, AQSH 50 shtat hamda alohida federal okrugdan iborat federativ respublikadir. Har bir shtat o'z konstitusiyasiga, qonun chiqaruvchi va ijrochi hokimiyat organlariga, saylab qo'yiladigan gubernatoriga, shuningdek, o'z ramziy belgisiga ega. Kolumbiya federal okrugi hududida mamlakat poytaxti - Vashington shahri joylashgan bo'lib, unda 600 ming aholi yashaydi.

AQSH Konstitusiyasi bundan 2 asr oldin qabul kilingan. O'tgan davr mobaynidan unga atigi 26 qo'shimcha kiritilgan, holos.

Federal hukumat 3 sohaga bo'linadi:

1. Prezident boshqaruvi ostidagi ijroya hokimiyati. U 3 mln.dan ortiq federal xizmatchilarga rahbarlik qiladi. Prezident xalq tomonidan 4 yilga saylanadi va ikki muddat bilan cheklanadi. Mamlakatda qonun chiqaruvchi hokimiyat garchi parlament (kongress) ixtiyorida bo'lsada, u qabul qilgan barcha qonunlarni Prezident tasdiqlaydi va vazirlarni tayinlaydi. U qurolli kuchlarning bosh qo'mondoni hisoblanadi. Davlatning rasmiy tili - ingliz tili.
2. qonun chiqaruvchi organ - Kongress ikki palatadan iborat. Ulardan birinchisi Senat (senatorlar 6 yillik vakolatga ega) bo'lib, ikkinchisi - Vakillar palatasi (kongressmenlar 2 yillik vakolatga ega).
3. Oliy sud boshchiligida adliya sohasi. Oliy sud Konstitusiyaga xilof deb topilgan federal va shtat hokimiyatlari tomonidan chiqarilgan qonunlarni bekor qilish huquqiga ega.

AQSH Konstitusiyasi hukumat vakolatini atayin cheklab, hech bir sohaning ustun kuchayib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Masalan, faqat Vakillar palatasi soliqlar borasida takliflar kiritish huquqiga ega. Oliy sud a'zoligiga Prezident taklif etgan nomzodlarni esa Senat tasdiqlashi shart. Prezident esa Kongress chiqargan qonunlarni ma'lum darajada ta'qiqlash huquqiga ega.

AQSHda ikki asosiy partiya - Respublika va Demokratik partiyalar bilan bir qatorda yana bir necha ikkinchi darajali partiyalar ham faoliyat yuritadi.

AQSH aholisining soniga ko'ra **(280 million kishi)** dunyoda Xitoy va Hindistondan keyin uchinchi o'rinni egallaydi. U aholisining soni jihatidan GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya va Italiya aholisini qo'shib hisoblaganda ham ulardan oldindadir.

Mamlakatda aholi soni uzoq vaqt davomida ko'proq immigrantlar hisobiga o'sdi. 1821-1921 yillar davomida AQSHga 35 mln. immigrant kuchib keldi. O'tgan asrning 70-yillarigacha ko'chib kelganlar orasida inglizlar, shotlandiyaliklar va irlandiyaliklar ko'pchilikni tashkil etgan. Shu sababli AQSH davlat tili - ingliz tilidir. Keyinchalik Yevropaning boshqa mamlakatlaridan ko'chib keluvchilar soni orta bordi. II jahon urushidan so'ng esa Lotin Amerikasi mamlakatlaridan (ayniqsa, meksikaliklar va puertorikoliklar) ko'plab ko'chib keldi. XVIII asr davomida va XIX asr boshlarida janubiy shtatlarga Afrikadan negr qullar keltirildi.

Umuman, AQSH aholisi sonining o'sishida immigrasiyaning roli doimo katta bo'lib kelgan. Bir kator qattiq cheklashlarga qaramay, hozirgi paytda ham yiliga 1 mln.dan ortiq kishi shu mamlakatga ko'chib kelmoqda.

AQSHda yuzdan ortiq etnik guruhlar yashasada, etnograf olimlar ularni uch asosiy guruhga ajratadilar: 1) AQSH amerikaliklari, ular turli millatlarga mansub, turli davrlarda ko'chib kelgan kishilarning avlodlari bo'lib, ingliz tilini o'z ona tillari deb biladilar; 2) oraliq immigrant guruhlar, bu guruh AQSHga nisbatan yaqinda ko'chib kelgan kishilardan iborat; 3) tub joy xalqlari (hindular, eskimoslar va b.). Ular mamlakat aholisining 1%dan ham kamrog'ini tashkil etadi.

Aholining O'rtacha zichligi 1 km^2da - 30 kishi. Lekin hudud bo'ylab zichlik nihoyatda notekis. Aholining deyarli 70%i hududning 12% qismini egallagan shimoli-sharqiy shtatlarida yashaydi. Agar Gavayi orollarida o'rtacha zichlik 1 km^2da 46 kishini tashkil etsa, Alyaskada 1 kishiga 5 km^2 to'g'ri keladi.

AQSH aholisining joylashuvi avvalo shaharlar geografiyasi bilan bog'liq. Mamlakatda 9000 dan ortiq shaharlar mavjud. Aholining 77 %i shaharlarda yashaydi.

Qishloq aholisi ko'pincha alohida joylashgan fermalarda yashaydi. Biroq turmush tarziga ko'ra, qishloq ahli shaharliklardan uncha farq qilmaydi. Binobarin, butun mamlakat bo'ylab bir xil shahar turmush tarzi hukmrondir.

9.3. Xo'jaligining umumiy tavsifi

Xo'jaligining umumiy tavsifi. Amerika Qushma Shtatlari XIX asrning oxiridayoq sanoat mahsulotlari hajmi bo'yicha Buyuk Britaniyadan o'tib, dunyoda 1-o'rinni egalladi. Hozirgi paytda, G'arbiy dunyo mamlakatlari aviaraketa-kosmos texnikasining 3/4 qismi, EHMning 2/3 qismi, ko'mir qazib chiqarish hajmining va AESlar quvvatining yarmidan ortig'i, g'alla ekinlari yalpi hosilining 1/3 qismi AQSH hissasiga to'g'ri

keladi. Mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi 8,8 tril. tashkil etib, uning yillik o'sishi 4.1 % dan ortiq.

27-jadval

AQSHning jahon xo'jaligida tutgan o'rni

Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Sonli ko'rsatkichlar	Yillar	Dunyoda to'tgan o'rni
Hududi	ming km^2	9364	1995	4
Aholisi	mln. Kishi	260	1995	3
YaMM	mlrd. $	7100,7	1995	1
YaMM jon boshiga	ming, $	27	1995	
Tashqi iqtisodiy aloqalari				
Eksport	mlrd. $	583,9	1995	1
Import	mlrd. $	771,8	1995	1
Turistlar soni	mln. Kishi	43,7	1994	4
Xalqaro moliya				
Oltin zahirasi	Mln. Untsiya	261,7	1995	1
Yalpi valyuta zahirasi	mlrd. $	163,6	1994	1

Oziq-ovqat sanoati				
O`simlik yog`i	mln.tonna	8,61	1994	1
Margarin	mln.tonna	3,88	1994	1
Sariyog	mln.tonna	0,6	1994	3
Pishloq	mln.tonna	3,38	1994	1
Ko`rsatkichlar nomi	**O`lchov birligi**	**Sonli ko`rsatkichlar**	**Yillar**	
Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari				
Vino	mln.Gkl	16,6	1994	4
Pivo	mln.Gkl	2380	1994	1
Sigareta	mlrd.dona	687,2	1994	2
Engil va og`ir sanoati				
Ip-gazlama	mln.p.m.	2	1994	2
Engil avtomashina	mln.dona	6,6	1994	2
Oltin	Tonna	238,7	1994	2
Yokilgi-energetika sanoati				
Gaz	mlrd.m^3	5398	1995	2
Ko`mir	mln.tonna	937,6	1994	2
Uran	mln.tonna	1,29	1994	9
Neft	mln.tonna	389,2	1995	2
Elektr energiya	kVt soat	3348,6	1994	1

Qurilish materiallari				
Po`lat	mln.tonna	95,5	1995	2
Yog`och materiali	mln. m^3	95,4	1994	1
Tsement	mln.tonna	77,1	1994	3
G`isht	mlrd. Dona	7,1	1995	4
Qishlok xo`jaligi mahsulotlari				
Bug`doy	Mln.tonna	63,1	1995	2
Sholi	Mln.tonna	9	1995	3
Makkajo`xori	Mln.tonna	256,6	1995	1
Arpa	Mln.tonna	8,2	1995	5
Sabzavot va poliz mahsulotlari				
Umumiy hisobda	Mln.tonna	36,4	1995	3
Karam	Mln.tonna	1,65	1995	7
Pomidor	Mln.tonna	12,08	1995	1
Bodring	Mln.tonna	0,98	1995	4
Bogdorchilik				
Meva	Mln.tonna	28,8	1994	4
Uzum	Mln.tonna	5,4	1994	3
Tarvuz	Mln.tonna	1,8	1994	4
Chorvachilik va parrandachilik				
Yirik shoxli qoramol	Mln.bosh	101	1994	3
Parrandalar	Mln.bosh	15,8	1994	2
Otlar	Mln.bosh	3,9	1994	4
Chorvachilik mahsulotlari				
Go`sht	mln.tonna	32,6	1995	2
Sut	mln.tonna	69,7	1995	1
Tuxum	mln.tonna	4,37	1995	2
Ovlangan baliq	mln.tonna	6,0	1995	4

Sanoati. Ishlab chiqarish AQSH xo'jaligida eng katta sektor hisoblanib, u yalpi ichki mahsulotning chorak qismi, milliy foydaning chorak qismini va ishchi kuchining birdan besh qismini egallaydi. AQSHning ishlab chiqarish sanoati dunyoda eng katta bo'lib, u ikkinchi o'rinda turgan Yaponiyadan 3 marta yirik.

AQSHning ishlab chiqarish sanoati eksporti dunyo bo'yicha shu sohadagi eksportning birdan besh qismini egallaydi.

Qo'shma Shtatlar sanoati yuksak darajasi, ishlab chiqarish va hududiy konsentrasiyasi bilan ajralib turadi. U ham ommaviy, seriyali, ham o'rta murakkab, unikal mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Mamlakat sanoatida hozirgi paytda faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarishlarning barcha tarmoqlari, tarmoqchalari va turlari mavjud. Shu bilan birga, shunday tarmoqlar ham borki, ular mamlakatning jahon xo'jaligidagi mavqeini belgilaydi. Bular jumlasiga avtomobilsozlik, aviaraketa-kosmik sanoati, elektronika, neft kimyosi sanoati kiradi. Bu tarmoqlar nafaqat mamlakat iqtisodiy qudratini belgilaydi, shu bilan birga, uning harbiy va siyosiy hayotida ham yetakchi rol o'ynaydi.

AQSHda sanoat korxonalari notekis joylashgan. Sanoatning eng rivojlangan regioni Markaziy Shimol (ayniqsa Illinoys, Ogayo, Michigan) bo'lib, u umumiy ishlab chiqarishning 25%ini beradi. O'rta Atlantika regioni (Nyu-York, Pensilvaniya, Nyu-Djersi) ikkinchi o'rinni egallab, mamlakat ishlab chiqarishining 20% foizini tashkil etadi. Bir region asosan kimyo va mashinasozlikka ixtisoslashgan. Tinch okeani sohil bo'yi regioni (Kaliforniya) umumiy sanoatning 15%ini tashkil etib, 3-o'rinda turadi. Bu region transport jihozlari, oziq-ovqat mahsulotlari, elektrik va elektronik jihozlarga ko'proq ixtisoslashgan. Janubiy Atlantika regioni to'qimachilik, kimyo va tamaki mahsulotlariga ixtisoslashgan-umumiy ishlab chiqarishning 10%ini tashkil etib, ishlab chiqarishga 4-o'rinni egallaydi. G'arbiy-Janubiy-Markaziy va Sharqiy-Janubiy-Markaziy regionlar birgalikda bunday maxsulotlarning 15%ni yetkazib beradi va bularga Texas va Tenessi (asosan) shtatlari kiradi. Qolgan 15%ni g'arbiy-Shimoliy-Markaziy region, Nyu-Ingland va tog'li shtatlar chiqaradi.

Qishloq xo'jaligi. Qishloq xo'jaligi milliy foydaning 2%ini berib, unda ishchi kuchining 3%i band bo'lsa ham mamlakatda muhim tarmoqlardan hisoblanadi. AQSH qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchilar orasida dunyoda 1-o'rinni egallaydi. Buning sababi, fermer ish kuchining juda yuqori mahsuldorligidadir. AQSHdagi qishloq xo'jaligi ishchilari dunyo qishloq xo'jaligi ishchilarining 0,5%ini tashkil etsada sut, go'sht, paxta, soya, tamaki ishlab chiqarishda 1,2-o'rinlarni egallaydi.

Agrobiznes sharoitida bosqichma-bosqich ixtisoslashuv yuksak rivojlangan. Bunday ixtisoslashuvga binoan bir butun ishlab chiqarish jarayoni bosqichlarga bo'lib amalga oshiriladi. Masalan, pomidor kuchatlarini janubi-sharqiy shtatlar fermerlari yetishtiradilar. So'ngra bu ko'chatlar Kaliforniyaga keltirilib, ulardan serhosil mahsulot olinadi. Texas shtatida esa bu pomidordan sharbat tayyorlanadi. Fermerlarning bunday ixtisoslashuvi tabiiy sharoitdan eng samarali foydalanishga, mahsulot sifatini oshirishga va uning tannarxini arzonlashuviga imkon yaratadi. Tekislikdagi shtatlar bug'doy; O'rta-G'arbdagilar don va soya; Kanzas, Texas, Nebraska va Missuri sorga; Minnesota, Dakota, Ayova va Viskonsin suli ekishga ixtisoslashgan. Texas, Kaliforniya, Missisipi va Arizona paxtaga; Djordjiya, Texas, Alabama va Shimoliy Karolina yer yong'oqqa; Shimoliy Karolina va Kentukki tamakiga; Kaliforniya, Minnesota, Shimoliy Dakota va Aydaxo qand lavlagiga; Arkanzas, Texas, Kaliforniya va Luiziana sholiga ko'proq ixtisoslashgan. Kaliforniya meva va sabzavotlar va Florida sitrus mevalari; Vashington va Nyu-York olma yetishtirishga ixtisoslashgan. Yillik baliq ovlash miqdori bo'yicha AQSH dunyoda 5-o'rinni egallaydi.

Transport. AQSH barcha transport turlarining rivojlanganlik darajasi bo'yicha ham dunyoning istalgan

mamlakatidan ustun turadi. Avtomobil transporti mamlakatda alohida mavqega ega. O'tgan asrning 90-yillar boshiga kelib, AQSH avtomobil parki ega bo'lgan mashinadan 200 mln.dan oshdi.

AQSH transport tarmoqlarining asosini kenglik va meridional yo'nalishdagi transkontinental magistrallar tashkil etadi. Ular fonida meridional yo'nalishda o'tgan «Amerika-Volgasi» hisoblanmish Missisipi suv yo'li katta ahamiyatga ega.

AQSHdagi eng yirik transport tuguni - Chikago. Bu yerda o'nlab temir va avtomobil yo'llari o'zaro tutashgan bo'lib, turli xil yuklar bir yo'ldan ikkinchisiga olib ortiladi. Chikagoda dunyoda eng katta O-Xeyr aeroporti bor. Mamlakatda yuzga yaqin port mavjud. Port sanoat majmualarining eng yiriklari Atlantika bo'yining shimoliy qismida va Meksika qo'ltig'i sohilida joylashgan.

Qo'shma Shtatlarda nomoddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi juda tarakkiy etgan bo'lib, endilikda o'zida band aholining 2/3 qismini to'plagan. Hozirga qadar AQSH xo'jaligining hududiy strukturasiga tabiiy sharoit va resurslar, transport, mehnat resurslari, konsentrasiya kabi omillar katta ta'sir ko'rsatib keldi. Fan-texnika inqilobi davrida fantalab tarmoqlar, iqtisodiy-geografik o'rin va ekologik omillar katta ahamiyat kasb eta boshladi.

Xorijiy Yevropadan farqli ularoq, AQSH xo'jaligining hozirgi «qiyofasi» uchun iqtisodiy hayotning chekka okeanbo'yi va ko'lbo'yi rayonlarida to'planganligi xodir. Bu xususiyat shahar aholisining g'uj tuplanganligi bilan bevosita bog'liq. Uchta megapolisda mamlakat jami sanoat mahsulotining 3/5 qismi ishlab chiqariladi.

AQSHda ham iqtisodiy taraqqiy etgan boshqa mamlakatlardagi kabi keskin hududiy nomutanosibliklar

mavjud. Ko'pincha yuksak rivojlangan hududlar bilan qoloq rayonlar yonma-yon joylashgan. Bunday nomutanosibliklarni yumshatish maqsadida olib borilayotgan mintaqaviy siyosat muayyan natijalar bermoqda. Chunonchi, hozirgi paytda ishlab chiqarish kuchlarini shimoliy shtatlardan janubiy va g'arbiy shtatlarga siljish jarayoni aniq namoyon bo'lmoqda.

9.4. AQSHning ichki tafovutlari

Yaqin-yaqinlargacha AQSHni 3 asosiy iqtisodiy rayonga bo'lishar edi. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'ra u bir-biridan farq qiluvchi quyidagi 4 mikrorayonga - Shimoliy-Sharq, O'rta-G'arb, Janub va G'arbga ajratiladi.

Shimoli-Sharq millatning ustaxonasi. Shimoli-Sharq maydoniga ko'ra, eng kichik mikrorayon bo'lib, AQSHning sanoat hududi mintaqasi shu yerda vujudga keldi. U millatning ustaxonasiga aylandi. Bu yerdagi Shimoliy-Sharqiy megapolisni mamlakatning «bosh ko'chasi» (Main Street) deb ataydilar. Unda mamlakatning iqtisodiy poytaxti Nyu-York va siyosiy poytaxti Vashington joylashgan.

O'rta-G'arb yirik sanoat va qishloq xo'jaligi rayoni. O'rta-G'arb mintaqasi, hududi tobora G'arbga surilib, ba'zan «Amerika O'rta dengiz bo'yi»si deb ataladigan Ko'l bo'yini qamrab oldi. Bu yerda yoqilg'i va xom ashyoning katta resurslari va rayonning qulay IGU bazasida Chikago, Detroyt, Klivlend kabi yirik sanoat markazlari shakllandi, Ko'l bo'yi megapolisi tashkil topdi.

Chikagoni O'rta-G'arbning poytaxti deyishadi. U AQSH dagi eng katta transport tugunidir. Chikago suburbanizasiyaga yaqqol misoldir. Uning aglomerasiyalariga o'nlab yo'ldagi shaharlar, «tutash» shaharlar kiradi. U mamlakatning oziq-

ovqat (g'alla) makoniga aylangan. U AQSH hududining 0,2 qismini egallagani holda mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulolarining yarim qismiga yaqinini beradi. Bu mikrorayon sut, makkajuxori mintaqasida joylashgan.

Janub katta o'garishlar mikrorayoni. Janub uzoq vaqt sust rivojlandi. Bunga asosiy sabab quldorlikka asoslangan plantasiya xo'jaligining keng tarqalganligi edi. Rayon neft, tabiiy gaz, ko'mir, fosforitlar qazib olish, elektrostansiyalari va neft zavodlarining quvvati jihatidan mamlakatda birinchi o'rinni egallaydi. Bu yerda gazmol va tamaki mahsulotlarining 9/10 qismi to'plagan, paxta mintaqasining maydoni qisqargan. Janub mikrorayonida dunyoga mashhur Mayami (Florida shtati) joylashgan, unga yiliga 50 mln. turist keladi.

G'arb AQSHning eng yosh va o'sayotgan makrorayoni. G'arb buyuk tekisliklardagi preriyalarni keng yaylovlari, yirik qoramol va qo'ylar o'lkasi, rancho, kovboylar, mis, molibden, uran, oltin va ko'mir konlari, obikor dehqonchilik, milliy parklar o'lkasidir. G'arb tarkibiga shuningdek, AQSH dagi yangi o'zlashtirilayotgan bosh resurs rayoni Alyaska bilan ananaslar va turizm oroli- Gavayi orollari ham kiradi.

9.5. Tashqi iqtisodiy aloqalari

AQSH iqtisodiyotida tashqi iqtisodiy aloqalar katta rol o'ynaydi. Ishlab chiqarish sohasi ko'proq chet el bilan tovar va katta kapital almashuviga qaratilgan, chet el bilan ishlab chiqarish borasida kooperasiya rivojlangan. Tashqi savdo oborotining 60 foizi rivojlangan mamlakatlarga, 39 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida AQSH bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish va tobora

chuqurlashtirish alohida o'rin tutadi. 1992 yil 15-16 fevral kunlari AQSH davlat kotibi Djeyms Beyker O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi va ikki davlat O'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. Toshkentda birinchi bor AQSH elchixonasi ochildi. O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov boshliq davlat delegasiyasining 1996 yil 23-28 iyun kunlarida AQSHda bo'lishi O'zbekiston va Amerika munosabatlarini yangi pog'onaga ko'tardi. I.A.Karimov AQSH prezidenti Bill Klinton bilan uchrashdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar, iqtisodiy xavfsizlik masalalari sohasida hamkorlik rivojlantirilmoqda.

Qisqacha xulosalar

AQSH - iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlat. Uning hududi uch qismdan iborat: materik, yarim orol, va orol.

AQSHning geografik joylanishi (uch okean suvlari bilan yuvilib turishi, tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari) uning rivojlanishi uchun juda qulay imkoniyat yaratgan.

AQSH sanoati yuksak darajada rivojlangan. Sanoatning eng yangi tarmoqlari tez sur'atlar bilan rivojlangan va rivojlanmoqda.

AQSH qishloq xo'jaligi ham yuqori darajada rivojlangan. AQSH aholisining 3-5%i qishloq xo'jalik mahsulotlari eksporti bo'yicha jahonda yetakchi hisoblanadi.

Nazorat va mulohokama uchun savollar

1. AQSH geografik o'rnining qulayligi nimadan iborat?
2. AQSH qanday tabiiy resurslarga boy?
3. AQSHda davlat tuzumi qanday?

4. AQSH aholisi o'sish va joylashishining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
5. AQSH sanoatining yetakchi tarmoqlari nimalardan iborat?
6. AQSH asosiy qishloq xo'jaligi tarmoqlari geografiyasi-chi?
7. AQSH transport tarmoqlari rivojlanish va joylashishiga ko'ra qanday xususiyatlarga ega?
8. AQSH tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishi bo'yicha qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?

X mavzu. YAPONIYANING IQTISODIY-GEOGRAFIK TAVSIFI

10.1. Rivojlanish xususiyatlari

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr Osiyo-Tinch okeani hududidagi mamlakatlar iqtisodiyoti uchun o'ziga xos «sakrash» yillari bo'ldi. Ko'p yillar o'rtacha va qoloq bo'lib kelgan davlatlar tarixan qisqa vaqt ichida ulkan yutuqlarga erishdi Ikkinchi jahon urushida qattiq siyosiy va iqtisodiy talofot ko'rgan, hatto taslim bo'lishdek og'ir musibatni boshidan kechirgan bu davlat bir avlod umri davomida sanoat hamda ilmiy-texnika rivojida dunyoda eng taraqqiy etgan mamlakat darajasiga ko'tarila oldiki, «Yaponiya mo''jizasi» jahondagi barcha olimlar, iqtisodchilar, sosialoglarni hayratga soldi. Yaponiyaning rivojlanish «sir»lari hammani, shu jumladan, bizni ham qiziqtirishi tabiiy. Ayniqsa, sanoatning va xizmat, ya'ni servis sohalarining nihoyatda tez o'sish sur'atlari, jahonda bo'layotgan o'zgarishlarga tezlik bilan moslashuvchanlik, horijdagi ilg'or tajribalarni nihoyatda ustalik bilan ijodiy qabul qilish va yanada rivojlantirish borasidagi nodir qobiliyat yaponiyaliklarga xos xususiyatdir. Aynan shu bois u qisqa vaqt ichida jahondagi (AQSHdan keyin) ikkinchi davlatga aylandi. Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy.

Yaponiyadagi iqtisodiy mo''jiza tasodifiymi yoki uni yuzaga chiqargan omillar mavjudmi? Agar shunday bo'lsa bu omillar nimadan iborat?

Ushbu mamlakat iqtisodiy tadqiqotlar instituti xodimlarining ma'lumotlariga ko'ra, erishilgan barcha yutuqlar hukumat tomonidan olib borilgan tug'ri iqtisodiy siyosat natijasidir.

Yaponiya iqtisodiyoti quyidagi bosqichma-bosqich usullar asosida rivojlandi:

1946-1949 yillar mamlakatda agrar islohot o'tkazilib, qishloq xo'jaligidagi eski feodal qoldiqlarning barchasi tugatildi, bozor munosabatlari to'la o'rnatildi

Iqtisodiyotni qayta qurishni ko'p yillar mobaynida davlat o'z nazoratiga oldi, uning ilhomchisi va boshqaruvchisi bo'ldi, natijada iqtisodiyotda demilitarizasiya (harbiy yo'ldan tinchlik yo'liga o'tish) yo'liga o'tish turli yo'llar bilan ishlab chiqarish kuchlarini jonlantirish, tashqi savdoni liberalizasiya (erkin) qilishga keng imkon berildi.

Tushkinlikdagi (giperinflyasiya, ishlab chiqarishning pastligi) iqtisodiyotni avvalo, barqarorlik holatiga o'tkazish, ikkinchidan, liberallash, uchinchidan, strukturaviy qayta qurish, to'rtinchidan, real taraqqiyotga erishishdek muhim vazifalar bosh masala qilib qo'yildi.

Xo'sh, bu vazifalar amalda qanday ro'yobga chiqarildi? Urushdan keyin butunlay izdan chiqqan iqtisodiyotni turli yo'llar bilan to'g'ri izga solish uchun, yuqorida aytganimizdek, davlat nazorati saqlandi. 1946 yilning fevralida kartochkalar tizimi joriy etildi. Shu yili ilgarigi nihoyatda yirik konsernlar - dzaybasu (oila asosiga kurilgan korxonalar) o'rniga yangi tipdagi korxonalar («Misubisi», «Misui», «Sumimoto» va boshqalar) yuzaga keldi. Sanoatni disentralizasiyalash uchun antimonopol qonunlar chiqarildi. Shu tariqa Yaponiyada o'ziga xos uch islohot amalga oshirildi: trestlar tarqatildi, agrar o'zgarishlar ro'y berdi va ishchi kuchini yollashning yangi (butun umrga yollash) usuli joriy etildi. Shu davrda (1947 yil 3 mayda) amaldagi Konstitusiya qabul qilindi. 1949 yildan boshlab ishlab chiqarishni rivojlantirish bosh vazifa kilib qo'yildi, baholar erkinligi joriy etilib, davlatning butun

iqtisodiyotdagi nazorati ancha susaydi. Iqtisodiyotda ustivor yo'nalish tog'-kon sanoatiga berildi. Oradan bir yil o'tgach, Yaponiyada urushdan avvalgi ko'rsatkichning 70 foizi miqdorida mahsulot ishlab chiqarila boshlandi.

Ayni chog'da iqtisodiyotni rasionalizasiyalash va modernizasiyalashga o'tildi. Sanoat korxonalari uchun 5 yil muddatga imtiyozlar (kredit, soliq siyosati, investisiya bo'yicha) berildi. Shu davrda an'anaviy sanoat tarmoqlari bilan birga yangi korxonalar yuzaga keldi: sohada strukturaviy o'zgarishlar ro'y berdi (sintetika va elektronika), ayrim tarmoqlar (kemasozlik) rivoji pasaydi.

1960 yildan e'tiboran xalqaro savdoda erkinlikka qarab yo'l olindi, (vaholanki mamlakatda tashqi savdo vazirligi 1949 yilning mayida tuzilgandi). Yaponiya shu davrda jahondagi barcha iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'ldi. 1967 yildan esa mamlakatda tovar va kapitalning erkin holati boshlandi. Natijada 1952-1990 yillar davomida Yaponiya iqtisodiyoti hajmi 65 marta o'sdi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, to'la bozorga avvaldan belgilangan reja va muddatlarda o'tildi. Bu jarayonda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yilmadi. 1949 yildan boshlab ish haqi ustidan davlat nazorati o'rnatildi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda ilg'or davlat - AQSH tajribasi qo'llandi, lekin boshqa davlatlar tajribasi ham inkor etilmadi.

I. A. Karimov «O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» nomli kitobida: «Amerikacha andozada» erkin bozor munosabatlari ayniqsa, kuchli rol o'ynaydi, «Yapon» va «Fransuz» andozalarida esa xo'jalik faoliyatini tashkil qilishda davlatning ishtiroki anchagina kattadir - deya bejiz ta'kidlagani yo'qyilgan. Aynan shu tufayli Yaponiyaning yalpi milliy mahsuloti 4.4 trillionndan ortiq bo'lib,

bu boradagi yillik o'rtacha o'sishi 1,4% ga yetadi. Yaponiya sanoat ishlab chiqarish hajmi va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha faqat AQSH dan ortda holos. Bu davlat o'tgan asrning 80-yillari o'rtasida kapitalistik mamlakatlarda ishlab chiqariladigan barcha mahsulotning 15%i ni yetkazib berdi. Jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha esa AQSHdan o'zib ketdi va jahonda (Shveysariyadan keyin) ikkinchi o'ringa chiqib oldi. Qiyos uchun, bu ko'rsatkich Buyuk Britaniyada - 11.6 ming dollar, AQSHda - 18.2, GFRda - 18.3 bo'lsa, Yaponiyada - 19.5 ming dollarni tashkil etadi.

Yaponiya ishlab chiqarishi eksportga ham yo'naltirilgan. Bu yerdan chetga tayyor, raqobatlasha oladigan, nisbatan arzon va sifati yuqori ko'p turdagi mahsulotlar chiqarilsa, xorijdan (import) energiyaning 81%i, neft 99,7%, temir rudasi, boksit, nikel rangli metallarning hammasi olib kelinadi. Oziq-ovqat bilan ichki ta'minot 75% ga teng. Mamlakat ichki imkoniyatlari hisobiga faqat guruch bilan to'la ta'minlanadi, uni qisman eksport qiladi. Demak bu davlat boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikka «maxkum etilgan»

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qulay (eksport) va chetdan kerakli va arzon xom ashyolarni (import) olib kelish tufayli taraqqiyot bor foyda faol savdo balansi hisobiga yuzaga keldi.

Yaponiyada ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlariga e'tibor tobora ortib bormoqda, fan-texnika ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'liq, bu sohaga kapital sarflash (YAMF - 4%), eng samarali hisoblangan eksportda texnologiya kashfiyotlari hissasi tobora o'sib bormoqda. Shu sababli bu yerda olimlar alohida e'tiborda.

10.2. Geografik joylashishi, tabiiy sharoiti va boyliklari

Yaponiya (yaponcha Nippon Nixon) Tinch okeanidagi orollarda Sharqiy Osiyo sohili yaqinida joylashgan davlat. Hududida 4 mingga yaqin orolni qamrab olgan, shimoli-sharqdan janubi-g'arbga qariyb 3 ming km ga cho'zilgan; yaeng yirik orollari: Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku, Kyusyu. Mamlakatning asosiy orollari ulkan muhandislik inshootlari (suv osti tunellari, ko'priklar) orqali o'zaro bog'langan. Maydoni - 370 ming km. Aholisi - 123 mln. nafar. Poytaxti - Tokio. Yaponiya ma'muriy jihatdan 46 prefektura va Xokkaydo gubernatorligiga bo'lingan.

Yaponiya mo''tadil subtropik va tropik iqlim mintaqalarida joylashgan. Qirg'oq chizig'ining umumiy uzunligi 30 ming km, chamasida. Xonsyu orolining janubiy sohili, Sikaku va Kyusyu orollarining qirg'oqlarida qo'ltiq ko'p; bu yerda murakkab qirg'oq chizig'iga ega bo'lgan Ichki Yapon dengizi joylashgan. Ryukyuning janubiy orollari marjon riflari bilan o'ralgan.

Relyefi. Yaponiya hududining **3**/**4** qismi qir va tog'lardan iborat: past tekisliklar sohil buylab ayrim-ayrim joylashgan. Xokkaydo orolidagi tizmalarning ba'zi cho'qqilari balandligi 2000 metrdan oshadi. (Asaxi cho'qqisi - 2290 metr). Xonsyu orolining shimoliy qismida 3 ta bo'ylama tog' tizmalari bo'lib, ular vodiy va soyliklar bilan bo'lingan: orolning o'rta qismidan o'tgan Fossa-Magna siniqlar zonasi (uzunligi 250 km.) bo'ylab qator vulkanlar, jumladan, Yaponiyadagi eng katta vulkan - Fudziyama (balandligi 3776 metr) qad ko'targan. Xonsyu oroli markaziy qismidagi tizmalarning cho'qqilari alp relyefi va yilning ko'p qismida qor bilan qoplanib turadi. Yaponiyada balandligi 3000 metrdan yuqori 16 ta cho'qqi bor.

Sikoku orolining eng baland joyi 1981 metr(Isidzuti cho'qqisi), Kyusyu oroliniki-1788 metr (Kudzyu vulkani).

Geologik tuzilishi va foydali qazilmalari: Yapon orollari yoyi g'arbiy Tinch okean geosinklinal mintaqasi tarkibiga kiradi. Fossa-Magna kundalang siniklar zonasi Yaponiya hududini tuzilishi jihatidan o'zaro farq qiluvchi ikki bo'lakka bo'lib turadi. Xokkaydo oroli va Xonsyu orolining shimoliy qismi paleozoy-mezozoy qatlamlaridan tuzilgan.

Yaponiya hududi kuchli seysmik zonada joylashgan (1855,1891 1897 va 1923 yillarda falokatli zilzilalar bo'lgan). Yaponiyadagi 150 ta vulkandan 40 tachasi so'nmagan. Vulkanli rayonlarda mineral va termal buloqlar ko'p. Foydali qazilmalardan ko'mir, temir rudasi, oltingugurt, marganes, qo'rg'oshin, rux, mis rudalari, neft, xromit, oltin, kumush va simob konlari bor.

Iqlimi mussonli, shimolida mo''tadil, janubida subtropik, RYUKYU orollarida asosan tropik. Xokkaydo orolida, Sapporoda yanvarning o'rtacha harorati - 50S, iyulniki 220S, Okinavada yanvarning o'rtacha harorati 160S, iyulniki 280S. Materikdan esgan qishki musson Yaponiya hududiga sovuq havo va ko'p yog'in keltiradi. Yiliga 30 martagacha tayfun bo'ladi. Bu vaqtda kuchli shamol esib, jala yog'adi. O'rtacha yillik yog'in 1800 mm. Xokkaydo orolining sharqida yillik **yog'in** 800-1200 mm, Sikoku va Kyusyu orollarida 3000 mm.gacha.

Ichki suvlari. Daryolari qisqa, ammo sersuv. Mamlakat gidroenergiya resurslari 52,7 mln. kvt. Shundan 21,8 mln. kvt o'zlashtirilgan (1975). Tayfun vaqtida daryolar toshadi. Ko'pgina daryolarning suvi sug'orishga sarflanadi. Mayda ko'llar ko'p. Yaponiyadagi eng katta ko'l Biva (maydoni 716 km2).

Tuproqlari. Shimolida o'tloqi-botqoq, janubda qo'ng'ir, o'rmon subtropik va tropiklarda sariq va qizil, tekisliklarda allyuvial tuproqlar tarqalgan.

O'simliklari. Yaponiya hududining **2**/**3** qismi o'rmon va butazorlardan iborat: o'rmonlarning **1**/**3** qismi ekib o'stirish orqali yaratilgan. YOg'och zahirasi 1,9 mlrd metr (1974). Yaponiyada jami 700 tur daraxt, buta hamda 3000 tur o't o'simligi o'sadi. Yaponiya florasida endemik turlar ko'p. O'rmonlar asosan igna bargli va keng bargli daraxtlardan iborat.

Hayvonot dunyosi. Yaponiyada sut emizuvchilarning 270, qushlarning taxminan 800, sudralib yuruvchilarning 110 turi mavjud. Yaponiya qirg'oqlariga tutash dengiz suvlarida baliqlarning 600 dan ziyod, molyuskalarning 1000 dan ortiq turi yashaydi. Faunasida endemik va relikt turlari ko'p.

Yaponiyada 10 mln. gektar yerda (mamlakat hududining **1**/**4** qismi) tabiat qo'riqlanadi. Shuning yarmini 23 ta milliy bog' va davlatga qarashli qo'riqxonalar tashkil etgan (1977 y.). 1970 yildan dengiz suv osti milliy bog'lari (1976 yilda 40 ta) mavjud bo'lgan. Yaponiya quyidagi tabiiy rayonlarga bo'lingan: Shimoliy, Shimoliy-sharqiy, Markaziy, Janubiy-g'arbiy.

10.3. Aholisi va uning joylashishi

Yaponiya - bir millatli mamlakat. Aholisining 90%dan ortig'i yaponlardir.

Yaqin vaqtgacha Yaponiya uchun tug'ilishning ko'pligi va aholi tabiiy o'sishining kattaligi xos edi. Endilikda tug'ilish keskin kamaydi va Yaponiya aholisining ko'payish tipi jihatidan boshqa rivojlangan mamlakatlarga yaqinlashdi. Bunga urbanizasiya sur'atining tezlashuvi va davlatning tug'ilishni nazorat qilish siyosati sabab bo'ldi.

Yaponiya - aholi zich joylashgan mamlakat. Aholisining O'rtacha zichligi 1 km ga 300 nafardan ortadi.

Urbanizasiyaning yuqori darajadaligi faqat shaharliklar soni ko'pligida emas, balki ularning asosiy qismini keng shahar aglomerasiyalarida to'planganligida ham aks etadi. Tokiodan Osaka shahrigacha bo'lgan shaharlar mintaqasi xuddi AQSHdagi ATLANTIKA bo'yi megalapolisiga o'xshagan yapon megalapolisiga aylangan. Aholi joylashishining shahar tipi shahar ta'rifini o'zgartirishga sabab bo'ldi: Yaponiyada yaqin vaqtlargacha aholisi 30 ming kishidan kam bo'lmagan aholi punktlari shaharlar qatoriga kiritilar edi, endilikda esa aholisi 50 ming kishidan ortiq bo'lgan aholi zich yashaydigan hamda odamlarning ko'pchiligi shaharlarga xos mehnatda band bo'lgan aholi rayonlari shaharlar deb ataladigan bo'ldi. Yaponiyaning chekka tog'li rayonlarida kichik-kichik tarqoq shaharlar ko'pchilikni tashkil etadi. Qishloq aholisi ko'pincha kichik posyolkalarda yashaydi. Aholining ixtisoslashish tarkibi keyingi vaqtlarda juda o'zgardi. Ikkinchi jahon urushi arafasida iqtisodiy faol aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligi va baliq ovlash bilan band bo'lgan, endilikda esa sanoatda qishloq xo'jaligi bilan baliq ovlashdagiga qaraganda ikki barobar ko'p kishi ishlamoqda. Moddiy boylik ishlab chiqarmaydigan sohalarda ishlovchi xodimlar, xizmatchilar, ilmiy xodimlar, mehmonxona xizmatchilari va boshqalarning soni tez ko'payib bormoqda.

Aholining sinfiy tarkibida mayda va o'rta burjuaziyaning salmog'i AQSH dagiga qaraganda bir oz katta, ishchi va xizmatchilarning salmog'i esa kichikroqdir. Biroq, Yaponiya xo'jaligida monopolistik burjuaziyaning roli AQSH dagidan kam emas.

Xokkaydo orolida mamlakatning eng qadimgi aholisi - aynlar (20 ming nafar chamasida) saqlanib qolgan. Shuningdek, koreys (700 ming nafardan ziyod) va xitoylar ham bor. Rasmiy

til - yapon tili. Asosiy dinlari - sintoizm (1945 yilgacha davlat dini bo'lgan) va buddizm.

Yaponiya aholisining soni jihatidan dunyoda 6-o'rinda turadi. Jami iqtisodiy faol ish bilan band aholi (52,2 mln. nafar) ning 27 foizi sanoatda, 22 foizi savdoda, 12,6 foizi qishloq xo'jaligida ishlaydi (1975y.). Aholisining o'rta zichligi 1 km.ga 298 nafar. (1975y.) to'g'ri keladi. Jami aholisining 75%i shaharlarda yashaydi. Eng yirik shaharlari: Tokio, Iokohama, Osaka, Nagoya.

10.4. Davlat tizimi

Yaponiya - konstitusion monarxiya davlatdir. Amaldagi konstitusiyasi 1947 yil 3 mayda kuchga kirgan. Yaponiyaning merosiy imperatari konstitusiyaga ko'ra «Davlat va xalq birligi ramzi» hisoblanadi. U parlament tavsiyasiga ko'ra, Bosh vazirni hukumat tavsiyasiga ko'ra, Oliy sud raisi va a'zolarini tayinlaydi, shuningdek, hukumat a'zolarini vazifalariga tayinlaydi, iste'folarini qabul qiladi, parlamentni chiqaradi va hokazo. Konstitusiyaga ko'ra, imperatorning davlat ishlariga aloqador bo'lgan har qanday faoliyati hukumatning maslahati va ma'qullashi bilan amalga oshuvi lozim, chunki hukumat imperatorning faoliyati uchun ma'sul hisoblanadi.

Oliy hokimiyat organi 2 palatali parlament (Vakillar palatasi 4 yilga, Maslahatchilar palatasi 6 yilga saylanadi), 20 yoshga yetganlarga saylov huquqi berilgan. Konstitusiyaga ko'ra, parlament hukumat faoliyatini nazorat qilib turadi, xalqaro shartnomalarni tasdiqlaydi. Oliy ijroiya hokimiyat organi - hukumat (Aizorlar mahkamasi).

Prefekturalarda mahalliy boshqaruvni saylab qo'yiladigan prefektura majlisi amalga oshiradi. Shaharlar posyolka va

qishloqlarda ham saylab quyiladigan majlislar bor. Mahalliy boshqaruv organlaridagi bosh mansabdorlar (prefekturalarda gubernatorlar, shaharlarda - merlar, posyolka va qishloqlarda - oqsoqollar) aholi tomonidan 4 yilga saylanadi.

Sud tizimini bosh sudya va 14 sudyadan iborat bo'lgan Oliy sud boshqaradi. Oliy sud konstitusion sud vazifasini ham bajaradi. Apelyasion sudlar, mahalliy sudlar, oila sudlari, intizom (boshlang'ich) sudlari bor. Sudyalarni Oliy sud tavsiyasi bilan Vazirlar mahkamasi tayinlaydi.

Konstitusiyaning maxsus moddasida Yaponiya urushdan abadiy voz kechdi va armiya tutmaydi deb yozib qo'yilgan. Biroq, hukumat reaksion kuchlar tazyiqi ostida «O'zini mudofaa qilish kuchini» ko'paytirib, harbiy sanoatning rivojlanishini rag'batlantirmoqda.

10.5. Xo'jaligining umumiy ta'rifi

Ikkinchi jahon urushi va undan keyin Amerika okkupasiyasi Yaponiya xo'jaligiga og'ir zarar yetkazdi. Biroq, o'tgan asrning 50-yillarida mamlakat iqtisodiyoti tezlik bilan rivojlana boshladi va Yaponiya o'z sanoatining yuksalish sur'atlari jihatidan barcha kapitalistik mamlakatlardan o'zib ketdi. Mamlakatning iqtisodiy jihatdan bunday tez o'sishi ko'p omillarga bog'liq. **Birinchidan**, urush yillarida eskirgan va ishdan chiqqan zavod jihozlari butunlay yangilandi, ular fan-texnika inqilobining eng yangi yutuqlari asosida ishlangan jihozlar bilan almashtirildi. Yapon monopoliyalari chet el patentlarini sotib olib, sanoatga jahon ixtirolarini tadbiq etdilar, ularni muttasil takomillashtirib bordilar. Shunday qilib, hozir Yaponiya sanoati jihozlarining **2**/**3** qismi eng yangi texnikaga to'g'ri keladi.

Keyingi yillarda mamlakat fan-texnika yo'nalishidagi tadqiqotlarni kengaytirmoqda. Yapon ishchilari o'ta savodli bo'lganliklari tufayli hozirgi zamon ishlab chiqarish texnikasini tez o'zlashtirdilar. **Uchinchidan**, davlat-monopolistik kapitalizmi Yaponiya sanoatini qayta qurishga har tomonlama yordam berdi: davlat korxonalarini rekonstruksiya qilish va yangi qurilishlar uchun sarflanadigan mablag'ning anchagina qismini o'z zimmasiga oldi monopoliyalarga soliq to'lash yuzasidan yengilliklar va katta qarz berdi. **To'rtinchidan**, yaqin vaqtlargacha mamlakatning harbiy xarajatlari ko'p bo'lmadi, bu hol xo'jalik uchun ajratiladigan davlat mablag'ini ko'paytirishga imkon berdi.

Hozirgi vaqtda Yaponiya sanoatining rivojlanish darajasi jihatidan jahon kapitalistik mamlakatlari o'rtasida ikkinchi o'rinda, ba'zi ishlab chiqarish sohalari (kemasozlik, tranzistorli radiopriyomniklar, sellyuloza tolasi, avtomobillar ishlab chiqarish) da esa birinchi o'rinni egallaydi.

Iqtisodiyotining strukturasi jihatidan Yaponiya AQSH dan birmuncha farq qiladi: Yaponiyada sanoat bilan qishloq xo'jaligi o'rtasida uzilish kamroq. Bu tarmoqlar bilan bir katorda transport, savdo-sotiq va xizmat ko'rsatish sohalari ham keng rivojlangan, «Fanga talabchan tarmoqlar» tobora rivojlanmoqda.

Yaponiya sanoatida ishlab chiqarishning markazlashuvi yuqori darajaga yetdi, biroq, boshqa ko'pchilik rivojlangan mamlakatlardan farqli o'laroq, bu yerda anchagina mayda, ko'pgina yarim kustar korxonalar saqlanib qolgan. Ular monopoliyalarga qarashli yirik korxonalar bilan shartnoma asosida ishlaydilar. Masalan, avtomobillar uchun kerakli detallar va ehtiyot qismlarning ko'pini kichik korxonalar ishlab beradi,

kuzov, motorlar va mashinani yig'ish ishlarini yirik zavodlar bajaradi.

O'tgan asrning 50-yillari boshigacha yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari yetakchi o'rinda turar edi, endi esa og'ir industriya mahsuloti jami sanoat mahsuloti qiymatining **3/4** qismini tashkil etmoqda. Undiruvchi sanoatning hissasi tobora kamayib bormoqda. Mamlakat xom ashyo bo'yicha ham, tayyor mollarni sotish jihatidan ham jahon bozoriga tobora ko'proq bog'lig' bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiyotning yaqin o'tmishdagi tezlik bilan rivojlanishi xo'jalikning notekis joylashganlik muammosini keskinlashtirib yubordi. Sharqiy dengiz bo'yi rayonlarida aholi va sanoat tobora ko'proq to'planib bormoqda, ayni vaqtda bir qancha hududlar (Xonsyu orolining shimoliy qismi. Xokkaydoning chekka rayonlari) sust rivoji sustligicha qolmoqda.

Sanoati. Yaponiyaning yokilgi xom ashyo bazasi juda cheklangan. Ko'mir resursi mamlakat ehtiyojining yarmiga yaqinini ta'minlaydi, kokslanuvchi yaxshi ko'mir juda oz. Yaponiya bir yilda kazib oladigan neft AQSHda yarim kunda kazib chiqariladi, temir va marganes rudalari kam, boksit va ko'pgina boshqa mineral xom ashyolar butunlay yo'q.

Energiyaning **4/5** qismi chetdan keltiriladigan xom ashyodan ishlab chiqarilishiga qaramay, mamlakatda yuqori darajada rivojlangan energetika xo'jaligi bor. Chetdan keltiriladigan neft asosida neftni qayta ishlovchi va neft-kimyosi sanoati o'sib chiqdi. Bu sanoat korxonalari Xonsyu va Kyusyu orollarining urbanizasiyalashgan polosasidagi shaharlarda joylashgan. Elektr energiyasi ishlab chiqarish tez o'smoqda. Yaqin vaqtlargacha elektr energiyasining asosiy qismini Xonsyu orolidagi tog' daryolariga qurilgan ko'pdan-ko'p GESlar berar edi. Keyingi vaqtlarda sharqiy sohildagi

shaharlarda chetdan keltiriladigan yoqilg'i bilan ishlaydigan qudratli IESlar qurildi. Hozir ham bu stansiyalar Yaponiyada ishlab chiqariladigan elektr energiyasining deyarli **4**/**5** qismini bermoqda. AESlari tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

Keyingi vaqtlarda metallurgiyada katta o'zgarishlar yuz berdi, u to'la rekonstruksiya qilindi. Eskirgan ko'pdan-ko'p zavodlar o'rniga eng yangi texnika bilan jixozlangan juda katta kombinatlar qurildi. Yaponiyada dunyodagi eng katta domna pechlari ishlab turibdi, po'latning **3**/**4** qismidan ko'prog'i konverterlarda kislorod yordamida eritiladi. Qora metallurgiya yo'nalishida ishlab chiqarishning yiriklashuvi va texnikaviy jihozlanganlik darajasi jihatidan Yaponiya barcha rivojlangan mamlakatlardan o'zib ketdi. Bu tarmoqning geografiyasi ham o'zgardi. Ikkinchi jahon urushiga qadar eng katta korxonalar ko'mir qazib olinadigan rayonda, Kyusyu orolining shimolida edi. Yangi kombinatlar Markaziy Xonsyuning chetdan temir rudasi, temir-tersaqlar va kokslanuvchi ko'mir keltiriladigan port shaharlarida qurildi. Chetdan keltiriladigan boksit va boshqa xom ashyolarga muljallangan rangdor metallurgiya korxonalari ham shu yerda bunyod etildi.

Yaponiya og'ir sanoatining yetakchi tarmog'i mashinasozlik. Transport mashinasozligi, stanoksozlik, elektrotexnika buyumlari, elektron mashinalar, tibbiyot apparaturalari hamda to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatlari uchun jihozlar ishlab chiqarish, ayniqsa, keng rivojlangan. Yaponiya kemasozligi juda xilma-xil: Iokogama, Osaka, Kobe, Nagasaki va boshqa ko'p markazlarining kemasozlik korxonalarida dunyoda eng yirik supertankerlar, kit ovlaydigan har xil kemalar, yuk tashish uchun belgilangan kichik kemalar ishlab chiqariladi. Ikkinchi jahon urishiga qadar mamlakatda avtomobilsozlik bo'lmagan, endilikda Tokio, Osaka Nagoya,

Kavasaki va sohil bo'yidagi boshqa shaharlarning zavodlari tufayli Yaponiya (AQSH bilan bir qatorda) avtomobil ishlab chiqarishda birinchi o'ringa chiqib oldi. Sanoatning eng yangi tarmog'i bo'lgan elektron sanoati ham tez rivojlandi. Yaponiyaning tranzistorli radiopriyomniklari, kinokameralari, fotoapparatlari, televizorlari jahon bozorida keng tanilgan. Turli ixtisosdagi mashinasozlik korxonalari Xonsyu va Shimoliy Kyusyu orollaridagi aholi zich yashaydigan polosa shaharlarida to'plangan.

Tez rivojlanib borayotgan kimyo sanoati ham turli-tuman mahsulotlar ishlab chiqaradi. Soha sanoati qisman o'z xom ashyosi - yog'och, koks chiqindisi va boshqalarga nisbatan chetdan keltiriladigan neft va suyultirilgan gazdan ko'proq foydalanadi. Organik sintez kimyosining keng ko'lamda rivojlanganligi Yaponiyaga sanoatni xom ashyo bilan ta'minlash muammosini hal etishda yordam bermoqda. Metall detallar asta-sekin plastmassa detallar bilan almashtirilmoqda, sintetik tola hozirgi vaqtda mamlakatda ishlab chiqariladigan to'qimachilik tolasining **9**/**10** qismini tashkil etmoqda. Kimyo zavodlari ham mashinasozlik korxonalari kabi Xonsyu orolining sharqiy sohilidagi va Shimoliy Kyusyudagi port shaharlarda va neftni qayta ishlash hamda metallurgiya markazlari yaqinida joylashgan.

Yengil sanoatning asosiy tarmoqlari bo'lgan ip-gazlama sanoati va ipak gazlama sanoati o'smayapti, mahsulot ishlab chiqarishda ular hamon urushdan avvalgi darajaga yetgani yo'q. Poyabzal sanoati jadal rivojlanmoqda. Bunga yaponlar hayot tarzining yevropalashuvi sabab bo'lmoqda. Shaharliklar oyog'ida eskidan rasm bo'lib kelayotgan geta (yog'och kovush) tobora kamayib, charm poyabzal esa ko'payib bormoqda.

Shimoliy Xonsyu va Xokkaydo orollaridagi anchagina o'rmon massivlari Yaponiyaning yog'ochsozlik sanoatini xom ashyo bilan qisman ta'minlaydi, o'rmon xom ashyosining ko'p qismi chetdan keltiriladi.

Qishloq xo'jaligi. Yaponiyaning tabiiy sharoiti qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun umuman qulay. O'rtacha balandlikdagi tog'larning yon bag'irlari yaxshi rivojlangan podzol tuproqlar va o'rmon qo'ng'ir tuproqlari bilan qoplangan. Yetarli darajada o'g'itlansa, bu tuproqlar yuqori hosil beradi. Sohillardagi allyuvial tuproqli tekisliklarni dehqonlar azaldan o'zlashtirganlar. Qo'riq yerlar faqat Xokkaydo orolida saqlanib qolgan: boshqa orollarda yaponlar botqoqlarning qirg'oqqa yaqin sohillari va daryo deltalarini quritib, ko'rfazlar hamda dengizning sayoz joylarini tuproq bilan to'ldirib, shular hisobiga shaharlarni va shahar atrofi xo'jaliklarini kengaytirmoqdalar. Orollar meridian bo'ylab cho'zilib ketganligidan ularning iqlim sharoiti turlicha. Xokkaydo orolida va Xonsyuning shimolida vegetasiya davri 120-140 kun davom etadi: dehqonchilikda ba'zi bir ekinlarning maxsus yaratilgan navlari (masalan, sovuqqa chidamli sholi) yetishtiriladi. Xonsyuning markaziy qismida qishning iliq kelishi kuzgi ekinlar ekishga imkon beradi, uzoq davom etadigan yoz sholi yetishtirish uchun juda qulay. Xonsyuning janubida va Kyusyu hamda Sikoku orollarida xilma-xil issiqsevar o'simliklar, shu jumladan, sitrus o'simliklarini yetishtirish mumkin.

Hozirgi Yaponiyaning agrar tizimi ikkinchi jahon urushidan so'ng o'tkazilgan islohot bilan belgilanadi. Islohot yirik mulkdorlarning haydaladigan yerlarini kamaytirdi: davlat pomeshchiklardan ortiqcha yerlarni sotib olib, dehqonlarga sotdi. O'rmon va o'tloqlar ilgarigi xususiy mulkdorlar qo'lida qoldi. Yerni ijaraga oluvchilar soni kamaydi, xususiy yer

egalarining soni ko'paydi. Biroq yer egalarining deyarli **2/3** qismiga chek yeri 1 gektardan kam. Shunga qaramay, islohot pomeshchik yer egaligini tugatdi. Yaponiya qishloq xo'jaligi tipik kapitalistik xo'jalikka aylandi.

Qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi jihatidan Yaponiya boshqa rivojlangan kapitalistik mamlakatlardan ancha farq qiladi. Bu mamlakat dehqonchilik mamlakati: dehqonchilik mahsulotining qiymati chorvachilik mahsulotining qiymatidan ikki barobar ortiq. Biroq chorvachilik (ayniqsa, shahar atrofida sut chorvachiligi tez rivojlanmoqda).

Intensiv dehqonchilik yuqori hosil beradi. Har yili olinadigan hosil garchi ekin maydoni o'zgarmagan bo'lsada, keyingi yillarda ancha oshdi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi yuqori darajada mexanizasiyalashgan. Shu bilan birga Yaponiya sanoati tabiiy sharoitning o'ziga xos xususiyatini hisobga olib, maxsus kichik hajmli mashinalar («Kichik mexanizasiya») ishlab chiqarmoqda.

Yaponiyaning asosiy ekini - sholi. Sholi barcha ekin maydonining yarmidan ortig'ini band qilgan. Sholi hamma yerda asosan sugoriladigan yerlarda, biroq tovar mahsulotining katta qismi Xonsyu orolining markaziy hamda janubiy rayonlarida yetishtiriladi. Xonsyuning shimolida va Xokkaydoda bo'g'doy, javdar va arpa eqiladi, biroq yetishtiriladigan don mamlakat ehtiyojini qondira olmaydi. Shaharlar atrofida sabzavot va mevalar yetishtiriladi. Texnika ekinlari - qand lavlagi, soya, tamaki, choy ham katta ahamiyatga ega.

Yaponlar azaldan gulchilik bilan shug'ullanib keladilar. Ko'p gularning yapon diniy (sintoizm) marosimlarida ahamiyati katta. Yaponlarda guldasta yasash, gullarni va daraxt novdalarini vazalarga chiroyli (ikebana) qilib solib qo'yish an'anaviy san'at hisoblanadi. Ikkinchi jahon urushiga qadar

Yaponiya o'z ipakchiligi bilan dong chiqargan edi. Endilikda ipakchilik tushkunlikka yuz tutdi, ipak qurti boqish bilan ko'pincha dehqonlikda qo'shimcha tarmoq sifatida shug'ullaniladi.

Baliq ovlash - Yaponiya xo'jaligining muhim tarmog'i. Baliq sohil bo'yidagi suvlarda ham, uzoq dengizlarda ham tutiladi. Qirg'oq yaqinida baliq ovlash bilan sohildagi qishloq aholisi, uzoq dengizlarda (asosan Tinch okeanining g'arbiy qismida) esa, texnika jihatidan mukammal baliq ovlaydigan floti bo'lgan yirik monopoliyalar shug'ullanadi. Ichki dengiz sohillarida baliqchilik xo'jaliklari joylashgan. Baliq ovlash jihatidan Yaponiya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Yaponlar ovqatida baliq, boshqa dengiz hayvonlari mahsulotlari katta o'rin tutadi.

Transporti. Yaponiyada quruqlikdagi transport ham, dengiz transporti ham birday rivojlangan. Mamlakat ichkarisidagi yuklar avtomobillarda, temir yo'l transporti va kabotaj kemalarda tashiladi. Temir yo'llarining katta qismi davlatga qaraydi. Bu yo'llarning yarmi elektrlashtirilgan. Eng muhim temir yo'llar sohildagi past tekisliklardan o'tadi. Tinch okeani qirg'og'i bo'ylab ketgan yo'l Xonsyu orolidan Kyusyu oroliga Simonosyoki qo'ltig'i tagidagi tunnel orqali o'tadi. Sugaru bug'ozi ostida dunyodagi eng uzun (54 km) tunnel qurilyapti. U Xokkaydo orolini Xonsyu oroli bilan bog'laydi.

Dengiz floti tonnajining kattaligiga qaramay tez o'sib borayotgan tashqi savdo yuklarini tashib berishga ulgura olmaydi va mamlakatga chet el kemalarini kira qilishiga to'g'ri keladi. Bo'sh reys bo'lmasligi uchun Yaponiyada turli yuklarni tashishga moslashtirilgan kemalar qurilgan: ularning maxsus jihozlangan palubalarida Yaponiyaning chetga chiqariladigan sanoat mollari (masalan, avtomobillar), orqaga qaytishda esa,

tryumga ko'mir, temir rudasi yoki boshqa mollar ortiladi. Kabotaj flotida hozirgi zamon kemalari bilan bir katorda yelkanli kemalar ham saqlanib qolgan. Ular ichki dengizda tashiladigan yuklarning anchagina qismini tashiydi.

10.6. Iqtisodiy-geografik tafovutlari

Aholisining zichligi va xo'jaligining rivojlanish darajasi jihatidan Yaponiyaning boshqa qismlari orasida Xonsyu orolining markaziy qismi alohida ajralib turadi. Yaponiyadagi eng baland (shu jumladan, yaponlar iftixori - balandligi 3776 m bo'lgan Fudziyama vulkani) va mamlakatdagi eng yirik pasttekisliklar ham shu yerdadir. Xonsyu sohilidagi pasttekisliklar bir zamonlarda Yaponiya dehqonchilik madaniyatining qadimgi markazi bo'lgan, keyinchalik bu yerda dastlabki shaharlar paydo bo'lgan.

Urbanizasiyalashgan sohil bo'ylari (Yaponiya megalapolisi) Yaponiyaning sanoati eng rivojlangan qismidir. Shu bilan birga Markaziy Xonsyuda intensiv va xilma-xil qishloq xo'jaligi keng rivojlangan. Bu yerda sholi, tog' yon bag'irlarida choy, tamaki yetishtiriladi. Shahar atrofi xo'jaligi yaxshi rivojlangan. Qoramollar va cho'chqalarning ko'pchiligi ham shu yerda to'plangan.

Yaponiya poytaxti - Tokio dunyodagi eng yirik shaharlardan biri, eng muhim sanoat, transport, savdo va madaniyat markazidir. Uning sanoat korxonalari orasida har xil mashinasozlik zavodlari (ayniqsa, avtomobillar, sanoat asbob-uskunalari, elektron mashinalar va apparatlar ishlab chiqaradigan zavodlar), neft kimyosi kombinatlari, shuningdek, poligrafiya, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati korxonalari ko'p. Tokioda ko'pgina yirik ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari, muzeylar va teatrlar bor. Shaharning tashqi qiyofasida

Yevropa va Yaponiya arxitekturasining qo'shilib ketgan shakli aks etadi. Markaziy rayonlari Yevropadagi yirik markazlarni eslatadi, ishchi kvartallari qishloqlarga o'xshaydi.

Tokiodan Tokio qo'ltig'i sohili bo'ylab shaharlar bir-biriga tutashib ketgan. Ularda metallurgiya, mashinasozlik va neft kimyosi korxonalari bor. Qo'ltiqdan chikaverishda bu sanoatlashgan hududning ikkinchi eng yirik markazi millioner shahar Tokioning avanporti - Iokogama joylashgan bo'lib, u dengiz kanali orqali poytaxt bilan ko'shilgan. Bu shaharda mamlakatning eng yirik kemasozlik korxonalaridan biri, ko'plab po'lat eritadigan va neft kimyosi kombinatlari, ko'p metall ishlatadigan mashinasozlik zavodlari bor. Urush yillarida shahar Amerika aviasiyasining hujumidan katta zarar ko'rdi, keyinchalik butun-butun kvartallar yangidan qurildi va yevropacha tus oldi.

Tokio aglomerasiyasidan g'arbda Ise ko'ltig'i sohilida ko'pdan-ko'p yo'ldosh shaharlar va keng shahar atrofi bilan birga Nagoya shahri joylashgan. Bu yirik metallurgiya-mashinasozlik va kimyo kompleksida har qaysi yo'ldosh shahar o'zining tor ixtisosiga ega: ba'zilari avtomobillar, boshqalari kimyoviy tolalar, ayrimilari murakkab stanoklar ishlab chiqaradi va xokazo. Aglomerasiyaning markazi - Nagoyada turli-tuman sanoat tarmoqlariga qarashli korxonalar bor.

Yaponiya megalopolisining janubiy-g'arbiy chekkasida uchta markaz: Osaka, Kobe va Yaponiyaning ilgarigi poytaxti Kioto atrofida tarkib topgan polisentrik shahar aglomerasiyasi joylashgan. Osaka mamlakatning eng katta shaharlaridan biri bo'lib, o'zining ip-gazlamalar va to'qimachilik mashinalari ishlab chiqarishdan iborat eski ixtisosini qisman saqlab qolmoqda. Biroq bu shaharda turli xil mashinasozlikning eng yangi tarmoqlari, xususan elektron va yirik kimyo korxonalari

katta ahamiyat kasb etadi. Kobe - qora metallurgiya va kemasozlik shahri. Uning mashinasozlik zavodlari kemalar uchun zarur bo'lgan hamma jihozlarni ishlab chiqaradi. Kiotoda mashinasozlik bilan bir qatorda milliy yarim kustar korxonalari - chinni idishlar, uyinchoqlar va yog'och buyumlar yasaydigan korxonalar saqlanib qolgan. Janubiy Xonsyu bilan Shimoliy Kyusyu xo'jaligining tipi va sanoatning joylashuvi jihatidan Markaziy Xonsyuga o'xshaydi, biroq iqtisodiy taraqqiyoti darajasi pastroq. Rayondagi eng yirik shahar aglomerasiyasi Kyusyu orolining shimolida millioner shahar Kitakyusyu (Shimoliy Kyusyu) atrofida joylashgan. Bu sanoat uzelidagi qora metallurgiya va ko'p metall ishlatadigan og'ir mashinasozlik yetakchi o'rin tutadi.

Janubiy Kyusyu va Sikoku orollari Shimoliy Xonsyu bilan Xokkaydo kabi kam rivojlangan hududlardir. Ularda qishloq xo'jaligi ustun turadi, sanoat korxonalari ayrim shaharlardagina bor. Ishlab chiqilgan loyihaga ko'ra, Xokkaydo orolida mahalliy ko'mir va ruda resurslari hamda chetdan keltiriladigan xom ashyo asosida yangi sanoat rayoni barpo etiladi. Xokkadote(Xokkaydo oroli) va Nagasaki (Kyusyu oroli) mamlakatning eng yirik baliq sanoati markazlaridir.

10.7. Yaponiya va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi

Munosabatlar uzoq yillik tarixiy ildizlarga ega. Ular eng asosiy karvon yo'li Markaziy Osiyo davlatlari orqali uzoq Sharqdan Yevropaga o'tgan «Buyuk ipak yo'li» davriga borib taqaladi.

Bugungi kunda Yaponiya iqtisodiy taraqqiyoti jihatidan jahonda ikkinchi o'rinda turadigan mamlakatdir. Jahon yalpi

milliy mahsulotining 14%i uning hissasiga to'g'ri keladi. O'tgan asrning 80-yillar o'rtalaridan boshlab bu mamlakat jahonda qarz beradigan eng yirik davlatga aylandi.

Islom Karimovning 1994 yil may oyida Yaponiyaga tashrifi amaliy hamkorlik aloqalari taraqqiyotiga yangi turtki bo'ldi.

O'tgan bir yil ichida mamlakatlarimiz o'rtasida tovar ayriboshlash hajmi sezilarli darajada o'sib, qiymati qariyib 29 million AQSH dollarini tashkil etdi. Shunisi diqqatga sazovorki O'zbekiston Yaponiyaga eksport qilayotgan mahsulotlar hajmi 1994 yildagiga qaraganda 2 barobar o'sdi.

Ayni paytda ikki mamlakat mutaxassislari savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi, sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash to'g'risidagi, shuningdek, ikki yoqlama soliq olmaslik to'g'risidagi bitimlarning loyihalarini tayyorlamoqdalar.

Bu hujjatlar O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasidagi hamkorlik aloqalarining rivojlanishi uchun keng istiqbollar ochadi.

Respublikamiz mustaqil bo'lgach, O'zbekistonga Yaponiya hukumati va ishbilarmon doiralari vakillaridan iborat ko'plab delegasiyalar tashrif buyurdi. Ularning asosiy maqsadi mamlakatimizdagi sarmoyaviy iqlim va yurtimizning iqtisodiy imkoniyatlari bilan tanishishdan iborat edi.

O'zbekiston - Yaponiya iqtisodiy hamkorlik qo'mitasi va Yaponiya - O'zbekiston iqtisodiy qo'mitasi o'zaro hamkorlik taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqda. Yaponiya - O'zbekiston iqtisodiy qo'mitasiga -Misui va Ko LTD-kompaniyasi prezidenti janob N. Kumagai rahbarlik qilmoqda. Ikki tomonlama iqtisodiy aloqalar taraqqiyotini muvofiqlashtirishga u katta ahamiyat berayotir.

Yaponiya hukumati mamlakat eksport-banki orqali Ko'kdumalok neft-gaz kondensati konini o'zlashtirish uchun 10,5 milliard iyen (qariyib 85 million dollar) hajmda mablag' ajratishga qaror qildi. Bu loyiha Yaponiyaning «M. YU. Kellog» firmasi tomonidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari Yaponiya bilan Buxorodagi neftni qayta ishlash zavodi qurilishi va Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini ta'mirlash borasida hamkorlik qilish yuzasidan muzokaralar olib borilmoqda.

O'zaro hamkorlik sohasida Yaponiyaning - Taraqqiyotiga rasmiy yordam- (TRYO) dasturi muhim o'rin tutadi. Ana shu dastur asosida Yaponiya va O'zbekiston mutaxassislari Orol hududidagi shaharlarni ichimlik suvi bilan ta'minlash va Sharqiy Bukantov (Qizilqum) volfram konini qazish loyihalari uchun texnik-iqtisodiy asoslarni tayyorlash ustida ishlamoqdalar.

Ayni paytda Yaponiya hukumati tomonidan telealoqa tarmoqlarini ta'mirlash loyihasini amalga oshirish uchun 12,7 milliard iyen (140 million dollardan ziyod) hajmda imtiyozli kredit ajratish masalasi ko'rib chiqilmoqda.

Bundan tashqari Toshkentda vagonlarni ta'mirlaydigan zavod kurilishi uchun imtiyozli kredit ajratish uchun tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Yaponiya O'zbekistonga beg'araz yordam sifatida Toshkent tibbiyot-pediatriya instituti va Toshkent ilmiy-tadqiqot pediatriya instituti klinikalarini tibbiy uskunalar bilan jihozlash maqsadlari uchun 650 million iyen, shiningdek, xorijdan keltirilayotgan mahsulotlarni sotib olish uchun 900 million iyen miqdorda mablag' ajratdi.

1994 yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi bilan mamlakatimizdagi Yaponiya elchixonasi o'rtasidagi Alisher Navoiy nomidagi teatrni zarur uskunalar bilan jihozlash uchun 500 ming AQSH dollari

miqdorida beg'araz yordam ajratish xususida almashuv hujjatlarini imzolash marosimi bo'lub o'tdi.

O'zbekiston iqtisodiyotining turli sohalari uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga ham katta e'tibor berilmoqda. O'tgan muddat ichida reyespublikamizning 40 nafardan ziyod vakili Yaponiyada malaka oshirib va yapon mutaxassislarining eng so'nggi yutuqlari bilan tanishib qaytdi.

«Taraqqiyotga rasmiy yordam» dasturidan tashqari Yaponiya hukumati O'zbekistonga 5 million AQSH dollari miqdorida insonparvarlik yordami ko'rsatishga qaror qildi.

Yaponiyaning yirik kompaniyalari bilan hamkorlikda to'qimachilik, tog'-kon sanoati va boshqa sohalar bo'yicha qo'shma loyihalar ishlab chiqilmoqda. Respublikamizda dunyoning yirik firmalariga aylangan «Misui va Ko LTD», «Misubisi korporeyshn», «Marubeni korporeyshn», «Summimoto korporeyshn», «Tomen korporeyshn», «Toyota sui korporeyshn», «Chori» va «Ay-ti es japan LTD» kabi kompaniyalarning doimiy vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston tashqi aloqalar vazirligi bilan «Misui va ko LTD», «Misubisi Korporeyshn», «Marubeni Korporeyshn», «Nisse Ivai Korporeyshn» va «Summimoto Korporeyshn» kompaniyalari o'rtasida o'zaro hamkorlik to'g'risidagi shartnomalar imzolangan. O'zbekiston Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki jahonga mashxur «Bank of Tokio» va «Sakura Bank» bilan samarali hamkorlik qilmoqda. O'zbekistonning talay shaharlarida "Soni" "Xitachi", "Panosonik" va boshqa yapon firmalarini savdo do'konlari ochilgan.

"Misubisi Korporeyshn" kompaniyasi direktorlari kengashining raisi S.Moroxasining, Tashqi iqtisodiy hamkorlik jamg'armasi (hukumat agentligi) Prezidenti A. Nishigakining "Misui va ko LTD" kompaniyasi prezidenti Naoxiko Kumagai

boshchiligidagi Yaponiya-O'zbekiston iqtisodiy hamkorlik qo'mitasi delegasiyasining O'zbekistonga bo'lajak tashriflari Yaponiyaning O'zbekiston bilan uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini o'rnatishga intilayotganidan dalolat beradi.

Yaponiya ham, O'zbekiston ham Sharq mamlakatlaridir: O'zbekistonning Yaponiya va boshqa Osiyo mamlakatlari qatoridan munosib o'rin olishiga shubha yuk. Sharq daraxtining bir shoxi bo'lgan O'zbekiston tanasida yangi, jo'shqin, kelajakka ishonch uyg'otuvchi hayotbaxsh sharbat oqmoqda.

Qisqacha xulosalar

Yaponiya jahondagi eng rivojlangan davlatlardan biri bo'lib, juda ko'p orollarda joylashgan. Eng yirik orollari: Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku, Kyusyu.

Yaponiyaning geografik joylashishi juda qulay, ammo tabiiy resurslarga juda kambag'al. Xom ashyoning asosiy qismini, ayniqsa, neft', gaz va temir rudalarini chetdan olib keladi.

Yaponiya maorif va fanni rivojlantirish tufayli iqtisodini yuksak darajaga ko'tardi. Yaponiya juda ko'p sohlar, ayniqsa, avtomobilsozlik, kemasozlik, elektronika sanoati bo'yicha jahonda yetakchi hisoblanadi.

Yaponiya - bir millatli davlat. Aholisining 98% ini yaponlar tashkil etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Yaponiyaning geografik o'rniga baho bering.

2. Tabiiy sharoitini ta'riflang.
3. Qanday tabiiy resurslarga boy?
4. Davlat tizimi qanday?
5. Aholisining o'sish va joylashish xususiyatlarini tushuntirib bering.
6. Mehnat resurslari hamda ulardan foydalanish muammolari.
7. Yaponiya jahonda qanday o'rin tutadi?
8. Sanoatining yetakchi tormoqlari, geografiyasi qanday?
9. Asosiy qishloq xo'jaligi tormoqlari geografiyasi?
10. Transport tarmoqlarining rivojlanish va joylashish xususiyatlari qanday?
11. Tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanish xususiyatlarini tushuntirib bering.
12. Yaponiyaning ichki tafovutlarini ajratib ko'rsating.
13. Yaponiya-O'zbekiston iqtisodiy aloqalari qanday rivojlanmoqda?

XI mavzu. GERMANIYANING IQTISODIY-GEOGRAFIK TAVSIFI

11.1. Iqtisodiy-geografik o'rni va jahonda tutgan o'rni

Germaniya Federativ Respublikasi (GFR), poytaxti - Berlin shahri.

Aholisi - 82,0 mln. nafar, maydoni - 356 ming kv.km.

Germaniya Yevropaning markazida joylashgan, uni sharq tomondan Polsha va Chexiya, janubdan Shveysariya va Avstriya, janubiy- g'arbdan Fransiya, g'arbdan Belgiya va Gollandiya, shimolda esa Daniya davlatlari, Shimoliy-sharqda Boltiq dengizi va shimoliy-g'arbda Shimoliy dengiz o'rab turadi.

Germaniya - NATO, G'arbiy Yevropa ittifoqi va umumiy bozorning a'zosidir. NATOning Markaziy Yevropa quruqligidagi birlashgan qurolli kuchlarining 45%ini Germaniya qo'shinlari tashkil qiladi. Germaniya va Polsha Boltiq dengizidagi portlardan va kema qatnaydigan Ozder daryosidan birgalikda foydalanadi. Germaniya uchun bevosita Shimoliy dengizga chiqish alohida rol o'ynaydi.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlangan hududlaridan oqib o'tuvchi Reyn daryosi va uning Rur hamda boshqa irmoqlari juda ko'p yuklarni dengizga va dengizdan mamlakat ichkarisiga tashishga imkon yaratadi. Germaniyaning siyosiy-geografik mavqei o'tgan asrning 60-yilari oxirigacha ko'p jihatdan hukmron doiralar mamlakatlariga bog'liq edi. Muayyan kuchlar bu siyosatni hozir ham qo'llab-quvvatlashmoqda. Shu sababli Germaniyaning sharqiy qo'shnilari Polsha, Chexiya va Rossiya bilan iqtisodiy va boshqa aloqalari uncha katta bo'lmadi.

Germaniya hukumati keyingi davrda birmuncha realistik

tashqi siyosat yuritmoqda, Rossiya, Polsha, Chexiya bilan tuzgan shartnomalarida mavjud chegaralar buzilmas chegara ekani qayd qilindi. Bu shartnomalar Yevropada ahvol keskinlashuviga sabab bo'ladi. Biroq, Germaniyaning realistik kuchlari bunga qarshi chiqmoqdalar. Germaniyada AQSHning raketa va yadro qurollari joylashgan. Germaniya aholisi soni jihatdan g'arbiy Yevropada eng yirik davlat. Ikkinchi jahon urushi vaqtida ancha talofat ko'rganligiga va tabiiy o'sishi pastligiga qaramasdan, G'arbiy Germaniya aholisi soni tezda urushdan avvaligidan oshib ketdi. Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan bu yerga 7,5 million kishi ko'chib keldi. Katta vayronalik va iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, hamma ko'chib kelganlar uy-joy va ish bilan ta'minlandi, dehqonlarga yer berildi. Urushda Germaniya ayniqsa, Sharqiy Germaniya juda ko'p odam yo'qotganligi, urush oqibatlari Germaniya aholisi tarkibi va ko'payish dinamikasiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

11.2. Germaniyaning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari

Germaniyaning katta qismida tabiiy sharoit qishloq xo'jaligi uchun qulay. Mamlakat hududining 33 foiziga yaqini Shimoliy Germaniya pastligida, deyarli yarmi yer yuzasi tekis bo'lgan o'rta Germaniya past tog'laridadir. Tuproqlari asosan o'rtacha unumdor. Ammo ishlanadigan yerlarining tuproqlari doim o'g'itlanganidan tabiiy tuproqlarga qaraganda ancha unumli.

Sanoatining rivojlanishiga imkon beruvchi tabiiy sharoit va resurslar ko'p jihatdan mamlakatdagi foydali qazilmalar bilan bevosita bog'liq. Boltiq qolqoni bilan bog'liq rudali foydali qazimalar, gersin burmalanishi bilan bog'liq yoqilg'ili

foydali qazilmalar bor. Germaniya toshko'mir qazib chiqarishda Yevropada oldingi o'rinlarda, ko'mir zahiralari bo'yicha jahonda 5chi, ko'mir ishlab chiqarish va undan foydalanish bo'yicha esa 4-o'rinda.

11.3. Aholisining joylashuvi, mehnatda bandligi

Germaniya aholisining joylashuvi, mehnatda bandlik strukturasi va sinfiy tarkibi jihatdan Yevropada, hatto, dunyoda oldingi o'rinlardan birinchi egallaydi.

Rur ko'mir havzasida esa aholi zichligi 1 km2 ga 1000-3000 nafar to'g'ri keladi. Urbanizasiya jihatidan Germaniya dunyoda birinchi o'rinda. Mamlakat aholisining 90 %ga yaqini shaharlarda yashaydi. Aholisi o'rtacha zichligi yuqoriligi hamda iqtisodiyoti yuqori darajada rivojganligi, qishloq xo'jaligi qulay tabiiy sharoitga ega bo'lgan janubiy okruglarda mineral xomashyolari ancha zichligi uchun rivojlanishdan birmuncha orqada. Shimoliy okruglarda esa aholi siyrakroq joylashgan. Aholining tabiiy o'sishi katta emas, o'rtacha zichligi 1 km2ga 300 nafarni tashkil qiladi. 28-jadvalda Germaniyaning asosiy yirik shaharlari aholisi soni ko'rsatilgan.

28-jadval

Germaniyada eng yirik shaharlari aholisi

Berlin (poytaxt)	3438000
Gamburg	1661000
Myunxen	1237000
Kyoln	1004000
Frankfurt Mayn	647000
Essen	626000
Dortmund	600000
Shtutgart	584000
Dyusseldorf	577000
Bremen	552000

Duysburg	537000
Gannover	514000
Leyptsig	508000
Nyurnberg	495000
Drezden	488000

Ko'rinib turibdiki, mamlakat aholisining katta qismi poytaxtda - Berlinda yashaydi. Aholi zichligi bo'yicha Gamburg va Myunxen shaharlari turadi. Berlin, Gamburg va Myunxen shaharlarida aholining juda yirik qismi 46% yashaydi. Germaniyada mehnatda band aholining tarkibi quyidagicha: iqtisodiy faol aholining yarmi yoki qishloq xo'jaligidagiga qaraganda o'n hissa ko'p qismi sanoatda, hunarmandchilik va qurilishda bandligi xosdir.

11.4. Xo'jaligining umumiy ta'rifi

Germaniya Respublikasi yuqori darajada rivojlangan industrial davlat. Sanoat ishlab chiqarish darajasi jihatdan Germaniya AQSH dan ancha orqada, ammo Yaponiya bilan deyarli bir qatorda, boshqa rivojlangan mamlakatlardan oldinda turadi. Yaponiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Belgiya ishlab chiqargan mahsulotlarning umumiy miqdoridan ko'p mahsulot ishlab chiqaradi.

Sanoat - Germaniya iqtisodiyoti qudratining asosi. Sanoatda eng yirik monopoliyalar xal qiluvchi rol o'ynaydi. Urushdan keyin Germaniya sanoati yuqori sur'at bilan rivojlanishi natijasida jahon xo'jaligida tez orada juda muhim mavqeni egallab oldi. Buning sabablari ko'p.

29-jadval

Germaniyaning jahonda tutgan o'rni

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Miqdori	Egallagan o'rni
YaMM	Mlrd.dollr.	2252.33	3
YaMM aholi jon boshiga	Ming dollar	27,5	6
Elektr energiya	Mlrd. kVtG`s	483,3	6
Ko`mir	Mln .tonna	261,5	5
Miss	Mln. Tonna	0,59	4
Rux	Mln. Tonna	0,36	4
Plastmassa	Mln. Tonna	16,5	3
O`simlik yog`i	Mln. Tonna	2,42	8
Margarin	Mln. Tonna	0,65	4
Saryog`	Mln. Tonna	0,45	4
Pishloq	Mln. Tonna	1,37	3
Vino	Mln. Gkl	11,3	6
Pivo	Mln. Gkl	113,4	3
Sigaret	Mlrd. Dona	222,8	4
Bug`doy	Mln. Tonna	16,7	8
Po`lat	Mln. Tonna	42,0	5
Yog`och materiallari	Mln. M	13,5	8
G`isht	Mlrd. Dona		

Germaniya iqtisodiyotida sanoat yetakchi rol o'ynaydi. Sanoat mahsuloti qiymati jihatidan qishloq xo'jaligi mahsulotidan 6 barobar ortiq. Shu bilan birga Germaniya qishloq xo'jaligi yuqori darajada intensivligi bilan ajralib turadi va bu jihatdan Yevropada oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Qishloq xo'jaligini mexanizasiyalashtirish, elekrlashtirish jihatidan, u eng yuqori darajadadir. Germaniya eng murrakab mahsulotlar - mashinasozlik va sertarmoq kimyo sanoati mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar import qilinadigan mashinalarning 33 % ga yaqin qismini Germaniya respublikasidan oladi. Qishloq xo'jaligi o'z mahsulotlarining qiymati jihatidan sanoatdan 15 marta past ko'rsatkichga ega.

Qishloq xo'jaligi tobora sanoat bilan birlashib ketmoqda, umuman olganda, u yuqori darajada rivojlangan, ammo «umumiy bozor»da o'zining ba'zi bir raqiblaridan orqada

qolmoqda va zarar ko'rmoqda. Germaniya tashqi savdo oboroti va oltin zahirasi jihatidan faqat AQSH dan keyin, ya'ni ikkinchi o'rinda turadi. Germaniya monopoliyalari kapitalistik integrasiyadan, masalan, «umumiy bozor»ga qatnashishidan ham foyda oladilar. Monopoliyalar FTI yutuqlaridan keng foydalanadilar. Shuning uchun Germaniya sanoati strukturasida eng yaxshi tarmoqlar ko'payib bormoqda. Asosan janubiy Yevropa mamlakatlaridan kelib turadigan 2-3 million kishi ancha arzon ishchi kuchi zahirasini tashkil etadi. Biroq Germaniya iqtisodiyotining tez rivojlanishiga qulaylik tug'dirgan bir qancha omillar hozir butunlay yo'qoldi. Sanoatning ba'zi tarmoqlari (ayniqsa, tosh-ko'mir sanoati) krizisni boshidan kechirmoqda, boshqalari (qora metallurgiya, yengil sanoat) o'sishdan to'xtab qoldi.

11.5. Sanoati va uning joylashishi

Germaniyaning tabiiy resurslari (birinchi galda toshko'mir, kaliy to'zi va tosh tuz konlari, ozroq temir rudasi zahiralari), og'ir sanoat negizi bo'lgan energetika, kimyo, metallurgiya sanoati ba'zasida esa mashinasozlikning rivojlanishiga imkon beradi. Germaniya energetikasi o'tgan asrning 60-yillar o'rtasida asosan toshko'mirga tayanib kelgan. Qo'ng'ir ko'mir boshqa hech bir mamlakatga Germaniyadagi kabi katta rol o'ynamaydi. Qora metallurgiya uchun zarur bo'lgan temir rudasining 90 foizi qismi marganes va kremniy chetdan keltiriladi. Rangli metallurgiya zavodlarida mis, qo'rg'oshin, rux, alyuminiy eritiladi. Germaniya sanoatida ishlovchilar soni, mahsulotning qiymati va eksportga hissasi jihatdan mashinasozlik birinchi o'rinda turadi.

Germaniya mashinasozlik sanoati rivojlangan mamlakatlar

qatoriga kiradi. Germaniya chet mamlakatlar orasida mashinalar ishlab chiqarish jihatdan faqat AQSH dan keyingi o'rinda, eksport qilishda esa dunyoda birinchi o'rinda turadi.

11.6. Transporti

Germaniyada zich aloqa yo'llari mavjud. Germaniya temir yo'llarida yuk tashish hajmi jihatidan Fransiyadan keynn turadi, biroq Buyuk Britaniyadan uch barobar, Italiyadan to'rt barobar oldinda. Avtomobil transporti hozir yuk va yo'lovchilarni temir yo'lga qaraganda ko'proq tashimoqda. Daryo transporti xorijiy Yevropada Gollandiyadan boshqa birorta mamlakatda Germaniyadek katta ahamiyat kasb etmaydi. Mamlakat ichkarisidagi yukning 20 foizi daryo va kanallar tizimi orqali tashiladi. Qururlikdagi yo'llar kesishgan joylarda eng muhim transport tugunlari Gamburg, Myunxen, Leypsig va boshqa shaharlarda qad ko'targan. Germaniyaning tashqi aloqalarida ikkinchi jahon urushidan keyin yangidan qurilgan dengiz floti katta rol o'ynaydi. Bundan tashqari jahonga dong'i ketgan bir qancha avtomobil markalari ishlab chiqarilmoqda. Masalan: **vmw**, **mersedes-vens, orel, vw, audi** shular jumlasidandir.

11.7. Tashqi iqtisodiy aloqalar

Germaniya jahonning juda ko'p mamalakatlari bilan savdo qiladi. Uch yirik rivojlangan davlat bilan mollarni sotishda bozor hamda xom ashyo bo'yicha rivojlangan va ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda qattiq raqobat kurashi olib borada. Germaniya monopoliyalari bu mamlakatlarga yirik kapital qo'ygan. Eng katta tashqi savdo oboroti "umumiy bozor"ga a'zo mamlakatlarga, so'ngra AQSH va Kanadaga

to'g'ri keladi. Uning rivojlanayotgan davlatlar bilan olib borayotgan xilma-xil tashqi iqtisodiy aloqalari tobora kuchayib bormoqda.Shu jumladan, respublikamiz bilan bir qancha shartnomalar tuzilib, iqtisodiy aloqalar olib borilmoqda.

Qisqacha xulosalar

Germaniya Federativ Respublikasi jahondagi iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi, Yevropaning markazida joylashgan.

Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari va geografik joylashishi iqtisodiy rivojlanish uchun juda qulay. Yerlari unumdor, foydali qazilmalari serob.

Sanoatning hamma tarmoqlari, ayniqsa, eng yangi tarmoqlari yuqori darajada rivojlangan. Sanoatning rivojlanish darajasi jihatidan AQSHdan so'ng, Yaponiya bilan bir qatorda turadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. GFR qachon tashkil topgan, jahon xo'jaligida qanday o'rin tutadi?
2. Tabiiy sharoiti va resurslarining xo'jaligi rivojlanishiga qay darajada ta'sir ko'rsatadi?
3. Aholisi tabiiy va mexanik o'sishining o'ziga xos xususiyatlari nimada?

4. Aholi va mehnat resurslari
5. Asosiy sanoat tarmoqlari qanday joylashgan?
6. Qishloq xo'jaligi yuksak darajada rivojlanganligining sabablari nimada?
7. Ichki tafovutlari tasnifi.
8. Transporti.
9. Tashqi iqtosidiy aloqalari.
10. O'zbekiston bilan iqtisodiy aloqalari qanday rivojlanmoqda?

XII mavzu. ROSSIYANING IQTISODIY GEOGRAFIK TAVSIFI

XX-XXI asrlar bo'sag'asida jahon xo'jaligi strukturasi va sub'yektlari tahlili asosida Rossiya Federasiyasining jahon xo'jaligida tutgan o'rni va rivojlanish istiqbolini bilish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda xo'jaligi intensiv rivojlanib borayotganligini, «kuchlarni qayta guruhlarga bo'lishi»ni hisoba olib, jahon iqtisodiyotida a'nanaviy bo'lib kelgan markazlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar o'zgarib borayotganligi, yangi mamlakatlar va mintaqaviy guruhlar «qorong'ilikdan» ozodlik sari ajralib chiqayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday davlatlar nihoyatda muhim. Rossiyaning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rnini aniqlashimiz mumkin. Ular o'rtasidagi munosabatlarni, ularning, shuningdek, Rossiya va jahon iqtisodiyotining axvoli iqtisodiy xavfsizlik tomonlariga ham e'tiborni qaratishimiz zarur.

Ma'lumki, 1995 yil boshlarida Rossiya Federasiyasi xavfsizlik komiteti tomonidan qabul qilingan «Rossiya Federasiyasining xavfsizlik strategiyasining asosiy nizomi to'g'risida»gi qonunda uning tashqi iqtisodiy strategiyasi asosiy yo'nalishlari mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va tashqi bozorlarida iqtisodiy potensialini saqlash, iqtisodiy-ijtimoiy hayotining eng muhim masalalari bo'yicha chet mamlakatlarga yoki ularning uyushmalariga qaram bo'lib qolmaslik, texnik-iqtisodiy mustaqillikni ta'minlashdir, deb ko'rsatib o'tilgan edi. Hozirgi kun nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, Rossiyaning jahon iqtisodiyotidagi ahvoli mutlaqo qarama-qarshiliklardan iborat. Rossiya mavjud bo'lgan xalqaro sosialistik xo'jalik tizimi tugatilgandan so'ng (o'tgan asrning 90-yillari boshida) o'zaro Iqtisodiy yordam Kengashi (SEV) davlatlari va ayniqsa, ittifoq hukumatining jahon xo'jaligi

hayotida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Hozirgi sharoitda u polisentrik mazmunga ega bo'lib, xo'jalikning ko'pgina sohalarida AQSHning xukumronligi saqlanib qolishiga qaramasdan, bozor tizimi (turli mamlakatlarda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining rivojlanish darajasi va xususiyatini hisobga olgan holda) bir tomondan, «boy shimol» guruhiga kiruvchi yetakchi sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga, ikkinchi tomondan esa, «kambag'al janub» guruhiga kiruvchi, endigina rivojlanib borayotgan davlatlar guruhiga o'xshab ketadi. Ayni paytda Rossiya ana shunday oraliqda turibdi.

SSSRning tugatilishi, Rossiya Federasiyasi uchun juda katta siyosiy hukmronlikni yo'qotish bo'ldi va uning xo'jaligida o'zaro aloqalarning keskin pasayishiga olib keldi. Rossiya Shimoli-Sharq tomonga, ya'ni Yevroosiyo materigining ancha ichki qismlariga surib tashlandi.Jahonda to'rtta okeandan uchtasi (Atlantika, Shimoliy muz va Tinch okeanlari)ning okean suvlari o'rab turishiga karamasdan, Rossiya iqtisodiy rivojlanish jihatidan quruqlik mamlakati bo'lib qolavergan edi. Shimoliy muz okeani suvlari o'ziga xos sovuq tabiiy iqlimga ega bo'lganligi unda savdo kemalarining doimiy ravishda qatnovini qiyinlashtiradi. Rossiya Federasiyasining Sibir va Uzoq Sharq hududlarida esa transport infratuzilmasi rivojlanmagan, Tinch okeani qirg'oqlaridan unumli foydalanish imkoniyatini bermas edi. Boltiq va Qora dengiz portlariga chiqish yo'li qisqarishi, shuningdek, yopiq Kaspiy dengizi Rossiya uchun ancha qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Rossiya aynan shu sababli 50%dan ortiqroq dengiz portlaridan, ayniqsa, muzlamaydigan portlaridan ajralishi, uning iqtisodiyotini ancha qiyin ahvoga solib qo'ygandi. Ayniqsa, G'arbiy va Janubiy yuksalishidagi temir va avtomagistral yo'llari, shuningdek, quvur va havo

transporti asosan chet el davlatlari hududlari bo'ylab o'tishi (hozirgi Belorussiya va shuningdek, Boltiq bo'yi davlatlari) mamlakatning iqtisodiy ahvoli keskin pasayishiga, iqtisodiyoti yomonlashib borishiga sabab bo'lmoqda (shubhasiz bu sohada 1996 yilning may oyida Rossiya va Belorussiya davlatlarining hukumat boshliqlari tomonidan chegaradagi bojxona to'siqlarini olib tashlash to'g'risidagi o'zaro shartnomani imzolanishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi).

Rossiya Federasiyasining iqtisodiy va geografik jihati shundaki, hududining **2**/**3** qismi chekka Shimol rayonlari va iqlimi sovuq bo'lgan og'ir sharoitli zonalarga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham Rossiya qishloq xo'jaligining faqat 35%ida g'alla va boshqa madaniy ekinlaridan hosil olinadi, holos. Rossiyaning shimoliy tekisliklarida aholi yashashi uchun juda katta energetika xarajati talab qilinadi. Rossiya juda boy tabiiy resurslarga ega bo'lishiga qaramasdan hozirgi kunda nodir qimmatbaho rangli yer osti metallari, ko'plab madaniy texnik ekinlar xom ashyosi va tayyor mahsulotlari bilan, iste'mol tovarlari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli ravishda ta'minlanmaydi.

Ma'lumki, Rossiya Federasiyasi sobiq SSSRning 60%ga yaqin iqtisodiy potensialiga merosxo'r bo'lib qolgan edi. Biroq, keyingi yillarda mamlakat iqtisodiyoti muhim qismlarining asosiy ishlab chiqarish fondlari (mashinalar, stanoklarni) moliyaviy jihatdan yaxshi ta'minlanmaganligi, zamonaviy asbob-uskunalar bilan yetarli jihozlanganligi oqibatida tushkunlikka tushib bormoqda. 1994 yildayoq asosiy fondlarning 63 foizi 21 yil yoki undan ortiqroq xizmat qilinganligi sababli amalda ishga yaroqsiz bo'lib qolganligi tufayli tezda qayta jihozlashni talab qilardi. Shuning uchun ham

Rossiya sanoati va transportining ko'pgina sohalarida turli ko'rinishdagi texnologik halokatlar kelib chiqa boshladi.

Rossiya Federasiyasi taxminan SSSR tashqi iqtisodiy aloqalarining taxminan 70 foizi merosxo'ri bo'lib qolgandi. Lekin, shuni qayd qilmoq kerakki, Rossiya Federasiyasi SSSR tarkibida bo'lgan 1986-1991 yillardayoq uning tashqi savdo oboroti deyarli ikki barobarga qisqargan, bunday tendensiya keyingi yillarda ham saqlanib qolgan edi. Uzoq xorij mamalkatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqa 1993 yildagina nisbatan o'zgardi. Chunonchi, bu jarayondagi ko'rsatgich 1993 yili 71,1, 1994 yili 76,2 mlrd. dollarlikni tashkil etdi. Mamlakatning uzoq xorij mamlakatlariga eksportida hamon xom ashyo asosiy o'rinni egallab qolmoqda. Bu sohada, o'zi qiymati bilan ayniqsa, yoqilg'i-energetika tovarlarning ahamiyati ortmoqda.

Rossiyaning uzoq xorij mamlakatlari bilan olib borayotgan umumiy eksport tovarlar hajmi 1994 yili 46,0% ni tashkil etdi. (bu ko'rsatkich 1992 yili 54,3, 1993 yili esa 45,0 edi.) 1994 yili chetga chiqarilgan qora va rangli metallar, qimmatbaho toshlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar hissasi 29,9%ga yetdi (1992 yili 16,3, 1993 yili esa 23,2). Hozirgi kunda Rossiyaning uzoq xorij mamlakatlariga eksportida stanoklar va transport mahsulotlari hissasi kamayib bormoqda. Chunonchi,bu boradagi ko'rsatkich 1992 yili 9,3, 1993 yili 6,6 va 1994 yili esa 5,1 edi.

Keyingi yillarda Rossiyaning muhim xalqaro mintaqaviy bozorlar va tovarlar bozorlaridagi ishtiroki keskin qisqarmoqda, shuningdek, sobiq UIYOK (SEV) va MDHda, shuningdek, rivojlanayotgan barcha mamlakatlarning bozorlarida ta'sirini tobora yo'qotmoqda. Tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchi

chet ellik raqobatchilarini o'z ichki bozorlaridan siqib chiqarmoqdalar.

Rossiya qurol-yarog' bozorlaridan ham siqib chiqarilmoqda. O'tgan asrning 80-yillari SSSR bu yo'nalishdagibozorlarning 38 foizini, AQSH esa 20 foizini egallagan edi. Endilikda buning aksi: AQSH salmog'i ortib bormoqda.

Qirq yil davomida, ya'ni «sovuq urush» davrida olib borilgan harbiy strategiya sohadagi birinchilik uchun olib borilgan AQSH bilan sobiq SSSR o'rtasidagi kurash (bu davrda AQSH iqtisodiyoti mutlaq ko'rsatkichlar bo'yicha sobiq SSSR iqtisodiyotiga nisbatan 2-3 barobar ustun edi) aslida ishlab chiqarishning samarali o'sishiga xalaqit qilgan, iqtisodiyotining barcha tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, aholi iste'mol fondlarining qisqarishiga sabab bo'lgan edi. 30-jadval

Rossiya Federasiyasining 1992-1994 yillarda jahon iqtisodiyotida tutgan o'rnini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar.

Ko`rsatkichlar	Miqdor, (%,dollar)	Jahon mamlakatlari orasida Rossiyaning tutgan o`rni
Dunyo bo`yicha YaIM dagi hissasi	2,5% (725 mlrd.dollr)	10
Dunyo bo`yicha umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi hissasi	4% (310 mlrd.dollar)	5
Yillik YaIM bo`yicha, aholi jon boshiga	4850 dollar	59
Yillik aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarining to`g`ri kelish	2050 dollar	53
Ish bilan band bo`lgan bir kishi hisobiga sof yillik shartli ishlab chiqarish (meqnat unumdorligi)	10 000 dollar	70

Rossiya kuchli ilmiy-texnik potensialga, juda katta, ammo hali ham foydalanilmayotgan intellektual resurslarga boy. Mamlakat aholisining asosiy qismi ma'lumotli va yuqori madaniy darajali. Shunga qaramasdan, Rossiyaning xo'jalik

mexanizmini butunlay bozor iqtisodiyot asosida qayta ko'rish zarurdir. Buning uchun esa bozorga o'tishning muhim omillarini aniqlab olish va yangi sharoitga moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Rossiyada bozor infratuzilmasining takomillashgan tomonlari - bank tizimi, fond bozorlari, sug'urta institutlari va boshqalar tashkil topmoqda. Ammo Rossiyaning iqtisodiy hayotida, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish sohalarida nihoyatida murakkab muammolar haligacha hal qilinmayapdi.

Qisqacha xulosalar

Rossiya hududining kengligi jihatidan jahondagi eng katta davlat. U Yevropa va Osiyo qit'alarida joylashgan.

Rossiyaning geografik joylashishi ham, tabiiy resurslari ham iqtisodiy rivojlanishi uchun juda qulay. Rossiya juda katta o'rmon boyligiga, ko'plab mineral resurslarga ega. Hozirgi paytda Rossiya Sharqiy Yevropani neft bilan ta'minlaydigan asosiy manbadir.

Rossiyada sanoati yuksak darajada rivojlangan. Tabiiy sharoiti qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun, ayniqsa, shimoliy qismlarida noqulay. Kartoshka yetishtirish bo'yicha jahonda yetakchi hisoblanadi.

Rossiya ko'p millatli davlat, aholisining asosiy qismini ruslar tashkil qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Rossiya jahon xo'jaligida qanday o'rin tutadi?
2. Tabiiy sharoiti va resurslari mamlakat xo'jaligi rivojlanishiga qay darajada ta'sir etadi?

3. Aholisining tabiiy va mexanik o'sishi qanday xususiyatlarga ega?
4. Asosiy sanoat tarmoqlarining joylashuvini ta'riflang.
5. Qishloq xo'jaligi joylanishining o'ziga xos xususiyatlari nimada?

III bo'lim. O'ZBEKISTON IQTISODIY GEOGRAFIYASI

XIII mavzu. O'ZBEKISTONNING GEOGRAFIK O'RNI. MA'MURIY-HUDUDIY BO'LINISHI

13.1.Geografik o'rni

Hududining geografik joylashishi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ko'p jihatdan ta'sir qiladi.

O'zbekiston Yevrosiyo qit'asining qoq markazida, Markaziy Osiyoning markazida o'rnashgan. U shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston, sharq va shimoli-sharqda Qirg'iziston, sharq va janubi-sharqda Tojikiston, g'arb va janubi-g'arbda Turkmaniston, janubda esa Afg'oniston bilan chegaralanadi.

O'zbekistonning kenglik bo'yicha shimoldagi chekka nuqtasi Ustyurt platosi (45° 36' shim. kenglik)da, eng janubiy nuqtasi Termiz shahri yonida (37° 11' shim. kenglikda) joylashgan. Uzoqlik bo'yicha esa chekka nuqtalari 56° 00' dan 73° 10' sharqiy uzoqlikkacha boradi. Ana shu geografik nuqtalar bo'yicha mamlakat hududi g'arbdan sharqqa 1400 km, shimoldan janubga 925 km masofaga cho'zilgan. Umumiy maydoni 448,9 ming kv. km.

Odatda, alohida olingan hudud yoki mamlakatlar iqtisodiy geografik o'rnini o'rganish, tadqiq va tahlil qilish orqali ularning bugungi rivojlanish holatiga baho berish va kelajagi haqida fikr yuritish mumkin. Shu jihatdan O'zbekiston hududining kattaligi va yaxlitligi, qardosh (ya'ni qadim Turon zaminidagi) davlatlarga nisbatan markazda ekanligi va mintaqaviy cho'zilganligi, yer usti tuzilishining bir-biriga muvofiq holatda o'rin almashinishi (tekislikning adir, yassi

tog'lik va baland tog'liklar bilan almashinishi) hududda ijtimoiy taraqqiyot uchun kattagina imkoniyatlar yaratib bergan.

O'zbekiston hududining o'rnini iqtisodiy-geografik jihatdan uch pog'onaga: mikro, mezo va makro darajaga bo'lish mumkin.

O'zbekiston hududining mikrodarajadagi holati, uning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan tutgan o'rnidir. O'zbekiston qadim Turon zaminida hamisha salohiyati katta davlat bo'lgan. Bu, ko'p jihatdan uning geografik markazligidan kelib chiqqan. Yaqin o'tmish (ya'ni sho'rolar hukmronligi yillari)da ham O'rta Osiyodagi respublikalar bir-birlari bilan ij-timoiy taraqqiyotning ko'p sohalarida bog'langanlar. Birgina transport kommunikasiyasini olaylik. Turkmaniston faqat O'zbekiston orqali Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston bilan aloqa qilgan. Ayni paytda bu respublikalarning har biri ham Turkmaniston bilan faqat O'zbekiston orqali aloqa qilgan. O'z navbatida, MODda bunyod qilingan temir yo'llar, avtomagistrlar, quvurlar ham bir-birlarini bog'lagan. Mustaqil davlatchilik qaror topgan hozirgi davrda ushbu aloqalar tarixiy omillar (ya'ni, qadimiy «Buyuk ipak yo'li» an'analariga muvofiq) asosida rivojlantirilishi O'zbekistonning mikrogeografik imkoniyatlari istiqbolini ko'rsatib turibdi.

O'zbekistonning mezogeografik o'rni uning birmuncha kengroq miqyosdagi mavqei bilan belgilanadi. Bugungi O'zbekiston jahonga yo'l ochmoqda, jahon hamjamiyatiga dadil kirib bormoqda. Uning bu qutlug' qadamida **MODdan** tashqari Kavkaz orti davlatlarining, Turkiyaning, Eronning, Afg'onistonning ulushi bor. Afg'oniston orqali Pokiston (va so'ngra Hind okeani)ga, Eron va Turkiya orqali Yevropaga chiqish ufqlari ochilmoqda. Bu, yaqin qo'shnilarimiz bilan

qadimiy aloqalarni qayta tiklashga va shu asosda mamlakatimiz mavqeini yana ham ko'tarishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning makrogeografik o'rni jahondagi davlatlar bilan olib borilayotgan aloqalarda belgilanadi. O'zbekistonning MDH davlatlari bilan ko'p qirrali aloqalari tarixiy haqiqat bo'lib, uning mamlakatimiz taraqqiyotidagi salohiyati juda katta. O'zbekiston ushbu makrodarajadagi aloqalarini MDHning aksariyat davlatlari bilan rivojlantirmoqda. O'zbekistonning hozirgi tashqi iqtisodiy aloqasining 15,5 foizi Rossiyaga to'g'ri kelyapti. Yevrosiyoning buyuk davlati Rossiya Federasiyasi bilan muntazam aloqada bo'lish O'zbekistonning manfaatlariga mos keladi.

O'zbekiston o'z geografik o'rniga ko'ra, O'rta Osiyo davlatlari transport kommunikasiyasida belgilovchidir. Bir so'z bilan ta'kidlaganda, MODning asosiy ishlab chiqarish-iqtisodiy va madaniy aloqalari faqat O'zbekiston orqali kechadi. Bu borada mamlakatning shimoliy va janubiy hududlarida «Navoiy - Uchquduq - Sulton Uvays - Nukus» va «G'uzor - Boysun - Qumqo'rg'on» temir yo'llarining qurilishi tarixiy voqea bo'lib, ular birinchidan, mamlakat yagona temir yo'l tizimini yaratib beradi, ikkinchidan, mazkur regionlarda ishdab chiqarish kuchlarining jadal rivojlanishiga xizmat qiladi va, uchinchidan, O'zbekistonning qo'shni va uzoq xorijiy davlatlar bilan har jihatdan aloqalari kuchayishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

13.2. Tashkil topishi va ma'muriy hududiy bo'linishi

Ko'hna tarixga ega bo'lgan O'zbekiston uzoq va yaqin o'tmishda bir necha marta qayta tashkil qilindi, turli nomlar bilan ataldi. Kadimda u Turon, Turkiston, Movarounnahr nomlari bilan dunyoga ma'lum va mashhur edi. Ayniqsa, buyuk

sohibqiron Amir Temur zamonasida O'zbekistonning, uning Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarining nomi «yetti iqlim»ga ketgan edi.

1867 yilning o'rtalarida Turkiston general-gubernatorligi o'rnatildi, Toshkent shahrida Turkiston harbiy okrugi tuzildi, Oktabr to'ntarishidan keyin u ruslar tomonidan ikkinchi marta bosib olindi. Shu yillar ichida uning ko'hna tarixi oyoq osti qilindi, qadim urf-odatlariga qarshi kurash boshlandi.

Qadimdan bir mintaqada yashab kelayotgan turkiy xalqlar aholisining turmush tarzi, kelib chiqishi, an'analari, xo'jaligi, madaniyati, mushtarak maqsadlari bir bo'lishiga qaramasdan Oktabr to'ntarishidan keyin u 1920 yillarning o'rtalarida beshga bo'lib yubo-rildi.

Turkistonni milliy jihatdan qayta chegaralash Markaz va RK (b)P O'rta Osiyo byurosi tomonidan 1924 yilda katiy ishlab chiqilgan edi. Unga qarshi barcha urunishlar behuda ketardi. 1924 yil 10 mart kuni birlashgan kengashda mahalliy millat vakillari O'rta Osiyo Federasiyasini tuzish, Turkistonning yaxlitligini buzish maqsadga muvofiq emasligini ta'kidlagan edilar. Xorazm raxbarlari ham alohida fikr bildirib, Xorazmni chegaralanishga qo'shmaslik masalasini qo'ygan edilar. Biroq, ushbu istaklar ushalmagan orzuligicha qolib ketdi.

Markazning ko'rsatmasi bilan 1929 yilgacha O'zbekiston tarkibida bo'lgan Tojikiston Muxtor Respublikasi sobiq SSSR tarkibidagi ittifoqdosh respublikaga aylantirildi.

1918 yil 30 aprelda sho'rolar 5-O'lka s'yezdida tasdiqlangan «Rossiya Federasiyasining Turkiston Sovetlar Respublikasi to'g'risida Nizom»da Turkiston Respublikasining davlat tuzimi, uning hududiy chegaralari belgilab berilgan edi. 1924 yilga kelib Turkiston ASSR 6 viloyat (Sirdaryo, Samarqand,

Farg'ona, Zakaspiy, Yettisuv, Amudaryo)ga hamda 30 uyezd va 473 volostga bo'lib tashlangan edi.

1920 yilda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi e'lon qilindi. Mazkur respublikaning hududi 28 tumanga bo'lindi. 1924 yilda esa uch viloyat (Qozoq-Qoraqalpoq, Yangi Urganch, Toshhovuz) va Xiva tumaniga bo'lindi.

1920 yilning 8 oktabrida Buxoro amirligi negzida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi e'lon qilindi. Mazkur respublika hududi 15 viloyat, 58 tumanga bo'lindi.

1924 yilda O'rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishi natijasida O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasi **(O'zSSR)** tuzildi. 1925 yilning 29 yanvaridan respublikada yagona ma'muriy bo'linish joriy qilindi. Poytaxti Samarqand shahri bo'lgan **O'zSSR** 7 viloyat (Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Zarafshon, Surxondaryo, Qashkadaryo, Xorazm)ga va 22 uyezd hamda 241 volostga bo'lindi. 1926 yilda mamlakatni ma'muriy-iqtisodiy rayonlashtirish ishlari amalga oshirildi. 1927 yilning boshida mamlakat tarkibida 10 ta okrug, 87 tuman, 1746 qishloq kengashi tashkil qilingan edi. 1930 yil 17 avgustda mamlakatni okruglarga bo'lish bekor qilindi. Biroq, oradan ko'p o'tmay, 1932 yil 27 iyunda Xorazm okrugi, 1935 yil fevralda esa Qashqadaryo va Surxondaryo okruglari qayta tiklandi.

1938 yil 14 fevralidan boshlab mamlakatimiz hududidaga hozirgi viloyatlar qayta shakllana boshladi. O'sha yili Buxoro, Samarqand Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlari tashkil qilindi. 1941 yilning 6 martida Andijon, Namangan, Surxondaryo, 1943 yilning 20 yanvarida esa Qashqadaryo viloyati qayta tashkil qilindi.

1957—1961 yillarda Markaz region istiqbolini ko'ra olmasligi oqibatida ma'muriy-hududiy birliklar yana qator o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Jumladan, Namangan

viloyatining hududi Farg'ona va Andijon viloyatlariga ko'shib yuborildi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati Surxondaryoga birlashtirildi.

Mamlakatimiz hududida yangi yerlarni o'zlashtirish jarayoni uning yangidan ma'muriy-hududiy bo'linishlariga birmuncha asos yaratib berdi. Masalan, Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi bu yerda 1964 yil 7 fevralda Qashqadaryo viloyatining qayta tiklanishiga, Mirzacho'lning o'zlashtirilishi 1963 yil 16 fevralda Sirdaryo viloyatining tashkil topishiga, Farg'ona vodiysida ishlab chiqarish kuchlarining jadal rivojlantirilishi 1967 yil 18 dekabrda Namangan viloyatining qayta tiklanishiga, Jizzax cho'llarining o'zlashtirilishi 1973 yil 29 dekabrda Jizzax viloyatining tashkil qilinishiga olib keldi. 1982 yilning 20 aprelida mamlakatda kon-metallurgiya sanoatini rivojlantirish maqsadida Navoiy viloyati tashkil qilindi.

O'zbekistonning ma'muriy-hududiy bo'linishi mustaqillik yillarida sifat jihatidan yangi bosqichga - bozor munosabatlariga muvofiq keladigan bosqichga qadam qo'ydi. Mamlakat mustaqilligi tufayli o'zbek xalqining asriy orzusi ushaldi - O'zbekiston tinch, parlament yo'li bilan o'zining haqiqiy davlatchiligiga erishdi. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi konstitusiyaviy qonunda respublikadagi ko'p millatli barcha aholining xohish-irodasi mustahkamlab qo'yilgan. Mamlakatning amaldagi (1992) Konstitusiyasida (68-modda) O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan iboratligi mustahkamlab qo'yilgan. Hozirgi vaqtda O'zbekistonning tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo,

Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlari va boshqa ma'muriy-hududiy bo'linmalar bor.

31-jadval

O'zbekiston viloyatlari haqida ma'lumotlar (2002y.)

Viloyatlar	Aholi soni, mln.kishi	Maydoni ming kv. km.	Shahar-lar soni	Tuman-lar soni	Shahar-chalar soni	Qishloq ovullari
Qoraqolpog`iston Respublikasi	1,5	166,6	12	15	16	117
Andijon	2,2	4,2	11	14	5	95
Buxoro	1,4	40,3	11	11	2	120
Jizzax	0,9	21,2	7	11	8	97
Qashqadaryo	2,1	28,6	12	14	7	145
Navoiy	0,8	110,8	7	8	11	54
Namangan	0,9	7,4	8	11	12	99
Samarqand	2,7	16,8	11	16	7	125
Surxondaryo	1,7	20,1	8	14	75	114
Sirdaryo	0,7	5	5	59	18	76
Toshkent	2,4	15,3	16	15	10	146
Farg`ona	2,6	6,8	9	15	7	164
Xorazm	1,3	6,1	3	10	1	100
Toshkent shahri	2,2					
O`zbekiston Respublikasi	25,5	448,9	120	163	113	1452

13.3. Mamlakatning tabiiy resurslari va ularni ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish jihatidan baholash

O'zbekiston yer osti va yer usti tabiiy resurslariga boy. Uning tabiat manbalari xilma-xil bo'lib, ularning asosiy turlari

mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishda bevosita ishtirok etadi.

Mamlakat tabiiy resurslari sobiq SSSR hukmronligi yillarida beayov ishlatildi, ayniqsa, uning yoqilg'i resurslari, noyob va nodir metall rudalari o'zga regionlarga tashib ketildi. Masalan, mamlakatning qimmatbaho tabiiy resursi hisoblangan oltin rudalari pala-partishlik (va buning ustiga qoloq texnologiya) bilan qazib olindi va ishlatildi. Natijada rudaning ma'lum qismi chiqindiga o'tib ketdi.

Qazib (va saralab) olingan oltinning hammasi esa Rossiyaga tashib ketildi. O'zbekiston tabiiy gazi ham shunday yovuzlik bilan ekspluatasiya qilindi. Gazli konidan har yili shu qadar katta hajmda gaz qazib olindiki, oqibatda Gazli shahrida bir necha marta zilzila yuz berdi. 1960 yillardan boshlab, «Gazli - Sverdlovskiy» quvuri orqali Uralga har yili 21 mlrd. kubometr «O'rta Osiyo - Markaz» quvuri orqali esa Markazga yiliga 30 mlrd. kubometr gaz yuborib turildi.

Endilikda, tabiiyki, vaziyat o'zgardi. O'zbekiston o'z hududida joylashgan barcha tabiat manbalarining egasiga aylandi. Mamlakat tabiat manbalaridan oqilona foydalanish, avvalo, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari (ya'ni, ilg'or texnologiya qo'llash) asosida, tabiat muvozonatiga putur yetkazmasdan, uzoq kelajakni ko'zlab tuzilgan rejalarga tayangan holatda amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan endilikda mamlakatning boy tabiat manbalari: ma'dan(mineral) va yoqilg'i-energetika resurslari, rudali resurslari, jumladan, oltin va uran, tog' kimyosi xom ashyosi va tabiiy tosh va boshqa qurilish materiallari resurslari, yer fondi va agroiqlim, tuproq va suv, o'simlik va hayvonot resurslaridan foydalanishda ibratli ishlar qilinmoqda.

Mamlakat xalq xo'jaligini rivojlantirish nuqtai

nazaridan uning tabiiy resurslaridan eng muhimi, foydali qazilmalaridir. **Foydali qazilmalar esa mamlakatning turli regionlarida keng tarqalgan.** «O'zbekiston, **- deydi Prezident Islom Karimov, -** o'z yer osti boyliklari bilan haqli suratda faxrlanadi - bu yerda mashhur Mendeleyev davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan. **Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral xom ashyo turlarini o'z ichiga oladi. Ularning tasdiqlangan zahiralari 970 milliard AQSH dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiy mineral-xom ashyo potensiali 3,3 trillion AQSH dollaridan ortiqroq baholanayotganini ham aytib o'tish kerak.**

Mustaqil taraqqiyotning hozirgi bosqichidayoq «har yili respublika konlaridan taxminan 5,5 milliard dollarlik miqdorda foydali qazilmalar olinmoqda va ular yoniga 6,0-7,0 milliard dollarlik yangi zahiralar qo'shilmoqda».

O'zbekiston hududi ayniqsa, rangli metall rudalariga boy. Jumladan, O'zbekiston **mis rudasining** zahirasi bo'yicha MDHda Rossiya va Qozog'istondan keyingi o'rinda turadi. Mamlakat mis konlari mis-porfir formasiyasiga mansub bo'lib, u Qurama tog'larida keng tarqalgan. Uning Olmaliq atrofidagi Qalmokqir, Dalniy va Sarichek konlari eng yiriklaridir. **Qo'rg'oshin - rux** konlari janubi-g'arbiy Hisor tog'larida joylashgan. Qurama tog'idagi Lashqarak polimetall konidan qadimda kumush, qo'rg'oshin qazib olingan. Ular endilikda sanoat asosida Qo'rg'oshinkon konidan olinadi va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida qayta ishlanadi. Shimoliy Nurota tizmasi yonbag'irlarida ma'dan konlari, Xonjiza (Surxondaryo)da yirik polimetall konlari topilgan.

O'zbekiston oltin zahirasiga juda boy. qimmatbaho oltinning bir necha endogen va ekzogen konlari topilgan. Uning eng yirik konlari Markaziy Qizilqum (Muruntov va Kakpatas)da joylashgan. Islom Karimovning ta'kidlashicha: «Muruntov koni dunyodagi gigant konlar jumlasiga kiradi. U Yevrosiyo qit'asidagi ruda tarkibida oltin yuqori darajada bo'lgan eng yirik kondir. Muruntov konining topilishi xalqaro geologiya jamoatchiligi tomonidan XX asrning ikkinchi yarmida oltin sohasida qilingan eng katta kashfiyot deb e'tirof etildi». «Oltin zahiralari bo'yicha respublika dunyoda 4-o'rinda, **uni qazib** olish bo'yicha 7-o'rinda turadi».

Oltinning Muruntov va Kakpatas konlari tokembriy va quyi paleozoy jinslarida, Olmaliq guruh konlari esa intruziyalarda joylashgan. Tarkibida oltin bo'lgan rudalar g'arbiy O'zbekiston va Chotqol-Qurama tog'larida ham ko'p uchraydi. Oltin Marjonbuloq, Zarmitan, Chodak, Uchbuloq, Qorako'ton, Kauldi konlarida katta zahiralarga ega. Umuman, mamlakatimiz hududida oltinning 30 dan ortiq konlari topilgan va ularning zahirasi aniqlangan. **Shuni** ham ta'kidlash joizki, mamlakatimiz hududida oltin konlarining mavjudligi qadimda ham ma'lum bo'lgan. Arxeologik qazilma (topilma)larning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi **VI-V** asrlarda ham O'zbekiston oltini aholi tomonidan ishlatilgan. '

O'zbekistonda **kumush** konlari ham ko'p. Uning asosiy konlari Qurama tog'larida joylashgan. Navoiy viloyatidagi Visokovoltnoye, Ukjetpes, Kosmonachi konlari va Namangan viloyatidagi Oqtepa zahiralari aniqlangan kumush konlaridir. Mamlakatimiz hududida shuningdek, turli tuzlarning, fosforit, oltingugurt, alyuminiy xom ashyosi (boksit rudalari), pardozlovchi va qurilish materiallarining katta zahiralari mavjud.

Nodir metallardan **volfram** (Langar, Qoratepa, Quytosh, Ingichka, Yaxton, Chochtepa konlari), **molibden** (Hisor, Qurama va Chotqol tizmalarida) ko'p uchraydi. Qalayning mamlakatimizda 100 dan ortiq to'plami(konlari) bor. Shulardan Qarnob koni 1950 yillarda ishga tushirilgan. **Vismut** rudalari Chotqol-Qurama tog'larida topilgan. **Simob** va **surma** tarkibli rudalar respublikamizning ko'p joylarida uchraydi. Jumladan, Janubiy Farg'onada simobning 100 dan, surmaning 10 dan ortiq konlari istiqbolli hisoblanadi.

Mamlakat qazilma boyliklari orasida rudali resurslardan oltin, mis va boshqalar qatori temir rudasining ham ulushi ancha. Cho'kindi jinsli temir ruda konlari bur va uchlamchi davr yotqiziqlarida joylashgan bo'lib, bunday konlar Orolbuyi regionida, Qizilqumda va Jizzax viloyati hududida uchraydi. 1999 yilda geologlar tomonidan zahirasi qayta aniqlangan Jizzax viloyati Forish tumanidagi temir ruda konining sanoat ahamiyati juda katta bo'lib, uning tarkibida 60 foiz atrofida sof temir borligi qayd qilindi. Bu, endilikda mamlakat qora metallurgiyasi istiqbolini belgilamoqda.

O'zbekistonda **marganes konlari** ham ko'p. Uning Zarafshon tog'larida Ziyovuddin, Dovtosh, Qizilbayroq, Taxtaqoracha, Tersaksoy, Cho'ponota konlaridagi zahiralarining tarkibi toza rudaga ancha boy (ruda tarkibida toza marganes 8 foizdan 28 foizgacha). Shuningdek, marganes konlari Korjontog' va Morguzar tog'larida ham bor.

Mamlakatimizning ayrim hududlarida sanoatning qimmatbaho xom ashyosi bo'lgan **uran** ham bor. «Uran bilan yo'l-yo'lakay reniy, skandiy, lantanoidlar ham qazib olinmoqda. Mazkur elementlarning aksariyati ma'lum darajada eritmaga o'tadi. Binobarin, ularni ajratib olish texnologiyasini joriy etish

konlarni ishlash samaradorligini ancha oshirish imkonini bergan bulur edi» (I.A.Karimov, 1997).

Yoqilg'i-energetika resurslari. O'zbekiston energetika sanoatini rivojlantirish uchun zahiralari ancha katta bo'lgan neft, tabiiy gaz va ko'mir konlariga ega. Mazkur tabiiy boyliklar mamlakatimizning turli mintaqalari bo'ylab tarqalgan.

Neft. U o'tgan asrimizning boshlari va o'rtalarida Farg'ona vodiysidan ko'p qazib olingan. O'zbekistonda dastlab neft qazib olish 1904 yilda Farg'ona vodiysidagi Chimyon konida boshlangan. Keyinchalik shu regionda Xujaobod, Janubiy Olamushuk, Shimoliy Olamushuk, Polvontosh, Xo'ja Usmon, Hartum kabi yangi konlar topilgan va ishga tushirilgan. 1959 yilda Farg'ona neftni qayta ishlash zavodining birinchi navbati ishga tushgan. O'sha yillarda Janubiy O'zbekiston - Surxondaryo va Qashqadaryoda yangi-yangi neft konlari (Kokayti, Lalmikor, Xaudak, Uchqizil) topilgan. Mazkur konlarning ko'pida neft bilan birga yo'ldosh gaz ham qazib olinadi. Ayniqsa, mamlakat neft sanoatini rivojlantirishga Mingbuloq (Namangan viloyati) va Kukdumaloq (Buxoro viloyati) konlarining ochilishi va ishga tushirilishi keskin ta'sir ko'rsatdi. Mazkur konlarining topilishi va ishga tushirilishi mamlakatimiz yoqilg'i-energetika resurslari geografiyasini va yoqilg'i sanoatining markazini o'zgartirib yubordi.

Tabiiy gaz. Hududimiz tabiiy gaz zahiralariga ham boy. Uning yirik konlari neft bilan yonma-yon (ko'pincha birga) uchraydi. XX asrning o'rtalarida G'arbiy O'zbekistonda topilgan va zahirasi nihoyat darajada katta bo'lgan Jarqoq va Gazli konlarining zahiralari tugab bormoqda. Tabiat O'zbekistondan ne'matlarini ayamagan ekan, uning yangi-yangi konlari topilmoqda. Uchqir, O'rtabuloq, Chaqmoqli, Qoravulbozor, Setlyantepa gaz konlari ketma-ket ochildi. Hozirgi davrda

zahirasi juda katta bo'lgan gaz koni Qashkadaryo viloyatidagi Sho'rtan konidir. Shuningdek, Buxoroning Kukdumaloq konidan ham neft bilan birga ko'p miqdorda gaz tabiiy ajratib olinadi.

«Bugungi kunda mamlakatimizning turli mintaqalarida 150 dan ortiq neft va gaz konlari ochilgan bo'lib, ulardan 92 tasida ish olib borilmoqda. Hozirgi paytda istiqbolli Ko'kdumaloq konida burg'ulash, obodonchilik va tezda ishga tushirish bo'yicha faol ish ketyapti. Bularning barchasi uzoq yillarga yetadigan ishonchli xom ashyo bazasini barpo qiladi, respublika iqtisodiyotining uglevodorod xom ashyosini qayta ishlovchi mahsulotlarga ehtiyojini ta'minlashga imkon beribgina qolmay, respublikaning eksport salohiyatini ham ancha oshiradi» (I.Karimov, «O'zbekiston ovozi», 1997, 23 avgust).

Ko'mir. Mamlakatimizda uchta: Angren (Toshkent viloyati), Sharg'un va Boysun (Surxondaryo viloyati) ko'mir konlari ishga tushirilgan. Uchala ko'mir koni ham yura davri qatlamlarida joylashgan.

Ohangaron daryosi vodiysida joylashgan **Angren Qo'ng'ir ko'mir** koni 1933-1934 yillarda topilgan va 40-yillarning boshida ishga tushirilgan. Unda ko'mir ko'pincha karyer (ochik) usulida qazib olinadi. Uning zahirasi 2 mlrd. tonnaga yaqin. Agar mamlakatda yiliga **10** mln. tonnadan ko'mir qazib olingan taqdirda ham, Angren ko'mirining zahirasi yana 200 yilga yetadi.

Sharg'un ko'mir koni Hisor tog'ining janubiy yonbag'ri (dengiz sathidan 700-800 m. balandlik)da joylashgan. Geolog YE. A. Repman tomonidan (1941y.) topilgan ushbu konning ham zahirasi katga. Uning sifat va issiqlik quvvati Donbass, Kuzbas va Qarag'anda havzalari ko'miridan qolishmaydi. U

Angren ko'miriga nisbatan ikki marta ko'p issiqlik beradi. 1963 yilda Sharg'un ko'miri asosida Markaziy Osiyoda birinchi marta briket(g'isht shaklida iskanjalangan) fabrikasi qurildi. **Bu** fabrika kuniga 160 ming tonna briket tayyorlab berish quvvatiga ega. Shaxtyorlar shahri Sharg'undan kongacha 18 kilometr osma sim yo'li o'tgan. **Bu** yo'lga o'rnatilgan har bir vagonetka 1 tonna ko'mirga mo'ljallangan. Sutka mobaynida osma yo'l orqali ko'mir shaxtasidan briket fabrikasiga 7 ming tonnagacha ko'mir tashiladi.

Surxondaryoning tog'li Boysunida ham yuqori quvvatli To'da ko'mir koni ishga tushirilgan. Uning zahirasi chet ellik (AQSH) mutaxassislar tomonidan 160 mln. tonnaligi aniqlangan. Dengiz sathidan 1246 m. balandlikda joylashgan To'da ko'mir konidan yiliga 500 ming tonna ko'mir qazib olish yo'lga qo'yilmoqda.

Tog'-kimyo xom ashyo resurslari. Mamlakatimiz hududida kaliy, osh tuzi va fosforitning katta zahiralari aniqlan-gan. Magniy va natriyning sul'fat tuzlari esa kam uchraydi. Mineral tuzlar dengiz va quruqlik shakllanish guruhlariga mansub bo'lib, yuqori yura, pastki bo'r, neogen va antropogen davrlarda hosil bo'lgan. Xo'jaikon, Boybichakon, Tubekatan, Lalmikon, Oqbosh va boshqa, jami 8 ta tuz konlari katta ahamiyatga ega. Pastki bo'r davriga mansub tuzlar ko'l sharoitida vujudga kelgan, qatlami qalinligi 120-200 metrgacha boradi. Ular ayniqsa, Ko'xitang tog'ida ko'p tarqalgan. Birgina Xo'jaikon tuz koni zahirasi 140 mln. tonna bo'lib, hozirgi davrdagi mamlakat ehtiyoji bo'yicha yana 100 yildan ko'proq vaqtga yetar ekan.

Fosforitning katta konlari Qizilqumda topilgan. Uning Ovminzatog', Bukantog', Toshqazgan, Quljiktog' va Boysun tog'laridan topilgan konlari ayniqsa, istiqbollidir.

Oltingugurt Shursuv koni (Farg'ona vodiysi)dan qazib olinadi. Biroq, uning yirik koni Tubekatanda. U yura davri yotqiziqlarida uchraydi. Hozirgi vaqtda esa, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan oltingugurtning katta qismi Muborak gazni qayta ishlash majmuasida ajratib olinmoqda.

Nometall foydali qazilmalar ham mamlakatning tog'li mintaqalarida keng tarqalgan. Dala shpatining magmatik va cho'kindi konlari (Zirabuloq-Ziyovuddin tog'lari, Korjontog'da) ma'lum. Grafitning 30 dan ortiq magmatik va cho'kindi konlari bor. Asbestning ko'k tusli xili Sulton Uvays tog'ida uchraydi.

Talk va talk toshining sanoat ahamiyatidagi to'planmalari faqat Sulton Uvays tog'laridadir. Talkdan qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi ko'rash vositasi sifatida hamda tibbiyotda dori-darmon tayyorlashda foydalaniladi.

O'zbekiston qurilish sanoati uchun ishlatiladigan xom ashyo (qum, qumtosh, ohaktosh, granit, marmar, tog' billuri, yashma, marmarsimon oniks kabilarlar)ga boy. Ayniqsa, G'ozg'on marmari (Navoiy viloyati) mo''jizakor sifatining dovrug'i «yetti iqlim»ga ketgan. Mamlakatimizdagi deyarli barcha daryo o'zan va yoyilma yotqiziqlarida shag'al, qum, shag'altosh ko'p tarqalgan. Kvars oqqumi ham yurtimizda ko'p tarqalgan bo'lib, u oyna va kulolchilik sanoatining qimmatli xom ashyosi hisoblanadi. Oqqum konlari Toshkent viloyati (May va Ozodboshi qishloqlari hududi)da, Navoiy shahrining yaqinida, Farg'ona vodiysida keng tarqalgan.

Mineral suv resurslari. Mamlakat hududining litologik jinslar majmuida muayyan miqdorda yer osti suv zahiralari mavjud. Yer osti suvlarining(shifobaxsh) 100 ga yaqin istiqbolli konlari o'rganilgan. Mutaxassislarning aniqlashicha, mamlakat yer osti suvlarining o'rni qaytadan tiklanib turuvchi zahirasi sekundiga 1000 m3.

Yer osti suvlarining kimyoviy tarkibi jihatidan asosan gidrokarbonatli, gidrokarbonat-sul'fatli, qisman sul'fat-xloridli va xloridlidir. Vodorod-sul'fatli suv Chimyon, Polvontosh, Xo'jaobod, Sho'rsuv, Uchqizil, Kokayti, Jayronxona, Xo'jaipok, Omonxona va boshqa joylarda topilgan. Yodli suv Chortoqda, rodonli suv Arashonbuloqda, kam minerallashgan issiq suvlar Toshkent va Farg'ona viloyatlarida, sul'fat-xloridli va natriyli suv Sitorayi Moxi xossa, Qorako'l, Gazlidan chiqadi.

Yer resursi. O'zbekistonda asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan yer davlat mulki hisoblanadi. Shuning uchun ham faqat davlat yerdan muddatsiz yoki vaqtincha foydalanish uchun uni qishloq xo'jalik tashkilotlariga, turli yo'nalishda faoliyat ko'rsatadigan xo'jalikshlarga, shuningdek, fuqarolarga beradi.

Davlat yer fondi: umumiy yer fondini, shundan qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarni, shudgor qilinadigan, daraxt yoki mevazor, yaylov, pichanzor, o'rmonzor hamda qo'riq va partov yerlardan tashkil topgan.

Mamlakatimizning umumiy yer fondi 444,0 ming kv. km, shundan qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlar 26,7 mln. gektarga yaqin, ya'ni mamlakat umumiy yer fondining 63,8 foizi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga yaroqli bo'lgan yerlardir. Shundan shudgor qilib (haydalma) dexhonchilik qilinadigan yerlar 4,3 mln. ga dan ortiq.

Mamlakat yer fondi hududlararo yaxlit bo'lib, foydalanish turlariga ko'ra, uning ayrim turlarini ko'paytirib yoki unumdorligini oshirib borish mumkin. Mamlakatda 22 mln. gektardanortiq yer yaylov mavjud. Uning unumdorligini va mahsuldorligini artezian quduqlari quvvatini oshirib borish evaziga yanada ko'paytirish mumkin. Yoki sug'oriladigan mintaqada mavjud sug'orish, yerlarning meliorativ holatini

yaxshilovchi tizimlar samaradorligini orttirish va ta'mirlash asosida ko'zlangan mahsulotni yetishtirishga erishish mumkin.

Agroiqlim resurslari. O'zbekistonning agroiqlim resurslari holati uni materikning ancha ichkarisida joylashgan geografik o'rni hamda murakkab yer yuzasi relyefining tuzilishiga bog'liq. Shu jihatdan uning iqlim sharoiti qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishga qodir.

O'zbekistonning agroiqlim ko'rsatkichlari (jumladan, yog'in-sochin va uning miqdori, tushish muddati, havo haroratining yillik ijobiy va foydali ko'rsatkichlari) yer sirtiga quyosh nuri tushish burchagining kattaligi ziroatchilikni rivojlantirish uchun kuchli omil bo'lib maydonga chiqadi.

Quyosh radiasiyasi. Mamlakatimizni «Serquyosh O'zbekiston» deb atashlarining ramziy ma'nosi bor. Negaki, mamlakatimizda quyosh yil davomida ufqdan balandda bo'lib nur sochadi. Quyosh iyun oyida ufqdan Toshkentda 72°, Termizda 76° gacha ko'tariladi. Yezda kunduz kuni 15 soat davom etadi. Atmosfera yog'in-sochinlarini keltiradigan dengiz va okean oqimlaridan juda uzoqda bo'lgan bu o'lkada bulutli kunlar tabiiy ravishda kam bo'ladi. Binobarin, uning barcha hududiga quyosh uzoq vaqtgacha nur sochib turadi. Ziroatchilik qilinadigan barcha vodiy va vohalarda, ko'p yillik meteorologik ko'zatishlarga qaraganda, kuyosh yog'dusi davomiyligi yil davomida o'rtacha 2500-3000 soat (Farg'ona vodiysi va Qashqadaryoning tog' hududlarida 2600 soat, Toshkentda 2890 soat, Termizda 3100 soat)gacha boradi.

Yoz oylarida mamlakatimiz hududi quyosh nuridan nihoyat ko'p energiya qabul qiladi. O'rtacha bir yilda uning har bir sm2 yer yuzasiga 100-120 ming kaloriya quyosh nuri tushadi. Quyoshdan kelayotgan issiqlikning 70-80 foizi tuproq va yer yuzasi havosining isishiga sarf bo'ladi. Quyoshdan

kelayotgan energiyadan xalq, xo'jaligida energiya manbai sifatida foydalanishga doir ilmiy-amaliy izlanishlar O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining «Quyosh» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasida olib borilmoqda.

Issiqlik resurslari. Serquyosh O'zbekiston janubiy mamlakatlarga xos bo'lgan qimmatbaho ziroatchilik, bog'dorchilik va uzumchilik, shuningdek, o'simliklarning o'sish uzoq bo'lgan(vegetasiya) muddati hamda quyoshli kunlarni talab qiladigan subtropik mevalar yetishtirishni tabiiy issiqlik yordamida rivojlantirishning juda katta imkoniyatlariga ega. Ayni bir paytda yana shu narsani ta'kidlash joizki, bunday imkoniyatlar mamlakatning barcha geografik mintaqalarida bir xil emas. Masalan, mamlakatning shimoliy mintaqasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati)da issiqlik ko'rsatkichlari ancha past va qishda o'ta salbiy, Farg'ona vodiysida birmuncha yumshoq va mo''tadil, mamlakatning janubiy qismida esa o'ta baland.

Eng sovuq oy - yanvarning o'rtacha havo harorati Shimoli-g'arbiy O'zbekiston (Urganch va Nukus)da - 4,8^{0}S va - 6-4^{0}S; Shimoli-Sharqiy O'zbekiston (Toshkent va Guliston)da - 0,9^{0}S va - 2,0^{0}S; Sharqiy O'zbekiston (Farg'ona va Andijon)da - 3,5^{0}S va - 30S; Markaziy O'zbekiston (Qorako'l va Samarqand)da - 0,2^{0}S va 0,30S va Janubiy O'zbekiston (G'uzor va Denov)da - 2,3^{0}S va - 2,4^{0}S darajaga teng. Iyul oyining o'rtacha havo harorati Urganch va Nukusda 27,5^{0}S va 27,1^{0}S; Toshkent va Gulistonda 26,9^{0}S va 26,8^{0}S; Farg'ona va Andijonda 26,8^{0}S va 27,3^{0}S; Qorako'l va Samarqandda 29,1^{0}S va 26,0^{0}S; G'uzor va Denovda 29,9^{0}S va 28,2^{0}S darajaga teng. Biroq, havo haroratidagi bu ko'rsatkichlar asosan mamlakat-ning tekislik mintaqasiga xos bo'lib, u tog'lik va baland tog'li hududlarda birmuncha farq qiladi.

Issiqlik resurslari turli xil ziroatchilikni joylashtirish, ulardan yuqori hosil olish va tabaqalashtirib rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan yillik havo haroratining ijobiy va foydali ko'rsatkichlari, shuningdek, sovuq bulmaydigan kunlar muddati amaliy ahamiyatga molikdir (31-jadval).

Ushbu jadval ma'lumotlariga tayanib, qayd qilish joizki, mamlakatning turli geografik regionlarida o'rtacha havo harorati va havo haroratining ijobiy va foydali ko'rsatkichlari keskin farq qiladi. Masalan, mamlakatning shimoliy qismida joylashgan Nukusda havo haroratining 5 darajadan yuqori ko'rsatkichlari yig'indisi 4301 darajaga teng bo'lgani holda, bu ko'rsatkich Termizda 5950 darajaga yetadi, ya'ni 1649 daraja ko'p. Havo haroratining ijobiy ko'rsatkichlari ham shu yo'sinda farqlanadi. Mamlakatning agroiqlim ko'rsatkichlaridagi ana shu farq qishloq xo'jaligi ayniqsa, ziroatchilikni yurgizishda kuchli omil bo'lib chiqadi va dehqonchilik tuzilmasiga yoki uni takroriy ekishga ta'sir ko'rsatadi.

32-jadval

Mamlakat geografik mintaqalarida agroiqlim ko'rsatkichlari

Metstan-siya joylash-gan shahar	Qishki davr		O'simlik vegetasiyasi davri			
	0 darajadan past bo`lgan kunlar	Havo harorati salbiy ko`rsat-kichi yig`indisi	o`rtacha havo haroratidan o`tgan kunlar soni (yuqori)		o`rtacha havo harorati ijobiy ko`rsatkichining yig`indisi (yuqori)	
			+5 daraja-dan	+10 daraja-dan	+5 daraja-dan	+10 daraja-dan
Guliston	SHIMOLIY-SHARQIY O`ZBEKISTON					
	48	-72	259	218	4773	4460
Toshkent	38	-29	263	214	4749	4391
	ShARQIY O`ZBEKISTON					
Farg`ona	60	-123	256	213	4757	4445

Andijon	55	-123	262	218	4954	4617
	MARKAZIY O`ZBEKISTON					
Qorako`l	23	-11	271	222	5257	4905
Samarqand	0	-	269	212	4685	4275
	JANUBIY O`ZBEKISTON					
G`uzor	0	-	304	239	5751	5269
Termiz	0	-	306	251	5950	5630
	SHIMOLI-G`ARBIY O`ZBEKISTON					
Urganch	88	-270	235	199	4544	4269
Nukus	104	-439	228	191	4301	4035

O'zbekistonda yoz fasli uzoq davom etadi, hattoki, uning janubiy qismi (Surxondaryo)da, L. N. Baubushkinning ta'kidlashicha, bu fasl olti oyga cho'ziladi. Yozda quyosh nurining bevosita ta'sirida bo'lgan yer yuzasi 60 darajagacha, uning cho'llari va qum hududlarida esa 75 darajagacha ko'tariladi. Sovuq bo'lmaydigan kunlar Shimoliy O'zbekistonda 190-210 va Janubiy O'zbekistonda 220-270 kunni tashkil qiladi.

Yog'in-sochin mamlakat hududi bo'ylab bir xil taqsimlangan emas. Binobarin, uning ziroatchilikning joylashishi va rivojlanishidagi roli turlicha. Masalan, yog'in-sochin ko'proq tushadigan Chiroqchi, Yakkabog' adirlari (Qashqadaryo viloyati), G'allaorol tumani va Jizzax cho'lida lalmi g'alladan yaxshi hosil yig'ishtirib olinadi. Ayni bir paytda yog'in kam tushadigan Dehqonobod va Sherobod adirlarida lalmikor dehqonchilikning mahsuldorligi past. Shuningdek, yog'in-sochinning fasllararo taqsimlanish muddati ham ziroatchilikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizning murakkab orografik (yer sirti) tuzilishi yog'in-sochin taqsimotiga kuchli ta'sir qiladi. Uning tekisliklariga kamroq, tog' etaklariga ko'proq va tog'li hududlarining g'arbiga eng ko'p yog'in-sochin tushadi. Bu farq mamlakatning turli geografik mintaqalarida ham ko'zga

tashdanadi. Masalan, Toshkent va Gulistonda 367:295 mm, Farg'ona va Andijonda 174:226 mm, Qorako'l va Samarqandda - 114: 328 mm; G'uzor va Termizda - 285:133 mm; Urganch va Nukusda ~ 82:82 mm dan yog'in-sochin tushadi. Tekisliklarda o'rtacha yillik yog'in 100-200 mm (ayrim hududlarda, masalan, Taxiatoshda 79 mm), tog' yonbag'irlarida 200-400 mm va tog'larda 500-600 mm gacha tushadi. Shuningdek, yog'in-sochin fasllar bo'ylab notekis tushadi. Ko'p yillik meteorologik ma'lumotlarga ko'ra, yillik yog'inning ko'p qismi bahorda (30-50%) va qishda (25-40%), oz qismi esa, yozda (1-6 %) va ko'zda (10-20%) tushadi.

Suv resurslari. Mamlakatning asosiy suv boyliklari - daryo suvlaridir. Daryolari tog'lardagi qor va muzliklardan, yomg'ir va buloq suvlaridan to'yinadi. Biroq, iqlimiy sharoiti o'ta quruq bo'lganligi uchun daryolar tog'dan tekislikka oqib chiqishi bilan o'rta va quyi qismlarida sug'orish va bug'lanishga sarf bo'ladi. Tekislikdagi kichik daryolari jazirama yoz faslida qurib qoladi.

O'zbekistonning yirik daryolari: Norin va Qoradaryo, So'x va Chirchiq, Zarafshon va Qashqadaryo, Surxondaryo va Sherobod daryolardir. Mamlakatning yirik suv arteriyalari hisoblangan Amudaryo va Sirdaryo hamda ularning yirik irmoqlari O'zbekiston hududidan tashqarida boshlanadi. Shuning uchun ham Amudaryoning yillik o'rta oqim suv hajmi 79 km^3 bo'lgani holda, uning 8 foizi; Sirdaryoning yillik o'rta oqim suv miqdori 38 km^3 bo'lgani holda uning faqat 10 foizi O'zbekiston hududida hosil bo'ladi.

Mamlakatning aksariyat daryolari bahor faslida to'lib-toshib oqadi. Yozda borgan sari daryolar suvi kamayib boradi. Daryolardagi bu xil rejim ziroatchilik ehtiyojlariga muvofiq emas. Shuning uchun dehqonchiligi asosan sug'orib ekishga tayangan mamlakatimizning barcha geografik mintaqalarida

o'nlab yirik suv omborlari, yuzlab magistral kanallar, minglab nasos stansiyalari barpo qilingan.

Tuproq resurslari. Tuproqning tabiiy holati, ya'ni donadorligi, chirindi miqdori, madaniylashish darajasi dehqonchilikning hosildor (mahsuldor)ligiga ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizning tekislik mintaqalarida oddiy bo'z tuproq, tog' yonbag'irlarida asosan bo'z tuproq, tog'larda to'q tusli bo'z tuproq keng tarqalgan. Ularning chirindi miqdori qora yoki kashtan tuproqlarinikiga nisbatan 4-6 marta kam bo'lsa ham, ona jinsining donadorligiga va quyosh nurini ko'p qabul qilishiga ko'ra, unumdorligi ancha yuqori.

Mamlakatda sug'oriladigan yerlarning hisob-kitobi alohida olib boriladi. Negaki, qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan asosiy mahsulotlarning ulushi shu yerlarga to'g'ri keladi. Sof tarzdagi sug'oriladigan yerlar 4,2 mln. ga atrofida. Shundan 1,6 mln. ga cho'l mintaqasida, qolgan qismi tog', vodiylardagi och tusli va asosiy bo'z tuproqli mintaqada joylashgan. Avtomorf tuproqli maydonlar yirik daryo vodiylari va yoyilmalarida, shuningdek, tog' etaklarida bo'lib, bu yerda uzluksiz dehqonchilik qilish (sug'orish) natijasida sizot suvlari ancha ko'tarilgan. Mamlakatdagi cho'llarni o'zlashtirish jarayonida jumladan, Qarshi va Sherobod, Mirzacho'l va Jizzax cho'llarini o'zlashtirish bilan o'nlab, yuzlab yirik kollektorlar va zovurlar qazilgan, (ochik va yopik). Endilikda(ya'ni, qariyib 30-40 yil mobaynida xizmatda bo'lgan) ushbu sug'orish va meliorativ tizimlarning aksariyati eskirdi va ko'plari izdan chiqqani tabiiy hol. Natijada, sug'orma dehqonchilik qilinadigan yerlarning yarmidan ortig'i sho'rlanib bo'ldi. Shuning uchun ham ularning sho'rini muntazam yuvib turish hamda meliorativ holatini yaxshilab borish va bu borada ilmiy

asoslangan tadbirlar ishlab chiqish mamlakat Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining galdagi bosh vazifasiga aylangan.

O'simlik va hayvonot resurslari ham mamlakat tabiatining tarkibiy qismi bo'lib, uning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham ularni borligicha asrash va muhofaza qilish mamlakatda tabiat muvozanatini saqlash bilan teng ishdir.

Mamlakat tabiiy resurslarining iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichidagi holatini o'rganish va ularni ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, maqsadida baholash, ayrim qisqacha xulosalar chiqarish va tavsiyalar berishni taqozo qiladi.

O'zbekistonning o'simlik resurslari cho'l, adir, vodiy, tog' oldi va tog' mintaqalarida joylashgan. Ularning 90 foizga yaqini chorva mollari uchun ozuqa hisoblanadi. Qurg'oqchil mamlakatimizning barcha mintaqalarida ham tabiiy o'tloqzorlarning hosildorligi past. Masalan, qumli va cho'l yaylovlarida yiliga o'rtacha gektaridan 3-5, adir yaylovlarida esa 8-10 sentnerdan pichan olish mumkin. Tog' mintaqasining pichan zahirasi umuman adir mintaqasinikidan ko'proq bo'lib, tuproq holati, nam va kalin o'rmonli bo'lishiga qarab o'zgaradi.

Mamlakatimiz tabiatining ko'rki uning tog'laridir. Tog'lar yovvoyi va madaniylashgan mevalarga ancha boy. Ayniqsa, O'zbekiston tog'larida tog' olchasi, tog' olmasi, tog' yong'og'i, pista, do'lana, bodom, jiyda, gilos va boshqa mevalilar keng tarqalgan. Shuningdek, tog'li hududlarda shifobaxsh o'simliklardan zira, zirk, na'matak, kiyik o'ti, alkor, omonqora va boshqalar ko'p.

Hayvonot resurslari turlarga boy. Masalan, bizda birgina sut emizuvchilarning 97 turi uchraydi. Tuyoqli

sutemizuvchilardan jayron, sayg'oq, burama shox tog' takasi, buxoro bug'usi (xongul) va boshqalar «Kizil kitob»ga kiritilgan.

Teri (mo'yna)si uchun ovlanadigan hayvonlardan tulki, chiyabo'ri, bo'rsiqlar ham keng tarqalgan. O'z vaqtida mamlakatimiz hududida keng tarqalgan ayiq, qoplon, bars, qunduz, alqor (arhar) va boshqalar endilikda «Qizil kitob»dan joy olgan. Mamlakatimiz hududida ovlanadigan 60 xil qush bor. Bo'lardan kaklik, qirgovul, bedana, o'rdak, g'oz asosiylaridir. Mamlakatning cho'l hamda tog'li hududlaridan yiliga uch mingdan ortiq zaharli ilonlar tutiladi.

Umuman, mamlakat o'simlik va hayvonot olami rang-barang bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida muhofazaga o'ta muhtoj.

Qisqacha xulosalar

O'zbekiston Yevroosiyo materigining ichkari qismida joylashgan. Markaziy Osiyo miqyosida uning geografik joylashishi juda qulay, chunki u shu mintaqada joylashgan hamma davlatlar bilan chegaradosh. Xalqaro miqyosda uning geografik o'rni bir oz noqulay, chunki xalqaro dengiz yo'llariga bevosita chiqa olishga imkoniyati yo'q.

Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari xo'jalikni rivojlantirish uchun qulay. Quyosh issiqligining mo'lligi bu yerda issiqsevar texnik va boshqa ekinlarni yetishtirishga imkon beradi. YOqilg'i-energetika resurslaridan ko'mir, neft va gaz mavjud. Rangli metallar konlari mamlakatimizda serob, uning asosida rangli metallurgiya sanoati vujudga kelgan. Qurilish xom ashyosining ham katta zahiralari mavjud. Oxirgi paytda yirik temir rudasi konlari aniqlangan.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O'zbekistonni xalqaro miqyosdagi-iqtisodiy geografik o'rniga baho bering.
2. O'zbekistonda qanday metalli foydali qazilmalarning zahirasi ko'p?
3. O'zbekistonda qanday ko'mir konlari bor va ularning sifati qanday?
4. Ko'kdumaloq va Mingbuloq neft konlari qaysi viloyatlar hududida joylashgan?

XIV mavzu. O'ZBEKISTON AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI

Aholi birlamchi ishlab chiqaruvchi kuch hisoblanadi. Jamiyat taraqqiy etgan sari uning jamiyatda tutgan o'rni, salohiyati ortib va takomillashib boradi. Chunki xalq butun moddiy boyliklarni yaratuvchi kuchgina emas, balki u ma'naviy boyliklarning ham birdan-bir va bitmas-tuganmas manbai hamdir. Shuning uchun jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi bo'lgan aholini o'rganishga iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida doimo katta e'tibor beriladi. Chunki har bir mamlakat, uning ichki iqtisodiy-geografik rayonlari xalq xo'jaligini hududiy tashkil qilish va rivojlantirishda aholining soni, zichligi, tabiiy o'sish, migrasiya va urbanizasiya jarayoni, milliy va ijtimoiy tarkibi, jinsi, mehnat resurslari va aholining bandligi kabi ko'rsatkichlar katta ahamiyat kasb etadi.

14.1. Aholi dinamikasi

O'zbekistonning aholisi 25,5 million nafardan ortib ketdi. U aholi sonining ko'pligi bo'yicha MDHda uchinchi o'rinda turadi. Bu yerda MOD umumiy aholisining salkam 44 foizi yashaydi.

Aholining o'sishi tarixiy-an'anaviy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarga ega**.** Uzoq va yaqin o'tmishda O'zbekiston murakkab tarixiy yo'lni bosib o'tdiki, bu narsa mamlakat aholisining dinamikasiga hamda demografik va migrasion holatlariga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Mamlakat aholisi va uning tarkibi, ayniqsa, XIX asrning o'rtalaridan boshlab jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Chor Rossiyaning Turkiston hududini istilo qilishi natijasida

aholi soni, uning milliy va jinsiy tarkibi, ko'payish darajasi, joylashuv xususiyatlari o'zgardi.

Turkiston (hozirgi MOD) hududida aholining birinchi marta ruyxati 1897 yilda o'tkazilgan. Biroq, ushbu ro'yxat ham to'liq emas edi. Chunki bu ruyxat Buxoro va Xiva xonliklari hududlarini chetlab o'tgandi. Mustamlakachilik siyosatining natijasi tufayli o'lkamizga ko'plab harbiylarning oilalari ko'chirib keltirildi, yangi qishloqlar, shaharchalar, shaharlarimiz yonida esa «yangi shaharlar» paydo bo'ldi.

XIX asrning so'nggi 35 yili davomida O'zbekiston hududiga Rossiyadan 70-75 ming kishi, XX asrning dastlabki 18 yilida esa 229,2 ming kishi ko'chib keldi. 1926-1939 yillarda 650 ming kishi ko'chib kelganligi ma'lum. Bu jarayon sobiq Ittifoq parchalanishi arafasigacha davom etgan edi. Ikkinchi jahon urushi ham mamlakatimiz aholisi soniga, uning milliy va jinsiy tarkibiga hamda geografik joylashuviga katta ta'sir ko'rsatdi. Urush yillarida mamlakatimiz o'zining bir milliondan ortiq mehnatga layoqatli aholisini yo'qotdi.

Aholi sonida yuz bergan o'sish esa fashistlar bosib olgan hududlardan ko'chirib keltirilgan kishilar hisobiga yuz berdi. 1940-1945 yillarda O'zbekiston aholisi 1,4 mln. kishiga kamayib ketdi.

Mamlakat aholisi urushdan keyingi yillarda asosan tabiiy o'sish hisobiga ko'paymoqda. Mamlakat aholisi salkam 1945-1950 yillarda bir million kishiga, 1950-1960 yillarda 2,2 mln. kishiga, 1960-1970 yillarda 3,4 mln. kishiga, 1970-1980 yillarda 3,7 mln. kishiga, 1980-1990 yillarda 4,6 mln. kishiga, 1990-1999 yillarda 3,7 mln. kishiga ko'paydi (34-jadval). Aholining yillik o'rtacha o'sishi 1865-1917 yillar o'rtasida 0,65 foizni, 1917-1940 yillarda 2,7 foizni tashkil etdi. Urush yillari bu ko'rsatkich 3,8 foizga kamaydi. Urushdan keyingi yillarda o'rtacha

o'sishning eng yuqori bo'lgan davrlari 1960-1990 yillar (3,3-3,8 foiz)ga to'g'ri kelgan. Undan keyingi davrda (1999 yilgacha) aholining yillik o'rtacha o'sish sur'atlari 2,0 foizdan yuqori bo'lgan va faqat keyingi yillardagina bu ko'rsatkich biroz (1,8 foiz) pasaydi.

1960-1990 yillar o'rtasida shahar aholisining o'sish sur'atlari birmuncha yuqori bo'ldi va aksincha, 1990-1999 yillar o'rtasida bu ko'rsatkich qishloq, aholisi hisobiga o'zgardi. Aholining tabiiy o'sishida ayrim hududlar o'rtasida ma'lum farq mavjud. Jami aholi o'sishining eng yuqori sur'atlari 1970-1995 yillarda Mirzacho'l va janubiy rayonlarga to'g'ri keldi. Quyi Amudaryo va Zarafshon hamda Farg'ona vodiylarining aholisi o'rtacha sur'atlar bilan (1,7-1,8) ko'paydi. Toshkent vohasida aholi o'sishining eng past sur'ati (1,5) xos bo'ldi. Natijada Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysi aholisining respublika miqyosidagi ulushi kamaydi (Toshkent vohasida 24,2 foizdan 19,3 foizgacha, Farg'ona vodiysida 27,4 foizdan 27,3 foizgacha). Quyi Amudaryo va Zarafshon vodiysi aholisi ulushi barqarorlashdi. Mirzacho'l va Jizzax cho'lining aholisi tez sur'atlar bilan ko'paysa ham ularning soni respublikadan 5,8 dan atigi 6,7 foizgacha o'sdi, holos. Aholi o'sishning eng katta sur'atlariga xos bo'lgan Janubiy O'zbekiston aholisi salmog'i 12,4 foizdan 15,3 gacha oshdi.

XX asrdan boshlab mamlakat aholisining geografik joylashuvida ham, ob'yektiv va sub'yektiv sabablarga ko'ra, jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Ungacha mamlakat aholisining asosiy qismi Farg'ona va Zarafshon, Qashkadaryo va Surxondaryo vodiylarida hamda Xorazm va Toshkent vohalarida yashagan edi. Mazkur holat XX asrning 30-yillarigacha saqlab qolindi. Keyinchalik mamlakatda yangi ma'dan konlarining topilishi va ishga tushirilishi, yangi

yerlarning o'zlashtirilishi va yirik irrigasiya-meliorasiya ishlarining amalga oshirilishi aholi joylashuviga o'zgarishlar kiritdi.

33-jadval.

O'zbekistonda aholining o'sishi
(ming kishi hisobida)

Yillar	Jami aholi mln.	Shu jumladan (mln. kishi)				Aholining yillik o'rtacha ko'payish sur'ati, foizda
		shahar aholisi		qishloq aholisi		
		soni	foiz	jami	foiz	jami aholi
1	2	3	4	5	6	7
1917	4,4	0,9	20,9	3,5	79,1	0,5
1940	6,5	1,60	24,5	4,9	75,1	2,7
1950	6,1	1,9	30,9	4,2	69,1	3,8
1960	8,3	2,8	33,8	5,5	66,2	3,3
1970	11,7	4,3	36,6	7,4	63,4	3,8
1980	15,7	6,4	40,9	9,3	59,1	2,5
1990	20,3	8,2	40,8	12,0	59,8	2,1
1995	22,5	8,7	38,7	13,8	61,3	1,6
2000	24,0	9,0	37,8	14,9	62,2	1,8
2002	25,5	9,4	37,8	16,08	62,2	1,7

Mirzacho'l va Qarshi cho'li, Jizzax va Sherobod cho'llarining o'zlashtirilishi, ma'dan konlarini ishga tushirish evaziga yangi sanoat markazlarining barpo qilinishi oqibatida o'nlab yangi shahar va shaharchalar bunyod qilindi. Natijada aholining mamlakat regionlariaro joylashuvida katta o'zgarishlar yuz berdi, shahar va qishloq aholisining nisbati hamda aholining hududiy joylashuvida muhim siljishlar sodir bo'ldi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda aholining o'rtacha zichligi (har kv.km. ga) 54,5 kishini tashkil etadi, bu esa MOD davlatlari o'rtacha ko'rsatkichidan 3,9 marta yuqoridir.

Aholi zichligi mamlakatning geografik rayonlariaro keskin farq qiladi. Masalan, Farg'ona vodiysida joylashgan Andijon

viloyatida har bir kv. km. ga 511,8 kishi to'g'ri kelgani holda Qoraqalpog'iston Respublikasida 8,9, Navoiy viloyatida 7,0 kishiga to'g'ri keladi. Viloyatlar o'rtasida aholi zichligi nisbati 73 martaga farq qiladi. Hududiy joylashuvi va zichligi respublika iqtisodiy rayonlari bo'yicha ham keskin farqlanadi. Eng yuqori zichlik Farg'ona iqtisodiy rayoni xissasiga to'g'ri keladi. Unda har 1 km^2ga o'rtacha 416 kishi joylashgan. Aholining o'rtacha zichligi ko'rsatkichiga ko'ra, Farg'ona vodiysi MOD mamlakatlari orasida eng yuqori o'rinda turadi. Bu ko'rsatkich bo'yicha ikkinchi o'rinni Toshkent iqtisodiy rayoni egallaydi (148 kishi). Aholi zichligining yuqoriligi ko'p jihatdan vohaning qadimdan muhim xo'jalik mintaqalaridan biri bo'lib kelganligi hamda Markaziy Osiyoning eng yirik shahri - Toshkentning shu yerda joylashganligi bilan izohlanadi. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining qadimiy dehqonchilik vohalaridan biri bo'lgan Xorazm viloyati mamlakatning aholisi ancha zich (219 kishi) hududlaridan hisoblanadi. Surxondaryo va Kashkadaryo mintaqalarida aholining o'rtacha zichligi 1 km^2 ga 79 kishini tashkil qiladi. Buxoro viloyati O'zbekistonning aholi siyrak yashaydigan mintaqalaridandir. Unda aholi har 1 km^3 ga 34,6 kishiga to'g'ri keladi. 1920 yillardan boshlab Mirzacho'l, keyinchalik Jizzax cho'llarining o'zlashtirilishi tufayli Mirzacho'l iqtisodiy rayoni aholi zichligi tobora ortib bormoqda. Bu yerda o'rtacha zichlik 93 kishini tashkil etadi. Navoiy viloyati va Qoraqalpog'istonda aholi zichligi nihoyatda past. Navoiy viloyatidagi Qizilqum va Qoraqalpog'istondagi Ustyurt platosida aholi zichligi 1 km^2 ga 1 kishiga ham yetmaydi.

35-jadval.

O'zbekiston aholisining viloyatlar bo'yicha taqsimlashnishi va zichligi

(2002 yil)

Viloyatlar	Jami aholi		Shundan				
	soni (mln. kishi)	foiz his.	shahar aholisi		qishloq aholisi		Aholi zichligi 1 kv.km.
			mln. kishi	Foiz his.	mln. kishi	foiz his.	
Qoraqolpog`iston Respublikasi	15,5	6,1	0,7	48,2	0,7	51,8	8,9
Andijon	2,3	8,9	0,6	29,9	1,4	70,1	510,3
Buxoro	1,5	5,8	0,4	31,8	0,9	68,2	34,9
Jizzax	1,1	3,9	0,2	31,2	0,6	68,8	46
Qashqadaryo	2,3	8,7	0,5	25,8	1,5	74,2	73,5
Navoiy	0,8	3,2	0,3	40,5	0,4	59,5	7,1
Namangan	2,0	7,8	0,7	37,7	1,1	62,3	254,8
Samarqand	2,8	10,9	0,7	27,7	1,8	72,3	156,1
Surxondaryo	1,8	7,01	0,3	20,9	1,3	79,9	84,2
Sirdaryo	0,7	2,7	0,2	30,9	0,4	69,1	131,8
Toshkent	2,4	9,7	0,9	40,8	1,3	59,2	153,3
Farg`ona	2,7	10,9	0,7	29,2	1,8	70,8	385,8
Xorazm	1,4	5,4	0,3	24,2	0,9	75,8	218,3
Toshkent shahri	2,1	8,9	0,2	100	-	100	-
Respublika bo`yicha	25,4	100	91,1	37,8	16,3	62,2	53,9

«Nukus-Sulton Uvays-Uchquduq» hamda «G'uzor-Qumqo'rg'on» temir yo'llarining qurilishi va ishga tushirilishi bilan va ularga yonma-yon avtomobil yo'llarining barpo etilishi ushbu mintaqalarda yer osti va yer ustki boyliklarini to'la o'zlashtirishini ta'minlaydi, yangi-yangi aholi manzilgoxlari, shahar va shaharchalarining vujudga kelishiga olib keladi. Natijada ushbu mintaqalar aholi zichligidagi katta tafovutlar qisqarib boradi.

14.2. Aholining jinsiy va yosh tarkibi

Aholining jinsiy va yosh tarkibi muhim demografik ko'rsatkich hisoblanadi. Bunda mehnat resursining,

maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning, nafaqaxo'rlarning hozirgi va kelajakdagi soni ayniqsa, ahamiyatlidir. Aholining jinsiy va yosh tarkibi istiqbolni belgilash, aholini takror barpo qilish uchun ham zarur ko'rsat-kich. Masalan, agar jinslar nisbatan teng yoki yaqin bo'lsa, aholining tarkibida yosh avlod salmog'i katta bo'lsa, nikohlanish va tug'ilish (va binobarin, tabiiy o'sish) imkoniyati katta bo'ladi.

Mamlakatda aholining jinsiy va yosh tarkibi ham ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida ob'yektiv sabablarga ko'ra, o'zgarib turdi. 1939 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlari bo'yicha O'zbekistonda aholining 52 foizini erkaklar va 48 foizini ayollar tashkil qilgan edi. Biroq, bu nisbat ikkinchi jahon urushi yillarida buzildi, ya'ni erkaklar soni ob'yektiv sabablarga ko'ra ancha kamaydi.

Urushga erkaklarni safarbar qilish natijasida aholining mutlaq miqdori bir million kishiga kamaydi va 1959 yilda o'tkazilgan aholi ruyxati bo'yicha erkaklar soni 48 foizga tushib qoldi, ayni bir paytda ayollar umumiy aholining 52 foizini tashkil qildi.

Urushdan keyingi tinch qurilish yillarida aholi jinsiy tarkibidagi katta farq barham topa bordi. 2003 yilda mamlakat aholisining 49,8 foizini erkaklar tashkil qildi, ya'ni 1000 erkakka 1026 ayol to'g'ri keldi.

Respublika aholisi nisbatida ayollar mutlaq sonining kamayishi 1990 yillarning oxirida ham davom etdi.

Mamlakatimizda tabiiy o'sishning yuqoriligi aholining yosh tarkibiga katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shuning uchun ham aholi nisbatida yosh bolalar va o'smirlarning salmog'i katta. 1989 yilda o'tkazilgan aholi ruyxati ma'lumotlari bo'yicha mamlakatimiz aholisining 40,8 foizini 0-14 yoshdagi bolalar va

o'smirlar, 28,3 foizini 15-29 yoshdagilar, ya'ni umumiy aholining 69,1 foizini bolalar, o'smirlar va mehnat kobiliyatiga ega bo'lgan yoshlar tashkil etgan. Biroq, O. Otamirzayev va A. Qayumovlarning ma'lumotlariga qaraganda, urush va undan keyingi dastlabki davrlarda tug'ilish nisbatan kam bo'lgan. Mamlakat aholisining hozirgi soni va tarkibida 1950 yillardan keyin tug'ilgan kishilarning umumiy soni 16,7 million kishi (umumiy aholining 84,5 foizi)ga teng. Shundan 44,6 foizi esa, bolalar va o'smirlarga to'g'ri keladi. Tug'ilish va tabiiy ko'payish 1980-1990 yillarda birmuncha barqarorlashdi. Bu shahar bilan qishloq joylarda bir xil kechmayapti, albatta. Masalan, qishloq joylarda respublikadagi jami bolalar va o'smirlarning 80 foizidan ortig'i yashamoqda.

Shunday qilib, aholi yosh tarkibidagi yuqori ko'rsatkichlar mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning istiqbollarini belgilab beradi. Ayni bir paytda MDH tarkibidagi davlatlarda tug'ilishning tobora kamayib borishi va, binobarin, aholining «qarib borishi», O'zbekistonda esa, tug'ilish ko'rsatkichlarining yuqoriligi natijasida aholining «yasharib borishi» kuzatilmoqda.

14.3. Aholining milliy tarkibi

Aholining milliy tarkibi tashqi omillar hamda davlat siyosati rivojlanishining turli bosqichlarida o'zgarib turishi natijasida ham o'zgacha tus oladi. O'zbekistonning mustamlakachilik yillaridagi holati uning aholisi soniga va eng muhimi, aholi milliy tarkibiga ko'p o'zgarishlar kiritdi. SSSRning tarqalib ketishi munosabati bilan O'zbekistondagi bir qator millat vakillarining o'z yurtlariga yoki xorijga ko'chib ketish holatlari ruy berdi. Masalan, 1990-1995 yillar mobaynida

respublikadagi slavyan xalqlarining, tatarlar va qrim tatarlarining, mesxeti turklarining, yaxudiylarning, nemislarning, greklarning va yevropalik boshqa xalqlarning mutlaq soni migrasion aloqalar natijasida deyarli 0,6 mln. kishiga qisqardi.

O'zbekistonning tub aholisi o'zbeklardir. 1989 yilda o'tkazilgan aholi ruyxati ma'lumotlari bo'yicha mamlakatimiz hududida yashovchi o'zbeklarning soni 14 milliondan oshdi. O'zbeklar shuningdek mamlakatimiz bilan yaqin qo'shni va MDH davlatlarida hamda uzoq xorijiy mamlakatlarda ham yashaydi. Jumladan, Tojikistonda 1,3 million, Qirg'izistonda 550 ming, Qozog'istonda 332 ming, Turkmanistonda 320 mingga yaqin, Rossiya Federasiyasida salkam 130 mingdan ortiq o'zbek istiqomat qiladi. Xorijiy mamlakatlardan Afg'onistonda eng ko'p (3 milliondan ortiq) o'zbek yashaydi. Shuningdek, o'zbeklar Ukraina va Belorusda, Boltiq buyi davlatlarida, Saudiya Arabistoni va Turkiyada, Eron va Xitoyda, Pokiston va AQSHda va boshqa davlatlarda ham bor. O'zbekistonda qoraqalpoklar ikkinchi tub aholi hisoblanadi va shuning uchun ham mamlakat ma'muriy-hududiy bo'linishida Qoraqalpog'iston Respublikasi bor. Ularning umumiy soni 420 ming atrofida bo'lib, mamlakat aholisining 2,1 foizini tashkil qiladi. O'zbekistonda qadim Turon zaminning tub xalqlaridan tojiklar (umumiy aholining 4,7 foizi), qozoqlar (4,1 foiz), qirg'izlar (0,9 foiz), turkmanlar (0,6 foiz) ham yashaydi. Shunday qilib, O'zbekistonda jami aholi sonidagi tub xalqlarning ulushi 83,8 foizni tashkil qiladi. Mamlakat qishloqlarida yashovchi tub aholi esa 96,7 foizga teng. Hududimizda tatar, qrim-tatarlar, ozarbayjon, boshqirdlar va uyg'urlar ham yashaydi.

Mustamlakachilik yillarida mamlakatimizga ko'pgina slavyan xalqlarining vakillari kirib keldi. Shulardan eng ko'pi

ruslardir. Ularning umumiy soni 3 mln. atrofida. Ruslar bilan birga yurtimizga ukrainlar, beloruslar, polyaklar, chexlar, slovaklar, bolgarlar ham kirib keldi. Shu tariqa, mamlakatimiz aholisi tobora ko'p millatli bo'lib bordi.

14.4. Shahar va qishloq aholisi

Tabiiyki, shahar aholisining ko'payish darajasi hududning industrlashtirish holati bilan bog'liq holda kechadi. O'zbekistonda XX asrda shahar aholisining salmog'i qator rivojlangan mamlakatlarnikidan orqada qolib ketdi. Faqat mamlakatimizning ayrim regionlari (va ayniqsa, markaziy shaharlari)da yirik-yirik sanoat korxonalarining barpo qilinishi, bir qator geografik rayonlarda esa qazib olish va qayta ishlash sanoatining rivojlanishi shahar aholisining birmuncha ko'payib borishiga olib keldi. 1865 yilda shahar aholisi umumiy aholining 14 foizini tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1927 yilda 21 foizga yetdi. 1940 yilda shahar aholisi 24,5 foizni, 1959 yilda 33 foizni, 1970 yilda 36,6 foizni, 1979 yilda 41,2 foizni, 1989 yilda 40,7 foizni va 2003 yilda esa 38,8 foizni tashkil qildi.

Ayni bir paytda qishloq aholisining nisbatida teskari jarayon kechdi. Ya'ni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini mexanizasiyalashning chuqurlashuvi, ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarga tayanishi, sug'orishda ilg'or usullar (va avtomatika)ni qo'llash mehnat unumdorligi ortib borishiga olib keldi. Bunday holat qishloq xo'jaligidan bo'shagan ishchi kuchidan sanoatda, qurilishda va xizmat ko'rsatish sohalarida foydalanish imkoniyatini yaratib berdi.

Respublikada shahar aholisining ko'payib borishi urbanizasiya jarayoniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Respublikada shahar aholisi keyingi yillar (1979-2003y.)da 2956 ming kishiga ko'paydi. O'rtacha yillik o'sishning nisbiy miqdori 7,2 foizga teng bo'ldi. Respublikaning shahar aholisi nihoyatda notekis joylashgan, asosiy qismi Toshkent vohasiga to'g'ri keladi. Biroq, Toshkent vohasi (Toshkent shahrini hisobga olmaganda) shahar aholisining miqdori bo'yicha respublikada Farg'ona va Zarafshon vodiylaridan keyingi o'rinda turadi. Keyingi yillarda Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysida shahar aholisining o'sish sur'atlari barqarorlashmoqda. Shahar aholisi ishlab chiqaruvchi kuchlar nisbatan yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotgan regionlarda tez o'smoqda.

14.5. Aholining ijtimoiy tarkibi

Mamlakat aholisining ijtimoiy tarkibi rivojlangan mamlakatlarnikidan keskin farq qiladi, ya'ni bu yerda xanuz qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bilan band bo'lgan aholi soni yuqori. Ishchi va xizmatchilarning ishlab chiqarishda band bo'lgan qismi asosan 1939 yildan boshlab sezilarli darajada ortib bordi. Masalan, 1939 yilda mamlakat mehnat resursining 32,2 foizi ishchi va xizmatchilar hisobiga to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1989 yilda 79,7 foizga teng bo'ldi. Shu jumladan, ishchilarning ulushi 19,3 foizdan 55,7 foizga, xizmatchilarning ulushi 12,9 foizdan 24,0 foizga yetdi.

Aholi ijtimoiy tarkibidagi tub o'zgarishlar mustaqillik yillarida yuz berdi. Ko'p mulkchilik, iqtisodiyotning qaror topishi va bozor munosabatlari shakllanishi ta'sirida aholining ijtimoiy tarkibi o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Ayniqsa, aholi ongli(ishchi) qatlamining xususiy mehnat faoliyati va

kooperativ sektorda band aholining tez sur'atlar bilan o'sishi aholi ijtimoiy tarkibiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Xalq ta'limi tizimi va madaniyati. Mamlakat aholisining ijtimoiy tarkibida yuz berayotgan o'zgarish (va o'sish)lar uning madaniy qiyofasida ham kuzatilmoqda. Xalq ta'limini rivojlantirish, maorif, fan, san'at, adabiyotni ravnaq toptirish va ularni umumxalq mulkiga aylantirish uchun yaqin o'tmishda ko'p ishlar qilindi. O'rta va oliy maktabni tubdan isloh qilish, bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi-yangi yo'nalishlar bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash, jahon hamjamiyatiga dadil kirib borayotgan mamlakatimizda dunyoviy bilimlar beradigan o'quv yurtlari ochish ishlari keng ko'lamda amalga oshirilmoqda.

Endilikda O'zbekistonda aholining savodxonligini oshirish, ularga kasbiy yo'nalish berish va madaniy darajasini ko'tarish tizimi ishlab chiqilgan. Xalq ta'limi tizimining dastlabki bo'g'ini maktabgacha tarbiya muassasalari bo'lib, u o'z ichiga yetti yoshgacha bo'lgan bolalar bilan ish olib boradigan yasli, bog'cha, sog'lomlashtirish bog'chalari, uy-bog'cha, mavsumiy bog'chalarni qamrab oladi. Xalq ta'limidagi navbatdagi tizim umumiy ta'limdir. Ayni bir paytda umumiy ta'lim uzluksiz ta'lim tizimidagi asosiy bugin bo'lib, tarbiyalanuvchilarning ma'naviy sifatlarini shakllantirish, ularga boshlang'ich kasb-kor ko'nikmalarini singdirish va turli fan yo'nalishlari bo'yicha chuqur bilim egallashlarini ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga muvofiq umumiy ta'lim uch bosqichdan iborat: boshlang'ich ta'lim (1-4-sinflar); tayanch ta'lim (5-9-sinflar); o'rta ta'lim (10-11-sinflar). Mazkur qonunga ko'ra, majburiy ta'lim muddati 9 yilga keltirilgan va u tayanch ta'lim davrini qamrab oladi. Mamlakat xalq ta'limi tizimida bolalar va o'smirlarning

maktabda olgan bilimlarini mustahkamlash, qobiliyatlarini rivojlantirish va ularda turli xil mehnat ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida maktabdan tashqari ta'lim ham amal qiladi. Mamlakatimizda maktabdan tashqi muassasalarining soni bir mingdan oshadi. Shu jumladan, xalq ta'limi tizimida 230 o'quvchilar saroyi, 140 ga yaqin yosh texniklar, 120 tabiatshunoslar, 40 dan ortiq; sayohatchilar markazlari, 390 dan oshiq bolalar va o'smirlar sport maktablari va boshqa turdagi muassasalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakat ta'lim tizimida hunar-texnika ta'limi, o'rta maxsus ta'lim va oliy ta'limning hissasi juda katta. Respublika hunar-texnika ta'limi tizimida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu tizimda 260 kasb bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda. Ko'pgina hunar-texnika bilim yurtlari bosqichli hunar liseylariga aylantirilgan. Yoshlarga hunar-texnika sirlarini o'rgatish va ta'lim-tarbiya berish bilan 18 mingga yaqin mutaxassis shug'ullanadi. Ular O'zbekistonning o'rta maxsus ta'lim tizimini rivojlantirishga, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun ma'lum iqtisodiy yo'nalishdagi malakali kadrlar tayyorlab berishga xizmat qiladi. Endilikda mamlakatning zamonaviy 5 kollej va bilim yurtlarida 200 ga yaqin ixtisoslik bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda, oliy ta'lim har jihatda rivojlanib va keng qamrovli bo'lib bormoqda.

Hozirgi vaqtda respublikada 62 oliy o'quv yurti, shu jumladan, 15 ta universitet faoliyat ko'rsatmoqda. Bu oliy o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlash dasturi asosida jahon andozalariga javob beradigan ixtisosliklar bo'yicha talabalarga fan-texnika taraqqiyotining so'nggi yutuqlari asosida puxta bilim berilmoqda. «Umid» jamg'armasi orqali rivojlangan mamlakatlarning nufuzli universitetlarida minglab yoshlar tahsil

olib, «Ustoz» jamg'armasi orqali esa yuzlab professor-o'qituvchidar malakalarini oshirib kelishmoqda.

14.6. Mehnat resurslari

Odatda, mehnat resursi mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilardan iboratdir. Mehnat resursining shakllanishiga aholining yoshi va jinsiy tarkibi, tabiiy o'sish darajasi va boshqa ijtimoiy holatlar ta'sir ko'rsatib turadi. Tabiiy o'sish yuqori bo'lgan mamlakatimiz aholisi tarkibida yosh avlod salmog'ining ko'p bo'lishi mehnat resursi zahiralarining istiqbolli ekanligini bildiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mehnat yoshidagi aholining barchasi ham ishlab chiqarishda qatnasholmaydi. Ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish, harbiy xizmatni o'tash, sog'lig'i yo'l bermasligi va boshqa sabablarga ko'ra ham ba'zilar ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashmasligi mumkin. Ko'p bolali onalarning oilada bola tarbiyasi bilan shug'ullanish shug'ullanishi, shuningdek, shaxsiy xo'jalik yumushlari bilan ham mehnat resurslari balanslarini tuzishda inobatga olinmog'i darkor.

Mamlakatimizda aholi sonining o'sishi bilan bir qatorda uni foydali mehnatga jalb qilish imkoniyatlari kengaydi. O'zbekiston aholisi 1970-1998 yillarda 1,9 martaga, mehnat resurslari esa 2,0 martaga ko'paydi. 2002 yilga kelib mehnat resurslarining umumiy miqdori 13181,0 ming kishidan ortdi. Ularning yillik o'rtacha o'sish sur'ati 210-220 ming kishidan iborat. O'zbekistonda mehnat resurslarining kasbiy ma'lumoti ham ancha yuqori, har 1000 kishi hisobiga oliy va to'liqsiz oliy ma'lumotga ega bo'lganlar soni 143 kishini tashkil etadi.

Moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo'lganlarning har to'rttasidan biri oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega.

Mehnat resurslaridan oqilona foydalanish muammosi nihoyatda muhim masala ekanligini hisobga olib, O'zbekiston Oliy Kengashi 1992 yil 13 yanvarda «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida» qonun qabul qildi. Mazkur qonunda fuqarolarning mehnat qilish xuquqini ta'minlashning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlari belgilab berilgan, bozor munosabatlariga o'tish davrida uni amalga oshi-rishning tegishli kafolatlari nazarda tutilgan.

2003 yilda mamlakat iqtisodiyotida band bo'lgan aholining yillik o'rtacha soni 1,4 foizga o'sdi va 9,3 mln. kishini tashkil etdi. Ma'lumki, O'zbekiston qishloq xo'jaligi rivojlangan mamlakat. Darhaqiqat, yaqin o'tmishda respublika ijtimoiy ishlab chiqarishida band bo'lgan aholining katta qismi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bilan shug'ullanib keldi. So'nggi yillarda mamlakatda, ayniqsa, sanoat va qurilishning tez rivojlanishigina faol aholi bandlik darajasiga o'zgarishlar kiritdi. Masalan, 1959 yilda mamlakat qishloq va o'rmon xo'jaligida 58,5 foiz aholi band bo'lgan bo'lsa, u 1998 yilga kelib 39,3 foiz-ga tushdi. Shunga qaramasdan bu tarmoqda ishlovchilarning mutlaq soni hanuz ancha yuqoriligicha qolmoqda.

2002 yilda iqtisodiyotda band bo'lgan aholining ko'pi - 12,7 foizi sanoatda, qurilishda 7,8 foiz, transport va aloqada 4,4 foiz, jami moddiy ishlab chiqarishda foiz band. Bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlardagi katta farq qiladi, ya'ni moddiy ishlab chiqarishda band bo'lgan mehnat resurslarining salmog'i ancha baland. Xalq xo'jaligining zikr qilingan tarmoqlarida mehnat resursining 80,1 foizi band bo'lganligini ham e'tiborga olmoq kerak. Bu farq esa nomoddiy ishlab chiqarish mamlakat iqtisodiyotida tobora chuqur ildiz otib borayotganligini

ko'rsatadi. Respublikada bozor munosabatlariga o'tish davrida aholi bandligi sohasida ham chuqur o'zgarishlar yuz berdi, davlat sektori bilan bir qatorda nodavlat sektori ham vujudga keldi va u juda tez sur'atlar bilan o'smoqda. 2003 yilga kelib bandlik iqtisodiyotning davlat sektorida 23,4 foiz, nodavlat sektorida 74,2 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich Andijon viloyatida 76,6 foiz, Farg'ona viloyatida 79,5 foizgacha yetdi. Respublikada bandlik xizmatini tashkil qilishga, ishsizlikning oldini olishga, mehnatga bo'lgan bozor talabi o'zgarib turishining oldini olishga katta e'tibor berilmoqda. 1991 yildan boshlab mamlakatimiz tuman va shaharlarida 210 dan ziyod mehnat birjalarining keng tarmoqli tizimi tashkil etildi. Mehnat birjalari ishsizlarni ro'yxatga olish, ularni kasbga yo'naltirish, o'qitish va qayta o'qitish, ishsizlik bo'yicha nafaqalar to'lash kabi qator vazifalarni bajarib kelmoqda. Hukumat tomonidan ko'rilgan tadbirlar natijasida va turli manbalar hisobidan nodavlat sektorida har yili 200 mingga yaqin ish o'rinlari tashkil qilinmoqda. 2003 yilda mehnat birjalarida 4,5 ming kishi ishsizlik bo'yicha ro'yxatga olingan. Bu iqtisodiy faol aholining 0,5 foizini tashkil etadi.

Aholining tez sur'atlar bilan ko'payishi va tarkibi bandlikning barqaror ravishda o'sishini ta'minlashni taqozo etadi. Qishloq joylarda aholining zich joylashganligi, qishloq xo'jaligida ortiqcha ishchi kuchi mavjudligi hamda haydaladigan yerga to'g'ri keluvchilar sonining kattaligi O'zbekistonda yaqin 5-10 yilda mehnat resurslariga muhtojlikni keltirib chiqarmaydi. Fikrimizcha, mamlakatda, iqtisodiy, demografik va geografik hususiyatlarni hisobga olgan holda aholi bandligi tizimini takomillashtirish lozim. Ushbu vazifani amalga oshirish mehnat bozori munosabatlarini tartibga solish, aholini qayta o'qitish va kasbga tayyorlash xizmati bilan

bog'liq. Ishdan bo'shagan va ish bilan band bo'lmagan aholini kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish ularni ijtimoiy himoya qilishning asosiy choralaridan biri. Xodimlarni qayta taryorlash va ularning malakasini oshirish tizimi turli kurs, fakultet va institutlarni o'z ichiga oladi. Mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishda korxonalarda smenali ishlarni ko'paytirish muhim ahamiyatga ega. Bozor iqtisodiyoti islohotlar strategiyasini ruyobga chiqarishda, aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Qisqacha xulosalar

O'zbekiston aholisi asosan tabiiy o'sish hisobiga ko'paymoqda. Ayrim davlatlarda aholi soni migrasiya hisobiga ko'paygan(ikkinchi jahon urushi davrida va undan so'ng). Aholining zichligi Farg'ona vodiysida yuqori. Aholining asosiy qismini o'zbeklar tashkil qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O'zbekiston aholisi yiliga qanchaga ko'paymoqda?
2. Qaysi viloyatlarda aholining zichligi yuqori?
3. O'zbekistonda o'zbeklardan tashqari yana qaysi millat vakillari yashaydi?
4. Urbanizasiya jarayoni qanday kechmoqda?
5. Mehnat resurslari to'g'risida gapiring.
6. Aholi bandlik muammolarini yechish uchun qanday chora tadbirlar ko'rilmoqda?

XV mavzu. O'ZBEKISTON IQTISODIYOT TARMOQLARI GEOGRAFIYASI

15.1. Umumiy ta'rif

Tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida O'zbekiston xalq xo'jaligi, uning iqtisodiy rivojlanish darajasi murakkab yo'lni bosib o'tgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, O'zbekiston o'tmishda yer kurrasidagi aholi xo'jalik faoliyati g'oyat qizg'in kechgan eng qadimiy o'lkalardan biri bo'lgan. Mamlakatimizning G'arb bilan Sharq o'rtasidagi "Iqtisodiy taraqqiyot uchun qulay bo'lgan geografik o'rni, sahiy tabiati, boy va rang-barang tabiat resurslari, mehnatkash va dono xalqi umumbashariy taraqqiyotga asrlar osha o'z ulushini ko'shishga ob'yektiv sharoit yaratgan.

Shubhasiz, mamlakatimiz xalq xo'jaligi XX asrda rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Biroq, mamlakat xalq xo'jaligi va uning tarmoqlar taraqqiyoti yo'nalishlarini belgilash o'zgalar qo'lida edi. Negaki, mamlakatimizning 1860 yillarning o'rtalarida birinchi marta va 1917-1920 yillarda esa ikkinchi marta bosib olinishi va yurtimizda o'ziga xos mustamlakachilikning qaror topishi xalq xo'jaligini o'zgalar ehtiyojiga muvofiqlashtirib, rivojlantirishga olib keldi.

Mustamlakachilik yillarida O'zbekistonning xalq xo'jaligi bir tomonlama rivojlantirildi. Ya'ni qishloq xo'jaligida paxta yetishtirishga, sanoatda esa paxta yalpi hosilini birlamchi qayta ishlash (ya'ni Rossiya to'qimachilik sanoati uchun xom ashyo - paxta tolasi ishlab chiqarish)ga asosiy e'tibor qaratildi,

Respublika sanoatining qolgan muhim tarmoqlari ham paxta majmuini rivojlantirishga muvofiq ravishda taraqqiylashdi. 1913 yilda mamlakatimiz hududida 425 ta sanoat korxonasi mavjud edi. Ularning 208 tasi paxta tozalash, 80 tasi oziq-ovqat, 14 tasi metallsozlik sanoat korxonalari edi, qolganlari esa objuvoz (guruch ishlab chiqaradigan), xumdon yasash va boshqa korxonalar edi.

Tiklash davri (1920 yillarning ikkinchi yarmi)da O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishi tarkibida sezilarli siljishlar yuz berdi. Og'ir sanoat tarmoqlari (va birinchi navbatda paxtachilik majmuiga xizmat qiladigan sanoat), shuningdek oziq-ovqat sanoati tez rivojlandi. Sanoat ishlab chiqarishining sosial tuzilishi ham o'zgardi, 1928 yilda xususiy sektor xissasiga yirik sanoat mahsulotining 0,4 foizi to'g'ri keldi, holos.

Ikkinchi jahon urushidan oldingi besh yillikdarda (1929-1940) O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi birmuncha rivojlandi. Mamlakatni industrlashtirish, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish hamda madaniy inqilobni amalga oshirish natijasida jamiyatning iqtisodiyoti ancha rivojlandi. Urush yillarida O'zbekistondagi birlamchi ishlab chiqaruvchi kuch hisoblangan mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan barcha erkaklar frontga safarbar qilindi. Og'ir sanoatning ko'pgina tarmoqlari esa qurol-yaroqlar, o'qdorilar ishlab chiqarishga moslashtirildi. Aholining front orqasidagi ishlab chiqarish jarayoni ham jangchilarga madad berishga va front zonasidan hududimizga ko'chirilgan aholini boqishga qaratildi.

Urush yillarida respublikamizda iqtisodiyot harbiy izga ko'chirilgan, barcha moddiy texnika resurslari urush ehtiyojlarini qondirishga safarbar qilingan edi. Ayni bir paytda front yaqinidagi tumanlar Respublikamiz shaharlariga ko'chirib keltirilgan sanoat korxonalari ishga tushirildi. Urushdan keyingi


yillarda sanoat tarmoqlarini qayta qurish, sug'oriladigan ekin maydonlarini kengaytirish, qishloq xo'jaligini mexanizasiyalashga katta e'tibor berila boshlandi. 80-yillarning o'rtalaridan O'zbekiston iqtisodiyotining yangi taraqqiyot davri boshlandi. Ammo, O'zbekiston xo'jaligi birmuncha yutuqlarga erishgan bo'lsada, u sobiq Ittifoqning asosan xomashyo qazib beruvchi o'lkasi bo'lib qolaverdi.

O'zbekiston 1991 yil 31 avgustda o'z mustaqilligini e'lon qildi va o'zining chinakam yangi taraqqiyot davrini boshladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlari mustaqillik yillarida yangicha yo'nalish oldi va rivojlanishning sifat jihatdan yangi bosqichiga qadam ko'ydi. Bozor iktisodiyotining birinchi bosqichidayoq (1991-1995) iqtisodiy islohotlarga oid qonunlar qabul qilindi, uning huquqiy negizi yaratildi. Islohotlar hayotning barcha jabhalarini qamrab oldi. 1995 yildan boshlab O'zbekiston jamiyatni isloh qilishning ikkinchi bosqichiga qadam qo'ydi. Ushbu bosqich bozor munosabatlariga o'tish tizimlarini shakllantirishni yakunlash, mamlakat xalq xo'jaligini har tomonlama rivojlantirish, milliy valyutani barqarorlashtirish va uning ichki konvertasiyasini ta'minlash bilan bog'liq. Bu bosqichda davlat mulkini xususiylashtirishni yakunlash hamda iqtisodiyotni xom ashyo yetishtirib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yunaltirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, iqtisodiy islohotlarning yuqorida zikr qilingan ikkinchi bosqichida iqtisodiyotni barqarorlashtirish va xalq xo'jaligi o'zak tarmoqlari o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarishda aholi keng iste'mol mollariga ko'ra ularning ehtiyojini nazarda tutib, o'zgarishlar qilish va boshqa hayotiy masalalar hal qilinmoqda.

Mustaqillik tufayli mamlakat iqtisodiyot tarmoqlarida qator tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, mamlakat xalk xo'jaligining yetakchi sohasi - sanoatda importning o'rnini bosa

oladigan tovarlar ishlab chiqarish mulkni davlat tasarrufidan chiqarish orqali turli xil mulkchilik formalarini shakllantirish neft ishlab chiqarish ko'lamini keskin ko'paytirish hamda g'alla yetishtirish geografiyasini kengaytirish orqali iqtisodiyot tarmoqlari va aholining ushbu hayotiy muhim mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, eksportbop tovarlar ishlab chiqarish miqdorini ko'paytirish orqali davlat importi hajmini tushirib borishga erishishga qaratilgan yo'nalishlarga iqtisodiy siyosatda ustuvorlik beriladi.



Xorijiy va MDH mamlakatlarining tashqi savdodagi salmog'i (yakunga nisbatan foiz hisobida)

Endilikda mamlakat iqtisodiy salohiyatida turli xil mulkchilik formalari shakllanmoqda. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tarzida faoliyat ko'rsatayotgan ushbu korxonalarning soni yil sayin ortib bormoqda.

2001 yilda respublika hududida 99,8 ming o'rta va kichik biznes korxonalari mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi Toshkent shahri (15,3 foiz), Samarkand (10,2 foiz), Toshkent viloyati (8,5 foiz), Farg'ona (8,5 foiz) va Andijon (8,2 foiz) viloyatlarida joylashgan.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakllari tarkibida davlat korxonalari 11,2 foiz, jamoa korxonalari 40,3 foiz, xususiy korxonalar 45,1, qo'shma va chet el korxonalari 1,9 foizni egallaydi.

Davlat tasarrufidan chiqarilgan va xususiylashtirilgan korxonalarning ko'pchiligi qurilish (35,7 foiz), sog'liqni saqlash (14,9 foiz), sanoat (10,4 foiz) hamda qishloq xo'jaligi (8,9 foiz), savdo (8,4 foiz) sohalariga to'g'ri keladi.

O'zbekiston iqtisodiyoti tubdan isloh qilinishi bilan uning yetakchi tarmoqlarida, bir tomondan, yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmida keskin o'zgarishlar kuzatilmoqda, ikkinchi tomondan esa, yil sayin davlat sektorining xissasi nodavlat sektoriga nisbatan tushib borishi kuzatilmoqda. 1998 yilga kelib respublikada iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha davlat va nodavlat sektori nisbati quyidagicha ko'rinishga (foiz hisobida) ega bo'ldi:

35-jadval

2002 yilda O'zbekistonda davlat va nodavlat sektorlarining

nisbati

	Davlat mulki	Nodavlat mulki
Yalpi ichki mahsulot	26,7	73,3
Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish	28,6	71,4
Yalpi qishloq xo`jalik mahsuloti	0,9	99,1
Asosiy kapitalga investitsiyalar	40,9	59,1
Chakana tovar aylanmasi	2,4	97,6
Pullik xizmatlar	23,4	76,6
Iqtisodiyotda band bo`lganlar soni	25,8	74,2

Shuni eslatib o'tish joizki, mustaqillikning dastlabki yillarida boshqa MDH davlatlaridagi kabi bizning respublikamiz ham anchagina iqtisodiy qiyinchiliklarni boshidan kechirgan edi. Ular bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan xo'jalikda tarkibiy qayta qurish, eski respublikalar bilan iqtisodiy kooperasiya va ixtisoslashuv aloqalarning uzilishi, hamda boshqa ob'yektiv va sub'yektiv sabablar tufayli sodir bo'lgan edi. Sobiq Ittifoq davlatlari orasida O'zbekiston o'tish davridayoq iqtisodiy barqarorliknigina emas, hatto uning o'sishini ta'minlagan yagona mamlakat bo'lib kelmoqda.

1997-1998 yillarda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning hajmi 4,4 foizga o'sgan bo'lsa, Rossiyada 4,6, Qozog'istonda 1,7 foizga qisqargan. Mamlakatimizda YAIMning o'sishi deyarli barcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari hisobiga yuz berdi (36-jadval).

36-jadval

2001 va 2002 yilda yalpi ichki mahsulot tarkibi o'zgarishi

	2001 yil	2002 yil
Iqtisodiyot bo`yicha, jami shu jumladan:	100	100
Tarmoqlar yalpi qo`shimcha qiymati	88,1	88,3
Ulardan		
Sanoat	14,1	14,1

qishloq xo`jaligi	30,0	30,6
Transport va aloqa	7,5	8,2
Qurilish	5,8	4,9
Savdo va umumovqatlanish	10,4	9,8
Boshqa sohalar (xizmat ko`rsatish sohasini qo`shgan holda)	20,3	20,7
Mahsulot va eksport-import muomalalariga sof soliqlar	11,9	11,7

Bozor iqtisodiga qadamba-qadam o'tish natijasida YAIMda nodavlat sektorining ulushi barqaror (1997-2001 yillarda 63,5 foizdan 64,5 foizga) o'sib bormoqda.

15.2. Sanoat va uning yetakchi tarmoqlari

O'zbekiston iqtisodiyotida sanoat ishlab chiqarishi yetakchilik qiladi. U mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutib, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun moddiy-texnika vositalarini to'xtovsiz takror ishlab chiqarish manbai sifatida faoliyat ko'rsatadi, iqtisodiy rayonlarning, viloyatlarning, ijtimoiy ishlab chiqarish texnikaviy darajasini belgilab beradi hamda moddiy va mehnat resurslaridan foydalanishning holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakat asosiy fondlarning 40 foizi sanoatga to'g'ri keladi, yalpi ichki mahsulotning 15 foizi sanoatda yaratiladi. Iqtisodiyotda band bo'lgan mehnat resurslarining salkam 13 foizi (yoki 1,1 mln.dan ortiq kishi) sanoat tarmoqlarida ishlaydi. Eslatib o'tish joizki, bu sohada yuqori malakali muhandis-texnik xodimlar, malakali ishchilar ishlaydi. Mustaqillik yillarida respublikada sanoatni ustivor rivojlantirishga katta ahamiyat berildi. Ichki va xorijiy investisiyalardan samarali foydalanish, yangi korxonalar qurish, eskilarini qayta jihozlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, korxonalar mulk shakllarini o'zgartirish, resurslardan oqilona foydalanish va h.k.


sanoatning barqaror rivojlanishini ta'minlamoqda. Respublikamizda 2001 yilda 1991 yilga nisbatan sanoat yalpi mahsuloti hajmi 114 foiz, Qirg'izistonda - 68 foiz, Tojikistonda - 38 foizni tashkil etdi.

O'zbekistonda ayniqsa, gaz, neft, kimyo, mashtnasozlik, rangli metallurgiya, yoqilg'i sanoati tarmoqlari jadal sur'atlar bilan o'sdi. Sanoat taraqqiyotini jadallashtirish - valyuta-moliyaviy, xalq xo'jaligining tashqi bozorga qaramligini zaiflashtiradi. Sanoatning iste'mol buyumlari bilan o'zini-o'zi ta'minlashi esa xalq turmushi darajasini ko'tarishni kafolatlaydi.


Islohotlarni chuqurlashtirish, xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish dasturiga muvofiq 1912 ob'yektlar mulkchilikning yangi shakllariga aylantirildi, juda ko'p qo'shma korxonalar qurildi.

2000-2002 yillar o'rtasida sanoat tarmoqlarida hisobga olingan kichik va mikrofirmalar soni 194,4 mingdan 231,9 mingga yetdi.

2001y.



2002 y.



elektr energiya
qora metallurgiya sanoati
yoqilg`i sanoati
rangli metallurgiya sanoati
kimyo va neft-kimyo sanoati
mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati
yog`ochni qayta ishlash sanoati
kurilish materiallari sanoati
engil sanoat
oziq-ovqat sanoati

2002 yilga kelib mamlakat sanoat ishlab chiqarishida faoliyat ko'rsatayottan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tarkibi umumiy foizga nisbatan quyidagicha o'zgardi:

36-jadval

Mamlakat sanoatidagi korxonalar nisbati

	Davlat	Nodavlat
Mahsulot va xizmatlar hajmi	28,6	71,4
Sanoat ishlab chiqarish	20,5	79,5

Mustaqillik yillarida sanoatning yangi, yuqori texnologiyaga ega bo'lgan tarmoqlari (avtomobilsozlik, radiotexnika, murakkab, malakali kadrtalab, mashinasozlik va h.k.) vujudga keldi. Hozirgi vaqtda respublika sanoat tarkibida 100 dan ortiq tarmoq; va tarmoqchalar mavjud bo'lib, ular bir necha majmualarni tashkil etadi (7-jadval).

37-jadval.

O'zbekiston viloyatlarida sanoat mahsuloti tarkibida tarmoqlar guruhining nisbati(2002 yil % bilan)

Viloyatlar	Xom ashyo tarmoq-lari	Qayta ishlash tarmoq-lari	Og'ir sanoat	Yengil sanoat	Oziq-ovqat sanoati
Qoraqolpo-g`iston Respublikasi	21,7	73,8	27,4	33,0	35,1
Andijon	13,8	82,2	15,4	52,5	28,1
Buxoro	20,2	74,0	11,8	58,1	24,2
Jizzax	42,7	52,1	18,8	35,4	40,8
Qashqadaryo	70,0	28,2	57,4	18,7	22,0
Navoiy	75,6	20,3	92,6	1,8	1,5
Namangan	20,2	77,7	17,6	47,4	32,8
Samarqand	13,2	84,2	22,4	15,1	60,1
Surxondaryo	39,3	58,9	12,9	35,4	49,9
Sirdaryo	14,2	84,5	68,4	13,6	16,8
Toshkent	39,0	50,2	77,4	3,8	15,8
Farg`ona	55,4	42,5	63,7	17,9	16,3
Xorazm	20,5	78,2	42,8	27,2	28,7
Toshkent sh.	4,7	81,2	48,4	18,2	22,5

Eslatma: *Xom ashyo tarmoqlariga yoqilg'i, paxta tozalash, qurilish materiallari, metallurgiya, qayta ishlovchi tarmoqlarga elektroenergetika, mashinasozlik, ximiya, yengil va oziq-ovqatrof-muhit, og'ir sanoatta elektroenergetika, mashinasozlik, metallurgiya, qurilish materiallari, yoqilg'i sanoat tarmoqlari kiritilgan.*

Bundan tashqari sanoat mahsulotlarining xususiyati ularning iste'mol qilinishi boshqa xususiyatlariga qarab, og'ir, yengil, oziq-ovqat xom ashyo, qayta ishlovchi tarmoqlarga bo'linadi. Mamlakatimiz viloyatlari sanoat mahsuloti tarkibida ushbu guruhlarning nisbati juda katta farq qiladi (7-jadval). Navoiy, Kashkadaryo, Farg'ona viloyatlarida xom ashyo tarmoqlari, Samarkand, Sirdaryo, Andijon, Namangan, Xorazm, Buxoro viloyatlarida qayta ishlovchi tarmoqlar rivojlangan. Navoiy, Toshkent, Farg'ona, Qashkadaryo viloyatlarida og'ir sanoat tarmoqlari, Buxoro, Andijon, Namangan viloyatlarida yengil sanoat tarmoqlari, Samarkand, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida oziq-ovqat sanoat tarmoqlari ulushining kattaligi bilan ajralib turadi. Ayrim viloyatlarda sanoat tarmoqlarining ulushi har xil. Masalan, qayta ishlovchi sanoat Navoiyda (20,3 foizini), og'ir sanoat Buxoro, Andijon, Surxondaryoda (11,8-15,4 foizni), yengil sanoat Navoiyda (1,8 foizni) tashkil etadi.

Umuman, respublika sanoat tarmoqlarining hozirgi tarkibida eng katta ulushni yoqilg'i sanoati (24,1 foiz) egallaydi (8-jadval). Undan keyin yengil sanoat 19,8 foizni, oziq-ovqat - 14,2 foizni, metallurgiya - 10,3 foizni egallaydi.

38-jadval.

Respublika sanoat tarmoqlarida asosiy mahsulot ishlab chiqarish nisbatining o'zgarishi (foiz hisobida)

Tarmoqlar	1994	1995	2001	2002

Butun sanoat	100,0	100,0	100,0	100,0
Yoqilg`i-energetika majmui	18,3	18,3	21,3	21,4
Metallurgiya	14,1	13,9	12,3	15,1
Kimyo va neft sanoati	4,6	5,2	6,0	5,7
Mashinasozlik va metalni qayta ishlash	7,3	8,8	11,2	9,9
Yog`ochsozlik	0,9	1,0	1,3	1,2
Qurilish materiallari sanoati	5,0	4,5	5,2	4,8
Engil sanoat	19,0	18,6	20,0	19,8
Oziq-ovqat sanoati	9,7	9,8	12,6	14,2
Boshqa sanoat tarmoqlari	11,2	10,9	10,1	7,9

O'zbekiston O'rta Osiyoda samolyotlar, avtomobillar motori, paxta terish, tozalash, ip yigiruv, to'quv mashinalari, traktorlar, ekskovatorlar, yuk ko'taruvchi kranlar, liftlar, qorametall, prokat kabi mahsulotlar va boshqa ko'pgina tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yagona mamlakatdir.

Endi mamlakat sanoatini uning majmui va ayrim tarmoqlari tasnifi tarmoqlari orqali talqin qilamiz.

15.3. Yoqilg'i-energetika majmui

Mamlakat yoqilg'i-energetika sanoatining tarkibga gaz, neft, ko'mir sanoatlari va energetika kiradi. Bu sanoat majmuining mamlakat sanoat ishlab chiqarishdagi hissasi salkam 35,0 foizga teng. O'zbekistonning g'arbiy va janubiy hududlarida topilgan neft, gaz va ko'mir konlarining katta zahiralariga tayani yildan-yilga mazkur sanoat tarmoqlari tez rivojlantirilmoqda. Endilikda O'zbekiston jahondagi o'n yirik gaz ishlab chiqaruvchi mamlakatlar jumlasi kiradi. Qidirib topilgan gaz zahiralari 2 trillion kubometrga yaqin, ko'mir zahiralari esa 2 milliard tonnadan ortiq. Respublikamiz neft zahiralari ham boy.

YOqilg'i qazib chiqarish sur'atlari MOD mamlaklari ichida eng yuqori. Masalan, 1991-1996 yillarda neft qazib chiqarish Rossiyada 61,5, Ozorbayjovd 77,8, Qozog'istonda 83,2,

O'zbekistonda esa 271 foiz o'sdi. Shuningdek, gaz qazib chiqarishda respublikamiz (117 foiz), Rossiya (93,5 foiz), Qozokiston (81 foiz), Ozorbayjon (73,2 foiz) va Turkmaniston (41,7) ga nisbatan ancha yuqori.

Neft, gaz va elektr energiya o'z extiyojlarimiz to'la ta'minlabgina qolmay, shu bilan birga ko'p miqdorda eksport qilish imkonini ham bermoqda. Hozir bu majmua kapital mablag' sarflash hamda chet el investisiyalarini jalb etishning eng foydali sohalaridan biri bo'lib qoldi. 1998 yilda yoqilg'i energetika majmuida respublika bo'yicha investisiya umum hajmidan 13 foizi o'zlashtirildi.

Mazkur sanoat majmui ikki guruhga: yoqilg'i sanoati va elektr energetika sanoatiga bo'linadi.

YOQILG'I SANOATI

Yoqilg'i sanoati O'zbekiston og'ir sanoatining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u tabiiy gaz, neft, ko'mir qazib chiqarishni va ularni qayta ishlashni hamda tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetkazib berishni o'z ichiga oladi. Bu sanoat yer qa'rida topilgan va qazib olinayotgan ko'mir, neft, tabiiy gaz konlari negizida shakllangan va rivojlanib bormoqda. Respublikada zahirasi sanoatda ishlatilishi mumkin bo'lgan darajada hisoblangan 160 dan ortiq neft va gaz konlari ochilgan. Ulardan 115 tasi Buxoro-Xiva havzasida, 27 tasi Farg'ona vodiysi, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi Ustyurtda joylashgan. Mazkur konlarning gaz, gaz-kondensati, gaz-neft, neft, gaz-neft kondensatli va neft-gaz kondensatli turlari mavjud.

O'zbekiston yoqilg'i-energetika sanoatining yirik-yirik konlari va ularning zahiralari chet ellik mutaxassislar bilan

hamkorlikda o'rganilmoqda, iqtisodiy jihatdan baholanmoqda, qazib olinmoqda, qayta ishlanmoqda. Mutaxassislar baholashicha, O'zbekistonning yer ostida juda katta neft va gaz qatlamlari bor. Respublika hududining kariyb 60 foizida ularni istiqbolda qazib olish mumkin. Neft va gaz mavjud bo'lgan beshta asosiy mintaqani ajratib ko'rsatish mumkin. Bular: Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubi-G'arbiy Xisor, Surxondaryo, Farg'ona mintaqalaridir. Neft va gaz resurslarining zahiralari bir trillion AQSH dollaridan ziyod baholanmoqda[3].

Rivojlanishning hozirgi bosqichida mamlakat huhudidan topilgan 70 dan ortiq neft, gaz va gazkondensati konlaridan hamda mavjud uchta ko'mir konidan foydalanilmoqda. 49 ta neft, gaz va gazkondensat koni esa foydalanishga tayyorlab qo'yilgan.

Mamlakat yoqilg'i sanoati respublika yoqilg'i-energetika majmuining belgilovchi tarmog'idir. U barcha turdagi yoqilg'i xom ashyosini qazib olish, tabiiy gazni tozalash va yetkazib berish, neft mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalaridan iborat. Uning xom ashyoni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan yirik korxonalari Buxoroda (Qorovulbozor), Qashqadaryo (Sho'rtan, Muborak), Toshkentda (Angren), Surxondaryoda (Sharg'un,To'da), Farg'onada joylashgan. YOqilg'i sanoati tez o'sib bormoqda. Masalan, 1980 yilda mazkur sanoat tarmog'ida respublika sanoat yalpi mahsulotining 8,8 foizi ishlab chiqarilgan bo'lsa endilikda bu ko'rsatkich salkam ikki marta o'sdi. Respublika sanoatida band bo'lgan sanoat xizmatchilarining 6 foizi yoqilg'i sanoati tarmoqlarida ishlashadi.

Neft sanoati. Neft mamlakat iqtisodiyotidagi muhim ahamiyat kasb qiladi. Undan xalq xo'jaligining turli tarmoqlari uchun bir necha o'nlab muhim mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Neftdan qayta ishlash orqali olinadigan yoqilg'i mahsulotlari, kimyo va yog'lovchi mahsulotlari sanoatning turli tarmoqlarida ishlatiladi. Mamlakatimizda birinchi neft koni 1904 yilda Farg'ona vodiysi(Chimyon)da ochilgan edi. Ushbu neft zahirasiga tayanib, Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi qurilgan. O'zbekistonda neftni qayta ishlash sanoatining barpo qilinishiga asos yaratdi. Ikkinchi jahon urushi davrida va undan keyingi yillarda Farg'ona vodiysi (Janubiy Olamushuk, Polvontosh Andijon)da va Janubiy O'zbekistonda (Xaudak, Lalmikor) yangi neft konlari ishga tushirildi va Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi qurildi. Biroq har ikkala zavodning ishlab chiqarish quvvati kam bo'lib, neft mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj chetdan keltirish hisobiga qondirilar edi. Mustaqillik tufayli neft sanoatida keskin burilish yuz berdi. Buxoro va Kashkadaryo viloyatlarida ko'plab yirik (jumladan, Ko'kdumaloq) konlarning ishga tushirilishi natijasida neft qazib olish keskii o'sdi. 1960 yilda 1,6 mln. tonna neft (gaz kondensa-ti bilan birga), 1980 yilda 1,3, 1990 yilda 2,8, 1997 yilda 7,9 va 2002 yilda 7,2 mln. tonna neft qazib olindi yoki 5 martaga ortdi. Natijada, yangi Buxoro neftni qayta ishlash zavodi qurilishi boshlandi. Zavodni loyixalashtirish va barpo qilishda 1993 yildan boshlab Fransiyaning «Tekep» firmasi, Yaponiyaning «Marubeni» va «Jey-Ji-Si», Turkiyaning «Gama» kompaniyalari sarmoya va mutaxassislari bilan qatnashdi. Zavodning birinchi navbati 1997 yilning 22 avgustda ishga tushdi. Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi ham chet el firmalari ishtirokida batamom yangi jihoz va texnologiya bilan qayta ta'mirlandi. Endilikda mamlakatimizda neftni qayta ishlash sanoati korxonalarida jahon andozalariga mos keladigan 50 dan ortiq xilma-xil mahsulot ishlab chiqarilmoqda: yuksak oktanli benzin (shu jumladan, B-92

aviabenzin), aviakerosin, suyultirilgan gaz, dizel yoqilg'isi, koks, parafin, motor moylariga qo'shilmalar, yengil avtomobillar uchun motor va surkov moylari, kerosin, bitum, mazut va h.k. Bu mahsulotlar mamlakat ichki extiyojini qondiribgina qolmay, ularning ayrimlari xorijiy davlatlarga ham eksport qilinmoqda.

Respublikamizda neftning asosiy qismi (92 foizi) Kashkadaryo viloyatida qazib chiqariladi. U biroz miqdorda Andijon, Surxondaryo, Navoiy, Farg'ona viloyatlarida ham qazib chiqariladi.

Gaz sanoati. U mamlakat yoqilg'i-energetika sanoatining eng rivojlangan va iqtisodiyotda salmoqli tarmoqdir. Uni qazib olish va ishlatish miqdori katta tezlik bilan o'sib bormoqda. Masalan, 1990 yilda mamlakatda 40,7 mlrd. m3, 1995 yilda 48,6 mlrd. m3, gaz qazib olingan bo'lsa, 2002 yilga kelib uning hajmi 58,4 mlrd. m3, dan oshib ketdi. Endilikda O'zbekiston gaz zahiralari va qazib chiqarishda dunyoning birinchi 10 mamlakati safiga kiradi. MDH mamlakatlarida esa Rossiya va Qozog'istondan keyin 3 o'rinda turadi. Gazning Respublika yoqilg'i balansidagi hissasi 2/3 ga teng.

Mamlakatimizda neft bilan yo'ldosh tarzda uchraydigan tabiiy gazni qazib olish urushdan oldin boshlangan. Neft gazidan sanoat maqsadlarida foydalanish uchun birinchi gazoprovod (15 km.) «Andijonsanoat - Andijon shahri o'rtasida 1944 yilda qurilgan. Biroq, tabiiy gazdan sanoat maqsadlarida foydalanish 1950-1960 yillarda boshlangan. Yilma-yil mamlakat gaz sanoatining geografiyasi kengayib bordi. Dastlab Farg'ona vodiysida, 1960 yillarda Buxoro va Navoiy viloyatlarida, 1970 yillardan boshlab Qashqadaryo viloyatida gazning g'oyat katta zahiralari topildi.

Surxondaryo va Qoraqalpog'istonning hududlaridan ham ko'pgina gaz konlari topilgan va oldin-keyin ishga tushirilgan.

Ayniqsa, respublika gaz sanoatining rivojlananishi binobarin, O'zbekistonning gaz qazib olishdagi shuhratining oshishida Jarqoq va Gazli konlarining ochilishi va ishga tushirilishi katga rol o'ynadi. 955 yilda Jarqoq, 1956 yilda Gazli neft konlarining ochilishi natijasida mamlakat gaz sanoatining moddiy bazasi yaratildi. 1958-1960 yillarda Jarqoq - Buxoro - Samarkand - Toshkent gaz quvuri qurildi. Ushbu gaz magistralining qurilishi bilan respublikamizning mazkur zonadagi sanoat markazlari, shaharlar va ko'pgina qishloqlarni gazlashirish boshlandi. 1962 yilda katta zahiraga ega bo'lgan Gazli koni ishga tushirildi. Natijada, zudlik bilan gaz quvurlari qurildi va O'zbekiston gazi birinchi navbatda katta hajmda o'zga regionlarga jo'natiladigan bo'ldi. O'zbekiston gazi sobiq Ittifoqning Yevropa qismiga, Uralga, Qozog'istonga, Qirg'iziston va Tojikistonga, shuningdek, Boltiqbo'yi respublikalariga beminnat jo'natib turildi. Shu maqsadda mamlakatimizning Buxoro va Navoiy viloyatlari hududidan uchta gigant gaz quvuri g'oyat tezlik bilan qurilgan edi. Juda qisqa muddatda «Gazli-Sverdlovskiy» (ya'ni Buxoro-Ural) gaz quvuri qurildi va metallurgiya sanoatining markazi bo'lgan Uralning yirik shaharlari (va yirik sanoat korxonalari) o'zbek gazi bilan ta'minlandi. Ushbu quvur orqali metallurgik Uralga har yili 21 milliard kubometr gaz jo'natib turildi. Ikkinchi eng uzun va eng yirik gaz quvuri «O'rta Osiyo - Markaz» deb yuritilardi. Bu gaz quvuri orqali O'rta Osiyo (ya'ni O'zbekiston, Turkmaniston va Qozog'iston)dan Markazga yiliga 30 milliard kubometr gaz jo'natilar edi. Uchinchi yirik quvur «Buxoro - Toshkent - Bishkek - Olmaota» edi. Bu quvur orqali o'zbek gazi Qozog'iston va Qirg'izistonning poytaxtlariga kirib borgan edi.

Mamlakatda gaz sanoati uni qazib olish hajmining o'sishi bilan rivojlanib ketdi. 1960-1970 yillarda O'zbekiston gaz sanoatida keskin o'zgarish yuz berdi. Shu yillar ichida mamlakatda gaz qazib olish 71,79 marta o'sdi (ya'ni 447 mln. kubometrdan 32 mlrd. kubometrga yetdi). Mamlakat gaz sanoati faqatgina yangi gaz konlarini topish va ishga tushirish evaziga rivojlanib bordi. 1971 yilda Ustyurtda Shaxpaxti gaz koni ishga tushirildi. 1970 yildan boshlab respublikadagi (Andijon, Farg'ona, Angren IES dan tashqari) barcha yirik issiqlik elektr stansiyalari gaz yoqilg'isiga o'tkazildi.

1972 yilda Qashkadaryo viloyatida joylashgan Muborak gazni qayta ishlash zavodining birinchi navbati ishga tushirilib, gazni magistral gaz quvurlariga uzatishdan oldin aralashmalardan tozalash imkoniyatlari yaratildi. Mazkur zavod kengaytirilib, ishlab chiqarish (gazni qayta ishlash) quvvati ortib bordi. 1994 yilda uning to'rtinchi navbati ishga tushirildi. Endilikda respublika gaz qazib chiqarish sanoatini hamda tabiiy gazni va gaz kondensatini qayta ishlash bilan bog'liq ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga katga ahamiyat berilmoqda.

Eng yirik gaz va neft konlari Janubiy-g'arbiy Hisor va Buxoro-Xiva, Ustyurt, Surxondaryo va Farg'ona mintaqalarida joylashgan. Eng yirik gaz, neft gaz kondensat konlaridan Gazli, Muborak, Sho'rtan, Ko'kdumaloq, Qorovulbozor, Mingbuloq hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda Qashkadaryo viloyatining janubi-g'arbiy qismida joylashgan va zahirasining kattaligi jihatidan mamlakatimizda tengi yo'q Sho'rtanda gaz majmui qurilgan hamda oltingugurti kamroq bo'lgan tabiiy gazni energetika extiyojlari uchun regionlarga uzatish maqsadida Sho'rtan - Sirdaryo - Toshkent gaz quvuri ishga tushirilgan. Huningdek, Gazli - Chimkent gaz quvuri qurilib, foydalanishga topshirildi.

Sho'rtan gaz majmuida jahonda birinchi bo'lib molekulyar elak (galvir)lar qo'llanilmoqda.

Mamlakatning ko'pgina gaz konlari (98%) oltingugurtli gazdir. Shuning uchun ham gaz kondensatini qayta ishlash bo'yicha ishlab turgan va loyixalashtirilayotgan ob'yektlarning hammasida oltingugurtli birikmalardan foydalanish nazarda tutilgan. Endilikda mamlakat yoqilg'i-energetika sanoatining gigantlariga aylangan Farg'ona neftni qayta ishlash, Muborak gazni qayta ishlash zavodlari hamda Sho'rtan gaz majmuida yiliga 100 ming tonnaga yaqin suyultirilgan gaz ishlab chiqarilmoqda. 1998 yilda respublika gaz sanoatida 54,8 mlrd. kubometr tabiiy gaz, 8,1 mln. tonna neft va gaz kondensati olishga erishildi hamda 321 ming t. oltingugurt ishlab chiqarildi.

Shaharlar va qishloqlarni gazlashtirish ishlari jadal olib borilmoqda. Respublikamizdagi jami xonadonlarning 70 foizdan ortig'i gazlashtirilgan. Gaz sanoatini rivojlantirishda chet el investisiyalari jalb etilmoqda. Birgina Xo'jaobod yer osti gaz omborini qurishga 70 mln. AQSH dollari sarflandi.

Shunday qilib, mamlakatning neft va gaz mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini o'z resurslari hisobiga qondirish dolzarb masalaga aylangan va u yangi-yangi konlarni topish va ishga tushirish natijasida o'zining ijobiy yechimini topmoqda. Respublika hududida yirik holda ish olib borgan ilmiy va ishlab chiqarish tarmoqlari birlashtirilib O'zbekiston neft gaz sanoati milliy korporasiyasi («O'zbekneftgaz») tuzilgan. Respublikamizning bir qator viloyatlarida gaz konlari bo'lishiga qaramasdan hozirgi vaqtda tabiiy gazni qazib chiqarishda asosiy o'rinni Qashqadaryo (88 foiz) viloyati egallaydi. Oz miqdorda tabiiy gaz Buxoro (2 foiz), Farg'ona, Andijon va Surxondaryo viloyatlarda ham qazib chiqariladi.

Ko'mir sanoati. Mamlakatimiz hududidan dastlabki ko'mir qazib olish 1930 yillarning oxirida boshlangan. Toshkent viloyatining Ohangaron vodiysida Angren, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo (Sharg'un) va Boysun(To'da) tumanlarida ko'mir konlari bor.

Angren qo'ng'ir ko'mir konida 1940-1948 yillardan buyon ochiq va yopiq usullarda ko'mir qazib olinadi. 1941 yilda topilgan Sharg'un konidan 1958 yildan buyon toshko'mir qazib olinadi. 1961 yilda Angren ko'mir konida yer osti gazogeneratorlarida ko'mirni yuqori bosimdagi havo oqimi yordamida energetik gazga aylantiradigan «Yerostigaz» stansiyasi qurilgan.

Mamlakat xalq xo'jaligining ko'mirga bo'lgan ehtiyoji hamisha katta. Biroq, mavjud ko'mir zahiralarining yildan-yilga kamayib ketishi ko'mir qazib olish darajasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, mamlakatda 1990 yilda salkam 6,4 mln. tonna ko'mir qazib olingan bo'lsa, endilikda uning hajmi ikki marta pasayib ketdi. Angren va Yangi Angren GRESlaning to'la ko'mirga o'tkazilishi bilan mamlakatning ko'mirga bo'lgan yillik ehtiyoji 8-9 mln. tonnaga yetdi. Bunday ehtiyojni qondirish Boysun tumanida topilgan To'da toshko'mir konini tezrok ishga tushirishni taqozo qiladi.

Gidroelektr energiya olish uchun O'zbekistonning imkoniyatlari ancha katta. Mamlakat gidroenergetika resurslarini aniqlashda birmuncha ishlar qilingan, ya'ni regionlarimiz hududidan oqib o'tadigan bir qator daryolarning energiya hosil qilish quvvati aniqlangan va talaygina gidravlik elektr stansiya(GES)lar ham qurilgan. Respublikadagi dastlabki elektr stansiyalar gidravlik edi va bunday ish maqsadga muvofiq edi. Chunki asrimizning boshida mamlakatda yoqilg'i resurslari konlari ochilmagan, zahiralari aniqlanmagan ediki,

natijada chetdan yoqilg'i keltirib issiqlik elektr stansiyalari qurish qimmatga tushar edi.

Suv quvvatidan foydalanishning esa ikki tomonlama, ya'ni elektr energiyasi olish va yangi yerlarni sug'orish uchun o'zlashtirish ahamiyati bor edi. Shuningdek, O'zbekistondagi dastlabki GESlar asosan kanallarda, kichik daryolarda qurilib, iqtisodiy va texnik jihatdan arzonga tushar edi.

Elektr energetika sanoati. Elektrlashtirish sanoatni joylashtirishga g'oyat katta ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ikki xil yo'nalishda bo'ladi. Odatda, elektr energiya katta masofaga uzatiladi bu esa mamlakatning uzoq regionlarida ham ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga bir xil yordam beradi. Bundan tashqari muayyan joyda arzon energiyaning mavjud bo'lishi energiyani ko'p iste'mol qiladigan ishlab chiqarishni rivojlantirishni taqozo qiladi.

Darhaqiqat, elektr energetika sanoatini joylashtirishda zikr qilingan holatlar va sanoat ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilish qonuniyatlariga amal qiladi. Elektr energetika sanoatining joylash-tirilishi va rivojlantirilishiga yeqilgi va gidroenergetika resurslari geografiyasi, ishlab chiqarish-dagi va elektr energiya yetkazib berishdagi texnika taraqqiyoti hamda energiya iste'mol qiluvchilarning joylashishi ta'sir ko'rsatadi. Tovar shaklida maxsulot ishlab chiqarish bilan elektr energiyasi ishlab chiqarishning farqi ikkinchisida uni ishlab chiqarish va iste'mol qilishning bir vaqtga to'g'ri kelishida ko'rinadi. Bunday holat esa, elektr stansiyalarining energiyani iste'mol qiluvchi rayonlar bilan aloqasini kuchaytiradi.

O'zbekistonda elektr energiya ishlab chiqarish va undan xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida foydalanishning o'z tarixi bor. Mamlakatda dastlab elektr quvvatidan foydalanish XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Toshkentda dastlab ikkita

elektr stansiya qurilgan. Ularning biri (quvvati 1450 kvt.) tramvayni tok bilan ta'minlash, ikkinchisi (quvvati 125 kvt) shaharni yoritish maqsadida qurilgan. 1913 yilda O'zbekiston hududida umumiy quvvati 3 kvt. bo'lgan 6 ta dizel elektr stansiya ishlagan, ularnint yillik quvvati 3,3 mln. kvt. ga teng bo'lgan.

O'zbekistonda GESlar qurish ishlari 1926 yilda Toshkentda Bo'zsuv GESini qurish bilan boshlanib ketdi. O'sha davrda Bo'zsuv GESi O'rta Osiyoda birinchi va yirik energetika inshooti edi. Ikkinchi jahon urushigacha Bo'zsuv daryosida va Bo'zsuv kanalida Qodiriya, Bo'rjar, Tovoqsoy va boshqa GESlar qurildi. 1948 yilda FarxodGESi qurildi. So'ngra Chirchiq-Bo'zsuv suv tarmoqlarida, Shahrixonsoy va Namangansoy daryolarida, Darg'om, Hazarbog', Qumqo'rg'on kanallarida qator GESlar qurildi. Natijada respublikaning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoji1955 yilga kelib GESlar hisobida 65 foizga qondirildi.

Aslida mamlakatning elektr energiyasiga bo'lgan extayojini GESlarga tayanib qondirishning afzalliklari juda ko'p. Birinchidan, GESlarda elektr energiyasi ishlab chiqarish ekologik holatni toza saqlaydi, ikkinchidan, yoqilg'i resurslarini tejaydi. GESlar qurish natijasida vujudga kelgan suv omborlari esa yangi yerlarni sug'orishga imkon yaratadi. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizning boy gidroenergetika resurslarini to'la o'rganish va uni ishlab chiqarishga keng jalb etish katta ahamiyat kasb etadi. Bunday imkoniyatlar esa mamlakatimizning aksariyat viloyatlar daryolarida, magistral kanallarida mavjud.

Keyinchalik O'zbekiston Resublikasida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanib borishi (va ayniqsa, elektr energiyani ko'p iste'mol qiluvchi sanoat tarmoqlarining vujudga kelishi), shaharlar soni va geografiyasining kengayishi mamlakatning

bir qator viloyatlarida GES va IESlar qurishni taqozo qildi. Ayniqsa, yirik-yirik yoqilgi resurslariga ega bo'lgan konlarning topilishi va ishga tushirilishi mamlakat energetika sanoatining tez rivojlanishiga olib keldi.

Mamlakat elektr energetika sanoati 1960-1970 yillarda birinchi marta, 1970-1980 yillarda ikkinchi marta, 1980-1990 yillarda esa uchinchi marta o'z taraqqiyot bosqichining yuksak ko'rsatkichlariga erishdi. Shu davrlarda mamlakatda eng qudratli Toshkent (quvvati 1860 ming kvt.), Navoiy (1250 ming kvt.), Taxiatosh (730 ming kvt.), Sirdaryo (3,0 mln. kvt.), Angren (484 ming kvt.), Yangiangren (1,8 mln. kvt.) GRES gigantlari qurildi va ishga tushirildi.

Mamlakat elektr energiya balansida suv resurslaridan foydalanish ham sezilarli darajada o'sdi. Qator daryo va kanallarda hamda suv omborlarining to'g'onlarida yangi GESlar qurildi. Ular orasida respublikamizda eng yirik - Chorvoq GESini ko'rsatish mumkin. Quvvati 620,5 ming kvt. bo'lgan Chorvoq GESini qurish uchun balandligi 160 metrlik to'g'on va katta suv ombori barpo qilindi. 1980 yillarning boshida Chirchiq daryosida Xo'jakent GESi (165 ming kvt.), keyinchalik Qoradaryoda Andijon GESi (110 ming kvt.), Amudaryoda Tuyamo'yin GESi (70 ming kvt.), To'polon suv omborida To'polon GESi (50 ming kvt.) qurildi va h. k.

Mamlakatda issiqlik va gidravlik elektr stansiyalarini qurish va ishga tushirish bilan elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvati ortib bormoqda.

Hozirgi vaqtda respublikamizda mavjud bo'lgan elektrostansiyalarda o'rnatilgan umumiy quvvat 11640 MVtni tashkil etadi, shundan 85,3 foizi issiqlik, 14,7 foizi gidroelektr stansiyalariga to'g'ri keladi. Respublikamizda elektr energiyasi

ishlab chiqarish 2000 yildagi 56,6 mln. kvt. dan 2002 yilga kelib 49,3 mlrd. kvt soatga yetdi.

Respublikamizning qator regionlarida elektr energiyasi ishlab chiqarishning ko'payishi va natijada energetika sanoatining rivojlanishi uning xalq xo'jaligidagi salohiyatini oshirib yubordi. Ayni bir paytda energetika tizimlarini birlashtirish xalq xo'jaligida elektr ta'minoti sifati va barqarorligini tubdan yaxshiladi, gidroresurslar va yoqilg'idan oqilona foydalanish imkoniyatlarini yaratdi. Endilikda mamlakatning qishloq xo'jaligi va agrosanoat majmuini elektrlashtirishda katta ishlar qilinmoqda. Ayniqsa, yangi yerlarni o'zlashtirish uchun barpo qilingan yuzlab yirik nasos stansiyalarini elektr energiyasi bilan ta'minlash qishloq xo'jaligida elektr quvvatidan foydalanishga talabni oshirib yubordi. Shunday qilib XXI asrning busag'asida mamlakatimizda qishloq xo'jalik korxonalari, tuman markazlari, shaharchalar, shaharlar energiya tizimi tarmoqlariga birlashtirilgan va O'zbekistonning yagona energiya tizimi yaratildi. 1970 yildayoq mamlakatimizda yalpi elektrlashtirish masalasi nihoyasiga yetgan. Hozirga vaqtda O'zbekiston elektr energayasiga bo'lgan extiyojini qondirib qolmasdan, balki ma'lum qism elektr energiyani chetga eksport qilmoqda.

Endilikda mamlakatda 9 ta energetika tizimi mavjud bo'lib, ular O'zbekistonni MODning barcha davlatlari bilan bog'laydi. Mamlakatda (va MOD aro) energetika tizimining tashkil qilinishi elektr transportini rivojlantirishni taqozo qildi. MODdagi yirik elektr stansiyalarni sanoat markazlari bilan bog'lovchi yuqori voltli elektr o'zatkichlar qurilgan.

Elektr energiyasi ishlab chiqarishda Toshkent (45 foiz) va Sirdaryo (28,5 foiz) viloyatlari nihoyat katta ulushni egallaydi. Shuningdek, Navoiy (15 foiz) viloyati va Qoraqalpog'iston

respublikasi (6 foiz), Farg'ona (2,2 foiz) viloyatining ham ma'lum hissasi bor.

O'zbekiston energetika sanoatining istiqbollari katta. Yaqin kelajakda bu yerda quvvati eng yuqori bo'lgan Tollimarjon GRESi (3,2 mln. kvt.), Qoraqalpog'iston va Xiva GRESlari va boshqa bir qancha gidravlik elektr stansiyalari quriladi.

15.4. Metallurgiya majmui

Mamlakat metallurgiya majmui uning og'ir sanoatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u butun sanoat ishlab chiqarishining 13,9 foiz mahsulotini beradi. Ushbu sanoat majmui respublikada tarkib topgan rangli metallurgiya va qora metallurgiya sanoat tarmoqlarini o'z ichiga oladi.

Rangli metallurgiya sanoati. Sanoatning ushbu turining rivojlanishi uzoq tarixga borib taqaladi. Bu yerda qadimda misdan, qalay, kumush va oltindan ularni qayta ishlash (eritish, quyish, qizdirish) orqali buyumlar, nAQSHlar, bezaklar tayyorlangan, tanga pullar zarb qilingan.

Qadimda Farg'ona va Zarafshon, Chirchiq va Ohangaron, Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylaridagi bir qancha shaharlarda zargarlik, misgarlik temirchilikning, rivojlanganligi rangli metallar va ularning qotishmalaridan mahalliy aholi foydalanganidan guvohlik beradi.

Rangli metallurgiya 30-yillarda mahalliy mineral xom ashyo resurslari zamirida sanoatning alohida tarmog'i tarzida shakllandi. Respublikamiz hududi rangli metall xom ashyolariga juda boy. Bir qancha rangli metall zahiralari bo'yicha O'zbekiston MDHdagina emas, balki jahonda oldingi o'rinlarda turadi. Masalan, u oltin zahiralari bo'yicha dunyoda 4-o'rinda,

uni qazib olish bo'yicha 7-o'rinda turadi. Mis, uran zahiralari bo'yicha dunyoning oldingi o'nlik mamlakatlari qatoridan o'rin olgan. Bu yerdagi rangli rudalar tarkibida rux, qo'rg'oshin, kumush, molibden, volfram, kadmiy, indiy, tellur, selen, reniy, kobalt, nikel, osmiy va boshqalar ko'pdir. Rangli va nodir metallning yirik zahiralari Markaziy Qizilqum, Janubiy Tyanshyan', Chotqol-Qurama, Nurota, Molg'uzor, Janubiy Farg'ona mintaqalarida joylashgan. Topilgan konlarni sanoat miqyosida o'zlashtirish yo'lga qo'yilmoqda. Shuning uchun ham endilikda O'zbekiston rangli metallar ishlab chiqarish bo'yicha jahonda oldingi o'rinlardan birini egallamoqda.

Oltin qazib olish sanoati. O'zbekistonda birmuncha oldin mazkur sanoatning tarmog'i shakllangan bo'lsa ham, u o'zga regionlarga xizmat qilar edi. Faqat mustaqillik natijasida oltin sanoatida rivojlanish ning yangi bosqichiga qadam qo'yildi.

Mamlakatda olib borilgan fundamental tadqiqotlar natijasida kattagina oltin zahiralariga boy bo'lgan Muruntov, Olmaliq, Marjonbuloq, Chormitan, Kuchbuloq, Kauldi, Chodak, Kizilolmalisoy, g'o'zaksoy, Qoraqo'ton, Pirmirob kabi 30 dan ortiq oltin konlari topilib, ularning bir qismi sanoatda ishlatilmoqda. Markaziy Qizilqumdagi Muruntov oltin konining butun dunyoga dong'i ketgan.

Mamlakatimizda oltin sanoatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda, bu ishga chet el investisiyalari, mutaxassislari, texnika va texnologiyalari jalb qilinmoqda, qator tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda. 1992 yili «O'zbekoltin» birlashmasi negizida endilikda O'zbekiston Respublikasining qimmatbaho metallar davlat qo'mitasi tashkil etildi va u 1994 yilda O'zbekiston oltin qazib olish va olmosga ishlov berish korxonalari uyushmasi («O'zolmosoltin»)ga aylantirilgan. «O'zolmosoltin» uyushmasi (Toshkent shahri) va uning

boshqaruvi Navoiy shahrida bo'lgan «Qizilqumkamyobmetal-loltin» konserni (1991 yildan) faoliyat ko'rsatmoqda. «O'zolmosoltin» tarkibida Angren (Angren shahrida), Marjonbuloq (Jizzax viloyati), Chodak (Namangan viloyati), Ka-uldi {Toshkent viloyati), Zarmitan (Samarqand viloyati) oltin qazib olish konlari, shuningdek, «Qizilqum» (Toshkent), «Zarnisa» (Angren) oltin izlovchilar artellari, O'rta Osiyo rangli metallar ilmiy-tadqiqot va loyihalashtirish instituti (Toshkent), «Olmos» olmos qirralash fabrikasi (Toshkent viloyati, Burchmulla) va boshqa oltin qazib olish sanoati bilan bog'liq tashkilotlar bor.

Mamlakat oltin qazib olish sanoatining ikkinchi yirik markazi «Qizilqumkamyobmetalloltin» konsernining bosh korxonasi - Navoiy konmetallurgiya kombinatidir. Mazkur kombinat mamlakat oltin sanoatining durdonasi hisoblanadi. U dastlab 1958 yilda Muruntov va Qizilqumning boshqa sochma oltin konlarini ishga tushirish maqsadida qurilgan. Uning asosiy ishlab chiqarish quvvatlari Zafarobod, Nurobod, Zarafshon, Uchquduq shaharlarida joylashgan. Mazkur shaharlarda yangi quvvatlarni ishga tushirish va shu orqali oltin qazib olish sanoatining quvvatini oshirib borish yil sayin jadallashmoqda. Shuning ham O'zbekistonning jahon oltin sanoatida mavqei oshib bormoqda. 1991 yilda O'zbekiston jahonda oltin qazib olish bo'yicha sakkizinchi o'rinda °Ulgan bo'lsa, endilikda u yettinchi o'ringa chiqib oldi.

O'zbekistonda oltin sanoatini rivojlantirshp jarayonida xorij texnologiyasidan keng foydalanilmoqda. Jumladan, oltin sanoatini keng rivojlangan AQSH bilan hamkorlikda 1993 yilda Zarafshonda Muruntov ruda chiqindilardan oltin ajratib olish yuzasidan «Zarafshon-Nyumont» qo'shma korxonasi (yillik quvvati 12-13 tonna) qurilishi boshlangan edi. Bu gigant

qurilishiga 150 mln. AQSH dollari investisiya qilinib g'oyat qisqa fursatda - 1995 yil. ning may oyida mahsulot beraboshladi. Bundan tashqari Buyuk Britaniyaning «Lonro» firmasi bilan hamkorlikda Markaziy Qizilqumda oltin rudalari konini ishga tushirish va oltin ajratib olish maqsadida «Amantaytu Golfildz» qo'shma korxonasi qurila boshlandi. «Lonro» firmasi ushbu dasturga boshlang'ich mablag sifatida 250 mln. AQSH dollarini investisiya qildi.

O'zbekiston oltin sifati jihatidan jahonda eng yuqori o'rinlarda turadi. Uning sifati to'rtta - 9999 bilan ifodalanadi. Navoiy kon-metallurgiya kombinatida olingan oltin yombilar London rangli metallar birjasining sertifikatini olgan (1994).

Mis va boshqa rangli metallar qazib olish va ishlab chiqarish sanoati mamlakat mashinasozlik sanoatida alohida o'rin tutadi. O'zbekistonda rangli metallurgiya sanoatining mazkur tarmoqlari 1930 yillarning, O'rtalaridan boshlab shakllana boshladi. 1935 yilda konlarni ishga solish jarayonida volfram-molibden, 1941 yilda flyuorit, 1952 yilda qo'rg'oshin-rux, 1955 yilda mis qazib chiqarish va boyitish hamda ularni konsentratlarini tayyorlash sanoati vujudga keldi.

Endilikda mamlakat rangli metallurgiya sanoatining yirik korxonalari Olmaliq va Navoiy tog'-metallurgiya kombinatlari, O'zbekiston qiyin eriydigan va issiqka bardoshli Chirchiq qotishmalar kombinati, Ingichka hamda Quytosh kon boshqarmalari va boshqalardir.

Mamlakat rangli metallurgiyasida oltindan keyin misning salohiyati katta. Olmaliq tog'-metallurgiya kombinatining asosiy mahsulotlaridan biri ham misdir. Mazkur kombinatda uni qazib olish, boyitish, pishirish, eritish, xomaki va so'ngra toza mis tayyorlash jahon andozalariga javob beradigan darajada yo'lga qo'yilgan.

Olmaliq tog'-metallurgiya kombinati mamlakat rangli metallurgiya sanoatining majmuasi va ko'rki.

Tarmoqning yetakchi korxonasi va tugal metallurgiya sikliga ega bo'lgan mazkur kombinat mis majmuasi Qalmoqqir mis koni (1954), ruda boyitish fabrikasi (1957), metallurshya zavodi (1962)dan iborat.

Respublikamizda yiliga 83-85 ming tonnadan ortiq mis ishlab chiqarilmoqda.

1998 yilda metallurgiya majmuasini rivojlantilishga 3,9 mlrd. so'm mablag sarflandi. Navoiy, Olmaliq tog'-metallurgiya kombinatlari, O'zbekiston o'tga chidamli va qayta eriydigan metallar kombinati, O'zmetkombinat korxonalarini qayta qurish ishlari davom ettirilmoqda. Birgina Olmaliq tog'-metallurgiya kombinatining harajatlari 200 mln. AQSH dollari miqdoriga teng bo'lgan qayta qurish (rekonstruksiya) loyihasi chet el investorlari hamkorligida amalga oshiriladi.

Ma'lumki, tabiatda turli xildagi rangli metallar aralashgan holda uchraydi. O'zbekiston mis rudalarida mis bilan birga rangli metallarning 15 dan ortiq turi, chunonchi, oltin, kumush, molibden, kadmiy, indiy, tellur, vismut, selen, reniy, kobalt, nikel, osmiy va boshqalar ham qazib olinadi. Rangli metallarning juda katta zahiralari Chotqol-Qurama tog'larida joylashgan. Undagi Qalmoqqir mis koni o'ta noyob hisob-lanali. Shu yerda joylashgan Dalniy koni ham katta ahamiyatga ega. Mis, qo'rg'oshin, rux Qoramazor, Qo'rg'oshinkon, Burchmulla, Obiraxmat, Tanob, Handiza, Uchquloch, Chodak, volfram konlari Qo'ytosh, Ingichka, Langarda qazib olinadi. Farg'ona vodiysida unlab surma va simob konlari ochilgan. Umuman, Respublikamizda 40ga yaqin rangli metallurgiya korxonalari bo'lib, ularda 65,4 mingdan ortiq ishchilar ishlaydi.

Qora metallurgiya sanoati. O'zbekistonda dastlabki qora metall ishlab chiqarishga 1940 yillarda asos solingan. Jumladan, 1942 yilda mamlakatda birinchi (Bekobod shahrida) zamonaviy metallurgiya zavodi qurishga kirishilgan. 1944 yilda esa Bekobod metallurgiya zavodida dastlabki mahsulot - metall eritmasi olingan. Keyinchalik metallurgiya zavodi kengayib, uning sexlari ko'payib va ishlab chiqarish quvvati oshib borgan. Jumladan, 1944 dekabrida zavodda metall quyish sexi ishga tushgan. 1945 yilning fevralida esa ikkinchi marten pechi, 1949 yilda uchinchi marten pechi qurib ishga tushirilgan. Shuningdek, 1946 va 1949 yillarda zavodda «ZOO» va «700» prokat stanlari qurib ishga tushirilgan. 1962 yilda esa o'zluksiz po'lat quyuv qurilmasi ishga tushirilgan.

Davr o'tishi va yangi sexlarning qurilishi bilan Bekobod metallurgiya zavodining ishlab chiqarish quvvati ortib borgan va korxonaning o'zi yirik metallurgiya kombinatiga aylangan.

Umuman, respublikamizda yiliga 260 ming t. po'lat va 420 ming t. prokat ishlab chiqarilmoqda.

Mamlakat qora metallurgiya sanoatini rivojlantirish mustaqil O'zbekiston uchun dolzarb masaladir. Shuni ta'kidlash kerakki, keyingi yillarda O'zbekistonda ham qora metallurgiya xom ashyolari - temir, titan, marganes, xrom va boshqalarning anchagina zahiralari aniqlandi. Jumladan, cho'kindi jinsli temir ruda konlari Orolbuyi regionida, Qizilqumda, Jizzax viloyati hududida uchraydi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, Jizzaxning Forish tumani hududidan topilgan (1999 yil) temir ruda tarkibida 60 foiz toza temir bor. Shuningdek, qora metallurgiya sanoatini rivojlantirishga xizmat qiladigan Qoraqalpog'istonda Tebinbuloq titan-magniy koni, Zarafshon, Qoratepa, Lolabuloq marganes konlari, Tomditog', Sulton Uvaysda va Farg'ona vodiysida xrom konlari topilgan. Ana shu va boshqa konlar

zahiralarini aniqlash va ularni ishga tushirish natijasida kelajakda Bekobod metallurgiya zavodini to'liq siklga o'tkazish imkoniyatlari tug'iladi. Shuningdek, Markaziy Qozog'iston temir rudalarini import qilish bu muammoni hal qilishni tezlashtirishi mumkin.

15.5. Mashinasozlik majmui

O'zbekiston mashinasozligi og'ir sanoatning eng yirik va yetakchi tarmog'idir. Uning ahamiyati fan-texnika yutuqlarini xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida joriy qilish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizasiyalash va avtomatlashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston mashinasozlik majmui uzoq yillar mobaynida sekinlik bilan tarkib topdi. Dastlabki mashinasozlik sanoati korxonalari XX asrning 20-yillarida vujudga keldi. O'sha yillari O'zbekistonda metallga ishlov berish sanoati 14 ta kichik ta'mirlash ustaxonasidan tashkil topgan edi. Ularda asosan temir yo'l transporti, paxta tozalash va yog' zavodlarining ma-shina, asbob va uskunalarini ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan. Keyinchalik xalq xo'jaligi tarmoqlari rivojlanib borishi bilan mamlakat mashinasozlik sanoatini barpo qilish va rivojlantirishga ehtiyoj ortgan. 1927 yilda Toshkentda «Boshpaxtasanoat» tashkilotining mexanika zavodi ishga tushirildi. 1931 yilda esa mazkur zavod negizida mamlakat paxta tozalash zavodlari uchun asbob-uskunalar ishlab chiqarish hamda qishloq xo'jalik texnikalarini ta'mirlaydigan «Qishloqmash» - hozirgi qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi qurildi.

«Qishloqmash» keyinchalik mamlakatning eng yirik qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodiga aylandi. Dastlabki yilda bu zavodda g'o'za seyalkalari, borona va kultivatorlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. 1932 yilda Toshkentda ekskavator ta'mirlash zavodi «Irmash» (hozirgi «Tosheks» ishlab chiqarish birlashmasi), 1920 yillarning oxirida Andijonda «Kommunar», Samarqandda «Kolxozchi», Qo'qonda «Bolshevik» va boshqa zavodlar ishga tushdi. Shuningdek, 1936 yilda Toshkent shahridagi mexanika ustaxonalari negizida ehtiyot qismlar va detallar ishlab chiqaradigan hozirgi «Toshkimyoqishloqmash» zavodi, 1941 yilda esa Andijonda MTSlar negizida «Avtotraktordetal» zavodi ishga tushirildi.

1920 yilda Toshkentda chuyan zavodi va mexanika us-taxonalari bazasida 1-Turkiston zavodi tashkil etildi va bu zavod 1959 yilda mashinasozlik bo'yicha davlat loyiha-konstruktorlik texnologiya byurosiga aylantirildi. Hozirgi vaqtda ushbu byuro «Texnolog» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasiga aylantirilgan.

Ikkinchi jahon urushi O'zbekiston mashinasozlik majmui rivojlanishiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatdi. Birinchidan, ularning soni, ayniqsa, front zonasidan ko'chirib keltirilgan zavodlar hisobiga ko'paydi. Ko'chirib keltirilgan korxonalar orasida aviasiya zavodi, karborund zavodi, «Pod'yemnik» va abraziv zavodlari, «Qizil Oqsoy» (O'zbekiston qishloq xo'jalik mashinasozlik) zavodi, «Rostselmash» va boshqa zavodlar bor edi. Ikkinchidan, mamlakat ichkarisida mavjud bo'lgan va g'arbiy rayonlardan keltirilgan zavodlarning katta qismi front harbiy texnikasi uchun ehtiyot qismlar, qurol-yarog' va o'q-dorilar ishlab chiqarish yo'nalishida rivojlantirildi.

Urushdan keyin respublika xalq xo'jaligida qayta ishlash, paxtachilikni rivojlantirish keng quloch yozdi. Paxtachilik,

irrigasiya qurilishi, to'qimachilik va kimyo sanoati uchun turli xil mashinalar ishlab chiqarishga ehtiyoj ortdi. Shuning uchun ham paxta terish va paxta qator oralarida ishlatiladigan mashinalar, shuningdek, ekskavatorlar, ko'prikli elektr kranlar, yigirish mashinalari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shunday qilib, O'zbekiston mashinasozligi sanoatning ko'p tarmoqli turiga aylantirildi. Shuni ta'kidlash joizki, endilikda butun Markaziy Osiyo davlatlari mashinasozligi mahsulotining **2/3** qismi O'zbekistonda ishlab chiqarilmoqda.

Mamlakat mashinasozlik majmui ko'p tarmoqlar bo'lib qolishi bilan birga uning iqtisodiyotda va ayniqsa, mamlakat milliy valyuta tushumida ham ulushi ortib bormoqda. Ayniqsa, uning MOD uchun tamoman yangi tarmog'i - avtomobilsozlikning vujudga kelishi tarixiy voqea bo'ldi. Agar 1940 yilda mamlakat mashinasozlik sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini bir deb qabul qilsak, u 1965 yilda - 220, 1975 yilda - 587, 1980 yilda - 936, 1985 yilda - 1272, 1990 yilda esa, 1539 marta o'sganini ko'ramiz. Mamlakat yalpi sanoat mahsuloti umumiy hajmida mashinasozlik sanoatining hissasi barqarorlashib kelmoqda. Asaka shahrida barpo qilingan birgina yengil avtomobil zavodining ishga tushirilishi ushbu barqarorlashuvga ijobiy tus berdi va mamlakat mashinasozlik majmuining iqtisodiyotdagi ulushini oshirdi.

Mashinasozlik majmuasining hududiy joylashuvida juda keskin tafovutlar mavjud bo'lib, bunda Toshkent shahri nihoyat katta salmoqqa (54,0 foiz) ega, shuningdek, Toshkent (12,1 foiz), Andijon (6,4 foiz), Samarqand, Farg'ona (5,5 foiz) viloyatlarining ham salmog'i anchagina. Lekin bu sohada hanuzgacha Navoiy, Jizzax, Qashqadaryo, Xorazm,

Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlarining salmog'i nihoyatda pastligicha qolmoqda.

Avtomobilsozlik. Sanoatning bu tarmog'i respublikada yangi. Uni tashkil qilish va rivojlantirish mamlakatimizning ichki ehtiyoji uchun o'ta muhim masala bo'lishiga qaramasdan sobiq Markaz «O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqarishga yo'l bo'lsin» qabilida ish tutgan edi.

Faqat mustaqillik mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanish qirralarini keng ochdi va, jumladan, O'zbekiston avtomobilsozligini vujudga keltirishga ob'yektiv sharoit yaratib berdi. Endilikda respublika avtomobil sanoati tarkib topgan va rivojlanishning dastlabki bosqichiga qadam qo'ygan. U yengil va yuk avtomobillari, avtobuslar, avtomobil dvigatellari, avtomobillarga ehtiyot qismlar, asbob-uskuna va jihozlar ishlab chiqarishga tobora chuqur ixtisoslashib bormoqda.

O'zbekiston avtomobilsozligi mustaqillik sharofati bilan vujudga kelgan bo'lsa ham uning o'z rivojlanish tarixi bor (Mamlakatdagi bir qator avtomobil tuzatish (ta'mirlash) zavodlari (1939), yengil mashinalarga texnika xizmatini ko'rsatadigan «O'zavtotexxizmat», «O'zavtovazxizmat» ishlab chiqarish birlashmalari va boshqa korxona va tashkilotlar respublika avtomobil sanoatini vujudga keltirishda asos edi.

Respublikada birinchi marta 1994 yilning martida «O'zavtomash» uyushmasi tashkil etildi. Uning tarkibida 20 ga yaqin sanoat korxonalari va tashkilotlar bor. Avtomobilsozlik sohasida ishlab turgan va yangi qurilayotgan zavodlar negizida avtomobil industriyasini barpo etish, yengil va yuk avtomobillari, avtobuslar, trolleybuslar ishlab chiqarish hamda ularga ehtiyot qismlar ishlab chiqarish vazifalari hal etilmoqda. Shuningdek, mamlakatda avtomobil sanoatiga servis xizmatini tashkil qilish, respublika xalq xo'jaligining avtotransport

texnikasiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, avtomobil sanoatining raqobatbardosh mahsulotlari bilan jahon bozoriga chiqish vazifalari ham hal etilmoqda. O'zbekiston avtomobilsozlikni rivojlantirishda chet el ilg'or tajribasiga va texnologiyasiga tayanmoqda va qator konsern va korporasiyalar bilan hamkorlik qilmoqda. Jumladan, 1992 yilda O'zbekiston Respulikasi Janubiy Koreyaning DEU korporasiyasi bilan Asaka paxta tashiydigan tirkamalar zavodi negizida yengil avtomobillar ishlab chiqaradigan «O'zDEUavto» qo'shma korxonasiga asos soldi.

Asaka avtomobil zavodi mamlakatimiz avtomobil sanoatining faxri. U Markaziy Osiyoda yagona. Janubiy Koreyaning DEU korporasiyasi bilan hamkorlikda qurilgan ushbu zavodning birinchi navbati 1996 yil martida ishga tushirildi. Mikroavtobuslarni seriyali ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 1996 yilning 19 iyulida esa zavodning rasmiy ochilishi va xalqaro taqdimoti o'tkazildi. Asaka avtozavodida **«Neksiya»**, **«Damas»**, **«Tiko»** rusumli tejamli avtomobillari respublikamiz aholisining ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilmoqda va o'nlab xorijiy mamlakatlarga eksport qilinmoqda. Ushbu zavodni qayta rekonstruksiya qilish ishlari boshlanib, yaqin muddatda yangi model va markadagi avtomashinalar ishlab chiqarish rejasi amalga oshirilmoqda.

1999 yili Samarqand shahrida Turkiya Respublikasi firmalari bilan hamkorlikda yana bir avtomobil zavodi ishga tushirildi. Bu «Samkochavto» zavodidir. U ham Markaziy Osiyoda yagona bo'lib, yaqin vaqt ichida yiliga uch ming avtobus, 1 ming yuk mashinalari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ladi.

Yangi avtomobil zavodlarida ishlab chiqarish jarayonini doimo takomillashtirib borish, turli agregatlar, avtomobil

dvigatellari, podshipniklar va boshqa ko'p turdagi qismlarni respublikamiz hududidagi korxonalarda ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda, jumladan, 1993 yildayoq mamlakat avtomobil sanoatini butlovchi va ehtiyot qismlar bilan ta'minlash maqsadida «Avtoehtiyotqism» ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etilgan edi. Respublikaning Toshkent, Shovot, Marhamat va Oxunboboyev shaharlarida joylashgan podshipnik zavodlarida avtomobil sanoati va qishloq xo'jalik mashinasozligi uchun podshipniklar ishlab chiqarila boshlandi. Samarqanddagi «Krasno'y dvigatel» (1942y.) ishlab chiqarish birlashmasi avtomobil dvigatellariga ehtiyot qismlar, alyuminiy mahsulotlari ishlab chiqarmoqda. Avtomobil sanoatiga xizmat qiluvchi yangi katta va kichik qo'shma korxonalar Farg'ona vodiysi, Samarqand, Toshkent viloyati shaharlarida ko'plab qurilmoqda. 2002 yil Respublikamizda 35,1 ming avtomobil ishlab chiqarilgan.

Traktorsozlik va qishloq xo'jalik mashinasozligi. Mashinasozlikning mazkur turi mamlakatimiz hududida 1930 yillardayoq shakllana boshlagan edi. Usha yillari «Boshpaxtasanoat» mexanika zavodida paxtachilik (ya'ni, paxta qator oralari)da ishlatiladigan, tuproqqa ishlov beradigan mashinalar, paxta tozalash zavodlari uchun texnologik jihozlar, asbob-uskunalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan edi.

Respublikamizda 1990 yillarning boshida traktorsozlikka asos solindi. Toshkent traktor zavodida, 30 ot kuchiga ega bo'lgan, ya'ni «TTZ-30» rusumli traktor, unga moslangan qishloq xo'jalik mashinalari va qurilmalarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi. 1993 yildan boshlab esa «TTZ-30» rusumli traktor, uning qismlarini seriyali ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 1994 yilda «Toshkent traktor zavodi» birlashmasida dizel dvigatelli **«TTZ-80/100»** universal chopiq traktorlari sinovdan o'tkazildi.

1994 yilda respublikada birinchi marta «TTZ-80 X» traktorlarining yirik sanoat partiyalari ishlab chiqarildi. So'ngra mamlakatimiz qishloq xo'jaligining murakkab tarmoq tuzilishiga moslashtirilgan turli xil qishloq xo'jaligi mashinalari ishlab chiqarila boshladi. 1994 -1999 yillar mobaynida mamlakat mashinasozlik sanoat korxonalarida 45 dan ortiq nomda qishloq xo'jalik mashinalari, asbob-uskuna va turli xil texnika ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Mamlakatning traktorsozlikdagi yirik korxonasi - «Toshkent traktor zavodi» birlashmasi bo'lib, u paxtachilik traktorlari, universal traktorlar, traktor tirkamalari, yuklagichlar, metall quymalar, shtam-povkalar ishlab chiqaradi.

«Toshkent traktor zavodi» - universal korxona. Unda endilikda paxtachilik majmui uchun turli xil mashinalar ishlab chiqarilishi bilan birga metall quyish zavodi ham faoliyat ko'rsatmoqda. Toshkent agregat zavodi paxtachilik traktorlariga orqa bog'lovchilar, ehtiyot qismlar, reduktorlar ishlab chiqaradi.

Qishloq xo'jaligi rivojlangan va har jihatdan texnika vositalari bilan ta'minlangan Vatanimizda barcha texnika vositalari ishlab chiqarilmoqda. Bu yerda yangi-yangi qishloq xo'jaligi mashinasozlik zavodlari qurilmoqda, eskilari qayta ta'mirlanmoqda va ishlab chiqarish quvvatlari oshirilmoqda, ularning ko'pida yangi texnologik asbob-uskunalar o'rnatilmoqda. «Toshqishloqmash» zavodi 1931 yilda ishga tush-gan edi. U dastlab paxtachilik uchun turli xil texnikalar ishlab chiqargan bo'lsa, keyinchalik paxtachilik majmuini texnika bilan ta'minlashda muhim rol uynadi.

Mamlakat qishloq xo'jalik mashinasozligi tarmog'idagi gigant mashinasozlik sanoat korxonalari «O'zbekqishloqmash» va «Chirchiqqishloqmash» birlashmalaridir.

«O'zbekqishloqmash» birlashmasi g'o'za seyalkalari, ko'sak chuvish mashinalari, «TTZ-30» traktoriga tirkab va osib ishlatiladigan mashinalar, purkagichlar hamda parrandachilik uchun jihozlar ishlab chiqaradi.

Qurilishiga 1943 yilda asos solingan «Chirchiqqishloqmash» birlashmasi esa mamlakat paxtachiligini yoppasiga mexanizasiyalash uchun mashina va mexanizmlar, g'o'za qator oralarida ishlatiladigan kultivatorlar, o'g'it solgichlar, ariq qazgich-tekislagichlar, paxta tozalash sanoati uchun turli xil mashinalar ishlab chiqaradi. Jumladan, ushbu zavodlarda paxtani tayyorlash, quritish, tozalash, saqlashda qo'llaniladigan mashina va moslamalar, arrali va juvali (valikli) jin mashinalari, linterlar, tola tozalagichlar, chigit tozalash va saralash mashinalari, transportyorlar, paxta g'arambuzgichlari, paxta uzatgichlar, tunnel ochish mashinalari, paxta g'aramlarini shamollatish va chang tutish mashinalari, shuningdek, kanopni qayta ishlash mashinalari chiqariladi.

To'qimachilik, ya'ni paxtani ikkilamchi qayta ishlash uchun «O'zbekto'qimachilikmash» birlashmasida (1971y.) turli xil mashinalar ishlab chiqariladi. Birlashmada iplik tayyorlash, yigirish, xalqali yigirish, yigirish-pishitish mashinalari, pillakashlik uskunalari ishlab chiqariladi.

Shuni ta'kidlash joizki, keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Germaniya va b.) firmalar bilan paxta terish, g'alla o'rish mashinalari, mini traktorlar ishlab chiqarishda hamkorligi tobora rivojlanib bormoqda.

Mamlakatda radio elektronika va elektrotexnika sanoati mashinasozligi ham tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Sanoatning mazkur tarmoqlariga ikkinchi jahon urushi yillarida asos solingan. Toshkent kabel zavodi (hozirgi «O'zkabel» davlat aksionerlik jamiyati), Toshkent radiolampa zavodi («Foton»

aksionerlik jamiyati) aloqa dala simlari, generatorlar, qabul qiluvchi va kuchaytiruvchi radiolampalar, Chirchiq transformator, Toshkent elektrotexnika va «Mikond» zavodlari radiodetallar, transformatorlar, elektrotexnika sanoati uchun shisha izolyatorlar va boshqa uskunalar ishlab chiqarmoqda.

«Zenit» zavodi 1986 yildan boshlab EHM uchun mik-roelektronika elementlari, mikrosxemalar, masofadan turib boshqarish tizimlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Ushbu zavod 1991 yildan boshlab Janubiy Koreyaning «Goldstar» firmasi bilan hamkorlikda videomagnitofon va videopleyerlar hamda XXR ning Sintzyan 1-radio zavodi bilan hamkorlikda rangli televizorlar ishlab chiqarishgi ham yo'lga qo'ydi.

Mamlakat mashinasozlik sanoati mustaqillik sharofati bilan yildan-yilga yuksalib, uning metallkamtalab (va ayni bir paytning o'zida o'ta sifatli metalltalab), o'ta malakali kadrtalab nozik va nafis tarmoqlari tobora rivojlanib bormoqda. Endilikda mamlakatda shu xil mashinasozlikning «O'zkabel», «Foton», «Transformator», «O'zelektrapparat», «Signal», «Oniks», «Andijonkabel», «Algoritm» va boshqa zavod va birlashmalarida elektron komponentlar (ya'ni, to'g'rilovchi ustunlar, diodlar, dala tranzistorlari), mikroelektron tuzilmalar, elektron mikrofonlar, kuchlanish kuchaytirgichlar, televizor transformatorlari, kichik voltli asboblar, turli maqsadlarga mo'ljallangan kabellar, simlar, o'zgaruvchan tok elektrodvigatellari, transformatorlar, payvandlash mashinalari, elektr akkumulyatorlari, rangli televizorlar, pleyerlar, radiopriyomniklar, billur qandillar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Samolyotsozlik. O'zbekistonda samolyotsozlikka 1941 yilda asos solingan. Urush yillarida Toshkent aviasiya zavodida jangovar samolyotlar ishlab chiqarilgan. O'rta Osiyoda yagona

bo'lgan bu zavod urushdan keyin yo'lovchi va yuk tashishga ixtisoslashgan samolyotlar ishlab chiqara boshladi. Jumladan, 1958 yildan transport samolyotlari («IL-14»), 1966 yildan «AN-22» samolyotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. 1992 yildan zavod mahalliy havo yo'llarida qatnashga mo'ljallangan 64 o'rinli yangi «IL-114» samolyotini chiqara boshladi. Ushbu samolyot 1999 yil may oyida sinovdan o'tdi va xalqaro havo yo'llarida qatnashga qo'yildi.

Mazkur zavod 1996 yil may oyidan «Toshkent aviasiya ishlab chiqarish birlashmasi»ga aylantirilgan edi. Birlashma AQSH, Rossiya, Ukraina samolyotsozlik firmalari bilan hamkorlikda yangi tisdagi samolyotlar ishlab chiqarish ustida muhim tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqda. O'zbekiston samolyotlari Xitoy, Rossiya va boshqa xorijiy mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

Samolyotsozlik sanoatimiz dunyodagi mashhur firma va kompaniyalar (jumladan, «Boing») bilan hamkorlikni yo'lga qo'yilmoqda.

Asbobsozlik sanoati respublika maishnasozligida ma'lum ulushga ega. Uning korxonalarida (Toshkent asbobsozlik, karborund va abraziv zavodlarida) mashinasozlik uchun qirquv va o'lchov asboblari, slesarlik-sozlash asboblari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Kimyo va neft mashinasozligi mamlakat mashina industriyasining istiqbolli tarmog'iga aylanib bormoqda. Uning yirik sanoat korxonalari - «O'zbek-Kimyomash» (Chirchiq shahrida), «Kompressor» (Toshkent) va Namangan mashinasozlik zavodlarida kimyo, mikrobiologiya, sellyuloza-qog'oz tarmoqlari uchun mashina va jihozlar, truba yig'ish, ammiak selitrasi va boshqa turdagi o'g'itlar ishlab chiqarish uchun kuchli majmuali texnologik liniyalar, neft va gaz sanoati

quduqlari uchun armaturalar, po'lat, titan qopqoqlar, zanglamas surma qopqoqlar ishlab chiqariladi.

Qurilish va yo'l qurilishi mashinasozligining asosiy sanoat korxonalari Toshkent va Andijon shaharlarida joylashgan. 1932 yilda qurilgan «O'zbekgidrostroy» (keyinchalik «Irmash», 1946 yildan Toshkent ekskavator zavodi, 1994 yildan esa «Tosheks» birlashmasi), «Pod'yemnik» (Toshkent), «Andijonirmash» (1956), «Andijon gidravlika mashinasozligi» (1986), «Strommashina» zavodi (Andijon) va boshqalar turli markadagi ekskavatorlar, ko'prik elektr kranlari, maxsus greyferli, magnit greyferli, magnitli, ko'p tirgakli osma kranlar, to'rt oyoqli kranlar, yer tekislaydigan mashinalar, yuklagichlarning osma jihozlari, gidrosilindrlar, manipulyatorlar, gidrotaqsimlagichlar, 3 tipdagi yuklagichlar, nasoslar, dizellar, turli xil ehtiyot qismlar ishlab chiqaradi.

Samarqanddagi liftsozlik zavodi kommunal xo'jaligi uchun yo'lovchi va yuk liftlari, yog'ochga ishlov beradigan stanoklar ishlab chiqaradi.

Madaniy-maishiy ro'zg'or texnikasi mashinasozligi Samarqanddagi «Sino» muzlatgich zavodi va elektr-kuch asboblari, universal kino va teatr ovoz texnika apparatlari ishlab chiqaradigan «Kinap» zavodida yo'lga qo'yilgan.

15.6. Kimyo sanoati

Kimyo sanoati mamlakat og'ir sanoatining muhim tarmoqlaridan biridir. Bir tomondan, respublikada neft, gaz, ko'mir sanoatining muntazam o'sib borishi (binobarin, kimyoviy xom ashyo miqyosi va geografiyasining kengayishi), ikkinchi tomondan, xalq xo'jaligining mineral o'g'itlar, har xil ximikatlar, plastik massalar, sun'iy tola, sintetik kauchuk, lok-

bo'yoq, kislota va ishqorlarga ehtiyoji ortib borishi mazkur sanoat tarmog'ini rivojlantirishga ob'yektiv shart-sharoit yaratgan.

Mamlakat kimyo sanoati shuning uchun ham tabiiy ravishda tez rivojlanib bormoqda. U ayniqsa, yoqilg'i-energetika sanoatining xom ashyosi mo'l bo'lgan regionlarida tez rivojlanmoqda.

Mamlakat kimyo sanoatida 750 dan ortiq nomda mahsulot ishlab chiqariladi, tabiiy gaz, neft, ko'mir, oltingugurt, ozokerit, turli minerallar, ohaktosh, grafit, shuningdek rangli metallurgiya va paxta-kanopni qayta ishlash chiqitlaridan xom ashyo tarzida foydalaniladi. Respublikamizda osh va kaliy tuzlari, fosforit va soda xom ashyolari, magniy, natriy zahiralari nihoyatda katta. Ularning yirik konlari Tubagatan, Baybichakan, Oqpat, Xo'jaikon, Lalmikon va boshqalardir.

Respublika kimyo sanoatining asosiy mahsuloti mineral o'g'itlardir. Qishlok xo'jaligi uchun o'ta zarur bo'lgan ammofos, ammiak selitrasi, ammoniy sul'fat, superfosfat, karbamid, suyultirilgan ammiak, shuningdek, murakkab azotli va fosforli o'g'itlar Chirchiq elektr-kimyo kombinatida, Farg'ona azotli o'g'itlar va Samarqand kimyo zavodlarida, Navoiy kimyo hamda Olmaliq «Ammofos» birlashmalarida ishlab chiqariladi.

Respublika kimyo sanoati korxonalari bir yilda 2,8 mln. t. azotli, 1,2-1,3 mln. t. fosforli o'g'itlar ishlab chiqarish quvvatiga ega. Mamlakat o'zining mineral ug'itlarga bo'lgan ehtiyojini to'la qondiradi va ma'lum qism (o'rtacha yiliga 26-30 mln. AQSH dollariga teng miqdorda) o'g'itni chetga eksport qiladi. Biroq, O'zbekistonda kaliyli o'g'it ishlab chiqarilmaydi. Shuning uchun Qashqadaryo viloyatidagi kaliy tuzlari negizida Tubagatan kaliy zavodi qurilmoqda.

Kimyo sanoatining gidroliz korxonalari etil spirti, furfurol, ozuqa achitqilari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Andijon gidroliz zavodi, Farg'ona furan birlashmasi, Yangiyo'l biokimyo zavodlari shunday korxonalardir.

Respublikada rezina mahsulotlari ishlab chiqarish Angrendagi «O'zbekrezinatexnika» birlashmasi, plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarish Ohangaron «San-texlit», Jizzax plastmassa quvurlari zavodi, Toshkent «Rangli lak» firmasi, Olmaliq va Namangan kimyo zavodlarida amalga oshiriladi. «O'zbekrezinatexnika» birlashmasi 1992 yildan avtomobil shinalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirildi. U 1996 yilda yengil avtomobillar uchun 1,5 million dona, yuk avtomobillari uchun 200 ming dona shina ishlab chiqaradigan quvvatlarni ishga tushirdi.

Organik sintez kimyosi ham respublika kimyo sanoatining endi rivojlanib kelayotgan tarmoqlaridan biridir. Uning rivojlanishiga gaz sanoatidagi o'sish ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda-Hozirgi vaqtda bu sohannng yirik korxonasi Navoiy kimyo kombinatidir. Uning tarkibida asetilen, sirka kislotasi, asetil-sellyuloza, nitron tola ishlab chiqaradigan quvvatlar yaratilgan. Farg'ona va Namangan kimyo zavodlarida asetat ipak, viskoz ipak ishlab chiqarilmoqda. Bu sun'iy tolalardan gazlama, gilam, trikotaj ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Kimyo sanoatining mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlari lok-bo'yoq va maishiy kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Toshkentdagi kimyo sanoati korxonalari lok-bo'yoq Olmaliq kimyo kombi-nati turli xil kir yuvish vositalari ishlab chiqaradi.

O'zbekiston kimyo sanoati korxona va birlashmalarida Xitoy, AQSH, Yaponiya, Germaniya va Italiya firmalari bilan hamkorlikda mahalliy xom ashyolardan yangi-yangi

mahsulotlar ishlab chiqarish, sanoat chiqindilarini qayta ishlashni avtomatlashtirish, kimyo sanoatining eksport imkoniyatini kengaytirish, qo'shma korxonalar qurish sohasida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Qizilqum fosforit kombinati (quvvati 210 mln. tonnalik), Qo'ng'irot kaustik soda zavodi, Tubatagan kaliy o'g'itlar zavodi hamda ko'pgina qo'shma korxonalar jadal sur'atlar bilan qurilmoqda.

15.7. Qurilish materiallari sanoati

Mamlakatimiz ko'p tarmoqli qurilish materiallari sanoatiga ega. Bu sanoatning xom ashyo resurslari respublikamizning barcha mintaqalarida juda ko'p miqdorda uchraydi. Nometall xom ashyolardan dala shpati, asbest, glauokonit, vollastant, grafit, talk, abrazivlar, gips, sement xom ashyosi, kvars qumlari, betonit gili, g'isht xom ashyosi ko'p. Jumladan, vollastanitning 50 ga yaqin, grafitning 15 dan ortiq, marmarning 20, grafitning 30 dan ortiq konlari topilgan.

Qimmatbaho va ishlov beriladigan toshlardan topaz, feruza, tog', xrustalli, yashma, ametisit, xalsedon, nefrit, lazurit, radonit, amazonit, agalmotanitlarning ham yirik-yirik zahiralari mavjud.

Mustaqillik yillarida qurilish materiallari sanoati ham deyarli qayta qurildi, zamonaviy uskunalar, yangi texnologiya asosida jihozlantirildi. Juda ko'p qo'shma korxonalar paydo bo'ldi. Natijada ko'p miqdorda va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi tez o'sib bormoqda.

1998 yilda tarmoq korxonalarida 3286 ming. t. sement, 718 mln. dona shartli g'isht, 325,7 mln. shartli taxta asbosement shiferlari, 7623 ming m^2 deraza oynalari, 854,6, ming m^2 lenolium ishlab chiqarildi.

Qurilish materiallari sanoati o'z ishlab chiqarish xususiyatiga qarab bir qator tarmoqlarga bo'linadi.

Sement sanoati. Mamlakatning Bekobod (1927), Quvasoy (1932), Ohangaron (1947), Navoiy (1977) kabi yirik sanoat korxonalarida sement, tekis va to'lqinsimon shiferlar, asbosement quvurlar, mineral paxta (vata) va undan tayyorlangan buyumlar, sementqum cherepisalari va qurilish sanoatining boshqa mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Toshtaroshlik (toshga sayqal berish) ham qurilish materiallari sanoatida alohida ahamiyat kashf qiladi. Bir tomoni tog'lar bilan tutashib ketgan aksariyat viloyatlarimiz hududlarida toshtaroshlik yaxshi rivojlangan. Sanoatning mazkur turi, ayniqsa, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo, Toshkent, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog'istonda rivojlangan.

Qoplama toshlar zahiralarining ko'pligi va xilma-xilligi, tosh jozibadorligi bo'yicha O'zbekiston ko'pgina MDH davlatlaridan oldinda turadi. Respublikada 30 dan ortiq marmar, granit, travertin (g'ovak ohak-tosh), tuf (g'ovak tog' jinsi) va boshqa tog' jinsi konlari topilgan. Mamlakatimiz tabiiy toshlari zavod va kombinatlarda sayqal berilishi bilan ishlab chiqarishga jo'natiladi. Respublikamizning ko'pgina shaharlarida, shuningdek, Moskva va Kiyev, Novosibirsk va Bokuda, Bishkek va Dushanba shaharlarida qurilgan arxitektura inshootlarida, metro stansiyalarida G'ozg'on va Nurota marmari, Langar, Sevasoy, Chorkesar graniti, Chust travertini ishlatilgan. 1970 yilda ishga tushgan G'azalkent toshga ishlov berish kombinati (yillik quvvati 150 ming m^2 tosh plita), 1976-95 yilda tashkil etilgan Toshkent toshga ishlov berish kombinati (quvvati 88 ming m^2), Nukus granit-marmar zavodi (70 ming m^2); «Qashqadaryomarmar» (quvvati 25 ming m2)

«Samarqandmarmar» (quvvati 22 ming m^2) birlashmalari va Surxondaryoda «Konpurtepa» granit kombinati shu tarmoqning yirik korxonalaridir.

Devorbop materiallar, ya'ni pishiq g'isht ishlab chiqarish o'nlab yirik zavodlarda amalga oshiriladi. So'nggi yillarda, ayniqsa, chet el texnologiyasiga asoslangan xususiy g'isht zavodlari ko'plab qurilgan. Keramika mahsulotlari Toshkent va Angrendagi yirik kombinatlarda ishlab chiqariladi. Shisha oyna ishlab chiqarishga chuqur ixtisoslashgan sanoat korxonalari «Quvasoyshisha» birlashmasi va G'azalkent shisha oyna zavodidir.

Yog'ochsozlik sanoati ham qurilish industriyasining tarkibiy qismi bo'lib, uning sanoat korxonalari yog'ochsozlik yoki duradgorlik, uysozlik, asbobsozlik, aravasozlik, egarsozlik, sandiqsozlik, panjarasozlik, o'ymakorlik singari juda ko'p tarmoqlardan tarkib topgan.

15.8. Yengil sanoat

O'zbekiston iqtisodiyotida yengil sanoatning ulushi alohida va ko'p qirralidir. Qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlaydigan yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari respublika agrosanoat majmui (ASM)ning tarkibiy qismidir.

Mamlakat yengil sanoati ko'p tarmoqli industrial majmui bo'lib, uning tarkibida paxta tozalash zavodlari, to'qimachilik korxonalari, trikotaj va shoyi to'qish, tikuvchilik va ko'n-poyabzal, gilamchilik, chinni-fayans buyumlari va boshqa maxsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar bor.

Respublika yengil sanoati tarmoqlari yiliga 456 mln. m2 ip gazlama, 474 ming m^2 jun gazlama, 47 mln. m^2 shoyi gazlama, 32,1 mln. dona trikotaj mahsulotlari, 64,5 mln. juft paypoq, 5,5

mln. juft poyabzal, 2 mln. m^2 gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarmoqda.

Paxta tozalash sanoati. U yengil sanoat tarmoqlari orasida yetakchi o'rinda turadi. Respublikaning yirik shaharlarida, barcha viloyatlarida va aksariyat tumanlarida zamonaviy texnologiyaga ega bo'lgan paxta tozalash sanoati (birinchi navbatda paxta tozalash zavodlari) mavjud.

Respublika paxta tozalash sanoati yagona boshqaruvda ishlaydigan paxta tayyorlash punktlari, quritish-tozalash sexlari, transport xo'jaliklari, paxta tozalash zavodlarini o'z ichiga oladi. Tarkibida 119 ta paxta tozalash zavodi, 560 ta paxta punkti faoliyat ko'rsatmoqda (1997). Paxtadan tola chiqishi o'rtacha 31-32 foizni tashkil qiladi. Tolasi ajratib olingan texnik chigit yog'-moy kombinatlarida qayta ishlanadi. Mamlakatda yiliga 1,2 mln. tonnadan ko'p tola va 200 ming tonnadan ortiq urug'lik chigit tayyorlanadi.

O'zbekiston mustaqillik yillarida paxta maydonlarini yarim million gektarga kamaytirdi. Bu narsa paxta sanoati faoliyatiga ta'sir ko'rsatdi. Mustamlakachilik yillarida O'zbekistonda qayta ishlangan paxta tolasining 92-95 foizi Rossiya, Ukrainaga jo'natilar edi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston paxta tolasi 40ga yaqin xorijiy mamlakatlarga, jumladan, Buyuk Britaniya, Belgiya, Janubiy Koreya, Shvesariya, AQSH, Turkiya va boshqa mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

To'qimachilik sanoati. U ip va ip gazlama, ipak (shoyi) gazlama, jun gazlama ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. O'zbekistonda to'qimachilikning tarkib topishi va rivojlanishi uzoq tarixga borib taqaladi. Biroq, O'zbekiston to'qimachilik sanoati yaqin o'tmishda yaxshi rivojlantirilmadi. Bu sanoat uchun asosiy xom ashyo bo'lgan paxta tolasining g'oyat katta qismi o'zga rayonlarga tashib ketildi.

Respublika to'qimachilik sanoatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri raqobatbardosh gazlama ishlab chiqarishni ko'paytirishdan iborat. Shu maqsadda deyarli barcha viloyatlarda zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlangan o'nlarcha yirik to'qimachilik korxonalari qurildi, ayniqsa, AQSH, Italiya, Turkiya, Pokiston, Hindis-ton, Koreya firmalari bilan hamkorlikda ip gazlama ishlab chiqaradigan yangi qo'shma korxonalar qurildi. Jumladan, «Supertekstil» paxta ip-yigiruv O'zbekiston-AQSH qo'shma korxonasi (Toshkent, 1993), ipak gilamlar ishlab chiqaradigan «Afg'on - Buxoro - Samarqand» qo'shma korxonalari (Samarqand, Buxoro, 1993) va Turkiyaning «Yazeks» kor-porasiyasi bilan hamkorlikda Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanida «Panfen» qo'shma korxonasining ip yigirish fabrikasi, To'ytepa, Toshkent (Ko'kcha) fabrikalari qurilishi hamda eskilarini ta'mirlash, jihozlash, to'qimachilik sanoatining istiqbolini ochib bermoqda. Ammo, to'qimachilik sanoatida yuz berayotgan katta o'zgarishlarga qaramasdan respublikada ishlab chiqarilayotgan paxta tolasining kam qismi mamlakatimiz sanoat korxonalarida qayta ishlanmoqda. Yaqin kelajakda esa respublikada yetishtiriladigan paxta tolasining teng yarmini qayta ishlashga erishish vazifasi qo'yilmoqda. Buning uchun mamlakatimizning barcha paxta yetishtiradigan hududlarida turli quvvatga ega bo'lgan to'qimachilik korxonalari qurilishi rejalashtirilgan.

Respublika ipakchilik sanoatida tabiiy ipak, kimyoviy va aralash iplardan mahsulot ishlab chiqariladi. O'zbekistonda sanoatning bu turi qadimdan Marg'ilon, Namangan, Qo'qon, Buxoro, Samarqand shaharlarida shoyi gazlamalar ishlab chiqarish bilan mashxur bo'lgan. Shoyi gazlama va zarli kiyimlar ishlab chiqarishda katta tajribaga ega bo'lgan o'zbek xalqi o'z

udumlarini asrlar osha davom ettirib va takomillashtirib kelmoqda.

Respublikamizda dastlabki pillakashlik fabrikalari 1926-1932 yillarda Samarqand, Buxoro va Marg'ilonda qurilgan. 1937 yilda sun'iy ipak gazlamalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Hozirgi vaqtda esa ushbu sohada Marg'ilon (1926), Farg'ona (1926), Samarqand (1927), Buxoro (1927), Toshkent (1959), Namangan (1966), Urganch (1975), Shahrisabz (1976) va Buloqboshi (1989) pillakashlik fabrikalari va ularning 12 ta filiali ishlab turibdi.

Respublikada shoyi to'qish sohasida Marg'ilon shoyi to'qish kombinati (1928), Marg'ilon «Atlas» (1925) va Namangan (1966) shoyi ishlab chiqarish birlashmalari, Namangan abrli gazlamalar kombinata (1925), Samarqand shoyi ishlab chiqarish birlashmasi (1934), Qo'qon shoyi to'qish fabrikasi (1926), Sho'rchi va Boysun shoyi to'qish fabrikalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakat shoyi va atlas to'qish sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan krepdeshin, krepshifon, krep-jorjet, atlas, xonatlas, beqasam, shoyi, sun'iy iplardan to'qilgan abrli gazlamalar xalqimiz ehtiyojini qondirib kelmoqda va xorijga eksport qilinmoqda.

Mamlakat to'qimachilik sanoati majmuida trikotaj buyumlari ishlab chiqarish hamda tikuvchilik ham taraqqiy etmoqda. Sanoatning mazkur tarmoqlariga ixtisoslashgan yirik korxona (fabrika va kombinat)lar Toshkent, Samarqand, Andijon va boshqa o'nlab shaharlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur korxonalarda chiroyli kiyim-kechaklar bilan birga qo'lda tikilgan chopon, ko'rpa-to'shak, gulko'rpa, zarbof to'n, choyshab, so'zana, kashta kabi buyumlar yuksak milliy san'at mahsuli darajasida ishlab chiqarilmoqda.

Kun-poyabzal ishlab chiqarishning geografiyasi katta. Uning yirik korxonalari ko'pchilik viloyat markazlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ayniqsa, Toshkentdagi ikkita (1927, 1935), Buxoro, Samarqand, Andijon, Qo'qon, Chirchiq va Namangandagi poyabzal fabrikalari mashhurdir. Ularda hayvonlar terisidan yumshoq va qattik charm, tabiiy va sun'iy charmdan turli poyabzal (tufli, botinka, etik, sandal, shippak, piyma, kalish va b.), shuningdek, telpak, ot-ulov asboblari, attorlik buyumlari ishlab chiqariladi. Poyabzal ishlab chiqarishni takomillashtirish sohasida xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Masalan, 1995 yildan «Farg'onapoyabzal» aksiyadorlik jamiyati Germaniyaning «Salamander» firmasi bilan hamkorlikda «O'zsalamander» qo'shma korxonasi barpo etilib, eksportbop mahsulot chiqara boshladi. Ushbu korxonaning yilliga 8 turdagi 500 ming juft erkaklar poyabzali ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Toshkent ko'n-mo'yna zavodida ayollar va bolalar uchun mo'ynali palto, bosh kiyimlar, astari muyna, avrasi gazlama bo'lgan buyumlar ishlab chiqariladi. Buxoro - Qorako'l zavodida Qorako'l terilariga ishlov beriladi.

O'zbekiston yengil sanoatida chinni idishlar tayyorlash ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. ayniqsa, Toshkent, Samarqand, Kuvasoy chinni zavodlarida chevar qo'llar orqali tayyorlangan (gullangan) kosa, piyola, choynak, laganlarning dovrug'i yetti iqlimga ketgan. Masalan, Toshkent chinni zavodida ishlab chiqarilayotgan «Oq oltin», «Tong» va Samarqand chinni zavodida ishlab chiqariladigan «Uzum» va boshqa chinni idish to'plamlari xalqaro yarmarka va ko'rgazmalarda faxrli o'rinlarni egallagan.

Respublikada kanop tolasidan turli xil mahsulotlar ishlab chiqariladi. Uning Toshkent va Yangiyo'lda, Jumabozor va

Ketmontepada, Yangihayot va Qo'rg'onchada, Quyi Chirchiq va Yuqori Chirchiqda yirik sanoat korxonalari ishga tushirilgan. Kanop tolasidan brezent, poyandozlar, noto'qima matolar, qop-o'rov gazlamasi, arqon, kabel ipi va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Respublika yengil sanoatining yana bitta muhim tarmog'i mebel ishlab chiqarishdir. Uning geografiyasi keng. Ayniqsa, Toshkent, Samarqand, Namangan, Andijon, Sho'rchi, Qo'qon shaharlarida faoliyat ko'rsatayottan mebel ishlab chiqarish fabrikalari assortimentining ko'pligi, mahsulotining yuqori sifati bilan ajralib turadi.

Mamlakatda «O'zbekmebel» davlat aksiyadorlik birlashmasi tuzilgan. Uning tarkibida 36 ta mebel ishlab chiqarish birlashma korxonalari («Yangiyo'l» shirkati, 13 ta mebel fabrikasi, 9 ta mebel birlashmasi, mebel ko'zgusi korxonasi, yog'och kesish stanokla-ri zavodi va boshqalar) bor.

Mamlakatdagi xorijiy texnologiyani qo'llab va zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan mebelchilik korxonalarida mehmonxona, oshxona, kabinet, yotoqxona, o'rta maktab va oliy maktablar uchun mebellar ishlab chiqariladi. Milliy mebel (xontaxta, sandiq, kursi, jovon) namunalarini, hashamatli mebellar yig'malarini ishlab chiqarish miqyosi esa tobora kengayib bormoqda.

Respublika mahalliy sanoatida metallga ishlov berish, yog'ochni qayta ishlash, xalq hunarmandchiligining zardo'zlik, tikuvchilik, to'quvchilik, pichoqchilik, badiiy kashtachilik, do'ppichilik, o'ymakorlik, misgarlik, zargarlik, kulollik, milliy cholg'u asboblari yasash, kosibchilik, milliy kashtachilik, gilamchilik va boshqa tarmoqlari rivojlangan. O'zbekistonning milliy mustaqilligi mahalliy sanoat va ayniqsa, milliy

hunarmandchilikni rivojlantirishning keng istiqbollarini ochib berdi.

15.9. Oziq-ovqat sanoati

Qishloq xo'jaligi rivojlangan O'zbekistonda sanoatning bu turi qadimdan shakllangan va rivojlanish bosqichini davrlararo o'tagan. Dastlab suv tegirmonlarida un, objuvozlarda guruch, juvozlarda o'simlik moyi, novvoyxonalarda nonlar tayyorlangan, qandolatchilar turli xil shirinlik (novvot, qurspechak)lar, uzumdan musallas, tariqdan bo'za va boshqa sharbatli va suyuq ichimliklar tayyorlaganlar.

Bugun O'zbekiston xalq xo'jaligida oziq-ovqat sano-atining ulushi katta va salohiyati o'zgacha. Sanoatning mazkur turi asosan mahalliy (qishloq xo'jaligi) xom ashyoga tayanadi. Respublika yalpi sanoat mahsulotining salkam 10 foizi oziq-ovqat sanoati hissasiga to'g'ri keladi. Tarmoq ko'p xil. Unda sut va go'sht, yog'-moy va baliq mahsulotlari, un va un mahsulotlari, meva-sabzavot va konservalar, uzum va meva materiallari, spirt, aroq, pivo, tamaki, chanqovbosar ichimliklar va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'nalishdari yo'lga qo'yilgan.

Oziq-ovqat sanoatining yetakchi tarmog'i go'sht ishlab chiqarishdir. O'tmishda mahalliy aholi ot go'shtidan qazi, qoramol go'shtidan uzoq saqlanadigan, quritilgan va qovurilgan go'sht mahsulotlari tayyorlashgan. 1932 yilga kelib go'sht sanoati respublika xalq xo'jaligi rejasiga alohida sanoat tarmog'i tarzida kiritilgan.

Endilikda respublikaning barcha viloyat markazlari va yirik shaharlarida go'sht kombnnatlari ishlab turibdi. «O'zgo'shtsutsanoat» uyushmasi tarkibida 23 ta yirik go'sht

kombinata, go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan 45 ta xo'jalik, viloyat tumanlarida esa bo'rdoqchilik yo'nalishidagi 100 dan ortiq o'rta va kichik korxonalar bor.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning turli geografik rayonlarida jamoa, davlat, shirkat va fermer xo'jaliklari va tadbirkorlar tomonidan zamonaviy texnologiya bilan jihozlangan go'sht mahsulotlari va turli kolbasalar ishlab chiqaradigan ko'pgina kombinatlar qurildi. Jumladan, birgina «O'zbekbirlashuv» tarkibida kolbasa mahsuloti ishlab chiqaradigan 34 ta sex barpo qilindi. Respublika go'sht sanoatida Germaniya va Turkiya firmalari bilan hamkorlikda yarim tayyor go'sht (ya'ni, go'shtni pishirishga qiymalangan holda tayyorlangan) mahsulotlari ishlab chiqarish, go'shtni qadoqlash, ichak mahsulotlari tayyorlash va ularni o'rab, iste'molga chiqarish ishlari yo'lga qo'yilan.

Sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish ham oziq-ovqat sanoatining tarkibiy qismidir. Sanoatning ushbu turida sut-qatiq, sariyog', sut konservalari, quruq sut, pishloq, brinza, qaymoq, muzqaymoq, ayron, suzma, qag'anoq, qurt kabi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

O'zbekistonda sut va sut mahsulotlari ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari juda ko'p. 1995 yilda tashkil qilingan birgina «O'zgo'shtsutsanoat» uyushmasi tarkibida 37 ta sut korxonasi, 118 ta sut qabul qilish punkti faoliyat ko'rsatmoqda.

Oziq-ovqat sanoatining yana bir tarmog'i - yog'-moy ishlab chiqarishdir. Sanoatning bu tarmog'ida paxta moyi ishlab chiqarish yetakchilik qiladi. Respublikada yiliga umumiy quvvati 3 mln. tonna moyli o'simlik urug'larini qayta ishlaydigan 20 dan ortiq korxona ishlab turibdi. Ularda asosan g'o'za urug'i, soya, raps, meva danaklari urug'laridan moy

ishlab chiqariladi. O'simlik moyi ishlab chiqarishda yiliga 2,1 mln. t. atrofida chigit ishlatiladi.

Respublika yog'-moy sanoati oziq-ovqat sanoati yalpi mahsulotining 40 foizini beradi. Eng yirik yog' ekstraksiya zavodlari Guliston, Kosonsoy, Farg'ona, Qo'qon, Kattako'rgon, Denov, Urganchdir.

Tarmoq korxonalarida texnologik jarayonlarni takomillashtirish va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, xorijiy firmalar bilan hamkorlikda qo'shimcha quvvatlarni ishga tushirish ishlari jadal olib borilmoqda. Korxonalarni texnikaviy jihatdan qayta jihozlashda Krupp, Sket (Germaniya), «Alfa-Laval» (Shvesiya), «Jon Braun», «Karver», «Kraun» (AQSH), «Massoni», «Bollistra» (Italiya), Rossiya, Ukraina, Polsha firmalari bilan hamkorlikda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakat oziq-ovqat sanoatida elevator sanoatining ham hissasi oshib bormoqda. Bu mamlakat aholisining un va un mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish bilan bog'liq jarayon taqozosidir.

Yetishtirilgan donni faqat elevator xo'jaliklarida yaxshi saqlash mumkin. Shuning uchun ham mazkur sanoat tarmog'ini kengaytirish mamlakat oziq-ovqat sanoati xodimlarining galdagi eng muhim vazifalaridan biriga aylangan. 1965 yilda respublikada umumiy sig'imi 674 ming t. bo'lgan 5 ta elevator va 226 ta g'alla ombori bo'lgan bo'lsa, endilikda elevatorlarning sig'imi bir necha marta oshgan.

Endilikda mamlakatda 45 ta elevator bor va ularning umumiy g'alla sig'imi 4,5 mln. tonna. Har yili yetishtiriladigan g'allaning o'rtacha 65 foizi elevatorlarda saqlanadi. Qayta jihozlangan va yangidan qurilgan elevatorlar avtomatik dispetcherlik boshqaruvi tizimlari, g'alla haroratini avtomatik

tarzda masofadan turib o'lchaydigan qurilmalar bilan jihozlangan. Mamlakatimiz aholisining ehtiyojini qondirish maqsadida uning oziq-ovqat sanoati yildan-yilga ko'p mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlamoqda. Mamlakat oziq-ovqat sanoat korxonalarida 142,6 ming t. go'sht va go'sht mahsulotlari, 213,4 ming t. sut va sut mahsulotlari, 2,8 - 3 ming t. hayvon va 276 ming t. o'simlik yog'i, 54,2 ming t. makaron mahsulotlari, 542,2 ming t non va non mahsulotdari ishlab chiqarilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda uning alohida o'rni bor. «O'zdonmahsulot» konserniga qarashli Farg'ona, Quva, Yangiyo'l, Sho'rchi, Namangan, Samarqand, Buxoro, Kosoysoy va boshqa shaharlarda ko'p navdagi un ishlab chiqaruvchi zavodlar, kombinatlar qurilgan. Respublikada sutkasiga 120 t.dan 500 tonnagacha don tortadigan 20dan ortiq korxona qurilgan, 44 korxona texnikaviy jihatdan qayta jihozlangan. Shuning uchun ham mamlakatda un ishlab chiqarish hajmi tez o'smoqda.

Non ishlab chiqarish asosan «O'zdonmahsulot» tarkibidadir. Unga 4 ta non ishlab chiqarish birlashmasi (Toshkent, Yangiyo'l, Farg'ona, Qarshi) va 21 ta non zavodi qaraydi. «O'zbekbirlashuv» tizimida ham non ishlab chiqariladi. Bu tizimda 242 ta korxona, 3 mingga yaqin tandir (novvoyxona) va kichik korxonalar bor. Ularning har ikkisida sutkasiga 3575 tonnadan ko'proq (300 xildan ortiq) non mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Respublika oziq-ovqat sanoatida chorva mollari uchun omixta yem, sholidan turli navli guruch ishlab chiqariladi.

Guruch ishlab chiqarish xom ashyo rayonlarida yaxshi yo'lga qo'yilgan. Qoraqalpog'istonda Taxiatosh, Xo'jayli, Qonliko'l, Shumanay, Chimboy, Xorazmda Urganch, Xonqa,

Bog'ot, Surxondaryoda Muzrobod guruch zavoddari yirik korxonalardandir.

Respublikada meva va uzum, sabzavot va poliz mahsulotlaridan turli xil konservalar ishlab chiqarish keng quloch yozgan. Uning zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan sanoat korxonalarida meva kombinatlari, murabbolar, djem, sharbat, pomidor pastasi, quritilgan meva, qovun qoqi va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Endilikda mamlakat oziq-ovqat sanoatida yana bir yangi tarmoq - qand-shakar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Sanoatning bu turini rivojlantirish aholining ehtiyojini qondirishga qaratilgan bo'lib, qand ishlab chiqarish uchun xom ashyo tarzida qand lavlagi yetishtirishga kirishildi. Mamlakatimizning serquyosh iqlimiy sharoitida qand lavlagi o'simligining qandlilik darajasi yuqori bo'lishi tabiiy. Shuning uchun ham hukumat rejalashtirish tashkilotlari qand lavlagi yetishtirish miqyosini kengaytirishga alohida e'tibor bermoqda. Xorazmda, Toshkent va Samarqandda hamda boshqa viloyatlarda qand lavlagi ekish kengaytirilmoqda, ularni qayta ishlab, qand-shakar ishlab chiqarishga kirishildi.

1995-1997 yillarda Turkiya firmalari bilan hamkorlikda Xorazm viloyatining Xazorasp tumanida shakar zavodi qurildi. Zavod sutkasiga 3 ming tonna qand lavlagini qayta ishlash quvvatiga ega. Fransiyaning «FSB» firmasi Samarqand shahrida sutkasiga 6 ming tonna qand lavlagini qayta ishlaydigan zavod, shuningdek, ko'pgina viloyatlarda esa mini shakar zavodlari qurilmoqda.

Vino va mayiz ishlab chiqarish ham oziq-ovqat sanoatining alohida tarmog'i. Mazkur tarmoqda turli nav uzumlardan mayiz, uzum qiyomlari, turli nav vino, konyak, shampan vinosi, aroq va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Vinochilikka ixtisoslashgan sanoat korxonalarining katta qismi «O'zmevasabzavotizimsanoat» uyushmasiga qaraydi.

Mamlakatdagi vino va aroq ishlab chiqarishga ix-tisoslashgan sanoat korxonalarining yillik ishlab chiqarish quvvati 25 mln. dG'l ga teng. Tarmoqda 16 ta yirik korxona bor. Vino mahsulotlari tayyorlash va quyish bilan 60 ga yaqin korxona shug'ullanadi. Jumladan, sohaga ixtisoslashgan «Toshkentvino» kombinati, Toshkent shampan vinolari zavodi, Samarqand vino va Samarqand - «Zarafshon» vino kombinatlari, Yangiyo'l, Qo'qon, Buxoro, Shahrisabz, Denov va boshqa shaharlarda yirik korxonalar bor.

Vino sanoati korxonalarida tayyorlanayotgan oq, qizil, desert vinolar («O'zbekiston», «Vassarga», «Buvaki», «Yumalok» va h. k.) dunyoning xalqaro ko'razmalarida 100 dan ortiq oltin, kumush va bronza medallari bilan taqdirlangan.

Respublikada pivo va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish ham keng rivojlantirilgan. Sanoatni ushbu tarmog'ida yiliga 17,7 mln. dal. pivo, 20 dal. chanqovbosti ichimliklar, 380 mln. shisha mineral suv ishlab chiqariladi.

Respublika osh tuzi yaqin vaqtlargacha o'zga regionlardan keltirar edi. 1991 yildan boshlab mamlakatning osh tuziga bo'lgan ehtiyoji mahalliy xom ashyo hisobiga qondirilmoqda. Qoraqalpog'istonning Qo'ng'irot tumanida yiliga 100 ming t., Surxondaryoning Sherobod tumani (Xo'jaikon)da yiliga 150-200 ming t. osh tuzi qazib olinmoqda va aholi keng iste'moliga chiqarilmoqda.

Samarqandda choy qadoqlash fabrikasida Hindiston, Xitoy, Gurjiston, Turkiya, Indoneziyadan keltirilgan choylarga ishlov berilmoqda va qadoqlanmoqda. Korxona chet el dastgohlari bilan jihozlangan bo'lib, yiliga 11-12 ming t. choy qadoqlaydi.

Shunday qilib mustaqillik yillarida mamlakatimiz sanoati jadal rivojlanmoqda, tarmoqlari ko'paymoqda. Ammo uning hududiy joylanishida hali ham tafovutlar katta. Respublikamiz sanoatida Farg'ona (13,0 foiz), Toshkent (11,8 foiz), Andijon (9,8 foiz) viloyatlarining salmog'i yuqori bo'lgani holda Sirdaryo (1,2 foiz), Jizzax (1,1 foiz), Qoraqolpog'iston Respublikasi (2,2 foiz) va Surxondaryo (2,4 foiz) viloyatlarida bu ko'rsatkich juda past. Yaqin kelajakda barcha viloyatlarning sanoat rivojlanish imkoniyatlarini to'la ishga solish, samaradorligini oshirish respublika iqtisodiyotini qayta qurishning navbatdagi asosiy vazifalaridan biriga aylanmog'i lozim.

Qisqacha xulosalar

XX asrning 90-yillarigacha O'zbekistonda tog'-kon va qishloq xo'jaligiga xizmat qiladigan sanoat tarmoqlari rivojlantirildi.

Vatanimizda yoqilg'i sanoati ko'mir, neft va gaz tarmoqlaridan iborat. Ko'mir sanoati Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida, neft sanoati asosan Qashqadaryoda hamda Andijon, gaz sanoati Qashqadaryo, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida rivojlangan.

O'zbekistonda elektroenergiya IES, GESlarda ishlab chiqariladi. Elektroenergiyaning asosiy qismi IESlarda ishlab chiqariladi.

O'zbekistonda rangli metallurgiya sanoati yaxshi rivojlangan. Uning asosiy markazlari Olmaliq, Chirchiq va boshqa shaharlar hisoblanadi. O'zbekiston oltin qazib olish bo'yicha jahonda 4-o'rinda, uning zahirasi bo'yicha 7-o'rinda turadi. Qora metallurgiya sanoati Toshkent viloyatining Bekobod shahrida mavjud. Kimyo sanoati asosan mineral

o'g'itlar va kislotalar ishlab chiqaradi. Yirik markazlari Chirchiq, Farg'ona, Samarqand, Navoiy shaharlarida joylashgan.

Mashinasozlikning ilgaridan qishloq xo'jaligi uchun mashinalar va uskunalar ishlab chiqariladigan tarmog'i rivojlangan. 1996 yildan boshlab avtomobillar zavodi ishga tushishi munosabati bilan yengil avtomobillar ishlab chiqarila boshlandi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. XX asr boshlarida O'zbekistonda sanoatning qaysi tarmoqlari rivojlangan edi?
2. Sobiq ittifoq davrida mamlakatimizda sanoatning qaysi tarmoqlari yaxshi rivojlandi?
3. O'zbekistonda avtomobil zavodlari qaysi viloyatlarda qurildi?
4. O'zbekistonda yirik kimyo zavodlari ro'yxatini tuzing.
5. O'zbekistonda qanday qurilish materiallari ishlab chiqariladi?

6. O'zbekiston sanoat tarmoqlarining joylanish xususiyatlarini tushuntirib bering.

XVI mavzu. QISHLOQ XO'JALIGI GEOGRAFIYASI

16.1. Qishloq xo'jaligining respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish va xalq farovonligini yaxshilash ko'p jihatdan qishloq xo'jaligining rivojlanish holati samaradorligiga bog'liq. Respublika aholisining 60 foizidan ortig'i qishloq joylarda yashaydi, sanoat salohiyatining deyarli yarmi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan band. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishdan davlat valyutasining 50 foizi vujudga keladi.

Ma'lumki, yer va suv resurslari agrar sektorning asosiy ishlab chiqarish vositalari hisoblanadi. O'zbekistonda yerlarning 72 foizi qishloq xo'jaligida turli yunalishda foydalaniladi hamda respublika suv limitining 86 foizi agrar sektorda ishlatiladi.

Vatanimiz yer yuzasida sug'oriladigan dehqonchilik hamda chorvachilikning eng qadimiy regionlaridan. Uning qulay tabiiy sharoitiga muvofiq tarzda xalqimizning mehnat ko'nikmasi tufayli O'zbekiston paxta, pilla, qorako'l terisi, mayiz, qovun va boshqa maxsulotlar yetishtirish bilan jahonga dong taratgan.

Yaqin o'tmishda mamlakat qishloq xo'jaligi bir tomonlama rivojlantirilgan , «O'zbekiston-mamlakatning asosiy paxta bazasi» shiori amalda edi. Yerlarning teng yarmi sho'rlanib ketganligi, agrotexnika tadbirlarining buzilganligi,aholini don va go'sht mahsulotlari bilan ta'minlashdagi qiyinchiliklar paxta yakka-hokimligining asorati edi. Shuning uchun ham bozor munosabatlariga o'tishning

birinchi bosqichida qishloq xo'jaligini isloh qilish nihoyatda murakkab kechdi.

Mamlakat mustaqilligining dastlabki yilidanoq, paxta yakka- xokimligini bartaraf etishga kirishildi va «g'alla mustaqilligi»ni ta'minlash maqsadida dastur ishlab chiqildi.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni o'tkazish va bozor munosabatlarini shakllantirish bilan bog'liq muhim huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi, tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlar ishlab chiqildi. Bu borada mamlakat qishloq xo'jaligini tubdan isloh qilish bilan bog'liq o'nlarcha qonunlar qabul qilindi. Jumladan, «Yer to'g'risida» (1990), «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. to'g'risida» (1991), «Dehqon xo'jaligi to'g'risida» (1992), «Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida» (1992), «Yer solig'i to'g'risida» (1993), «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida» (1995) va boshqa qonunlar shular jumlasidandir.

Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida 1996 yil 1 noyabrda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jalik vazirligi hamda Meliorasiya va suv xo'jaligi vazirligi negizida O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tashkil qilindi. Ayrim sohalarni chuqur ixtisoslashtirishga ko'ra, qishloq xo'jaligidagi bir qator korxonalar «O'zmevasabzavotizimsanoat», «Qorako'l», «Pilla», «O'zparrandasanoat», «Asal» kabi uyushma va respublika ishlab chiqarish birlashmalariga qaratildi.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha Respublika Prezidentining 1998 yil 18 martdagi farmoniga muvofiq respublika komissiyasi tuzildi. Bu komissiya 1998-2000 yillarga mo'ljallangan qishloq

xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirish dasturini ishlab chiqdi.

Shunday qilib, O'zbekiston qishloq xo'jaligi chuqur islohotlarni boshidan kechirmoqda; qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkchilikning nodavlat shakliga o'tish, mulkni davdat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, dexkon (fermer) xo'jaliklari faoliyatini yo'lga kuyish kabi muhim masalalar hal etilmoqda. 2002 yilga kelib turli mulk shakliga ega bo'lgan 2658 ming qishloq xo'jalik korxonalari, 72,4 ming fermer xo'jaliklari tashkil etildi.

Qishloq joylarda tomorqa egalariga 600 ming gektarga yaqin unumdor yerlar ajratib berildi. Endilikda xo'jalik toifalari bo'yicha yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon xo'jaliklari 65,4 qishloq xo'jalik korxonalari 24,6 va fermer xo'jaliklari 9,9 foizni egallaydi.

Ishlab chiqarishni tashkil etish, qishloqlarda mulkdorlar sinfini vujudga keltirishning mumkin bo'lgan shakllaridan biri sifatida mulkiy paylarni joriy etish asosida qishloq xo'jalik korxonalarini paychilar jamiyatiga aylantirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining mutlaq ko'p qismi iqtisodiyotning nodavlat sektorida ishlab chiqarilmoqda (42-jadval).

40-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2001-2002 yillarda qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ishlab chiqarilishi

Mahsulot turlari	O'lchov birligi	2001 yil	2002 yil
Qishloq xo`jaligi yalpi mahsuloti, shu jumladan:	mlrd.so`m	2104,8	3257,2

ziroatchilik mahsulotlari	mlrd.so`m	1086,0	1650,0
chorvachilik mahsulotlari	mlrd.so`m	1018,8	1607,2
Yalpi mahsulot ishlab chiqarishda davlat se ktorining ulushi	Foiz hisobida	1,4	1,3
Nodavlat se ktorining ulushi	Foiz hisobida	98,6	98,7

Nosamarador qishloq xo'jalik korxonalarini sanasiya qilish davom ettirilmoqda, ko'pgina sanasiya qilingan xo'jaliklar esa yilni foyda bilan yakunlamoqda.

Paxta yakkahokimligiga barham berilib, don va boshqa ozuqa ekinlari maydonlari kengaytirildi. 2002 yilda 1,52 mln. ga maydonga boshoqli don ekinlari ekildi. 5,5 mln. t. boshoqli don, jumladan, 4,9 mln. tonnadan ko'p bug'doy hosili yig'ib olindi.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash maqsadida yangi texnika, o'g'it, yoqilg'i va moylash materiallari yetkazib berishni yaxshilash buyicha davlat dasturi ishlab chiqilgan va u bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, chet ellardan (AQSH, Germaniya) yuqori mehnat unumdorligiga ega bo'lgan paxta teradigan, g'alla o'radigan (Keys) kombaynlari keltirildi. Ularning ayrim turlari va ehtiyot qismlarini o'zimizda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Qishloq xo'jaligi texnikasidan samarali foydalnish maqsadida tumanlarda 200 dan ortiq mashina-traktor parklari (MTP) tashkil etildi. Dasturga ko'ra,bu parklar xo'jaliklardagi mashina va mexenizmlarni keyinchalik sotib olish huquqi bilan ijaraga oladi va yerlarni ekishga tayyorlash, ekinlarga ishlov

berish va hosilni yigib-terib olishga doir ishlarni xo'jaliklar bilan kelishib bajaradi. MTPlarda qishloq xo'jalik texnikalarini ta'mirlaydigan katta quvvatlar ishga tushirilmovda.

Respublikada olib borilayotgan agrar siyosat natijasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini sug'urtalash, avanslash va to'lov munosabatlari takomillashtirilmoqda.

Yangi agrar siyosatning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi tufayli O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlarining o'sish sur'atlari barcha MDH mamlakatlaridagiga qaraganda ancha yuqoridir.

Qishloqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha muayyan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmining o'sishini ta'minlamoqda, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida sifat o'zgarishlarga olib kelmokda.

O'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlardan ko'zda tutilgan bosh maqsad qishloqda haqiqiy mulkdorlar sinfini, yer va mahsulotning haqiqiy egalarini shakllantirishdir. Qishloq joylarda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish asosiy masalalardan hisoblanadi.

Ilg'or mamlakatlar tajribasiga ko'ra, qishloq xo'jaligining yuqori darajada rivojlanishi avvalo sanoat rivoji bilan bog'liqdir. Ma'lumki, AQSH hamda Yevropaning bir qator rivojlangan mamlakatlarida aholining 4-5 foizini tashkil etadigan, zamonaviy texnika va texnologiyaga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari o'z xalqini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan to'la ta'minlash bilan birga ularning ko'pini eksportga chiqaradilar. Hozirgi vaqtda respublikamiz xalq xo'jaligida ish bilan band bo'lgan 3,8 mln. aholining salkam yarmi hamon qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qilmoqda. Kelajakda ana shu

ortiqcha mehnat resurslarini sanoatga, xizmat ko'rsatish sohalariga jalb etish iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishi bo'lib qolishi lozim.

Qishloq xo'jaligida rivojlanishning navbatdagi bosqichida ishni «yetishtirish - qayta ishlash - sotish uchlik birligi zanjirida tashkil qilish dolzarblik kasb etmoqda. Buning uchun qishloq joylarida mahsulotlarni zamonaviy texnika va texnologiya asosida qayta ishlaydigan qator sanoat korxonalar qurish va zanjirli uchlikni ishga tushirish kerak. Qishloq xo'jaligini agrosanoat inte-grasiyasi (ASI) negizida rivojlantirish qishloq xo'jalik korxonalarini qayta ishlov beruvchi sanoat korxonalari bilan bog'lab ish yuritishni taqozo qiladi. Bu qishloq xo'jaligi bilan qayta ishlovchi sa-noatning uygunlashuvini ta'minlaydi. Bu muammoni xal etish uchun katta moliyaviy resurslar talab etiladi. Nazarimizda bunday mablag'larni xorijiy mamlakatlardan, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan qarz olish yo'li bilan hal qilish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, rivojlangan mamlakatlarda ham qishloq xo'jaligi doimo davlat kreditiga muhtoj.

Shunday qilib, yangi iqtisodiy sharoitda qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri qishloq xo'jaligi mahsulotlarini zamonaviy texnologiyaga asoslangan korxonalar tizimini barpo etish orqali hal qilishdir. Turli mulk shaklidagi bunday korxonalarni barpo qilish aholi bandligi hamda qishloq xo'jalik ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlaydi.

16.2. Yer fondi

Mamlakatimizning yer fondi 44,405 ming ga, shundan qishloq xo'jalik yer turlarining umumiy maydoni 26,8 mln.ga.

Ularning katta qismi (82,8 foiz)ni Qizilqum, Ustyurt va boshqa cho'l hamda tog'oldi, tog' yaylovlari egallaydi; o'rmonzor va butazorlar 5,4 foizni, ko'p yillik daraxtzorlar 1,3 foizni, pichanzorlar 0,42 foizni, bo'z yerlar 0,3 foizni tashkil etadi (43-jadval).

43-jadval

Respublika qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yerlar va ularning taqsimoti

Yer turlari	Ming ga	Foiz
Qishloq xo`jaligi e r turlarining jami	26766,4	100
jami ekin e rlari	4061,9	15,7
shundan sug`oriladigan	3317,3	15,2
Ko`p yillik daraxtzorlar,	355,7	1,3
shu jumladan:		
a) bog`lar	171,3	0,63
b) uzumzorlar	104,4	0,4
c) tutzorlar	70,4	0,26
d) me vali ko`chatzorlar	9,6	0,04
E r turlari	Ming ga	foiz
Bo`z e rlar	77,8	0,3
Pichanzorlar	112	0,42
Yaylovlar	22159	82,8
O`rmonzorlar va butazorlar	1458,5	5,4

16.3. Dehqonchilik

Dehqonchilik O'zbekiston qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i. Dehqonchilikning qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotidagi hissasi 65-70 foizni tashkil qiladi. Mamlakat tabiiy-iqtisodiy sharoitiga ko'ra, uning turli mintaqalarida aholi azaldan sug'orma va lalmikor dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan.

Lalmikor dehqonchilik maydoni 1 mln. ga dan ko'p bo'lib, ular asosan adir zonalarda joylashgan. Bu yerlarda bug'doy, arpa, no'xat, kunjut, zig'ir, lalmi, qovun, tarvuz ekiladi, bog'dorchilik qilinadi.

Sug'oriladigan yerlar 1914 yilda 1,8 mln. ga bo'lsa, Mirzacho'l, Qarshi, Jizzax, Surxon-Sherobod cho'llarining o'zlashtirilishi, Markaziy Farg'onada yangi yerlar ochilishi natijasida 1998 yilga kelib 4,2 mln.ga dan oshdi. Cho'llarni o'zlashtirish bilan respublikada yirik-yirik irrigasiya inshootlari barpo qilindi. Natijada sug'orib, dehqonchilik qilish miqyosi muntazam ortib bordi. Lekin sug'oriladigan yerlar jami yer resurslarining atigi 9,3 foizini tashkil qiladi, ammo dehqonchilik yalpi mahsulotining 98,5 foizini beradi.

Sug'orma dehqonchilikda asosiy soha paxtachilik va g'allachilikdir. Shuningdek, sug'oriladigan zonada sabzavot, kartoshka, poliz, tamaki, kanop, xashaki ekinlar yetishtiriladi va dehqonchilikning boshqa turlari bilan shug'ullaniladi. Uzum va meva yetishtirish ham asosan sug'oriladigan zonada amalga oshiriladi.

Respublika qishloq xo'jaligida tamoman tovar ahamiyatga eta bo'lgan soha - paxtachilikdir. Uning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati juda katta asosiy valyuta resursidir. O'zbekistonning saxiy tabiati, issiq iqlimi, issiq, yer, suv va boy mehnat resurslari, xalqining asrlar davomida to'plagan tajribasi, dehqonchilik madaniyati paxtachilikning serdaromad tarmoqqa aylanishini ta'minlagan. Shuning uchun ham uning paxta yetishtirishdagi yuksak ko'rsatkichlari jahondagi katta mavqeini belgilab bergan. O'zbekiston paxta yetishtirishning barcha qirralari bo'yicha jahondagi kuchli to'qqizlik orasida beshinchi o'rinni mustahkam egallab kelmoqda.

O'zbekiston jahonda (AQSH dan keyin) paxta tolasini eksport qiladigan eng yirik mamlakat. Paxtachilik agrosanoat majmui respublika xalq xo'jaligining 70 foizdan ko'proq tarmoqlari bilan texnika va texnologik jihatdan bog'liq. Ayniqsa paxta yetishtirish va uni qayta ishlashni agrosanoat integrasiyasi (ASI) negizida rivojlantirish natijasida paxtachilik og'ir va yengil sanoatning o'nlab sohalari bilan bog'langan. Jumladan, respublikada shakllangan paxtachilik agrosanoat majmui paxtachilik uchun qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo, yengil sanoatlarni, infratuzilma tarmoqlarini va noishlab chiqarish sohalarini o'z ichiga oladi.

G'o'za issiqsevar o'simlik. G'o'za navlarining havo haroratining ijobiy va foydali ko'rsatkichlariga talabchanligi har xil. Masalan, uzun tolali g'o'za navlari mamlakatimizning barcha geografik mintaqalarida yaxshi yetilib, yaxshi hosil bersa, ingichka tolalilari faqat janubiy mintaqalarda ekiladi. Negaki, ingichka tolali navlar o'ta issiqsevar bo'lib, ayni paytda o'zida uzoq vegetasiya davrlarini ham talab qiladi.

O'zbekiston paxtachilikni izchil rivojlantirib kelayotgan davlatlar qatorida uni yoppasiga mexanizasiyalash, kimyolashtirish, g'o'zaning serhosil va ertapishar navlarini yaratishda katta dovon oshgan. Respublikaning barcha viloyatlari va Qoraqalpog'istonda paxtachilikning ilmiy asoslangan mintaqaviy dehqonchilik tizimi hamda g'o'za yetishtirishning industrial texnologiyasi ishlab chiqilgan.

O'zbekiston paxtachiligi mamlakatda mustaqillik qo'lga kiritilishi bilan o'z geografiyasini birmuncha qisqartirdi. G'o'za 1986 yilda 2091,2 ming. ga yerga ekilgan bo'lsa, 1998 yilda 1521,6 ming.ga yerga ekildi (45-jadval).

45-jadval

Respublika dehqonchilik tarmoqlarining rivojlanishi

	1993	1996	1997	2002	O'sish 2002 y.da - 1993 y.ga nisbatan, %
Ekin maydonlari, ming ge ktar					
Jami ekin maydonlari	4229,7	4007,0	4116,2	3540,8	96,3
Jumladan, g`alla ekinlari	1280,3	1740,5	1757,3	1393,7	131,6
te xnika ekinlari	1731,8	1525,1	1536,0	1462,2	90,2
paxta	1695,1	1487,3	1511,9	1421,0	89,7
kartoshka	44,5	44,3	57,4	48,9	93,7
sabzavot	151,9	131,0	129,1	127,5	86,7
poliz ekinlari	48,1	39,3	35,9	37,3	94,8
De hqonchilik mahsulotlari e tishtirish					
don (ming, t)	2142,4	3562,0	3775,6	3550,8	163,2
Shu jumladan bug`doy	876,0	2741,8	3073,0	4967,4	404,8
paxta (ming t.)	4234,5	3350,1	3645,0	3122,4	75,7
kartoshka (ming t.)	472,4	513,5	691,9	777,2	145,4
sabzavot (ming t.)	3038,7	2497,4	2384,2	2953,0	77,4
Poliz ekinlari (ming. t.)	622,3	469,7	367,6	475,4	74,7
me va (ming. t.)	560,1	604,8	547,7	818,5	137,5
uzum (ming. t.)	381	478,3	511,5	516,4	138,3

Tabiiyki, mamlakatda paxta maydonini qisqartirish sug'oriladigan zonada bug'doy yetishtirishning geografiyasini keskin ko'paytirish bilan bog'liq kechdi. O'z navbatida, paxtachilikni intensiv rivojlantirish masalasi uning yuqori hosildorligini saqlab qolish bilan bog'liq ravishda ta'minlanmoqda (46-jadval).

46-jadval

O'zbekistonda paxta yetishtirishning o'sishi

Yillar	Paxta Maydoni, ming.ga	O'rtacha hosildorligi **p|ga**	Yalpi paxta hosili, ming t.	Yalpi paxta hosilining o'sishi; 1924y.ga nisbatan, marta
1924	264,8	7,8	205,8	—
1930	883,8	8,4	744,3	3,6

1940	923,5	15,0	1385,9	6,7
1950	1098,1	20,3	2225,6	10,8
1960	1386,6	20,4	2823,5	13,7
1970	1709,2	26,3	4495,2	21,8
1980	1877,7	29,7	5578,6	27,1
1990	1830,1	27,6	5058,0	24,6
1995	1492	26,4	3934,1	19,1
1996	1487,3	22,5	3350,1	16,3
1998	1521,6	21,3	3206,2	15,6
2002	1421,0	22,0	3122,4	14,3

So'nggi yillarda paxtachilikni chuqur mexanizasiyalash va paxtani mashinalarda terishga alohida e'tibor berilmoqda. Respublika qishloq xo'jalik mashinasozligi paxtachilikka moslashtirilgan traktorlar, seyalkalar, kul'tivatorlar, paxta terish mashinalarining yangi-yangi markalarini yaratish va joriy qilishda chet el (AQSH, Germaniya, Yaponiya va b.) firmalari bilan hamkorlik qilmoqda. Paxtachilik mashinalari bo'yicha bir necha maxsus loyihalashtirish tashkilotlari va konstruktorlik byurolari faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikada paxtachilikni kimyolashtirishga ham katta e'tibor berilmoqda. Uni mineral o'g'itlar bilan oziqlantirishning ilmiy asoslangan me'yorlari chet el tajribalari asosida takomillashtirilmoqda. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, birgina mineral o'g'itning o'zi g'o'za hosildorligini 40 foizgacha oshiradi. Shuning uchun ham g'o'za maydonlarida turli xil mineral va organik o'g'itni ishlatish, gerbisid, pestisid, defoliantlarning ilmiy asoslangan me'yorlarini qo'llash rivojlanishning hozirgi bosqichida ayniqsa dolzarbdir. Chunki hozirgi vaqtda, bir tomondan, paxta maydonlari yarim million gektarga qisqargan, ikkinchi tomondan esa, uning hosildorli-gini oshirib borish evaziga yalpi hosil yetishtirishni barqaror

saqlab turish vazifasi o'rtaga tashlangan. Paxta yalpi hosili yetishtirishni barqarorlashtirish, uning hosildorligini (30-35 sentnergacha) va paxtadan tola chiqishni esa (33 foizgacha) oshirish dolzarb vazifa qilib qo'yilgan. Bunga erishishda paxtachilikni to'la mexanizasiyalash va kimyolashtirishdan tashqari «paxta-beda-g'alla», «paxta-g'alla» almashlab ekishni joriy qilishning muhimligi tan olingan.

Shu maqsadda respublika paxtachiligini rivojlantirishda yangi-yangi agrotexnika usullari keng qo'llanilmoqda. Jumladan, 1997 yilda birinchi marta 350 ming ga, 2002 yilda 850 ming ga maydonga chigit plyonka ostiga ekildi. Bu usulning afzalligi shundaki, chigit erta ekiladi va binobarin, erta hosil yetishtiriladi, hosildorlik ham oshadi. Ertagi paxtadan bo'shagan yerlar esa, takror dehqonchilik qilishga keng imkoniyat yaratadi.

Respublikada endilikda g'o'za seleksiyasi va urug'chiligi ilmiy tadqiqot institutlari, ularning viloyatlardagi filiallari, paxtachilik bo'yicha jahon miqyosida e'tirof etilgan O'zbekiston FA qoshidagi «Biolog» ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi obro'li ilmiy markazlardandir. Ushbu ilmiy muassasalar kuchi va hamkorligida g'o'za seleksiyasida yangi ilmiy yo'nalishlarga asos solingan. Shu bilan birga chet ellarda paxtachilik sohasida to'plangan texnologiyalarni vatanimizda joriy etishda ham birmuncha ishlar qilinmoqda. Jumladan, g'o'zani yangi usulda sug'orish, oziqlantirish, ishlov berish, AQSH va Isroil kabi davlatlarning paxta hosilini erta muddatlarda yig'ib olish borasidagi tajribalari mamlakatimizning turli mintaqalaridagi xo'jaliklarda sinovlardan o'tkazilmoqda, yaxshi natijalar keng ko'lamda ommalashtirilmoqda.

Donchilik. Donchilik aholini bevosita oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda birlamchi o'rin tutadi. Uning

aholi ehtiyojini qondirishdagi hamda chorvachilikning yem-xashak bazasini mustahkamlashdagi ahamiyatini inobatga olgan O'zbekiston xuqumati mustaqillikning dastlabki yilidanok «Don mustaqilligini ta'minlash» shiorini o'rtaga tashladi.

Endilikda mamlakat dehqonchiligida donchilik o'zining ishlab chiqarish miqyosini sug'oriladigan yerlarda kengaytirmoqda, don yetishtirish agrotexnikasini qayta tiklamoqda, bug'doyning yangi-yangi serhosil navlarini yaratmoqda.

Respublika donchiligi ko'p xil ekinlar turini o'z ichiga oladi. Don olish uchun bug'doy, arpa, javdar, sholi, suli, makkajo'xori, oq jo'xori, tariq, dukkakli don ekinlari - no'xat, mosh, loviya, yeryong'oq, moyli don ekinlari - zig'ir, kunjut, soya, yeryong'oq, kanakunjut, maxsar, kungaboqar, indov va boshqalar yetishtiriladi.

G'allachilik. 1930 yillargacha O'zbekiston iqtisodiyoti va ayniqsa, uning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida g'alla va birinchi navbatda, bug'doy va arpa yetishtirish muhim ahamiyat kasb qilgan. Biroq sobiq Ittifoqda «Paxta mustaqilligini ta'minlash» shiorining o'rtaga qo'yilishi va uning hal qilinishi va keyinchalik paxta yakkahokimligining qaror topishi respublikada g'alla yetishtirishni ikkinchi darajali vazifaga aylantirib qo'ygan edi.

O'zbekiston azal-azaldan o'z aholisining don, un va un mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini o'z ichki imkoniyatlari hisobiga qondirib kelgan va bug'doy yetishtirishda yangi-yangi serhosil navlar yaratib, katta tajriba orttirgan edi. Biroq sobiq Ittifoq davrida bug'doy va arpa maydonlari keskin qisqarib bordi, ular sug'oriladigan zonadan siqib chiqarildi. Aholining un va un mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish esa o'zga regionlarga bog'lab qo'yildi. Aholi istaklarini inobatga

olmasdan bunday ish tutish xato edi. Masalaning ikkinchi bir nozik tomoni ham bor ediki, asta-sekin g'alla yetishtirish agrotexnikasi unutildi. Bug'doy, arpa, sholi yetishtirishni fan dalillari asosida rivojlantirish, ularning yangi-yangi navlarini yaratish va rayonlashtirish, qishloq xo'jaligini yuritish amaliyotda ahyon-ahyonda uchraydigan hodisa bo'lib qoldi.

Mamlakatda g'alla yetishtirishni keskin rivojlantirish masalasi hal qilinayotgan hozirgi davrda «orqaga chekinish»larning asoratidan qutilish, ya'ni bug'doy va boshqa donli ekinlar yetishtirishning unut bo'lgan agrotexnika usullarini tiklash, ularning yangi-yangi navlarini yaratish va rayonlashtirish ishlari majmuasi hal qilinmoqda. Shuningdek, g'alla ekinlarining tarmoq tuzilishiga o'zgarishlar kiritilmoqda.

Mamlakat g'allachiligida, ayniqsa, bug'doy yetishtirish paxta bilan yoma-yon qo'yilmoqda va dehqonchilikning o'zak sohasiga aylantirilmoqda. Bug'doy yetishtirishning lalmikor yerlardagi miqyosi kamaygan bir paytda, uning sug'oriladigan zonadagi maydoni keskin kengaytirildi. Masalan, 1992 yilda sug'oriladigan maydonlarda bug'doy va arpa maydoni 90 ming gektarga ko'paytirilgan va g'alla yetishtirish 1991 yildagiga nisbatan 240 ming tonnadan ortgan edi.

Keyinchalik g'alla ekish izchillik bilan olg'a siljidi. Ayniqsa, mamlakat g'alla mustaqilligini ta'minlashda 1995 xo'jalik yilida katta qadam tashlandi. O'sha yili respublikadagi jami ekinlar maydonining 40 foizi g'alla ekish uchun ajratildi. Uning ekin maydoni 1300 ming gektarga yetkazildi. Shundan 828 ming gektari sug'oriladigan zonaga to'g'ri keldi. Bu maydonlarda boshoqli don ekinlari salmog'i 1200 ming gektarni tashkil qildi. 2002 yilda mamlakatning lalmikor, shartli sug'oriladigan va sug'oriladigan zonasida salkam 1,53 mln. ga yerga bug'doy ekildi va 5,5 mln. tonna hosil yig'ib olindi.

G'alla ekinlaridan mo'l-hosil yetishtirish omillaridan biri yaxshi va rayonbop navdir. Mamlakat g'allachiligida (uning sug'oriladigan zonasida) g'allaning qiltiqsiz (bezostaya), «Unumli bug'doy», «Sete Serros», «Sanzar-4», «Intensiv», «Sanzar-8», «Qarshi-7», «Zafar», «Yonbosh», lalmi yerlarda «Qizil Shalola», «Surxon-5688», «O'zros-7-13», «Tolmas» kabi navlari ekildi. Ekilayotgan bug'doy navlaridan sug'oriladigan zonaning ixtisoslashgan xo'jaliklarida 40-50 sentnerga yetkazib hosil olinmoqda. Shuning uchun ham respublika g'allakorlari oldiga sug'oriladigan maydonlarda gektaridan o'rtacha 30-35 sentnerdan, lalmikor yerlardan 9-12 sentnerdan hosil yetishtirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Ushbu maqsadning amalga oshirilishi esa mamlakat g'alla mustaqilligini ta'minlaydi.

G'alla ekinlari orasida keng tarqalgan donli va ozuqabop ekin makkajo'xoridir. Uni ,odatda, don olish va chorva mollariga ozuqa yetkazib berish maqsadida ekishadi.

O'zbekistonda makkajo'ri keng tarqalgan ekin. U barcha viloyatlarda (sug'oriladigan maydonlarda) ekiladi. Makkajo'xorining har gektaridan 50 sentnerga yetkazib don, 1300-1350 sentner ko'k poya olinadi. 1998 yilda mamlakatda 140,5 ming tonnadan ko'p makkajo'ri doni yetishtirilgan.

O'zbekiston g'allachiligida sholikorlikning ham o'z o'rni bor. U ayniqsa, Amudaryo etaklarida ko'p yetishtiriladi. Xorazm viloyatiga respublikamiz sholi ekin maydonlarining va yalpi hosilining 43,2 foizi, Qoraqalpog'iston respublikasiga 37 foizi to'g'ri keladi. Shuningdek, sholi Toshkent, Sirdaryo, Andijon, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida ham keng maydonlarda yetishtiriladi. Sholi asosan suv ichida o'sadi, yetiladi. Sholi o'simligi sho'rxok tuproqlarni yoqtiradi. Ayni bir paytda issiqsevar bo'lgan mazkur ekin Amudaryo, Sirdaryo,

Surxondaryo va boshqa yirik daryolar qayirlarida yaxshi hosil beradi.

1998 yilda mamlakatda salkam 150 ming ga yerga sholi ekilgan va 346,5 ming tonna hosil olingan. Sholining «O'zROS - 713», «O'zROS - 17», «Nukus-2», «Avangard» navlari serhosildir.

Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq va Quyi Chirchiq tumanlarida **kanopchilik** rivojlangan. 1936 yildan boshlab iqlimlashtirilgan bu tolali o'simlikning poyasidan tola, gazlama, o'rov materiallari, qop, brezent, kanop arqon, kanop ip, kabel ip tayyorlanadi. Mamlakatimizning ayrim hududlarida aholi **tamakichilik** bilan shug'ullanadi. Tamaki nisbatan yumshoq iqlimiy sharoitda yaxshi o'sadi va mo'l hosil beradi. Samarqand viloyatining Urgut tumani tamakichilikka ixtisoslashgan. Tamaki shuningdek, Qashqadaryo viloyatining (Kitob, Shahrisabz, Yakkabog tumanlari) tog'li qismlarida ham yetishtiriladi.

Kartoshka, sabzavot, poliz ekinlari. Respublikamizning tabiiy iqlim sharoiti mazkur ekinlarni keng rayonlashtirish va ulardan yuqori hosil olish uchun o'ta qulay. Mamlakatimizda yetishtiriladigan sabzi, piyoz, lavlagi, sholg'om, turp, kartoshka, karam, bodring, sarimsoq, baqlajon va ayniqsa qovun, tarvuz, pamidorlar o'zining o'ta shirinligi, mazzaligi bilan ajralib turadi. Ularning ko'pini qayta ishlab eksport qilish imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda.

So'nggi yillarda ushbu tarmoqlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa kartoshka «ikkinchi non» deb ta'riflanib uning a'lo nav urug'lari xorijdan keltirib rayonlashtirilmoqda.

Mevachilik va uzumchilik. O'zbekistonning agroiqlim issiq resurslari har qanday meva va uzum donasining qandlilik darajasini oshirishga qodir. Shuning uchun serquyosh

diyorimizda yetishtiriladigan turli mevalar va uzum navlari shirin-shakar, o'ta lazzatli bo'ladi.

Shaftoli, o'rik, yong'oq, jiyda, bodom, pista, anor, olxo'ri, turli navdagi uzumlar bog'larimizni bezaydi. Ulardan tayyorlangan konservalar, sharbatlar , qiyomlar, mayizlar, qoqilar dasturxonlarimizga yil davomida fayz kiritib turadi.

Mamlakatimizning janubiy regionlarida subtropik va sitrus mevalar ko'p yetishtiriladi. Ayniqsa xurmo, bodom, anjir, pista, anor, limon, mandarin, apelsin ko'p ekiladi. Biroq, bu mevalarning ayrimlari qish faslida issiqxonalarda saqlanadi yoki vaqtincha usti plyonkalar bilan yopib qo'yiladi.

Respublikada meva va uzumning yangi, serhosil navlarini yaratishda R. R. Shreder nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-ishlab chiqarish korporasiyasi katta ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Mamlakatimizda 2002 yilda o'rtacha 842,9 ming. t. meva va 500 ming. t. atrofida uzum hosili yig'ib olindi. Mevachilikda Andijon (20 foiz), Samarqand, Namangan, Farg'ona, Toshkent (11-12 foiz) viloyatlarining, uzumchilikda esa Samarqand (27 foiz) viloyatining salmog'i kattadir.

16.4. Chorvachilik

O'zbekiston-chorvachilikning qadimiy markazlaridan biri. Respublikaning tuproq va tabiiy iqlimiy sharoitlari - unumdor sug'oriladigan yerlar, bepoyon qir-adirlar, dasht-cho'l, tog' oldi yaylovlari chorvachilikning rivoji uchun o'ta qulay. Sug'oriladi-gan yerlarda asosan qoramolchilik, cho'chqachilik, parrandachilik, qir-adirlar, dasht-cho'l va tog' oldi yaylovlarida esa qo'ychilik, echkichilik, yilqichilik, tuyachilik, suv havzalarida

baliqchilik rivojlangan. Chorvachilikdan keladigan daromad o'sib bormoqda.

Chorvachilikni rivojlantirishning muhim omillaridan biri uning ozuqa bazasi hisoblanadi. Shuning uchun yaylovlar holatini yaxshilash, ozuqabop ekinlar maydonini kengaytirish, omixta yem ishlab chiqarishni ko'paytirishga e'tibor berilmoqda. Mamlakatda yem-xashak ekinlari jami ekin maydonining 25 foizini tashkil qiladi. Keyingi yillarda chorvachilikni barqarorlashtirish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida chorva mollari tuyog'i va asosiy chorva mahsulotlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada usmoqda.

47-jadval

Mamlakat chorvachiliga

A. Chorva mollari tuyog'i (ming bosh)

Ko'rsatkichlar	1990 yil	1996 yil	2002 yil	O'sish: 2002 yilda 1990 yilga nisbatan, % bilan
+о р а м о л л а р	4581,3	5351,6	5477,6	118,4
Жу м л а д а н , с о \и н с и г и р л а р	1856,2 9230,2 716,3 105,1	2248,3 9330,6 86,8 147,3	2393,0 9208,8 75,8 147,9	123,8 94,5 10,6 140,3
+ый в а э ч к и л а р Ч ы ч к а л а р Й и л =и л а р				

B. Chorva mahsulotlari ishlab chiqarish

Go`sht, ming tonna	484,1	800,1	513,1	106,9
Sut, ming tonna	3061,2	3403,9	3794,8	114,7
Jun, ming tonna	26,0	16,6	15,9	59,6
Qorako`l te risi, ming dona	1257,4	1335,4	903,5	72,3
Har bir sigirdan sog`ib olingan o`rtacha sut, kg	1286	1115	1583	136,3
Har bir tovuqdan olingan o`rtacha tuxum, dona	146	132	158	112,7

Qoramolchilik. Qoramolchilik respublika chorvachiligida yetakchi tarmoq. U respublikada yetishtiriladigan go'shtning to'rtdan uch qismi va sutning hammasini beradi. Mamlakatda, uning mintaqalararo agroiqlim xususiyatlariga ko'ra, sut, sut-go'sht, yo'nalishidagi qoramolchilik sohalarida, yirik shahar atrofi xo'jaliklarida hamda yangidan sug'orilgan mintaqalarda, go'sht-sut go'sht yo'nalishidagi qoramol zotlari esa tog'-tog'oldi mintaqalarida rivojlangan.

Qoramolchilikning hududiy joylashishida viloyatlararo katta tafovutlar bor. Samarqand viloyatida mamlakat jami qoramollarining 14,8 foizi, Toshkent, Qashqadaryo, Farg'ona, Xorazm, Surxondaryo viloyatlarining har birida 8-11 foizi boqiladi.

Qoramol zotlarini yaxshilash sohasida ko'p ishlar qilinmoqda. Jumladan, Boltiqbo'yi davlatlaridan sersut qoramollar keltirilib rayonlashtirilgan va ularni chatishtirish orqali yangi zotlar yaratilgan. Mahalliy zotlarni qoraola zotlar

bilan chatishtirib qo'ng'ir va qora-ola zotlarning O'zbekiston tipi yaratilgan.

Qo'ychilik. Respublikada Qorako'l, hisori va jaydari qo'ylar ko'p boqiladi. Ularning soni echkilarni ham qo'shib hisoblaganda 9,3 mln. boshdan ko'p. Shundan yarmidan ortig'i Qorako'l qo'ylaridir. Yuqorida zikr qilinganidek, iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichidayoq mamlakat chorvachiligi ancha barqarorlashdi.

Qorako'l qo'ylari respublika qo'ychiligining faxri hisoblanadi. U mamlakat eksportida alohida o'rin tutadigan, ko'p xil tovlanadigan sifatli qorako'l terisi, go'shti hamda jun olish uchun katta-katta cho'l yaylovlarida boqiladi. Olimlarning isbotlashicha, qorako'l zotli qo'ylarning asl vatani Zarafshon vohasi hisoblanadi. Demak Janubiy Afrika, Afg'oniston, Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlarida boqilayotgan Qorako'l qo'ylari asl vatani O'zbekistondir. Mamlakatimizda Qorako'l qo'ylarining boqiladigan asosiy yaylovlari Qizilqum, Qarshi va Ustyurt cho'llaridir, qisman tog' oldi-mintaqalaridir.

O'zbekiston sifatli qorako'l terilari yetishtirishda dunyoning uzoq burchaklarigacha mashhur O'zbekiston qorako'l terilari mo'yna bozorlarida, Sankt-Peterburg «kim oshdi» savdo bozorida, xalqaro yarmarkalarda, shuningdek, Amerika va Yevropa bozorlarida sotiladi. Mamlakatda qorako'lchilikka ixtisoslashgan 120 ta yirik xo'jalik bo'lib, shuning 18 tasi naslchilik zavodlari va 9 tasi naslchilik xo'jaliklaridir. Respublika naslchilik zavodlari asosan sifatli teri navlari yaratish bilan shug'ullanadi. Buxoro viloyatidagi «Jongeldi» naslchilik zavodida jaket qora rangli qo'ylar, Qoraqalpog'istondagi «Jambaskala» dehqon xo'jaligida qorakalpoq, sur teri tiplari yaratildi. Surxondaryo «Oqqopchig'ay» davlat naslchilik zavodida marvarid va oq

rangli, Janubiy O'zbekiston kulrang qorako'li va boshqa teri navlari yaratilgan.

Respublikada go'sht va jun yetishtirish maqsadida dag'al jun va go'sht-yog' beruvchi hisori va jaydari qo'y zotlari boqiladi. Dumbali va serjun qo'ylardan 3 mln. dan ortig'i aholi va fermer xo'jaliklarida, 875 ming boshi esa jamoa sektorlarida boqiladi.

Mamlakat qo'ychiligi ayniqsa, go'sht yetishtirish bo'yicha ancha mahsuldor. Yuqori tipli hisori qo'chqorlardan har birining tirik vazni 190 kg. ga yetadi.Ular 140-150 kg. gacha go'sht-yog' beradi. Biroq mamlakatning issiq iqlimiy sharoitida qo'ylar jun mahsuldorligi ancha past (o'rtacha har bir bosh qo'yga 1 kg. dan baland).

Echkichilik sut, jun, go'sht, teri hamda tivit uchun boqiladi. Echkilar asosan Surxondaryo, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand viloyatlarida ko'p. Mamlakat echkichiligida serjun angor, tivitli Orenburg, jundor O'zbekiston zotlari keng tarqalgan. O'zbekistonda yiliga 60-85 t echki juni, 40-45 t. tivit, 15-20 ming dona echki terisi tayyorlanadi. Echkilar asosan respublikamizning baland tog'li va tog' oldi zonanalarida boqiladi.

Mamlakat chorvachiligida yilqichilik, parrandachilik, cho'chqachilik, quyonchilik, baliqchilik, asalarichilik, tuyachilik hamda pillachilikning ham o'z o'rni bor. Mazkur tarmoqlarining mamlakat chorvachilik mahsulotlari yetishtirishdagi salmog'i tobora ortib bormoqda. Faqat cho'chqachilik ob'ektiv sabablarga ko'ra, qisqarmoqda.

Qisqacha xulosalar

Mamlakat qishloq xo'jaligi asosan uning turli geografik muhiti - mintaqalararo kechadi. Uning hududi tabiiy va iqtisodiy omillar hamda qishloq xo'jaligining ixtisoslashuviga ko'ra, **3 ta mintaqaga** (zona)ga bo'linadi.

Sug'oriladigan mintaqa mamlakat hududining qariyb 20 foizini, chunonchi Farg'ona vodiysi, Chirchiq - Ohangaron, Zarafshon, Qashqadaryo vohalari, Surxon-Sherobod vodiysi, quyi Amudaryoni hamda Mirzacho'l, Jizzax, Qarshi cho'llarining sug'orib o'zlashtirilagan qismlarini o'z ichiga oladi; mamlakat iqtisodiyotining asosi, qishloq xo'jaligida eng ko'p (85 foiz) daromad beradigan qismdir.

Tog' va tog'oldi mintaqasi respublikaning 20,5 foizini ishg'ol qiladi. Uning baland qismida archazor va yoz yaylovi uchun o'tloqzorlar bor. Adir tog' oldi qismida lalmikor yerlar bo'lib, g'alla va xashaki ekinlar ekiladi, bog'dorchilik, uzumchilik rivojlangan. Bu mintaqa mamlakat yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarining salkam 8 foizini beradi. Kelajakda lalmikor yerlarni o'zlashtirish va bog'dorchilik, mevachilikni yana ham rivojlantirish imkoniyatlari bor.

Cho'l-yaylov mintaqasi respublika hududining eng katta (60 foizini) qismini egallaydi. U Qizilqum, Ustyurt cho'llarini, Qarshi, Jizzax cho'llarining hali o'zlashtirilmagan qismlarini qamrab oladi. Bu mintaqa mamlakatning asosiy qorako'lchilik bazasi bo'lib, kelajakda bu yerlarda sug'oriladigan maydonlarni kengaytirish mumkin.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Agroiqlim resurslari deganda nimani tushinasiz?
2. O'zbekiston yer fondining qancha qismini sug'oriladigan yerlar tashkil qiladi?
3. O'zbekistonda g'o'zaning qanday navlari ekiladi?
4. Qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik, echkichilik qaysi viloyatlarda rivojlangan?

XVII mavzu. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT GEOGRAFIYASI

Transportning respublika iqtisodiyotidagi ahamiyati. O'zbekiston xalq xo'jaligining muhim tarmog'idan biri transportdir. Uning rivojlanish darajasi mamlakat iqtisodiyotiga, unda ishlab chiqarish kuchlarining joylashish va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Transportning tashqi iqtisodiy, texnikaviy, savdo-sotiq va madaniy aloqalarda ham ahamiyati katta.

O'zbekistonda hozirgi zamon transportining asosiy turlari mavjud. Jumladan, bu yerda temir yo'l va avtomobil yo'li, havo va daryo, quvur va elektr transportlari rivojlangan.

Mamlakat transporti istiqlol tufayli mustaqil bo'ldi. Ungacha esa asosiy transport turlarini tashkil qilish, boshqarish va undan foydalanish huquqi respublikaning o'zida emas edi. Masalan, 1920-1991 yillarda respublika transportining asosiy turlari sobiq Ittifoqning Markaziy vazirliklariga bo'ysingan.

Endilikda respublika transporti ona-vatan taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Mamlakat transportining xalq xo'jaligiga va aholiga xizmat ko'rsatishni tubdan yaxshilash va transport boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadlarida

«O'zbekiston havo - Mashhad» temir yo'lining O'zbekiston uchun ahamiyati juda katta va shuning uchun ham uning 133 kilometrlik «Tajan-Saraxs» yo'l qurilishi va ishga tushirilishida mamlakatimiz quruvchilari faol qatnashdi.

O'zbekiston MODning ayrim davlatlari orqali Xitoy (Xitoy orqali esa Tinch okeani)ga chiqish uchun Toshkent-O'sh-Qashqar temir yo'li qurilishini ham olib borilmoqda. Bu yo'l qurilishida Qirg'iziston va Xitoy ham qatnashmoqda.

17.1. Avtomobil transporti

U muhim ichki transport tarmog'idir. Avtomobil transportining rivojlanish holati ma'muriy rayonlar taraqqiyotida g'oyat muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning yer sirti tuzilishining murakkabligi, ya'ni uning xalq xo'jaligi tig'iz rivojlangan hududlarida tog'lik, yassi tog'liklarning mavjudligi bir tomondan, temir yo'l transportini rivojlantirishni tabiiy ravishda chegaralagan, ikkinchi tomondan esa, avtomobil transportini rivojlantirishni taqozo qilgan. Bugungi O'zbekiston xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini va mamlakat aholisi ehtiyojlarini qondirish darajasida rivojlangan avtomobil transportiga ega. Tosh yo'llarning umumiy o'zunligi 86 ming km. dan ortiq. Shundan qattiq qoplamali yo'llar 75 ming km.

Endilikda avtotransportda ham xususiylashtirish, o'rta va kichik biznesni rivojlantirish davom etmoqda. Transport vositalari - avtobuslar, yuk va yengil mashinalarga ega bo'lgan jamoa hamda xususiy xo'jaliklar ko'paymoqda, ularning yo'lovchi va yuk tashishda salmog'i asta-sekinlik bilan o'sib bormoqda.

Respublika avtotransportining moddiy-texnik ba'zasi mustahkamlanmoqda. Avtotransport parki xorijiy mamlakatlar

(Germaniya, Janubiy Koreya)dan keltirilgan va vatanimizda ishlab chiqarilayotgan avtobuslar, yengil mashinalar hisobiga tobora yangilanib bormoqda. Avtoxo'jaliklar, yo'l qurilishi xo'jaliklari zamonaviy texnikalar bilan ta'minlanmoqda.

O'zbekiston avtomobil transportida qo'shni uzoq xorijiy davlatlar bilan bog'lanish istiqboli ochilmoqda. 3,2 ming km. masofadagi avtomobil yo'llarimiz xalqaro ahamiyatga ega. Yo'llarni jahon andozalariga mos keladigan tarzda ta'mirlash, yangi-yangi yo'llar, ko'priklar, dovonlarda tunellar qurish jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda. Shu maqsadda chet el firmalari bilan hamkorlik qilinib, ularning mablag'i, texnikasi va texnologiyasi keng jalb etilmoqda.

O'zbekiston O'rta Osiyo davlatlarining barchasi bilan xalqaro ahamiyatga molik bo'lgan yirik avtomagistrallar qurishda tashabbuskor bo'lib chiqmoqda yoki bevosita qatnashmoqda. Jumladan, u Xitoyga (va Tinch okeaniga) chiqish imkoniyatini beruvchi «Andijon - O'sh - Ergashtom - Qashqar» avtomobil yo'li hamda Hind okeaniga chiqishga imkon beradigan «Termiz - Hirot - Karachi» avtomobil yo'li qurilishida va shu yo'nalishda mavjud bo'lgan yo'llarni qayta ta'mirlashda o'z ulushini qo'shish bilan qatnashmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, «O'zbekiston Xitoy va Pokistonga olib boradigan Andijon - O'sh - Ergashtom - Qashqar, shuningdek, Buxoro - Saraxs — Mashhad - Tehron va Termiz - Hirot - Qandaxor - Karochi avtomobil yo'llarini qurish va qayta ta'mirlash ishlariga hissa kushgan holda katnashishdan ham manfaatdor».[1]

17.2. Havo transporti

[1] Islom Karimov. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida..., 274—275-betlar.

Mamlakatimizning ichki va tashki aloqalarida havo transportining ahamiyati ayniqsa, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga chuqur kirib borishi bilan dolzarblik kasb qilmoqda.

«O'zbekiston havo yo'llari» aviakompaniyasi xilma-xil tipdagi havo transporti vositalariga ega. Jumladan, unda qishloq xo'jalik ishlariga mo'ljallangan «AN-2», mahalliy yo'llarda katnaydigan «AN-24», «YAK-40», xalqaro yo'llarda katnaydigan «IL-76», «IL-62», «IL-86», «TU-154», «A-310», Boing kabi samolyotlar bor. Vertolyot parkida esa «MI-2», «MI-8», «KA-26» kabi mashinalar bo'lib, ulardan mamlakat muassasalari, meteorologiya, geologiya-qidiruv ishlarida keng foydalaniladi.

Mamlakat havo transporti xizmatini yaxshilash masalasi o'z-o'zidan aeroportlar har xil yangi tipdagi samolyotlarni qabul qilishga ko'ra jihozlanishini va ta'mirlanishini taqozo qilgan. Hozirgi vaqtda mamlakatda 12 ta aeroport bor.

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganchdagi aeroportlar chet el firmalari hamkorligida qayta ta'mirlanib va jihozlanib eng zamonaviy tipdagi samolyotlarni qabul qilish imkoniga ega bo'ldi. Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston havo transportining xizmat ko'rsatish ko'lami nihoyat darajada kengaydi. Endilikda O'zbekiston O'rta Osiyo va MDH ning barcha davlatlari hamda yirik shaharlari bilan havo transporti aloqasiga ega. Shuningdek, respublikaning uzoq xorijiy davlatlar bilan tashqi iqtisodiy va madaniy aloqalarni yo'lga qo'yishida ham havo transportining ahamiyati ortib bormoqda. «O'zbekiston havo yo'llari»ning Yevropa, Osiyo va Amerikadagi bir qancha mamlakatlarida vakolatxonalari ochilgan. 1993-1998 yillarda O'zbekiston 20 dan ortiq yo'nalishda xalqaro

marshrutda samolyot qatnovini yo'lga qo'ydi. Jumladan, London, Manchester, Frankfrut, Tel-Aviv, Jidda, Bangkok, Istambul, Karachi, Pekin, Seul, Afina, Amsterdam, Nyu-York, Kuala-Lumpur, Jakarta, Dakka, Parij va boshqa chet el shaharlariga muntazam xalqaro aviareyslar tashkil qilingan.

Mamlakatimiz yo'lovchi aylanmasi harakatida havo transportining salmog'i 9,3 foizni egallaydi. Uning, ayniqsa, uzoq xorijiy davlatlar bilan aloqalarini rivojlantirishda ahamiyati tobora oshib bormoqda.

Keyingi yillarda Xitoy, Pokiston, Sudan, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlar aviokompaniyalari O'zbekiston samolyotlarini fraxt yo'li bilan ijaraga olib ishlatish yo'nalishi tobora kengayib bormoqda.

17.3. Suv transporti

U rayonlararo va xalqaro ahamiyatga ega bo'lib, xalq xo'jaligi yuklarini tashish hamda Turkmaniston, Tojikiston, Afg'oniston davlatlari bilan iqtisodiy aloqalar uchun xizmat qiladi.

Respublika suv transporti salohiyatida Amudaryoning ulushi katta. Shuning uchun ham birinchi marta 1950 yilda Amudaryoning nisbatan boshlang'ich qism Surxondaryo viloyati hududida Termiz daryo porti tashkil etilgan. 1952 yilda esa Xujaylida kema ta'mirlash zavodi qurilgan. Amudaryo sohillarida yangi Sharlavuq, To'rtko'l, Beruniy, Qoratov, Xujayli bandargoh (pristan)lari qurilgan.

1994 yildan boshlab mamlakat suv transporti xizmatini yaxshlash maqsadida bir qator tashkiliy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, O'rta Osiyo paroxodchiligining O'zbekistondagi bo'limlari negizida «Termiz daryo porti»,

«Xorazm daryo porti», «Qoraqalpog'iston daryo porti» ishlab chiqarish birlashmalari tashkil etilgan (1995). «O'zavtotrans» korporasiyasi xuzurida daryo floti ishini muvofiqlashtirish bo'yicha (Toshkentda) bosh boshqarma tuzilgan bo'lib, u mamlakat suv transportiga umumiy rahbarlik qiladi.

17.4. Quvur transporti

U tez rivojlanib bormoqda va mamlakat neft hamda gaz sanoatining rivojlanishi, aholini ichimlik suvi bilan to'la ta'minlash bo'yicha katta istiqbolga ega. Tarixga nazar tashlasak, O'zbekistonda birinchi neft quvuri 1908 yilda ishga tushganini ko'ramiz. O'sha yili Chimyon neft konidan Oltiariq neftni qayta ishlash zavodiga 20 km. lik quvur tortilgan edi. Keyinchalik mamlakatda yangi-yangi neft va gaz konlarining topilishi quvur transporti rivojlanishiga ta'sir ko'rsata bordi. Endilikda birgina Farg'ona va Oltiarik neftni qayta ishlash zavodlariga neft konlaridan jami 228,5 km. lik quvur o'tkazilgan.

Surxondaryoda (Lalmikor-Qumko'rgon), Qashqadaryoda (G'arbiy Toshloq- -Qashqadaryo stansiyasi va Shimoliy O'rtabuloq - Oltingugurt zavodi), Buxoroda (Ko'kdumaloq - Buxoro) neft quvurlari qurilgan.

Mamlakatda gaz sanoatining rivojlanishi esa gaz quvurlari geografiyasini juda kengaytirib, uning xalqaro ahamiyatini oshirib yubordi. Mamlakatda gaz quvurlari qurishga 1960 yillarning boshida kirishilgan edi. Usha yillari «Asaka-Andijon», «Xo'jaobod-Farg'ona», «Shimoliy So'x-Qo'qon», «Gazli-Kogon» gaz quvurlari qurilgan. Keyinchalik «Jarqoq-Samarqand-Toshkent», «Gazli-Sverdlovskiy» gaz quvurlari ishga tushirigan.

Hozirgi vaqtda esa O'zbekiston gaz quvurlari orqali MOD ning bir qator davlatlari bilan bog'langan. 1998 yilda mamlakatdagi magistral quvurlar orqali 33,7 mlrd. kub m. gaz va 164,2 ming t. neft tashildi.

Aholi (birinchi navbatda shaharliklar)ni chuchuk suv bilan ta'minlashda ham quvur transportining ahamiyati ortib bormoqda.

Umuman, quvur transporti mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim omil bo'lib, u sanoat korxonalari va xo'jaliklarni, aholi manzilgohlari va shaharlarni tabiiy gaz va chuchuk suv bilan ta'minlashda katta ahamiyatta ega. Quvur transportining rivojlantirilishi va uning xalq xo'jaligida mavqeining oshirilishi ishlab chiqarishda mehnat unumdorligi oshishiga, mahsulot tannarxi pasayishiga, atrof-muhitning ekologik jihatdan toza bo'lishiga olib keladi.

Qisqacha xulosalar

O'zbekistonda avtomobil, temir yo'l, havo va quvur transporti rivojlangan. Hozirgi paytda qator avtomobil va temir yo'llari qurildi, eskilari qaytadan ta'mirlandi. Oxirgi yillarda xalqaro havo transporti jadal sur'atlar bilan rivojlandi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O'zbekistonda qanday transport yo'llari yaxshi rivojlangan?
2. O'zbekistonda qaysi yo'nalishlarda yangi temir yo'llar qurildi?
3. Hozirgi paytda O'zbekiston qaysi davlatlar bilan havo yo'llari orqali bog'lagan?
4. O'zbekistonda xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan qanday avtomagistral yo'llar mavjud?

XVIII mavzu. O'ZBEKISTONNING TASHQI IQTISODIY ALOQALAR GEOGRAFIYASI

18.1. Tashqi iqtisodiy aloqalarning iqtisodiy-geografik xususiyatlari

XXI asr, shubhasiz, xalqaro munasabatlarda butun dunyoni qamrab oladigan asr bo'ladi. Bunday sharoitda integrasiya jarayonini xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlar davrasini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozasi deb emas, balki ayrim mintaqalarda ham, shuningdek, umuman, butun sayyoramiz ko'lamida sobitqadamlik, barqarorlikning qudratli omili, deb hisoblamoq zarur.

O'zbekiston juda qadim zamonlardan buyon ko'hna karvon yo'li - Buyuk ipak yo'lida joylashib, tashqi dunyo (G'arb bilan Sharq) bilan faol iqtisodiy aloqalar olib borgan. Mustaqillik sharofati bilan esa mamlakatimiz iqtisodiyotida yangi yo'nalish - tashqi dunyo bilan turli sohalarda hamkorlikka keng yo'l ochildi. Endilikda O'zbekiston tovarlar, kapital, ishchi kuchini mamlakatlararo tranzit etishga, jahon iqtisodini integrasiyalash, yirik transmilliy va xalqaro loyihani amalga oshirishga qodir.

Mamlakatda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tartibga solish maqsadida Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki, bojxona qo'mitasi tuzildi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida yangi strategiya ishlab chiqilib, unda eksportning xom ashyoviy yo'nalishini bartaraf etish hamda xorijiy investisiyalar oqimi kengayishiga ko'maklashish kabi yo'nalishlar belgilab olindi. Mamlakatda tashqi iqtisodiy aloqalar tizimi, ularni yo'lga qo'yishdagi asosiy tamoyillar ishlab chiqildi. Xorijiy davlatlar firma, bank tizimlari

bilan aloqa poydevori barpo etish yo'lida siyosiy, huquqiy va tashkiliy omillar yaratildi. «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida», «Chet el investisiyalari va xorijiy sarmoyadorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi va boshqa bir qator qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ular tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarish uchun sharoit yaratdi. O'zbekiston jahon hamjamiyatiga dadil kirib borib, ko'pchilik davlatlar bilan iqtisodiy, texnikaviy, savdo-sotiq va madaniy aloqalarni amalga oshirmoqda. Tashqi aloqalar ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama rivojlanmoqda. Vatanimizda iqtisodiy faoliyatni keng ko'lamda rivojlantirish, yuksak taraqqiy etgan davlatlardagi ishlab chiqarishning texnologiya va iqtisodiy jarayonlari bilan tanishish, xorijiy sarmoyadorlar bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar, supermarketlar, savdo filiallari tashkil qilish imkoniyati yaratilmoqda.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati keng qamrovli bo'lib bormoqda. Mamlakatimizda chet el firmalari mablag'i ishtirokida tuzilgan qo'shma korxonalar soni 6 mingdan oshib ketdi. Ular orasida dunyoga tanilgan «Samsung», «DEU», «Nyumont-Mayning», «Xexst», «Siba-Geygi», «Renk kseroks», «Filips» va boshqalar samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki chet mamlakatlardagi 180 dan ortiq banklar bilan bog'lanib, korrespondent munosabatlarini olib bormoqda. U Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib jahon banklararo moliya telekommunikasiyasi tizimi (SVIFT)ga qo'shilgan. Hozirgi vaqtda O'zbekistonni dunyoning 170 ga yaqin mamlakati tan olgan, shundan 130 ga yaqini bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Poytaxt - Toshkentda 50 ga yaqin mamlakatning elchixonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekistonning chet mamlakatlarda elchixonalari, konsulliklari va 30 dan ortiq vakolatxonalari ishlab turibdi.

O'zbekiston BMTning ko'p tashkilotlari haqida 50 dan ortiq xalqaro va regional (hududiy) tashkilotlarning a'zosidir. Jumladan, ular orasida xalqaro Valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro elektr aloqa Ittifoqi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporasiyasi, Bojxona hamdo'stligi kengashi va h. k.lar bor. Shuningdek, bir qator nufuzli xalqaro tashkilotlar mamlakatimizda hududiy vakolatxonalarini ochishgan. Ular respublikaning ko'p qirrali aloqalarini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shib kelishmoqdalar.

O'zbekistonning xorijiy kompaniya va firmalar bilan hamkorligi, ularning hududimizda to'la faoliyat ko'rsatib ishlashiga kafolat berilganligi tashqi savdoga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shunday qilib, mamlakatimiz tashqi aloqasi, savdo geografiyasi juda kengayib bormoqda. O'zbekiston barcha qit'alarda joylashgan davlatlar bilan keng qamrovli savdo-sotiq aloqalarini olib bormoqda. Tashqi savdoda Yevropa-66,3 foiz, Osiyo-28,0, Amerika qit'asi-5,4, Afrika-0,1, Avstraliya va Okeaniya-0,2 foizni egallaydi. Keyingi yillarda O'zbekiston eksporti va importida MDH va xorijiy mamlakatlar hissasida birmuncha o'zgarishlar sodir bo'ldi. 1996-2002 yillar o'rtasida uzoq xorijiy mamlakatlarning O'zbekiston eksportidagi salmog'i 77,1 foizdan 72,0 foizga pasaydi, importdagi salmog'i esa 67,9 dan 62,2 foizga pasaydi. 2002 yilda MDH mamlakatlarining O'zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi salmog'i 36,9 foiz, uzoq xorijiy mamlakatlarniki - 63,4 foizni tashkil etdi.

O'zbekistonning eksportida Buyuk Britaniya"10,6, Shveysariya"8,7, Turkiya"4,7, importda esa, AQSH"19,2, Koreya"15,1, Germaniya"12,3, Xitoy"6,6 foizni egallaydi.

O'zbekiston Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyodagi eng yirik savdo iqtisodiy sherigidir. 1994 yildan boshlab O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida diplomatlik munosabatlar o'rnatilgan. Endilikda Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlar bilan O'zbekiston o'rtasida iqtisodiy, savdo, ilmiy-texnikaviy hamda madaniy-ma'rifiy aloqalar tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. O'tgan davr ichida O'zbekistonda Yevropa Ittifoqining «Tasis» texnikaviy va boshqa sohadagi ko'maklashish dasturlari amalga oshirildi. Endilikda 2006 yilgacha davrga mo'ljallangan dasturlar ustida ishlar olib borilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida respublika eksport salohiyatini kengaytirishga qaratilgan mukammal dastur amalga oshirilmoqda. Natijada 1993-2002 yillarda eksport va import tarkibida ayrim mahsulotlarning hissasi ancha o'zgardi (48-jadval).

48-jadval

Mamlakat tashqi savdo aylanmasining tovarlar tarkibi (foiz hisobida)

	1993y.	1995y.	1997y.	2002y.
EKSPORT, jami	100	100	100	100
Shu jumladan: paxta tolasi	78,0	57,9	36,0	22,4
kimyo mahsulotlari, plastmassa	5,3	17,1	1,7	3,0
mashina va asbob-uskunalar	0,4	2,4	6,3	3,9
qora va rangli me tallar	6,9	5,6	4,6	6,4
xizmatlar	3,2	9,3	8,2	15,9
boshqa muhim tovarlar	3,2	7,7	31,2	36,8
IMPORT jami,	100	100	100	100
Shu jumladan: oziq-ovqat	61,3	18,2	19,3	12,5
mashina va asbob-uskunalar	15,9	47,9	45,9	41,4
kimyo mahsulotlari, plastmassa	7,5	9,5	12,5	15,1

qora va rangli me tallar	3,0	5,7	7,5	8,0
xizmatlar	0,6	5,0	7,5	10,6
boshqa muhim tovarlar	4,8	13,7	6,7	11,1

Eksportda mashina va asbob-uskunalar salmog'i ancha o'sdi. Mamlakatimiz neft mahsulotlarini import qilishdan eksport qiluvchiga aylandi. Eksport tarkibida mashinasozlik mahsulotlari orasida turli rusumdagi yengil avtomobillar, avtobuslar, traktor va boshqa qishloq xo'jaligi mashina asbob-uskunalari, televizor va boshqa radiotexnika mahsulotlari salmog'i asta-sekinlik bilan oshib bormoqda. O'tgan davr ichida respublikada import yatarkibida birmuncha o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari importi 5 barovar qisqardi. Shunga qaramasdan, mamlakatimiz chetdan oladigan jami tovarlar tarkibida hamon oziq-ovqat mahsulotlari ulushi anchagina. Shu sababdan bunday tovarlarga bo'lgan ehtiyojlarni mamlakatning o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hisobiga qondirishning uzoq muddatli rejasi amalga oshirilmoqda, chet ellik sarmoyadorlar uchun qulay iqtisodiy, huquqiy investisiya muhiti yaratilmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha chet el investisiyalarini o'zlashtirish (chet el investisiyalari umumiy hajmiga nisbatan foiz hisobida, kreditlarni qo'shgan holda) quyidagicha bo'ldi: neftni qayta ishlash sanoatida - 13,8, yengil sanoatda - 17,6, aloqada - 11,4, transportda - 10,9, oziq-ovqat sanoatida - 6,3, kimyo va neft-kimyo sanoatida - 3,2 foizni tashkil etdi.

Respublikamiz uzoq muddatli va imtiyozli kreditlar ham olmoqda. Bu investisiyalar sanoatning ustuvor tarmoqlarini, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashni yaxshilashga xizmat qiladigan agrosanoat majmuini jadal rivojlantirishga, xom ashyo eksportidan tayyor mahsulotlar eksportiga o'tish, kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish, eksport imkoniyatlarini

kuchaytirish, mahsulotlarining raqobatbordoshligini ko'tarish sohalariga yunaltirilmoqda. Xalqaro tashkilotlar, xorijiy firmalar, turli bank tizimlari mamlakatimiz oltin, neft, gaz, kimyo, rangli metallurgiya, sanoati, agrosanoat majmuasini rivojlantirish bo'yicha yirik investisiya loyhalarida ishtirok etib kelmoqdalar. Xorijiy sarmoyadorlar Ko'kdumaloq gaz-neft konini o'zlashtirish, Buxoro neftni qayta ishlash zavodini qurish, oltin ishlab chiqaradigan «Zarafshon-Nyumont», O'zbekiston AQSH qo'shma korxonasini qurish, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodni batamom qayta qurish, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasini zamonaviy texnika bilan jizohlash kabi loyihalarni moliyalashtirishda faol qatnashdilar. Shuningdek, yangi qurilayotgan va qayta ta'mirlanayotgan ob'yektlar qurilishida, ularni zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlashda va avvalo, ishlab beruvchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda katta moliyaviy texnikaviy yordam bermoqdalar. Ular paxtani takror-takror qayta ishlab tayyor mahsulot darajasigacha qayta ishlashning majmuini qamraydigan, yangi texnologiya asosida ishlaydigan, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan loyihalarda faol ishtirok etishmoqda. Mavjud korxonalarni qayta ta'mirlash va jihozlash asosida bosqichma-bosqich davlat tasarrufidan chiqaradigan holding kompaniyalarini shakllantirish va rivojlantirish yo'lida ko'p ishlar qilinmoqda. Chet el investisiyalari o'rta va kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlab turli banklarda kredit yo'llarini ochmoqdalar. Natijada asosiy kapitalga kiritilayotgan investisiyalar tarkibida nodavlat mulk shakllarining salmog'i tobora oshib bormoqda.

Chet el investisiyalari bilan ishlagan korxonalar soni 2001 yilda 1958 bo'lsa, 2002 yilda 2087ga yetdi. Ularning ishlab chiqargan mahsulotlari va ko'rsatish xizmatlari 610,2dan 1044,2

mlrd. so'mga ko'tarildi, ishchi va xizmatchilar soni esa 90,4dan 94,1 ming kishiga yetdi.

Mamlakatning ayrim ma'muriy rayonlarida, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Jizzax, Sirdaryo, Surxondaryo, Buxoro viloyatlarida nodavlat mulklarini rivojlantirishga yunaltirilayotgan chet el investisiyalari salmog'i hanuz ancha kam. Nazarimizda mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishda uning har bir ma'muriy rayoni (viloyat, tuman) hamda turli mulk shaklidagi korxonalar ishtirokini ta'minlash vatanimiz iqtisodiyotini yuksaltirishga, xalqning turmush sharoitini yaxshilashga ma'lum hissa bo'lib qo'shiladi.

Qisqacha xulosalar

O'zbekiston hozirgi paytda chet elga paxta tolasi, kimyo mahsulotlari, plastmassa, mashina va asbob-uskunalar, qora va rangli metallar eksport qiladi.

O'zbekistonda chet el firmalari mablag'i ishtirokida tuzilgan qo'shma korxonalar soni 6 mingdan oshib ketdi.

Hozirgi paytda O'zbekiston chet davlatlar bilan iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalarni mustahkamlamoqda.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. O'zbekistonda qaysi davlatlarning elchixonalari bor?
2. O'zbekiston qanaqa xalqaro tashkilotlarga a'zo?
3. O'zbekiston qaysi davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar olib bormoqda?
4. O'zbekiston qaysi davlatlar bilan ilmiy va madaniy aloqalar o'rnatgan?

5. O'zbekistonning eksport va import mahsulotlari tarkibini tushuntirib bering.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: «O'zbekiston», 1998.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr busag'asida: Xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O'zbekiston, 1999.
4. Akromov 3. M. Geografiya fani XXI asr bo'sag'asida: muammolar, yechimlar va yo'nalishlar. O'zbekiston geografiya jamiyati Axboroti, 21-jild. -T., 2000.
5. Akramov Z.M. O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi. -T.: O'qituvchi 1994.
6. Abirqulov Q. N., Jumayev T., Rajabov N. Iqtisodiy geografiya. -T., 2000.
7. Abirqulov Q., Qurbaniyazov R. Iqtisodiy geografiyadan amaliy mashg'ulotlar. Urganch, 1998.
8. G'ulomov S., Ubaydullayeva R., Axmedov E. Mustaqil O'zbekiston. -T., 1999.
9. G'ulomov S.S. O'zbekiston Respublikasi: bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li. -T: «FAN», 1996.
10. Nabiyev E., Qayumov A. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati. -T., 2000.
11. Ro'ziyev A.R., Abirkulov K.N. O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi. -T.: ″ Sharq″ , 2002.
12. Ro'ziyev A.N. Surxondaryo viloyati. -T., 1996.

13. Ro'ziyev A.N. Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Termiz - T., 2000.
14. Soliyev A.S., Axmedov E.A., Muxamadaliyev R.I. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. -T:"Universitet", 2003.
15. Soliyev A. O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy siyosati. -T., 2000.
16. Abdullayev O. Namangan viloyati. Namangan, 1995.
17. Asanov G.R., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. -T.: «O'qituvchi», 1994.
18. Qurbonniyozov R., Sa'dullayev A., Abirkulov K. Iqtisodiy ekologiya asoslari. «Urganch», 1999.
19. Nazarov N., Salomov YU. Buxoro viloyati. «Buxoro», 1994.
20. Vaxobov X. Iqtisodiy geografiya asoslari -T.: O'qituvchi, 2001
21. Aliyev M.G., Ishanxodjayeva D.A., Xachiyev G.A. Ekonomika i finanso' regionov mira v sifrax sravneniya. -T., 1998.
22. Baburin V.A., Mazurov YU.L. Geograficheskiye osnovo' upravleniya. -M., 2000.
23. Kasimov G.M. i dr. Ekonomika Uzbekistana na sovremennom etape. -T: «Uzbekistan», 1998.
24. Butov V.I., Ignatov V.G., Ketova N.P. Osnovo' regionalnoy ekonomiki. Rostov-na Donu. 2000.
25. Vavilova YE.V. Ekonomicheskaya geografiya i regionalistika. -M, 2000.
26. Granberg A.G. Osnovo' regionalnoy ekonomiki. -M., 2000.
27. Grebsova YE. Ekonomicheskaya i sosialnaya geografiya Rossii. Rostov-Don. Veniks. 1997.
28. Lipes YU.G.,Pulyarkin V.A.,Shlixter S.B. Geografiya mirovogo xozyaystva. -M., 1999.

29. Miponenko N.S. Vvedeniye v geografiyu mirovogo xozyaystva. -M., 1995.
30. Regionalnaya ekonomika. Pod.red. M.V.Stepanova. - M.,2000.
31. Sepgeyev P.V. Mirovoye xozyaystvo i mejdunapodnuye ekonomicheskiye otnosheniya na sovremennom etape. - M.: Progress, 1998.
32. Sosialno-ekonomicheskaya geografiya zarubejnogo mira. Pod red. V.V. Volskogo. - M.: Kron-press, 1998.
33. Stpano' mipa. M.: Mo'sl, 1996.
34. Spiridonova I.A. Mirovaya ekonomika.Uch.posobiye - M.,2001.
35. TuxliyevN.,Taksanov A.Nasionalnaya ekonomicheskaya model Uzbekistana.-T.,2000
36. Rodionova I.A. Politicheskaya karta mira. -M.: 1996.
37. Uzbekistan v sifrax, -T.,2003
38. Ekonomicheskaya geografiya zarubejno'x stran. Pod red. Maksakovskogo. - M.: Mo'sl, 1998.
39. Eshmuxamedov A., Shibapshova L.I. Mipovaya ekonomika i MEO. Integpasiya v mipovuyu ekonomiku. - T.: TGEU, 1998.
40. Shishov S. S. Ekonomicheskaya geograyafiya i regionalistika. -M.,1998

M U N D A R I J A :

KIRISH…… 3

1-BO`LIM. «IQTISODIY GEOGRAFIYA»NING NAZARIY ASOSLARI…… 4

.

I bob. «IQTISODIY GEOGRAFIYA» KURSINING PREDMETI, USULLARI VA VAZIFALARI…… 4

1.1. «Iqtisodiy geografiya»ning predmeti, uning boshqa fanlar orasida tutgan o`rni……..… 4

1.2. «Iqtisodiy geografiya»ning nazariy asoslari, ilmiy kontseptsiyalari va uslublari……..… 5

1.3. «Iqtisodiy geografiya»ning rivojlanish tarixi……...……. 8

Qisqacha xulosalar……..……. 9

Nazorat va muhokama uchun savollar…….. 9

II bob. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA ISHLAB CHIQARISHNI JOYLASHTIRISH QONUNIYATLARI, SHAKLLARI VA OMILLARI…… 11

2.1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari……...….. 11

2.2. Ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy shakllari…….... 12

2.3. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning asosiy omillari……. 12

Qisqacha xulosalar…….…… 15
Nazorat va muhokama uchun savollar…….. 15
2-BO`LIM. JAHON IQTISODIY GEOGRAFIYASI…….. 16
III bob. HOZIRGI ZAMON DUNYO SIYOSIY XARITASI…….. 16
3.1. Dunyo siyosiy xaritasining ahamiyati va o`ziga xosligi…….. 16
3.2. Dunyo siyosiy xaritasi shakllanishining xususiyatlari va asosiy bosqichlari…..…… 18
3.3. Davlat tuzimi va davlat tuzilishi……. 30
Qisqacha xulosalar……..…… 34
Nazorat va muhokama uchun savollar……. 35
IV bob. DUNYO AHOLISI GEOGRAFIYASI…….. 36
4.1. Dunyo aholisining o`sishi……... 36
4.2. Dunyo aholisining zichligi va joylashuvi……...……. 36
4.3. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi……...…… 37
4.4.Aholining jinsiy, diniy va irqiy tarkibi……. 39
4.5. Mehnat resurslari va bandlik muammolari……..……. 39
Qisqacha xulosalar……..…… 41
Nazorat va muhokama uchun savollar……. 41

V bob. JAXON XO`JALIGI GEOGRAFIYASI…… 42
5.1. Dunyo xo`jaligining umumiy ta'rifi……..…… 42
5.2.Fan-texnika inqilobi va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish…….…….. 49
5.3. Moddiy ishlab chiqarishning tarmoq tizimida yuz berayotgan siljishlar va dunyo iqtisodiyotining uch turi - bosqichi……. 56
5.4.Dunyo iqtisodiyotida fan-texnika taraqqiyoti natijasida paydo bo`lgan yangi xo`jalik turlari…….. 58
5.5. Dunyo xo`jaligining geografik modeli……..……... 59
5.6. Dunyo xo`jaligi va regional siyosat……..… 60
Qisqacha xulosalar……..…… 64
Nazorat va muhokama uchun savollar…… 64
VI bob. DUNYO SANOATI VA UNING TARMOQLARI GEOGRAFIYASI…….. 65
6.1.Sanoat rivojlanishining umumiy xususiyatlari……..……. 65
6.2. Dunyo yoqilg`i – energetika sanoati…… 66
6.3. Dunyo elektro-energetika sanoati……..…. 73
6.4. Dunyo metallurgiya sanoati…….…….. 78
6.5. Dunyo mashinasozlik sanoati…….…… 84
6.6. Dunyo kimyo 90

sanoati……..
6.7. Dunyoning o`rmon va yog`ochni qayta ishlash sanoati…….. 94
6.8. Dunyo engil sanoati…….…… 79
Qisqacha xulosalar……..… 99
Nazorat va muhokama uchun savollar…… 100
VII bob. JAHON QISHLOQ XO`JALIK GEOGRAFIYASI…… 101
7.1. Jahon qishloq xo`jaligining umumiy ta'rifi……. 101
7.2. Jahon o`simlikshunosligi…….……. 105
7.3. Jahon chorvachiligi geografiyasi……..…… 113
7.4 Dunyoda baliq ovlash va baliqchilik……. 116
Qisqacha xulosalar……..… 119
Nazorat va muhokama uchun savollar…… 119
VIII bob. DUNYO TRANSPORTI GEOGRAFIYASI…… 120
8.1. Quruqlik transporti……...…….. 120
8.2. Suv transporti……...……. 121
8.3. Havo transporti……. 134
Qisqacha xulosalar……..… 136
Nazorat va muhokama uchun savollar…… 136
IX bob. AMERIKA QO`SHMA SHTATLARINING IQTISODIY-GEOGRAFIK TAVSIFI…… 137
9.1. Geografik joylanishi……..…….. 137

9.2. Davlat tuzumi……. 137
9.3. Xo`jaligining umumiy tavsifi……..…… 139
9.4. AQSHning ichki tafovutlari……..……. 143
9.5. Tashqi iqtisodiy aloqalari……. 144
Qisqacha xulosalar……..… 144
Nazorat va muhokama uchun savollar……. 144
X bob.YAPONIYANING IQTISODIY-GEOGRAFIK TAVSIFI…….. 145
10.1. Rivojlanish xususiyatlari……..…….. 145
10.2. Geografik joylashishi, tabiiy sharoiti va boyliklari……. 147
10.3. Aholisi va uning joylashishi……. 149
10.4. Davlat tuzimi…… 150
10.5. Xo`jaligining umumiy ta'rifi……..……... 151
10.6. Iqtisodiy-geografik tafovutlari……...……. 156
10.7. Yaponiya va O`zbekiston o`rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi…….. 157
Qisqacha xulosalar……..… 160
Nazorat va muhokama uchun savollar……. 160
XI bob. GERMANIYANING IQTISODIY GEOGRAFIK TAVSIFI…… 161
11.1. Iqtisodiy-geografik o`rni va jahonda tutgan 161

o`rni……..
11.2. Germaniyaning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari…….. 162
11.3. Aholisining joylashuvi, mehnatda bandligi……. 162
11.4. Xo`jaligining umumiy ta'rifi……..…….. 163
11.5. Sanoati va uning joylashishi……..…….. 164
11.6. Transporti……. 164
11.7. Tashqi iqtisodiy aloqalari..…….. 165
Qisqacha xulosalar…….. 165
Nazorat va muhokama uchun savollar……. 166
XII bob. ROSSIYANING IQTISODIY-GEOGRAFIK TAVSIFI…….. 167
Qisqacha xulosalar……..…… 170
Nazorat va muhokama uchun savollar…….. 170
Asosiy adabiyotlar……..…… 170
3-BO`LIM. O`ZBEKISTON IQTISODIY GEOGRAFIYASI 171
XIII bob. O`ZBEKISTONNING GEOGRAFIK O`RNI. MA'MURIY-HUDUDIY BO`LINISHI……..
13.1. Geografik o`rni……. 171
13.2. Tashkil topishi va ma'muriy hududiy bo`linishi…….……. 172
13.3. Mamlakatning tabiiy resurslari va ularni ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish jihatidan baholash……..…. 175
.

Qisqacha xulosalar……..…… 186
Nazorat va muhokama uchun savollar…….…….. 186
XIV bob. O`ZBEKISTON AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI…… 187
14.1. Aholi dinamikasi……..... 187
14.2. Aholining jinsiy va yosh tarkibi…….. 190
14.3. Aholining milliy tarkibi……. 192
14.4. Shahar va qishloq aholisi…….. 193
14.5. Aholining ijtimoiy tarkibi……. 193
14.6. Mehnat resurslari…… 195
Qisqacha xulosalar……. 197
Nazorat va muhokama uchun savollar…… 197
XV bob. O`ZBEKISTON IQTISODIYOT TARMOQLARI GEOGRAFIYASI…… 198
15.1. Umumiy ta'rif…….. 198
15.2.Sanoat va uning etakchi tarmoqlari…… 202
15.3. Yoqilg`i-energetika majmui……. 205
15.4. Me tallurgiya majmui……. 213
15.5. Mashinasozlik majmui……... 217

15.6. Kimyo sanoati…….. 224
15.7. Qurilish mate riallari sanoati…… 226
15.8. E ngil sanoat……..... 227
15.9. Oziq-ovqat sanoati……. 231
Qisqacha xulosalar…….. 235
Nazorat va muhokama uchun savollar…… 235
XVI bob. QISHLOQ XO`JALIGI…… 237
16.1. Qishloq xo`jaligini re spublika iqtisodiyotida tutgan o`rni…… 237
16.2. E r fondi…… 240
16.3. De hqonchilik…….. 241
16.4. Chorvachilik……. 247
Qisqacha xulosalar……... 250
Nazorat va muhokama uchun savollar…… 250
XVII bob. O`ZBE KISTON RE SPUBLIKASI TRANSPORT GE OGRAFIYASI…….. 251
17.1. Avtomobil transporti…….. 251
17.2. Havo transporti……... 252
17.3. Suv transporti……. 253

17.4. Quvur transporti……. 254
Qisqacha xulosalar…….. 255
Nazorat va muhokama uchun savollar…… 255
XVIII bob. O`ZBE KISTONNING TASHQI IQTISODIY ALOQALAR GE OGRAFIYASI…… 256
18.1. Tashqi iqtisoliy aloqalarning iqtisodiy-ge ografik xususiyatlari……..……. 256
Qisqacha xulosalar…….. 260
Nazorat va muhokama uchun savollar…… 260
ADABIYOTLAR RO`YXATI…… 260

Q A Y D L A R U C H U N

Q A Y D L A R U C H U N
